

O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktablarida «O'zbek tili»ni o'qitish sohasida yuz bergan yangiliklar va o'zgarishlar hisobga olingan holda, mazkur fanni o'qitishning metodik jihatlari bayon qilingan. Shu bilan birga, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari yoritib berilgan.

Har bir fan tajriba va izlanishlar asosida rivojlanib borgan kabi O'zbek tilini o'qitish metodikasi ham ilg'or tajribalar, turtli fikr-mulohazalar asosida taraqqiy etib boradi. Maktabda ona tili o'qitish usullariga doir barcha masalalarni birgina ishda qamrab olish qiyin bo'lgani uchun o'qituvchilar maktabda ona tilini o'qitishga ijodiy yondashib, sinfdagi mavjud sharoit va holatni hisobga olgan holda, bayon etilgan fikrlarni to'ldirib boradilar, degan umiddamiz.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan.

A. G'ULOMOV, Buxoro davlat universiteti sobiq professori, pedagogika fanlari doktori;

R. R. SAYFULLAYEVA, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti professori, filologiya fanlari doktori;

M. S. ERNAZAROVA, Navoiy davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori.



Globe
EDIT

O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI

A. G'ULOMOV, R. SAYFULLAYEVA, M. ERNAZAROVA

Globe
EDIT



A. G'ULOMOV · R. SAYFULLAYEVA · M. ERNAZAROVA

O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI

Universitet va pedagogika institutlarining filologiya
fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma

**A. G'ULOMOV
R. SAYFULLAYEVA
M. ERNAZAROVA**

O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**A. G'ULOMOV
R. SAYFULLAYEVA
M. ERNAZAROVA**

O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI

**Universitet va pedagogika institutlarining
filologiya fakulteti talabalari uchun o'quv
qo'llanma**

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom

Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-6-17383-0

Copyright © A. G'ULOMOV, R. SAYFULLAYEVA, M. ERNAZAROVA

Copyright © 2023 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**A.G‘ULOMOV, R.SAYFULLAYEVA, M.ERNAZAROVA,
A.BOBOMURODOVA, N.ALAVUTDINOVA**

**O‘ZBEK TILINI O‘QITISH
METODIKASI**

*(Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma)*

NAVOIY – 2023

A.G'ulomov, R.Sayfullayeva, M.Ernazarova, va boshq. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. –T.: 2023, 378 bet.

O'quv qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktablarida «O'zbek tili»ni o'qitish sohasida yuz bergan yangiliklar va o'zgarishlar hisobga olingan holda, mazkur fanni o'qitishning metodik jihatlari bayon qilingan. Shu bilan birga, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari yoritib berilgan.

Har bir fan tajriba va izlanishlar asosida rivojlanib borgani kabi O'zbek tilini o'qitish metodikasi ham ilg'or tajribalar, turli fikr-mulohazalar asosida taraqqiy etib boradi. Maktabda ona tili o'qitish usullariga doir barcha masalalarni birgina ishda qamrab olish qiyin bo'lgani uchun o'qituvchilar maktabda ona tilini o'qitishga ijodiy yondashib, sinfdagi mavjud sharoit va holatni hisobga olgan holda, bayon etilgan fikrlarni to'ldirib boradilar, degan umiddamiz.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: M.ABUZALOVA – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: A.HAMROYEV – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.

M.SUYUNOV – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

2023.

BIRINCHI BO'LIM O'ZBEK TILINI O'QITISHNING UMUMIY ASOSLARI

ONA TILI TA'LIMI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ME'YORIY ASOSLARI

Tayanch tushunchalar:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Davlat tili to'g'risida»gi va «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli farmoni, Ona tilini o'qitish konsepsiyasi, davlat ta'lim standartlari.

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalardagi keng ko'lamli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta'limning barcha bo'g'inlarida ona tili o'qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan bo'lib, unda ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limining majburiyligi; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari (DTS) doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish o'z ifodasini topgan.

Maktabda ona tilining o'qitilishi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda belgilangan ana shu prinsiplarga tayanadi. Modomiki, maktab ta'limida ona tili eng asosiy va

yetakchi o'quv fanlaridan biri ekan, oliy ta'limning bakalavr tizimida «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» ham xuddi shunday mavqega ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ta'lim va tarbiya jarayonlarining asosiy qonun hujjatidir. O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalari sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qildi". O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili bo'lib, o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi Konstitutsiyamizning 4-moddasida huquqiy norma sifatida muhrlab qo'yilganini alohida ta'kidlash lozim.

1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi.

Shuningdek, 1990-yili Vazirlar Mahkamasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonunni amalga oshirish "Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori, 1993-yilda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun, 1995-yili "Davlat tili haqida"gi Qonunning yangi tahriri, 1996-yili ushbu Qonunni amalga oshirishga qaratilgan Davlat dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasining qarori kabi hujjatlar qabul qilingani muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu sohada yaratilgan normativ-huquqiy baza o'zbek tili bilan birga, mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning o'z ona tilini rivojlantirish va uni erkin qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanishni kafolatlab kelayotgani alohida e'tiborga sazovordir.

Respublikamizni har tomonlama rivojlantirish va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-sentabr kuni bo'lib o'tgan XII chaqiriq XIII sessiyasida Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonun qabul qilindi va imlo qoidalarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tuzildi.

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini ishlab chiqish jarayonida ayrim fikr mulohazalar tug'ildi, shuningdek, yozuv jarayonida texnika vositalaridan kengroq foydalanish, harflar shaklini jahondagi taraqqiy etgan davlatlar alifbosiga yaqinlashtirish maqsadida alifbodagi ayrim harflar shaklini isloh qilish zarurati paydo bo'ldi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi qarori bilan Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi Oliy Kengash qaroriga o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlandi. Asosiy qoidalar Asosiy qoidalar "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Qo'shib yozish", "Ajrati yozish", "Chiziqcha bilan yozish", "Bosh harflar imlosi" va "Ko'chirish qoidalari" kabi bo'limlaridagi 82 moddadan tashkil topgan.

Ma'lumki, 2005-yilning 1-sentabridan boshlab barcha o'rta, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, korxonalar va tashkilotlar lotin alifbosi asosida ish yuritishga o'tdi. Bu yozuv kelajagi buyuk mamlakatimiz ravnaqi, farzandlarimiz kamoli uchun xizmat qiluvchi eng mukammal yozuv bo'lib qoladi.

Bugungi kunda Ozbekistonimiz «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» bosh tamoyili asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi PF-4797-sonli Farmoni, 2019-yil 4-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risidagi PQ-4479-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi O'zbek tilining davlat tili

sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5850-sonli Farmoni hamda shu farmon asosida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni hamda 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonlari amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzini tobora oshib borayotganligini ko'rsatdi.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo'li ta'lim tizimini tinmay takomillashtirib borish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir.

Til o'qitishda til va nutq hodisalarning farqiga yetmaslik ko'pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash o'qitish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki til birliklarining grammatik belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o'zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo'lganligi sababli, mashg'ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o'quvchilarning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Hozirgi dolzarb masalalardan biri o'zbek tilining kasb-hunar, ilm-fan va texnika tili sifatidagi lisoniy asosini kengaytirish, atamalarini boyitishdir. Keyingi yillarda bu sohada tub burilish yuz berdi: tilimizning kasb-hunar va ilmiy-texnika tili va atamalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Adabiy tilimizdagi mazkur yangilik va o'zgarishlarning asoslarini o'quvchi to'g'ri anglashini maqsad qilib, unga dastur va darsliklarda alohida o'rinlar ajratildi.

«Ona tili» darslarida uzundan-uzoq, murakkab grammatik qoidalarni, «O'zbek adabiyoti» darslarida ijodkor hayotidagi o'tkinchi sana va voqealarni yodlashga majbur qilmasdan, balki ona tilida ravon so'zlash, o'z fikrini to'g'ri ifodalay olish,

mustaqil fikrlash, badiiy asarni ifodali o'qish, uning ruhini his qilish, badiiy san'atdan lazzatlanish, so'zdan zavqlanish ruhida ta'lim bermoq lozim. Ona tili va adabiyot o'qitishdan kutilgan pirovard natija – shu!

Shunday qilib, ona tili o'qitishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan uni adabiyot bilan bog'lab olib borishga bog'liq. Aslida, ona tili adabiyot darslarida ham o'rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba'zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyati, sinonimlarning nutqda tutgan o'rni izohlanadi va hokazo; o'quvchilar tilning turli ifoda vositalari bilan tanishib boradilar. Badiiy asar tili bo'yicha muayyan bir izchillikda olib boriladigan ishlar o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi. Adabiy asarning tasviriy vositalari bo'yicha sinfda va undan tashqari bajarilgan ishlar natijasida o'quvchilar so'z haqida, uning turli nutq uslubidagi o'rni haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar. Xilma-xil ifoda jilolari tilning estetik ta'siri va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ona tili o'rta maktab, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'rganiladigan barcha fanlarni puxta o'zlashtirish uchun muhim «kalit» sanaladi. Til vositasida o'quvchi boshqa fanlarni o'rganadi. Barcha fanlar yuzasidan fikrni yozma va og'zaki ravishda bayon qilish orqali u o'z ona tiliga oid bilimlarini mukammallashtirib boradi.

Ma'lumki, pedagogika institutlari va universitetlarning filologiya fakultetlari bakalavriyatini bitirib chiqadigan mutaxassislarining asosiy qismi o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablariga boradi. Shu bois, bo'lajak mutaxassislar uchun «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani asosiy fanlardan biri bo'lib, uning oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi muhim zaruriyatdir.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanining oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi maktabda ona tili fanining tutgan o'rni bilan ham belgilanadi. «Ona tili» maktab ta'limi tizimida eng yetakchi fanlardan biri bo'lib, jamiyat a'zolarini ijodiy fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda bayon qilishga o'rgatadi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» pedagogik sikldagi fanlardan biri bo'lib, u didaktika bilan uzviy bog'langan va xususiy didaktika sikldagi fanlardan biri

sanaladi. Chunki umumiy didaktikaning barcha masalalari bevosita xususiy didaktika, shu jumladan, ona tili ta'limi bilan bevosita aloqadordir. Ta'limning umumdidaktik asoslaridan xabardor bo'lgan talaba «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanini osonlik bilan o'zlashtiradi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» o'ziga xos mustaqil fan sanaladi. Bu fanni o'rganish jarayonida maktabda ona tili fanini o'qitish bilan bog'liq bo'lgan «Ona tili nima uchun o'qitiladi?», «Nega shunday o'qitiladi?», «Nima o'qitiladi?», «Qanday o'qitiladi?», «Ona tili ta'limi qanday tashkiliy shakllar vositasida amalga oshiriladi?» degan savollarga javob izlaydi.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ta'lim va tarbiya jarayoniga oid fikrlarni asoslab bering.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini aytib bering.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ning ona tili ta'limida tutgan o'rni haqida gapiring.
4. «Davlat tili to'g'risida»gi Qonun va «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunlarning mohiyatini izohlab bering.
5. Ona tilini o'qitish konsepsiyasining mazmun mohiyatini asoslab bering.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli Farmoni hamda 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-sonli Farmonining ona tili ta'limi oldiga qo'ygan vazifalarini aytib bering.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, Xalq so'zi gazetasi, 1992, 243(494) son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi PF-4797-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi PQ-4479-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5850-sonli Farmoni.
5. Barkamol avlod orzusi (tuzuvchilar: Qurbonov Sh., Saidov H., Ahliddinov R.) Toshkent, «Sharq», 1999, 184.
6. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1998, 63.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997.
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 2020.
9. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent, 1997.
10. O'zbek maktablarida ona tili konsepsiyasi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. 1994, 1–2-qi'sm son.
11. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. Toshkent, 2017.

O‘ZBEK TILI O‘QITISH METODIKASI MUSTAQIL FAN SIFATIDA

Tayanch tushunchalar:

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanining obyekti, predmeti, zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimi, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi fanining shakllanishi, «Usuli savtiya» maktabi, ifodali o‘qish, «izohli o‘quv» ta‘limi, dastur, darslik, o‘quv – uslubiy qo‘llanmalar, pedagogik eksperiment, diagnostik tahlil, suhbat, kuzatish, o‘quvchilarning og‘zaki javoblari va yozma ishlarini tahlil qilish, ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, kasbiy tayyorgarlik, umumpedagogik yo‘nalish, xususiy - metodik yo‘nalish, metodbirlashma, o‘qituvchining darsga tayyorgarligi.

«O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. «O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» pedagogik sikldagi fan sifatida o‘zining ilmiy tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalariga ega.

Ona tili ta‘limining samaradorligini oshirish, o‘quvchini ta‘lim jarayonining subyektiga aylantirish, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bilishning qulay yo‘llarini aniqlash, ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish singarilar bu fanning ilmiy tadqiqot obyektidir.

«O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining predmeti esa maktabda ona tili o‘qitish jarayonidir. Bu jarayon:

- a) ona tilidan o‘quvchilarga beriladigan zaruriy bilimlar silsilasi;
- b) shu bilimlarga muvofiq keladigan ko‘nikma va malakalar tizimi;
- v) ijodiy faoliyat usullari;
- g) o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga qamrab oladi.

Ona tilidan zaruriy bilimlar silsilasi bu bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan va o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan til materiallari–tushunchalar, qoidalar, ta‘riflar, o‘quv topshiriqlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Zaruriy malaka va ko‘nikmalar tizimi deganda egallangan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga qaratilgan harakat va bu harakatlarning odatga aylanishi tushuniladi.

Ijodiy faoliyat usullari til hodisalarini guruhlash, ularni qiyoslash asosida o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish kabilarni o'z ichiga qamrab oladi.

O'qituvchi faoliyati til materiallarini tanlash va uni o'quvchiga berish usullaridan tortib, ularning o'quv mehnatini tashkil etish, egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni baholashga qadar bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi.

O'quvchi faoliyati deyilganda egallangan bilimlarni ularga tanish va notanish sharoitlarda qo'llash, shu asosda malaka va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan harakatlar yig'indisi tushuniladi.

Ona tili ta'limi jarayonida bilim oluvchi (o'quvchi) va bilim beruvchi (o'qituvchi) faoliyatlari o'zaro qo'shilib, bir butunlik hosil qiladi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani o'zbek filologiyasi bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Ona tili» o'quv fanidan dars beradigan o'qituvchilarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bo'lajak o'qituvchilarda «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani bo'yicha tayanch, bazaviy bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilinadi.

Oliy o'quv yurtlarining yuqorida tilga olingan har ikki ixtisosligida «O'zbek tilini o'qitish metodikasi»ni o'rganishning zaruriyati maktab ta'lim tizimida ona tili fanining tutgan o'rni bilan belgilanadi. Modomiki, umumiy o'rta ta'lim tizimida «Ona tili» o'quv fani sifatida asosiy va markaziy o'rinni egallar ekan, o'z-o'zidan ravshanki, malakali ona tili o'qituvchilarini tayyorlash hayotiy zaruriyatdir.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» kursi quyidagi vazifalarni o'z zimmasiga oladi:

- talabalarni o'zbek tilini o'qitish metodikasining tarixi bilan tanishtirish;
- «Ona tili» dasturlari va darsliklarining tarixiy taraqqiyot yo'li xususida ma'lumot berish;
- O'zbekiston mustaqilligi sharoitida maktab ona tili ta'limining maqsadi, mazmuni va usulini yangilash bilan bog'liq bo'lgan masalalar yuzasidan bo'lajak o'qituvchilarni xabardor qilish;

- ona tili ta'limi o'quvchilarda mustaqillik, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish asosi ekanligini tushuntirish;

- ona tilining har bir sathi doirasida o'quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, egallanadigan malaka va ko'nikmalar majmuasi bilan tanishtirish;

- o'quvchini dars jarayonining subyektiga aylantiradigan eng qulay va samarali yo'llaridan foydalanishga o'rgatish;

- ona tilidan olingan bilim, hosil qilingan malaka va ko'nikmalarning natijasini reyting tizimida baholash yo'llarini o'rgatish;

- ona tilidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tizimi bilan tanishtirish.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi»ning fan sifatida shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli. Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy to'siqlarga qaramay, O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ilg'or fikr egalarini, dunyoga mashhur buyuk olim, shoir va san'at ahllarini yetkazdi, insoniyatga ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohasida o'lmas yodgorliklar taqdim etdi.

Abu Nasr Forobiy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis Xorazmiy kabi olim va shoirlar o'z asarlarida o'sha davr maktablaridagi ta'lim - tarbiya, ilmiy va badiiy asarlarni o'qish va o'rganish haqida fikrlar bildirib, metodik fikrning rivojiga ta'sir ko'rsatdilar.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy yoshlarning asar matnini ifodali o'qish san'atini egallashlariga diqqatni tortdi. Ulug' shoir o'zining «Lison ut-tayr» asarida asar mazmunini tushunib o'qish usulini egallashga chaqirdi. «Mahbub ul-qulub» asarida «Xushnavis kotib so'zga oroyish berur va so'zlaguvchiga osoyish yetkurur» deb chiroyli yozishning va yozma nutq malakasini egallashning barchaga «osoyish» berishini ta'kidladi. «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida talaffuz va imlo, so'z qudrati va nutq madaniyati, so'z ma'nolaridan to'g'ri foydalanish, nutqni to'g'ri tuzish kabi masalalarning ilmiy sharhini berish bilan turkiy (o'zbek) tilni chuqur o'zlashtirish metodikasiga ulkan hissa qo'shdi.

Inson qalbining quvonchi-yu qaygʻusini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuygʻusi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik koʻp bahramand etsak, milliy maʼnaviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli maʼrifiy qurolga ega boʻlamiz.¹

Zahiriddin Muhammad Bobur oʻz asarlarini sodda tilda yozdi va boshqalarni ham shunga chaqirdi. Oʻgʻli Humoyunning dabdabali usulda yozilgan bir xatini tanqid qilib, «Boburnoma» asarida «Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq boʻlur, ham oʻqigʻuvchigʻa»,—deb yozadi. Demak, Bobur zamondoshlarini tushunarli tilda yozishga, qiyin soʻzlar va balandparvoz soʻzlarni ishlatmaslikka daʼvat etgan.

Munis Xorazmiyning «Savodi taʼlim»i nazm bilan yozilgan pedagogik asar boʻlib, chiroyli xat yozish usullari oʻrgatiladi. Asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli asboblarni toʻgʻrisida soʻz yuritiladi. Ikkinchi qismida esa xat mashqi va uning usullari haqida amaliy yoʻl bilan taʼlim beriladi. Asarda kishilik jamiyatida yozuvning katta ahamiyatga ega ekanligi qayd qilinadi.

XV asrdan XIX asrning 2-yarmigacha oʻtgan davrda Oʻrta Osiyoda pedagogik, metodik fikr oʻsdi. Bu davrda oʻnga yaqin lugʻatlar va tilshunoslik asarlari (Tali Imoniyning «Badoe al-lugʻat»i (XV asr), Muhib Ali Shamluning «Lugʻati Navoiy»i (XVI asr), Mustafobinni Sodiqning «Abushqa»si (XVI asr), Fazlulloxonning «Lugʻati turkiy»i (XVIII asr), Mirza Mexdixonning «Sangloh»i (XVIII asr), Fatx Alixonning «Kitobi lugʻati atrokiya»si (XIX asr) yuzaga keldi. Ularda tovush va harf, imlo va talaffuz, soʻz maʼnosi va tarjima kabi masalalarni oʻzlashtirishga qaratilgan metodik fikrlar mavjud.

XIX asrning 2-yarmida yashab ijod etgan Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Avaz Oʻtar va boshqalarning asarlarida ifodalangan ilgʻor fikrlar

¹ Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. T.: «Maʼnaviyat», 2008, 47–48-b.

ma'rifatparvar pedagoglar Saidrasul Saidazizov, Is'hoqxon Ibrat, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Ismatulla Rahmatullayev va boshqalar faoliyatida ham o'z ifodasini topdi. Ular yangi usul– «Usuli savtiya» maktablarini tashkil etib, keng xalq ommasiga ilm-fan, madaniyat tarqatish uchun qizg'in kurash boshladilar.

XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy - siyosiy, madaniy va adabiy hayotda jiddiy o'zgarish yuz berdi, milliy uyg'onish harakati kuchaydi, yangi adabiyot yuzaga keldi. Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Cho'lpon kabi shoir va yozuvchilar o'zbek xalqining ma'rifatlil bo'lishi, milliy va ijtimoiy ongning o'sishi, yangi tur va mazmundagi adabiyotni yaratish uchun harakat qildilar.

Behbudiy «Padarkush» asarida va sayohat xotiralarida milliy, insoniy qadriyatni anglash uchun ma'rifatlil bo'lish lozimligini; ma'rifat–ezgulikning, jaholat–yovuzlikning timsoli ekanini tasvirladi.

Abdulla Avloniy «Maktab va guliston» darsligida adabiy asarlarni ifodali o'qishning yakka va ko'pchilik bo'lib o'qish, ifodali o'qish, dialog, drama holiga keltirish turlarini ko'rsatdi.

Avloniy «Adabiyot» kitobining I juz'ida bolalarni aruz vaznida yozilgan she'rlar bilan tanishtiradi. Masalan, «bo'lak» radifli she'rni o'rganishdan oldin bolalar uning mazmuni bilan tanishadilar, so'ngra «foilotun, foilotun, foilun» bahrini o'qishni o'rganadilar. II juz'ida ham aruz vaznida yozilgan she'rlarni o'qish yo'llarini ko'rsatdi.

Ma'lumki, bolalarga ifodali o'qishni o'rgatish – o'qish darsining asosi hisoblanadi. Ifodali o'qishni o'rganish matnni chuqur tushunishga yordam beradi. Shunga ko'ra, yangi usul maktab o'quvchilari savod chiqarishda asarni tushunib o'qishga va ifodali o'qishga alohida e'tibor berganlar.

Ifodali o'qishning muhim shakllaridan biri drama holiga keltirib o'qishdir. Abdulla Avloniyning «Oila munozarasi» she'rida ota bilan ona o'z farzandlarini o'qitish haqida munozara qiladilar.

Abdulla Avloniy maktabda badiiy asarni chuqur o'zlashtirishga erishish maqsadida darsda plastinkadan foydalanadi. Uning ifodali o'qish sohasida qo'llagan

usullari, dars jarayonida texnika vositalaridan foydalanishi eski maktablarda ham til va adabiyot o'qitish usuli sohasida yangilik edi.

Hamza Hakimzoda 1911-yili Qo'qonda Hojibek guzarida yangi usul maktabi ochdi va o'zi o'qituvchilik qildi. U 1914–1915-yillarda boshlang'ich maktablar uchun «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi»ni yozdi. Eng muhimi, Hamza o'z kitoblarini osondan murakkabga o'tish asosida tuzdi. Boshlang'ich sinflar uchun yozgan bu kitoblarida Hamza ifodali o'qish, matn ustida mustaqil ishlash, sinfdan tashqari o'qishga e'tibor berdi.

Bu davrda ilg'or fikrli ziyolilar – muallimlar Turkiston maktablarida ta'limning yangi tartibini amalga oshirish uchun kurashdilar. Natijada, ta'limda yangi turdagi «usuli savtiya» maktablari yuzaga keldi. Bu maktablarda ona tili (o'zbek tili) asosiy o'quv fani sifatida o'qitildi, ta'lim jarayonida izohlash (sharhlash) usulidan foydalanildi, o'quvchining bilimni o'zlashtirishiga, matni yod olishiga e'tibor berildi. Shunga ko'ra, bu ta'lim «izohli o'quv» ta'limi degan nomni oldi.

Izohli o'qish jarayoni qismlari o'zining tuzilishiga ko'ra shunday xususiyatga ega edi: kirish mashg'ulotida o'quvchilarga bilim tayyor holda emas, balki ma'nosi yoritilgan, sharhlangan, isbotlangan holda beriladi, bilim berishda ko'rgazmalilikdan foydalaniladi. Ta'limda bu usulni qo'llash o'quvchida xotira bilan birga, kuzatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

1918-yilda Toshkent eski shahar maorif sho'basida «Makotib» (metodik birlashma) uyushmasi tashkil etildi va unga Zufar Nosiriy rahbarlik qildi. Shokirjon Rahimiy, Abdulla Avloniy, Shorasul Zunnun, Qayum Ramazon, To'xtanazir Shermuhamedov va boshqa tajribali o'qituvchi – metodistlar ona tili va adabiyotni o'qitish usullari yuzasidan ko'rsatmalar berib turishdi. Shuningdek, bu sho'bada haftalik o'quv rejasi tuzilib, maktablarda shu reja asosida dars o'tildi.

1918-yilda «Maorif» jurnalida V–VII sinflar uchun ona tili va adabiyot dasturi e'lon qilindi. Dasturda badiiy asarni o'qishga e'tibor berildi, bolalarning bilim darajasi va yoshiga qarab asarlar tanlash talab etildi. Dasturda o'qilgan asarning rejasini tuzish, o'z tarjimaiy holini og'zaki yoxud yozma ravishda bayon qilish, rasm

mazmunini ogʻzaki yoxud yozma ravishda bayon qilish, oʻqigan asari mazmunini yozib berish tavsiya etildi.

1920-yilda Toshkent eski shahar maorif shoʻbasining «maktablar boʻlakchasi» «Birinchi bosqich el yozoqlarining 1920 – 1921-oʻquv yili uchun saboq tuzugi (mavzui)» I – V sinflar uchun ona tili va adabiyotdan dastur ishlab chiqadi. Bu dasturda asosiy eʼtibor oʻ**quvchilarni mehnat ahli qilib yetishtirishga** qaratiladi va kirish qismida mavzularni sinf sharoitiga qarab oʻtish, koʻrgazmali qurollardan foydalanish haqida koʻrsatma beriladi.

1922-yilda «Oʻzbek bilim yurtlari uchun ona tili va adabiyot dasturi»ning tuzilishi maktablar hayotida muhim voqea boʻldi. Bu dastur 1923-yilda «Bilim oʻchogʻi» jurnalining 2 – 3 - sonlarida eʼlon qilindi.

Dastur quyidagi boʻlimlardan tashkil topdi:

I. Hozirlik. 1.Adabiy oʻqish va soʻzlash. 2.Yozuv ishlari. 3.Nahv.

II. Hozirlik. 1.Adabiy oʻqish va soʻzlash. 2.Tahrir. 3. Sarf, nahv.

Dasturda materiallar kurslar boʻyicha quyidagicha taqsimlandi:

I. Asos, yaʼni kurs. 1. Adabiy tekshirish. 2.Tahrir.

II. Asos. 1.Sanʼat asarlari. 2.Umuman, sanʼat asarlariga va, xususan, sheʼriy asarlarga tarixiy jihatdan qarash. 3. Asl adabiyot tarixiga hozirlik maʼlumoti. 4. Yozuv, alifbo, yozuvning qanday tugʻilishi.

1924-yildan 1929-yilgacha oʻtgan davr ichida jumhuriyatdagi iqtisodiy va madaniy qurilishda, xalq maʼorifi sohasida, til, adabiyot va adabiyotshunoslikda erishilgan yutuqlar maktab taʼlim - tarbiya ishlariga, maktab taʼlimi mazmuniga, til va adabiyot oʻqitish metodikasi rivojiga taʼsir etdi, metodik ishlarning yuzaga kelishini taʼminladi.

20-yillarda til, adabiyot va adabiyotshunoslikda kadrlar safi oʻsib borgani kabi, til va adabiyot metodikasi sohasi ham yosh kuchlar–Murod Shams, Toʻxtanazir Shermuhamedov, Olim Sharafutdinov, Usmon Dadamuhamedov, Xalil Qayumov, Subutoy Dolimov, Qayum Hakimov va boshqa oʻqituvchilar hisobiga oʻsib bordi. Bu ilgʻor oʻqituvchilar mavjud dastur va darsliklarga ijodiy yondashgan holda

maktabda turli janrdagi asarlarni o'quvchilarga o'qitish orqali yangi metodikani yangi usullar bilan boyitib bordilar.

30-yillarning birinchi yarmida maktabda til va adabiyot o'qitish bilan shug'ullanayotgan metodistlar, ilg'or o'qituvchilar, adabiyotshunolar, tarbiya nazariyasi bilan shug'ullanuvchi olimlar ilmiy-metodik ishlarni yaxshilash, barqaror dastur va darsliklar yaratishga kirishdilar. Natijada, 30-yillarda to'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun til va adabiyot dasturlari yaratildi, shahar va tumanlarda muallimlar uyushmalari tashkil qilindi, uyushma a'zolari o'quvchilarning tajribalarini o'rganib, ommalashtirishga kirishdilar,

1938-yilda nashr etilgan «To'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun programmalar» da adabiy asarni o'qish masalasi birinchi o'rinda turdi. Shu munosabat bilan V–VII sinf o'quvchilarida badiiy asarni o'qishga havas uyg'otish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

1940-yilda tuzilgan «O'rta maktab programmalarida» o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berildi, asarni ifodali o'qish, savol va topshiriq hamda mashqlar asosida asarning g'oyaviy mazmunini puxta o'zlashtirish tavsiya etildi. Sinflar bo'yicha o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos asarlar tanlandi, ularni joylashtirishda didaktika talablariga rioya qilindi.

Ona tili ta'limining samarali usullarini izlab topish tarixi garchand uzoq o'tmishlarga borib taqalsa-da, ammo «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fan sifatida XX asrning 30-yillaridan boshlab pedagogika bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida o'qitila boshlangandan keyin shakllandi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fan sifatida shakllangach, dastur, darslik va shu yo'nalishda o'quv - metodik qo'llanmalar yaratishga ehtiyoj ortdi.

Dastlab S.A.Fessaloniskiyning «Ona tili metodikasi» (1940-yil) talabalar uchun o'quv qo'llanmasi sifatida nashr etilgan. Mazkur qo'llanmada o'quvchilar nutqini o'stirish masalalariga katta e'tibor berilgan. Kitobda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, badiiy asarlardan olingan matnlar ustida ishlash, insho yozish malakalarini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratilgan.

M.Shams «Orfografiya o'qitish metodikasi» (1944), K.Xayrullayev «Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish» (1944) mavzularida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi.

Respublikamizda 50-yillardan keyin maktablarda ona tili o'qitish masalalariga oid bir qator ishlar e'lon qilindi va qo'llanmalar yaratildi. O'zbek tilini o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshladi, umumiy pedagogik, didaktik va psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari O'zbek tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon berdi. Jumladan, M.Shamsning «O'zbek tili o'qituv metodikasi» (1950), F.Kamolning «O'zbek tili o'qitish metodikasi» (1952), H.Rustamovning «Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi» (1960), N.Abdurahmonovning «O'zbek tili o'qitish metodikasi» (1969), Yo.G'ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov va B.Mirzaahmedovlarning «O'zbek tili o'qitish metodikasi» (1975) darsliklari shular jumlasidandir. Bu ishlarda garchand so'zlarni turkumlarga ajratish, orfografiya va punktuatsiyani o'qitishni til bilimlari bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirish borasida ijobiy fikr-mulohazalar bayon etilgan bo'lsa-da, ammo orfografik va punktuatsion malakalarni takomillashtirish maqsadida qanday mashqlar tizimidan foydalanish, ayniqsa, o'quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirishda qo'l keladigan ijodiy-amaliy ishlar borasida aniq yo'nalish belgilanmagan. Shuningdek, mazkur ishlarda foydalanish uchun tavsiya etiladigan topshiriqlarning asosiy qismi qayta xotiralanish xarakterida ekanligi (F.Kamol), o'quvchilarda punktuatsion malakalarni shakllantirishni faqat «Sintaksis» bo'limi doirasi bilan chegaralash (H.Rustamov) ona tili o'qitishda lisoniy malakalar bilan nutqiy malakalar o'rtasida nomutanosiblik (Yo.G'ulomov va boshqalar) singari masalalarda ayrim noto'g'ri talqinlar, chalkash fikr-mulohazalar bayon etiladi. Ammo bu o'rinda shuni alohida qayd qilish lozimki, yuqorida tilga olingan ishlarning nashr etilishi o'z davri uchun katta voqea edi.

O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasiga oid nashr etilgan ishlarni tahlil etish shuni ko'rsatdiki, uzoq yillar davomida ilmiy bilimlarni zo'rma - zo'rakilik bilan ommalashtirishga harakat kuchaydi. Maktab «Ona tili» darsliklariga ilmiy -

filologik talqinlar, qoida va tavsiyalarni me'yoridan ortiqcha kiritish natijasida, ular ancha murakkablashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritilishi munosabati bilan, maktablarda davlat tili – o'zbek tilining o'qitilishiga e'tibor juda ortdi. Yondoshuv o'zgardi. «O'zbek tili» Respublika doimiy anjumanining ta'sis etilishi, «Ona tili o'qitish konsepsiyasi»ning yaratilishi, DTSning qabul qilinishi va unga muvofiq keladigan dasturning ishlab chiqilishi «Ona tili»dan yangi yo'nalishdagi darsliklarning yaratilishiga asos bo'ldi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanidan dastlabki ilmiy - tadqiqot ishlari o'tgan asrning 50 – yillaridan boshlanganligi ko'zga tashlanadi.

Sobiq sho'rolar istibdodi davrida bu fandan jami 24 kishi pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga erishdi. Chunonchi, K.Xayrullayevning «Buxoro viloyati maktablarining 5–6-sinflarida ona tilidan o'quvchilarning tipik orfografik xatolari hamda uning oldini olish va bartaraf etish yo'llari» (1957), S.Tursunovning «O'zbek maktablarining 4-sinflarida grammatikani o'qitish metodikasi» (1957), Y.Abdullayevning «Eski o'zbek maktablarida savod chiqarish» (1961), Q.Abdurazzoqovanning «Ona tilidan 5-sinflarda o'quvchilar faolligini oshirish» (1964), B.Mirzaahmedovning «O'zbek maktablarining 6-sinflarida qo'shma so'zlarni o'qitish metodikasi» (1965), K.Qosimovanning «5-sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash» (1966), N.A.Ahmedovning «O'quvchilar nutqidagi dialektal xatolar va ularning oldini olish»(1966), O.Roziqovning «O'zbek maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning mustaqil ishlari» (1967), M.Omilxonovanning «Sakkiz yillik o'zbek maktablarida ergashgan qo'shma gapni o'qitish» (1967), G'.Azizovning «O'zbek maktablarining 5-sinflarida o'quvchilar nutqini sinonim so'zlar bilan boyitish» (1968), R.Abdullahatovanning «O'zbek maktablarida olmoshni o'qitish metodikasi»(1968), O.G'afforovanning «O'zbek maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilar nutqida uchraydigan xatolar» (1970), H.Zahirovning «O'zbek maktablarining 7–8-sinflarida o'quvchilarning yozma ishlarida uchraydigan punktuatsion xatolar» (1970), A.Po'latovning «Maktabda holni o'qitish metodikasi» (1970), A.Mirzayevning «O'quvchilarning

orfografik savodxonligini oshirishda diktantdan foydalanish» (1970), Sh.Koyenovning «O‘zbek maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilarni bayon yozishga o‘rgatish» (1973), R.Inog‘omovning «Fe‘l zamonlarini o‘rganishda o‘quvchilarning nutqi ustida ishlash» (1974), A.G‘ulomovning «O‘zbek maktablarining 4-sinflari ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari» (1975), O.Yoqubjonovning «O‘zbek maktablarining 4–5-sinflarida so‘z yasashni o‘rgatish metodikasi» (1975), N.Shukrullayevning «O‘zbek maktablarining 8-sinflarida qo‘shma gap sintaksisini o‘qitishda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish» (1975), R.Qayumovning «Sifat mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish»(1976), O.Botirovning «Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqida uchraydigan dialektal xatolar»(1978), S.Nabiyevaning «O‘zbek maktablarining boshlang‘ich sinflarida orfografiyani o‘qitish metodikasi» (1981), M.Mamayusupovning «Boshlang‘ich maktabning 1–3-sinflarida o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan fonemalarni o‘qitish metodikasi»(1981), E.Mamatovning «Работа над орфограммами при изучении именных частей речи на уроках родного языка в IV-V классах школ с узбекским языком обучения»(1982), B.Fazilovning «Закрепление материала родного языка на уроках литературы IX-X классов школ с узбекским языком обучения» (1983), R.Qayumovning «Развитие речи учащихся в связи с изучением темы «Имя прилагательное» в узбекской школе» (1984), N.Po‘latovning «Изучение словосочетания на уроках родного языка в узбекской школе» (1990) mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalari 50–90-yillarda himoya qilingan.

Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘zbek tili ya‘ni davlat tilini o‘qitishga oid ilmiy tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaydi. O‘tgan qisqa davr ichida ona tili o‘qitishning o‘ta muhim muammolariga oid doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi: A.G‘ulomovning «Ona tili ta‘limi jarayonida o‘quvchilarning o‘quv–biluv faolligini oshirish» (doktorlik:1991), T.G‘aniyevning «Ona tilidan mashqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish (idrok etish) faoliyatini faollashtirish»(1991), Sh.Yo‘ldoshevaning «O‘zbek maktablari ona tili darslarida qo‘shma so‘zlarni o‘rgatishdagi izchillik» (1991), Q.Yusupovning

«Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda orfografik hushyorlikni shakllantirish» (1993), M.Rajabovanning «Tillarni bog'lab o'rgatish orqali o'quvchilarda do'stlik-qarindoshlikni tarbiyalash» (1993), N.Murodovanning «O'quvchi nutqida mahalliy sheva ta'sirida vujudga kelgan talaffuz hamda imlo xatolari va ularni tuzatish usullari» (1993), Q.Yunusovning «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda orfografik hushyorlikni shakllantirish» (1993), M.Sobirovanning «O'zbek maktablari yuqori sinf o'quvchilariga sodda gap sintaksisini munozara usulida o'rgatish» (1994), N.Sattorovanning «O'quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish» (5-sinfda ona tili o'qitish jarayonida) (1995), T.Ziyodovanning «Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish»(1995), O.Ro'ziyevanning «Uzluksiz ta'lim jarayonida bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilari va 1-sinf o'quvchilari og'zaki nutqini o'stirish» (1995), N.Dadajonovanning «O'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarning nutqi ustida ishlash metodikasi»(1996), A.Bobomurodovanning «Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish»(1997), N.Qosimovanning «Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqini so'zning ma'nodoshlari bilan boyitish»(1998), Sh.Yusupovanning «Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)» (1998), T.Yusupovanning «Uzluksiz ta'lim tizimi asosida maktabda o'quvchilarga bosh bo'laklarni o'rgatish»(1998), G.Axrorovanning «Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida ko'makchili birikmalarni o'rgatish metodikasi» (1998), M.Hamidovanning «1–2-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tajribasidan»(1998), M.Rixsiyevanning «Ta'lim rus tilida olib borilayotgan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish metodikasi» (1999), I.Toshevning «Umumta'lim maktablarida qo'shma gapning yangicha talqini» (1999), M. Saidovning «O'zbek maktablarning 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi» (2000), M.Ernazarovanning «Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 2-sinflarida o'zbek tilini o'qitish metodikasi» (2000), G.Qurbonovanning «Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida «O'zbek tili»

fani o'qitish jarayonida talabalarning ixtisosiy nutqi ustida ishlash metodikasi» (2000), E.Abduvalitovning «Ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning V-IX sinflarida o'zbek tilini til tarkibida o'qitish asoslari» (2002), L.Mirjalolovanning «O'zbek tili mashg'ulotlarida bolalarni savol-javobga o'rgatishning nazariy-metodik asoslari» (2002), Sh.Bo'ronovanning «Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tili o'qitishning ilmiy-metodik asoslari»(2002), M.Qaraxodjyevanning «Nofilologik guruh talabalarining kasbiy nutqini fe'l asosida shakllantirish metodikasi» (2002), N.Yuldashevaning «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish metodikasi»(2002), G.Muhamedjanovanning «Darsdan tashqari mashg'ulotlarda rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirish metodikasi»(2003), M.Mirmaxsudovanning «O'quvchilar nutqini takomillashtirishda grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari»(2004), S.Adilovanning «O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyasi vositasida tashkil etish» (2004), Sh.Yusupovanning «Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari» (doktorlik: 2005), X.Qurbonovanning «Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari»(2005), T.Yusupovanning «Gapning bosh bo'laklarini o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirishning lingvometodik asoslari»(2005), A.Hamroyevning «Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish»(2005), M.Jo'rayevning «O'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganish metodikasining shakllanishi» (2005), G.Axmedovanning «O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini yasama so'zlar bilan boyitishning metodik asoslari»(2006), N.Umarovanning «Talabalarning o'zbekcha yozma nutqini o'stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi»(2007), Sh.Nurullayevanning «Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi» (2007), N.Alavutdinovanning «Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi» (2008), A.Husanboyevanning «O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari»(2008), Sh.Yuldashevaning «Davlat tili ta'limida o'quvchilar nutqiy malakalarini o'stirishning ilmiy-metodik

asoslari»(2008), G.Eshchanovanning «O‘zbek tili darslarida she‘riy asarlarni o‘rganishning lingvometodik asoslari» (2009), O.Oxunjonovanning «Ta‘lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o‘qitish metodikasi»(2009), X.Muhiddinovanning «Ta‘lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta‘minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish» (doktorlik: 2011), S.Tajbenovanning «Ona tili darslarida o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rgatish metodikasi (ta‘lim qozoq va o‘zbek tillarida olib boriladigan boshlang‘ich sinflar misolida, 2018)», G‘.Hamroyevning «Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta‘minotini takomillashtirish» (2019), A.Hamroyevning «Ona tili ta‘limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish» (doktorlik: 2020), X.Bakiyevanning «Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta‘lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi» (2020), Ya.Umarovanning «Til ta‘limida matn tahlili orqali o‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish» (2020), U.Abdurasulovanning «Ona tili ta‘limida o‘quvchilarda morfologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari» (2020), R.Isroilovanning «Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini loyihalash jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish texnologiyasi»(2020), T.Kaziyevanning «Fonetik uslubiyatni o‘rganishda o‘quvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari»(2020) mavzularida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

O‘zbek tilshunosligining yangi taraqqiyot bosqichida tilni sistemali o‘rganish masalalarini taniqli tilshunos va metodist olimlar H.Ne‘matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, A.G‘ulomov, R.Safarovalar boshlab berishdi.

«O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining ilmiy tadqiqot metodlari.
«O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» mustaqil fan sifatida o‘zining ilmiy tadqiqot metodlariga ega.

Ilmiy tadqiqot metodlarini ishga solishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad DTS talablariga javob beradigan ta‘lim mazmunini belgilash, o‘qitishning eng samarali metod, vosita va usullarini aniqlash, ona tili darslarini tashkil etishning qulay

shakllarini belgilash, o'quvchilardagi bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish singari muhim muammolarning ilmiy yechimini topishdan iborat.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani pedagogik eksperiment, diagnostik tahlil, suhbat, kuzatish, o'quvchilarning og'zaki javoblari va yozma ishlarini tahlil qilish, ilmiy pedagogik adabiyotlar tahlili, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, maktab hujjatlarini ko'zdan kechirish singari ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanadi. Bu metodlar mavjud holatni aniqlash, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklarni topish, shu asosda metodik tavsiyalar ishlab chiqish, erishilgan natijalarni ilmiy tahlil etish va umumlashtirish imkonini beradi.

Suhbat va kuzatish. Suhbat ilmiy tadqiqotning keng tarqalgan metodidir. Suhbatda ikki shaxs—ilmiy tadqiqot olib boruvchi mutaxassis va suhbatdosh ishtirok etadi. Suhbatdosh o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi, o'quvchi yoki o'qituvchilar jamoasi, maktab rahbarlari, ota-onalar bo'lishlari mumkin.

Suhbat jarayonida tadqiqot mavzusi xususiyatlaridan kelib chiqib savollar beriladi va olingan javoblar yozma qayd qilinadi. Olingan javoblar ilmiy tadqiqot uchun muhim faktik material bo'lib xizmat qiladi. To'plangan faktlarni tahlil etish orqali tadqiqotchi o'rganilayotgan muammo xususida xulosalar chiqaradi va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Suhbat usulining muhim tomoni shundaki, metodik hodisa qanday harakat qilsa, shundayligicha qayd etiladi.

Kuzatish ham ilmiy tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, tadqiqotchi kuzatish jarayonini aynan yozib boradi, uni tahlil etadi hamda hukm va xulosalar chiqaradi.

Metodik eksperiment. Ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan aniq ma'lumotlar to'plashda pedagogik eksperimentning imkoniyatlari benihoya katta. Bu metod ona tilidan yaratilgan dastur va darsliklarni sinovdan o'tkazib, ularning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, ona tili darslari hamda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish yuzasidan ishlab chiqilgan metod, vosita va usullarni tekshirib ko'rib, ularning samaradorlik darajasini belgilash imkonini beradi. U O'zbekiston Respublikasi XTV ning roziligi olingandan keyin maktab pedagogika kengashining maxsus qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Pedagogik eksperiment uch bosqichdan iborat bo'lishi mumkin:

- 1) aniqlovchi eksperiment;
- 2) shakllantiruvchi eksperiment;
- 3) yakuniy nazorat eksperimenti.

Eksperimentning birinchi bosqichi tadqiqot muammosi, uning obyekti, predmeti, ilmiy farazi, yangiligini aniqlashni, hal qilinadigan asosiy masalalar doirasini belgilashni taqozo etadi. Bu bosqichda tadqiqot yo'nalishi bilan bog'liq ilmiy-pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlar har tomonlama chuqur o'rganiladi hamda tahlil etiladi; o'quvchi va o'qituvchi faoliyati shu nuqtayi nazardan o'rganilib, mavjud holat yuzasidan ilmiy xulosalar chiqariladi.

Ikkinchi bosqichda ishlab chiqilgan metodika (ta'lim mazmuni, o'qitishning yangi usullari va vositalari kabilar) eksperimental sharoitda sinovdan o'tkaziladi; natijalar qayd qilib boriladi. Buning uchun nazorat guruhleri (sinflari) va tajriba-sinov guruhleri (sinflari) tanlanadi, eksperimentator o'qituvchilar belgilanadi, bu o'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tkaziladi va h.k. Tajriba-sinov ishlarining sinov natijalari magnit lentasiga audio vositalarida yozib olinishi va keyinchalik o'rganilib, tahlil etilishi ham mumkin. Eksperiment tajriba-sinov ishlarining boshi va oxirida, maxsus bo'lim o'rganilgandan keyin yoki har bir chorakning oxirida o'tkazilishi mumkin. Natijalar matematik tahlildan o'tkaziladi va qiyoslanadi.

Eksperimentni faqat tajriba-sinov sinfi doirasida o'tkazish ham mumkin. Unda nazorat sinfi tanlanmaydi va erishilgan natijalar eksperimentning boshlanish paytidagi holat bilan qiyoslanadi.

Shakllantiruvchi bosqich eksperimentatordan o'quvchilar faoliyatini diqqat bilan kuzatishni, olinayotgan natijalarni tahlil etib, yutuq va kamchiliklarni hisobga olib borishni, maxsus qaydlar yuritishni talab etadi. Agar zaruriyat tug'ilsa, ayrim o'rinlar takroriy eksperimentdan o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy nazorat eksperimenti shakllantiruvchi eksperiment tugagandan so'ng o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma ish, og'zaki savol-javob, test sinovlari orqali

o'tkazilishi mumkin. O'quvchilardan olinadigan nazorat diktantlari, bayon va insholar, ular tuzgan matnlar yakuniy eksperiment natijalaridir.

Diagnostik tahlil. «Diagnostika» tushunchasi yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, «aniqlashga qodir» ma'nosini ifodalaydi. O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasidan zarur ilmiy xulosalar chiqarishda tadqiqotning bu metodidan keng foydalaniladi.

Diagnostik tahlil olingan yozma ishlar, o'tkazilgan savol-javoblar hamda kuzatishlar asosida uyushtiriladi va u uch bosqichni o'z ichiga qamrab oladi:

Birinchi bosqich tadqiqot predmetini aniqlash. Masalan, ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqidagi dialektal xatolarning oldini olish va bartaraf etish, og'zaki talaffuz me'yorlari ustida ishlash, o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirish jarayonlari tadqiqot predmeti bo'lishi mumkin.

Ikkinchi bosqich yuzaga kelgan murakkab holatning kelib chiqish sabablarini aniqlashdir.

Uchinchi bosqich yuzaga kelgan murakkab holatni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat. Tadqiqotchi bir necha yo'lni belgilashi va ularning samaradorligiga umid bog'lashi mumkin. Bu belgilangan yo'llardan qaysi birining ko'proq samara berishini o'tkaziladigan eksperiment natijalari ko'rsatadi. Masalan, tadqiqotchi shevaga oid xatolarni bartaraf etish maqsadida lug'at diktantlari o'tkazish, shevada talaffuzi adabiy tildan farq qiluvchi so'zlar ro'yxatini tuzish, yo'l qo'yilgan xatolar bilan bog'liq ta'rif va qoidalarni eslash, o'quvchilarni bir necha guruhlariga bo'lib ular o'rtasida «Topqirlar bellashuvi» o'tkazish kabilardan foydalanishni tavsiya etgan bo'lishi mumkin. Bu tavsiyalarning samaradorlik darajasi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlanadi.

Metodik merosni o'rganish. Metodik merosni o'rganish ilmiy tadqiqotning eng muhim metodlaridan biri sanaladi. Ona tili ta'limining u yoki bu masalasini o'rganishda bevosita uning tarixiga murojaat etiladigan bo'lsa, bu metoddan foydalanishga to'g'ri keladi. Masalan, «Ona tili ta'limi jarayonida takrorlash darslarini tashkil etish» masalasini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etish uchun shu masalaning tarixiga, ya'ni Sharqning buyuk mutafakkirlarining takrorlash xususida

bayon qilgan fikrlariga to'xtalishga to'g'ri keladi. Tadqiqotchi bu haqda Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning asarlarini o'qib, ularning shu borada bayon qilgan fikrlariga tayanadi.

Agar ona tilidan ta'lim mazmuni tadqiqot obyekti qilib tanlangan bo'lsa, tadqiqotchi turli davrlarda ona tili ta'limining maqsadi qanday belgilanganligini aniqlaydi va muammoning tarixiga to'xtalishga zaruriyat sezadi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani falsafa, tilshunoslik siklidagi fanlar, didaktika, ruhshunoslik bilan uzviy bog'liqdir. Demak, maktabda «Ona tili» o'quv fanidan dars beradigan yetuk mutaxassis bo'lish uchun shu fanlarni puxta bilish zarur.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanining falsafa bilan aloqadorligi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» xususiy pedagogik sikldagi fan bo'lganligi uchun ham, ijtimoiy fanlar guruhiga kiradi va ijtimoiy fanlarning asosini tashkil etadigan falsafa bilan chambarchas bog'langan. Mazkur fanning falsafa bilan aloqadorligi ona tilining maqsad va vazifalarini tushunishingizga, bu fanning ta'lim mazmunini to'g'ri belgilashingizga, o'quvchi faoliyatini to'g'ri uyushtirishingizga, o'qitishning eng samarali metod, vosita va usullarini tanlashingizga, faoliyat mahsulini nazorat qilishingizga yordamlashadi.

O'quvchiga o'z ona tilini o'rgatish tafakkur bilan chambarchas bog'langan. Chunki til hodisalarining o'quvchi ongida voqelanishi tafakkur orqali yuzaga chiqadi. Til va tafakkurning aloqadorligi ona tili darslarida ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash muammosini hal qilishga ko'maklashadi.

Ma'lumki, falsafada har bir umumiy tushuncha yakka, juz'iy tushunchalar yig'indisidan tarkib topadi, degan qoida mavjud. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi faoliyatini tashkil etishda ham biz xuddi shu qoidaga asoslanamiz. Muayyan bo'laklarga ajratilgan til hodisalarini kuzatish, ularning birini ikkinchisi bilan taqqoslash orqali o'quvchi umumiy ta'rif, qoida va xulosalarga keladi.

Falsafa fikrlash va rivojlanishga o'zaro uyg'unlikda qaraydi. Sharqning buyuk ensiklopedist olimlari (Umar Xayyom, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy,

Abu Ali ibn Sino va h.k.) rivojlanishni fikrlashning mahsuli deb biladilar. Masalan, Umar Xayyom o'zining «Matematik traktatlar»ida «Ozgina o'yla, o'zing topasan», «Ozgina fikrla, bilib olasan» singari xitoblari orqali ma'lumdan noma'lumga borish g'oyasini ilgari surgan.

Til materiallari o'quvchi tomonidan ijodiy fikrlash orqali egallangan bo'lsa, u amaliy ahamiyatga molik bilim, ko'nikma va malakalar bo'lib sanaladi.

Shuni unutmash lozimki, til hodisalarining mohiyatini anglash, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash, til imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanish singari zaruriy malakalar ijodiy fikrlash orqali ro'yobga chiqadi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanining tilshunoslik fanlari bilan aloqasi. «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» garchand pedagogik sikldagi fan sanalsa-da, ammo uning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil etadi. Til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan har bir ilmiy yutuq, shubhasiz, maktab ona tili kursining mazmuniga ta'sir ko'rsatadi; zaruriyat tug'ilganda uni yangilash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ayni vaqtda shuni ham unutmash lozimki, tilshunoslikda fan erishgan barcha yutuqlarni o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji yo'q hamda bunga ehtiyoj ham sezilmaydi.

Modomiki, shunday ekan, «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani ana shu til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlardan nimani ajratib olib o'quvchiga o'qitish lozimligini ham hal qiladi.

Maktab ona tili kursi o'zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan zaruriy ma'lumotlarni o'quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasiga mos ravishda ularga yetkazishga xizmat qiladi.

Til bir butun tizim bo'lganligi sababli, maktab ona tili kursining bir bo'limi ikkinchisi bilan chambarchas bog'langan. Chunonchi, tilning tovush tizimi o'rganilar ekan, ayni vaqtda so'z va uning ma'nolari, gapda so'zlarning aloqaga kirishuvi xususida ham ma'lumot beriladi. Leksika va grammatika bo'limlari o'rganilar ekan, fonetikadan berilgan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanib ish ko'riladi.

Maktab ona tili ta'limi nafaqat «Hozirgi zamon o'zbek tili» kursi, balki umumiy tilshunoslik, til tarixi, shevashunoslik singari fanlar bilan ham aloqador. Til tarixidan xabardor o'qituvchi mumtoz adabiy asarlarning til xususiyatlari ustida ishlay oladi, dialektologiyani bilgan o'qituvchi esa adabiy til bilan shevani qiyoslab, nutqdagi dialektal xatolarning oldini olishi yoki bartaraf etishi mumkin.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani nutq madaniyati bilan ham aloqador. Zero, nutq madaniyati asoslarini puxta bilgan o'qituvchi o'quvchilar nutqi ustida samarali ishlay oladi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani ifodali o'qish, adabiyotshunoslik fanlari bilan ham bog'liqdir.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanining didaktika bilan aloqasi. Ma'lumki, ta'lim jarayonining umumiy va xususiy tomonlari bor. Ta'limning umumiy tomonini umumiy didaktika, xususiy tomonini xususiy didaktika o'rganadi.

Umumiy didaktika o'qituvchi va o'quvchi faloyatining o'zaro ta'sirini o'rganadi va u barcha o'quv fanlari uchun aloqadordir. «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» umumiy didaktika bo'yicha o'rganilganlarni oydinlashtiradi, ya'ni umumiy didaktikadan o'rganilgan ta'lim maqsadi, qonuniyatlari, prinsiplari, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarining ona tilini o'qitish jarayonida voqelanishini aniqlaydi.

Modomiki shunday ekan, «O'zbek tilini o'qitish metodikasi»fani didaktikaga tayanib ish ko'radi. Chunonchi, ona tili o'qitish prinsiplari yoki metodlari xususida fikr yuritilar ekan, avvalo umumdidaktik prinsiplar va metodlar, keyin xususiy prinsiplar va metodlarga to'xtalishga to'g'ri keladi.

«O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanining psixologiya bilan aloqasi. Ta'limni tashkil etish, o'qitish bola psixologiyasi bilan chambarchas bog'langan. Bu aloqadorlik avvalo o'quvchining yoshi va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq. O'rganilgan til hodisalarini xotirada tiklash, ularni yangi sharoitda qo'llash, til hodisalarini qiyoslash yoki ularni o'xshash va farqli tomonlariga qarab guruhlash, umumlashtirish, hukm va xulosalar chiqarish shaxsning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, xotira, tafakkur, xayol singari individual psixik xususiyatlarga tayanadi.

Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy psixik xususiyatlarini bilishi va unga tayanib ish ko'rishi lozim.

Akademik I.T.Pavlovning assotsiatsiya (aloqa, bog'lanish) haqidagi ta'limoti ona tili ta'limida muhim o'rin egallaydi. Agar til hodisalari orasidagi aloqadorlikka asoslanilmasa, o'quvchi tilni bir butun sistema sifatida qabul qila olmaydi. Yangi o'quv materialini oldin o'rganilganlar bilan bog'lash bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu esa ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun asosdir.

Hozirgi zamon psixologiyasi bilim olishda ehtiyojni zaruriyat deb biladi. Bu ta'limot ona tili mashg'ulotlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi o'z so'z xazinasini oshirishga, so'zdan foydalanishga, har xil nutqiy vaziyatlarga ehtiyoj sezmasa, tilni o'rganishga qiziqmaydi, unga zaruriyat sezmaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan shaxsning o'z ona tilini bilishi uni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tevarak-atrofidagi kishilar bilan muloqot, dars jarayonida tuziladigan og'zaki va yozma matnlar, o'tkaziladigan savol-javoblar rivojlanishni ta'minlovchi omillardir.

Ona tili ta'limining hozirgi bosqichida–test topshiriqlariga talab oshgan bir davrda–o'quvchilarda kompyuter bilan ishlash psixologiyasini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu dars mashg'ulotlarida kompyuter xizmatidan uzluksiz foydalanish orqali qo'lga kiritiladi.

Ma'lumki, ehtiyojlar insonni ma'lum yo'nalishda ongli ravishda harakat qilishga undaydi. Bundan asosiy maqsad odamlarning odamlar bilan hamkorlik qilishi, muloqotga kirishishi bo'lib sanaladi. Muloqot vaziyatida inson til, imo-ishora, yuz ifodasi, qo'l harakatlari va muayyan ramziy belgilar vositasida boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatadi. Bu vositalardan keraklisini tanlab olish «Psixologiya» fanining ham, «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanining ham vazifasidir.

Ona tili fani o'qituvchisi va unga qo'yiladigan kasbiy talablar. Jamiyatda ta'lim tizimi takomillashib borgan sari o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talab ham ortib boradi.

Kasbiy tayyorgarlik keng tushuncha bo'lib, u o'qituvchining ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy va pedagogik tayyorgarligi kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Kasbiy tayyorgarlik ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Umumpedagogik yo'nalish;
2. Xususiy - metodik yo'nalish.

Umumpedagogik yo'nalish barcha o'quv fanlaridan dars beradigan o'qituvchilar uchun umumiy bo'lib, maktabda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish bilan bog'liq. Xususiy-metodik yo'nalish bevosita «Ona tili» o'quv fanining o'qitilishi bilan aloqador bo'lib, shu o'quv fanining o'qitilishini yaxshilash bilan aloqadordir.

Birinchi yo'nalish pedagogika fanining qo'lga kiritgan yutuqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olishda namoyon bo'lsa, ikkinchisi ona tili ta'limining yangi mazmunini mukammal egallash, shu mazmunga muvofiq keladigan metod, vosita va usullarni tanlash kabilarda ko'rinadi.

O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yaratuvchidir. U darsni o'tmaydi, balki yaratadi. Shuning uchun o'qituvchi doimiy ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini oshirib borishi, pedagogik hayot talablaridan ortda qolmasligi uchun hamisha o'qishi, izlanishi, ijod qilishi lozim. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z shaxsiy kutubxonasiga ega bo'lishi, pedagogika va metodikaga oid jurnallarni o'qib borishi, maktab va maktabdan tashqari kutubxonalar bilan doimiy aloqada bo'lishi talab etiladi.

Ona tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini oshirishda maktab metod birlashmasining ahamiyati benihoya katta.

Ona tilidan metod birlashma faoliyati. Ona tili o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatishning asosiy markazi metod birlashmalardir.

Metod birlashma maktabda ishlaydigan barcha ona tili va adabiyot o'qituvchilarini o'z safida birlashtiradi.

Metod birlashmaning asosiy maqsadi o'qituvchilarning o'z ustida ishlashini tashkil etish, maktabda ona tili va adabiyot fanlarining to'g'ri o'qitilishini

uyushtirish va uni nazorat qilish, pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish, yosh o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish kabilardan iborat.

Metod birlashma o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- maktabdagi barcha ona tili va adabiyot o'qituvchilarining hamjihatlikda ishlashini ta'minlash;

- ona tili va adabiyot fanlarining o'qitilishiga oid yangiliklardan o'qituvchilarni doimiy xabardor qilib borish;

- yosh o'qituvchilarga har jihatdan metodik yordam ko'rsatish, ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etish;

- ona tili va adabiyot fanlaridan o'quv-metodik majmua yaratish;

- o'qituvchilarning o'z ilmiy va metodik saviyasini mustaqil oshirib borishini tashkil etish;

- ona tili va adabiyot o'qituvchilarining ilg'or tajribalarini aniqlash, o'rganish va ommalashtirish;

- ona tili kabinetining faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish;

- maktabda yagona imloviy va nutqiy rejimni tashkil etish.

O'quvchilar bilan ishlash borasida ham metod birlashma zimmasiga bir qator vazifalar yuklatiladi. Bular:

- ona tili va adabiyot fanlaridan iqtidorli bolalar bilan ishlashni tashkil etish;

- o'quvchilarni maktab olimpiadasiga tayyorlash ustidan nazorat o'rnatish; olimpiadalarning nizom talabi asosida o'tishini ta'minlash;

- maktab ona tili va adabiyot to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yish, ularning doimiy ishlashini ta'minlash; sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni samarali tashkil etishdan iboratdir.

Metod birlashma faoliyatiga rahbarlik maktab ma'muriyatining buyrug'i bilan eng tajribali va tashabbuskor o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Metod birlashma yillik ish rejasiga ega bo'ladi. Birlashma rahbari rejaning bajarilishini nazorat qiladi va hisobot beradi.

Metod birlashma yig'ilishlari o'quv yili boshlanishi oldidan, chorak oxirlarida, o'quv yili yakunida, inspektorlik va ichki nazoratlardan keyin o'tkazilishi mumkin.

Ona tili o'qituvchilari bilan olib boriladigan ishlarning salmoqli qismini ularning o'z ustida ishlashi, mustaqil ravishda o'z malakasini oshirishi tashkil etadi. Shuni nazarda tutgan holda, har bir o'qituvchining umumpedagogik va ixtisosligiga oid adabiyotlar ustida ishlashini tashkil etish metod birlashmaning diqqat markazida turmog'i lozim. Maktab ma'muriyati va metod birlashma tashabbusi bilan «Ona tili va adabiyot o'qituvchisining kutubxonasi»ni tashkil etish, har bir o'qituvchining shaxsiy kutubxonasi bo'lishiga erishish bu murakkab ishni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Metod birlashma yig'ilishlarida o'qituvchilarning o'qilgan adabiyotlar yuzasidan bahs-munozaralarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida dars ishlanmalari tuzish, ularning muhokamasini uyushtirish ham mumkin.

Yosh o'qituvchilar bilan ishlash metod birlashma zimmasiga yuklatilgan eng muhim vazifalardan biridir. Endigina pedagogik faoliyatga qadam qo'yayotgan o'qituvchilar bilan ish shunday tashkil etilmog'i lozimki, ularning tanlagan kasblariga muhabbatlari oshsin, bolalar bilan ishlash zavq-u shavq ishiga aylansin.

Maktab metod birlashma faoliyatining ko'p qirrali ekanligi va ish ko'lamining kengligini hisobga olib, o'qituvchilar orasida ishni to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Ish taqsimotida o'qituvchining iqtidori va imkoniyati hisobga olinadi.

Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan o'quv materialining to'g'ri rejalashtirilishiga bog'liq. Shuning uchun metod birlashma har bir bo'limga ajratilgan soat miqdori hamda uning mavzular bo'yicha taqsimotiga, nutq o'stirishga ajratilgan soatlarning o'quv yili davomida to'g'ri joylashtirilishiga, joriy, oraliq va yakuniy nazoratning to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratish lozim.

Ona tili o'qituvchisi tadrijiy (tematik) ish rejasini tuzishda quyidagilarga amal qilishi kerak:

– har bir sinfdan ona tilini o'rganishga ajratilgan haftalik va yillik soat miqdori (masalan, 5-sinfdan haftada 6 soat, 1 yilda 202 soat) ;

- muayyan bo‘limni o‘rganishga ajratilgan soat miqdori (masalan, 5-sinfda «Muqaddima» bo‘limini o‘rganishga 48 soat vaqt ajratilgan);
- yirik mavzularning ichki bo‘linishi;
- egallangan bilimlarning malaka va ko‘nikmaga aylanishi;
- nazorat xarakteridagi yozma ishlarning o‘quv yili davomida to‘g‘ri taqsimoti;
- o‘quv choraklari (1- chorak 2-sentabridan 3-noyabrgacha –9 hafta; 2-chorak 11-noyabrdan 29-dekabrgacha –7 hafta-yu 2 kun; 3-chorak 11-yanvardan 20-martgacha –9 hafta-yu 3 kun; 4-chorak 1-apreldan 25-maygacha –7 hafta-yu 3 kun);
- maktab ta‘tillarini (kuzgi ta‘til 4-noyabrdan 11-noyabrgacha; qishki ta‘til 30-dekabrdan 10-yanvargacha; bahorgi ta‘til 21-martdan 1-aprelgacha);
- yil taqvimining xususiyatlari (yil davomida o‘tkaziladigan hayitlar, bayramlarning qaysi kunga to‘g‘ri kelishi).

Maktabda ona tilidan o‘quv-metodik majmua yaratish ham metod birlashma zimmasiga yuklatiladi. «Ona tili» darsliklari, lug‘atlar, o‘quv qo‘llanmalaridan tortib, turli xildagi tarqatma materiallar, rasmlar, jadvallar, slaydlar, taqdimotlar (prezentatsiyalar), natyurmortlar, diapozitiv, diafilm va o‘quv filmlari, audio yozuvlar asosida yozib olingan nutq namunalari kabilarning barchasi ana shu majmuani tashkil etadi. Shubhasiz, bularni to‘plash yoki yaratish uchun ona tili o‘qituvchilarining hamjihatlik bilan ishlashlari talab etiladi. Bu murakkab ishni amalga oshirish uchun har bir sinfni muayyan o‘qituvchiga topshirish, ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallarning tanlovini o‘tkazish foydalidir.

Metod birlashma faoliyati maktabda ona tili kabinetini jihozlashga ham mutasaddidir. Kabinet mudirligi metod birlashma topshirig‘i bilan tajribali o‘qituvchilarning biriga yuklatiladi.

Ona tili kabineti zamonaviy texnika vositalari, mashhur tilshunos olimlarning portretlari, donolarning til haqida aytgan hikmatli so‘zlari, DTS talablari, tahlil namunalari, o‘quvchilarning diktant, bayon va insho yozishlari uchun esdalik kabilar bilan jihozlangan bo‘lishi, o‘quv-metodik majmuani o‘zida mujassamlashtirishi lozim.

Ona tili kabinetida ish qog'ozlaridan namunalar bo'lsa, o'quvchilar uchun ancha foydali bo'ladi.

Metod birlashma ona tili kabinetini zarur o'quv-tadrijiy qo'llanmalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berishi lozim. Bu o'qituvchilarning dars mashg'ulotlariga tayyorlanishiga, o'z ustida ishlashlariga yordam beradi. Maktabda yagona orfografik va nutq rejimini joriy etishda ham ona tili o'qituvchilari metod birlashmasining xizmati katta. Boshqa o'quv fanlaridan dars beradigan o'qituvchilarning imlo, punktuatsiya, talaffuz va nutqqa katta e'tibor berishlari, o'quvchilarning yo'l qo'ygan imloviy, ishoraviy va nutqiy xatolarini o'z vaqtida tuzatib borishlari, daftarlar yuzidagi yozuvlarning yagona talablar asosida bo'lishi juda katta amaliy ahamiyatga ega. Bu ishlarni yo'lga qo'yishda, birinchidan, ona tili o'qituvchilarining o'zlari namuna bo'lishlari va ikkinchidan, maktab o'qituvchilariga bu ishda amaliy yordam ko'rsatishlari talab etiladi.

O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Dars samaradorligi o'qituvchining unga tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq. Puxta tayyorgarlik asosida o'tkaziladigan dars qiziqarli o'tadi va ko'zlangan maqsadga erishadi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, avvalo darsning maqsadini puxta o'ylab ko'rmog'i lozim. Mashg'ulotning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari aniq, ularni o'zaro uyg'un holda qanday qilib amalga oshirish yo'llari belgilanmasa, samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Darsning metodini to'g'ri tanlash o'qituvchidan puxta nazariy bilim va pedagogik mahorat talab etadi. Yangi bilim berish darslarida ko'proq muammoli o'qitish metodiga asoslanilsa, egallangan bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish maqsadlarida qisman qayta xotiralash xarakteridagi topshiriqlardan ham, ijodiy xarakterdagi topshiriqlardan ham foydalaniladi. Dars metodini tanlashda o'qituvchi o'quvchilarning real o'quv imkoniyatini, o'rganiladigan mavzuning talabi kabilarni ham hisobga oladi.

Darsga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi o'rganiladigan mavzuga bog'liq ilmiy va metodik adabiyotlar bilan ham puxta tanishib chiqishi lozim. O'zbek tilshunosligi fanining so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlaridan xabardor

o'qituvchigina darslikdagi topshiriqlar talabini tushunadi va har bir topshiriqdan ko'zlangan maqsadni ilg'aydi.

Ijodkor o'qituvchi darsni darslik qolipi asosida qurmaydi, balki uni yaratadi. Darsga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi darslikdagi qaysi mashqlardan foydalanishini, mashq shartlariga qanday qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar kiritishi mumkinligini, mahalliy o'lka materiallari bilan dars materialini bog'lash imkoniyatlarini o'ylab ko'rishi va rejalashtirishi lozim.

O'qituvchi o'quvchilarga beriladigan savollarni puxta o'ylab ko'rishi, javobga chiqariladigan o'quvchilarni oldindan belgilashi, uyga beriladigan vazifani belgilashi lozim.

O'qituvchi yangi yo'nalishdagi «Ona tili» dasturi va darsliklari bilan ishlashga ham o'zini tayyorlashi kerak. Darsliklardagi har bir mashq, topshiriq, matn, rivoyat va latifa ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi va bu ko'p hollarda yashiringan bo'ladi. Ko'nincha ko'zlangan maqsad 2-3-mashqni bajargandan keyin ravshan bo'ladi. Chunki maqsadni birinchi qadamdayoq ma'lum qilish o'quvchining fikrlashiga, ijodiy mushohada yuritishiga to'sqinlik qilishini nazarda tutib, mualliflar ularni bosqichma-bosqich berishgan. O'qituvchi har bir mashqdan ko'zlangan yuzaki (zohiriy), ilk bosqich maqsadni va asosiy (botiniy) tugal maqsadni to'liq bilmasa, puxta bilim berishga erisha olmaydi. Yuzaki maqsad yordamchi vosita bo'lib, tub maqsadga erishish uchun bir bosqichdir. Ayrim hollarda tub maqsadni topish o'quvchining o'ziga havola etiladi.

O'qituvchi darslikdagi ayrim matnlarning serqirraligi, ular asosida turli-tuman hukmlar chiqarish mumkinligini ham unutmasligi kerak.

Darsliklarda talaygina rivoyatlar berilgan bo'lib, ular o'quvchidan ijodiy fikrlashni va o'z nuqtayi nazarini bayon qilishni talab etadi. O'qituvchi oldindan bu rivoyatlarni o'qib, buning asosida qanday xulosaga kelish mumkinligini o'ylab ko'rishi lozim.

«Ona tili» darsliklarida mashqlar bosqichli ketma-ketlik prinsipi asosida berilgan bo'lib, ular bir necha topshiriqlidir. Shuning uchun o'qituvchi mashq va undagi har bir topshiriqning maqsadini tushunishi lozim. Bu o'rinda yana shuni ham

alohida qayd qilish lozimki, ko'p topshiriqli mashqlarda bir topshiriqni bajarib, ikkinchisini chetlab o'tish o'quvchini asl maqsadidan uzoqlashtiradi. Demak, o'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir topshiriqning maqsadi, uni bajarish usuli, sarflanadigan vaqtni aniq hisobga olishi lozim.

Dars reja-konspektini tuzish ham o'qituvchidan juda katta mas'uliyat talab etadi. Chunki reja-konspekt darsni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishga ko'maklashadi; 45 daqiqalik vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Dars reja-konspektida darsning mavzusi, maqsadi, metodi, jihozlanishi, uy topshirig'ining tekshirish usuli, o'quv topshiriqlaridan foydalanish tartibi, o'quvchilarni umumlashmalar hosil qilishga undash yo'llari, mustahkamlash uchun beriladigan topshiriqlar, hosil qilingan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish maqsadida o'rtaga tashlanadigan savollar, uyga beriladigan vazifa kabilar o'z ifodasini topadi.

Yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, tadbirkor va ijodkor, milliy g'oya va ajdodlarimiz an'analarini e'zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ona tili muhim va yetakchi fan hisoblanadi. O'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanishida darsga tayyorlanish jarayoni, mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish, mavzuni mukammal yoritishga xizmat qiladigan zamonaviy o'quv - texnika vositalaridan unumli foydalanish; o'quvchilarni til hodisalarini kuzatish, farqlash va sharhlashga yo'naltiradigan kompyuter dasturlari, multimedia, kodoskop va videoko'z xizmatidan foydalanishga o'rgatish muhim o'rin tutadi.

Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Munis Xorazmiylar til ta'limini o'z asarlarida qanday talqin va targ'ib etishgan?

4. «O'zbek tilini o'qitish metodikasi»ning fan sifatida shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli to'g'risida nimalarni bilasiz?

5. «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fanining shakllanish jarayonini nechta davrga bo'lib o'rganish mumkin?

6. «Izohli o‘quv» ta’limi deganda nimani tushunasiz?
7. XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ta’lim sohasida yuz bergan o‘zgarishlar haqida nimalar bilasiz?
8. «Ona tili»dan yangi yo‘nalishdagi darsliklarning yaratilishiga nimalar asos bo‘lgan?
9. 50–80-yillarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi fanining rivojlanishida kimlarning ilmiy qarashlari va asarlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan?
10. Mustaqillik yillarida ona tili ta’limi sohasidagi islohatlar haqida so‘zlang?
11. «O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining obyeksi, predmeti, maqsad va vazifalarini asoslang.
12. Ona tilidan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimi deganda nimani tushunasiz?
13. «O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining ilmiy tadqiqot metodlarini ayting va asoslab bering.
14. Diagnostik tahlil va uning bosqichlari haqida gapirib bering.
15. «O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida fikringiz?
16. O‘qituvchining ijodkorligi, yaratuvchanligi deganda nimani tushunasiz?
17. Maktab ona tili metod birlashmasining vazifalari nimalardan iborat?
18. Yosh o‘qituvchilar bilan qanday ishlar amalga oshiriladi?
19. Maktabda ona tili kabineti qanday jihozlanadi?
20. Ona tili o‘qituvchisi tadrijiy ish rejasini tuzishda nimalarga amal qilishi kerak?
21. Maktabda ona tili fanidan o‘quv-metodik majmua yaratishning ahamiyati nimada?
22. Metod birlashma faoliyatiga rahbarlik qilish kimning zimmasiga yuklatiladi?
23. Metod birlashma yig‘ilishlari yilda necha marta va qachon o‘tkaziladi?

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Barkamol avlod orzusi (tuzuvchilar: Qurbonov Sh., Saidov H., Ahliddinov R.) Toshkent, «Sharq», 1999, 184.
2. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1998, 63.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 2020.
6. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent, 1997.
7. O'zbek maktablarida ona tili konsepsiyasi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. 1994, 1–2- qo'shma son.
8. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 1-maxsus son. Toshkent, «Sharq», 1999, 303.
9. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. Toshkent, 2017.
10. Власенков И.А. Общие вопросы методики русского языка в средней школе. Москва, « Просвещение », 1973.
11. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактического исследования. Москва, « Педагогика », 1982.
12. Matjon S. Kitob ustida ishlash usullari. «Til va adabiyot ta'limi», 1999, 4-son.
13. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
14. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent, «O'qituvchi», 1993.
15. Roziqov O., Og'aeв S., Mahmudova M., Azizov B. Didaktika. Toshkent, «Fan», 1997.
16. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2005, 387-b.
17. Теория и практика педагогического эксперимента. Москва, «Педагогика », 1979.

18.«Tillar ko‘rigi»ni o‘tkazish haqida Nizom. «Til va adabiyot ta’limi», 1993, 5–6-qo‘shma sonlar.

19. Tilshunoslik va metodika masalalari. Toshkent-Buxoro, 2000. 60-b.

20. To‘xliyev B., Shamsiyeva M.,Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi», 2006, 191.

21. Философия педагогам (немис тилидан таржима). Москва, « Прогресс », 1976.

22. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. Toshkent, «O‘qituvchi», 1993.

FOR AUTHOR USE ONLY

MAKTAB TIZIMIDA ONA TILI FANINING TUTGAN O'RNI, UNI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Tayanch tushunchalar:

O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili, «O'zbek maktablarida ona tili ta'limi Konsepsiyasi», «til-me'yor-nutq» mutanosibligi, «O'zbek tili» doimiy anjumani, ona tilini o'qitish maqsadi, ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning muhim belgilari: kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, alohidaliklarni aniqlash, qo'llash; ona tilidan DTSning tarkibiy qismlari va mezonlari, o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi, fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Maktabda ona tilini fan sifatida o'qitishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy zaruriyatlari. O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili bo'lib, uning umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'qitilishi davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko'ra to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analарimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o'rnini va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil Respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi o'ta muhim vazifa bo'lib turgan bir sharoitda bu fanning o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda «Ona tili»ni o'quv fani sifatida o'qitishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, jamiyatimiz, xalqimiz, millatimiz ravnaqining kelajagi, uning gullab-yashnashi bugun maktab partasida o'tirgan yoshlarning mustaqil turmushga, nutqiy faoliyatga, yuksak madaniyat bilan so'zlasha olishga qay darajada tayyorgarligiga bog'liq. Chunki so'z qudrati insoniyat tarixida hamma vaqt yuksak qudratga ega bo'lgan.

Jamiyat rivojlangan sari xalqning madaniyat darajasi ortib boradi. Madaniy hayotning rivoji avvalo jamiyat a'zolarining madaniy so'zlashuvga bo'lgan

ehtiyojining ortib borishi bilan belgilanadi. Yoshlarda yuksak nutq odobini tarbiyalash maktab ona tili kursi zimmasiga tushadi.

Ijtimoiy o'zgarishlar, shaxs tarbiyasiga munosabat, jamiyatning shaxsga nisbatan talablari bilan birgalikda jahon tilshunosligi fani va ona tilining tadriji ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi; tilni imkoniyat, nutqni esa shu imkoniyatning sharoit va maqsadga mos ravishda yuzaga chiqishi deb o'rganuvchi sistem tilshunoslik nazariyasi rivojlandi, ilg'or davlatlarning ko'pida ona tilidan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. Ona tili mashg'ulotlari bolalarda mustaqil va ijodiy fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishning bosh omiliga aylantirildi. O'rta umumiy ta'lim maktablarida ona tili o'qitishning mavjud ahvoli ta'lim mazmunini yangilashni hayotiy zaruriyat qilib qo'ydi.

Yangi iqtisodiy munosabatlar har qanday faoliyatni uning beradigan pirovard iqtisodiy natijasi bilan baholashni talab etadi. Jumladan, ta'limga sarflanadigan moddiy xarajatlar ta'limning natijasi bilan qoplanib qolmay, balki sarf bo'lgan xarajatlardan ko'proq moddiy manfaat kelishi lozim. Bu – ta'limning barcha bo'g'inlari va sohalari, jumladan, ona tili ta'limi uchun qo'yiladigan umumiy, zamonaviy, iqtisodiy va ma'naviy talabdir.

Maktabda ona tilini fan sifatida o'qitish qanday moddiy manfaat berishi mumkin, qanday qilib ona tili ta'limini moddiy jihatdan manfaatli, foydali qilish mumkin?

«Ona tili fani moddiy manfaat keltirmaydi» degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ona tili ta'limi natijasida o'quvchi DTS talablari darajasida muayyan malaka va ko'nikmalar hosil qiladi va bu ko'nikma hamda malakalarning davr talablariga mosligi bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlar-moddiy manfaat ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi. Ona tili fanining moddiy ko'rsatkichlari bolalarning imlo savodxonligi, so'z boyligi va undan foydalanish mahorati, mustaqil ijodiy fikrlay olishi, fikr mahsulini maqsadga muvofiq ravishda og'zaki va yozma shakllarda bayon qila olishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Maktabda ona tilini fan sifatida o'qitmay turib, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab bo'lmaydi. Chunki ona tili fani o'quvchilarni milliy til va uning tarixi, boy madaniy o'tmishi bilan tanishtiradi, milliy qadriyatlarimiz, an'alarimiz, urf - odatlarimizni qadrlashga o'rgatadi.

Ona tili avlodlarni avlodlarga bog'lovchi zanjirdir. Agar yozuv, yozma nutq bo'lmaganda edi, madaniy boyliklarimiz, fan, texnika va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlarimizni avlodlardan avlodlarga o'tkaza olmagan bo'lardik.

«O'zbek tili»ning maktabda o'quv predmeti sifatida shakllanish va rivojlanish jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, uni taxminan quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

Birinchi davr – 1910–1930-yillar. Bu davrda madrasalarda o'qigan bolalarga savod chiqarganlaridan keyin, qofiya (grammatika) va qofiyaning bo'limlari: sarf (morfologiya) va nahv (sintaksis) o'rgatilgan. Bolalarning xat-savod chiqarishi, qiroatxonligiga katta e'tibor berilgan.

XX asrning boshlari shu bilan e'tiborliki, garchand hali maktablarda «Ona tili»ni fan sifatida o'qitish muayyan izga tushmagan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarga til qoidalarini o'rgatish, ularning savodxonligini chiqarish va uni takomillashtirishga qaratilgan harakatlar kuchaydi. 1913-yilda mashhur o'zbek ziyolisi M.Faxriddinovning «Turkcha qoida», 1916-yilda A.Zahiriyning «Imlo» o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi o'sha davr uchun katta tarixiy voqea edi. Bir qator jadid maktablarida 1913–1914-yillardan boshlab turkcha qoidalarni o'qitish yo'lga qo'yildi; 2-, 3-, 4-o'quv yillarida o'quvchilarning savodxonligi ustida ishlash bo'yicha maxsus dars mashg'ulotlari o'tkazila boshlandi. 1916–1917-yillarga kelib shu jadid maktablarida A.Zahiriyning «Imlo» kitobini o'qitish yo'lga qo'yildi.

Ikkinchi davr–1930–1960-yillar. Bu davrda maktablarda ona tilini fan sifatida o'qitish yo'lga qo'yildi; til ta'limidan maxsus o'quv dasturlari va darsliklari chiqarila boshlandi. «O'zbek tili» maktabda o'qitiladigan yetakchi o'quv predmeti sifatida o'quv rejalaridan mustahkam o'rin oldi va bu fanning o'qitilishiga katta miqdorda soat ajratildi.

Ona tilining o'rtta umumta'lim maktablarida o'quv predmeti sifatida o'qitila boshlanishi uning taraqqiyoti uchun keng yo'l ochib berdi.

Uchinchi davr–1960–1970-yillar. Bu davrga kelib, ona tilidan ta'lim mazmuni ancha takomillashdi va mazkur fandan yangi o'quv dasturlari va darsliklari chiqarila boshlandi. Ayniqsa, maktablarning yuqori sinflarida ona tilining o'qitilishiga e'tibor kuchaydi.

To'rtinchi davr–1970–1990-yillar. Bu davrga kelib, o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlarni maktab darsliklariga kiritishga urinish ancha kuchaydi. Ona tilidan V sinfda (o'quv yilining boshida) sintaksis va punktuatsiyadan dastlabki zaruriy ma'lumotlar berish ko'zda tutildi va mazkur bo'limni o'qitish yo'lga qo'yildi. So'z yasalishi tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajralib chiqdi va bu bo'lim 16 soat davomida V sinfda o'qitiladigan bo'ldi.

Beshinchi davr – 1991-yildan keyingi davr. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ona tili ta'limi oldiga tamomila yangi talablar qo'yila boshlandi. «O'zbek maktablarida ona tili ta'limi Konsepsiyasi» (1993) ishlab chiqildi.

Ona tilidan DTS me'yorlari belgilandi va u davlat hujjati sifatida qabul qilindi, DTSga muvofiq keladigan «Ona tili» dasturlari yaratildi; maktab darsliklari yangilana boshlandi.

Ona tili ta'limining mazmuni, asosan, 50-yillarning o'rtalarida shakllantirilgan bo'lib, o'shandan beri dasturlar juz'iy o'zgarishlar bilan 1998–1999-o'quv yiliga qadar amalda bo'lib keldi. 60-yillarga kelib «Fan yutuqlari–maktabga» shiori o'rtaga tashlangach, maktab ona tili ta'limi shu qadar nazariylashib, grammatizm hokimligi yuzaga keldiki, o'qish ham, o'qitish ham zerikarli bo'lib qoldi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi nutqni rivojlantirishga qaratilgan foydali amaliy ishlar o'rniga son-sanoqsiz grammatik talqin, qoida va ta'riflarni ko'r-ko'rona «o'zlashtirish», ya'ni ularni qorilarcha yodlab olishdan nariga o'tilmadi.

Ona tili ta'limidagi yana bir murakkablik grammatik talqinlar bilan bog'liq chalkashliklar edi. Jumladan, olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki, fe'l, ravish, taqlidiy so'z, undov gap va hatto matnni almashtira olishi, ularga ishora etish

xususiyati hisobga olinmagan edi. Mavjud chalkashliklardan yana biri bir soʻz turkumidan ikkinchi soʻz turkumiga oʻtish talqini edi. «Dono qiz dono soʻzlaydi» gapida birinchi **dono** ravish soʻz turkumiga kiritilgan edi.

Sintaksisda ulkan chigallik tugʻdirgan masalalardan biri gap talqini masalasi edi. Shaxs-son, zamon koʻrsatkichiga ega boʻlmagan kesimlar ham «kesim» deb atalib, «Men borganda...», «U kelgandan keyin...» tipidagi gaplar ham qoʻshma gap sifatida qaraldi.

Shoʻro taʼlimi sharoitida nafaqat taʼlim mazmuni, balki oʻqitish usulida ham dogmatizm hukmron edi. Ona tili taʼlimi oʻquvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki va yozma shakllarda bayon qilishga oʻrgatishdan ancha yiroq boʻlib, ona tili taʼlimining asosiy maqsadi–nutqni shakllantirish va rivojlantirish uning soyasida qolib ketgan edi.

Milliy istiqloq maktab ona tili taʼlimi oldiga ham yangi ufqlar ochdi. Oʻzbekiston olamga yuz tutdi; ijtimoiy, maʼnaviy, iqtisodiy jabhalarda ulkan ijobiy qadamlar tashlandi. Mustaqil Respublikamizning xalq taʼlimi sohasidagi islohotlari bugungi kunda naqadar katta ijobiy natijalar berganligini hayotning oʻzi koʻrsatib turibdi. Bu islohotlar, avvalo, millatning gʻururi, uning iftixori – tiliga boʻlgan eʼtibordan boshlandi.

1989-yil 21-oktabr kuni «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilindi. «Oʻzbek tili Oʻzbekiston Respublikasining davlat tilidir», deb rasmiy ravishda eʼlon qilindi.

Tilimizga davlat tili maqomi berilishi Respublikamiz maktablarida oʻzbek tilining oʻqitilishiga eʼtiborni kuchaytirdi. Tarixiy ahamiyatga molik bu Qonun 1987-yilda tuzilgan, bir qator maktablarda muvaffaqiyatli ravishda sinovdan oʻtkazilgan «Ona tili» (V–IX sinflar uchun) dasturining takomillashtirilishiga turtki boʻldi hamda Oʻzbekiston Respublikasi XTV tomonidan 1989-yili 25-sentabrda 386-raqamli buyruq bilan taʼsis etilgan «Oʻzbek tili» doimiy anjumani (OʻTDA) 1-yigʻinida «Induktiv–2» ramzi bilan muqobil dastur sifatida muhokamaga chiqarildi.

Oʻzbek tili doimiy anjumani(OʻTDA) ning 1-yigʻini 1991-yilning aprel oyida «Oʻzbek tilini oʻrganish va oʻqitishni qayta qurish hamda takomillashtirishning dolzarb masalalari» mavzusida Samarqand shahrida oʻtkazildi. Yigʻinda 400 ga

yaqin o'qituvchi va olimlar ishtirok etdi. Birinchi yig'inning tarixiy ahamiyati buni boshqarib borgan bo'ldi. U o'sha davrda amalda bo'lgan «stabillashgan» ona tili ta'limi usuli, ta'lim mazmunini tubdan yangilash zarurligini, qotib qolgan andazalar bilan ishlash mumkin emasligini baralla aytdi va mavjud tanazzuldan chiqish yo'llarini belgilab berdi. Yig'in «Induktiv», «Ijod», «Ta'lim», «O'qituvchi» ramzli muqobil dasturlarni muhokamaga chiqardi va «Induktiv-2» ramzli dasturda qo'yilgan ona tili ta'limi maqsadi, mazmuni va usulini ma'qul deb topdi.

O'TDA ning 2-yig'ini 1993-yilning aprelida Qarshi shahrida bo'lib o'tdi. Anjuman «Ta'lim bo'g'inlarida ona tili o'qitish mazmunini yangilash asoslari» mavzusida ona tilidan ta'lim mazmuni muammolariga bag'ishlandi va RTM tomonidan nashr etilgan «Ona tili»dan ta'lim mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari» qo'llanmasi amaliyotchi o'qituvchilar va olimlar e'tiboriga havola etildi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta'limni tubdan isloh qilishga kirishildi. «Ta'lim to'g'risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari ona tilidan ta'lim mazmunini va usulini yangilash sari tashlangan katta qadamlar bo'ldi. Bu muammolar O'TDA ning 2-yig'ini muhokamasiga chiqarildi va ona tilidan ta'lim mazmunini belgilab berdi.

Ona tili ta'limida mustaqillik yillarida tashlangan ulkan qadam «O'zbek maktablarida ona tilini o'qitish Konsepsiyasi» bo'ldi. Mazkur hujjat 1993-yil 15-oktabrda O'zbekiston Respublikasi XTV tomonidan tasdiqlangan bo'lib, maktabda ona tili o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat deb belgilandi. Bunday maqsadning qo'yilishi bejiz emas, albatta. Milliy istiqloq sharofati bilan ona tili ta'limini takomillashtirish davom ettirildi.

O'zbek tilining grammatik qurilishidagi «ruslashtirish» samarasi bo'lgan juda ko'p ilmiy-grammatik talqinlar turkona talqinlar bilan almashtirildi. Ana shu yo'nalishda «Ona tili» o'quv fanidan darsliklar yaratish ishiga kirishildi.

Modomiki, ona tili ta'limidan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni nutqiy faoliyatga tayyorlash ekan, so'z boyligini oshirish birinchi galdagi vazifa sanaladi. Jizzax shahrida bo'lib o'tgan O'TDAning 3-yig'ini (1995-yil) xuddi mana shu masalaga bag'ishlandi. «Ta'lim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari» mavzusidagi anjumanda barcha shu'balar bo'yicha 283 ta ma'ruza tinglandi. Bu ma'ruzalarning ko'pgina qismi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirishning samarali yo'llari, vositalari va usullariga bag'ishlandi. Yig'in ona tilidan sinov darsliklari nashrini tezlashtirish xususida tavsiya qabul qildi. «Ona tili»dan 5-sinflar uchun sinov darsligi 1997-yilda yaratilgan bo'lib, uning tuzilishi ham, mazmuni ham oldingi darsliklardan farq qiladi. 6-sinflar uchun sinov darsligi 1998-yilda yaratildi. Bu darslik o'z ichiga, asosan, so'zlarning lug'aviy shakllari va ma'no guruhlarini qamrab olgan.

5–6-sinflar uchun yaratilgan sinov darsliklarida «til–me'yor–nutq» mutanosibligiga qat'iy amal qilindi. Buning ma'nosi shuki, ona tili darslarida o'quvchi til hodisalarini kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, guruhlash, hukm chiqarish, xulosalash, fikrni og'zaki bayon etish, ijodiy matn tuzishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni mustaqil bajaradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishlovchisiga, o'qituvchini esa shu jarayonning tashkilotchisiga aylantiradi.

1997-yil ona tili ta'limidagi muhim voqealardan biri Vatanimiz poytaxti Toshkentda O'TDA «Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari» mavzusidagi 4-yig'inining o'tkazilishi bo'ldi. Mazkur anjuman ijodiy matn yaratish muammolariga bag'ishlandi. Respublikamizning 700 dan ziyod o'qituvchisi uch kun davomida o'quvchilarni ijodiy matn yaratishga o'rgatish yo'llari, vositalari va usullarini muhokama etdilar.

1997-yil 13-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi 203-Qarori barcha o'quv fanlari qatori ona tilidan Davlat ta'lim standarti (DTS)ni yaratish va uni sinovdan o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi XTV oldiga muhim vazifa sifatida qo'ydi. O'z.R. PFITI va BuxDU tomonidan hamkorlikda tuzilgan

DTS bir yil davomida sinovdan o'tdi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori bilan 1999-yil 16-avgustda tasdiqlandi. Endigi vazifa ona tilidan DTS va o'quv dasturiga asosan yangi darsliklarni yaratish hamda belgilangan tartib va muddatlarda ularni nashriyotga topshirishdan iborat edi. Bu murakkab vazifa ham muvaffaqiyatli hal etildi.

Qo'yilgan vazifani hal etishda O'TDAning 1999-yil Buxoro shahrida «Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari» mavzusida o'tkazilgan 5-yig'ini muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Anjumanda barcha shu'balar bo'yicha 173 ta ma'ruza tinglandi. Ma'ruzalarning ko'pchiligida yaratilgan sinov darsliklariga munosabat bildirildi. Mualliflar guruhi bu bildirilgan fikr-mulohazalardan tegishli xulosalar chiqardilar hamda ularni qayta ishladilar.

«O'zbek tili» doimiy anjumani (O'TDA) 6-yig'ini 2001-yilda Farg'ona shahrida «Ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari» mavzusida bo'lib o'tdi.

«O'zbek tili ta'limida milliy istiqlol g'oyasini singdirish masalalari» mavzusidagi «O'zbek tili» doimiy anjumani (O'TDA) 7-yig'ini 2003-yil Namangan shahrida bo'lib o'tdi. O'zbek tili ta'limi jarayonida milliy istiqlol g'oyasini singdirish masalalariga e'tibor qaralilib, 130 ga yaqin ma'ruzalalar tinglandi.

«O'zbek tili» doimiy anjumani (O'TDA) 8-yig'ini 2005-yilda Xorazm shahrida bo'lib o'tdi.

«O'zbek tili» doimiy anjumani 9-yig'ini 2007-yil Surxondaryo shahrida «XXI asrda O'zbek tili ta'limi masalalari» mavzusida bo'lib o'tdi.

«O'zbek tili» doimiy anjumani 10-yig'ini 2009-yil 16-17-aprel kunlari Andijon shahrida «Til ta'limi bosqichlarida uzviylikni ta'minlashning ilmiy-amaliy muammolari» mavzusida o'tkazildi.

«O'zbek tili» doimiy anjumani 11-yig'ini 2011-yil 15-aprelda Chirchiq shahrida «O'zbek tili ta'limida pedagogik texnologiyalarning o'rni» mavzusida tashkil etildi. 400 ga yaqin tezislardan 212 tasi saralanib, to'plamga kiritilgan.

“O‘zbek tili” doimiy anjumani 12-yig‘ini 2013-yil Guliston shahrida “Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish-o‘zbek tili ta’lim samaradorligini oshirish omili” mavzusida bo‘lib o‘tdi.

“O‘zbek tili” doimiy anjumani 13-yig‘ini 2015-yil Navoiy shahrida “Ta’lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari” mavzusida o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, barcha o‘quv fanlari qatori ona tilidan ham ta’lim mazmuni va usulini yangilashning benihoya ulkan imkoniyatlari yuzaga keldi.

2000–2001-o‘quv yilidan sinov darsliklari ommaviy nashrdan chiqdi. Ona tili o‘quv dasturi asosida ommaviy amaliyotga tatbiq etilgan (H. Ne‘matov va A. G‘ulomov boshchiligidagi), keyinchalik yanada boyitilgan (N. Mahmudov boshchiligidagi) ona tili darsliklarining shakli va mazmuni ongli verbal-kognitiv ta’lim tamoyillariga mos keladi. Chunki ona tilidan 5–9-sinflar uchun yaratilgan yangi avlod darsliklari ongli, verbal, induktiv-kognitiv-pragmatik ta’lim usuli asosida qurilgan.

E’tibor bersak, darsliklardagi o‘quv materialining soddadan murakkabga, umumiylikdan xususiylikka, tahlildan qonuniyatga ko‘rinishda joylashtirilishi ham, darslik topshiriqlarining berilishidagi bosqichli ketma-ketlik ham, har bir dars mashg‘ulotida o‘quvchilarning faoliyat yuritishlari ham, bu faoliyatning mavzudan mavzuga, sinfdan sinfga murakkablasha borish yo‘llari ham, o‘rganish jarayonining faol kuzatishidan boshlanib, amaliy qo‘llash bilan yakunlanishi ham ongli verbal-kognitiv-psixodidaktik tamoyillarga to‘la mosdir.

Ona tili dastur va darsliklari yangi avlodining yangilangan ta’lim maqsadi, mazmuni ifodasi sifatida yaratilishi o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarining tubdan yangilanishiga sabab bo‘ldi. Chunki bu darsliklar asosidagi mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tabiiy ravishda dars subyekti mavqeiga ko‘tariladi, o‘qituvchi esa shu jarayonning boshqaruvchisiga aylanadi. O‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlaridagi bu yangilanish o‘quvchining mustaqil faoliyati uchun katta imkoniyatdir.

Maktabda ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalari. Maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi. Ma’lumki, til jamiyat a’zolari o‘rtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma ravishda bayon qila olish, o‘z ichki kechinmalarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunining 7-moddasida: «Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi», – deyilgan. O‘quvchining bilim saviyasiga qo‘yiladigan talab esa, ta’lim jarayoni oldiga qo‘yiladigan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Shunday ekan, Davlat ta’lim standartlari, shu jumladan, ona tili Davlat ta’lim standarti ham ta’lim jarayoni oldiga qo‘yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab berilgan. Ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya’ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta’limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yiladi.

Ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning jamiyat a’zolari o‘rtasida bajaradigan ana shu vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o‘z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar. Ular doimo o‘zlarini o‘rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar, voqea-hodisalar to‘g‘risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini bir-birlariga ma’lum qiladilar.

Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar o‘rtasida fikr almashish bo‘lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to‘xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun ham har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo uni egallab olishi zarur. Tilni o‘rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta’rif va qoidalarni o‘zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. Ona tili fani bolaga tilni o‘rgatish bilan

birga, uning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me'yorlarini ham o'rgatadi.

Shunday qilib, ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan–savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda DTS talabiga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni :

–o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

–o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatish.

Shunday qilib, UO'T maktablarining 5–9-sinflarida o'qitiladigan «Ona tili» o'quv fani o'quvchilarda:

- o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki va yozma shakllaridan keng va to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berishni;

- o'zbek tilidan to'g'ri talaffuz, imlo va punktuatsiyaning asosiy qoidalarini o'zlashtirib olishni;

- ona tilining xazinasi bo'lmish turli lug'atlardan foydalana olishni;

- o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda, turli shakllarda ifodalay olish ko'nikmalarini hosil qilishni;

- muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish yo'llarini;

- kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarini yuritish ko'nikmalarini;

- yosh va malaka darajasiga mos bo'lgan badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazasini, shaxsiy munosabatini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish ko'nikmasini;

• moddiy borliqni o'rganish va uni tafakkur birliklarida ifodalashda, jamiyat a'zolari orasida muloqot o'rnatishda ona tili va boshqa tillarning beqiyos ahamiyatini his etish uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumot va amaliy ko'nikmalar berishni asosiy vazifa qilib oladi.

Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash belgilari. O'quvchining o'quv materialini o'zlashtirish jarayoni murakkab jarayon bo'lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, alohidaliklarni aniqlash, qo'llash singarilar bilan bog'liq. Bular ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning muhim belgilari bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. **Kuzatish**–darslik (o'qituvchi) topshirig'i asosida ona tili hodisalaridan berilgan (ko'rsatilgan) namunalarni kuzata olish;

2. **Izlanish**–o'ylash, xotirada tiklash so'rash, lug'at, qomus, ma'lumot manbalaridan foydalanish asosida hodisalar sirasini boyita olish;

3. **Alohidaliklarni sharhlash**–berilgan va o'zi davom ettirgan siradagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;

4. **Qiyoslash**–siradagi hodisalarni o'zaro qiyoslay olish;

5. **Umumiylikni aniqlash**–siradagi hodisalarning o'xshash, umumiy tomonlarini aniqlay olish;

6. **Farqlarni topish**–siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlay olish;

7. **Tasnif etish**–siradagi hodisalarni o'xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarga ajrata olish;

8. **Hukm chiqarish**–hodisalar sirasi haqida umumlashma (hukm,xulosa,qoida) chiqara olish;

9. **Alohidaliklarni aniqlash**–o'rganilgan hodisalarining yondoshlari (ma'nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari, zidlari va h.k.) bilan munosabatlarini (yaqinlik,o'xshashlik va farqlarini) aniqlay olish;

10. **Qo'llash**–hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og'zaki shakllarda sharhlab, ijodiy matn tuza olish.

Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko‘rinishi matn yaratishdir. Shu sababli, ona tili darslarida matn ustida ishlash yetakchi yo‘nalish kashf etishi lozim. Maktab «Ona tili» dasturi va darsliklarida (VII sinfning oxiri va VIII sinfning boshida) «Ijodiy matn» bo‘limining kiritilishi ham xuddi shu maqsadni ko‘zlaydi.

O‘rta umumiy ta’lim maktablari uchun ona tilidan DTSning tarkibiy qismlari va uning mezonlari. Ona tili ta’limi natijasida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar uch parametrlil standart ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

1. O‘qish texnikasi (minut, so‘z birliklari). Bolaning savodxonligi, yozma nutq belgilarini talaffuzda almashtirish ko‘nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o‘quvchining notanish bo‘lgan matnni ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko‘rsatkich sifatida ifodali o‘qish tezligi, ya’ni bir daqiqada berilgan matndan nechta so‘z o‘qiy olish ko‘rsatkichi olingan. O‘quvchi sinfdan sinfga ko‘chgan sari so‘z miqdori ham, matnning murakkablik darajasi ham ortib boradi.

2. O‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi. Bolaning bayon qilinyotgan o‘zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qila olish darajasi aniqlanadi.

3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (minut, tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta’limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi. O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnida o‘z ifodasini topadi. Bu parametr bo‘yicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash;
- b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, fahmiy-konkret, mavhum va h.k.);
- v) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;
- g) tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasini aniqlash;

d)imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

UO‘T maktablarini bitiruvchi o‘quvchilar «Ona tili» o‘quv fanidan quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashlari zarur:

Amaliy malaka va ko‘nikmalar:

a) o‘qish texnikasi bo‘yicha: miqdoriy ko‘rsatkich 9-sinfning oxirida bir daqiqada 120–130 so‘z. Sifat ko‘rsatkichlar–murakkab tipdagi ilmiy atama va ramzlarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ma‘nosini anglagan holda to‘g‘ri va ravon o‘qish;

b) o‘zgalar fikri va matn mazmunini anglash malakasi bo‘yicha: miqdoriy ko‘rsatkich –10 minutda 11–12 sahifa. Sifat ko‘rsatkichlar–og‘zaki nutqning aniqligi, matn mazmuniga mos bo‘lishi, to‘g‘ri, ravon va ta’sirchan bo‘lishi;

v) fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo‘yicha: miqdoriy ko‘rsatkich 10-12 gap (5-sinf), 12-14 gap(6-sinf), 14-16 gap(7-sinf), 20-25 gap(8-sinf), 25-30 (9-cinf)gapdan iborat bo‘lgan tugal matn(fikr ehtiyoji bilan bog‘liq mavzu asosida) yaratish. Sifat ko‘rsatkichlar–matndagi gaplarning mazmunan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi, ko‘rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, matndagi abzaslarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta‘minlash, o‘rganilgan ifoda vositalarini o‘rinli qo‘llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish, ish qog‘ozlari (ariza, ma‘lumotnoma, ishonch xati, vakolatnoma, ixcham hisobot, axborot kabilar)ni yoza olish.

Muhokama matn yaratish. Fonetik, lug‘aviy, morfologik, sintaktik, uslubiy tahlil qilish. Bayon, insho yozish, yozma ish uchun material to‘plash, to‘plangan materialni tizimga solish, sodda va murakkab reja tuzish, yozma ishga epigraf va ma‘lum asarlardan sitatalar tanlash, qiziqarli epizod qo‘shish, xatboshilarni to‘g‘ri belgilash, dialoglarni to‘g‘ri ajratish, dialogning muallif so‘zi qismida qahramonning ruhiyatini ochuvchi, uni tavsiflovchi so‘zlarni berish, gaplarni va matn parchalarini o‘zaro bog‘lovchi leksik-grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llash. Matnni tahlil qilish.

DTS talabiga ko'ra UO'T maktablarining 5–9-sinflarida «Ona tili» o'quv fanidan o'quvchilar quyidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari zarur:

a) grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlar: fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar.

b) nutqni o'stirish: birinchi yo'nalish–o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish (o'quvchilarning o'zlari uchun yangi bo'lgan so'zlarning ma'nosini va qo'llanish doirasini aniqlash); ikkinchi yo'nalish–o'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rganish, adabiy talaffuz me'yorlari (to'g'ri talaffuz me'yorlari, so'z birikmalari va gap tuzish me'yorlari, so'z turkumlari va sintaktik tuzilishlarining uslubiy imkoniyatlari, xususan, sinonimikasi), shuningdek, lug'aviy sinonimika va qo'shimchalarning sinonimikasi hamda, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishish; uchinchi yo'nalish–o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka va ko'nikmalari shakllanadi.

Fonetika, imlo, to'g'ri talaffuz, tinish belgilari, harf va tovush:

- har bir harf ifodalaydigan tovushlarni va o'zbek alifbosi sirasini, so'zlarni to'g'ri va ravon o'qishni bilish;

- bosh harflarning ishlatilishida asosiy o'rinlar;

- unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undoshlar;

- jarangli undoshlarni so'z oxirida va jarangsiz undoshlardan oldin o'qish va yozish qoidalari;

- bo'g'in, so'zni bo'g'inlarga ajratish, bo'g'in va so'zning ko'chiriladigan qismlari, so'z urg'usi;

- gap ohangi, darak, so'roq, buyruq, undov ohanglari va darak, so'roq, buyruq, undov gaplarda tinish belgilarini to'g'ri qo'llash. Ayni gapni darak, so'roq, undov ohanglarida talaffuz etish va yozish;

- xat boshi (abzas) haqida tushuncha;

- soʻz va uning maʼnosi. Darslik va kitoblarga ilova qilinadigan lugʻatlardan, sahifa osti izohlardan foydalanish koʻnikmalari. Soʻzning maʼnodoshlari haqida ilk tasavvur;

- imlo lugʻati, undan foydalanish koʻnikma va malakalari;
- izohli lugʻat haqida tushuncha;
- grammatika: soʻz tarkibi, oʻzak va qoʻshimcha. Soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalar;

- grammatika: mustaqil soʻz turkumlari (feʼl, ot, sifat, son, ravish, olmosh) va yordamchi soʻzlar;

- feʼl: feʼlning maʼnosi va soʻroqlari; boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar;
- ot: otning maʼnosi va soʻroqlari, otning birlik va koʻplikda qoʻllanilishi. Atoqli va turdosh otlar;

- sifat: sifatning maʼnosi va soʻroqlari;
- olmosh: kishilik olmoshlari, I, II, III shaxs kishilik olmoshlarining birlik va koʻplikda qoʻllanilishi;

- yordamchi soʻzlar: *va, lekin, biroq, ammo, shuning uchun, bilan, uchun, singari* soʻzlaridan foydalanish;

- nutq madaniyati, stilistika;
- oʻzbekcha nutqda senlash va sizlash (gapning egasi va kesimida bunday maʼnoning ifodalanishi);

- kishi nomlari, qavm-qarindoshlik nomlarida -jon, -xon, -oy, -bonu kabi hurmat va ehtirom qoʻshimchalarining qoʻllanilishi;

- hurmat-ehtirom, doʻq-poʻpisa ohangi;
- kishi nomlari, qavm-qarindoshlik nomlaridan oldin hurmat-ehtirom ifodalovchi soʻzlarni qoʻllash, egalik qoʻshimchalarining hurmat-ehtirom yaqinlik maʼnolarida qoʻllanilishi;

- matnda narsa-buyum, shaxslarni atab keluvchi otlarni qoʻllash va kishilik olmoshlari bilan almashtirish;

- ayni bir fikr- axborotni sodda va qoʻshma gaplar bilan ifodalash,

- til haqidagi umumiy ma'lumotlar;
- adabiy nutq va so'zlashuv nutqi: adabiy nutqning yozma va og'zaki ko'rinishlari;

- tillarning rang-barangligi; ko'p tillilik tushunchasi;
- tillarning bir-biriga ta'siri, so'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi.

O'quvchilar 9-sinfning oxirida bayon, insho, ish qog'ozlari, referat, ma'ruza, maqola, xabar, ma'lumotnoma yoza olishlari, yozma ish uchun material to'play bilishlari, to'plangan materiallarni tizimga sola olishlari, sodda va murakkab reja tuza olishlari, yozma ishga epigraf va ma'lum asardan sitatlar tanlay olishlari, qiziqarli epizod qo'sha olishlari, xat boshilarni to'g'ri belgilashlari, dialoglarni to'g'ri ajratishlari, dialogning muallif so'zi qismida qahramonning ruhiyatini ochuvchi, uni tavsiflovchi so'zlarni bera olishlari, gaplarni va matn parchalarini (murakkab sintaktik butunliklarni) o'zaro bog'lovchi leksik-grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olishlari, uslubiy sinonimlardan foydalana olishlari, murakkab sintaktik butunliklarning tarkibiy qismlarini to'g'ri shakllantira olishlari lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Ona tilini fan sifatida o'qitishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy zaruriyatlari deganda nimani tushunasiz?

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida «O'zbek tili»ning o'quv fani sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixini qanday davrlashtirish mumkin?

3. Ona tili ta'limining asosiy maqsadi nimadan iborat?

4. «O'zbek tili» doimiy anjumanlari(O'TDA) haqida nimalar bilasiz?

5. Maktabda ona tili o'qitishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

6. Mustaqillik yillarida yaratilgan «Ona tili» darsliklari haqida fikr-mulohaza bildiring.

7. Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning muhim belgilarini ayting.

8. Nima uchun matn ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko'rinishi hisoblanadi?

9. Ona tilidan o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi qaysi parametrlar orqali tekshiriladi?

10. Ona tili darslarida o'quvchini ta'lim jarayonining subyektiga aylantirishda nimalarga e'tibor berish kerak?

11. Ona tili darslarida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi pedagogik hamkorlik deganda nimani tushunasiz?

12. Maktabni bitiruvchi o'quvchilarning «Ona tili» o'quv fanidan egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini ayting.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 1-maxsus son. Toshkent, «Sharq», 1999, 303.

2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. Toshkent, 2017.

3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5–9-sinflar). Toshkent, 2010, 10–41-b.

4. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar(5–9-sinflar). (Tuzuvchilar: M.Abduraimova, G. Ziyodullayeva), Toshkent, «Sharq», 2010.

5. Jumaxo'jayev A. Istiqlol va ona tilimiz. Toshkent, «Sharq», 1998.

6. Ona tili–davlat tili (Tuzuvchilar: N. Jumaxo'ja, R. Jomonov). Toshkent, «Adolat», 2004, 79.

7. Uzluksiz ta'lim bo'g'inlari uchun ona tilidan muqobil dasturlar. Toshkent, «O'qituvchi», 1994, 246.

8. O'zbek maktablarida ona tili konsepsiyasi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. 1994. 1–2-sonlari.

9. Qosimova N. Ona tili ta'limi va yangi pedagogik texnologiyalar. Buxoro, 2009, 103.

10. G'ulomov A, Ne'matov H. Ona tili ta'limining mazmuni. Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 124.

O‘ZBEK TILINI O‘QITISH TAMOYILLARI (PRINSIPLARI)

Tayanch tushunchalar:

O‘qitish tamoyillari (prinsiplari), umumdidaktik prinsiplar: o‘qitishning bolaga ma’lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o‘qitishning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarligi; sistemaviylik va izchillik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi; ongliklik, faollik va mustaqillik; ko‘rsatmalilik; o‘quvchilarga individual munosabatda bo‘lish va ularning o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish. Shu fanni o‘qitishning o‘ziga xos prinsiplari:»til-me‘yor-nutq mutanosibli» prinsipi; o‘zbek tili fanini o‘qitish orqali o‘quvchilar tafakkurining o‘sishiga erishish prinsipi;o‘zbek tilini o‘qitishda mavzulararo, bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishga qat’iy amal qilish prinsipi; o‘quvchilarni til hodisalarini ajratishga o‘rgatish prinsipi; o‘zbek tilini o‘qitish orqali o‘quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini oshirish prinsipi; ona tili o‘qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta’sirini nazarda tutish prinsipi.

Ta’lim prinsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo‘ygan talablaridan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish o‘qitish prinsiplarini amalda to‘g‘ri qo‘llash bilan chambarchas bog‘langan.

O‘qitish prinsipi nima? «Prinsip» lotincha so‘z bo‘lib, asos, qoida, talab singari ma’nolarni ifodalaydi. «O‘qitish prinsipi» deganda dars samaradorligini ta’minlash, ta’lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qo‘yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. O‘qituvchi ta’lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlagan holda amalda tadbiq etish orqali ko‘zlangan maqsadga erishadi.

Ona tili darslarida bir tomondan umumdidaktik prinsiplar, ikkinchi tomondan shu fanni o‘qitishning o‘ziga xos prinsiplarini hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Umumdidaktik prinsiplar garchand maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarga aloqador bo‘lsa-da, ammo u har bir fanning ichki tabiatidan, o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Maktabda o‘qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy

bo'lgan didaktik prinsiplar: o'qitishning bolaga ma'lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o'qitishning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarligi; sistemaviylik va izchillik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi; onglilik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish va ularning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi prinsiplar garchand umumdidaktik prinsiplar sanalsa ham, ammo ona tili o'qitish nazariyasi va usuliyatida ularning har biri o'ziga xos mazmun kashf etadi.

Ona tili o'qitishda umumdidaktik prinsiplar bilan bir qatorda shu fanning tabiatidan kelib chiqadigan quyidagi o'ziga xos prinsiplar ham mavjud: a) «til-me'yor-nutq mutanosibligi» prinsipi; b) o'zbek tili fanini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish prinsipi; v) o'zbek tilini o'qitishda mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishga qat'iy amal qilish prinsipi; g) o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish prinsipi; d) o'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini oshirish prinsipi; e) ona tili o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish prinsipi.

Maktabda ona tili o'qitishning bu o'ziga xos prinsiplari umumdidaktik prinsiplar bilan uyg'unlashib, ona tili darslari samaradorligini ta'minlovchi asosiy talablar silsilasini vujudga keltiradi.

Quyida umumdidaktik va ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplariga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Ona tili o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi prinsipi.

Maktabda o'quvchilar ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o'ta zarur bo'lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarni to'g'ri ishlatish yuzasidan zarur ko'nikma va malakalar bilan ta'minlanadi. Ayni vaqtda ona tili mashg'ulotlari o'quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

Ta'lim, tarbiya va rivojlanish–bir butun jarayon. Ularni bir-biridan ajratgan holda alohida-alohida yoki darsning muayyan bir bosqichida birin-ketinlik bilan

amalg oshirib bo'lmaydi. O'quvchilar til hodisalarini o'rganishar ekan, ayni vaqtda shu jarayonda ularga tarbiya beriladi; shaxsi rivojlantiriladi.

Ma'rifiy matnlar ta'lim, tarbiya va rivojlanishni ta'minlovchi muhim vositadir.

Ona tili mashg'ulotlarida tanlanadigan matnlar mavzu jihatidan rang-barang bo'lsa, o'quvchilarning til materiallariga qiziqish darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Ona tili darslarini o'quvchilarning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, turmushi bilan bog'lash, foydalanish uchun tanlanadigan rasmlarning mazmun va mavzuiy rang-barangligini kuchaytirish darsning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo'nalishini oshiradi.

Ma'lumki, ona tili darslarida o'quvchilar bajaradigan ishlar: kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari; hayol, diqqat, xotira, tafakkur kabi shaxsiy psixik xususiyatlarni rivojlantirish, qiyinchiliklarni yengish mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ayni vaqtda o'quvchi shaxsini rivojlantiradi.

Shunday qilib, ona tili darslari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zlaydi. Bu prinsiplar qancha uyg'un bo'lsa, ona tili darslarining samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Ona tili o'qitishda ilmiylik va tushunarlilik prinsipi. Ta'limning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli bo'lishi prinsiplari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalardir.

Ta'limning ilmiyligi prinsipi o'quv materialini hozirgi zamon o'zbek tilshunosligi fani yutuqlari asosida bayon qilishni taqozo etsa, ta'limning bolalar uchun tushunarli bo'lishi prinsipi o'quv materiallarini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, ularning umumiy taraqqiyoti hamda bilish imkoniyatlariga moslab bayon qilishni talab etadi. Ta'lim jarayoni mantiqi bu prinsiplarni o'zaro aloqadorlikda qarashni zaruriyat qilib qo'yadi. Mazkur prinsipga ko'ra ona tilidan har bir sinfdan o'rganiladigan material hajm hamda mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Maktabda ona tili fani o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlarga tayanadi. Bu prinsip o'quvchilarni hozirgi o'zbek tilshunosligida qat'iy hal etilgan, ilmiy asoslangan bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi.

Shubhasiz, o'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan barcha bilimlarni bolaga berishning iloji yo'q. Biz bolaga, asosan, o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bema'lol foydalanish, to'g'ri yozish, to'g'ri o'qish, to'g'ri fikrlash va to'g'ri so'zlash uchun unga zarur bo'lgan bilimlarnigina berish imkoniyatiga egamiz, xolos. Demak, maktab ona tili kursi o'quvchilarni yuqorida tilga olingan malakalar bo'yicha o'ta zaruriy bilimlar tizimi bilan qurollantiradi.

Ilmiylik prinsipini tushunarliklikdan ajratib bo'lmaydi. Bu ikki prinsip bir-birini to'ldiradigan va dars samaradorligini ta'minlaydigan yagona prinsip sanaladi. Sababi, ilmiy bilimlar tushunarli bo'lmasa, o'quvchi uni o'zlashtira olmaydi.

Maktab ona tili darsliklarida ilmiylik va tushunarlikni ta'minlash uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

- fanda ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan, ilmiy jihatdan asoslangan maktab atamalarini ishlatish; har bir tushuncha va atamaning ma'nosini atroflicha ochish; ularni bolalarning puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun yetarli miqdorda asosli materiallar bilan tahlil qilish;

- o'rganilayotgan o'quv materialining oldin o'rganilgan mavzular bilan bog'liqligiga amal qilish; bolalarni keyingi mavzularni o'zlashtirishga tayyorlash; til asoslari, tushunchalarini o'zaro chog'ishtirib o'rganish;

- ona tili ta'limi mazmunida grammatizmga yo'l qo'ymaslik, o'quv materialini bolalarda mustaqil va ijodiy fikrlashga, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga bo'ysundirish;

- o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning ruhiy (psixologik) xususiyatlari va imkoniyatlariga mo'ljallab tanlash.

Ona tili o'qitishda sistemaviylik va izchillik prinsipi. Ma'lumki, ona tili o'quv fani sifatida ma'lum tizimdan iborat. Bu sistema o'zbek tilining fonetik,

leksik, grammatik tomonlarini o'z ichiga oladi. Ana shu til tizimini tashkil qilgan unsurlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ular bir-biri bilan uzviy va chambarchas bog'langan.

Maktabda tilning fonetikasini o'rganmasdan uning gramma-tikasini o'rganish mumkin emasligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Fonetika va grafikani yetarli darajada o'zlashtirgan o'quvchigina leksikani puxta o'zlashtiradi. Leksika puxta o'rganilgach, so'z turkumlarini o'rganish osonlashadi. Shuning uchun til hodisalarini o'zaro uzviy aloqadorlikda o'rganish uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy vosita sanaladi.

Ta'limda izchillik prinsipi sistemaviylik prinsipi bilan uzviy bog'langan. Kishining kundalik faoliyatida ham, o'quv ishlarida ham muttasillik, muntazamlilik bo'lishi shart. Akademik I.T.Pavlov: «Ishning boshlanishidayoq o'zingizni fan asoslarini izchil egallashga o'rgating. Fanning eng yuksak cho'qqilarini egallashdan oldin uning ibtidosini o'rganing. Oldingilarini o'zlashtirmasdan turib, keyingilarini o'rganishga o'tmang»,—deb o'quvchilarga maslahat beradi.

Bolalarning nutqiy tayyorlanganligiga tayanish, ularning boshlang'ich va oldingi sinflarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o'rganilgan, o'rganilayotgan va keyin o'rganiladigan bilimlar o'rtasida mantiqiy aloqadorlikni ta'minlashga izchillik prinsipi orqali erishiladi.

Ona tili dasturlarida materialning bosqichli ketma-ketlik prinsipi asosida berilishi izchillik prinsipini amalga oshirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Chunki muayyan bir mavzu yuzasidan o'quvchilarda zarur bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish faqat shu mavzu doirasida qolib ketmaydi. Keyingi bosqichda egallangan bilimlar mustahkamlanadi va eng muhimi, bu bilimlarni o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish orqali ular amaliy ko'nikma va malakaga aylanadi.

Sistemaviylik va izchillik prinsipi nafaqat o'qituvchi faoliyatida, balki o'quvchi faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega. Fikrni bayon qilish tartibini belgilash, bayon va insho uchun oddiy va murakkab reja tuzish kabi topshiriqlar o'quvchilardan sistemaviylik va izchillikni talab etadi.

Shunday qilib, sistemaviylik va izchillik prinsipi ona tili ta'limining mazmunini belgilashda ham, o'qituvchi faoliyatida ham, o'quvchi faoliyatida ham o'z ifodasini topadi. Bu prinsipni amalda tadbqiq etish ta'lim mazmunini takomillashtiradi; o'quvchilarning o'quv-biluv faolligini oshiradi.

Ona tili o'qitishda nazariyani amaliyot bilan bog'lash prinsipi. Ona tili o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash deganda o'quvchilarning tildan egallayotgan ilmiy–nazariy bilimlarini amalda qo'llashini ta'minlash, ularni mustaqil turmush uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishni tushunamiz. Nazariyani amaliyotga bog'lash ona tili o'qitishni foydali maqsadlarga burish, o'rganilayotgan til hodisalarini o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga bo'ysundirish, til ta'limini hayot bilan, kundalik turmush bilan, odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'lash demakdir.

O'quvchi o'z ona tilini yaxshi o'rganib olsagina, uning zehni, aqli, ongi va umumiy madaniy darajasi ortadi. O'z tilining keng imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bimalol foydalana oladigan shaxsgina xalq yaratgan madaniy-tarixiy boyliklardan xabardor bo'ladi va u boshqa fanlar asosini chuqur o'zlashtirishga dadil qadam tashlaydi. Og'zaki hamda yozma nutqdan foydalanish malakasiga ega bo'lgan o'quvchi ertangi ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda ijodiy faoliyat ko'rsata oladi. Mustaqil turmushga uning ona tilidan bilganlari, to'g'ri yozish va o'qish malakalari, mazmunli va chiroyli so'zlash san'ati, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash ko'nikmalari, ish qog'ozlari bilan muomala qilish uquvi qo'l keladi. Shuning uchun ham ona tili o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash prinsipi juda muhim qonuniyat sanaladi.

Ayrim o'qituvchilar: «O'quvchi o'z ona tilining qonun-qoidalarini bilsa, aytib bersa, u savodli yozadi»,–degan fikrni ilgari suradilar. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Chunki ona tilining qonun-qoidalarini bilish boshqa, undan amaliy ish jarayonida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish boshqa.

Ona tili o'qitishda nazariyani amaliyot bilan bog'lash maqsadida har bir soatlik dars mashg'ulotida o'qituvchi o'quvchilarga mavzu yuzasidan nimalarni bilishlari va nimalarni amalda qo'llay olishlari lozimligini aytishi maqsadga muvofiqdir.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar tomonidan tuziladigan matnlar, yoziladigan bayon va insholar nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, til hodisalarini tahlil qilish va tahlil qilingan hodisalarga tayanib xulosalar chiqarish, o'rganilgan qoidalarni dalillar vositasida isbotlash, matn ustida ishlash, ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish nazariyani bevosita amaliy faoliyatga olib o'tadi.

Ona tili ta'limini turmush bilan bog'lashning asosiy omillaridan biri o'quvchilarga ish qog'ozlaridan foydalana olish malakalarini singdirishdir. O'qituvchi har bir bo'lim va mavzuning talabi hamda imkoniyatidan kelib chiqib, bu ishni amalga oshirish choralarini ko'rishi lozim. Chunonchi, «Atoqli otlar va ularning imlosi» mavzusi o'rganilar ekan, manzilgoh yozish ustida ish olib borilsa, «Shart maylidagi fe'llar» mavzusini o'rganishda qaror matni ustida to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash prinsipi vaqtli matbuot, ommaviy axborot vositalari, badiiy adabiyotdan unumli foydalanishni talab etadi.

Ona tili o'qitishda onglik, faollik va mustaqillik prinsiplari. Didaktik adabiyotlarda onglik deganda o'rganilayotgan mavzuga oid axborot mazmunini asosli egallash, xulosa va umumlashmalarni chuqur va atroflicha fahmlash, mavzu yuzasidan bilimlarni sistemali va to'g'ri bayon qilish, egallangan bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'rganilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana olish tushuniladi. Bu prinsip til hodisalarining mohiyatini anglab, tushunib, ongli o'zlashtirishni talab qiladi.

Onglik prinsipi o'quvchida ona tili o'qitishning asosiy maqsadini to'g'ri anglash, mavzularni ongli egallash, bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish, mustahkamlash kabi xususiyatlarni tarbiyalaydi.

Ona tili materiallarining ongli o'zlashtirilishini ta'minlash o'qituvchi oldiga qator talablar qo'yadi. Bu talablar:

a) o'quv materialining bolalar yosh xususiyati va bilim saviyasiga mos tushishi, ularning o'quv imkoniyatlariga to'g'ri kelishi;

- b) o'rganiladigan materialni o'rganilgan materiallar bilan uzviy bog'lash;
- v) grammatik tushunchalar yuzasidan bolalarning fikrlash faoliyatini yuzaga keltirish; zaruriyat tug'ilganda ana shu tushunchalarni qisqa va tushunarli izholash;
- g) misollarning aniq va hayotiy bo'lishi, o'quvchilar topgan misollardan unumli foydalanish;
- d) mashqlarning qiziqarliligi va xilma-xilligiga erishish;
- e) darsni ma'lum bir sistemada olib borish;
- yo) tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurol va texnik vositalardan unumli foydalanish kabilar bo'lib hisoblanadi.

Onglilik ta'lim jarayonida o'quvchilarning faollik ko'rsatishi bilan chambarchas bog'langan. Chunki ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirmay turib, o'quv materialining ongli o'zlashtirilishiga erishib bo'lmaydi. O'quvchi dars jarayonida ongli ravishda o'zlashtirgan bilimlardangina amaliy faoliyatda bimalol foydalanishi mumkin.

Ta'limda faollik va mustaqillik o'zaro uzviy bog'langan didaktik kategoriyalardir. Har qanday faollik asosida aqliy faoliyat yotadi. Ammo bu «faollik» va «mustaqillik» bir xil tushunchadir degan fikrga olib kelmasligi kerak. «Faollik» «mustaqillik» tushunchasiga nisbatan ancha keng ma'noga ega. Faollik deganda biz o'quvchining ham o'qish, ham mehnat, ham ijtimoiy topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faoliyatini nazarda tutamiz. O'quv faolligi umumiy faollikning ajralmas qismi bo'lib, u bilimlarni egallash, bilishga qaratilgan faoliyatdir. Demak, bilish faolligi bola faoliyatining mahsuli bo'lib, bilimlarni egallashda faol ishtirok etish, kuchaytirilgan faoliyat ko'rsatish demakdir.

«Faollik» va «faollashtirish» ham bir tushuncha emas. Faollik shaxsning bilimlarni puxta egallash, o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollashtirish esa muayyan faoliyat jarayonida shaxsning aqli, hissiyoti va irodasini kuchaytirish, takomillashtirish orqali uning ish qobiliyatini oshirish demakdir.

Ko'pgina pedagogik adabiyotlarda: «Agar o'qituvchi materialni tushunarli bayon qilib bersa, ko'rgazmali qurollar hamda texnik vositalardan foydalansa,

o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni faollashib, ta'lim samarali bo'ladi»,— degan fikr ilgari suriladi. Faollik mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish orqali ta'minlanadi.

Ona tili o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi. Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishda barcha sezgi a'zolarining faoliyatini to'g'ri uyushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok qilsa, bilish shuncha osonlashadi.

Ko'rgazmalilik ona tili o'qitishning muhim qonuniyati sanaladi. Chunki bu fanning tabiati ko'rgazmalilikni ko'proq talab etadi. Tildagi mavhum tushunchalarning mohiyatini anglash bu prinsipdan keng foydalanishni taqozo etadi. O'quvchi ko'rish orqali narsa-hodisa, ularning tildagi ifodasi xususida aniq tushunchaga ega bo'ladi.

Ko'rgazmalilik prinsipiga ko'ra til hodisalarini o'rganish, kuzatish, sezishdan boshlanadi. Bola turli nutq tovushlari, so'zlar, gaplarni talaffuz etish, eshitish, yozish, ko'rish orqali sezadi. Kuzatish vositasida bolalar ongida til hodisalari to'g'risida hissiy aniq tasavvur hosil bo'ladi. O'qituvchi bolalarni til hodisalarini sezishdan ularning mohiyatini anglashga, til hodisalarini tasavvur etishdan grammatik tushunchalarni atroflicha o'zlashtirishga qarab olib boradi.

Ko'rgazmali material muhim axborot manbayi hamdir. Chunki o'quvchi darslik, o'qituvchining bayoni, gazeta va jurnallardan qanday axborot olsa, ko'rgazmali materialdan ham shunday ma'lumot olishi mumkin.

Ona tili darslarida tabiiy yoki aniq buyumlardan (predmetlarning asl namunasi: masalan, anor, olma, bino maketi va h.k.), grafik materiallar (chizma, jadval kabi)dan; tasviriy san'at, musiqa, kino, televideniya kabi vositalardan foydalaniladi. Ona tili mashg'ulotlarida flipchat doska, elektron doska, epidiaskop, filmskop, video proektor kabi texnik vositalardan foydalanish dars samaradorligiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu vositalar til hodisalarini tushunishga, ona tilidan egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlashga, uni amaliy ko'nikmaga aylantirishga yordam beradi. Ayniqsa, tasviriy san'at namunalari, o'quv filmlari,

diafilmlar va diapozitivlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim vosita sanaladi. Shuni nazarda tutib, ona tili o'qituvchisi til kabinetini shu vositalar bilan ta'minlash chorasini ko'rishi, ayniqsa, rasmi albomlar tashkil etishi, rasmi tarqatma materiallarini ko'paytirishi lozim.

Ko'rgazmali qurollardan barcha turdagi darslarda va darsning barcha bosqichlarida unumli foydalansa bo'ladi. O'quv materialini mustahkamlash va takrorlash jarayonida ko'proq reproduktiv xarakterdagi ko'rgazmali qurollardan foydalansak, yangi bilimlar berishda izlanuvchanlikni talab qiladigan ko'rgazmali qurollar ishga solinadi. Demak, ko'rgazmalilik prinsipini amalga oshirish orqali o'quvchilarning qayta xotiralanishga asoslangan faoliyatini ham, qisman izlanuvchanlik faoliyatini ham, ijodiy faoliyatni ham uyushtirish mumkin.

Ko'rgazmali qurol me'yorida qo'llanilishi lozim. Haddan tashqari ortiqcha ko'rgazmali vosita o'quvchilarni toliqtiradi; fikrni asosiy masaladan chetlashishga olib keladi; o'quv materiali uchun ajratilgan vaqtning etishmasligiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o'quv imkoniyatlarini hisobga olish prinsipi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o'quv imkoniyatlarini hisobga olish didaktikaning eng muhim prinsiplaridan biri bo'lib, u ona tili o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu prinsipga amal qilmay turib, til hodisalarini puxta va ongli o'zlashtirishga erishib bo'lmaydi.

Ma'lumki, ona tilining izchil kursini o'rganish, asosan, o'rta maktab yoshi–o'smirlilik davriga to'g'ri keladi. Bu yoshda o'quvchilarda topshiriqni o'z vaqtida aniq va yaxshi bajarishga harakat rivojlanadi. O'smirlilik davrida qayta xotiralanishga oid topshiriqlar bilan bir qatorda ijodiy topshiriqlarni bajarishga ishtiyoq kuchayadi. Agar boshlang'ich sinfdan o'quvchilar ko'proq ko'rgan yoki kuzatgan narsalari haqida fikr yuritsalar, keyinchalik ularda o'zlari shaxsan kuzatmagan, ko'rmagan, ammo boshqalardan eshitgan voqea-hodisalarni qo'shib uni bayon qilishga urinadilar. O'quvchilar bu yoshda rasmda aks ettirilgan voqealar haqida fikr yuritish bilan cheklanmay, rasmda ko'zga tashlanmayotgan, ammo mavzuga bevosita aloqador bo'lgan fikrlarni ham qo'shib, uni bayon eta oladilar. Kichik yoshdagi

o'quvchilarda ijodiy fikr ko'proq aniq voqea-hodisalar natijasida hosil bo'lsa, o'smirlik davriga o'tgan sari bu xususiyat o'z ko'lami jihatidan kengayadi; bola idrok qilgan narsalarni tushunib, anglab olishga intiladi; u narsa va hodisalarni tahlil qiladi; o'zaro taqqoslaydi, ularning muhim o'xshash va farqli belgilarini izlaydi hamda hukm va xulosalar chiqaradi.

Ona tili darslarida o'smirlarning real o'quv imkoniyati hisobga olingan taqdirdagina ta'lim jarayoni samarali kechadi. Til materiali o'quvchi layoqatiga muvofiq kelgan taqdirda u faollik ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyatini aniqlashi va ta'lim jarayonida uni hisobga olishi zarur.

Ma'lumki, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, bilim saviyasi, qiziqish va layoqati, mustaqil ishlay olishi bir-biridan farq qiladi. O'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan, ijodiy fikrlay oladigan o'quvchi rasm asosida insho yozish kerak bo'lganda nafaqat rasmda ko'rayotgan narsalarini, balki o'zining hayotiy taassurotlarini qo'shib insho yoza oladi. O'zlashtirish darajasi va fikrlash qobiliyati bo'sh bo'lgan, til sezgirliги talab darajasida bo'lmagan o'quvchi xuddi shu inshoda hatto rasmda ko'rayotganlarini ham to'laligicha bayon qilib bera olmaydi. Demak, o'quvchilarda o'quv imkoniyati har xil bo'lib, bu ularning bilish faoliyatiga ta'sir yetmay iloji yo'q.

O'quvchilarning o'quv imkoniyati bir qator ichki va tashqi asoslarga ega.

O'quv imkoniyatining ichki asoslariga o'quvchilarda nutq malakalarining shakllanganlik darajasi, fikrlash va esda saqlab qolish qobiliyati, tafakkur usullarini bilishi va uni zarur o'rinlarda to'g'ri ishga sola olishi, tez o'qish va yozish malakalarining mavjudligi, til materiallarini o'rganishga munosabati kabilarni kiritish mumkin.

Tashqi omillarga ona tili ta'limining mazmuni, o'quvchilarning til muhiti (uyda ham, maktabda ham o'zbek tilida so'zlashadigan o'quvchilarning o'quv imkoniyati turli tilda so'zlashadigan o'quvchilarning o'quv imkoniyatidan farq qiladi), ularga qo'yilgan yagona imloviy va nutqiy talab, o'qituvchining nutqi, maktabning moddiy texnikaviy ta'minoti kabilarni kiradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlari hamda real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish prinsipiga qat'iy amal qilish quyidagi afzalliklarga ega:

1. O'qituvchi tomonidan tanlanadigan o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga muvofiqlashtirish imkoniyati vujudga keladi. O'qituvchi o'quv imkoniyatidan kelib chiqqan holda darslik va qo'shimcha o'quv materiallaridan foydalanadi.

2. O'quv imkoniyatini aniqlash ona tili o'qitishning shakl, metod va usullarini to'g'ri belgilashga, maqsadga muvofiq keladigan dars turini tanlashga imkon beradi.

3. O'quv imkoniyatini bilish tabaqalashtirilgan ta'limdan foydalanish imkoniyatini beradi. Chunki har bir o'quvchining o'quv imkoniyatini bilmasdan turib, o'quv topshiriqlarini tabaqalashtirish mumkin emas. Bolaning o'quv imkoniyatiga mos tushadigan topshiriq esa uni bajarishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi; bilishga bo'lgan ishonchni orttiradi; sinfdagi barcha o'quvchilarning faollik ko'rsatishlarini ta'minlaydi; vaqtni tejash va barcha o'quvchilarning deyarli bir vaqtda topshiriqni bajarishlariga shart-sharoit yaratadi.

4. O'quv imkoniyatini hisobga olish ona tili darslarida bolani tarbiyalash va rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi. Imkoniyatga muvofiq keladigan topshiriq shaxsiy-ruhiy xususiyatlar: iroda, qobiliyat, xotira, ijodiy xayol kabilarni tarbiyalaydi. Ona tili darslarini o'quvchilarning imkoniyatlari doirasida tashkil etish ularning o'z kuchlaridan unumli foydalanishlarini ta'minlaydi.

Ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari. O'qituvchi ona tilining umumdidaktik prinsiplari bilan bir qatorda, uning o'ziga xos prinsiplarini ham yaxshi bilishi va ta'lim jarayonida unga qat'iy amal qilishi lozim.

Ilmiy–metodik adabiyotlarda ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari xususida turli xil fikrlar, qarashlar mavjud. Ayniqsa, bu turli-tumanlik prinsiplarning nomlanishida, tushunchalarni izohlashda ko'proq namoyon bo'ladi.

Ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari shu tilning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Modomiki shunday ekan, tildan o'rganiladigan bilimlarning manbayi ham o'zbek tilshunosligi fani sanaladi. Chunki tildan beriladigan bilimlarning nazariy

asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari tilshunoslik fanida o'z ifodasini topgan. Ammo tilshunoslik fani «Tilni qanday o'qitish kerak?», «Tildan o'zlashtiriladigan bilimlarning hajmi va mundarijasi qanday bo'ladi?» degan savollarga javob topa olmaydi. Zero, bular tilshunoslik fanining vazifasi sanalmaydi. Chunki tilni o'qitish muammolari bilan metodika shug'ullanadi. Demak, tilni o'qitishning metodik prinsiplari, bir tomondan o'zbek tilining o'z xususiyatlaridan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, tilni o'zlashtirish psixologiyasiga ko'ra belgilanadi. Biz quyida ona tilining o'ziga xos prinsiplariga alohida-alohida to'xtalamiz:

«Til-me'yor-nutq mutanosibligi» prinsipi. Ma'lumki, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar ko'p hollarda tilga oid nazariy bilimlarni egallash bilan o'ralashib qolib, til me'yorlaridan unumli foydalanish, nutqni takomillashtirish ustida kam ishlaydilar. Bu hol, shubhasiz, ona tili darslarida o'quvchilarning zerikishiga, zo'rma-zo'raki «o'rganilgan» til hodisalarining tezda unutilishiga sabab bo'lmoqda.

Maktab ona tili kursining asosiy maqsadi ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish ekan, «til-me'yor-nutq mutanosibligi» prinsipiga qat'iy amal qilmay turib, unga erishib bo'lmaydi.

Til nima? «Til deganda,—deb ta'rif beradi H.Ne'matov, —jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiy, ya'ni qabul qilinishi va qo'llanilishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikishi va bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisi tushuniladi». Demak, til fikrni shakllantirish va uni yuzaga chiqarish, birovga yetkazish uchun imkoniyat sifatida o'quvchining ongida mavjud.

Tilning asosiy qonun-qoidalari, zarur birliklarini (nutq tovushlari, qo'shimchalar, so'zlarni), ularning birikish qonun-qoidalarini o'quvchi jamiyatdan tayyor holda oladi, hali ona tilini maxsus o'quv fani sifatida o'rganmagan shaxs ham so'zlarni o'zaro biriktirib, gap qura oladi. U o'z fikrini boshqalarga bayon qiladi va o'zgalar fikrini tushunadi.

Maktabda ona tilidan beriladigan bilim, malakalar va ko'nikmalar o'quvchining o'zida mavjud bo'lgan ana shu imkoniyatlarni kengaytiradi; ya'ni uni o'zbek adabiy tilining boy xazinasiga olib kirish orqali fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga erishtiradi.

Til ichki imkoniyat sifatida aniq bir fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqaradi. Bu ichki imkoniyat tilda behad ko'p va xilma-xildir.

Me'yor nima? Me'yor tilning mana shu ichki imkoniyatlarini o'quvchi ongiga singdiruvchi omildir. Boshqacha qilib aytganda, me'yor nutqni ro'yobga chiqarish maqsadida til imkoniyatlaridan foydalanish uchun ko'rsatkichlar majmuasi sanaladi. Me'yorning oliy ko'rinishi milliy, adabiy til uslublari, mezonlaridir. Milliy, adabiy til me'yorlaridan xabardor o'quvchigina ona tili ta'limining so'nggi natijasi - matn yaratishga qodirdir.

Nutq nima? Nutq til imkoniyatlarining yuzaga chiqishi, voqelanishidir. Tilning boy ichki imkoniyatlaridan xabardor shaxs o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bemalol bayon qila oladi.

Ona tili ta'limida «til - me'yor - nutq» o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, birini ikkinchisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dars mashg'ulotlarida ular o'rtasida mutanosiblik o'rnatilmasa, ona tili ta'limining asosiy maqsadi- nutqiy taraqqiyot ortda qoladi.

O'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish prinsipi. Ona tili darslari o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirishda yaxshi imkoniyatlarga ega. Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayoni, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali fikr vujudga keladi. Fikrlash faoliyati esa nutq holatida namoyon bo'ladi. Demak, o'quvchi o'z tafakkurini rivojlantirmay turib, og'zaki va yozma nutqni egallay olmaydi.

Tafakkur kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, guruhlash kabilarda namoyon bo'ladi.

Tafakkur mustaqil aqliy faoliyat mahsulidir. O'quvchi til hodisalari yuzasidan mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatmas ekan, unda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Ijodiy izlanish va ijodiy fikrlash o'quvchida

ijodiy tafakkurni yuzaga keltiradi. Ijodiy tafakkur esa o'quvchilarda noma'lum bo'lgan til hodisalarining mohiyatini bilib olishga yordamlashadi; egallangan bilimlarning puxtaligini ta'minlaydi; o'quv materialiga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ularga beriladigan savol va topshiriqlarning ahamiyati benihoya katta. O'qituvchi savol va topshiriqlarni darslikdan olishi yoki uni o'zi tuzishi mumkin. Tafakkurni rivojlantirish aqliy faoliyat usullari (kuzatish, qiyoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi)ni to'g'ri ishga solish bilan chambarchas bog'langan.

Ona tili kursi bo'limlari orasidagi bog'lanish va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ta'minlash prinsipi. Ona tili o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri mavzulararo, bo'limlararo, sinflararo, fanlararo bog'lanishdir.

Ona tili o'qituvchisi mavzular va bo'limlarning bog'lanishi, aloqasini aniq belgilashi va o'qitish jarayonida unga amal qilishi lozim. V sinfdagi «Leksika» bo'limi o'rganilar ekan, u so'z yasalishi va grammatika bilan, fonetika so'z yasalishi va morfologiya bilan uzviy bog'lanadi. So'z yasalishi esa leksika bilan ham, morfologiya bilan ham chambarchas bog'langan. Chunki so'z yasash natijasida yangi leksik ma'noli so'zlar hosil bo'ladi, yangi yasalgan har bir so'z ma'lum so'z turkumi sifatida shakllanadi.

Maktab ona tili kursining turli bo'limlari orasidagi o'zaro bog'lanishga amal qilish o'qituvchiga o'tilganlarni samarali, mukammal takrorlash va mustahkamlash imkonini beradi. Chunonchi, o'quvchi mustaqil so'zlarni o'rganar ekan, bunday so'zlarning sintaktik vazifalarini, sintaksisni o'rganishda esa so'z turkumlari haqidagi ma'lumotlarni takrorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ona tili fani ichidagi bog'lanish ikki xil ko'rinishga ega:

Yuqoridan pastga qarab bog'lanish. Bog'lanishning bu ko'rinishi o'tilayotgan yangi o'quv materialini oldin o'rganilgan material bilan bog'lashni talab etadi.

Pastdan yuqoriga qarab bog'lanish. Bunda o'qituvchi o'rganilayotgan materialni o'rganilishi ko'zda tutilgan material bilan bog'laydi.

Didaktikaning bu muhim prinsipini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, birinchidan, o'qitishning barcha bosqichlariga (boshlang'ich maktab, o'rta maktab) ona tili ta'limi oldiga yagona talablar qo'yish lozim. Ayniqsa, ona tili o'qitishning birinchi bosqichi (boshlang'ich maktab) va ikkinchi bosqichi (5–9-sinflar) o'rtasida uzviy birlikka erishish ta'lim samaradorligining muhim omilidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ona tilining izchil kursidan o'quvchilar nimalarni o'rganishlarini va, aksincha, ona tili o'qituvchilari boshlang'ich sinfda nimalar o'rganilganligini yaxshi bilishlari lozim.

O'qituvchi ta'limning har bir bosqichida o'quvchining nutq taraqqiyotida bo'ladigan o'zgarishlarni bilishi va unga tayanishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari keyingi sinflarda o'quvchilar nutqida paydo bo'ladigan yangiliklarni oldindan ko'ra olishlari va, aksincha, ona tili o'qituvchilari boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqida paydo bo'ladigan o'zgarishlarni bilishlari shart.

Ona tili o'qitishda bu o'quv fanining boshqa o'quv fanlari bilan aloqasini ta'minlash ham muhim metodik talab sanaladi.

Ma'lumki, ona tili maktabda o'rganiladigan barcha fanlarni puxta o'zlashtirish uchun muhim kalit sanaladi. Til vositasida o'quvchi boshqa fanlarni o'rganadi. Barcha o'quv fanlari yuzasidan o'z fikrini yozma va og'zaki ravishda bayon etish orqali u ona tilini ham puxtaroq egallab boradi. Deyarli hamma fanlar o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish, orfografik savodxonligini oshirish, nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, o'quvchilarda yuksak nutq madaniyatini tarbiyalash nafaqat ona tili darslari, balki maktabda o'rganiladigan barcha fanlar orqali amalga oshiriladi.

Ona tili turli yo'nalishlar orqali boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanadi. So'zning genetik nuqtayi nazaridan kelib chiqishini aniqlash uchun tarix faniga murojaat qilinsa, til hodisalarini taqqoslash uchun o'quvchilar o'rganayotgan boshqa o'quv fanlariga murojaat qilinadi. Nutq uslublarini aniqlash uchun esa adabiyot, tarix, matematika, kimyo, fizika kabi fanlar o'qituvchiga yordam beradi.

Shunday qilib, ona tilining boshqa fanlar bilan aloqasini uch katta guruhga ajratish mumkin:

- a) genetik bog‘lanish;
- b) qiyosiy bog‘lanish;
- v) funksional bog‘lanish.

Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarni til hodisalarini ajratishga o‘rgatish prinsipi. Til hodisalarini ajratish maktab «Ona tili» o‘quv fanida qo‘llaniladigan atamalarning ma‘nosini tushunishdan tortib, o‘rganilayotgan til materiallarini kuzatish yoki o‘zaro qiyoslash asosida o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash, mustaqil ravishda umumlashmalar hosil qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Ma‘lumki, har bir ona tili mashg‘ulotida o‘quvchilar muayyan atamaga duch keladi. Masalan, «Fonetika» bo‘limi o‘rganilar ekan, tovush, harf, unli, undosh, jarangli tovush, jarangsiz tovush, bo‘g‘in, urg‘u kabi zaruriy atamalar bilan ish ko‘radi. Agar o‘quvchi bu atamalarning ma‘nosini tushunmasa, bo‘lim ular tomonidan o‘zlashtirilgan deb bo‘lmaydi.

Til hodisalarini ajrata olmaslik ko‘p hollarda ularni aralashtirib qo‘llashga sabab bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilar **barmoq, sarg‘ish, ishlash** kabi so‘zlar tarkibidagi -moq, -ish, -sh qo‘shimchalariga qarab, uni harakat nomi deb atashadi. Ayniqsa, kelishik bilan egalik, turlanish bilan tuslanish, morfologik tahlil bilan sintaktik tahlil kabilarda ularni farqlay olmaslik holatlari ko‘p uchraydi. Buning uchun oldin o‘rganilgan atama bilan keyin o‘rganiladigan atama orasida musgahkam zanjir hosil qilinmog‘i lozim. Zero, bilimlar xalqalardan tashkil topgan bir butun zanjirdir.

Til hodisalarini ajratish, ayniqsa, matn ustida ishlash jarayonida ko‘proq kerak bo‘ladi. Chunki o‘quvchi tanlangan matndan u yoki bu til hodisani ajratishi, uning mohiyatini sharhlashi, shu asosda umumlashmalar hosil qilishi lozim.

Ona tili o‘qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta‘sirini nazarda tutish prinsipi. Ma‘lumki, o‘zbek tili o‘zining sheva qatlami jihatidan xilma-xil va juda murakkabdir. O‘zbek milliy tili boshqa qardosh turkiy tillarga nisbatan juda sersheva hisoblanadi. Professor V.V.Reshetov tasnifiga ko‘ra, o‘zbek xalqi qatlamida tarixiy-

lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan (farq qiladigan) uch dialekt birligi bor: 1) qipchoq; 2) o'g'iz; 3) qarluq–chigil–uyg'ur. Bu yirik dialektlarning har biri, ayniqsa, qarluq–chigil–uyg'ur lahjasi, o'z navbatida, bir necha ayrim mayda bo'laklarga bo'linadi.

Dialektlar fonetik xususiyatlari jihatidan *ota, ona, boradi* kabi so'zlarni *ata, ana, baradi* kabi aytuvchi a-lovchi shevalar va *yer, yel* deguvchi y-lovchilar hamda *djer, djil* deb aytuvchi dj-lovchi shevalarga bo'linadi. Bu sheva vakillarining barchasi millat jihatdan o'zbekdir. Ana shu dialekt va shevalar Respublikamiz hududida (va undan tashqarida) yashovchi o'zbeklar uchun aloqa vositasi (sheva nutqi) bo'lib xizmat qiladi. O'zbek dialektlaridagi mana shu xilma-xillik o'quvchilar nutqiga ta'sir yetmay iloji yo'q.

O'zbek xalq shevalaridagi fonetik har xilliklar, ko'p hollarda, o'zbek adabiy tilida so'zlarning orfoepik qoidalar asosida talaffuz etishga mone'lik qiladi. Bu orfoepik xatolar orfografik xatolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, qipchoq dialektiga mansub o'quvchilarning ko'pchiligi so'z boshida adabiy tildagi y o'rniga j talaffuz qilishadi (*yo'q–jo'q, yigit–jigit*); u, i unlilari bilan boshlangan ayrim so'zlarning oldiga j ni qo'shib aytishadi (*uzum–juzum, iliq–jiliq*); so'zning o'rtasida yoki oxirida kelgan g' tovushini v bilan almashtiradi (*to'g'ri–uvri, tog'–tov*), p, k tovushlarini b, g bilan almashtirib aytishadi (*qop–qab, ko'k–ko'g*) va h.k., bu esa o'quvchilarda orfoepik va orfografik savodxonlikni ta'minlashni birmuncha qiyinlashtiradi.

O'zbek dialektlari morfologik jihatdan ham adabiy til me'yorlaridan ma'lum darajada farq qiladi. Masalan, qipchoq dialektiga mansub o'quvchilar tomonidan qaratqich kelishigining qo'shimchasi –**ning, -ni, -ding, -ting** shaklida qo'llash hollariga tez-tez duch kelamiz.

O'zbek dialektlarining leksik jihatdan ham adabiy tildan farq qiladigan ko'p tomonlari borki, ular dialektal xatolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiy tilidagi **do'ppi** so'zi Toshkentda **to'ppi**, Samarqandda **qalpoq**, Shaxrixonda **qalpoq**, Buxoroda **kalapo'sh**; **tovoq** so'zi esa Toshkentda **lagan**, Andijonda **tovoq**, Buxoroda **tabaq**, Shaxrixonda **tavoq** shaklida aytiladi.

O'zbek adabiy tilining me'yorlari bilan xalq shevalari o'rtasidagi bunday farqlar ona tili o'qituvchisidan mahalliy dialekt sharoiti va ta'sirining oldini olish yuzasidan doimiy ish olib borishni talab qiladi.

O'qituvchi o'quvchilar nutqidagi dialektal xatolarning oldini olish va bartaraf etish uchun qator ish usullaridan foydalanishi mumkin. Masalan, talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarning dialektal shakli bilan adabiy-orfoepik shaklini qiyoslash, so'zlarni adabiy til me'yorlariga muvofiq talaffuz etish, o'quvchilar nutqini **magnitofon lentasiga** yozib olib, qayta eshittirish orqali ularning xatolarini aniqlash va tuzatish, mustaqil ravishda dialektal lug'at tuzish kabi topshiriqlardan foydalansa bo'ladi.

Ta'lim prinsiplari bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ularga qat'iy amal qilish dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarni puxta bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini tobora kengaytirishga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Savol va topshiriqlar

1. O'qitish prinsipi nima?
2. Ona tili darslarida qaysi prinsiplar hisobga olinadi?
3. Umumdidaktik prinsipning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
4. Ona tilini o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning uyg'unligi deganda nimani tushunasiz?
5. Maktab ona tili darsliklarida ilmiylik va tushunarlilikni ta'minlashda qaysi jihatlar hisobga olinadi?
6. O'quvchilarning o'quv-biluv faolligini oshirishda qaysi prinsip yetakchi sanaladi?
7. Ona tili o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash prinsipi eng muhim qonuniyat ekanligini izohlang.
8. Ona tili o'qitishda ongliklik, faollik va mustaqillik prinsiplarining bir-biri bilan bog'liqligini asoslab bering.
9. Ona tili darslarida aqliy faoliyat usullaridan qanday foydalaniladi?
10. Ona tilini o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi qanday ahamiyatga ega?

11. O'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlari hamda real o'quv imkoniyatlarini hisobga olganda ta'lim jarayoni samarali bo'ladimi? Izohlab bering.

12. Ona tili o'qitishning oziga xos prinsiplari deganda nimani tushunasiz?

13. Til – me'yor – nutq orasidagi mutanosiblikni qanday izohlaysiz?

14. Ona tili o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish prinsipi haqida fikr yuriting.

15. Ona tili o'qitishda til hodisalarini ajratishga o'rgatish prinsipining afzalliklarini bayon eting.

16. Ona tili o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish prinsipi asosida qanday ishlar olib boriladi?

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent, «O'qituvchi», 1998.

2. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent, «O'qituvchi», 1993.

3. Ne'matov H., G'ulomov A. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish. Toshkent, 1992.

4. G'oziyev E. O'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. Toshkent, «O'qituvchi», 1983.

5. G'ulomov A. Q. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1992, 5–41-b.

6. G'ulomov A. Q. Ona tili darslarida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. Toshkent, «Fan», 1989.

7. O'zbek maktablarida ona tili va adabiyot darslari samaradorligini oshirish. Ilmiy asarlar to'plami. Toshkent, O'zPFITI, 1988.

O'ZBEK TILINI O'QITISH METODLARI TASNIFI, TURLARI VA MAZMUNI

O'ZBEK TILINI O'QITISH METODLARI

Tayanch tushunchalar:

Metod, tushuntirish – namoyish etish, qayta xotiralash, muammoli bayon metodi, qisman izlanuvchanlik, tadqiqot (izlanuvchanlik, ijodiylik), o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar(bilimlarni tayyor holda bayon etish; bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodlari), o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar(qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik va izlashga asoslangan metodlar), muammoli ta'lim, muammoli o'qitish.

O'zbek tilini o'qitishning metodlari haqida umumiy tushuncha. Ona tili darslarining samaradorligi o'qituvchining o'qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni to'g'ri tanlay olishi va ularning har birini o'z o'rnida qo'llay olishiga bog'liq. «Ona tili» fanini o'qitishning samaradorligi juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'langan. Shubhasiz, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta'limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to'g'ri belgilash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida pedagogik hamkorlikning o'rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta'minlash bilan aloqadordir.

Metod so'zi qanday ma'noni ifodalaydi? Metod yunoncha so'z bo'lib, «tadqiqot» yoki «bilish yo'li» ma'nolarini ifodalaydi. Bu tushuncha falsafiy va didaktik ma'nolarga ega.

Falsafiy ma'noda «metod» tushunchasi tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatish hamda voqelikka ilmiy nuqtayi nazardan yondashish demakdir.

Didaktik ma'noda bu tushuncha o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish yo'llarini ifodalaydi. Ayrim fanlarni o'qitish bilan aloqador masalalarni xususiy metodika o'rganadi. Shuning uchun ta'lim metodlari olimlarni ham, metodistlarni ham bab-baravar qiziqtiradi.

Jahon didaktlari keyingi yillarda ta'lim metodlari va ularning tasnifiga oid anchagina salmoqli ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ular o'qitish metodlarini turlicha tasnif qilishadi.

Bir guruh olimlar (S.I.Perovskiy, E.Ya.Golant) ta'lim metodlarini bilim olish manbaiga qarab, *og'zaki, ko'rsatmali va amaliy* metodlarga bo'lsalar, ikkinchi guruhdagi olimlar (M.A.Danilov, B.P.Esipov) ma'lum tipdagi darslarda bajariladigan o'quv vazifasidan kelib chiqib, *bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, egallangan bilimlarni mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni tekishrish va baholash* kabi metodlarga bo'ladilar.

Yu.K.Babanskiy esa ta'lim metodlarini uch katta guruhga ajratadi:

1. O'quvchilarning o'quv - biluv faoliyatini tashkil etish metodlari.
2. O'quvchilarning o'quv - biluv faoliyatini rag'batlantirish metodlari.
3. O'quvchilarning o'quv - biluv faoliyatini nazorat qilish metodlari.

To'rtinchi guruh olimlar (M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner) bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim metodlarini:

- 1) tushuntirish - namoyish etish metodi;
- 2) qayta xotiralash metodi;
- 3) muammoli bayon metodi;
- 4) qisman izlanuvchanlik metodi;
- 5) tadqiqot (izlanuvchanlik, ijodiylik) metodi kabilarga ajratadi.

Ta'lim metodlarining I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin tomonidan taklif etilgan ushbu tasnifi o'quvchilarning fikrlash faoliyatida tadqiqotchilik va muammoli vaziyat borligi bilan ajralib turadi. Mazkur tasnif til o'qitishning tabiatiga ham ancha mos tushadi. Shu bois, ona tili o'qitishda I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin tasnifiga kengroq to'xtalamiz.

1. Tushuntirish - namoyish etish metodi. O'qituvchi tomonidan bilimlar tayyor holda beriladi. Ona tilining qonun-qoidalari o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi va uni mustahkamlash maqsadida misollar keltiriladi. O'quvchilar bayon qilinayotgan bilimlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga harakat qiladilar.

2. Muammoli bayon qilish metodi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash orqali bu muammoni hal qilishga kirishadi. Ta'limning bu metodi o'quvchilar tomonidan o'quv materialining o'qituvchi rahbarligida mustaqil tahlil etilishi, kuzatilishi, guruhlanishi, umumlashtirilishi bilan ajralib turadi.

3. Qayta xotiralash metodi. Bu metodning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi o'quv topshirig'ini egallangan bilimlarga asoslangan holda yoki berilgan namunaga qarab bajaradi. O'quvchi muayyan andaza asosida harakat qiladi.

4. Qisman izlanuvchanlik metodi. Ta'limning bu metodi shu bilan ajralib turadiki, o'qituvchi dars jarayonida ma'lum o'quv muammosini qo'yadi, ammo uni mustaqil hal qilish yo'llarini ko'rsatmaydi. Har bir o'quvchi muammoni mustaqil hal qilish uchun o'zicha izlanadi. Ammo qiyinchilik tutilganda unga yordam ko'rsatiladi. O'quvchi bu yordamni o'qituvchining tushuntirishidan, o'quvchilarning o'zaro suhbatidan yoki darslikdan olishlari mumkin. Topshiriqni bajarish jarayonida olinadigan yordam metodni qisman ijodiy qilib qo'yadi.

5. Tadqiqot(ijodiylik) metodi. Bu metod o'quvchidan to'la ijodiylikni talab etadi. Yangi bilimlar olish maqsadida o'quvchi o'zi masala tuzishi va uni to'la mustaqil ravishda hal qilish yo'llarini izlaydi. O'qituvchi tomonidan beriladigan ijodiy - amaliy topshiriqlar ham hech qanday yordamsiz yoki namunaga asoslanmagan holda bajariladi.

Mazkur tasnifning ustunligi shundaki, o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma - bosqich faollashtirish nazarda tutilgan hamda unda o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'quv faoliyati tarkibida tadqiqotchilik unsurlari bo'lishi zarurligiga e'tibor berilgan.

Yuqorida berilgan tasniflar ta'limning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqib, barcha fanlarni o'qitishga bevosita aloqador metodlar sanaladi.

Xususiy metodlar, shu jumladan, O'zbek tilini o'qitish metodikasi ham o'qitishning barcha masalalari qatori ta'lim metodlarini tanlashda umumdidaktik sistemaga asoslanilsa-da, ammo uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan metodlari ham mavjud.

O'zbek tilini o'qitish metodikasida ta'lim metodlari kam o'rganilgan masalalardan biridir. Metodist H.Rustamov bilimlarni olish manbayidan kelib chiqib, ona tili o'qitish metodlarini quyidagicha tasniflaydi:

- a) o'qituvchining bayoni;
- b) suhbat;
- v) til hodisalarini kuzatish va tahlil qilish;
- g) grammatik tahlil;
- d) mashq;
- e) darslik ustida ishlash;
- yo) ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- j) sayohat.

Bu metodlar, birinchidan, qayta xotiralashga asoslangan metodlar bo'lib, ular o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga to'la muvofiq kelmaydi. Bu metodlarda, asosan, o'qituvchi faoliyati nazarda tutilgan; ta'lim jarayonining subyektivi sanalgan o'quvchi e'tibordan chetda qolgan. Mazkur tasnifda o'quvchilarda izlanuvchanlikni shakllantirishga xizmat qiladigan muammoli bayon, qisman izlanuvchanlik, tadqiqot (izlanuvchanlik) metodlari tamoman o'z ifodasini topmay qolgan.

Ma'lumki, dars ikki yoqlama jarayon bo'lib, unda o'qituvchi ham, o'quvchi ham faol ishtirok etadi. Shuning uchun o'qitish metodlarini tasnif qilishda nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchi faoliyati ham asos bo'lib xizmat qilmog'i lozim.

Ona tili dasrlarida qo'llaniladigan o'qitish metodlari nafaqat bilimlarni bayon qilish yoki uni mustahkamlashga xizmat qilishi, balki o'quvchilarning mustaqil bilim olishini ham hisobga olishi, ta'lim jarayoniga izlanuvchanlik va tadqiqotchilik unsurlarini qo'shish orqali ularni ijodiy faoliyatga tayyorlashi lozim. Ana shu nuqtayi nazardan qaraladigan bo'lsa, pedagogika fanlari doktori, metodist - olim A. Q. G'ulomov ta'lim metodlarini quyidagi guruhga ajratadi: 1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar. 2. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni: 1. Bilimlarni tayyor holda bayon etish. 2. Bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish.

O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar, o'z navbatida, qayta xotiralanish, qisman izlanuvchanlik va izlashga asoslangan metodlarga bo'linadi.

Bilimlarni tayyor holda bayon qilish metodi. Bu metod ona tili o'qitishda eng ko'p tarqalgan metodlardan biridir. Bayon yordamida murakkabroq, ayniqsa, o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar izohlanadi. Ko'pincha til hodisalarining mohiyatini tushuntirish, o'quvchilar bilimidagi bo'sh tomonlarni to'ldirish, qo'shimcha ma'lumot berish, savollarga javob qaytarish maqsadida bu metodga murojaat qilinadi. Bu metod ham ijobiy, ham salbiy tomonlarga ega. Uning ijobiy tomonlaridan biri vaqtni tejash imkoniyati tug'iladi. Bu o'z navbatida bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash va takrorlashga ajratilgan vaqt miqdorini ko'paytiradi. Bilimlarni tayyor holda bayon qilishning salbiy oqibatlaridan biri esa bu jarayonda o'quvchining fikrlash faoliyati ma'lum darajada chegaralanishidir. Ko'p hollarda o'quvchi ta'lim jarayonining faqat tinglovchisiga aylanib qolishi mumkin. Bu metoddan foydalanish uchun quyidagilarga amal qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

– o'qituvchining nutq madaniyatiga e'tiborini kuchaytirish. O'qituvchining nutqi mantiqiy talablarga javob berishi shart. Sodda, mazmunli, ifodali, izchil nutq o'quvchilarda bilimga nisbatan kuchli qiziqish uyg'otadi;

– o'quv materialini qat'iy bir reja asosida bayon qilish (qat'iy reja asosida bayon qilingan fikrlarni o'zlashtirish o'quvchi uchun ancha qulay);

– bilimlarni tayyor holda bayon qilish, ishontirish va asoslash. Ishontirish va asoslash o'rganilayotgan materialga qiziqish uyg'otadi.

Yuqorida sanalganlardan tashqari til hodisalarini sharhlash maqsadida keltiriladigan misollarning ilmiy, badiiy va tarbiyaviy yo'nalishda bo'lishini ta'minlash, o'qituvchi bayoni bilan namoyish etiladigan vositalarni bir-biriga muvofiqlashtirish o'quvchining faollik darajasini oshiradi.

Bilimlarni tayyor holda bayon qilishda o'quvchilar diqqatini o'rganilayotgan til hodisasining asosiy tomonlariga jalb qilish, o'rganilgan, o'rganilayotgan va keyinchalik o'rganiladigan til hodisalari o'rtasida mustahkam bog'lanishlarni vujudga keltirish ular faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili darslarida bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi.

Ma'lumki, izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sermahsul faoliyatdir. O'quvchi til hodisalarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlasa, ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu metod shaxs va uning ijtimoiy faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

«**Muammoli ta'lim**» tushunchasi pedagogik adabiyotlarda garchand keyingi yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, ammo bu izlanuvchanlikka asoslangan g'oya ming yildan ortiqroq tarixga ega. Sharq mutafakkirlari bilish izlanish mahsuli ekanligini alohida qayd qilgan edilar. O'rta asrning buyuk donishmandi Abu Ali ibn Sino (980–1037) o'zining «Donishnoma» asarida qiyinchiliklarni yengish orqali bilimlarni egallashning afzalligini ko'rsatgan edi.

Umar Xayyom (1042–1112) «Matematik traktatlar»ida bilish uchun fikrlash zarurligiga, qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'ylash kerakligiga da'vat etadi. Al-Tusiy (1201–1274) esa bilimlarni puxta egallash uchun mustaqil izlanishning zarurligini alohida qayd qiladi. Bu g'oya keyinchalik evristik ta'lim nazariyasining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. XIX asrning 70-yillarida Rossiyada yashagan bir guruh tilshunos olimlar (S.P.Baltalon, M.A.Ribnikova) evristik ta'lim nazariyasini ko'tarib chiqib, o'quvchilarni mustaqil ishlatish yo'li bilan ularni faollashtirishga erishish mumkinligini asoslab berdilar.

O'quvchilarni izlanishga undash suhbat asosida amalga oshiriladi. Har qanday izlanishga asoslangan suhbat jarayonida muammoli vaziyat yaratish ehtiyoji bor.

Bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga, noma'lumni izlab topish jarayonida o'zligini namoyon etishga imkon beradi. Muammoli ta'limda o'quvchilarning faoliyati shunday tashkil etiladiki, ularda o'rganilayotgan bilimlarga ehtiyoj tug'diriladi. Bu metod o'rganilishi ko'zda tutilgan til hodisasini o'quvchidan pinhon saqlaydi; unda bilishga ehtiyoj, zaruriyat tug'iladi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashini o'stirishga qaratilgan. Bunday ta'lim esa rivojlantiruvchi ta'limdir.

Muammoli o'qitish muammo yaratish (muammoni vujudga keltirish) bilan boshlanadi.

«Muammoli o'qitish,—deb yozadi A.M.Matyushkin,—ta'limning boshqa tizimlari va metodlariga tamoman zid emas. Uning xususiyatlari ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida—yangi bilimlarni o'rganish jarayonida—yangicha faoliyat ko'rsatish shartlari hamda usullarini o'rganish bilan xarakterlanadi».

Muammoli darslarni quyidagi bosqichlar asosida tashkil etish mumkin:

– darsning boshlanishi. Bu bosqichda o'quvchilarning o'quv materialiga qiziqishlarini oshirishga oid ishlar qilinadi. O'quvchilar oldiga mavzuga doir muammolar qo'yiladi.

– mavzu bo'yicha qo'yilgan muammolar ustida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda ishlashi;

– o'rganilgan bilimlarni qo'llab, topshiriqlarni bajarish;

– mavzu yuzasidan yakunlovchi xulosa chiqarish.

Ona tili ta'limi jarayonida muammoli vaziyat quyidagi hollarda yuzaga keladi:

- noma'lumni izlab topish, qiyinchilikni bartaraf etish zaruriyati tug'ilganda;
- ona tilidan egallangan bilimlarni yangi sharoitda qo'llash ehtiyoji yuzaga kelganda;
- muammoli topshiriq bilan uni bajarish usuli o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelganda.

Ona tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. Tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish. Til hodisalarini kuzatish tahlilning samarali shakli sanaladi. Bu usul yordamida muammoli vaziyat yaratish uchun o'quvchilardagi mavjud bilimlarga asoslanib, noma'lum muammoni aniqlashni ularning o'zlariga topshirish mumkin. Masalan, «Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi» mavzusini o'tishda tahlil uchun quyidagi topshiriqlar o'quvchilar hukmiga havola etiladi va muammoli vaziyat yaratiladi:

Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko'ring.

Nutq tovushlarini hosil qilishda faol ishtirok etgan nutq uzvlarini sanang. Nega ular faol nutq tovushlari ekanligini isbotlang.

2. Til hodisalarini qarama-qarshi qo'yish va taqqoslash asosida muammoli vaziyat yaratish. Taqqoslash, ayniqsa, til ta'limida muhim o'rin egallaydi. Bu usul orqali til hodisalaridagi o'xshash va farqli tomonlar aniqlanadi.

Mazkur usul bilan muammoli vaziyat yaratishni «Ko'chirma gap» mavzusini o'rganish misolida ko'rib o'taylik. O'quvchilarga berilgan quyidagi gap juftlarini o'qib, ularni qiyoslash va farqlarini aniqlash topshiriladi:

1. «Jurjon podshosi bo'laman»,—dedi yigit. Yigit Jurjon podshosi ekanligini aytdi (Ertakdan).

Arslon podsho buyurdi: «Chaqimchini tutib o'ldiring». Arslon podsho chaqimchini tutib o'ldirishni buyurdi (Ertakdan).

«Toshkentga, — dedi Mirtemir, — 11 yoshimda kelganman». Mirtemir Toshkentga 11 yoshida kelganligini aytdi.

Gaplar qiyoslangach, «Siz qanday gaplarni ko'chirma gap deb tushunasiz?» degan muammoli savol o'rta tashlanadi.

Til hodisalarini umumlashtirish orqali muammoli vaziyat yaratish. Umumlashtirish aqliy faoliyatning eng murakkab usuli bo'lib, u ona tilini induktiv yo'l bilan o'qitishga asoslanadi. Induktiv yo'l esa til hodisalarini kuzatish, tahlil qilish, guruhlash kabilar asosida umumlashmalar hosil qilish demakdir. O'quvchi berilgan so'z, so'z birikmasi, gap va matnlarni kuzatib tahlil qilgach, muammoni yechishga tayyor bo'ladi. Masalan, 5-sinfda «Undalma» mavzusi o'rganilar ekan, o'quvchilar zimmasiga ega bilan undalmaning farqini aniqlash va undalmaga mustaqil ravishda ta'rif berish vazifasi yuklatiladi. Odatda, birinchi muammo hal qilingach, ikkinchi va uchinchi muammoni hal qilishga o'tiladi.

Berilgan matnning mazmunidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratish. O'qituvchi darslikda berilgan yoki o'zi tanlagan matnni o'qitib, shu asosida ham muammo qo'yishi mumkin. Masalan, o'quvchilar e'tiboriga quyidagi matn havola etiladi:

Ilmga amal qilmaslik jazosi. Amir Abdullaxon xos navkarni hamisha o‘zi bilan olib yurar ekan. Amir huzuridagi suhbatlarda bir shoir Amir Xisrav Dehlaviyga nisbat berib shu baytni o‘qiydi: *«Kerak odamga so‘zni ko‘p bilmoq Vale oni juda ham oz aytmoq»*. Amirga bu bayt juda ma‘qul bo‘ladi. Kunlardan bir kun Amir o‘zining so‘zamol, sergap vaziriga Dehlaviyning ta‘birini eslatib, tanbeh beradi. Vazir Amirga:

«Avf eting, shohim. Bu so‘zlar Dehlaviyniki emas, shayx Nizomiy qalamiga mansub»,—deb e‘tiroz bildiradi. Amir hayrat bilan navkariga qaraydi. Navkar bosh egib:

– Ulug‘ amirim, vazir haq. Bu ta‘bir – Nizomiy Ganjaviyning «Xisrav va Shirin» dostonidan. Shoir sizga noto‘g‘ri aytgan edi, – deb javob beradi.

Amir jallodni chaqirib, navkarning tilini kestiradi.

Muammoli savol: Nega navkarning tili kesildi?

Ona tilidan masala tipidagi o‘quv topshiriqlari til hodisalarini kuzatish, qiyoslash, guruhlash kabilarga asoslanadi. O‘quvchi tildan egallangan bilimlarga asoslanib noma‘lumni qidiradi.

Masalaning muhim belgisi uning isbot talabligidir. O‘quvchi berilgan topshiriqlarni bajargach, muayyan bir xulosaga keladi va o‘z shaxsiy fikr-mulohazalarini isbotlash zaruriyati tug‘iladi.

Quyida o‘quv topshiriqlaridan ayrim namunalar keltiriladi:

«Fonetika»dan:

1- masala. Avval unli, keyin undosh tovushlarni talaffuz qilib ko‘ring. Siz ular orasida qanday farqni sezyapsiz? Qaysi belgilarga qarab ularni unli va undosh tovushlarga ajratdingiz? *A, i, o, e, u, o‘* tovushlarining unli tovush ekanligini isbotlang.

2-masala. *Qatiq–qattiq, dara–darra* singari so‘zlarning farqi bormi? Ularning bir so‘z emasligini isbotlang.

«Leksika»dan:

1-masala. *Uzukning ko‘zi, derazaning ko‘zi, buloqning ko‘zi, taxtaning ko‘zi yoki o‘tkir til, o‘tkir so‘z, o‘tkir nigoh (qarash)* birikmalarida ko‘zi va o‘tkir so‘zlarining ko‘chma ma’noda qo‘llanilganligini isbotlang.

2-masala. Gaplardagi antonimlarga e’tibor bering. Ular yakka holda kelganda qanday ma’noni va juft holda kelganda qanday ma’noni anglatadi?

1. To‘yga do‘st - dushman keladi. 2. Erta–yu kech fikrim shu. 3. Qishloqning butun katta - kichigi bu umumxalq hashariga qo‘shildi (S.Ahmad). Bu gapdagi antonimlarni boshqa so‘zlar bilan almashtirib ko‘ring-chi! Bundan qanday xulosa chiqardingiz? Namuna: To‘yga hamma keladi. Doim fikrim shu.

«Morfologiya»dan:

1-masala. Quyida berilgan ikki gapni taqqoslang. 1. Chol minbarga chiqib yigitchasiga gapirdi. 2. Tanishib olaylik, otingiz nima, yigitcha?

Yigitcha so‘zining ma’nosida farq bormi? Siz bundan qanday xulosa chiqardingiz?

2-masala. Quyidagi to‘rtlikni diqqat bilan o‘qing. Nega shoir **shu** olmoshini uch misrada takror qo‘llagan?

Ukam, yovuzlarning topganlari shu,

O‘z o‘g‘lin it bo‘lib qopganlari shu.

O‘z qalbin nafratlab yopganlari shu,

Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar. (*A.Oripov*)

O‘qituvchi o‘quv masalalarini o‘zi tuzishi yoki darslikda berilgan ijodiy xarakterdagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanishi mumkin. Agar topshiriq shartida o‘z fikr - mulohazalarini dalillar bilan asoslash so‘ralmagan bo‘lsa, unga muayyan o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

Shunday qilib, masala tipidagi o‘quv topshiriqlari muammoli vaziyat yaratishning muhim usulidir. Chunki masala o‘quvchini harakatga keltiradi, uni izlanishga undaydi, qiziqtiradi.

Muammoli vaziyat yaratishda o‘rganiladigan til hodisalarining murakkablik darajasi ham hisobga olinadi. Chunki o‘qituvchi til hodisalarining murakkablik darajasidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratishning usulini tanlaydi. Oldindan

o'quvchilarga ma'lum darajada tanish bo'lgan til hodisalarini o'rgatishda ko'proq kuzatish, taqqoslash kabi usullardan foydalanilsa, o'quvchilarga tamoman notanish bo'lgan mavzularni o'rgatishda muammoli savol qo'yib, darslikdan javob izlash usulidan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat yaratishda sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi, til hodisalarini tushunishi va aqliy faoliyat usullaridan foydalanishi kabilar ham hisobga olinadi. Agar sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi past bo'lsa, osonroq ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Muammoning mohiyatini anglash muammoli ta'limning birinchi bosqichidir. Keyingi bosqichlar: muammoni yechish, natijani hisobga olish kabilar birinchi bosqichning to'g'ri uyushtirilganligiga bog'liq. Ayniqsa, birinchi bosqichda o'zlashtirishi bo'sh o'quvchilarni muammoli vaziyatga olib kirish o'qituvchiga ancha murakkablik tug'diradi. Buning uchun o'qituvchi tabaqalashtirilgan ta'lim imkoniyatlaridan unumli foydalanishi lozim.

Shunday qilib, qo'yilgan muammoni to'g'ri yechishni ta'minlash uchun:

- a) muammoning maqsad va mohiyatini o'quvchilarga to'g'ri anglatish;
- b) o'rganilgan mavzular yuzasidan puxta va izchil bilimlarning mavjudligiga erishish;
- v) har bir o'quvchida mustaqil ravishda ijodiy ishlash malakalarini tarkib toptirish;
- g) o'quvchilarni maqsadga yo'naltira bilish;
- d) muammoni yechishning eng samarali va qulay yo'lini belgilash juda katta ahamiyatga ega.

Ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil bilim olishini quyidagi metodlarga ajratish mumkin:

- 1) qayta xotiralashga asoslangan metodlar;
- 2) qisman izlanuvchanlik metodlari;
- 2) izlanishga asoslangan metodlar.

Bu metodlarning har biri ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni faollashtirishga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Qayta xotiralashga asoslangan metodlar. Mazkur metod o'quvchi oldida muayyan bir qiyinchilik yaratmaydi va u tayyor o'quv materiali bilan ish ko'radi. O'rganilgan til hodisalarini xotirada tiklash, topshiriqni to'raligicha muayyan andaza yoki namunaga qarab bajarish kabi topshiriqlar shunday topshiriqlar sirasiga kiradi.

Ona tili mashg'ulotlarida bajariladigan bir qator ish turlari, jumladan, ko'chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant, muayyan andazaga qarab bajariladigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik tahlillar, berilgan she'riy matn mazmunini nasriy yo'l bilan bayon qilish kabi topshiriqlar o'quvchilardan bilimlarni xotirada tiklashni talab etadi.

Qisman izlanuvchanlik metodi. Qisman izlanuvchanlik metodi tarkibida qayta xotiralash asosiy o'rinni egallaydi. Chunki o'quvchi ona tilidan egallangan bilimlarga tayanmay turib, uni yangi sharoitda qo'llay olmaydi.

Ona tili mashg'ulotlarida bajariladigan qator mustaqil ish turlari:

a) nuqtalar o'rniga zarur harflar, kelishik qo'shimchalari, so'zlarni topib qo'yish; b) ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi, qarama - qarshi ma'noli so'z bilan almashtirish; v) berilgan gaplar yoki matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish; g) berilgan tayanch so'zlar yoki so'z birikmalaridan foydalanib, gaplar yoki matnlar tuzish o'quvchilardan qisman izlanishni talab etadi. Chunki bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi ma'lum darajada yordam oladi. Berilgan so'zlar, so'z birikmalari va gaplar o'quvchiga topshiriqni bajarishi uchun ko'maklashadi.

Izlanishga asoslangan metodlar. Izlanish til materiallarini ijodiy faoliyat ko'rsatish yo'li bilan o'rganish demakdir. Shubhasiz, o'quvchi ona tili mashg'ulotlarida ma'lum bir yangilik kashf etmaydi, balki berilgan ma'lumot mazmunini ijodiy yo'l bilan o'rganadi. Bu metod o'quvchidan oldin o'rganilganlarni tamoman yangi sharoitda qo'llashni talab etadi. Ona tili mashg'ulotlarida yoziladigan insholar, o'qilgan badiiy asarga taqriz yozish, maqola yozish, ilmiy ma'ruzalar tayyorlash o'quvchidan hech qanday andaza yoki tashqi yordam olmasdan bajariladigan asosiy ishlardir.

Shunday qilib, ona tili darslarida izlanishga asoslangan metodlardan foydalanish, birinchidan, o'quvchilarning til hodisalariga qiziqishini kuchaytiradi, ikkinchidan, til hodisalarini mustaqil tahlil qilishga o'rgatish orqali ularda ijodiylik rivojlanib boradi.

Professor B.To'xliyev ta'lim metodlarini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi:

– darslik va o'quv qo'llanmalarga asoslanish;

– ko'rgazmali didaktik vositalarga asoslanish (audio-video vositalar, muayyan mavzudagi audio yozuvlari, ona tilidan slayd-jadvallar, o'quv kompyuter disketlari, dars mavzularini yoritish uchun mo'ljallangan o'quv rasmlari, portret, peyzaj (rang-tasvir), tayyor badiiy-ramziy, ma'rifiy matnlar).

2. Yo'naltiruvchi ta'lim metodi. O'quvchi faoliyatini bosqichli, sistemali yo'naltiruvchi (yozma va og'zaki) topshiriqlar asosida jadallashtirish.

3. Muammoli ta'lim metodi.

4. Ongli - verbal - kognitiv ta'lim metodi.

Yuqoridagi ta'lim metodlariga asoslangan holda o'quvchi faoliyatini quyidagicha tasniflaydi:

1. Ongli kuzatish va xotirada saqlash metodi.

2. Yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida izlanish va xulosalar chiqarish, bahs va munozara metodi.

3. Muammoni yechishga qaratilgan, maqsadli ijodiy faoliyat metodi.

4. Mustaqil va ijodiy izlanish orqali kashf qilish (matn yaratish) metodi.

Bu metodlar yordamida o'quvchilar o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, amaliy-ijodiy tatbiq bilan shug'ullanadi.

Ona tilidan ta'lim metodini tanlash. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi faoliyati o'z-o'zidan faollashmaydi, albatta. U, birinchi navbatda, o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan metodga bog'liq. To'g'ri tanlangan metod uni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili ta'limning mazmuni muhim va yetakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o'quvchilarga «**Nimani o'qitish?**» masalasi bilan

chambarchas bog'liq. Ona tili ta'limidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko'nikmalar tizimi to'g'ri belgilansagina, «**Qanday o'qitishi kerak?**» degan savolga javob topish mumkin. Demak, samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir.

«**Nimani o'qitish?**» va «**Qanday o'qitish kerak?**» bir jarayonning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog'langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara ko'rsatmaydi.

Ona tili ta'limning samaradorligi, birinchidan, ta'lim mazmuni, ya'ni shu fandan o'quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar tizimi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning ona tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi, bilish ehtiyojini yuzaga keltiradigan vositalar bilan chambarchas bog'langan.

Ona tili ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'qitish metodini to'g'ri tanlanishidir. Ona tili darslarida o'qituvchi ko'proq o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o'quv materialini tushuntirib berish yoki o'quvchi duch keladigan tushuncha, ta'rif va qoidalar atrofida suhbat o'tkazish bilan o'rgatib bo'lmaydi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi ta'lim jarayonining subyekti, ya'ni faol ishlovchisiga aylanib, har bir o'quv topshirig'ini aqliy faoliyat «chig'irig'i»dan o'tkazgan taqdiridagina o'quv materiallarni o'zlashtirish jarayoni ancha yengil kechadi va dars mashg'ulotlarining samaradorligi ta'minlanadi. O'qitishning amaliy metodlariga tayangan o'qituvchi o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o'quvchining faolligini to'g'ri uyushtira oladi va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi.

O'quvchilariga ona tilidan bilimlarni tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o'qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o'quvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ona tili o'qituvchilari ta'lim metodlarini tanlashda juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayrim o'qituvchilar ma'lum bir

metodga ortiqcha baho berib, ikkinchisini e'tibordan chetda qoldiradilar; ba'zilari har bir metoddan bir shingil olishga urinadilar. O'qituvchilarning ko'pchilik qismi ta'lim metodini tasodifiy tanlaydilar.

O'qituvchi ta'lim metodini tanlashda quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. Tanlanayotgan metodning o'rganiladigan til materiali mazmuniga muvofiq kelishi, mavzuning murakkablik darajasi, o'quv materiali yuzasidan o'quvchilarda tushunchalarning mavjudligi, o'quv materialining hajmi ta'lim metodini tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Mavzu o'quvchilarning o'quv imkoniyatiga muvofiq kelib, ular shu o'rganilayotgan til hodisasi yuzasidan oldingi sinflardan ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lsalar, qayta xotiralanishga asoslangan metodlar bilan bir qatorda, muammoli o'qitish metodidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Mavzu hajm jihatidan katta va murakkab bo'lsa, tushuntirish-namoyish etish metodini muammoli ta'lim metodi bilan qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir.

2. Tanlanayotgan metod ona tili ta'limining asosiy maqsadi va o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzuning xususiy maqsadiga muvofiq kelishi shart.

Ona tili darsida yangi mavzu o'rganiladigan bo'lsa, o'tilganlarni xotirada tiklash orqali o'quvchilardan ijodiylikni talab qiladigan topshiriqlarga ko'proq e'tibor beriladi.

3. Tanlanayotgan metod o'quvchilarning o'zlashtirishini, mustaqil ishlash darajasini, yosh va shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim. O'quvchilarning real o'quv imkoniyatlaridan kelib chiqib, bir vaqtning o'zida bir necha metoddan foydalansa bo'ladi. Masalan, bilimlarni mustaqil egallash jarayonida o'zlashtirishi bo'sh o'quvchilar uchun qayta xotiralanish va qisman izlanuvchanlik metodlaridan foydalansak, o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar uchun ko'proq izlanuvchanlik metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tanlanadigan metod o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ham bog'liq. Bolalarning yoshi ulg'aygan sari til materiallari ustida mustaqil ishlash darajasi ham ortib boradi. Quyi sinflarda o'quvchi o'z-o'zini nazorat qilishda ancha qiynalsa, 7-8 - sinflarga borib, ularning o'z faoliyatini o'zi nazorat qilishi ortadi. Shuning uchun

5–6- sinflarda o‘quv topshiriqlarini bajarish uchun ko‘p hollarda namuna ko‘rsatishga zaruriyat sezilsa, 7–8 - sinflarda ularda ijodiy faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari ancha kengayadi va izlanuvchanlikka asoslangan metodlarga tez-tez murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

4. Ona tili darsida qo‘llaniladigan metod mavzulararo, bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishlarni ham hisobga olishi lozim. Chunonchi, «Jarangli va jarangsiz undoshlar» mavzusi o‘rganilar ekan, o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ham jarangli va jarangsiz tovush juftlari ustida ish olib boradilar, har bir so‘zga ma‘nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar izlaydilar. Bunday holatlarda bilimlarni xotirada tiklash izlanuvchanlik metodlari bilan qo‘shiladi.

O‘quvchilarning orfografik, orfoepik va punktuatsion malakalari ustida ishlash ma‘lum bir bo‘lim doirasida cheklanmaydi. Bu malakalar deyarli har bir ona tili mashg‘ulotida takomillashtiriladi. Qo‘llaniladigan metod ona tili darslari zimmasiga yuklatilgan bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

5. Ta‘lim metodi ona tilidan beriladigan bilimlarning manbaiga ham bog‘liq. Agar o‘quvchi bilimlarni o‘qituvchining jonli so‘zidan oladigan bo‘lsa, tushuntirish-namoyish etish metodi o‘quvchilarning mustaqil izlanishi bilan qo‘shiladi, agar bilim berilgan topshiriqlarni bajarish asosida o‘rganiladigan bo‘lsa, asosan, o‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlarga murojaat qilinadi.

Darslikda o‘quv materialining induktiv yoki deduktiv usulda berilganligi ham ta‘lim metodini tanlashga ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quv materiali induktiv usulda berilgan bo‘lsa, o‘quvchilarning faollik darajasi yuqori bo‘ladi.

Tanlanayotgan metod o‘quv materialini o‘rganish uchun ajratilgan vaqt va o‘qituvchining imkoniyatlariga ham muvofiq kelishi lozim. Mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt oz bo‘lsa, o‘quvchilarning izlanishiga asoslangan metodlarni qo‘llash imkoniyatlari ancha chegaralanadi. Bunday hollarda o‘qituvchining bayoni evristik suhbat bilan qo‘shilgan holda amalga oshiriladi.

Savol va topshiriqlar

1. «Metod» so‘zining qanday ma‘nolari bor?
2. O‘qitish metodi deganda nimani tushunasiz?

3. O'qitish metodlari kimlar tomonidan tasnif qilingan?
4. Yu. K. Babanskiy ta'lim metodlarini necha guruhga ajratadi?
5. M.N.Skatkin, I.Ya.Lernerlar ta'lim metodlarini qaysi xususiyatlaridan kelib chiqib, tasnif qiladi?
6. Metodist H.Rustamov ona tili o'qitish metodlarini qanday tasnif qiladi? Ularni izohlab bering.
7. Kimning tasnifida o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich faollashtirish hamda o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'quv faoliyati tarkibida tadqiqotchilik unsurlari bo'lishi zarurligiga e'tibor berilgan?
8. Pedagogika fanlari doktori, metodist - olim A.Q.G'ulomov ta'lim metodlarini tasniflashda nimalarga e'tibor qaratadi?
9. B.To'xliyev ta'lim metodlarini qanday tasnif qilgan?
10. Bilimlarni tayyor holda bayon etishning ijobiy va salbiy tomonlari haqida ma'lumot bering.
11. Ona tili darslarida bilimlarni muammoli yo'l bilan hal qilish metodining afzalligi nimada? Misollar bilan tushuntiring.
12. Ona tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning qaysi usullaridan foydalaniladi?
13. Ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil bilim olishi qaysi metodlar orqali aniqlanadi?
14. Ona tili mashg'ulotlarida ta'lim metodlari qanday tanlanadi?

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Azimov E. Ona tilidan muammoli dars. «Til va adabiyot ta'limi», 1993, 3–4- qo'shma son, 27–30-b.
2. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1990.
3. Mahmutov M. Maktabda muammoli ta'limni tashkil qilish. Toshkent, «O'qituvchi», 1981.

4. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2005, 202–209-b.

5. Saidov M. Muammoli ko'rgazmalardan foydalanish. «Til va adabiyot ta'limi», 1993, 5–6 qo'shma soni, 13–14-b.

6. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi», 2006, 42–44-b.

7. G'ulomov A. Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. Toshkent, «O'qituvchi», 1987.

8. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1992.

FOR AUTHOR USE ONLY

O'ZBEK TILI DARSLARINING TIPLARI

Tayanch tushunchalar:

Dars, mashg'ulot, o'quv material, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar, didaktik talablar, ona tili darslarining tarkibiy qismlari: takrorlash, yangi bilim berish, bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish, o'rganilganlarni mustahkamlash va darsni xulosalash, uyga vazifa berish; amaliy ishlar: xotiralandi, tayyorlovchi xotirlash, umumlashtiruvchi xotirlash, yangi bilim hosil qilish, tatbiq; ta'limiy darslar, nazorat darslari, xatolar ustida ishlash darslari, noan'anaviy darslar.

Dars shakllari haqida umumiy ma'lumot. Dars shakli deganda u yoki bu fandan o'quv ishini uyushtirish va o'tkazish shakli tushuniladi. Dars inson tafakkurining mahsuli bo'lgan bilimni, fan va texnika, ma'naviyat va ma'rifat, san'at va adabiyot yutuqlarini, Vatanimiz tarixi hamda xalqimizning milliy madaniyatini yoshlarga singdirishning asosiy shaklidir. O'quv ishini tashkil etishda «o'quvchi–o'quv material–o'quvchi» munosabatlari muhim o'rin egallaydi.

O'quvchi ta'lim jarayonining subyekti–faol ishlovchisidir. Buning ma'nosi shuki, mashg'ulot jarayonida asosiy ishni o'quvchining o'zi bajaradi. U til hodisalarini kuzatadi, taqqoslaydi, guruhlaydi, umumlashtiradi, qoida va ta'riflar chiqaradi, ularni amaliy faoliyatda tatbiq etadi.

O'qituvchi ta'lim jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi sanaladi. U o'quvchi faoliyatini tashkil etadi, uning bilim olishi, bu bilimlarning ko'nikma hamda malakaga aylanishiga rahbarlik qiladi.

O'quv material o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'zaro bog'laydi, o'qituvchining vazifasi bu materialni eng oson va qulay yo'l bilan o'quvchiga berish, o'quvchining vazifasi esa uni oson va qulay yo'l bilan qabul qilish hamda amaliy faoliyatda tatbiq etishdan iboratdir.

Dars–o'quvchining ijodiy jarayoni. Bu jarayonda o'quvchilarning ijodiy faoliyati rivojlantirilsa, ular berilgan vazifalarni qiynalmasdan bajaradilar.

O'quvchilar topshiriqlarning bajarish sirlarini o'rganib borgan sari ularda ijodiy fikr yuritish qobiliyati shakllanib boradi.

Ona tilidan o'quvchilarni zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishning shakllari ko'p.

Dars-o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. Bundan tashqari, fakultativ mashg'ulotlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash, mustaqil ish, matbuot va ommaviy axborot vositalari, sayohatlar o'quv ishlarini tashkil etishning muhim shakllari sanaladi.

Ona tili darslari-o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. O'quvchi ona tilidan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni asosan dars orqali oladi.

Dars-bir xil sinfdagi o'quvchilar bilan qat'iy rejim va jadval asosida o'tkaziladigan mashg'ulot turi.

«Dars» va «mashg'ulot» tushunchalari garchand bir - biriga yaqin bo'lsa-da, ammo ular bir ma'noni ifodalamaydi. Mashg'ulot-darsga qaraganda keng tushuncha. Agar dars belgilangan qat'iy jadval asosida va qat'iy vaqt ichida o'tkazilsa, mashg'ulot dars bilan bir qatorda o'quvchilar bilan birga yoki yakkama-yakka holda o'tkaziladigan ta'limiy ishlarni ham o'z ichiga oladi.

Maktab tarixida dars o'qitishning ishonchli va qulay usuli bo'lib, u davr sinovlaridan o'tgan va o'zini ta'la oqlagan. Bu usulning qulayligi shundaki, o'quvchilar jamoa bo'lib o'qiydilar va bir vaqtning o'zida sinfdagi barcha o'quvchilarni zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish imkoniyati tug'iladi.

Ona tili darsi o'quvchilarni nutq ko'nikmalari bilan qurollantirishning asosiy vositasidir.

Darsga ajratilgan vaqt 45 daqiqani tashkil etadi. Ona tili darslari oldiga muayyan talablar qo'yiladi. Bu talablar ona tili darsining maqsadiga bog'liq. Ma'lumki, boshqa o'quv fanlari singari ona tili mashg'ulotlari ham ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zlaydi.

Darsning ta'limiy maqsadi o'rganilayotgan til hodisasi yuzasidan o'quvchilarda puxta bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, uni amaliy nutqiy

faoliyatda qo'llash kabilarni talab etsa, tarbiyaviy maqsad shu til hodisasi orqali bolalarda milliy tilga muhabbat, uni puxta egallashga kuchli ishtiyoq, milliy qadriyatlar, an'analar, urf - odatlar ruhida tarbiyalashni asosiy talab darajasiga ko'taradi.

Rivojlantiruvchi maqsad o'quvchilarni mustaqil xulosalar chiqarish, yuzaga kelgan o'quv qiyinchiliklarini mustaqil ravishda yengish, o'zida qat'iylik, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishga o'rgatishni talab qiladi.

Keyingi yillarda ayrim maktablarda darslar 30 daqiqalik shaklda ham o'tkazilmoqda.

Ona tili mashg'ulotlari oldiga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

DTS talablari doirasida:

– o'quvchilar nutqini o'stirish, imlo savodxonligini oshirish, talaffuz me'yorlarini shakllantirish va rivojlantirish, ifodali o'qish uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

– ta'lim prinsiplariga qat'iy amal qilish, dars metodlari, vositalari va usullarini to'g'ri belgilash;

– ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligini ta'minlash;

– qayta xotiralash, qisman ijodiy va to'liq ijodiy topshiriqlar o'rtasida mutanosiblikni tanlash; ijodiy fikrlashga undaydigan o'quv topshiriqlariga keng o'rin ajratish;

– bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishda o'quvchilar yoshi, o'qish imkoniyatlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.

O'zbek tili darslarining tarkibiy qismlari. Ona tili darslari quyidagi mustaqil qismlardan tashkil topgan: takrorlash, yangi bilim berish, bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish, o'rganilganlarni mustahkamlash va darsni xulosalash, uyga vazifa berish. Bularning har biri muayyan vazifani bajaradi va o'ziga xos mazmunga ega.

Tashkiliy qism o'quvchilarni darsga tayyorlaydi, ularda ishlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish ishtiyoqini yuzaga keltiradi. Darsning bu qismi uyushqoqlik bilan juda

qisqa muddatda tashkil etilishi lozim. Aks holda, darsga ajratilgan vaqtning zoye ketishiga olib keladi va o'quvchini ko'zlangan maqsaddan uzoqlashtiradi.

Uy vazifasini tekshirish berilgan topshiriqning bajarilish sifati, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning puxtalik darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchilar ish amaliyotida ba'zan uy vazifasini tekshirish o'tgan darsni va oldin o'rganilgan til materiallarini takrorlashga aylanib qoladi. Darsning bu bosqichida tashkil etiladigan takrorlash, birinchi navbatda, o'rganilishi ko'zda tutilgan o'quv materialiga zamin hozirlashi lozim.

Agar uy vazifasi o'rganiladigan til hodisasi bilan bevosita aloqador bo'lsa, u yangi o'quv materialini o'rganish jarayonida ham tekshirilishi mumkin.

Darsning yangi bilim berish shakli o'rganilayotgan mavzuga aloqador bilimlarni xotirada tiklashni, ularni qisman ma'lum yoki tamoman noma'lum sharoitlarda qo'llab, yangi bilimlarni egallashni talab etadi.

Darsning mustahkamlash shakli shu dars mashg'ulotida egallangan bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirishni taqozo etadi. Ba'zan mustahkamlash oldin o'rganilganlarni takrorlash bilan qo'shilishi ham mumkin. Agar yangi mavzu oldin o'rganilgan mavzular bilan bevosita aloqador bo'lsa, bu ikki dars shakli bir yaxlitlik hosil qiladi.

Darsning yangi bilim berish jarayonida ham, mustahkamlash va takrorlash jarayonlarida ham ijodiy-amaliy ishlariga keng o'rin ajratiladi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida bajariladigan amaliy ishlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

Xotirlash oldin o'rganilgan til hodisalarini qayta xotirlashga asoslangan amaliy ishlardir. Xotirlashning: 1) tayyorlovchi xotirlash va 2) umumlashtiruvchi xotirlash kabi turlari bor.

1. Tayyorlovchi xotirlash. Til yaxlit bir tizim bo'lib, uning barcha sathlari bir - biri bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham tilning har bir sath birligi serqirra, ko'p vazifali, ko'p ma'noli. Bu birlikning bir tomoni ma'lum bir bo'limda o'rganilsa, uning ikkinchi qirradi, xususiyati tamoman boshqa bir bo'limda o'rganiladi. Chunonchi, bog'lovchilar, ularning ma'nolari va guruhlari morfologiya

bobida o'rganilsa, so'zlarni va gaplarni bir - biriga bog'lanishi sintaksis bobida ko'rib chiqiladi. Demak, sintaksisni o'rganishda, bog'lovchilar haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchi xotirasida tiklash ehtiyoji tug'iladi. Tayyorlovchi xotirlash yangi bilimlarni egallash uchun asos vazifasini o'taydi.

2. Umumlashtiruvchi xotirlash (takrorlash). Til sathlari o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit tizim bo'lsa ham, bu zanjirning har bir bo'g'ini nisbatan mustaqil tizimchadir va uning har bir bo'g'ini alohida - alohida mavzular sifatida o'rganiladi. Chunonchi, bog'lovchilarning o'zi 5-6 mashg'ulotga bo'linib, turlarga ajratilib o'rganiladi va mashg'ulotlarning oxirida umumlashtiruvchi xotirlash ishlari bajarilishi lozim. Umumlashtiruvchi xotirlash ishlari tilning uzluksiz tizimidagi ma'lum bir tizimchalar haqida yaxlit, to'liq ma'lumot hosil qilish uchun zarurdir va yakunlovchi sinov ishlari (yozma ish, yakuniy baho chiqarish, imtihan va h.k.) bajarilishi shart.

Yangi bilim hosil qilish. Amaliy ishning bu turi tahliliy (induktiv) ta'lim usulining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilar bu jarayonda avvalgi bilimlariga tayangan holda hodisalarni tahlil etadilar, ko'rsatilgan yo'llar asosida bu hodisalarni (mustaqil yoki o'qituvchi yordamida) guruhlariga ajratadilar, saralaydilar va xususiylikdan umumiylikni topishga kirishadilar. Bunday amaliy ishlar yangi bilim hosil qilishning asosiy usulidir.

Tatbiq. Tatbiqiy amaliy ishlar o'quvchilarni mashg'ulotda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi mashqlardir. Bunday mashqlar mohiyatan ikki turli bo'ladi:

- 1) qisman ijodiy mashqlar;
- 2) ijodiy mashqlar.

Qisman ijodiy mashqlar o'rganilgan til hodisalarini qisman yangi sharoitda tadbiq etishni talab etadigan amaliy ishlardir. Bunday amaliy ishlarning tarkibida ma'lum darajada izlanish, ijodiy faoliyat ko'rsatish ehtiyoji bor. Mashq shartidagi ayrim ko'rsatmalar, o'qituvchi beradigan tavsiyalar yoki uning rahbarligida o'quvchilar bilan uyushtiriladigan o'zaro suhbat amaliy ishni qisman ijodiy qilib qo'yadi.

Ijodiy mashqlar esa o'rganilgan til hodisalarini tamomila yangi sharoitda ijodiy qo'llashni talab etadigan amaliy ishlardir. Mashq shartidagi noma'lumni izlab topish o'quvchidan ijodiy izlanishni talab etadi. Yangi o'rganiladigan til hodisalarini mustaqil ravishda guruhlarga ajratish, berilgan matnning til xususiyatlarini tahlil qilish orqali ma'lum bir yangi xulosaga kelish, o'qilgan badiiy asarga yoki kinofilmga taqriz yozish, uslub talabidan kelib chiqib matn yaratish kabi ishlar amaliy ishlarning bu turiga kiradi. Ayniqsa, matn yaratash egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning so'nggi natijasidir.

Darsni xulosalash jarayoni. Darsni xulosalash ham ancha mas'uliyatli jarayon bo'lib, u egallangan bilimlar amaliy faoliyatda sinalgandan so'ng o'tkaziladi. O'quvchilar darsning bu bosqichida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarga tayangan holda o'zlari ta'rif va qoidalar chiqaradilar.

Uyga vazifa berish darsni xulosalash bilan birga qo'shib olib boriladi. O'qituvchi uyga berilayotgan topshiriq sharti o'quvchilarga tushunarli bo'lishini ta'minlashi, zaruriyat tug'ilsa, uni bajarish usuli haqida qo'shimcha ma'lumot berishi zarur.

Uy vazifasi darsning tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ham u qo'ng'iroq chalinmasdan oldin berilishi kerak.

Vaqt taqsimoti ham dars samaradorligini ta'minlashning muhim omili sanaladi.

O'zbek tili (ona tili)dan dars turlari. Ona tili darslarining maqsadi va tuzilishidan kelib chiqib, uni ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1. Ta'limiy darslar.
2. Nazorat darslari.

Ta'limiy darslarni 4 katta guruhga ajratish mumkin:

1. Yangi bilim berish darslari.
2. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari.
3. O'rganilganlarni takrorlash darslari.
4. Xatolar ustida ishlash darslari.

Yangi bilim berish darsi keng tarqalgan dars turlaridan biri bo'lib, bu darsda o'quvchilar yangi zaruriy bilimlar bilan qurollantiriladi va o'rganilganlar yuzasidan dastlabki malakalar hosil qilinadi. Darsning bu turi uy vazifasini tekshirish,

egallangan bilimlar yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish, darsni xulosalash, uyga vazifa berish singari unsurlarning yig'indisidan iborat.

Yangi bilim berish darsi darsning boshqa bosqichlarida bajariladigan ishlarni o'ziga bo'ysundiradi. Uy vazifasini tekshirish va o'rganilganlarni takrorlash yangi bilimlarni puxta egallashga tayyorlasa, mustahkamlash, xulosalash, uyga vazifa berish egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llashga keng yo'l ochadi.

Yangi bilim berish darslari faqat tilning turli tomonlariga oid bilimlarni egallash masalalari bilangina bog'liq bo'lmasdan, bilimlarni qay darajada o'zlashtirish muammosi bilan ham uzviy bog'langan. O'quvchi darsda olgan bilimlarini o'z so'zlari bilan aytib bera olishi, o'rganangan bilimlariga doir dalil keltira olishi, o'rganilgan bilimlarni oldin egallangan bilimlardan ajrata bilishi lozim.

Yangi bilim berish darslari bilimlarni tayyor holda bayon qilib berish emas, albatta. O'quvchilarning ijodiy fikrlashga tayanib ish ko'rishi yangi bilim berish jarayonida ham davom ettiriladi. Bu darslarda ham tushuntirish, namoyish etish metodidan kamroq, muammoli vaziyatlar yaratish, o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga undovchi metodlardan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari maxsus dars turi bo'lib, hajm jihatidan katta, o'rganilishiga 2–3 soat vaqt ajratilgan mavzular yuzasidan o'tkaziladi. Bu dars turi yangi bilim berishdan tashqari boshqa barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Agar yangi bilimlar berish darsida qayta xotiralanish xarakteridagi topshiriqlar qisman izlanuvchanlik va izlanuvchanlik xarakteridagi topshiriqlarga qaraganda ko'proq qismni tashkil etsa, bu darslarda shuning teskarisidir.

Topshiriqlarning sharti ham bu darslarda ancha murakkablashadi. Har bir mashq uch-to'rt va hatto besh-olti topshiriqni o'z ichiga qamrab olishi mumkin.

O'rganilganlarni takrorlash darslari bir necha soat davomida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni mukammallashtirishni nazarda tutadi.

Takrorlash darslari o'quv yilining boshida, oxirida, yirik mavzular o'rganilgandan keyin va bo'limlar tugagandan so'ng o'tkaziladi. Shu jihatdan takrorlash darslarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

– o'quv yili boshida takrorlash;

- o‘quv yili oxiridagi yakuniy takrorlash;
- oldin o‘rganilgan bilimlarni o‘quvchilar esiga tushirish uchun takrorlash;
- darsda o‘rganilgan yangi mavzuni takrorlash;
- ona tilidan katta mavzu, bo‘lim o‘tilgach, o‘tkaziladigan takrorlash;
- ma‘lum o‘quv materialini o‘rganilgach, kelgusi o‘quv soatida o‘tkaziladigan takrorlash.¹

O‘quv yilining boshida o‘tkaziladigan takrorlash oldingi sinfda o‘rganilgan materiallardan tashkil topadi. Til hodisalarining yaxlitligi, bir - biri bilan o‘zaro chambarchas aloqadorligi o‘quv yilining boshida oldingi sinfda o‘rganilganlarni takrorlashni zaruriyatga aylantiradi. Chunki yangi o‘rganiladigan materiallar oldin o‘rganilganlarning mantiqiy davomi sanaladi.

O‘quv yilining boshida o‘tkaziladigan takrorlash ham umumlashtiruvchi, ham tayyorlovchi takrorlash bo‘lib, u nafaqat oldingi sinfda o‘rganilganlarni xotirada tiklashga, balki navbatdagi sinfda o‘rganiladigan materiallarga zamin hozirlashga xizmat qiladi. Bu turdagi takrorlash darslari uchun o‘quv materialini o‘qituvchi darslikdan tanlashi yoki o‘zi tuzishi mumkin.

Takrorlashning bu turini muvaffaqiyatli qo‘llash uchun sinf o‘quvchilarining o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish, qaysi til hodisalarini takrorlashga ko‘proq ehtiyoj sezilayotganligini nazarda tutish, zaruriyat tutilsa, darslikdagi mashqlar shartiga qo‘shimcha shartlar kiritish, ularni o‘zgartirish, yangi mashqlar kiritish foydalidir.

O‘quv yili oxiridagi yakuniy takrorlash bosqichida yil davomida olgan bilimlar qayta esga olinadi, o‘quvchilarning bilimlari tartibga solinadi, o‘rganilgan mavzular yuzasidan umumiy xulosalar chiqariladi.

Oldin o‘rganilgan bilimlarni o‘quvchilar esiga tushirish uchun takrorlash yangi mavzuni o‘rganish va mustahkamlash darslarida o‘tkaziladi. Shu jarayonda o‘rganilgan va o‘rganilayotgan mavzular o‘rtasida izchillik, mantiqiy aloqa hosil qilinadi.

¹ Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. T.: "Yangi asr avlodi", 2005, 264–266-b.

Darsda o'rganilgan yangi mavzuni takrorlash jarayonida yangi mavzu haqida ma'lumot berilgandan so'ng o'quvchilar olgan bilimlarini esga tushirib, mashqlar ustida ishlatiladi. Bu jarayon darsning mustahkamlash bosqichi deb ham yuritiladi.

Takrorlash bitta bo'lim yoki katta mavzu doirasida tashkil etilishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor nafaqat o'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlashga, balki o'quvchilar bilimidagi bo'sh tomonlarni hisobga olib, bu bo'shliqlarni to'ldirishga ham qaratiladi.

Ma'lum o'quv materiali o'rganilgach, kelgusi o'quv soatida o'tkaziladigan takrorlashda mavzu yuzasidan tushuncha hosil qilish, o'rganilgan mavzu doirasida malakalarni shakllantirish, o'quvchilarning bilimlarini qat'iy lashtirishga qaratiladi.

Keyingi yillarda takrorlash mashg'ulotlarini «Topqirlar bellashuvi» tarzida o'tkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Darsning bu shakli qiziqarli dars shakllaridan biri bo'lganligi uchun ham bu haqida batafsil to'xtalamiz.

Xatolar ustida ishlash darslari o'quvchilar nutqida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etishni ko'zlaydi.

Ona tili mashg'ulotlarida nafaqat xatoning oldi olinadi, balki yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar bartaraf ham etiladi. O'qituvchilarning amaliyotida xatoni tuzatishning ikki usulidan foydalaniladi:

- 1) xatoni tuzatib ko'rsatish;
- 2) xato haqida xabar berish.

Xatoni tuzatib ko'rsatish usulidan, asosan, nazorat xarakteridagi yozma ishlarni tekshirishda foydalaniladi. Xato haqida xabar berish usuli eng samarali usullardan biri bo'lib, u ko'proq ta'limiy xarakterdagi yozma ishlarni tekshirishda qo'llaniladi.

Omilkor o'qituvchilar ish amaliyotida xato haqida xabar berishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. «4», «5» bahoga o'qiydigan o'quvchilarning yozma ishlarini tekshirishda xato tuzatilmay, balki hoshiyasida shu qatordagi xatoning soni ko'rsatiladi. Bunda imlo xatolarni shartli ravishda I harfi bilan, tinish belgilarga oid xatolarni P harfi bilan, uslubiy xatolarni to'lqinli chiziq bilan belgilash mumkin. Masalan, daftar hoshiyasida I~1 belgisi qo'yilgan bo'lsa, demak, shu qatorda bitta imloviy xato

mavjud. O'qituvchi shu qatorda joylashgan 4–5 so'zdan qaysi birida xato qilganligini o'zi aniqlaydi va tuzatadi.

2. «3» baho bilan o'qiydigan o'quvchilarning yozma ishlaridagi xatolar haqida xabar berish maqsadida xatoli so'zning ostiga chizish, lekin xatoni tuzatib ko'rsatmaslik usulidan foydalaniladi. Bu holda o'quvchi yo'l qo'yilgan xatoni barcha so'zlardan emas, balki ostiga chizilgan so'zdan izlaydi.

3. Bo'sh o'zlashtiradigan yoki o'z xatosini aniqlashda qiynaladigan o'quvchilarning yo'l qo'ygan xatolarini xatoli bo'g'in ostiga chizish bilan belgilash maqsadga muvofiqdir. O'quvchi belgilangan bo'g'indan o'z xatosini qidiradi.

O'quvchilarning og'zaki javoblaridagi nutqiy xatolarni bartaraf etish yozma ishlardagi xatolarni bartaraf etishga qaraganda ancha murakkab. Chunki yozma ishlardagi xatoni ko'rish oson, nutqdagi xatoni esa payqash qiyin.

Tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish, so'z urg'usini noto'g'ri qo'llash, gap urg'usiga rioya qilmaslik, gap ohangini buzish kabilar nutqiy xatolar bo'lib, uni bartaraf etish o'quvchi javobini diqqat bilan tinglashni, og'zaki nutq namunalari birgalikda tahlil etishni talab etadi.

Nutqiy xatolar ustida ishlashning eng samarali yo'li uni **magnit lentasiga** yozib olib, keyin o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilishdir. Xatoni bartaraf etishda o'quvchining ishtiroki qancha ko'paysa, uni bartaraf etish imkoniyati osonlashadi.

O'zbek tilidan nazorat darslari. Nazorat darslari o'quvchilarning o'rganilgan materiallarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, yo'l qo'yilgan imloviy, punktuatsion va nutqiy xatolarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

O'zbek tili (ona tili) dan nazorat darslarini uch turga ajratish mumkin:

1. Til hodisalarining o'zlashtirilganlik darajasi ustidan nazorat.
2. O'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi ustidan nazorat.
3. Nutqiy malakalarning egallanganlik darajasi ustidan nazorat.

Til hodisalarining o'zlashtirilganlik darajasi ustidan nazorat berilgan tovush, so'z, gap, matnni tahlil qilish, so'zlarni muayyan xususiyatlariga qarab guruhlash, til hodisalarini qiyoslab, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish, qo'yilgan savollarga to'g'ri javob qaytarish, topshiriqlarni to'g'ri

bajarish orqali aniqlanadi. Chunonchi, otlarning yoki sifatlarning ma'no guruhlari o'rganilgach, o'qituvchi oxirgi mashg'ulotni nazorat darsi sifatida rejalashtiradi.

O'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi ustidan nazorat, asosan ta'limiy diktantlar, shuningdek, bayon va insholar orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimida diktantlarning xizmati benihoya kattadir. Diktant yozish jarayonida yozuv orqali o'quvchilarning aqliy faoliyati rivojlanadi. O'quvchi o'qituvchi aytib turgan jummalarni yoki so'zlarni yozadimi, yoki fikrini erkin yozadimi, baribir, u ongli ravishda og'zaki nutqni yozma shaklga ko'chiradi. Dastlab, so'zlovchining nutqini tinglovchi mazmun jihatdan idrok qiladi. So'zlovchining nutqini yozuvga ko'chirish jarayoni boshlanganda o'quvchi gapdagi so'zlarni tovush tarkibi va ohangiga e'tibor beradi, tovush va harflarni o'zaro qiyoslaydi, ohangni ma'lum tinish belgilari bilan ko'rsatishga harakat qiladi.

O'quvchi diktant yozishda doimo ichki nutqqa asoslanadi. Yozish jarayonida o'quvchining nutq organlari so'z uzvlarini bilinar-bilinmas talaffuz qilgan holda harflarga ko'chiradi.

Ma'lum harflar tushirib qoldirilgan so'zlarni to'g'ri yozish talab qilingan mashqlarda ham o'quvchi so'zni avval to'lig'icha ichida talaffuz qiladi va tushirib qoldirilgan tovushga muvofiq keladigan harfni topadi. Shuning uchun ham o'quvchi tovush va harf munosabatini yaxshi bilishi kerak.

Tovush o'ziga muvofiq keladigan harfiy ifodasiga ega bo'lganda, o'quvchi bunday tovushlarni harflarga aylantirishda qiyinchilik sezmaydi. Lekin ayrim hollarda, xususan, kuchsiz holatga kelganda, tovushlar o'zlarini to'liq talaffuziga ega bo'lmaydi. Ana shunday paytlarda o'quvchi orfogrammani yozishda qiynalib qoladi. Masalan, *obot* talaffuz qilinsa ham, *obod* yoziladi. Bunday holatlarning sababini o'quvchiga tushuntirish kerak.

O'quvchi diktant yozishda so'zlarni tovushlarga ajratish va tovushni harflarga solishtirish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Eng muhimi, tovush va harflarni bir-biriga muvofiq keladigan va muvofiq kelmaydigan holatlar borligini ajratib oladi. Muvofiq kelmaydigan holatlarning sababini bilib oladi. O'quvchilarning to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirishda xilma-xil diktant turlaridan foydalaniladi. Garchi

diktantlarning barchasi ta'limiy xususiyatga ega bo'lsa ham, lekin ma'lum bir mavzu o'tilgandan so'ng shu mavzuni o'quvchi qanchalik o'zlashtirganini sinamoq uchun alohida diktant turi o'tkaziladi, bunday diktant ta'limiy diktant nomi bilan yuritiladi. Diktantlar dastlab ikki guruhga bo'linadi: ta'limiy va nazorat diktantlar. Ta'limiy diktant o'z navbatida ijodiy diktant, lug'at diktant, saylanma diktant, ta'kidiy diktant kabi turlarga ajratiladi.

Ijodiy diktant

Ijodiy diktant o'quvchilar nutqini o'stirishda, orfografik ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Maktabda eng keng qo'llanilayotgan va ijobiy natija berayotgan ijodiy diktant turlari:

1. O'quvchilarga o'rgatilgan orfogrammalar tavsiya qilinadi va ularning shu orfogrammalar ishtirok etgan gap tuzish talab etiladi. O'quvchilar tavsiya etilgan orfogrammalar yordamida tuzgan gaplarini o'qib beradi. Orfogrammalar tagiga chizadi va orfogrammani nima uchun shunday yozilayotganligini aytib beradi. O'qituvchi o'quvchilar tuzgan gaplarning eng yaxshilarini ta'kidlab, boshqa o'quvchilariga ham bu gaplarni yozishni tavsiya etadi.

2. Ma'lumki, gap tarkibidagi so'zlarga bog'lanib kelishi mumkin bo'lgan so'zlarni qo'shib gaplarni kengaytirish talab etiladi. Masalan, **Polizlarda qovunlar pishib yotibdi** gapida **qovunlar** so'zining tagiga chizib, shu so'zni belgisini bildiruvchi so'zni qo'shish talab etiladi.

O'quvchilar **shirin, shakar, katta-katta** kabi so'zlarni qo'shib gap tuzilishini kengaytiradilar. Bu bilan o'quvchilarning nutqi o'stiriladi va orfografik ko'nikmasi shakllantiriladi.

Ijodiy diktantda so'zlar soni odatdagi me'yordan kamroq bo'ladi, chunki o'quvchilar o'zlari ijod qilib, matnini to'ldiradilar.

O'qituvchi ijodiy diktantni baholashda o'quvchining imloviy savodxonligi hamda ijodiy faoliyatini e'tiborga oladi. Diktantning bu turini tez-tez o'tkazish o'quvchilarda izlanish, ijod qilish, mantiqiy fikrlash kabi aqliy faoliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Saylanma diktant

Saylanma diktantda o'quvchi gapni to'liq yozmaydi, balki gap tarkibidagi ayrim so'z yoki so'z birkimlarini yozadi. Bu esa qisqa vaqt ichida ma'lum qoida asosida yozilishi lozim bo'lgan bir qancha so'zlarning imlosini o'rganishga yordam beradi.

Saylanma diktant o'quvchilarda onglilik va mustaqillikni rivojlantiradi. Masalan, sifat so'z turkumi o'tib bo'lingandan so'ng o'qituvchi mavzuga taalluqli gaplar berilgan mashqni to'liq o'qiydi, o'quvchilar esa shu mashqdan faqat sifat turkumiga oid so'zlarni daftarlariga yozadilar, ya'ni saylab oladilar.

Saylanma diktantni baholashda o'qituvchi uning imlosiga, to'g'ri saylab olishiga (tanlab) ham ahamiyat beradi. Diktant tugagach, o'quvchilar nechta so'z yozganini tekshiradi.

Lug'at diktanti

Lug'at diktanti ko'p vaqt olmasligi, ixchamligi bilan diktantning boshqa turlaridan farq qiladi. Shuning uchun har bir mavzuni o'tgandan so'ng yangi mavzuni mustahkamlash uchun bunday diktant turidan foydalaniladi. Deyarli har bir mavzuni (bo'limni) o'tib bo'lgandan so'ng lug'at diktant olish mumkin. Lug'at diktanti uchun darsning 7-10 minutini ajratish kifoya.

Lug'at diktanti o'quvchilarga so'zlarning qanday yozilishini, so'zning ma'nosini o'rgatadi. Demak, o'quvchilar nutqini o'stirishda bunday diktant katta ahamiyatga ega.

Nazorat diktanti. Nazorat diktanti o'rganilgan qoidalarni o'quvchilar qanchalik o'zlashtirgani, bu qoidalarni amalda qanchalik tatbiq qila olishlarini nazorat qilish uchun o'tkaziladi. Bunday diktant har bir katta mavzuni o'tib bo'lgandan keyin va chorak oxirida olinadi. Shuning uchun ham nazorat diktanti uchun o'quvchilar maxsus tayyorgarlik ko'rishlari, o'tilgan mavzuni takrorlab kelishlari talab qilinadi. Ayni paytda o'qituvchi ham o'quvchilarning yoshi, tarbiyasi, talabiga javob beradigan va mavzuga muvofiq keladigan matnni tanlab yozdirishi lozim.

Nazorat diktanti quyidagi tartibda o'tkaziladi: O'qituvchi nazorat diktanti uchun tanlangan matnni adabiy talaffuz me'yorlari asosida ifodali o'qib beradi. Matn mazmuni o'quvchilar uchun tushunarli ekanligiga ishonch hosil qilingach, matn tarkibida uchragan imlosi qiyin yoki o'quvchi uchun notanish so'z (2-3ta) doskaga yozib qo'yiladi. Shundan so'ng matn jumlama-jumla o'qiladi.

Matn yozib bo'lingandan so'ng o'qituvchi uni yana bir bor sekin, ifodali o'qib beradi. Natijada, o'quvchilar yozgan diktantini boshdan-oyoq tekshirib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shundan so'ng o'qituvchi mumkin qadar tezroq tekshirib, o'quvchilarni yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlatishi lozim. Aks holda o'quvchilarning esidan chiqib ketib, diktantning hech qanday foydasi bo'lmasligi mumkin.

Diktant matnidagi so'zlar soni

Sinflar	V	VI	VII	VIII	IX
Lug'at diktandagi so'zlar miqdori	20-25	25-30	30-35	35-40	40-45
Nazorat diktandagi so'zlar miqdori	100-110	110-120	120-150	150-170	170-200

O'quvchilar nutqining rivojlanganlik darajasi, umumiy savodxonligi, asosan, bayon, insho orqali aniqlanadi. **Bayon** qisman ijodiy mustaqil ish turlaridan biri bo'lib, u ta'limiy va nazorat maqsadlarida o'tkazilishi mumkin.

Bayon o'rta maktab ta'lim - tarbiya tizimida nutq o'stirish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. U yozma ishni asosiy turlaridan biri bo'lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini o'quvchi tomonidan «o'z so'zi» - o'ziga xos uslubi asosida savodli qayta bayon qilishni taqozo etadi.

Bayonning ta'limiy - tarbiyaviy ahamiyati katta. U ona tili va adabiyotdan o'quvchini qanchalik bilim, malaka va ko'nikmalariga ega bo'layotganini, nutq madaniyati taraqqiyoti darajasini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, matn mazmuni orqali axloqiy - estetik kamolotga yetaklaydi, mehnatga va tabiatga muhabbat ruhini singdiradi, chinakam insoniy fazilatlarini shakllantiradi.

Bayon o'z xususiyatiga ko'ra diktant va inshodan farq qiladi. Bu yozma ishlardagi o'zaro umumiy o'xshashlik shundaki, ularni o'tkazishdan oldin o'qituvchi yozilishi lozim bo'lgan mavzuni, matnni aniqlaydi, o'qiydi, o'quvchilar esa o'qituvchi rahbarligida topshiriqni savodli yozish uchun harakat qiladilar.

Ularning bir-biridan farqi shundaki, diktant matni o'qituvchi tomonidan aytib turib yozdiriladi, bayonda esa matn o'qib berilgandan so'ng o'quvchilar o'zlashtirganlarini xotira asosida yozishga kirishadilar.

Diktant o'quvchilarni grammatikadan qanchalik ongli bilim olganliklarini namoyish etadi, savodxonligini oshiradi, yozuv malakalarini puxta egallashga undaydi.

Bayon va insho yozishda esa o'quvchilar yozma nutq malakalarini namoyish etadilar, o'zlarining tafakkur kuchi va nutq boyliklariga suyanadilar. Bu insho bilan bayonning o'xshash tomonlaridir. Ular o'rtasidagi farq shundaki, agar bayon ta'limiy xarakterda bo'lsa, matn o'qib berilgach, o'quvchilar uning mazmunini og'zaki gapirib beradilar, shundan keyingina yozishga kirishadilar. Inshoda esa o'quvchilarga matn o'qib berilmaydi, balki faqat mavzu tavsiya etiladi. Mavzu bo'yicha reja tuziladi, o'quvchilar shu reja bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalaydilar.

Ta'limiy bayonda oldin bayon talablari va qoidalari aytiladi, shu haqida ularga zarur bilim beriladi, keyin bayon yozish mashqi izchil davom ettiriladi. Shu sohada o'quvchilarni qanchalik bilim, ko'nikma va malakalarga ega ekanliklarini tekshirish sinash maqsadida vaqti-vaqti bilan sinov tekshiruv (nazorat) bayoni o'tkaziladi.

Matn tanlashda o'quvchilarni yosh xususiyatlari va bilim saviyalari hisobga olinadi, ayniqsa, matnning tarbiyaviy jihatiga, davr talablariga qay darajada mosligiga e'tibor beriladi.

Matnga yaqinlashtirib bayon yozish. Bunda muallifga xos so'z va iboralardan foydalanish talab etiladi. Buning uchun badiiy til xususiyati bilan ajralib turadigan asarlar tavsiya etiladi. Bunday matn yuzasidan bayon yozishdan oldin o'quvchilar muallifning har bir fikri, iborasi va uslubini aniq tushunib olishi va uni o'z bayonida qo'llashi zarur. Matnga yaqinlashtirib yozilgan bayonda muallif fikrini

o'quvchi o'z so'zi bilan bayon etishi mumkin, biroq eng muhimi muallif qo'llagan so'z va iboralarning yozma nutqda keng foydalanishi zarur. Bu o'quvchi lug'at boyligini oshiradi va faollashtiradi, iboralardan ijodiy foydalanishni o'rgatadi. Buning uchun matn hajmi uncha katta bo'lmasligi kerak.

Qo'shimcha topshiriqli bayon, asosan, ona tili darslarida o'tkaziladi. Bunda biror grammatik qonun-qoida asosida olingan bilimni ko'nikma va malakalarga aylanish ko'zda tutiladi. Masalan, so'zlarning o'zaro bog'lanishi, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, gapda so'zlar tartibi, gap bo'laklari, gapning uyushgan bo'laklari, ko'chirma va o'zlashtirma gap, sinonim so'zlar, ritorik so'roq gaplar, inkor gaplar, tinish belgilarining ishlatilishiga oid nazariy bilimlar o'rganilgach, qo'shimcha topshiriqli bayon o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Saylanma bayonda matnning hammasi yozilmaydi, balki o'quvchilar bir necha qismli matning xohlagan bir qismi yuzasidan bayon yozadilar. Bunda o'quvchilarga erkinlik beriladi, ular o'zlariga yoqqan, qiziqtirgan biror qismni saylab oladilar. Bu bayon turining ahamiyati shundaki, o'quvchilar keng hajmli mazkur asar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'ladilar, undagi qismlar orasidagi bog'lanishni tushunib yetadilar va saylab olingan qism mazmuniga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladilar, tafakkur va nutqlari tezroq rivojlanadi, mustaqillik, saylab olish, tanlash ixtiyori ularni quvontiradi. Uni tashkil etishda o'qituvchi matni bir marta ifodali o'qib beradi, reja tuzmasdan ham yozishga kirishish mumkin.

Qisqartirib, ixcham bayon yozish. Qisqartirib, ixcham bayon yozishning ahamiyati shundaki, biror ertak va hikoyaning mazmunini umumlashtirib asosiy g'oyani lo'nda ifodalash uchun o'quvchini faol mustaqil fikrlashga undaydi, keng hajmli matn yuzasidan qisqartirib ixcham bayon yozish malakasini shakllantiradi. Qisqartirib yozish malakasini hosil qilish uchun matn yuzasidan savol shaklida reja tuza bilish muhim o'rin tutadi. Keyin ular savolga qisqa javob yozadilar.

Qisqartirib ixcham bayon yozishning asosiy talabi shuki, matning asosiy mazmuniga zarar yetkazmagan holda, ikkinchi darajali voqea - hodisalarni qisqartirib, g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'rinlar qoldiriladi. Qisqartirilgan bayonni murakkablik tomoni shundaki, o'quvchi muallifning qisqa fikrini saqlagan

holda nihoyatda qisqa, ixcham yozishni o'rganadi. Shunga qaramay, mazkur bayon ustida uzluksiz ishlash zarur.

Ijodiy bayon. Bunday bayonda o'quvchidan matn mazmuniga o'z munosabatini bildirish talab qilinadi. U bir necha shaklda o'tkazilishi mumkin. Masalan, berilgan kichik hajmli matn mazmunini kengaytirib yozish, voqeaband she'rlar mazmunini hikoyalab yozish, dialoglarni umumlashtirib yozish, shaxsini o'zgartirib yozish kabilar.

Shaxsini o'zgartirib yoziladigan bayonda birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs tomonidan bayon etiladigan fikr ifodalanadi. Shu sababli, bayonni bu turi o'quvchilar bilan ko'proq mashq o'tkazishni, o'quvchilarning birinchi shaxsni uchinchi shaxsga aylantirish qoidalarini puxta o'zlashtirishlariga e'tibor berishni taqozo etadi. Matnda dialoglar ko'p bo'lsa, ularni o'zgartirib bayon qilishda ko'chirma va o'zlashtirma gaplar haqidagi bilimlarni yaxshi va puxta o'zlashtirishga ahamiyat beriladi.

Bayon rivoya tarzidagi she'riy asar yoki undan olingan parchalar bo'yicha ham yozdiriladi: Masalan, E.Vohidovning «Nido» dostonidagi «Ota va o'g'il» suhbat lavhasi bo'yicha ham yozdirish mumkin. Bu turdagi bayonlarni yozish bir oz murakkab bo'lgani uchun uni yozishdan oldin puxta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Avval shu bob qayta o'qiladi, ular ustida suhbat o'tkaziladi, mazmunini o'quvchilar so'zlab beradilar, ularning hikoyasini o'qituvchi to'ldiradi, so'ngra reja tuziladi, shundan keyin yozishga kirishiladi.

Ixcham bayon. Ixcham hajmli matn yuzasidan o'tkaziladigan yozma ishning bu turiga ixcham bayon deyiladi. Bunday bayon V–IX sinflarning har birida darsning 8–20 minutida qiziqarli kichik mashg'ulot sifatida o'tkaziladi va bu mashg'ulot o'quvchini qiynamaydi, u mazmunni tez o'zlashtiradi. Bu o'ziga xos yozma mashq turi bo'lib, uning rejasi tuzilmaydi. Masalan, VIII sinfda qish fasli, aniqrog'i, yangi yil bayramiga tayyorgarlik ko'rilayotgan paytda biror darsdan 10 minut ajratib ixcham bayon matni o'qib beriladi: «*Archa kirgan xonadonda bolalar ham, kattalar ham xursand. Archadan shifobaxsh, xushbo'y is chiqadi. U yashilligi bilan ko'zni quvontirsa, xushbo'y isi uy havosini tozalaydi. Uy ichida o'rnatilgan*

archadan barometr sifatida foydalansa ham bo'ladi. Agar havo aynib, yog'in-sochin yaqinlashsa, archa shoxlari bir-biriga yaqinlashadi. Agar shoxchalar yana bir-biridan uzoqlashib, joyiga qaytsa, havo ochilishidan darak beradi». Mana shu kichik hajmli bayon mazmuni, ahamiyati o'quvchilar diqqatini tezda o'ziga jalb etadi. Demak, uy havosi yangilab turiladi, yog'in-sochin yaqinlashishi yoki havo ochilishini unga qarab oldindan bilib olish mumkin ekan. Bolalar uni qiziqish, mehr bilan kuzatadilar, unga e'tibor kuchayadi, fikr tez ilg'ab olinadi, uni qog'ozga yozish osonroq bo'lgani uchun ular bu ishga bajon-u dil kirishadilar. O'qituvchi bu bayon turini bir kundayoq tekshirib baholaydi. Ko'pchilik, shubhasiz, ijobiy baho oladi va o'quvchilarda kattaroq hajmdagi bayonlarni yozish malakasi ortib boradi.

Ixcham bayon matnini bir marta o'qib berilishining o'zi ham o'quvchilarning eshitish qobiliyatini oshirishga, e'tiborlilikka, xotirasini o'stirishga katta yordam beradi.

Bayonlarni o'tkazish tartibi quyidagicha:

- matn bir marta o'qituvchi tomonidan o'qiladi;
- matn mazmuni yuzasidan o'quvchilar bilan savol-javob o'tkaziladi;
- zarurat tug'ilsa, bayon matnining ayrim o'rinlari qayta o'qiladi;
- bayon rejasi tuziladi;
- o'quvchilarga notanish bo'lgan so'z va iboralarning ma'nosi sharhlanadi; ayrim imlosi qiyin so'zlar sinf taxtasiga yozib qo'yiladi.

O'qituvchi o'quvchilar yozgan bayonlarni o'qib, o'rganib, baholaydi, sinfda tahlil qiladi. O'qituvchi bu ishlarni puxta uyushtirish bilan bayonni muvaffaqiyatli yozilishiga erishadi. O'qituvchi bayon matni o'quvchi tomonidan qanchalik o'zlashtirilgani va bayon etilganiga, rejani maqsadga muvofiqligi hamda reja asosida izchillikda, savodli, grammatik qoidalariga mos ravishda yozilishiga e'tibor beradi.

V–IX sinf o'quvchilari tomonidan yozilgan bayonni tekshirishda aniqlangan xatolar belgilar bilan ko'rsatib qo'yiladi: orfografik xato harfning tagiga bir to'g'ri chiziq (–), ortiqcha yozilgan harf tagiga ikki to'g'ri (=) chiziq, so'z xato yozilgan yoki jumlada sintaktik aloqa buzilgan bo'lsa, bir uzun to'g'ri (–) chiziq, uslubiy

xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa tagiga to‘lqinli chiziq (~) chiziladi. Bir yoki bir necha jumlada uslubiy xatolar bo‘lsa, daftarning hoshiyasiga qo‘sh tik chiziq (||) ishorasi qo‘yiladi; jumlarlar orasida aloqa bo‘lmay, fikr tushunarsiz bo‘lsa, daftarning hoshiyasiga bir tik chiziq (|) ishorasi va savol alomati (?) qo‘yiladi. Yangi fikr yangi yo‘ldan boshlanmagan bo‘lsa, jumladagi birinchi so‘z oldidan yangi yo‘ldan boshlash ishorasi (Z) qo‘yiladi.

Bu ishoralarni o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham xotirada saqlashlari lozim. Chunki o‘quvchilar bu ishoralar yordamida o‘z xatolarini bilib oladilar va tuzatadilar.

Yozma ishlarni, jumladan, bayonni tekshirishda kim qayerda, qanday xatolarga yo‘l qo‘yganligini aniqlash, xatolarni xillarga bo‘lib ularni tuzatish yo‘llarini o‘quvchilarga ko‘rsatish maktab tajribasida sinalgan usul hisoblanadi. Tahlil jarayonida eng yaxshi yozilgan ishlarning ayrim o‘rinlari namuna sifatida o‘qib eshittirish ham pedagogik va psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan usullardandir. Yozma ishi namuna qilib ko‘rsatilgan o‘quvchi ma’naviy tomondan mukofotlanganligini chuqur his qiladi, boshqa o‘quvchilarda esa yozma ishga jiddiy munosabatda bo‘lish mas’uliyati ortadi.

Tekshiruv - sinov bayoni. O‘quvchilarning nutqiy malakalarini aniqlash, sinash maqsadida o‘quv yilining har bir choragida bir-ikki marta tekshiruv-sinov bayoni o‘tkazilib turiladi. Buning uchun matn, albatta, o‘quvchilarga tanish bo‘lmagan, darsda tahlil qilinmagan asarlardan yoki «Bayonlar to‘plami»dan olinadi.

Bunday bayonni o‘tkazish uchun matn o‘qituvchi tomonidan bir-ikki marta ifodali o‘qib beriladi. Matn mazmuni yuzasidan o‘quvchilarda savollar bo‘lmasa, berilgan reja asosida bayon yozishga kirishiladi. Bayon yozib bo‘lingach, mustaqil o‘qib chiqish uchun 3–5 minutgacha vaqt imkoniyati beriladi. Shundan so‘ng ish yig‘ib olinadi.

Tekshiruv - sinov bayoni o‘qituvchi tomonidan adolatli tekshirilib baholanadi. Agar xatolari har tomonlama o‘rganilmay, shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yilsa, baho

yo oshirib yoki, aksincha, nihoyatda kamaytirilib qo'yilishiga sabab bo'ladi. Xullas, har bir o'quvchi olgan bahosining asosli ekanligiga iqrar bo'lishi zarur.

Bayon tartibi. O'quvchilarga bayon yozishni o'rgatishda o'qituvchidan uni muntazam sur'atda o'tkazib borish va bu sohada ma'lum bir tartibga amal qilish, ya'ni matnni o'quvchilarning yosh xususiyati va bilim saviyasiga mos bo'lishiga e'tibor berib, soddadan murakkabga, erkin, to'liq bayon etishdan matnga yaqinlashtirib bayon yozishga, matnga yaqinlashtirib bayon yozishdan qisqartirib bayon yozishga, qisqartirib bayon yozishdan ijodiy bayon, ijodiy bayondan insho yozishga o'tiladi.

Bayonda so'zlar hajmi. Uzoq yillik pedagogik tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bayondagi so'zlar hajmi aniq ko'rsatilmaydi. Sababi, bayon o'tkazishda so'zlar hajmini aniq ko'rsatish o'qituvchi va o'quvchilarning erkin harakatiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli, bunday ma'lum chegara qo'yish maqsadga muvofiq emas, deb o'ylaymiz. Chunki bayon diktant emas, balki uslub va fikrlashni o'stirishga qaratilgan o'ziga xos yozma ishdir. Shuningdek, joylarda mahalliy sharoitni, o'ziga xos tomonlarini hisobga olib, sinfdagi o'quvchilarning yoshi, yozma nutqi, saviyasi va ayniqsa, vaqt hamda yozib ulgura olish iqtidoriga qarab mazkur sinfda matnni o'qituvchining o'zi erkin tanlash huquqiga ega ekanligi e'tiborga olinadi.

A.R.Sayfullayevning «O'zbek maktablarining V–IX sinflarida ta'limiy bayon» nomli metodik qo'llanmasida ta'limiy bayonga doir nazariy va metodik adabiyotlar tahlili, ta'limiy bayon va uning ahamiyati, bayon o'tkazishga oid asarlar tahlili, bayon o'tkazish usullari, to'liq bayon, qisqa bayon, saylanma bayon, ijodiy bayon ustida ishlash yo'llari aniq qilib ko'rsatib berilgan.

Insho matnning oliy ko'rinishi bo'lib, o'quvchining ijodiy fikrlashi, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shaklda bayon qila olish darajasini belgilovchi asosiy mustaqil ish turidir.

Nazorat insholari yil davomida 4–5 marta o'tkaziladi. Bu insholar avval qoramamada bajariladi va tahrir qilingach, oqqa ko'chiriladi. (Insho haqida to'liq ma'lumot darslikning to'rtinchi bo'limida beriladi.)

ONA TILI DARSLARINING NOAN'ANAVIY SHAKLLARI

Keyingi yillarda ona tili o'qituvchilari ish amaliyotida noan'anaviy darslarning qator turlari: «Topqirlar bellashuvi» darslari, o'yin-topshiriq darslari, seminar darslari, bahs-munozara darslari, sirtqi sayohat darslari, yubiley darslari kabilardan keng foydalanmoqda. Bu norasmiy darslarning har biri o'ziga xos qurilishga ega bo'lsa-da, ammo ular bir maqsadga—darsda o'quvchilarni ta'lim jarayonining subyektiga aylantirish, til hodisalarini mustaqil izlanish orqali o'rganishini ta'minlashga qaratilgan.

Ona tilidan «Topqirlar bellashuvi» darsi. Ma'lumki, o'yin tarzida o'tkaziladigan ona tili darslarida o'quvchi o'zligini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bellashuv o'yin tarzida tashkil etiladi va muayyan bo'lim yoki **yirik** mavzular o'rganilgandan so'ng o'tkaziladi.

Sinf o'quvchilari birgalashib mix atrofida aylanuvchi fanera doira (diametri 30 sm) tayyorlaydilar va uni 16 qismga ajratadilar. Bu doira 1, 2, 3, ... 16 deb raqamlanadi. U 2 kattaroq doira (diametri 40 sm) ichiga joylashtiriladi. Katta doiraning qoq yuqorisidan kichik doira tomon yo'naltirilgan ikki yo'nalish chizig'i (strelka) chiziladi.

Sinf har biri 5 o'quvchidan iborat guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh «Kirish» bo'limida o'tilgan ma'lumotlar bo'yicha 16 tadan savol-topshiriq tuzib, 16 ta xatjildga (konvertga) soladi va har bir xatjildni 1, 2, 3,...16 deb raqamlaydi.

O'yin guruhlar orasida o'tkaziladi. Qur'a tashlanib, guruhlarning tartibi belgilanadi. 1- va 2-navbatni olgan guruh o'yinni boshlaydi. Dastlab, 1-navbatni olgan guruh so'raydi, 2-guruh javob beradi. 2-guruhdan bir kishi kichik doirani aylantiradi. Doira aylanishdan to'xtagach, 1-guruh yo'nalish chizig'i ostidagi raqamga mos kelgan topshiriqni o'qiydi. 2-guruh bir daqiqadan keyin o'qib eshittirilgan savol-topshiriqqa javob beradi. Har bir guruh ikkinchisiga 5 marta savol beradi. Sinalayotgan guruh noto'g'ri javob bersa, so'rovchi guruh uni tuzatadi.

Agar bir soatda g'olib guruhni aniqlash imkoniyati bo'lmasa, o'yin davom ettirilishi mumkin. Hakamlar har bir savolni 0–3 ball bilan baholaydilar. Savol-

topshiriq noto'g'ri tuzilgan bo'lsa, hakamlar bu guruh ballaridan har bir noto'g'ri savol uchun kelishilgan miqdorda ball kamaytiradilar. Mukofot va jarima ballarining miqdori har bir mashg'ulot uchun alohida kelishiladi. Kelishilgan miqdorda ko'p ball yig'gan guruh o'yinni navbatdagi guruh bilan davom ettiradi.

Ona tilidan o'yin-topshiriq darslari. Ona tili mashg'ulotlari shunday qurilmog'i lozimki, har bir o'rganiladigan til hodisasi o'quvchi e'tiborini o'ziga qaratsin, uni ijodiy faoliyat ko'rsatishga undasin, o'zligini namoyish etish imkoniyatini yaratsin. Bunga ta'limning noan'anaviy usullaridan unumli foydalanish, ayniqsa, ta'limiy o'yinlarni qo'llash orqali erishiladi.

Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil fikrlashga va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini namoyish etish, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishiga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish, boshlangan ishni nihoyasiga yetkazish kabi fazilatlarni tarkib toptirish ta'limiy o'yinlar orqali amalga oshiriladi.

Ta'limiy o'yinlarning boshqa o'yin turlaridan tub farqi shundaki, bola bu jarayonda ishtirok etish orqali bilim oladi, egallagan ko'nikma va malakalarini kengaytiradi. Tilga oid o'yin-topshiriqlar ham boshqa fanlardan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar singari, avvalo, muayyan maqsadga qaratilgan vazifani bajaradi. Bu vazifalar o'quvchini bilim, ko'nikma va malakalar silsilasi bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Modomiki shunday ekan, demak, o'qituvchi o'quvchilarni belgilangan vazifani bajarishga undaydi, yo'naltiradi. Bu jarayon o'quvchidan oldin egallagan bilimlarni xotirada tiklashni, zaruriyat tug'ilganda uni yangi sharoitda qo'llay olishni, o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solishni talab etadi.

Ta'limiy o'yinda harakat usuli ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin harakati o'quvchilarning diqqatini o'ziga tortishi bilan birga, ularni tez faoliyat ko'rsatishga ham undamog'i darkor. Chunki bellashayotgan o'quvchilardan yoki muayyan guruhlardan tezkorlik, sezgirlik, chaqqonlik talab etiladi. Shuni unutmaslik lozimki,

faqat harakat usulidan xabardor o'quvchigina o'yin shartini to'g'ri bajarishga yo'l topadi.

Ta'limiy o'yin hamma vaqt belgilangan qoidaga bo'ysunadi. Shubhasiz, bu qoidalar o'yin-topshiriqning shartida o'z ifodasini topadi. O'yin qoidasiga qat'iy amal qilish uni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy shartidir.

Ma'lumki, ta'limiy o'yindan ko'zlangan maqsad uning natijasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun musobaqadoshlar ishning yakunida nimaga erishishlari mumkinligini aniq bilishlari kerak.

Dars jarayonida tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni zerikish va toliqishdan saqlashdir. Shuni yodda tutmoq lozimki, o'yin orqali singdirilgan bilim o'quvchi xotirasiga mustahkam o'rnashib qoladi va bu bilimlarni u har qanday tanish va notanish sharoitda ishga sola oladi.

Ona tilidan o'quvchilarga beriladigan o'yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko'ra, asosan, uch turga ajratish mumkin:

- 1) qayta xotirlashga asoslangan o'yin-topshiriqlar;
- 2) qisman ijodiy o'yin-topshiriqlar;
- 3) ijodiy o'yin-topshiriqlar.

Qayta xotirlashga asoslangan o'yin-topshiriqlar o'quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarini yangi sharoitda qo'llashni, yaratuvchanlikni talab yetmaydi. Bunday o'yin-topshiriqlarni bajarish o'quvchiga katta murakkablik ham tug'dirmaydi. Oldin o'rganilgan mavzular va bo'limlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lgan o'quvchi bunday topshiriqlarni bema'lol bajarishi mumkin. Chunonchi, fonetika bo'limidan unli va undosh tovushlar o'rganilgach, muayyan bir tovush juftlari bilan farqlanuvchi (masalan, *i-u*, *o-a*, *u-u*, *i-e* va h.k.) tovushdosh so'zlar hosil qilish yuzasidan musobaqa tashkil etilishi mumkin. O'quvchilar oldingi mashg'ulotda shu tovush juftlari asosida so'zlar hosil qilganligi tufayli bu o'yin-topshiriqni qiynalmay bajara oladilar.

Qisman ijodiy o'yin-topshiriqlar o'quvchidan ma'lum bir yordamga asoslangan holda ijodiy faoliyat ko'rsatishni talab etadi. Ta'limiy o'yinning qisman ijodiy bo'lishi o'quvchilarning bilim saviyasiga bog'liq. Agar o'quvchi oldin

egallangan bilimlarni yangi sharoitda, tom ma'noda notanish sharoitda qo'llashda o'zida ishonch sezsa va uni bemalol uddalay olsa, topshiriqning qisman ijodiylikiga ehtiyoj qolmaydi. Topshiriq shartini bajarish uchun o'quvchi tashqaridan (masalan, sinfdoshlaridan, o'qituvchisidan, darslik va o'quv qo'llanmasidan, lug'atlardan, ma'lumotnomalardan va h.k.) yordam olsa, o'z-o'zidan ravshanki, topshiriq qisman ijodiy bo'lib qoladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning o'quv imkoniyatlarini aniq bilishi va topshiriq shartini bajarish uchun ularga qanaqa yordam zarurligini belgilay olishi kerak.

Ijodiy o'yin-topshiriqlar oldin egallangan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo'llash demakdir. Shubhasiz, bu jarayon o'quvchidan ijodiylikni, izlanuvchanlikni talab etadi. O'yin-topshiriqni bajarishda o'quvchi faqat o'zida mavjud ichki imkoniyatlarga tayanadi, xolos.

Biz ona tilidan tashkil etiladigan o'yin-topshiriqlarni qay maqsadga yo'naltirilganligiga qarab:

- 1) lisoniy bilimlarni puxta o'zlashtirishga qaratilgan o'yinlar;
- 2) o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar kabi ikkita guruhga ajratdik.

Ona tilining qonun-qoidalari, tushunchalari va ta'riflarni puxta o'zlashtirishga qaratilgan o'yin-topshiriqlar lisoniy o'yin-topshiriqlar sirasiga kiradi. Bunday o'yinlarni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilarning aqliy faoliyati usullari: kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabilarga tayanib ish ko'radi. Bu usul til hodisalarini bilishning induktiv usuli bo'lib, asosiy zaruriy qoida va ta'riflar yuqorida tilga olingan aqliy faoliyat usullari qo'llanilganidan so'ng chiqariladi.

Ona tilidan tashkil etiladigan o'yin-topshiriqlarning asosiy qismini o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar tashkil etadi. Zero, «Maktabda ona tili o'qitishning bosh maqsadi,—deb qayd etiladi «O'zbek maktablarida ona tili ta'limi Konsepsiyasi»da,—o'quvchilarda mustaqillik, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat». Ona tili ta'limining ana shu maqsadidan kelib chiqadigan bo'lsak, til

mashg'ulotlaridan tashkil etiladigan o'yin-topshiriqlar ham, birinchidan, o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirish, so'zdan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish, ko'rgan, eshitgan, kuzatgan, bilgan narsalarni og'zaki va yozma shakllarda ixcham, to'g'ri va ravon ifodalay olish, nutqda o'zbek adabiy tilining boy ifoda vositalarini ishga sola bilishga xizmat qilmog'i lozim.

Modomiki shunday ekan, ona tilidan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlarning o'ziga xos xususiyati lisoniy vazifa bilan nutqiy vazifaning o'zaro uyg'unligidadir. Lisoniy vazifa til hodisalarini kuzatish, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash, umumlashtirishlar asosida qoida va ta'riflar chiqarish kabilarda namoyon bo'lsa, nutqiy vazifa so'zning ma'nosini sharhlash, nutqiy sharoitda uning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanganligini aniqlash, ma'lum bir so'z o'rnida shu ma'noni ifodalovchi boshqa so'zni qo'llash, gap yoki matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish kabilarda namoyon bo'ladi. Darsda qo'llaniladigan o'yin-topshiriqlardan biri lisoniy malakalarni shakllantirishga qaratilsa, keyingisi nutqiy vazifani ko'zlaydi. Ularning o'zaro uyg'unligi til hodisalarining mohiyatini anglab, uni amaliy ko'nikma va malakaga aylantirishga keng yo'l ochadi.

Ba'zan bir topshiriq shartida ham lisoniy, ham nutqiy vazifa qo'yilishi mumkin. Masalan, berilgan so'zlar sirasini davom ettirish, bu so'zlar orasidagi o'xshash tomonlarni aniqlash hamda hosil bo'lgan so'zlarga ma'nodoshlar topish, shu so'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzish kabilar lisoniy vazifa bilan nutqiy vazifaning bir yaxlitlik hosil qilishi namunasidir. O'yin-topshiriq shartida avval nutqiy vazifa, keyin lisoniy vazifa qo'yilishi mumkin. Bunday hollarda qoida, xulosa va ta'riflar bajarilgan nutqiy vazifalar asosida yuzaga chiqadi. O'quvchi nutq birliklarini tahlil qilish asosida til birliklari xususida umumiy xulosaga keladi. Hozirgi zamon til ta'limi ko'proq ana shu usulning samarali ekanligini ko'rsatmoqda.

Ona tilidan o'yin-topshiriqlarni tuzishda «til+me'yor+nutq mutanosibli» prinsipiga qat'iy amal qilinsa, mashg'ulotlarning samaradorlik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, ta'limiy o'yinlarni tanlashda hamda ulardan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, mustaqil ishlash darajasi, bilim saviyasi va o'qish ishtiyoqini kuchaytirishga qaratilganligi, tarbiyaviy maqsadlarni

ko‘zlaganligi, o‘quvchilardagi faollik, tashabbuskorlik, sezgirlik, topqirlik, bilimdonlik, izlanuvchanlik kabi xususiyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi kabilarga qat‘iy amal qilinadi.

Ta‘limiy o‘yinlarni tanlashda har bir sinfning o‘quv imkoniyati, o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘rgatilayotgan til hodisasining maqsadi kabilar hisobga olinadi. Chunki ma‘lum bir sharoitda yaxshi natija bergan o‘yin, o‘zga sharoitlarda ijobiy samara bermasligi mumkin. Ta‘limiy o‘yinlarni tanlash va tashkil qilishda, shuningdek, o‘yin-topshiriqlar tuzishda o‘qituvchining pedagogik tayyorgarligi, mahorati, metodik saviyasi, o‘yinga bo‘lgan shaxsiy munosabat va izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘yin-topshiriqlardan namunalar keltirib o‘tamiz:

«**Egizaklar**» o‘yinida o‘quvchilarga so‘zlar tarkibida qo‘sh undoshlar kelishini izohlagach, ularni egizaklarga o‘xshatish mumkinmi, deyiladi. Bolalar uchun bu esda qoladigan o‘yin bo‘la oladi. Agar bir xil (*mm, ll, ss*) undosh bo‘lsa, Hasan-Husan, ikki xil undosh qo‘sh kelsa, (*nch, st, nd*) Hasan-Zuhra kabi obrazli o‘xshatishlar aytilsa, o‘quvchilar darrov shunday so‘zlarni izlashadi, o‘yin qiziqarli bo‘ladi.

Namuna: *Hamma, ammo, pilla, tilla, issiq, hissa.*

Ganch, do‘st, juft, qand, vaqt, baxt, taxt.

Egizaklarni joylashtiring.

1. si...(sinch)	2. sa...ar(sarvar)
ti...(tinch)	ga...ar(gavhar)
ga...(ganch)	se...ir(sezgir)
ta...(tancha)	ra...(rahm)
qa...(qancha)	ra...ar(rahbar)
shu...a(shuncha)	za...ar(zargar)

O‘quvchilardan qaysi biri topshiriqni to‘g‘ri bajarsa, o‘yin g‘olibi hisoblanadi.

«**Aytiladigan so‘zlarga – at qo‘shimchasini qo‘shib so‘zlarni to‘g‘ri yozing**» o‘yini.

O'quvchilarga oxiri **-iy** qo'shimchasi bilan tugagan so'zlar (*zaruriy, majburiy, xususiy, qonuniy, rasmiy, qat'iy, madaniy, she'riy* va h.k.) aytib turiladi. O'qituvchilardan bu so'zlarga **-at** qo'shimchasini qo'shib yozish talab etiladi. (Masalan, *zaruriyat, majburiyat, xususiyat, qonuniyat, rasmiyat, qat'iyat, madaniyat, she'riyat* va h.k.). So'zlarni xatosiz yozgan guruh o'yin g'olibi sanaladi. Guruh o'quvchilari yo'l qo'ygan xatolarni aniqlashda o'zaro tekshirishdan foydalanish ham mumkin.

«**Nega lug'atda buva so'zi buvi so'zidan oldin yoziladi?**» o'yini. Bu o'yinda o'quvchilar lug'atlarida so'zlar faqat birinchi harf bilan emas, balki keyingi harflarning ham alifboda berilish tartibiga joylashtirilishini sharhlaydilar. Ular *buva* so'zidagi to'rtinchi harfi *a*, *buvi* so'zidagi to'rtinchi harfi *i* dan alifboda oldin joylashganligini aytadilar. Lug'atda u yoki bu so'zning joylashish tartibini to'g'ri sharhlab bergan o'quvchi o'yin g'olibi sanaladi.

Fan-texnika tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan, odamlarning turli xildagi ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, izohli lug'atlar bilan ishlashiga ko'proq ehtiyoj sezilayotgan bir paytda so'zni lug'atdan tez topish ko'nikma va malakalari ustida ish olib borish ona tili ta'limi oldida turgan muhim talablardan biridir. Ana shu maqsadda ayniqsa, «**So'zni lug'atdan tez top**» o'yini ancha yaxshi samara beradi. O'yin shunday tashkil etilmog'i lozimki, o'quvchi «Imlo lug'ati»dan istagan so'zni yarim daqiqada topish imkoniyatiga ega bo'lsin. (O'yin-topshiriqlardan namunalar keyingi mavzularda ham berib o'tiladi.)

Shunday qilib, ona tili mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarning imkoniyatlari benihoya keng. O'yin eng avvalo o'quvchini faollashtiradi va tezkorlikka o'rgatadi.

Ona tilidan sirtqi sayohat darslari. Sirtqi sayohat darslari muayyan bir mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilingandan keyin o'tkaziladi. O'quvchilar «Bilimlar mamlakati»ga sayohat qilib, turli holatlarga duch keladilar. Yo'lda duch kelgan qiyinchiliklarni yenggan, ya'ni o'quv topshiriqlarini mustaqil bajargan o'quvchilarga ballar qo'yib boriladi. Topshiriqlarni tez va to'g'ri bajargan o'quvchilar sayohatni davom ettiradilar.

Topshiriqlar darsliklardan tanlanishi yoki o'qituvchi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin. Masalan, sifatlarning ma'no guruhleri o'rganilgach, shunday sayohat darsi rejalashtirilishi mumkin. Bu darsda o'quvchilar quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1-topshiriq. Berilgan sifatlarning ma'nosiga qarab:

- 1) rang-tus sifatlari;
- 2) belgi-xususiyat sifatlari;
- 3) maza-ta'm sifatlari;

4) shakl-hajm sifatlari singari guruhlar orqasidan tiziling (sinfda 4 o'quvchi shu ma'no guruhleri timsolida chiqadi va ularning ko'kragida o'sha ma'no guruhning nomi yozilgan bo'ladi).

So'zlar: *oq, qirmizi, ol, sarg'ish, ko'kimtir, nofarmon, jigarrang; chuchuk, sho'r, nordon, taxir, qo'lansa; gavdali, novcha, semiz, baqaloq, pakana, shirinsuxan, kamgap; yassi, dumdumaloq, tor, keng.*

2-topshiriq. Partadoshingiz bilan yoki guruhlararo sifatlarni o'z va ko'chma ma'noda qo'llash bo'yicha bellashing.

Namuna: *achchiq sho'rva-achchiq gap; bemaza qovun-bemaza ish; nordon mastava-nordon piching; qizil ko'ylak-qizil yuz.*

3-topshiriq. «Ot+rang» qolipli beshta qo'shma sifat hosil qiling.

Namuna: *havorang, feruzarang.*

4-topshiriq. «Kamalak» mavzusida tasviriy matn yarating (O'qituvchi o'quvchilar tasavvurida kamalakni hosil qildiradi yoki uning rasmini ko'rsatadi).

Darsning oxirida har bir o'quvchining sayohatda to'plagan ballari e'lon qilinadi va to'plangan ballarga qarab o'rinlar belgilanadi.

Ona tilidan konferensiya darsi. Ona tilidan konferensiya darsi ko'proq 7-9 - sinflarda o'tkaziladi. Darsning bu shakli ma'lum bir til sathi yoki katta mavzu o'rganilgandan keyin uyushtiriladi va yakunlovchi dars vazifasini o'taydi.

Konferensiya darsini bitta sinf doirasida yoki ikkita parallel sinf bilan birgalikda o'tkazish mumkin. Bu darsda o'quvchilarning ona tilidan tayyorlab kelgan kichik ilmiy ma'ruzalari tinglanadi, ular birgalikda muhokama qilinadi.

Konferensiya darsiga tayyorgarlik kamida bir oy oldin boshlanadi. O'qituvchi ma'ruza mavzularini belgilaydi; ularni o'quvchilarga topshiradi; zarur adabiyotlarni tavsiya qiladi va vaqti-vaqti bilan unga tayyorgarlikning borishini nazorat qilib turadi. O'quvchi esa avval adabiyotlar bilan puxta tanishib chiqadi; ma'ruza rejasini belgilaydi; har bir masala yuzasidan material yig'adi va uni yozadi.

O'quvchilar ilmiy ma'ruza uchun material yig'ish tartibini bilishlari kerak. Avval tadqiqot mavzusi bilan bog'liq til hodisasi puxta va asosli o'rganiladi, o'qituvchi bilan material yig'ish yuzasidan suhbat o'tkaziladi, tahlil qilinayotgan badiiy asar o'qib chiqiladi, misollar alohida-alohida yozib boriladi va nihoyat, ular saralanib, matnni yozishga kirishiladi.

Konferensiya darsining murakkab tomonlaridan biri barcha o'quvchilarning faolligini ta'minlashdir. Ko'p hollarda ma'ruzachi faol bo'lib, qolgan o'quvchilar shunchaki tinglovchiga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi barcha o'quvchilarni muzokara ishtirokchisiga aylantirishi, ularning o'z fikr-mulohazasi bilan ishtirok etishini ta'minlashi zarur.

Ona tilidan bahs-munozara darslari. Ona tili darslarining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi bilan bog'liq. Ijodiy fikrlashga o'rgatishda bahs-munozara muhim ahamiyatga ega. Bu narsalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'rganiladigan material o'quvchilarga oldindan ma'lum qilinadi, muhokamaga tashlanayotgan masala xususida har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr-mulohazasini bildiradi. Bahs-munozara uchun tanlanadigan savollar o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan bo'lishi lozim. Masalan, «Olinma so'zlar» mavzusi yuzasidan bahs-munozaraga quyidagi muammolar o'rta tashlanishi mumkin:

1. Boshqa tillardan so'z olish zarurmi?

2. Ayrim hollarda rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so'zlarni o'zbekchallashtirish borasida urinishlar bor. Sizningcha, hamma so'zlarni ham o'zbekchallashtirib bo'ladimi? Umuman, ruscha so'zlarni sharqonalashtirishga sizning munosabatingiz qanday?

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda boshqa tillardan soʻz olmaslikning iloji bormi?

Bu savollarning har biri oʻquvchilardan oʻz nuqtayi nazarini bayon qilishni talab etadi.

Bahs-munozara oʻquvchilarga erkinlik berishni talab qiladi. Chunki oʻz fikr-mulohazalarining haqligini isbotlash ijodiy faoliyat mahsulidir.

Ona tilidan seminar darsi. Seminar darsi noanʼanaviy darsning bir turi boʻlib, oʻquvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy faoliyat koʻrsatishga undovchi mashgʻulot shaklidir.

Bu dars shaklidan barcha sinflarda foydalanish mumkin. Seminar darsidan katta mavzular oʻrganilgandan soʻng (masalan, soʻzlarning shakl va maʼno munosabatlari, feʼllarning maʼno guruhlari va h.k.) yoki boʻlim oʻrganilgandan keyin foydalansa boʻladi.

Seminar darsining mavzusi 10–12 kun oldin eʼlon qilinadi; oʻquvchilarga reja va adabiyotlar tavsiya etiladi; darsga tayyorgarlik koʻrish jarayoni tushuntiriladi, adabiyotlar ustida mustaqil ishlash yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Dars oʻqituvchining kirish suhbatini boshlanadi. Mavzuning dolzarbligi, bu mavzuni puxta bilishning amaliy qimmatini tushuntiriladi. Oʻquvchilar seminar rejasi bilan tanishtiriladi va tayyorgarlik koʻriladi. Seminar darsida oʻquvchilar faolligini taʼminlash kerak. Bu har bir muhokama etilayotgan masalani munozaraga aylantirish bilan bogʻliq. Darsda shunday holatni yuzaga keltirish lozimki, oʻquvchilar fikrini dalillar asosida isbotlasin; oʻz nuqtayi nazarini bayon qilsin; hukm va xulosalar chiqarsin.

Darsning oxirida mashgʻulotga yakun yasaladi, seminarning yutuq va kamchiliklari aytiladi va oʻquvchilarning bilimi baholanib, ular izohlanadi. Bilimni baholashda bolalarning mashgʻulotga tayyorgarlik koʻrish darajasi, masalaning mohiyatini anglashi, oʻz fikrini dalillar bilan asoslay olishi, javoblarni toʻldirishdagi ishtiroki, ijodiyliklari kabilari hisobga olinadi.

Barcha sinflarda ham seminar darsidan foydalanish tavsiya etilmaydi. Mashgʻulotning bu shaklidan koʻproq oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasi talabga

javob beradigan, mustaqil ishlashga o'rgatilgan sinflarda foydalanish ma'qul. Aks holda, barcha harakatlar zoye ketib, o'quvchilar masalaning tub mohiyatiga yetmay qolishlari mumkin.

Ko'rinib turibdiki, darsning shakllari benihoya ko'p. O'qituvchi bu dars shakllarini puxta bilishi, o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni tanlay olmog'i lozim. Dars shakllari qancha tez-tez o'zgarib tursa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi shuncha yuqori bo'lishini o'qituvchi hamisha yodda tutmog'i lozim. Bu esa puxta bilimning asosiy garovidir.

Savol va topshiriqlar

1. Dars shakli deganda nimani tushunasiz?
2. Dars va mashg'ulot bir-biridan qanday farq qiladi?
3. O'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli nima?
4. Ona tili darslariga DTS doirasida qanday didaktik talablar qo'yiladi?
5. Ona tili darslarining tarkibiy qismlarini izohlab bering.
6. Ona tili mashg'ulotlarida bajariladigan amaliy ishlarni shartli ravishda qanday guruhlariga ajratish mumkin va ular qaysilar?
7. Ona tili darslari o'z maqsadidan kelib chiqqan holda qanday turlarga bo'linadi?
8. Ona tilidan ta'limiy darslarning turlarini ayting.
9. Nazorat darslari nima maqsadda o'tkaziladi?
10. O'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi qanday nazorat qilinadi?
11. Diktant va uning turlari haqida ma'lumot bering.
12. O'quvchilar nutqining rivojlanganlik darajasi, umumiy savodxonligi qanday aniqlanadi?
13. Bayonni o'tkazish tartibi haqida gapiring.
14. Ona tili darslarining noan'anaviy shakllari qanday tashkil etiladi?

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Bobomurodova A. Ta'limiy o'yinlar. «Til va adabiyot ta'limi», 1996, 4-son, 20-b.
2. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. Toshkent, «Musiqqa», 2009, 3–25-b.
3. Jalilova M., Ne'matova G. Takrorlash mashg'ulotlarini «Topqirlar bellashuvi» tarzida o'tkazish. «Til va adabiyot ta'limi», 1994, 2 – 3- qo'shma son, 36–37-b.
4. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2005, 264–267-b.
5. Sayfullayev A. O'zbek maktablarining V–IX sinflarida ta'limiy bayon. Toshkent, 1999.
6. Sobirova M. Munozarali dars–davr talabi, ilmiy-metodik to'plam, Toshkent, Nizomiy nomli TDPI, 1993, 32–36-b.
6. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi», 2006, 46–48-b.
7. Umarova M., Nabiyeva M. Bayonlar to'plami. Toshkent, «Vektor - press», 2011, 159.
8. Yusupova M. Diktantlar to'plami. Toshkent, «O'qituvchi», 1996, 222.
9. G'ulomov A., Shukurov A. Ona tilidan o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, Toshkent, «O'qituvchi», 1989.
10. G'ulomov A., Qosimova N. Ijodiy ishlar nazariyasi. Buxoro, 2011, 177–186-b.
11. O'zbek milliy ta'lim-tarbiya an'analari tarixidan. O'zbek pedagogikasi antologiyasi (1- jild), Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 5 – 11-b.

TIL TA'LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Tayanch tushunchalar: *innovatsiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ona tili ta'lim texnologiyasi, interfaol usullar.*

O'zbek tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Bugungi kunda har bir umumta'lim maktabida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turibdi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borish orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi.

Hozirgi ta'lim sohasida keng rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish va ularni o'z mashg'ulotlarida qo'llashdan iborat.

«Pedagogik texnologiya» keng tushuncha bo'lib, u ona tili ta'limining mazmunini ham, bilim va ko'nikmalari tizimini ham, o'quvchi va o'qituvchi orasidagi munosabatlarni ham, ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Ona tilidan ta'lim mazmuni shunday qurilmog'i lozimki, o'quvchi dars jarayonida o'ylashga, fikrlashga, til hodisalari orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga, guruhlash va umumlashtirishga ehtiyoj sezsin. Buning uchun, avvalo, o'quv topshiriqlarining xarakteriga e'tibor kuchaytirilmog'i lozim. Ayniqsa, qisman ijodiy va ijodiy xarakterdagi topshiriqlar umumiy topshiriqlarning 70–80% ni tashkil etgan taqdiridagina ta'limda ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatlari reallashadi.

Pedagogik texnologiyaning yana bir muhim talabi o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishdir. Buning uchun amaliylik ona tili ta'limining asosiy va yetakchi tamoyiliga aylanishi kerak. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini ham yaqin pedagogik hamkorlik asosida qurilishini talab etadi. Buning uchun o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishlovchisiga,

o'qituvchi esa shu jarayonning tashkilotchisiga, boshqaruvchisiga aylanishi shart: yaxshi o'qituvchi o'zi kam gapiradi, bolani ko'proq so'zlatadi. Shuni alohida qayd qilish joizki, o'quvchi ona tili darslarida til hodisalarini mustaqil ravishda o'zi kuzatsa, qiyoslasa, muayyan belgilariga qarab ularni guruhlasa, birlashtirsa, umumlashmalar hosil qilsa o'quvchi tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytirish darsni tashkil etish usuliga ham bog'liq. Doimiy bir xilda takrorlanadigan va qayta-qayta bir xil yo'nalishdagi o'quv topshiriqlaridan foydalaniladigan darslar o'quvchini zeriktiradi, uni bezdirib qo'yadi.

Ona tili ta'limining pedagogik texnologiyasi maqsadini belgilashdan to shu maqsadga erishganlik natijasi darajasini baholashgacha bo'lgan murakkab jarayonni o'z ichiga olar ekan, bunda maqsadlar etalon darajasidagi andozaga erishish vositasidir. Joriy nazorat baholashi esa o'quv jarayonini shakllantiruvchi, maqsad bilan uning natijasi o'rtasida aloqa vazifasini o'tovchi omil sanaladi.

Pedagogik texnologiyaga oid adabiyotlarda ko'rsatilishicha ayrim xorijiy davlatlarda o'quvchi va o'qituvchi uchun maqsadlarni alohida- alohida belgilash odat tusiga kirgan. Bunda maqsadlar o'qituvchining faoliyati orqali qo'yiladi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, aytib berish va h.k.), o'quvchining harakatlarida ifodalanadigan natijalar esa ta'lim vazifalari deyiladi. Bu vazifalarni o'lchash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lishi uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishilganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy qoidasi ham o'qitishni o'quvchilar harakati orqali amalga oshirilishi ekan, ona tili ta'limi maqsadi ham o'quvchini dars subyekti darajasiga ko'taradi.

Ona tili ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayoni faol ishtirokchisi ekanligini uning har bir dars qurilmasida quyidagi faoliyat turlariga jalb etilishi orqali izohlash mumkin: 1) til hodisalarini kuzatish; 2) izlanish, hodisalar sirasini davom ettirish; 3) ayri-ayri hodisalarni sharhlash; 4) hodisalarni qiyoslash; 5)

hodisalar o'rtasidagi o'xshashliklarni aniqlash; 6) hodisalar orasidagi farqlarni aniqlash; 7) o'xshashlik, farqlar asosida hodisalarni tasniflash; 8) hodisalar sirasi haqida umumlashma hosil qilish; 9) hodisalarning yondosh hodisalar bilan aloqadorligini aniqlash; 10) hodisalarni amaliy qo'llash.

Mana shu o'n xildagi mustaqil faoliyat turlarining bajarilishi ona tili ta'limi maqsadining odatdagi bir dars jarayonida voqealanishi bilan izohlanadi. Ayni kunda esa ona tili ta'limi yangi pedagogik texnologiyasida o'ziga xos tomonlari va xususiyatlari bilan o'z aksini topayotgan maqsadlarning ifodalanish tahlili shuni ko'rsatadiki, ona tili ta'limida maqsadning qo'yilishidan boshlab har bir dars qurilmasining etaloni sifatida unga erishuv jarayoni o'quvchini mustaqil bilim olishga, izlanishga majbur qiladi.

Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilingan darslarda kafolatlangan natijaga erishish omillari. Ona tili ta'limi texnologiyasida bu eng muhim omil bo'lganligi sababli pedagogik texnologiyalar tarixida muhim muammo bo'lgan har bir mavzu kesimida aniq maqsadlarning qo'yilishi masalasiga ham nisbatan oydinlik kiritadi. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, aniq maqsadlarni ishlab chiqish juda murakkab masala bo'lib, bir kishining qo'lidan kelmaydi. Shuning uchun bir guruh o'qituvchilar va uslubchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati talab etiladi. Mana shu e'tirofdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, o'quvchining har bir dars qurilmasidagi o'n bosqichlik faoliyati ona tili ta'limi umumiy maqsadining mavzular, sinflar kesimida yanada aniqlashuvi va oydinlashuvida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiya elementlari singib bormoqda. O'qitishning interfaol usullaridan foydalanish bo'yicha muayyan tajriba to'plandi.

Ona tili darslarida ta'limning interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptiradi, guruhlarda ishlashga o'rgatadi, ko'pchilik oldida o'z fikrini bayon etish, o'z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Har bir pedagog shuni esda tutishi kerakki, dars o'quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil ijod qilishga o'rgatishi lozim. Darsda beshta maqsad ko'zda tutiladi: ta'lim, tarbiya, rivojlantirish, kasbga yo'llash va milliylik. Bu beshta maqsadni dars davomida amalga oshirish uchun interfaol usullardan foydalanib dars o'tish yaqindan ko'mak beradi. O'zlashtirilayotgan tajribani to'g'ridan to'g'ri o'quvchilarga o'zaro ta'sir harakati orqali yo'naltirish, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tishning asosi bo'lib, bunday yondashuvda o'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o'quvchilarni mustaqil izlanishga chorlaydi. Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda o'rganiladigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni darsda ko'zlangan maqsad va o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o'rganilgan mavzu bilan bog'lash, o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo'ladigan jihozlarni belgilash va qo'shimcha ko'rsatmali qollanma bilan boyitish, interfaol metodlardan foydalangan holda darsda muammoli vaziyat yaratishdir. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ta'lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borish samaradorligini oshirishdir. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri barcha didaktik vazifalar darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak, dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak, o'tilgan har bir darsning o'quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi.

Interfaol usullardan foydalanishda o'qituvchi quyidagilarni bilishi lozim:

- Interfaol usullar, uning mazmun mohiyati;
- Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda interfaol usullarning o'rni va roli;
- Fanlar bo'yicha interfaol usullarni qo'llash tamoyillari;
- Ta'limiy va ishchanlik o'yinlari;
- Muammoli, rivojlantiruvchi ta'lim metodlari;

- O‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta‘minlash yo‘llari;
- O‘quvchilarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari;
- Ko‘rsatmali o‘qitish usullari;
- Ta‘lim-tarbiyani faollashtiruvchi usullar.

Interfaol usullarning ahamiyati

1. O‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.
2. O‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi. Umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko‘mak beradilar.
3. O‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga, o‘qishga, ta‘lim olishga shaxsan mas‘ullikni his qiladilar.

Quyida interfaol usullarning ayrimlari bilan tanishib o‘tamiz:

1. Aqliy hujum.
2. Suhbat.
3. Juftlikda ishlash.
4. Kichik ma‘ruza.
5. Rolli o‘yinlar.
6. Bahs-munozara.
7. Sinkveyn.
8. Tushunchalar tahlili.
9. Idrok xaritasi.
10. FSMU (Fikr, Sabab, Misol, Umumlashtirish).
11. Tanqidiy fikrlash.
12. Muzyorar
13. Hamkorlik
14. Debat
15. Bumerang...

Suhbat metodi – ko‘p qo‘llaniladigan va samarali usullardan biridir. Bu ko‘pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metodda dars jarayoni savol-javob vositasi asosida olib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga savol berib yoki ilgari o‘zlashtirgan bilimlarini eslariga tushirish yoxud mavjud bilimlar

asosida yangi mavzulardan tegishli xulosalar chiqarishni taklif etish yo'li bilan bilim, ko'nikma va malakalar berish nazarda tutiladi. Suhbat metodi o'quvchi faoliyatining yangi-yangi qirralarini ochib beradi va bir maqsadga qaratilgan mustahkam harakat birligini yuzaga keltiradi.

Kichik ma'ruza – o'tiladigan mavzuning mazmuni haqida kichik ma'lumot beriladi. So'ng mavzu bo'yicha guruhlarda ishlanadi.

Rolli o'yinlar – muammoli vaziyat yaratiladi. O'quvchilar bu muammoning yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bu usulda «real» holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

Bahs-munozara usulida o'quvchilarga bir kun oldin mavzu beriladi. O'quvchilar mavzuni o'qib, savollarga javob topib, guruhlarda o'sha savollarga javoblar bahs-munozara asosida olib boriladi. Juftlikda ishlash bu ustuvorlikka ega usullardan biridir. O'qituvchiga savol beriladi, beriladigan savollar muammoni chiqaradigan bo'lib, o'quvchilar juftlikda uning yechimini topishadi. Juftlikda ishlash o'quvchilar orasida muammolarni bartaraf etish to'g'risida muloqot uyushtirilishiga chorlaydi. Agar o'quvchi juftligi javob yuzasidan ko'rsatmali material, jadval yoki diagrammalar tayyorlagan bo'lsa, o'sha juftlikning har bir a'zosi fikrining mahsuli bilan g'ururlana olishi mumkin.

«Aqliy hujum» o'quvchilarda mustaqil fikrlash imkonini beruvchi ta'lim usulidir. Mazkur usul yordamida muammoli savol yoki topshiriq vositasida barcha o'quvchilarning fikrlari jamlanib, yakuniy xulosaga kelinadi. Bunda aytarli to'g'ri bo'lmagan fikrlar ham, ya'ni bildirilgan barcha fikrlar inobatga olinadi, ular bekorlanmaydi. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida o'quvchilarning qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishlariga imkon beradi. O'rtaga tashlangan muammoli savol yuzasidan bildirilgan fikrlar doskaga yoki maxsus qog'oz (flipchart) ga yozib boriladi. O'qituvchi shunday yo'lni topishi kerakki, noto'g'ri fikrlagan o'quvchi o'z xatosini darsning oxirigacha anglab, to'g'ri yo'lga yo'naltirilmog'i lozim. Bunday yondashuv aytilgan fikrlarni jamlash, tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Aqliy hujum»ni oʻtkazish yoʻllari: 1. Oʻqituvchi oʻquvchi oldiga savol, topshiriq yoki muammoni qoʻyadi (savol va topshiriqlar oʻtilgan yoki yangi oʻzlashtirilayotgan mavzu boʻyicha, shuningdek, hayotiy voqea-hodisalar yuzasidan boʻlishi mumkin) va oʻquvchilardan oʻz fikr-mulohazalarini bildirishlari soʻraladi. 2. Barcha fikrlar doska yoki flipchartga yozib boriladi. 3. Soʻng oʻqituvchi oʻquvchilar bilan birga asosiy gʻoyalarni uygʻunlashtiradi, ayrim oʻrinlarga tuzatishlar kiritadi, keyingi jarayonlarda foydalanish uchun eng muhimlari ajratib olinadi.

«Aqliy hujum»ni oʻtkazish qoidalari.

1. «Aqliy hujum»ni oʻtkazish uchun ajratilgan vaqt (reglament)ga qatʼiy rioya qilish zarur.

2. Belgilangan vaqt orasida fikr aytish istagini bildirgan har bir oʻquvchiga imkoniyat yaratish zarur.

3. Oʻquvchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar muhokama qilinmasligi, baholanmasligi kerak.

4. Zarur boʻlib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrlarga tuzatish kiritish mumkinki, bu narsa oʻquvchilar oʻz fikrlarini aniq, loʻnda, qisqa bayon etishlariga olib kelsin.

«**Tanqidiy fikrlash**» usuli oʻrtaga tashlangan masala yoki muammo yuzasidan oʻz fikrini aytish, oʻzgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etish, oʻz nuqtayi nazarini asoslab berish imkoniyatiga ega boʻlishga asoslangandir. Bunday usuldan bahs-munozara xususiyatiga ega boʻlgan masalalar muhokamasida foydalanish mumkin. Masalan: Oʻzaro muloqotda Siz yoki Sen deb murojaat qilishning qaysi biri maʼqul? Darsliklarga yozib- chizadigan oʻquvchilarga munosabatingiz va h.k.

Interfaol taʼlim usulining bunday shakli oʻquvchilarda tinglash va muloqot koʻnikmalarini shakllantiradi, turlicha qarashlar va nuqtayi nazarlarni tushunish malakasini rivojlantiradi, bahsli masalalarni muhokama qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash qobiliyatini oshiradi, oʻz dunyoqarashini, nuqtayi nazarini, fikrini shakllantirish, uni bayon etish mahoratini takomillashtirish imkonini beradi.

«Tanqidiy fikrlash»ni tashkil etish usullari:

1. Bahs-munozara xususiyatiga ega bo'lgan muammo yoki topshiriq qo'yiladi va quyidagicha savollar o'rtaga tashlanadi:

- A. Nima deb o'ylaysiz?
- B. Fikringiz qanday?
- S. Sizningcha qanday? va h.k.

Ushbu shakldagi savollar o'quvchi nuqtayi nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

2. O'quvchiga o'z nuqtayi nazarini aniqlash, fikrini bir joyga to'plash uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3. O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, shu o'rinda u o'z nuqtayi nazarini aniqlab olishi uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

- A. Nega shunday deb o'ylaysiz?
- B. Nimalarga asoslanib bunday xulosaga keldingiz?
- S. Qanday manbalardan foydalandingiz?

4. Muhokama qilinayotgan masala yuzasidan boshqa o'quvchilarning o'z fikrlarini bildirishlari uchun imkon beriladi. Bunda quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

- A. Kimda boshqacha fikr bor?
- B. Aytilgan fikrlarni ma'qullaysizmi? Nima uchun? (yoki aksincha.)

5. O'quvchilar bilan birgalikda barcha bildirilgan nuqtayi nazarlar muhokama va tahlil qilinadi, bunda quyidagi mazmundagi savollar o'rtaga tashlanadi:

- A. Sinfdoshlaringiz fikrini nima uchun ma'qullaysiz?

B. Sinfdoshingiz fikriga qarshi o'z qarashingizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?

6. Muhokama qilingan muammo yuzasidan chiqarilgan yakuniy xulosaga o'quvchilar tomonidan o'z nuqtayi nazarlarining qabul qilinishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

- A. Sizningcha kimning nuqtayi nazarini eng maqbul deb qabul qilish mumkin?

B. Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo'l bilan chiqishni ma'qulroq deb o'ylaysiz?

«Tanqidiy fikrlash» usulini o'tkazish qoidalari:

1. Aniq belgilangan vaqtda o'quvchilar berilgan topshiriq yoki muammo bo'yicha o'z vazifalarini ado etishlari lozim.

2. Har bir bajarilgan ish natijalariga ko'ra topshiriq muhokamasi va baholash amalga oshiriladi. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar jarayon paytidagi holatlarini tahlil qilib chiqish va muhokama etish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Bunda quyidagi savollar o'rta tashlanadi:

A. Muhokama jarayonida qanday natijalarga erishildi?

B. Qanday muammolar tilga olindi, u o'z yechimini topdimi?

S. Jarayon shartlari o'zgartirilsa, natijalar qanday bo'ladi va h.k.

Kichik guruhlarda ishlash – dars jarayonida barcha o'quvchilarni faollashtirish imkoniyatiga ega bo'lish lozim. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida alohida masalalar yuzasidan o'z fikrini guruhda muhokama qilishga, turlicha fikrlarni uyg'unlashtirib, umumiy nuqtayi nazarga kelishga o'rgatiladi. Shuningdek, bir o'quvchi guruh boshlovchisi sifatida sinfdoshlari oldida so'zga chiqib, guruh nuqtayi nazarini himoya qiladi va bu bilan o'quvchida ko'pchilik oldida so'zlash, o'z fikrini himoya qilish, fikrlarini uyg'unlashtira olish kabi ko'nikma va malakalar shakllana boradi.

Kichik guruhlarda ishlash yo'llari:

1. Topshiriq, chalkash masala yoki savol asosida muammo tanlab olinadi. Topshiriqda bahsli jihatlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. 2. Kichik guruhlar shakllantiriladi. Guruhlardagi o'quvchilar soni 3-5 nafardan oshmasligi kerak, topshiriq xususiyati, sinfdagi o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda guruhdagi o'quvchilar soni o'zgarishi mumkin. Guruhlarda ishni tashkil etishda ishtirokchilarga vazifalar taqsimlab berilgani ma'qul.

Masalan, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yuzaga kelgan fikrlarni qog'ozga yozib boradi, uchinchisi vazifaning belgilangan vaqtda bajarilishini muvofiqlashtirib turadi, to'rtinchisi guruhning umumiy xulosalarini

taqdim etadi va h.k. O'quvchilarni guruhlarga ajratishda ikki usuldan foydalaniladi. Birinchisida, o'quvchilar xohishiga ko'ra, ikkinchisi hisoblash usuli bilan (masalan, birinchi, to'rtinchi, shundan keyin raqamlari bir xil o'quvchilar bitta guruhga birlashadilar). Guruhlarga ajratishda ikkinchi usuldan foydalangan ma'qul. Bunda xolislik tamoyiliga asoslanib, jarayon natijalarini baholash ham birmuncha oson bo'ladi.

1. Guruhlarda ishlash vaqti belgilab olinadi. Topshiriqni bajarish yo'l-yo'riqlari tushuntiriladi. Vazifani bajarish yo'lini tushunmagan guruh a'zolariga qo'shimcha izoh beriladi.

2. Guruhda ish jarayoni tugagandan keyin yakuniy xulosalar taqdimoti o'tkaziladi. Xulosalarni guruh sardori himoya qiladi. Zarur hollarda taqdimot natijalari doskaga yoki qog'ozga yozib boriladi. Imkoniyatga qarab guruhlar birlariga savollar berishlari mumkin.

3. Taqdimot natijalari asosida muhokama uyushtiriladi va baholanadi. Bunda quyidagicha savollar o'rta tashlanadi:

A. Guruhlarga bo'linib ishlash jarayonida qanday natijalarga erishildi?

B. Qanday muammo ustida fikrlashildi, u o'z yechimini topdimi?

S. Jarayonda o'zingizni qanday his etdingiz va h.k.

Kichik guruhlarga bo'linib ishlashni o'tkazish qoidalarini:

1. Guruhlarda ishlash uchun belgilangan vaqtga qat'iy rioya qilish kerak.

2. Guruhlarga yordam berayotganda o'qituvchi o'z nuqtayi nazarini o'tkazishga urinmasligi lozim.

3. Guruhlar tomonidan bildirilgan fikr va xulosalar muhokama qilinishi, tanqidiy mulohazalar bildirilishi mumkin.

4. O'rni kelganda bayon etilgan fikr va xulosalarga tuzatishlar kiritilishi, bu narsa umumiy xulosa mazmunini boyitishga, izchillashtirishga xizmat qilishi zarur.

«Sinkveyn» usuli. Sinkveyn – qisqa jumlagacha katta axborot singdirilgan matn. **Sinkveyn** – fransuzcha so'z bo'lib, «bosh, asosiy» ma'nolarni anglatadi. **Sinkveyn** quyidagi qoida asosida yoziladi.

1-qator. Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi.

- 2-qator. Mavzu ikki soʻz bilan yoritiladi.
- 3-qator. Mavzudagi voqelik ikki yoki uch soʻz bilan ochiladi.
- 4-qator. Mavzudagi munosabat, his-tuygʻu toʻrtta soʻz bilan beriladi.
- 5-qator. Mavzu mazmuni bitta soʻz bilan ochiladi.

Masalan: til va soʻzlash madaniyatiga oid xalq maqollari ustida ishlashda:

1. Maqollar.
2. Ogʻzaki ijod.
3. Xalq ogʻzaki ijodi.
4. Tafakkur mahsuloti, taʼlimiy, tarbiyaviy.
5. Maʼrifat.

Kichik guruhlariga boʻlinib yoxud yakka holda ishlash jarayonida mazkur usuldan foydalaniladi. Mavzu maqsadidan kelib chiqib, uy vazifasini shu tartibda bajarish topshirigʻini ham berish mumkin.

Debatlar – oʻz nuqtayi nazarini asoslashda sinfdagi barcha oʻquvchilarning bahslashuvda faol ishtirok etishini taʼminlovchi oʻqitish usulidir. Bu usuldan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Oʻquvchi oʻz nuqtayi nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois oʻqituvchi sinfni ikki guruhga boʻlgan holda munozarani atayin avj oldiradi. Guruhlarga bir-biriga zid nuqtayi nazarlarni aytadi, bahsli topshiriqlar beradi. Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar deb yuritiladi. Oʻqituvchi bu usul orqali dars oʻtayotganda oʻquvchilarga bir-biriga qarama-qarshi, notoʻgʻri savol-topshiriqlar beradi. Oʻquvchi esa ana shu xato va kamchiliklarni anglagan holda ularni tuzatishga harakat qiladi. Oʻquvchida tanqidiy tafakkur uchun sharoit yaratadi.

«**Muzyorar**» **usulidan** oʻquvchilarning diqqatini darsga jalb qilishda foydalaniladi. Bu usulni qoʻllash orqali oʻqituvchi oʻquvchilarning darsga toʻliq tayyor ekanligini aniqlaydi. Oʻqituvchi tomonidan berilgan ishora oʻquvchilarning oʻyinqaroqlik muhitini darsga jalb qiladi. Barcha oʻquvchilarning darsga tayyor ekanligini oʻqituvchi anglab oladi.

Yuqorida interfaol usullarning ayrimlari xususida toʻxtaldik. Bu usullar haqida baʼzi metodik qollanmalarda ham fikr yuritilgan. Oʻquvchining yoshi, bilim

darajasi, fanning va o'tilayotgan mavzu xususiyati, mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi ijodiy yondashib, mazkur usullardan dars jarayonida foydalanish tavsiya qilinadi.

Dars mashg'ulotlarini ushbu ta'lim usullari asosida tashkil etish, yana bir bor ta'kidlash joizki, o'quvchilarni faollashtiradi, nutqini rivojlantiradi, fikrini aniq, izchil bayon etishga, o'zgaralar oldida o'z nuqtayi nazarini himoya qilishga o'rgatadi. O'quvchilarning ko'nikma va malaka me'yorini quyidagicha belgilash mumkin:

O'qiganda-10%.

Eshitganda - 20%.

Ko'rganda - 30 %.

Eshitib ko'rganda - 50%.

Muhokama, bahs-munozara - 70%.

Shaxsan o'zi bajarganda - 80%.

Sinfdoshlari bilan bajarganda - 90%.

Shu o'rinda Xitoy xalq maqolini keltirish mumkin: «Menga gapirsang esdan chiqaraman, ko'rsatsang eslab qolishim mumkin, o'zimga ishlash imkoniyatini ber, shunda bu batamom meniki bo'lib qoladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tilganda, sinfda qoloq, o'zlashtirmaydigan o'quvchi qolmaydi. O'quvchilar o'rtasida do'stona muhit yaratiladi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. O'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o'rganishlariga imkon yaratiladi.

Mustaqil tafakkur yuritish darsi. O'quvchilarga yangi materiallarning ayrim qismlari to'liq beriladi. Beriladigan voqea, hodisaning kelib chiqish sabablarini izlashni o'quvchilarning o'zlari bajarishi kerak. Dars o'quvchilarni mustaqil tafakkur yuritishga o'rgatadi, o'qituvchi material tanlashda uning qiziqarli va maqsadga javob beradigan bo'lishiga erishishi kerak.

Muxbirlar darsi. Darslari o'lkashunoslik materiallari asosida berilgan mashq va topshiriqlar bilan bog'lab o'tish yaxshi samara beradi. Bunda o'qituvchi muxbir o'quvchilarga uy ishlaridan, mavzuga mos savollar berib, javob oladi va muxbir

sifatida ularning mehnatini sinfdoshlariga maqto'v orqali ifodalaydi. Bu dars usuli muxbir bo'lishni orzu qilgan o'quvchiga topshirilsa, u o'z mahoratini ishga soladi. Bunday darslarda bolalarda ijodkorlik, tashabbuskorlik hislari uyg'onadi.

Ma'ruza darsi. O'qituvchi bir necha mavzuni o'quvchilarga ma'ruza shaklida foydalanish uchun bo'lib beradi. Muhim joylarini konspekt qilishlarini, kerakli joylarga ko'rgazmalar, kartochkalar tayyorlashni topshiradi. Ma'ruza qilish uchun tayyor bo'lgan o'quvchiga keyingi darslarda so'z beriladi. Ma'ruzalarini bayon qiladilar. O'quvchilar ma'ruzachi sinfdoshiga savollar beradilar. Ma'ruza darslarida o'quvchi katta-katta materiallarni qisqa paytda o'zlashtirishi va mustahkamlashi mumkin.

Muammoli dars. Darsda muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. O'quvchi muammoni yyechishni yakka yoki guruh bo'lib izlashi mumkin. Dars davomida bir necha muammoli savollar o'rta'ga tashlanadi va umumiy xulosa chiqariladi. Muammoli vaziyat o'quvchilarga izlanish, tafakkur qilish malakalarini shakllantiradi.

Muloqot darsi. Bunday dars usulida sinfni ikki guruhga bo'lib, davra suhbatini tashkil etiladi. Bunday darslarga oldindan hech qanday savollar va mavzular berilmaydi, o'tilgan mavzularni takrorlab kelish topshiriladi. O'qituvchi turli shakllarda har ikkala guruhga vazifalar berib boradi va javoblarga qarab ballar qo'yadi. Ballarni qo'yib borishda o'quvchilardan tayyorlangan ekspert dars davomida qo'yilayotgan ballarni umumlashtirib boradi hamda o'zining taklif-mulohazalarini aytib boradi. Bunday dars usullari o'quvchilarni tashabbuskorlik va ijodkorlikka chaqiradi.

Ekskursiya darsi. Dars tabiat, korxonada, ko'rgazma, muzeylarda ekskursiya sifatida o'tiladi. Darsda o'quvchilar jonli taassurotlar orqali bilim oladilar. Bu metod tegishli mavzular uchun rejalashtiriladi. Seminar, konferensiya darslaridan oldin ekskursiya darslari uyushtirilsa maqsadga muvofiq. Bu darslarda nazariya va amaliyot bir-biriga bog'liq holda olib boriladi.

Sinov darsi. O'qituvchi yirik boblarni ma'ruza shaklida o'tadi. O'quvchilarga materialni qamrab oluvchi savollar beriladi. Keyingi darslarda bu savollarga javob topish uchun izlanishga chorlaydi. Bu darslarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar

bilan qo‘shimcha ishlash va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga yordam berish uchun sharoit yaratadi. Sinov darsining boshqa bir shakli yil va chorak davomida olingan material mazmunidan kelib chiqqan holda savollar berish bilan belgilanadi. O‘quvchilar berilgan savollar asosida tayyor bo‘lgan paytlarida javob berishi mumkin. Sinov darsi o‘quvchilarni o‘tilgan materialni to‘liq bilishga chorlaydi va berilgan topshiriqni vaqtida bajarish hissini tarbiyalaydi.

Seminar darsi. Avvaldan tayyorgarlik ko‘rish uchun mavzular o‘quvchilarga taqsimlab beriladi. Birgalikda reja tuzib foydalanilishi lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati aytib o‘tiladi. Har bir mavzu muhokama qilinadi va savol-javob o‘tkaziladi, javoblar boshqa o‘quvchilar tomonidan to‘ldirilib boriladi. Dars oxirida har bir so‘zga chiqqan o‘quvchi mehnati rag‘batlantiriladi. Seminar darslari o‘quvchilarda mustaqil izlanish va ularda javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA BIR SOATLIK DARS ISHLANMASINING TUZILISHI

I. Darsning mavzusi:

II. Darsning maqsadi: a) tarbiyaviy; b) ta'limiy; v)
rivojlantiruvchi; g) kasbga yo'naltiruvchi; d) milliylik va mafkuraviy.

III. Dars turi: (aralash dars, yangi bilimlarni o'zlashtirish darsi, o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash darsi, umumlashtirish darsi, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash darsi).

IV. Darsning metodi: (tushuntirish-namoyish etish, muammoli bayon qilish, bilimlarni tayyor holda bayon etish, qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik, ijodiylik kabi metodlardan foydalaniladi).

V. Dars usuli: (an'anaviy, noan'anaviy, interfaol dars usullari).

VI. Dars jihozi: darslik, tarqatma materiallar, ko'chma taxta, topshiriqli rangli rasmlar, mavzu yuzasidan slaydlar, rag'batlantirish kartochkalari v.b.

VII. Darsning borishi:

1	Tashkiliy qism	2 minut
2	O'tilgan mavzuni so'rash	8 minut
3	Yangi mavzuning bayoni. O'qituvchining o'quvchilar bilan suhbatini asosida yangi mavzuni tushuntirish	16 minut
4	Guruhlarda ishlash «Kichik guruhlarda ishlash» asosida yangi mavzuni tahlil qilish	10 minut
5	Mavzuni mustahkamlash	4 minut
6	Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash	3 minut
7	Uyga vazifa berish	2 minut

Quyida dars reja-konspektidan namuna keltiramiz:

Fan: Ona tili.

Sinf: 7-sinf.

Darsning mavzusi: Ko‘makchili va kelishikli birikmalar.

Darsning maqsadi: a) **ta’limiy:** o‘quvchilarni ko‘makchili birikmalarini kelishikli birikmalar bilan almashtirish, ularning biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llashga o‘rgatish; b) **tarbiyaviy:** nutq rang-barangligi va go‘zalligiga erishishga tarbiyalash; v) **rivojlantiruvchi:** o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; g) **kasbga yo‘naltiruvchi:** mavzuni o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni o‘qituvchilik kasbiga qiziqtirish; d) **milliy va mafkuraviy maqsad:** o‘quvchilarda vatanni sevish, o‘z yurtidan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish, ularni insonparvar, komil inson bo‘lishga o‘rgatish.

Dars turi: yangi bilim berish.

Darsning metodi: qisman izlanuvchanlik, ijodiylik.

Darsning usuli: «Muzyorar», «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash».

Darsning jihozlanishi: darslik, tarqatma materiallar, ko‘chma taxta, topshiriqli rangli rasmlar, mavzu yuzasidan slaydlar, rag‘batlantirish kartochkalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) salomlashish; b) davomat; v) o‘quvchilar diqqatini darsga jalb qilish («Muzyorar» usuli asosida. Ya’ni bu o‘rinda o‘qituvchi o‘quvchilarga qarata: Darsga hamma tayyormi deb uch marta aytadi).

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash:

O‘quvchilarga mustaqil holda qo‘llanilmaydigan so‘zlar ro‘yxatini davom ettirish topshiriladi. (Uyga vazifa mustaqil holda qo‘llanilmaydigan so‘zlar ro‘yxatini tuzish edi).

III. Yangi mavzuning bayoni:

1-topshiriq: Quyidagi matnни diqqat bilan o‘qib, ostiga chizilgan ko‘makchili birikmalarni kelishikli birikmalar bilan almashtirish topshiriladi.

Men Gulasal bilan birinchi sinfda do‘stlashganman. U tez-tez biznikiga kelib turadi. Biz nima xarid qilsak, ikki dona olar edik. Yaqinda men u uchun rangli rasm qalam sotib oldim. Bu qalamlar bilan biz rasm chizishni mashq qildik. Birinchi chizgan rasmlarimiz uncha ham chiroyli chiqmadi. Mashq qilish natijasida

ko'ngildagidek chiqa boshladi. Biz kelajakda ana shu nozik san'at sirlarini o'rganib, rassom bo'lish orzusidamiz.

2-topshiriq: Quyidagi gaplarda nuqtalar o'rniga zarur kelishik qo'shimchasini qo'yish va ularni ko'makchilar bilan almashtirish.

1. Kitobni akam... oldim. 2. Xatni qalam... yozdim. 3. Biz telefon... gaplashdik.

3-topshiriq: O'quvchilarga «Adabiyot» darsligidan biror parchani o'qib, kelishikli birikmalarni ko'makchili birikmalar va ko'makchili birikmalarni kelishikli birikmalar bilan almashtirish topshiriladi.

4-topshiriq: «*Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga*» xalq maqoliga yaqin mazmunli maqollar toping.

IV. Guruhlarda ishlash. «Kichik guruhlarda ishlash» asosida yangi mavzuni tahlil qilish. Mazmuni: O'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruhdagi o'quvchilar kelishikli so'z birikmalarini aytishadi. Ikkinchi guruh esa shu kelishikli birikmalarni ko'makchili birikmalar bilan almashtirishadi.

V. Mavzuni mustahkamlash: Mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirish maqsadida quyidagi savollar o'rtaga tashlanadi:

1. Kelishikli birikmalar bilan ko'makchili birikmalar orasida qanday o'xshashliklar bor?

2. Siz ularning vazifadoshligini qanday dalillar bilan asoslaysiz?

3. «Ko'makchili birikma» va «Kelishikli birikma» tushunchalarini qanday sharhlash mumkin?

VI. Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash: O'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashi, guruhlardagi faolligi, yangi mavzuni mustahkamlash jarayonidagi mustaqil va erkin fikrlashlari kuzatiladi va baholanadi. O'quvchilarni baholash vaqtida ularni keyingi darslarda yanada faolligini oshiruvchi so'zlar bilan rag'batlantiriladi.

VII. Uyga vazifa: Ko'makchili va kelishikli birikmalar ishtirok etgan ijodiy matn yarating. Matndagi ko'makchili va kelishikli birikmalar ostiga chizing.

6-sinf ona tili darsida «Aniq va mavhum otlar» mavzusini o'tish bo'yicha oldindan loyihalashtirilgan

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

Mavzu:	Aniq va mavhum otlar
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: Aniq va mavhum otlar, ularning birlik va ko'plikda qo'llanilishi haqida amaliy ko'nikmalar hosil qilish; o'quvchilarda mehnatsevarlik, o'zaro hurmat fazilatlarini shakllantirish, ularni yaxshilik, sabr-toqat, bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, o'quvchilarni til hodisalarini qiyoslash asosida xulosalar chiqarishga, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va amaliy mashqlardan nazariy xulosalarga borish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatish; nutq odobini singdirish; fikrni og'zaki va yozma ravishda bayon etishga o'rgatish.</p> <p>Vazifalar: O'quvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kengaytirish; didaktik o'yinlar asosida mavzuga oid bilim va ko'nikmalar hosil qilish, berilgan topshiriqni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olishi hamda berilgan topshiriqlar qay darajada o'zlash-tirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	Aniq otlar, mavhum otlar, aniq otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi, ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolarining ifodalanishi
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Dars turi: Aralash dars</p> <p>Dars metodi: Muammoli bayon etish</p> <p>Dars usuli: «Kichik guruhlarda ishlash», «Didaktik o'yinlar».</p> <p>Dars shakli: Jamoa bo'lib ishlash va yakka ishlash.</p> <p>Dars jihozi: «Ona tili» darsligi, elektron darslik, «Ot va uning lug'aviy shakllari» nomli ko'rsatma, «Grammatik topshiriqlar» to'plami, tarqatma materiallar, ko'chma taxta, topshiriqli rangli rasmlar, mavzu yuzasidan slaydlar, rag'batlantirish kartochkalari.</p>

Kutiladigan natijalar	<p>O‘qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ishida barcha o‘quv-chilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. O‘quvchi faolligini oshiradi. O‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir darsda barcha o‘quvchi baholanadi. O‘quvchilar tomonidan mavzuni mustaqil o‘rganish va uni xotirada saqlashga, boshqalarga yyetkazish, yozma savodxonligiga erishadi. O‘quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda mantiqiy mushohada qilib ishlashni o‘rganadilar, nutqi rivojlanadi. Aniq otlar, mavhum otlar, aniq otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi, ta’kidlash, kuchaytirish ma’nolarining ifodalanishi yuzasidan ko‘nikma hosil qiladilar.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O‘qituvchi: Pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o‘z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish. O‘quvchi: Mustaqil ishlashni o‘rganadi. O‘z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo‘shimcha materiallar izlaydi, ularni o‘rganadi. Do‘stona muhitda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi. O‘rtoqlarining fikrini tahlil qiladi.</p>

MAVZU: ANIQ VA MAVHUM OTLAR

I. Darsning maqsadi: **a) ta’limiy maqsad:** aniq va mavhum otlar, ularning birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi haqida ma’lumot berish; **b) tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarda mehnatsevarlik, o‘zaro hurmat fazilatlarini shakllantirish; **v) rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarni til hodisalarini qiyoslash asosida xulosalar chiqarishga o‘rgatish; **g) kasbga yo‘naltiruvchi maqsad:** shu mavzu orqali o‘quvchilarni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish; **d) milliy va mafkuraviy maqsad:** shu mavzu orqali mamlakatimiz fani istiqbollari to‘g‘risida tushuncha hosil qilish, vatanni sevish, o‘z yurtidan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish.

II. Asosiy tushuncha va atamalar: Aniq otlar, mavhum otlar, aniq otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi, ta’kidlash, kuchaytirish ma’nolari.

III. Dars turi: Aralash dars.

IV. Darsning metodi: Muammoli bayon etish.

V. Dars shakli: Jamoa bo‘lib ishlash va yakka ishlash.

VI. Dars usuli: «Kichik guruhlarda ishlash», «Didaktik o‘yinlar».

VII. Darsning borishi:

1. **Tashkiliy qisim:** O‘quvchilar bilan salomlashish, navbatchini tinglash, o‘quvchilar davomatini aniqlash.

2. O‘tilgan mavzuni takrorlash va uy vazifasining nazorati.

O‘tilgan mavzuni takrorlashga oid savollar:

1. Ot so‘z turkumi deb nimaga aytiladi?
2. Chopiq, ko‘rik, terim so‘zlari qanday ot sanaladi?
3. Chopiq, ko‘rik, terim otlarini asos va qo‘shimchalarga ajrating.
4. Faoliyat-jarayon otlari deb nimaga aytiladi?
5. Faoliyat-jarayon otlari qaysi qo‘shimchalar bilan yasaladi?

3. Yangi mavzuning bayoni: Elektron darslikdan foydalaniladi.

Dars tashkil etilgach, o‘qituvchi yangi mavzu yuzasidan quyidagi savollar asosida muammolar qo‘yadi:

1. Aniq va mavhum so‘zlar qanday tushunchalarni anglatadi?
2. Aniq va mavhumlik nimaga nisbatan belgilanadi?
3. Siz aniq va mavhum otlar deganda nimani tushunasiz?

Muammoli savollarni hal qilish jarayonida mavzuga oid topshiriq ham bajariladi. Topshiriqqa ko‘ra o‘quvchilar berilgan otlarni aniq va mavhum otlarga ajratadilar hamda ma’nolarini izohlaydilar.

N a m u n a: *farishta* sezgi a’zolarimiz orqali bilish mumkin bo‘lmagan ilohiy narsa nomi, mavhum ot; *non* sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘lgan narsa nomi, aniq ot.

O‘qituvchi savol va topshiriqlar yuzasidan o‘quvchilar bildirgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, yangi mavzu yuzasidan quyidagilarni bayon etadi.

– *Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘lgan narsalarni bildirgan otlarga aniq otlar deyiladi.*

– Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlar mavhum otlar sanaladi.

– Aniq otlar birlik va ko'plik shaklida qo'llana oladi, ammo mavhum otlar ko'plik shaklida qo'llanganda, ko'plik ma'nosi emas, balki ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolari ifodalanadi.

4. Guruhlarda ishlash. «Kichik guruhlarda ishlash» asosida yangi mavzuni tahlil qilish. Dars jarayonida barcha o'quvchilarni faollashtirish imkoniyatiga ega bo'lish lozim. O'quvchilar aniq va mavhum otlar yuzasidan o'z fikrini guruhda muhokama qilishga, turlicha fikrlarni uyg'unlashtirib, umumiy nuqtayi nazarga kelishga o'rgatiladi. Shuningdek, bir o'quvchi guruh boshlovchisi sifatida sinfdoshlari oldida so'zga chiqib, guruh nuqtayi nazarini himoya qiladi va bu bilan o'quvchida ko'pchilik oldida so'zlash, o'z fikrini himoya qilish, fikrlarini uyg'unlashtira olish kabi ko'nikma va malakalar shakllana boradi.

Sinfni uchta guruhga bo'lib olamiz. 1-guruhni «Qaldirg'och», 2-guruhni «Xumo», 3-guruhni «Bulbul» deb nomlaymiz. Mavzu bo'yicha har bir guruhga alohida topshiriqlar beramiz:

1-guruhga: aniq otlar ishtirokida matn tuzing.

2-guruhga: mavhum otlar ishtirokida matn tuzing.

2-guruhga: aniq va mavhum otlar ishtirokida matn yarating.

Guruhlarda ishlash ya'ni vazifani bajarishga besh daqiqa vaqt ajratiladi. Topshiriqni bajarish yo'l-yo'riqlari tushuntiriladi.

Guruhda ish jarayoni tugagandan keyin yakuniy xulosalar taqdimoti o'tkaziladi. Xulosalarni guruh sardorlari himoya qiladi. Imkoniyatga qarab guruhlar aniq va mavhum otlar yuzasidan bir-birlariga savollar ham berishadi.

5. Mavzuni mustahkamlash: Darslik bilan ishlash

Dars mashqlar bajarish bilan davom ettiriladi. 312-mashq topshirig'ga ko'ra o'quvchilar aniq va mavhum otlarga qo'shilayotgan ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalariga e'tibor berib, otlarga ko'plik qo'shimchasi qanday ma'no qo'shayotganini izohlaydilar.

Namuna: *U o'z qalbida kechayotgan tuyg'ularining nomini bilmasalan, shu daqiqadagi holatini o'rtloqlariga ham izohlab berolmas edi.* (Qamchibek Kenja). Mazkur gapda *qalbida, tuyg'ular, o'rtloqlar* ot turkumiga mansub so'zlar.

Tuyg'ular – mavhum ot, *-lar* ko'plik qo'shimchasini olgan. Bu o'rinda ko'plik qo'shimchasi kuchaytirish ma'nosini ifodalagan.

313-mashqda matndagi aniq va mavhum otlar aniqlanib, ma'nolari izohlanadi.

Namuna: *Hasad–yurakning zanglashi, qaysarlik mag'lubiyat sababchisidir.* («Sharq hikmatlari»dan) Mazkur hikmatda *hasad, qaysarlik, mag'lubiyat* kabi mavhum otlar va *yurak* aniq oti qo'llangan.

Hikmatlar orqali o'quvchilarga hasad, qaysarlik, yalqovlik kabi salbiy odatlarning zararliligi dalillar asosida tushuntiriladi. Shu tarzda ularga **axloqiy tarbiya** beriladi.

6. O'quvchilar bilimini baholash:

O'quvchilarning faolligi, uy vazifalarini to'g'ri va aniq bajarishi dars davomida berilgan savollarga javoblari inobatga olinib, baholanadi.

7. Yakuniy fikrni aytib, uyga vazifa berish:

Dars so'ngida o'quvchilar bilimini mustahkamlash uchun darslikdagi savol va topshiriqlar bajariladi hamda 314-mashq shartiga ko'ra berilgan gaplardagi otlarni aniq va mavhum otlarga ajratish, ular o'rtasidagi farqlarni izohlash **uyga vazifa** qilib beriladi.

Savol va topshiriqlar

1. Til ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalari haqida gapiring.

2. Interfaol usullarning ahamiyati nimadan iborat?

3. «Aqliy hujumni» usulidan foydalanish yo'llari va qoidalari haqida gapiring.

4. «Tanqidiy fikrlash»ni tashkil etish usullarini ayting.

5. «Kichik guruhlarda ishlash»da qanday ishlar olib boriladi?

6. Pedagogik texnologiya asosida bir soatlik dars ishlanmasining tuzilishi keltiring.

7. Darsning texnologik xaritasini tuzing.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш: Ўқув услубий қўлланма / Таълимда инновацион технология серияси. - Т.: 2010.- 149 б.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, «O'qituvchi», 2004, 102 b.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent, «Fan va texnologiya», 2008, 130 b.
4. Йўлдошев Ж., Ҳасанов С. Педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма.- Т.: “ИQTISOD-MOLIYA” , 2009, 652 б.
5. Usmonova K., Hayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.
6. Ходиев Б.Ю., Голиш Л.В., Рихсимбоев О.К. Кейс- стади - иқтисодий олий ўқув юртидаги замонавий таълим технологияси: Илмий-услубий қўлланма / “Замонавий таълим технологиялари” туркуми. Т.: ТДИУ, 2009. - 150 б.

ONA TILI TA'LIMI VOSITALARI UZLUKSIZ TA'LIMNING ONA TILI FANIDAN DARSLIKLARINING TUZILISHI VA MAZMUNI

Tayanch tushunchalar:

Darslik, ona tilidan qo'shimcha vositalar: chizmalar (transportlar), o'quv filmlari va diafilmlar, ovozni yozib olish vositalari, slayd - jadvallar, portret, peyzaj, ma'rifiy matnlar, rasmi albom, televideniya ko'rsatuvlari, lug'atlar: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi», «O'zbek tilining izohli lug'ati», «Imlo lug'ati», «O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati», «O'zbek tili morfem lug'ati», «O'zbek tilining frazeologik lug'ati», «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati», «O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati», «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati», «Paronim so'zlar lug'ati», «Geografik nomlar lug'ati», «O'zbek tilining qisqa etimologik lug'ati»; o'quv lug'atlari: «O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati», «O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati», «O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati», «O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati», «O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati», «Qo'shib yoziladimi, ajratib», «O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati», «O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati».

Ona tili o'qitishning asosiy vositalari. Ilk bosqichda: 1. Ona tili o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklar. 2. O'zbek tili bo'yicha lug'atlar: «O'zbek tilining izohli lug'ati», «O'zbek tilining uyadosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining shakldosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar lug'ati».

Ikkinchi bosqichda bu vositalar sirasi «O'zbek tilining so'z yasash lug'ati», o'zbek tilidagi ensiklopediya, ona tili mashg'ulotlarida og'zaki va yozma tasvir uchun izohli albom, ishlatilishi lozim bo'lgan zarur so'zlar berilgan rasm-tasvirlar va h.k. bilan to'ldirilishi lozim.

Ta'lim usuli, asosan, induktivdir. Shuning uchun mashg'ulotda faol ishlovchi o'quvchining o'zidir. Har bir mashg'ulot taxminan to'rt bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Takrorlash. 2. Berilgan materiallarning o'quvchilar tomonidan tahlili. 3.

Berilgan materiallarni o'qituvchi yordamida umumlashtirish va hukm chiqarish. 4. Hosil qilingan umumiylikni amalda qo'llash va sinash, o'quv topshiriqlarini bajarish.

Darslik va unga qo'yiladigan talablar. Darslik - Davlat ta'lim standartlari talablariga mos, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan fanning o'quv dasturi asosida mavzularni to'liq yoritgan va fanning asoslarini o'rganishga yordam beruvchi nashr hisoblanadi.

Maktabda o'rganiladigan barcha sinflar uchun yaratilgan darsliklar bir-biriga bog'liq holda tuziladi va ta'limning uzviyligiga amal qiladi. Darslik davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Darslik nafaqat bilim va ma'lumot beruvchi, balki o'quvchini o'ziga jalb etadigan, qiziqtiradigan noyob kitob bo'lishi shart. O'quvchi darslik orqali shu predmet, shu fan olamiga kirib boradi. Darslikning mukammalligi, o'quvchining didiga mosligi ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili darsligi-ta'limning muhim vositasi. Maktab ona tili darsligi o'quvchilar uchun bilim olishning asosiy manbai bo'lib, u DTS talablari va unga muvofiq tuzilgan dastur asosida yaratiladi.

Darslik zimmasiga asosan quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki va yozma shakllaridan keng va to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarni o'zbek tilida to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, imlo va punktuatsiyaning asosiy qoidalari bilan qurollantirish;
- fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish yo'llari bilan tanishtirish;
- muayyan bir xabar yoki ma'lumotni turli shakllarda berish usullarini o'rgatish;
- o'quvchilarda milliy ong va milliy mafkurani tarbiyalash;
- kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarini yuritish.

Ona tili darsligida ona tili ta'limining maqsadi voqelanadi. Modomiki, maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarni ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ekan, bu maqsad darslikda o'z ifodasini topadi.

Ona tili darsliklari bosqichli ketma-ketlik tamoyilida tuzilgan bo'lib, tilshunoslik bo'limlari o'zaro zich aloqadorlikda berilgan. Shuning uchun «Ona tili» o'quv dasturining «Uqtirish xati»da qayd qilinganidek, 5-sinfning birinchi yarim yilligida sintaksis va punktuatsiyadan–sodda va qo'shma gap, gapning markazi, gap bo'laklari, undalma va uyushiq bo'laklar, ko'chirma gap, ulardagi tinish belgilari, leksikadan–so'zning ma'nosi, o'z ma'no va ko'chma ma'no, ma'nodosh so'zlar, uyadosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, ibora va tasviriy ifodalar, morfologiyadan–o'zakdosh so'zlar, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, o'zak, qo'shimcha, shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimchalar o'rganiladi. «Muqaddima» deb nomlangan bu bo'lim keyingi bosqichlarda butunni bo'laklarga ajratib o'qitish uchun zamin hozirlaydi va bo'limlararo uzviy aloqadorlikni ta'minlaydi.

Ona tili darsligidagi materiallar xususiylikdan umumiylikka qarab boradi. O'quvchilar darslikda berilgan bir qator ilmiy-amaliy topshiriqlarni bajargandan so'ng umumlashma va xulosa chiqaradilar. Darslikda «Bilib oling», «Esda tuting» singari ko'rsatkichlar(shartli belgilar) orqali berilgan ma'lumotlar o'ta zaruriy tushuncha va ta'riflarni o'z ichiga oladi.

Darslik o'rganilganlarni mustahkamlash va takrorlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Har bir mavzu yoki bo'limning oxirida berilgan ijodiy-amaliy ishlar (savol va topshiriqlar, matn yaratish, «Topqirlar bellashuvi» o'tkazish, berilgan test topshiriqlariga javob qaytarish) o'quvchilarning egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Darslik o'quvchi uchun bilim manbayi bo'lsa, o'qituvchi uchun o'quv qo'llanmasidir. Chunki ko'p hollarda dars darslik qolipi asosida quriladi.

Darsni darslik qolipi asosida qurish faqat darslikda berilgan o'quv topshiriqlaridan foydalanish emas, albatta. O'qituvchi darslikdan ijodiy foydalanadi.

Zaruriyat tug'ilganda mashq shartiga qo'shimcha shartlar kiritadi, berilgan shartni yangi shart bilan almashtiradi, lozim topsa, darslikdagi mashq o'rnida o'zi tuzgan mashqdan foydalanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Ona tili" darsliklarining tuzilishi va mazmuni. Maktabda ona tili o'qitishning asosiy mazmun-mohiyati hozirgi kun ta'limi maqsadlariga monand tuzilgan Davlat ta'lim standarti, dastur va darsliklarning quyidagi nazariy-amaliy asoslari bilan belgilab berilgan:

I. Ona tili – milliy ma'naviyat va mafkura, milliy ruh, madaniyat va qadriyatlarning ulkan xazinasini.

II. Ona tili – millat tafakkurini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi eng asosiy vosita.

III. Ona tilini o'qitishdan maqsad, ta'lim oluvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

IV. Mashg'ulotlarda ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalanish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ustuvorligi ta'minlanadi.

V. Darsliklarda o'quv materiallari o'quvchilarning har bir sinfda o'rganadigan boshqa o'quv fanlari va ulardan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'liqlikda beriladi.

VI. Ona tili darsligidagi har bir topshiriq o'quvchi tomonidan mustaqil bajarilishiga moslab tuziladi.

VII. Darslik materiallari o'quvchilarda tafakkurni va nutqni rivojlantirishning asosiy omillariga: 1) lug'at boyligini oshirishga; 2) so'z boyligidan ijodiy matn yaratish jarayonida foydalanishga; 3) mustaqil fikr ifodasining maqsad va nutq vaziyatiga muvofiqligini tanlashga; 4) aniq, ilmiy va obrazli (ramziy) nutq ko'nikmalarini shakllantirishga moslab tuziladi va beriladi.

VIII. Ona tiliga oid bilimlarni berishda tilning ko'p sathli, cheksiz imkoniyatli, murakkab tizim sifatidagi talqiniga tayaniladi. Shuning uchun ona tili kursi ona tili

qurilishining eng asosiy birliklari va hodisalari bilan tanishtiruvchi «Muqaddima» va «Izchil kurs» kabi ikki qismdan iboratdir.

«Izchil kurs»da tilning turli grammatik hodisalarini, turli sath birliklarini o‘zaro aloqadorlikda berish tilimizda aynan bir fikrni turli usullar bilan ifodalash imkoniyatlari borligini, har bir imkoniyatning o‘ziga xosligini o‘quvchilarga singdirishda «Muqaddima»ning ahamiyati katta.

IX. Darsliklarning didaktik asosi: o‘quvchiga ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi; o‘qituvchiga o‘quvchining o‘rganish faoliyatining boshqaruvchisi; darslikka (o‘quv topshiriqlariga) o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatlarini o‘zaro bog‘lovchi vosita sifatida yondashishdan iboratdir.

X. O‘quvchining ta’lim jarayonida faol ishtirokchi ekanligi uning darslik topshiriqlarini mustaqil bajarishida o‘z aksini topadi.

XI. Fikrni bayon etish, ijodiy matn tuzish, matn ustida ish ona tili mashg‘ulotlarida alohida mavqega ega bo‘lganligi sababli, VIII sinfda «Ijodiy matn ustida ish» mavzusini o‘rganish ko‘zda tutilgan.

XII. O‘quvchilarning ona tili ta’limi asosida sinfma - sinf olgan amaliy ko‘nikmalari va bilimlari ona tilidan Davlat ta’lim standarti talablari bilan baholanadi.

Ona tili darolarida qo‘shimcha vositalardan foydalanish. Ona tili ta’limi jarayonida darslikdan tashqari qo‘shimcha vositalar: maxsus yaltiroq plyonkalarda tayyorlangan chizmalar (transporantlar), o‘quv filmlari va diafilmlar, ovozni yozib olish vositalari, slayd - jadvallar, portret, peyzaj, ma’rifiy matnlar, rasimli albom, teleko‘rsatuvlar kabilardan ham foydalaniladi. Bu vositalar o‘qituvchi tomonidan tayyorlanishi ham, maxsus majmua sifatida nashr etilishi ham mumkin.

Ona tili mashg‘ulotlarida maxsus yaltiroq plyonkada kichik hajmda tayyorlangan chizmalar, jadvallar, ayrim izohlar, topshiriqlarni grafoproektorlar orqali yiriklashtirilib namoyish etish samarali vositalardan biri bo‘lib sanaladi. Plyonkaga tushirilgan til materialining anchagina ustunlik tomonlari bor. Avvalo, plyonkadagi material orqali barcha o‘quvchilar diqqatini o‘rganilayotgan

muammoga qaratish mumkin. Shuningdek, bir materialni bir necha bo‘lakka bo‘lib, o‘quvchilar diqqatiga havola qilishda bunday usul qo‘l keladi.

Plyonkaga yozilgan til materiallari, ayniqsa, o‘quvchilarning jamoa bo‘lib ishlashini tashkil etishda alohida o‘rin egallaydi. Ularning barchasi berilgan materialni kuzatib yoki o‘qib, bu haqda birgalikda fikrlash, umumlashma hosil qilish imkoniyatiga ega.

Ona tili mashg‘ulotlarida, ayniqsa, ovozni yozib olish vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi bu vositalar orqali nutqni diqqat bilan kuzatishi, yozib olingan ikki matnni eshitib, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashi, mashhur so‘z ustalarining nutqini tinglab, undan talaffuz me‘yorlari, ifodali o‘qish san‘atini o‘rganishi mumkin.

Darslik materialiga yordamchi vosita sifatida turli jadvallardan, rasmlı albomlar va tarqatma materiallardan, diapozitiv va diafilmlardan ham unumli foydalaniladi.

Jadvallar darslik materialini puxta va ongli o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Ayniqsa, so‘zlarnı guruhlashda jadvallar ancha qo‘l keladi. Namuna sifatida «Olinma so‘zlar» mavzusini o‘rganishda jadval asosida bajariladigan quyidagi topshiriqni e‘tiboringizga havola etamiz:

Topshiriq. So‘zlarnı o‘qing. Ularnı qaysı sohaga oid ekanligini aniqlab, jadval talabiga mos ravishda guruhlarga ajrating. So‘z guruhlarnı mustaqil davom etgiring.

Alif, divan, limonad, lyustra, makaron, kostyum, kofta, kofe, kino, konsert, kompozitor, konfet, palto, televizor, teatr, shlyapa, shokolad, shifoner, shkaf, shifer, film, sement, beton.

Kiyim - kechakka oid so‘z va atamalar	Oziq - ovqatga oid so‘z va atamalar	Uy Jihozlariga oid so‘z va Atamalar	Qurilishga oid so‘z va Atamalar	San‘atga oid so‘z va atamalar
---	---	--	---------------------------------------	-------------------------------------

Darslik materialini to‘ldirishga xizmat qiladigan yana bir vosita rasmlı albomlar va rasmlı tarqatma materiallardir.

Rasmlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o'rganilayotgan til hodisasini amalda qo'llab matnlar yaratish, tasvir, rivoya, muhokama insholar o'tkazishda muhim o'rin egallaydi.

Ona tili mashg'ulotlarida rasmlardan foydalanishga muayyan talablar ham qo'yiladi. Bular rasmning yuksak badiiyligi, o'rganilayotgan mavzu talabiga mosligi, sinf o'quvchilarining yoshi va bilim saviyasiga muvofiqligi, rasmda rassom maqsadining ifodalanganligi, nutq o'stirishga muvofiqlik darajasi kabilar bo'lib sanaladi.

Rasmlardan so'z tanlashda, so'z birikmalari va gaplar qurishda, ijodiy diktantlar yozishda, og'zaki va yozma matnlar tuzishda, insho o'tkazishda keng foydalaniladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirish ta'limning asosiy maqsadlaridandir. Shuning uchun ham, ayniqsa, keyingi yillarda ona tili darslarida mustaqil va ijodiy ishlarni bajarishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'quvchida ijodiy ish ko'nikmasini shakllantirish uchun esa turli vositalar, usul va manbalardan foydalanish mumkin.

Tasviriy ko'rgazma vositasida o'tkaziladigan ijodiy ishlardan maqsad o'quvchilarda tasvirlangan voqea-hodisani, holatni yozma yoki og'zaki bayon, tavsif etish ko'nikmasini hosil qilishdir. O'quvchilar boshlang'ich ta'limning ma'lum davridan boshlab, rasm asosida matn tuzishni o'rganadilar. 5-sinf o'quvchilari «Yil fasllari», «Bog'da», «Gulzorda» kabi tabiat manzaralariga bag'ishlangan rasmlarda nimalarni ko'rayotganliklarinigina emas, balki ko'rish orqali nimalarni his qilayotganliklarini, tasvir ularda qanday ichki kechinmalar uyg'otganligini ham ifodalay bilishlari kerak.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturida ko'rsatilgan «Ona tili o'qitishning asosiy vositalari» sirasi ikkinchi bosqichida «...ona tili mashg'ulotlarida og'zaki va yozma tasvir uchun izohli albom, ishlatilishi lozim bo'lgan zarur so'zlar, berilgan rasm-tasvirlar va h.k. bilan to'ldirilishi lozim» deb qayd etilgan. Ijodiy ishning bu ko'rinishi uchun tavsifiya qilinadigan rasmlar quyidagi talablarga javob berishi:

a) suratlar rangli tasvirda bo'lishi;

b) tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi (o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitishi, go'zallikni ko'rishga, his qilishga o'rgatishi va his-tuyg'ularni so'zlar vositasida ifodalay olishi kabilar ko'zda tutiladi);

v) san'at asarlarining turlari, janrlari va mualliflari bilan tanishish imkoniyatini berishi;

g) chegaralanmagan ijodiy erkinlik berishini nazarda tutishi kerak.

Rasm asosida ijodiy matn yaratishga tayyorgarlik jarayoni bosqichli ravishda tashkil qilinishi kerak: birinchi bosqichda, matn yaratishdan avval surat asosida suhbat o'tkazilib, lug'at tuzish, ikkinchi bosqichda lug'atdagi so'zlar ishtirokida lug'at diktanti o'tkazish (so'z zaxirasini boyitish va savodxonlikni oshirish maqsadida) kerak. Yakunlovchi uchinchi bosqichda lug'atdagi o'zgartirilishi mumkin bo'lgan so'zlarni iboralar, ularning ma'nodoshlari bilan almashtirish, uyadoshlar qatorini tuzish yuzasidan mustaqil ish tashkil qilish.

«Qovun sayli» yoki «Qovun bozori» mavzusida quyidagicha amaliy - ijodiy ish o'tkazish mumkin:

1-bosqichda umumiy suhbat natijasida yaratilgan lug'at: *dehqon, bozor, sotuvchi, xaridor; liboslar: yaktak, to'n, chakmon, qiyiqcha, do'ppi; tush payti, peshin, poliz, lazzatli, chaqqon* kabi qator so'zlar tasviriy manbani o'rganish jarayonida to'planadi.

2- bosqichda esa imlosi qiyin bo'lgan so'zlar yuzasidan lug'at diktanti o'tkaziladi.

3- bosqichda grammatik mavzu bilan bog'liq bulgan topshiriqlar yuzasidan vazifalar bajariladi.

- 3.1. bozor – savdo maydoni,
xaridor – sotib oluvchi,
sotuvchi – savdo qiluvchi, dehqon,
lazzatli – shirin, mazali, asaldek shirin,
boldek, mazasi tilni yoradigan...
chaqqon – qo'li-qo'lga tegmaydigan.

3.2. Qovun turlari: *bosvoldi, ko'kcha, qirqma, qizil urug', miri, bo'rikalla, cho'giri, toshloqi, churvak, mirzacho'l, shakarpalak, jo'raqand, asati, davlatboy, ko'k turna, eski chopon, kampir qovun, doniyor, obi novvot, obi qand...*

3.3. Uyadoshlar qatorini tuzing: *yaktak, to'n, qiyiqcha, do'ppi...*

bozor, sotuvchi, xaridor...

Shu turdagi topshiriqlar yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash va matn tuzish malakalarini hosil qilish mumkin.

Ijodiy matn yaratish uchun oldindan ko'riladigan bunday tayyorgarlik o'quvchilarni ijodiy ishga jiddiy yondashishga undaydi. Shuningdek, rasm asosida ijodiy matn yaratishdek murakkab jarayon ma'lum tayyorgarlikni (so'z zaxirasini oshirish, mantiqiy bog'liqlikni hosil qilish) talab qiladi. Turli mavzudagi ijodiy ish jarayoniga maxsus tayyorgarlik ko'rilishi o'quvchilarning bu ishga mas'uliyat bilan yondashishlariga sabab bo'ladi. Binobarin, ijodiy matn yaratish o'quvchida mustaqil fikr va savodxonlikning uyg'unligini ta'minlaydi.

Agar tanlagan suratimiz rangli tasvirda bo'lsa, ranglarning nomlanishi haqida ham o'quvchilarga ma'lumot berib, maxsus lug'at yaratish lozim. Ba'zan aynan bir suratning avval oq-qora, so'ng rangli tasvirda berilishi o'quvchining ranglarni o'z o'rnida ishlata bilish malakasini tekshirish va xatolarini tuzatish imkoniyatini beradi.

Matn ma'lum bir mavzu yoki rasm asosida yaratiladi. O'quvchi rasm asosida matn yaratarkan, unda aks ettirilgan lahzani ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lsa, shundayligicha qabul qiladi va tasvirlaydi. Shu bilan birga, rasmda tasvirlangan holat tuzilayotgan matn ma'lum darajada chegaralaydi. Hikoya qilinishi kerak bo'lgan holat makon (s), zamon (V), vaqt (t) birligiga aniqlik kiritadi va o'quvchining fikrlash jarayonini yengillashtiradi. Rasm asosida tuzilgan matnlarda holat chegarasining buzilmasligi, o'quvchining tafakkurida mazkur laha qay tarzda namoyon bo'layotganini aniq ko'rsatib, o'quvchining shaxsiy olamini, ma'naviy qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi. Rasm asosida matn tuzish jarayonida o'quvchining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirish maqsadida *ijodiy ish jarayoni uch bosqichga bo'linadi:*

1-bosqich: tasvirlangan holatga qadar bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar haqida bildirilgan mantiqiy fikr va mulohazalar;

2-bosqich: tavsiya qilingan rasmdagi holat tavsifi va unga munosabat;

3-bosqich: mazkur holat davomi haqida o‘quvchining mustaqil bayoni.

Bu 3 bosqichli ish o‘quvchining mushohada qilish doirasini, dunyoqarashini kengaytiradi.

O‘quvchi voqea-hodisalar ketma-ketligiga e‘tibor beradi. Ular o‘rtasidagi uzviylikni qidiradi. Demak, ijodiy ishni tashkil qilish orqali o‘quvchiga ijodiy erkinlik beriladi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Ijodiy matn yaratishda ta‘limiy va tarbiyaviy, ma‘naviy va ma‘rifiy jarayon doimo bir butunlikni vujudga keltirishi lozim.

Shuning uchun ham tavsiya qilingan rasm-tasvirlar o‘quvchilarda ona-Vatanga, tabiatga, milliy an‘ana va qadriyatlarga muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadigan xarakterda bo‘lishi maqsadga muvofiq.

To‘g‘ri tanlangan va metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilgan rasm dars oldiga qo‘yilgan maqsadni muvaffaqiyatli hal qilishga, mashg‘ulotning qiziqarli bo‘lishi va o‘quvchilarning faollik darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Rasmi tarqatma materiallar ham darsning muhim vositalaridan biridir. Bu vosita darsni o‘quvchilarning bilim saviyasiga qarab tabaqalashtirishda, har bir o‘quvchining o‘quv imkoniyatidan kelib chiqib topshiriq berishda, bolaning mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashda muhim o‘rin egallaydi. Rasmi tarqatma materiallardan o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda, berilgan so‘zga ma‘nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar tanlashda, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini tashkil etishda (bitta rasimga 8–10 ta sarlavha topish, sarlavha talabidan kelib chiqib, har xil reja tuzish, nutq sharoitiga mos ravishda fikrni bayon qilish va h.k.) foydalanish mumkin.

Ta‘limning samarali vositalaridan yana biri diafilm va diapozitivlardir. Bu vositalardan til hodisalarining mohiyatini sharhlashda ham, nutqiy malakalarni takomillashtirishda ham foydalansa bo‘ladi. Ayniqsa, mavzu talabga muvofiq so‘z

va soʻz birikmalari tanlashda, gaplar tuzishda, matn yaratishda bu muhim vositalar qoʻl keladi.

Oʻqituvchi diafilm va diapozitivlardan foydalanishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

- diafilm va diapozitivdan foydalanishning maqsadini aniq belgilashi, uning dars maqsadiga toʻla mos kelishini taʼminlashi;
- darsning qaysi bosqichida qanday tartibda foydalanishni belgilab olishi;
- tasvirdagi qaysi oʻrinlarga oʻquvchilarning eʼtiborini qaratishni aniqlashi.

Ona tili oʻqituvchisi telekoʻrsatuvlardan, namoyish etiladigan kinofilmlardan ham unumli foydalanishni unutmasligi lozim. Oʻrganilayotgan mavzu talabiga muvofiq matn yaratishda, sinf va uy insholari yozishda bu vositalar qoʻl keladi.

Xullas, yuqorida tilga olingan vositalar darslik materialini toʻldirish hamda boyitish bilan bir qatorda mashgʻulotlarning qiziqarli va zavqli oʻtishini taʼminlashda ham alohida oʻrin egallaydi.

Lugʻatlar–ona tili taʼlimining muhim vositasi. Maktab ona tili taʼlimining konseptual asoslarida uning zaruriy vositasi ikkita ekanligi taʼkidlanadi: darslik va lugʻatlar. Oʻquvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini oʻstirishning zaruriy omillaridan biri lugʻatlar ustida ishlashdir. Lugʻatlar oʻquvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini ogʻzaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy soʻz zaxirasini vujudga keltiradi.

Ona tili mashgʻulotlarini lugʻatlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Ona tili mashgʻulotlarida lugʻatlardan keng foydalaniladi.

Lugʻat bilim manbai va oʻqitish vositasidir. Soʻz maʼnosini sharhlash, maʼlum bir soʻzning imlosini bilib olish, yoʻl qoʻyilgan imloviy xatoni bartaraf etish, soʻz guruhlarini mustaqil davom ettirish, berilgan soʻzga maʼnodosh, uyadosh, qoʻshimchadosh soʻzlar tanlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarishda lugʻatlardan keng foydalaniladi. Ehtiyoj tutilganda oʻquvchining birinchi maslahatchisi lugʻatdir.

Keyingi yillarda o'zbek lug'atchiligi katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, 12 tomli «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» (Toshkent, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.), 5 tomli «O'zbek tilining izohli lug'ati» (Toshkent, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007), «Imlo lug'ati» (Toshkent, «O'qituvchi»,1995), «O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati»(Tuzuvchilar:T.Tog'ayev, G. Tavaldiyeva, M. Akromova. Toshkent, «Sharq», 2004.), «O'zbek tili morfem lug'ati» (A. G'ulomov va boshqalar.Toshkent, «O'qituvchi»,1977), «O'zbek tilining frazeologik lug'ati» (Sh.Rahmatullayev. Toshkent, «Qomuslar» Bosh tahririyati,1992.), «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (A.Hojiyev. Toshkent, «O'qituvchi»,1974), «O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati» (Sh.Rahmatullayev. Toshkent, «O'qituvchi» 1984), «O'zbek tilining paremiologik lug'ati» (H. Berdiyurov, R. Rasulov. Toshkent, «O'qituvchi», 1984), «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati» (Sh.Rahmatullayev. Toshkent, «O'qituvchi»,1980), «Paronim so'zlar lug'ati» (Z.Ma'rupov. Toshkent, «O'qituvchi»,1971), «Geografik nomlar lug'ati» (S.Qorayev. Toshkent, «O'zbekiston»,1978), «O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati» (N.Mirzayev. Toshkent, «Fan», 1991), «O'zbek tilining etimologik lug'ati»(III) (Sh.Rahmatullayev. Toshkent, «Universitet» 2009), «O'zbek tilining imlo lug'ati» (Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. Toshkent, «O'qituvchi», 2011), shuningdek, joy nomlari lug'ati, turli sohaga oid atamalarning izohli lug'atlari (masalan, paxtachilik atamalarining izohli lug'ati, matematik atamalarning izohli lug'ati, savdo-sotiqqa oid atamalarning izohli lug'ati kabi)ning chop etilganligi o'zbek lug'atchiligining taraqqiyotidan dalolat beradi. Ammo bu lug'atlarning ko'pchiligi akademik lug'atlar bo'lib, maktabda ulardan foydalanish ancha qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun bugungi kunda maktab o'quvchilariga mo'ljallangan va ular uchun ixtisoslashtirilgan o'quv lug'atlari yaratildi va yaratilmoqda. Bunday lug'atlar qatoriga «O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati» (B.Mengliyev, B.Bahriddinova. Toshkent, 2006), «O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati»(O.Shukurov, B.Boymatova. Toshkent, 2006), «O'zbek tili iboralari o'quv lug'ati» (B.Mengliyev, M.Xudoyberdiyeva. Toshkent, 2009),

«O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati»(I. Islomov, Sh.Bobojonov. Toshkent, 2006), «O‘zbek tilining zid ma‘noli so‘zlar o‘quv lug‘ati» (U.To‘rayeva, D.Shodmonova. Toshkent, 2006), «Qo‘shib yoziladimi, ajratib» (T.Jumayev, T.Valiyev. Toshkent, 2006), «O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati» (X.Suvonova. Toshkent, 2006), «O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati» (Yo.Hamrayeva. Toshkent, 2006), «O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati» (X. Norxo‘jayeva. Toshkent, 2006), «O‘zbek tilining so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati» (B.Mengliyev, B. Bahriddinova, O‘. Xoliyorov. Toshkent, 2008), «O‘zbek tilining o‘quv toponimik lug‘ati» (T.Nafasov, V.Nafasova. Toshkent, 2007), «O‘zbek tilining talaffuzdosh so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati» (T.Nafasov, V.Nafasova. Toshkent, 2007), «Ona tili. Qomus» (B.Mengliyev, O‘.Xoliyorov. Toshkent, 2010).

Lug‘atlardan tez va o‘rinli foydalanish uchun o‘quvchi zarur malakalarga ega bo‘lishi lozim. Ana shu malakalardan eng muhimi alifbo tartibini puxta bilishdir. Alifboni yoddan bilmagan o‘quvchi lug‘atdan zarur so‘zni tez topa olmaydi. Shuning uchun o‘quvchilarning alifbo tartibini yaxshi bilishlariga erishish lozim. O‘quvchi qanday sharoitda qaysi lug‘atdan foydalanish kerakligini ham bilishi lozim.

O‘quvchi yoshlarning mustaqil fikrlash faoliyatlari nutqiy (yozma, og‘zaki) jarayonda so‘zlar orqali namoyon bo‘ladi. O‘quvchi so‘z boyligining holati so‘zlarni o‘rni qo‘llash masalasi kabi muhim omillar fikr va nutq birligini ta‘minlaydi. Ona tili darslarida o‘quvchining mustaqil fikrlash malakalarini hosil qilish maqsadida, eng avvalo, ularning lug‘at boyligiga e‘tiborni qaratish lozim. O‘quvchining so‘z boyligi uning o‘qigan badiiy asarlari, turli ilmiy-ommabop adabiyotlar, darsliklar, ommaviy axborot vositalari, to‘plangan ma‘lumotlari orqali belgilanadi. So‘z boyligi yillar davomida ongli va ongsiz tarzda to‘planadi. Ona tili darslarida o‘quvchi xotirasida to‘plangan so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish, ularni talaffuz qilish, xatosiz yozish bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi. Nutqni rivojlantirish bilan birga bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri savodxonlik–imloviy xatolarni kamaytirishga ham erishish mumkin.

Agar «Imlo lugʻati» va boshqa lugʻatlar bilan ishlash shu tarzda yoʻlga qoʻyilsa, biz ona tili taʼlimidagi uzluksizlikning bir jihatini taʼminlashga erishamiz. «Ona tili taʼlimidan asosiy maqsad «oʻquvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va oʻrinli foydalanish koʻnikmalarini, fikrni turli yoʻsin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat ekan, bunga erishishni boy va barkamol soʻz xazinasiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shuning uchun soʻz boyligi omili davlat standartida muhim oʻrin egallashi lozim»,– deya mutaxassis olimlar oʻquvchilarining soʻz boyligini oshirishda lugʻatlar bilan ishlash omilining muhimligini bayon qiladilar.¹

Oʻquvchilarni lugʻatlar bilan ishlashga oʻrgatishni koʻp hollarda 5-sinfdan boshlash lozimligi taʼkidlanadi. Bizningcha esa, lugʻat bilan ishlashga oʻrgatishni tizimiy bir shaklda boshlangʻich taʼlimdayoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu davrda lugʻatlardagi umumisteʼmolda eng koʻp qoʻllanuvchi, talaffuzi qiyin soʻzlarga eʼtibor qaratgan maʼqul. Umuman olganda, oʻquvchilarning lugʻat ustida ishlashi, lugʻatlar darsliklarning ajralmas qismiga aylanishi, lugʻatlar umumtaʼlim maktablaridagi har bir dars, mashgʻulotlarning tarkibiy qismi boʻlib qolishi lozim. Buning uchun, avvalo, har bir fan oʻqituvchisi oʻz sohasi doirasida lugʻat daftari yuritishni tashkil qilishi juda muhimdir. Buning boshqa bir jihati ham borki, bunda oʻquvchi oʻz lugʻat zaxirasiga ega boʻlib boradi. *Soʻzlarni yozib borish oʻquvchilariing lugʻat boyligini kupaytirish bilan birga, savodxonligini ham oshiradi.*

Oʻquvchi oʻzi oʻqiyotgan fanlar, ularning sohalari boʻyicha koʻplab atamalarni yaxshi ajratib berolmaydi, ularning maʼnolarini aniq bilmaydi. Oʻqituvchi maktabda lugʻat bilan ishlashni, birinchi navbatda, oʻquvchiga lugʻat tuzdirishdan boshlasa, maqsadga muvofiq boʻladi. Dars jarayonida matn oʻqilganda, darslikda biror izoh talab qilinadigan soʻz boʻlsa, uni muntazam ravishda lugʻatga kiritish anʼanaga aylantirilsa, bu, albatta, yaxshi natija beradi. Masalan, matnda **maqom** soʻzi uchrab qoldi. Agar oʻquvchi uning matndagi maʼnosini bilmasa, bu matnni toʻgʻri

¹ Neʼmatov H., Gulomov A., Ziyodova T. Hozirgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganishda oʻquvchilar soʻz boyligini oshirish. T.: "Xalq merosi", 2000, 7-b.

anglamaydi. Shunga ko'ra, bu so'zni darhol izohlab, lug'at daftariga yozdirib qo'yish lozim. **Maqom.** 1) joy, o'rin, turar joy; 2) daraja, bosqich; 3) musiqada asosiy kuy, ohang. O'quvchi ana shu so'zning ma'nolarini yaxshi anglasagina, «Ularning oilasi shu maqomda yashaydi» jumlasini mazmunini to'g'ri anglashi mumkin. Ya'ni «Ularning oilasi shu joyda yashaydi» deb anglashga imkoniyat yaratilgan bo'ladi. **Maqom** so'zi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da quyidagicha izohlanadi: 1. Musiqiy ohang, kuy. 2. Tartib, o'lchov. 3. O'yinda usulga, ritmga mos qo'l, oyoq harakati. 4. Xatti-harakat, usul. 5. O'rin, joy (kam qo'llaniladi). 6. Martaba, mavqe (kam qo'llaniladi).

Darslikda ilova qilingan lug'atlardan foydalangan holda, avvalo, har bir o'qituvchi o'zi uchun metodik qo'llanma shaklidagi lug'atlar to'plamini yaratishi kerak. So'ng dars davomida o'quvchilar tomonidan yuritiladigan «Lug'at daftariga»ga kerakli so'zlar yozib borilsa, ular darslikda berilgan mashklarni, vazifa va topshiriqlarni bajarish uchun tayanch material bo'ladi. Lug'at daftaridagi so'zlarni ko'paytirish maqsadida guruhlararo, sinflararo tashkil qilingan musobaqalar o'quvchilarni mustaqil ishlashga, kutubxonalardan foydalanishga o'rgatadi, kitobga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Lug'atlar turli - tuman bo'lgani kabi ular bilan ishlash usullari ham xilma-xildir. Quyida bu lug'atlardan foydalanish tartibi xususida to'xtalishga harakat qilamiz:

«Imlo lug'ati» bilan ishlash. «Imlo lug'ati» o'quvchi ko'p murojaat qiladigan lug'atlardan biridir. Deyarli barcha til bo'limlarini o'rganishda «Imlo lug'ati»dan foydalanishga to'g'ri keladi. Masalan, «Fonetika» bo'limini o'rganishda ma'lum bir tovush ishtirok etgan so'zlar topish: *u-o', i-u, a-i* kabi tovush juftlari bilan farqlanuvchi so'zlar tanlash, ma'lum bir tovushlar tushib qolgan yoki shu tovushlar bilan tutagan so'zlar ro'yxatini tuzishda o'quvchi «Imlo lug'ati»ga murojaat etadi.

O'quvchilar «Imlo lug'ati» bilan ishlash malakalariga ham ega bo'lishlari lozim. O'quvchilar «Imlo lug'ati» bilan ta'minlangan bo'lsa, undan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Qomusiy va izohli lugʻatlar bilan ishlash. Qomus fanning hamma sohalarini oʻz ichiga olgan yoki biror soha boʻyicha keng, toʻliq maʼlumot beradigan lugʻat tarzidagi ilmiy toʻplamdir. Oʻquvchi juda koʻp savollarga undan javob topadi. Qomus oʻquvchilarning soʻz xazinasini yangi tushunchalar bilan boyitishda, bu tushunchalarni ularning nutqiy faoliyatiga koʻchirishda katta vazifa bajaradi.

Ona tili mashgʻulotlarida maktab oʻquvchilari uchun ixtisoslashtirilgan «U kim –bu nima?» (ikki tomli) qomusidan unumli foydalansa boʻladi. Oʻquvchilar ushbu qomusdan foydalanib, maʼlum bir sohaga oid tushunchalar roʻyxatini tuzishlari, bu tushunchalarning maʼnosini aniqlashlari, tushuncha va soʻz orasidagi farqni bilib olishlari mumkin.

Soʻzlarning maʼnolari faqat izohli lugʻatlarda sharhlanadi. Oʻquvchilar izohli lugʻatdan koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnosini bilib oladilar, berilgan soʻzga maʼnodosh, uyadosh, qarama-qarshi maʼnoli va zid maʼnoli soʻzlar topadilar. Oʻquvchilar bu lugʻatlarda ham soʻzlar alifbo tartibida joylashganini, otlar birlik sonning bosh kelishigi shaklida, sifatlar oddiy daraja shaklida, feʼllar - *moq* qoʻshimchasi bilan berilishini bilishlari zarur.

«Sinonim (maʼnodosh) soʻzlarning izohli lugʻati» ustida ishlash. Maʼnodosh soʻzlar maʼnolari bir-biriga yaqin soʻzlar sirasidir. Chunonchi, *yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor* kabi soʻzlar qatori shunday siralardandir.

Maʼnodosh soʻzlar qatorida bitta soʻz, albatta, umumiy maʼnoli, keng isteʼmoli soʻz boʻladi. Yuqoridagi siralarda **yuz** shunday soʻz sanaladi. Bunday soʻz maʼnodosh soʻzlar qatorining bosh, yetakchi yoki asosiy soʻzi sanaladi. Maʼnodosh soʻzlar qatoridagi boshqa soʻzlarning maʼnosi bosh soʻz maʼnosiga nisbatan sharhlanadi.

Maʼnodosh soʻzlar qatori lugʻatda bosh soʻz atrofida berilishi kerak va har bir maʼnodoshning maʼnosi qisqacha izohlanishi lozim. Chunonchi, yuz soʻzining maʼnodoshlari uyasi taxminan quyidagicha koʻrinishga ega boʻladi:

- bu soʻzlar sirasi lotin grafikasidagi **yu** harfi bobida berilishi lozim. Chunki qatorning bosh soʻzi **yuz yu** harfi bilan boshlanadi;

• qatordan keyin ma'nodosh so'zlarning umumiy ma'nosi tavsiflanadi. Chunonchi, yuz-bosh old qismining umumiy ko'rinishi. *Bet, aft, bashara, angor, turq* so'zlarida salbiy munosabat bo'yog'i oshib boradi. Masalan, ***Mastning betiga qaragim kelmaydi. Mastning aftiga qarab bo'lmas edi.***

Chehra-jamol-diydor so'zlarida ijobiy munosabat darajalanadi. Masalan, ***Uning quvnoq chehrasidan xursandligi bilinib turardi. Do'st jamoli tunni ham yoritadi*** kabi .

Shunday qilib, lug'at bilan ishlash ona tili mashg'ulotlarining tarkibiy qismiga aylanmog'i shart. Agar o'quvchilar qo'lida lug'at bo'lmasa, biz ularni shunday lug'atlar tuzishga o'rgatishimiz, qiziqtirishimiz zarur.

Jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida ta'lim vositalari tobora ko'paymoqda. Fan va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida EHM, lingafon texnikasi, o'quv filmlaridan foydalanishga ko'proq zaruriyat sezilmoqda.

O'qituvchi shuni unutmasligi lozimki, u ta'limning turli vositalariga murojaat etsa, mashg'ulotlarning samaradorligi shuncha ortadi; ona tili materiallarining puxta va ongli o'zlashtirilishini ta'minlash, nutqiy malakalarni takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Savol va topshiriqlar

1. Darslik nima?
2. Darslik qanday talablarga javob berishi kerak?
3. Ona tili darsliklarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Ona tili darsliklari qaysi tamoyil asosida tuziladi?
5. Ona tili darslarida qanday qo'shimcha vositalardan foydalaniladi?
6. Nima uchun lug'atlar ona tili ta'limining muhim vositasi deyiladi?
7. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» haqida nimalarni bilasiz?
8. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da so'zning qaysi tomoni izohlanadi?
9. Qanaqa lug'atlarni bilasiz? Nomlarini ayting.

10. O'quv lug'atlari deganda nimani tushunasiz?
11. So'zlarni to'g'ri yozish qaysi lug'at orqali aniqlanadi?
12. Qomusiy va izohli lug'atlarda so'zlar qanday izohlanadi?

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5–9-sinflar). Toshkent, 2010. 10–41-b.
2. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar (5–9-sinflar). (Tuzuvchilar: M. Abduraimova, G. Ziyodullayeva), Toshkent, «Sharq», 2010.
3. «O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati» (Tuzuvchilar: T. Tog'ayev, G. Tavaldiyeva, M. Akromova. Toshkent, «Sharq», 2004).
4. Abdulhatova R., Yusupova T., Dosanov K. Til ta'limida uzviylik va uzluksizlik. Toshkent, 2008.
5. Alavutdinova N. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish yo'llari. Toshkent, 2005, 36.
6. Axrorov B., Baxronov A. O'zbek tili darslarida kompyuterlardan foydalanish. «Til va adabiyot ta'limi», 1993, 1-son, 17 – 20-b.
7. Rustamov A. So'z xususida so'z. Toshkent, 1987.
8. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi», 2006, 54–56-b.
9. To'xliyev B., Inog'omova R., Abdulhatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. Toshkent, 2008, 22–23-b.
10. To'xtamirzayev M. Til ta'limida televideniya dan foydalanish. «Til va adabiyot ta'limi», 1992, 3–4-qo'shma sonlar, 8–10-b.
11. G'afforov O. Darsda perfokartalardan foydalanish. «Til va adabiyot ta'limi», 1992, 1 - son, 16 – 17-b.

12. G‘ulomov A. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. Toshkent, «O‘qituvchi», 1987, 115–140-b.

13. G‘ulomov A. IV sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari. Toshkent, «O‘qituvchi»,1980.

FOR AUTHOR USE ONLY

IKKINCHI BO‘LIM ONA TILI BO‘LIMLARINI O‘QITISH METODIKASI

Tayanch tushunchalar:

Muqaddima, izchil kurs, fonetika, talaffuz va imlo, nutq tovushlari va harflar, ng tovushining talaffuzi va imlosi, x va h tovushlarining talaffuzi va imlosi, f tovushi va harfi, j tovushi va harfi, unlilar talaffuzi va imlosi, ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi, qo‘sh undoshlar talaffuzi va imlosi, tutuq belgisi, uning talaffuzi va imlosi, bo‘g‘in, tovushdosh so‘zlar ustida ishlash, so‘zlarning ma‘no nozikligi ustida ishlash.

«MUQADDIMA» BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI

Ona tili kursining «Muqaddima» va «Izchil kurs»ga ajratilish sabablari. Ma‘lumki, V–IX sinflarda ona tili o‘quv materiallari bosqichli ketma-ketlik, shakl va mazmun aloqadorligi, tilshunoslik bo‘limlarining o‘zaro zich bog‘liqligiga asoslangan holda berilgan. Bitta eng oddiy sodda yig‘iq gapda tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik qurilishiga oid barcha hodisalarni kuzatish mumkin. Modomiki, shunday ekan, o‘quvchilarni tildan yaxlit bir tizim sifatida foydalanish, matn ustida ishlash, fonetik, leksik, morfologik hodisalarni nutqda qo‘llashga o‘rgatuvchi shunday umumlashtiruvchi bo‘lim o‘ta zarurdir.

«Muqaddima» bo‘limi o‘quvchilarni tilning sintaksis va punktuatsiya, mustaqil va yordamchi ma‘noli so‘zlar, so‘z tarkibi yuzasidan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishni ko‘zda tutadi. Bu bo‘lim til, uning barcha bo‘limlari, vosita va birliklari o‘zaro uzviy bog‘langanligini, ma‘lum bir fikrni ifodalashda tilning ko‘p vositalarga egaligini tushunishga, uning mohiyatini anglashga yordam beradi. O‘quvchi mazkur bo‘limni o‘rganish natijasida tilni yaxlit bir hodisa sifatida qabul qiladi. Shuning uchun bo‘laklarni butunga aylantirishdan ko‘ra butunni bo‘laklarga aylantirish ancha oson. Shu bois bir butunlikni tashkil

etgan «Muqaddima» bo‘limi o‘rganilgandan keyin tilning fonetikasi, leksikasi va morfologiyasini o‘rganish ancha osonlashadi.

«Muqaddima» bo‘limining mazmuni. «Muqaddima» bo‘limi o‘quvchilarni sintaksis va punktuatsiya, fonetika, mustaqil hamda yordamchi so‘zlar va leksikani alohida-alohida bo‘lim sifatida o‘rganish uchun dastlabki zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantiradi.

O‘quvchi «Muqaddima» bo‘limi orqali ona tilidan o‘rganiladigan bilimlarning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini, har bir mavzu bir halqa bo‘lib, bu halqalar bilim zanjirini hosil qilishini uqib olishi shart. O‘quvchi har bir mavzuni puxta o‘rganishi va o‘z «shaxsiy mulki»ga aylantirishi kerak. Bilim, malaka va ko‘nikmalar halqalardan iborat zanjirga o‘xshashini, har kun olinadigan yangi bilim halqalari oldingi halqalarga bog‘lanishi lozimligini o‘quvchi teranroq anglab etmog‘i lozim.

«Sintaksis» bo‘limini o‘rganishda eng muhim masalalardan biri «kesim–gap markazi» degan tushunchani o‘quvchilar ongiga singdirishdir. Buning uchun ular *bordi, yozdik, oladilar, bajaramiz* singari so‘zlar tanlab, bu so‘zlarni shaxslar bo‘yicha tuslab, shaxsga ishora qiluvchi qo‘shimchani aniqlaydilar (masalan, *o‘qidim–men o‘qidim*), so‘z o‘zagiga shaxs, son, zamon qo‘shimchalarini qo‘shib kesimlar hosil qiladilar, shaxs olmoshlarining ma‘nolarini tushuntiradilar.

Ikkinchi bosqichda ixcham gaplarning egasini tiklash va ularni sodda yig‘iq gaplarga, uchinchi bosqichda ikkinchi darajali bo‘laklar qo‘shish orqali sodda yoyiq gaplarga aylantirish ustida ish olib boriladi.

«Muqaddima» bo‘limi gap bo‘laklari xususida ma‘lumot berishni ham ko‘zda tutadi. Dastur talabiga ko‘ra avval hol, keyin to‘ldiruvchi va so‘ngra aniqlovchi o‘rganiladi. Chunki kesimdan savol berganda hol va to‘ldiruvchi hisobidan sodda yig‘iq gaplar kengaytiriladi. Aniqlovchi esa gap kengaytiruvchisi emas, balki so‘z kengaytiruvchisidir.

Gapni berilgan qoliplar asosida kengaytirish nutqni rivojlan-tirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar «Gap qoliplari» mavzusini o‘rganish jarayonida ikki xil gap qolipiga duch kelishadi:

1. So‘roqlar yordamida berilgan gap qoliplari (masalan, qanday? nima? qachon? nima qildi? kabi).

2. Ramzlar orqali berilgan gap qoliplari.

«So‘z birikmasi» mavzusini o‘rganishda aniqlovchili birikmalar, to‘ldiruvchili birikmalar, holli birikmalar hosil qilish yoki aralash qolda berilgan birikmalarni muayyan birikmalarga ajratish, so‘z birikmalaridagi hokim va tobe so‘zni aniqlash singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilar nutqini rivojlantirish uchun o‘ta muhimdir.

«Undalma» mavzusini o‘rganishda asosiy e‘tibor undalmalarning gapdagi o‘rni, ularning imlosi va ohangi ustida ishlashga qaratiladi.

«Uyushiq bo‘laklar» mavzusini o‘rganishda berilgan so‘roq gaplar yordamida uyushiq bo‘lakli darak va undov gaplar hosil qilish, uyushiq egalar, uyushiq hollar, uyushiq to‘ldiruvchilar, uyushiq aniqlovchilardan foydalanib matnlar hosil qilish, uyushiq bo‘laklarda qo‘llaniladigan tinish belgilari va bunday gaplarni o‘qish ohangi ustida ishlashga e‘tibor kuchaytiriladi.

«Muqaddima» bo‘limining 2-qismi mustaqil va yordamchi so‘zlarga oid bo‘lib, bu bo‘limni o‘rganish natijasida o‘quvchilar so‘zlarni fe‘llar, otlar, sifatlar, sonlar, ravishlar, olmoshlar; ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar kabi guruhlarga ajrata oladigan bo‘lishlari lozim.

Yordamchi so‘zlarning o‘quvchilar nutqida tez-tez qo‘llanilishini nazarda tutib, mazkur bo‘limni 5 - sinfda o‘rganish ma’qul. Mazkur mavzularni o‘rganishda asosiy e‘tibor bu so‘zlarni gap tarkibida qo‘llashga qaratiladi. Ayniqsa, sodda gap juftlarini bog‘lovchilar yoki yuklamalar vositasida bog‘lab, ularni bir gapga aylantirish, gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirish (masalan, *Yomg‘ir ham yog‘madi, havo ham ochilib ketmadi – Na yomg‘ir yog‘di, na havo ochilib ketdi*) singari ijodiy-amaliy ishlar nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun o‘ta muhimdir.

«Leksikologiya» 5-sinfda alohida bo‘lim sifatida o‘rganilsa-da, ammo «Muqaddima» bo‘limida so‘zning ma’nosi, uyadosh so‘zlar, ma’nodosh so‘zlar, zid ma’noli so‘zlar, shakldosh so‘zlar, iboralar va tasviriy ifodalarga oid o‘ta zaruriy ma’lumotlar berish ko‘zda tutilgan. Buning asosiy sababi shundaki, bosqichli ketma-ketlik prinsipining talabiga muvofiq oldingi bo‘limda o‘rganilgan bilimlar keyingi

bo'limni o'rganish jarayonida mustahkamlanib, takomillashtirilib boriladi. Modomiki, «Fonetika» bo'limi «Muqaddima» bo'limidan keyin o'rganilar ekan, tovush juftlari bilan farqlanuvchi so'zlar, tovushdosh so'zlar ustida ish olib borishda so'zlarning ma'nosini sharhlash ehtiyoji yuzaga keladi. Buning uchun o'qituvchi «Muqaddima» bo'limidan berilgan ma'lumotlarga tayanib ish ko'radi.

«Muqaddima» bo'limini o'rganishda o'quvchilar duch keladigan atamalar ustida ishlash. O'quv fanining puxta o'zlashtirilishini ta'minlash uning atamalarini tushunishdan boshlanadi. «Muqaddima» bo'limini o'qitishda asosiy e'tibor ona tili tizimining asosiy qurilish birliklari, ularning mohiyati va ilmiy atamalarda nomlanishini singdirishdan iborat. Mazkur bo'limda o'quvchilar so'z tarkibi, kesim, ixcham gap, ega, sodda yig'iq gap, sodda yoyiq gap, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi, gap qoliplari, so'z birikmasi, uyushiq bo'laklar, undalma, ko'chirma gap, qo'shma gap; mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar; bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar; uyadosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar, iboralar, o'zakdosh so'zlar, qo'shma so'zlar, juft so'zlar, takroriy so'zlar singari zaruriy atamalarga duch keladilar.

O'quvchi bu atamalarning ma'nosini puxta bilsagina, o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tushunib yetadi va o'zi mustaqil faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Atamalar ustida ishlash quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Darslikning oxirida berilgan «Izohli lug'at»dan foydalanish orqali.

Ma'lumki, «Izohli lug'at»dan nafaqat so'zlar, balki zaruriy atamalarning ma'nolari ham o'rin olgan. Masalan, egaga quyidagicha izoh berilgan: Ega – kesim tarkibidagi shaxs-son ma'nolarini izohlab keluvchi gap bo'lagi.

2. Mavzu tarkibidagi «Bilib oling», «Esda tuting» ishoralariga e'tiborni qaratish orqali. Masalan, darslikda «Sodda yoyiq gap» mavzusi yuzasidan bir qator ijodiy-amaliy topshiriqlar berilgandan so'ng quyidagi ta'rif berilgan: ega va kesimdan tashqari yana boshqa bo'laklar bilan kengayadigan gap yoyiq gap deyiladi. O'quvchilar mazkur atamaning ma'nosini ana shu berilgan ta'rifdan bilib oladilar.

Atamalar o'quvchilar tomonidan ham izohlanishi mumkin. Ular bir qator ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajargandan so'ng o'zlari berilgan atamaning ma'nosini sharhlaydilar.

5-sinfдан boshlab o'quvchilar zaruriy atamalar yon lug'atini tuzish va undan foydalanishga o'rgatib borilsa, bu murakkab ishni amalga oshirish ancha yengil kechadi.

«FONETIKA» BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI

Maktabda «Fonetika» bo'limini o'qitishning maqsad va vazifalari.

«Fonetika» bo'limi 5-sinfda o'rganiladi va u tilning tovushlar tizimini o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga unli va undosh tovushlar, ayrim unlilar va ayrim undoshlarning imlosi, alifbo tartibi, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo'g'in, urg'u singarilar xususida ayrim zaruriy ma'lumotlar berilgan. Ammo 5 - sinfda «Fonetika»ni yaxlit, bir butun bo'lim sifatida o'qitish ko'zda tutiladi. Mazkur bo'lim o'z zimmasiga quyidagi vazifalarni oladi:

- o'quvchilarni adabiy talaffuz me'yorlariga o'rgatish;
- imlo savodxonligini oshirish maqsadida ularni zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar silsilasi bilan qurollantirish;
- so'z zaxirasini oshirish; so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini rivojlantirish;
- badiiy o'qish malakalarini takomillashtirish;
- fonetikadan fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarda turli lug'atlar va ma'lumotnomalar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish.

Maktab «Fonetika» kursining mazmuni va uni o'qitish metodikasi.

«Fonetika» bo'limining izchil kursi «Fonetika va grafika», «Nutq tovushi va harf», «Unli tovushlar», «Undosh tovushlar», «Nutq a'zolari», «Lab tovushlari», «Til

tovushlari», «Burun tovushlari», «Bo‘g‘iz tovushi», «Nutq tovushlarining ma‘no farqlash vazifasi» singari mavzularni o‘z ichiga qamrab oladi.

«Nutq tovushi va harf» mavzusini o‘tishda o‘qituvchi ayrim so‘zlarni o‘quvchilar diqqatiga havola etib, bu so‘zlardagi tovushlarning talaffuzini qiyoslash, unlilar va undoshlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning talaffuzida ishtirok etadigan nutq a‘zolarini belgilashni topshirishi mumkin. Kuzatishlar asosida o‘quvchilar nutq tovushlarini hosil qilishda o‘pka, tovush paychalari, bo‘giz, og‘iz bo‘shlig‘i, til, lablar, tishlar, pastki va yuqori jag‘lar, burun ishtirok etishini aniqlaydilar. Shu o‘rinda tovushlarning hosil bo‘lish o‘rinlari aks ettirilgan rasmlar yordamida yuqorida tilga olingan nutq uzvlarining qayerda joylashganligi va tovushlarning qayerda hosil bo‘layotganligi aniqlanadi.

O‘quvchilar nutq tovushlari xususida zaruriy bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan qurollantirilgach, tovushning yozuvdagi aksi – harf haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar va «O‘zbek alifbosi» mavzusi o‘rganiladi. Bu mavzuni o‘rganishda boshlang‘ich sinflarda egallangan bilimlar takrorlanadi; alifboni yoddan bilishning ahamiyati xususida savol-javob o‘tkaziladi va berilgan so‘zlarni alifbo tartibida tez joylashtirish bo‘yicha musobaqalar tashkil etiladi. Mazkur mavzuni o‘rganishda, ayniqsa, lug‘atlar bilan ishlashga alohida e‘tibor berishga to‘g‘ri keladi. Zero, 5-sinf o‘quvchisi «Imlo lug‘ati»dan zarur so‘zni yarim daqiqada topa olishi lozim.

Mashg‘ulot «Alifboni yoddan bilish nega zarur?» mavzusida matn yaratish bilan yakunlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

«Unli va undosh tovushlar» mavzusini o‘rganishda o‘quvchi-larning egallagan bilimlariga asoslangan holda quyidagi savollar o‘rtaga tashlanadi:

1. *a, i, e, o, u, o‘* tovushlarining talaffuzi *b, v, g, d, z, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x* singari tovushlarning talaffuzidan nima bilan farq qiladi?

2. Qaysi tovushlar faqat ovozdan, qaysilari ovoz va shovqinning ishtirokidan va qaysilari faqat shovqindan iborat?

Unli va undosh tovushlarni o‘rganishda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning imlo savodxonligini yaxshilash, ularning so‘z boyligini oshirish, so‘z ma‘nolarini

farqlash, undan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini kengaytirish, talaffuz me'yorlarini shakllantirish ustida ishlashga qaratiladi.

Unli tovushlar va ularning imlosi xususida o'quvchilarda zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida matndan *a, i, o', u, o, e* harflari ishtirok etgan so'zlarni ajratish, ularning talaffuz xususiyatlarini sharhlash; *i-e, u-o', i-u, a-o* singari tovush juftlari bilan farqlanuvchi so'zlar topish va ularni izohlash; birinchi bo'g'inida *u, o'*, ikkinchi bo'g'inida *u* yoki *i* kelgan so'zlar talaffuzi, imlosi va ma'nosi ustida ishlash (urush–urish, tushum–tushim kabi); *i-u* tovushlari (harflari) tushib qoladigan so'zlar ro'yxatini tuzish; *k, g', h, x* tovushlari (harflari) va *k, g, y* tovushlari (harflari) bilan yonma-yon kelgan *a, i, u* tovushlarining talaffuz xususiyatlari ustida ishlash; matnda *o, e* tovushlari ishtirok etgan so'zlarni ajratish va tovush hamda harf orasidagi munosabatlarni izohlash; *o-a* bilan farqlanuvchi so'z juftlari (*ana-ona, ata - ota* kabi) tanlash, ular ishtirokida gaplar tuzish, *i, e* harfi bilan farqlanuvchi so'z juftlari tuzish (*ish-esh, bil-bel, tish-tesh* kabi), ular ishtirokida gaplar tuzish singari ishlar ko'zlangan maqsadga erishishning eng samarali usulidir.

«Fonetika»ni o'qitishda o'quvchilarning so'z boyligi ustida ishlash imkoniyatlari. Ona tilning «Fonetika» bo'limini o'qitish ham boshqa til bo'limlari singari avvalo amaliy maqsadlarni ko'zlaydi. Ana shu amaliy maqsadlardan biri o'quvchilarning so'z boyligini oshirishdir. Bu muhim ish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

«Fonetika» garchand tilning tovush tizimi bilan ish ko'rsa-da, ammo o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, tez va to'g'ri o'qish malakalarini takomillashtirish, fikrni ifodalashda tovushlarning boy imkoniyatlaridan foydalanish, matn yaratishga o'rgatish diqqat markazida bo'lishi lozim. Bu quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

Tovushdosh so'zlar ustida ishlash orqali. Tovushdosh so'zlar bir-biridan atigi bitta tovush bilan farqlanuvchi, turli xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardir. Har bir unli va undosh tovushning talaffuzi, imlo xususiyatlari o'rganilgach, bolalar berilgan so'zlarga tovushdosh so'zlar tanlashlari va ularning ma'nolarini

izohlashlari mumkin. Masalan, *ber-bur-bor-bo'r*; *loy-moy-soy-toy-boy-voy-yoy-hoy* va h.k.

O'quvchilar nutqini tovushdosh so'zlar bilan boyitishda, ayniqsa, tovush juftlari ustida olib boriladigan ishlar yaxshi samara ko'rsatadi. Chunonchi, *u-o'* (*un-o'n, ul-o'l, o'r-ur, uq-o'q, bur-bo'r, tur-to'r, sur-so'r, qur-qo'r, yul-yo'l yuq-yo'q, qul-qo'l, yundi-yo'ndi*; va h.k.) *u-i* (*bur-bir, sur-sir, tur-tir* va h.k.); *u-o* (*bur-bor, tur-tor, qur-qor* va h.k.); *i-e* (*bir-ber, tir-ter, it-et* va h.k.); *p-b* (*pir-bir, pol-bol, put-but* va h.k.) kabi so'z juftlari ustida ishlash o'ta foydalidir.

2. So'zlarning ma'no nozikligi ustida ishlash orqali. Ma'lumki, og'zaki nutqda unli yoki undosh tovushlarni cho'zish vositasida ma'noni kuchaytirish (masalan, *ka-tta bino, ki-chkina bola, qa-ri chol* kabi), ishonchsizlikni ifodalash (masalan, *yo'-q-q, kela-r-r, bora-r-r* kabi), yalinish-erkalash (masalan, *oyijo-nim, buvijo-n* kabi) ma'nolarini berish mumkin. Qat'iylikni ifodalash maqsadida so'z oxiridagi undoshni qattiq talaffuz etish usulidan foydalanilsa, ishonchsizlik ma'nosini berish uchun oxirgi undosh tovush talaffuzini susaytirishdan foydalaniladi. Masalan, «*Yo'qq, yo'qq. U ko'rmadi*», –deb qichqirdi bola va «*Yo'q,–dedi ishonchsizlik bilan Salima*» gaplaridagi *yo'q* va *yo'qq* so'zlarining ma'nosida farq bor. Fonetikani o'rganish jarayonida so'zning bunday ma'no nozikliklari ustida ishlash bolalarning nutqini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi.

Ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali. O'qituvchi «Fonetika» bo'limidagi deyarli har bir mashq ustida ishlashda ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar ustida ishlash imkoniyatiga ega. Masalan, *ng* tovushining imlosi ustida ish olib borilar ekan, o'quvchilar *ohangi, tengi, tonggi, manglay* singari so'zlarni bo'g'inlarga ajratish bilan bir qatorda ularga ma'nodoshlar ham topishlari mumkin. Chunonchi, *ohang-sas; teng- barobar-tengqur; tonggi-sahargi, nahorgi; manglay-peshana* kabi. Tovush juftlari bilan farqlanuvchi so'zlar ustida ish olib borilayotganda ham shunday ishlar davom ettirilishi mumkin. Masalan, *i- u* unlisi bilan farqlanuvchi so'zlar ro'yxat qilinar ekan, (masalan, *urish-urush, yumish- yumush, yog'di- yog'du, tushim- tushum* va h.k.) bu so'zlarga ma'nodoshlar, uyadoshlar, zid ma'noli so'zlar topish ustida ham

ish olib boriladi. Chunonchi, *urish– do‘pposlash; urush– jang; urish – janjal– ko‘ngilqorachilik; urush – tinchlik* kabi.

Olinma so‘zlar ustida ishlash orqali. Ma’lumki, o‘zbek tilining tovush tizimi ustida ish olib borilar ekan, o‘quvchilar juda ko‘p olinma so‘zlarga ham duch keladilar. Shubhasiz, bu so‘zlarning imlosi va talaffuzi ustida ishlash ularning ma’nosi va nutqda qo‘llanilishi ustida ishlash bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Chunonchi, *j* harfi va tovushi o‘rganilar ekan, *jo‘ra, jo‘ja, juda* singari sof o‘zbekcha so‘zlar bilan bir qatorda arabcha, forscha va ayniqsa, rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan kirgan so‘zlar (masalan, *janr, federativ, fortepyano, film, filmoskop* va h.k.)ga ham duch kelinadi. «Imlo lug‘ati»dan shunday so‘zlarni topish, ularni ro‘yxat qilish, ma’nosini sharhlash o‘quvchilar nutqini olinma so‘zlar bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega.

«Fonetika»ni o‘rganish jarayonida o‘qituvchi keyingi yillarda fan va texnika taraqqiyoti, iqtisodiy aloqalarning rivoji tufayli tilimizga kirib kelayotgan yangi so‘zlarning o‘quvchilar so‘z zaxirasiga kirishiga alohida e’tibor qaratish lozim. So‘zlarni ma’lum bir belgilarga qarab muayyan guruhlariga ajratish ham ularning so‘z zaxirasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, «Imlo lug‘ati»dan foydalanib, *t, k, d, s, r, l* tovushlari juftlanib kelgan (*katta, arra, to‘qqiz* va h.k.) so‘zlar ro‘yxatini tuzish nafaqat o‘quvchilarning imlo savodxonligini yaxshilashga, balki ularning so‘z boyligini oshirishga ham yordam beradi.

Gap va matn ustida ishlash orqali. Fonetikani o‘qitishda tilning tovush tizimi ustida ishlash o‘quvchilarning gap qurish va matn yaratish ko‘nikmalari ustida ishlash bilan qo‘shilsagina mazkur bo‘limni o‘qitishning samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Mazkur bo‘limni o‘rganishda o‘quvchilar berilgan yoki hosil qilingan so‘zlar yordamida gaplar tuzishlari, muayyan uyadagi so‘zlar ishtirokida matn yaratishlari, matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirishlari mumkin. Chunonchi, bir tovush bilan farq-lanuvchi *tib–tip, bob–bop, sarv–sarf, bot–bod* singari so‘zlar yorda-mida gaplar tuzish (masalan, *Rahima bugun kitobning birinchi bobini o‘qib tugatdi–Bu ko‘ylak Rahimaga bop qilib tikilgan ekan*), bu so‘zlarga ma’nodosh va

uyadoshlar tanlash (masalan, *bob–bo‘lim–qism, bop–mos–yarashiqli; tib–hakim–tabib–vrach–medik–shifokor, tip–qahramon–shaxs–personaj–obraz* va h.k.) kabi ish usullaridan foydalansa bo‘ladi. Maktab ona tili kursining boshqa bo‘limlari singari «Fonetika»ni o‘qitishda ham matn ustida ishlash va matn yaratish malakalarini takomillashtirish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Darslikda mazkur bo‘lim bilan bog‘liq juda ko‘p ma‘rifiy matnlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar bu matnlar ustida ishlash orqali ham talaffuz va imlo me‘yorlarini puxtaroq bilib olish, ham matn yaratish malakalarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ana shu maqsadda o‘qituvchi matn mazmuni asosida so‘roq gaplar tuzish, matnga reja tuzish, matn mazmuni asosida savol-javob o‘tkazish, matn oxirida berilgan savollarga javob topish singari topshiriqlardan foydalanishi mumkin.

Ayniqsa, matn yaratish o‘qituvchining diqqat markazida turishi lozim. O‘quvchilarga «Nutq nima?», «Nutq tovushlari qanday hosil bo‘ladi?», «Qanday holatlarda bo‘g‘in qatordan qatorga ko‘chiril-maydi?» singari mavzularda ma‘rifiy matnlar tuzish yoki o‘rganilgan fonetik hodisalarni nutqda qo‘llab rasm asosida hikoya, turli mavzularda tasviriy, rivoya va muhokama matnlar yaratishni topshirsa bo‘ladi.

O‘zbek tilining tovush sistemasini o‘rganishda ona tili o‘qituv-chisi oldida turgan muhim vazifalarning biri o‘quvchilarning so‘z boyligini muttasil oshirib borishdir. Modomiki shunday ekan, fonetikadan tashkil etiladigan o‘yinlar, avvalo, o‘quvchilarda so‘z ehtiyojini yuzaga keltirishi, so‘zga chanqoqlik hissini tarbiyalashi zarur. Ana shu maqsadda tovushdosh so‘zlar topishni talab etadigan o‘yinlar ancha samarali natijalar beradi. Tovushdosh so‘zlar bir-biridan atigi bitta tovush bilan farqlanuvchi so‘zlar bo‘lib, o‘quvchi ayni bir tovushni o‘zgartirish orqali yangi so‘zlar hosil qiladi va ularning ma‘nolari ustida ishlaydi.

Masalan:

- 1) bir – ber – bur – bor – bur – bar;
- 2) bir – dir – kir – mir – tir – sir – pir – qir;
- 3) dor – bor – zor – kor – nor – tor – xor – qor

kabi soʻzlar tovushdosh boʻlib, ular bitta tovush bilan farqlana-yotgan soʻzlardir. Unli va undosh tovushlar ustida ishlayotganda «*Tovushdosh soʻzlar top*», «*Berilgan kataklarni tez toʻldir*», «*Tovush juftlari bilan farqlanuvchi soʻzlar roʻyxatini davom ettir*» kabi oʻyinlardan foydalanish mumkin. Tilga olinayotgan topshiriqlarning musobaqa tarzida tashkil etilishi uni qiziqarli oʻyinga aylantiradi va gʻoliblarni aniqlab, ularni ragʻbatlantirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Quyida ana shu oʻyinlardan namunalar keltiramiz:

«Berilgan soʻzlarga (masalan, koʻl, moʻl va h.k.) tovushdosh soʻzlar top» oʻyini. Oʻquvchilarga berilgan soʻzlarning birinchi, ikkinchi va uchinchi tovushlarini oʻzgartirib tovushdosh soʻzlar (masalan, *koʻl–kul, qul–qil, qol–hol* va h.k.) hosil qilish topshiriladi. Topshiriqni birinchi boʻlib bexato bajargan oʻquvchilar oʻyin gʻolibi sanaladi.

«Sirli kataklarni toʻldir» oʻyini. Oʻquvchilarga kataklarni toʻldirib, tovushdosh soʻzlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, «*toy*» soʻzini «*soy*» soʻzigacha davom ettirish talab etiladi. Namuna: *toy, loy, moy, voy, oy, choy, yoy, soy.*

Tavsiya etilgan soʻzlar:

- 1) bosh, tosh, osh, qosh, yosh, fosh;
- 2) bol, pol, tol, sol, qol, mol, hol, xol.

«Soʻz juftlarini davom ettir» oʻyinida oʻquvchilarga *sanʼat–sanat, talʼat–talat, qalʼa–qala, taʼna–tana, taʼb–tab* singari soʻzlar berilib, shunday soʻz juftlari tuzishni davom ettirish va ularning maʼnosini sharhlash topshiriladi. Berilgan soʻz juftlarini belgilangan miqdorga (masalan, 15-20 ta soʻz juft) etkazgan oʻquvchi gʻolib deb topiladi. Bu oʻyin oʻquvchilarni guruhlariga ajratib, sinf taxtasida ham bajartirilishi mumkin. Qatordagi har bir oʻquvchi doskaga chiqib, bitta soʻz jufti yozadi va boʻrni ikkinchi oʻquvchiga tutqazadi. Oʻyin shu tartibda davom ettiriladi.

«Ikkala boʻgʻinida bir xil unli boʻlgan soʻzlar roʻyxatini tuzing» oʻyinida birinchi boʻgʻinida ham, ikkinchi boʻgʻinida ham bir xil unli qoʻllaniladigan soʻzlarni (masalan, tutun, butun, uzun, quzgʻun, burgut, uygʻun, tuygʻun, mushuk, ustun, uygʻur, uchun, uzum, tushum va h.k.) topish va soʻzlar roʻyxatini muayyan

miqdorga yetkazish topshiriladi. Belgilangan miqdorda eng ko'p so'z topa olgan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladi.

«**Domino**» o'yinini quyidagicha o'tkazish mumkin: bir o'quvchi so'z aytadi, shu so'z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlangan so'zni boshqa o'quvchi aytishi kerak, bu o'yin shu tarzda davom ettiriladi. Namuna: *ishla–adolatli– insofli– ilojsiz–zamindor–rostgo'y – yilnoma – aqlli – irodali – izlanuvchanlik – kasbdosh – shaharlik – kuzgi – istiqbol*.

«**Nazoratchi harf**» o'yini. O'qituvchi belgilangan harf asosida o'quvchilarga so'z yozishni taklif etadi. Masalan, o'qituvchi: «**sh**» harfi birinchi turibdi, demak «**sh**» harfi so'z boshida kelishiga namunalar yozing», – deb aytadi. Ishni bajarish uchun aniq 2–3 minut vaqt belgilanadi. O'quvchilar yozadilar: *shodlik, shahar, shovqin, shalola, sharshara, shu'la, shuhrat, sharafli, shabnam* va h.k. Belgilangan vaqtda ko'p so'z yozgan o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi.

«**Doirada berilgan harflar asosida so'z tuz**» o'yini. O'quvchilarga doira ichida 6 ta harf taqdim etiladi. O'quvchilar shu harflar ishtirokida so'zlar hosil qiladilar. Belgilangan vaqtda ko'p so'z hosil qilgan o'quvchilar yoki guruh g'olib sanaladi. Bu o'yinni, ayniqsa, unli va undosh tovushlar o'rganilgandan keyin o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'quvchilar e'tiboriga *a, u, b, f, s, t* harflari berilgan bo'lsa, ular bu harflarni qatnashtirib *asab, bu, tuz, buta, aft, saf, bas, tub* kabi so'zlar hosil qiladilar.

«**Tovush juftlari bilan har bir so'zga ma'nodosh so'z top!**». Bu o'yinni tashkil etish uchun avval o'quvchilarga muayyan tovush juftli so'zlar hosil qilish (masalan, *b-p: bob-bop, t-d: tub-tup* va h.k.) topshiriladi, so'ngra bu so'zlarning har biriga ma'nodoshlar topish vazifasi yuklatiladi. O'quvchilar guruhlariga ajratilgan bo'lsa, har bir guruh muayyan so'zning barcha ma'nodoshlarini aniqlashadi.

Masalan, bob–bop: bob–bo'lim–qism;

bop– loyiq– yarashliq– mos;

tur (ot) –dur: tur–nav;

dur–marvarid–javohir.

Soʻzning barcha maʼnodoshlarini toʻgʻri topgan oʻquvchilar guruhi oʻyin gʻolibi sanaladi.

«**Soʻz ustuni**» oʻyini. Oʻqituvchi sinf taxtasi (doska)ga biror soʻzni yozadi va oʻquvchilarga uning har bir harfi bilan boshlanuvchi soʻzlar ustuni hosil qilishni taklif qiladi. Oʻquvchilar har toʻgʻri soʻz uchun belgilangan ballni oladilar, har bir xato uchun ball olib tashlanadi. Yoki bu topshiriqni kartochka tarzida mustaqil ish qilib topshirish ham mumkin, bu paytda oʻquvchilar topshiriqni bajarib, oʻqituvchiga topshiradilar. Vaqtni hisobga olib maʼlum minutda nechta soʻz yozishni oʻqituvchi bolalarga eʼlon qiladi va tartibni buzmay ulardan kartochkani terib oladi, tekshirib baholaydi.

O	N	A
obod	Navo	aql
ohang	Nizom	asar
ozod	Nazar	alla
odam	Nodir	aʼlo
odil	Nurli	ahd

«**Keyingi boʻgʻinni top**» oʻyini. Berilgan boʻgʻinlar ishtirokida soʻz tuzish tushuntiriladi va qaysi oʻquvchi koʻp soʻz tuza olsa, oʻyin gʻolibi boʻladi. Masalan, *bo, bu, ju, ni, lo, sa, mu...*

- 1) bola, bobo, bozor, bodom;
- 2) boʻyin, boʻri, boʻliq, boʻzchi;
- 3) joʻja, joʻra, joʻxori, joʻna;
- 4) nima, nizom, nigoh, nido, nihol;
- 5) lola, loyiq, lochin, lozar, loviya, lozim;
- 6) savob, sarob, saxovat, sadoqat, sahifa...

«**Talaffuzdan adashmang**» oʻyini. Oʻqituvchi oʻquvchilarga *h* va *x* yoki *f-p* tovushlari ishtirok etuvchi soʻzlardan aytishni topshiradi. Oʻquvchilar 2 guruhga boʻlinib topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim soʻzni notoʻgʻri aytga oʻyindan chiqadi. Mavzu asosida soʻzni aytgan oʻquvchi shu soʻzni doskaga yozadi

va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtda eng ko'p to'g'ri so'z aytgan o'quvchi o'yinda g'olib hisoblanadi. Namuna:

Shoh – davlat boshlig'i, podshoh

Shox–novda, daraxtning shoxi.

Xil-xil – saralangan, tanlangan.

Hil-hil– ezilib pishgan.

Uhladi – xafa bo'ldi, «uh» tortdi.

Uxladi – uxlamoq, dam olmoq.

Hol – ahvol (hol)ni so'radi.

Xol – odam tanasida bo'ladigan xol.

«She'riy parchadagi qofiyadosh so'zlarni davom ettir» o'yini.

Novdalarni bezab g'unchalar,

Tongda aytdi hayot otini.

Va shabboda qurg'ur ilk sahar

Olib ketdi gulning totini.

Ushbu she'riy parchadagi *totini* va *otini* so'zlari qofiyadosh so'zlardir. O'quvchilar shunga mos qofiyali so'zlarni davom ettiradilar. Yoki boshqa she'riy parchalardan shunga o'xshashlarni topadilar.

Fonetikani o'rgatishda nasriy va she'riy asarlarni ifodali o'qish malakalarini shakllantirish yuzasidan tashkil etiladigan o'yinlar ham o'quvchilarga juda katta qiziqish bag'ishlaydi. Bu malakalarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida sinf o'quvchilarini 2–3 guruhga ajratib, har bir guruhdan ifodali o'qish malakalariga ega bo'lgan o'quvchilar aniqlanadi. Qaysi guruhda shu malakalarga ega o'quvchilar miqdori ko'p bo'lsa, o'sha guruh g'olib sanaladi.

Fonetikani o'rgatishda fonetik-stilistik malakalar ustida ishlash ham o'quvchining nutqiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bu malakalarni shakllantirishda so'zdagi unli yoki undosh tovushni cho'zish va so'zning ma'no nozikligini sharhlash, so'z oxiridagi muayyan bir tovushni qoldirish yoki uni orttirish hamda bu so'zning ma'no nozikligini izohlashga oid o'yinlardan

foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchilarga *oyijon va oyi-j-o-o-n, dada-a-a* va h.k. so‘zlar aytiriladi va bir-biriga taqqoslanadi.

Savol va topshiriqlar

1. «Muqaddima»bo‘limining asosiy mazmuni va mohiyatini izohlab bering.
2. «Muqaddima» bo‘limini o‘rganishda o‘quvchilar duch keladigan atamalar ustida qanday ishlar olib boriladi?
3. Maktabda «Fonetika» bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalarini aytg.
4. «Nutq tovushi va harf» mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatishda qanday ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin?
5. «Fonetika»ni o‘qitishda o‘quvchilarning so‘z boyligi ustida ishlash imkoniyatlari haqida gapiring.
6. Tovushdosh so‘zlar ustida ishlash bo‘yicha topshiriqlar tuzing.
7. Fonetikani o‘rganish jarayonida so‘zning ma‘no nozikliklari ustida ishlash o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishga nima sababdan ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi?
8. Fonetikani o‘qitishda tilning tovush tizimi ustida ishlash o‘quvchilarning gap qurish va matn yaratish ko‘nikmalari ustida ishlash bilan birgalikda olib borilsa, o‘qitishning samaradorligi yuqori bo‘lishini asoslab bering.
9. O‘zingiz «Fonetika» bo‘limini o‘rganish bo‘yicha o‘yin-topshiriqlar tuzing.

Mavzu bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Bobomurodova A. Ona tili ta‘limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish. Toshkent, «Musiqqa», 2008, 18–25-betlar.
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. Toshkent, «Ma‘naviyat», 2015.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. V.b. Ona tili. 5-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent, «Tafakkur», 2011, 207.
4. Ne‘matov H. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. Toshkent, «O‘qituvchi», 1992.
5. Ne‘matov H., G‘ulomov A. Fonetikaning nutq o‘stirishdagi roli. «Til va adabiyot ta‘limi», 1994, 2 – 3-qo‘shma soni.
6. Ne‘matov H., G‘ulomov A., Qodirov M., Abduraximova M. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. Toshkent, «O‘qituvchi», 2000 va keyingi nashrlar.

7. Nurmonov A., Rasulov R. O‘zbek tili jadvallarda. Toshkent, «O‘qituvchi», 1993.
8. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi», 2006.
9. G‘ulomov A, Ne‘matov H. Ona tili ta‘limi mazmuni. Toshkent, «O‘qituvchi», 1995.
10. G‘ulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. Toshkent, «O‘qituvchi», 1995.
11. Qosimova K. 5-sinfda lug‘at ustida ishlash. Toshkent, «O‘qituvchi», 1966.

«LEKSIKOLOGIYA» BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI

Tayanch tushunchalar:

Leksikologiya, so‘zning atash ma‘nosi, bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar, so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari, ma‘nodosh so‘zlar, uyadosh so‘zlar, shakldosh so‘zlar, paronimlar, o‘zbek tili leksikasining boyish manbalari, eskirgan so‘zlar, yangi so‘zlar, iboralar, tasviriy ifoda, atamalar, ilmiy atamalar, kasbiy atamalar, shevaga oid so‘zlar, olinma so‘zlar, lug‘at, lug‘atshunoslik.

Maktab ona tili kursida «Leksikologiya» bo‘limining tutgan o‘rni va uning vazifalari. O‘quvchilar «Leksikologiya» bo‘limi orqali tilning lug‘at boyligi bilan tanishadilar. Mazkur bo‘lim «Leksikologiya haqida suhbat», «So‘zning atash ma‘nosi», «Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar», «So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari», «Ma‘nodosh (sinonim) so‘zlar», «Ma‘nodosh so‘zlarda umumiy va xususiy ma‘nolar», «Ma‘nodosh so‘zlar qatorida bosh so‘z», «Uyadosh so‘zlar», «Shakldosh so‘zlar», «Paronimlar», «O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari», «Eskirgan so‘zlar», «Yangi so‘zlar», «Iboralar», «Iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan farqi», «Tasviriy ifoda», «Atamalar. Ilmiy atamalar», «Kasbiy atamalar», «Shevaga oid so‘zlar», «Olinma so‘zlar», «Lug‘at va lug‘atshunoslik», «Lug‘at turlari va ulardan foydalanish» singari mavzularni o‘z ichiga qamrab oladi.

Maktabda «Leksikologiya» bo‘limini izchil kurs sifatida o‘qitish juda katta ta’limiy ahamiyatga ega. Mazkur bo‘limni o‘qitishning ta’limiy ahamiyati shundaki, o‘quvchilar tilning asosiy birligi - so‘z haqidagi ta’limot bilan tanishadilar va ularning tilni bir butun tizim sifatida tushunishlari hamda o‘zlashtirishlariga imkon tug‘iladi. Zero, leksika tilning barcha bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shu bo‘limlarni o‘qitishda izchillik bilan amalga oshiriladi.

Maktabda «Leksikologiya» bo‘limini o‘qitishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad o‘quvchilarni o‘zbek adabiy tilining so‘z xazinasiga olib kirish, ularning so‘z zaxirasini oshirish va so‘zdan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iboratdir.

«Leksikologiya» bo‘limini o‘rganishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- so‘zning shakl va ma’no qirralarini tushunish;
- o‘quvchilar nutqidagi kamiste’mol so‘zlarni seriste’mol so‘zlarga aylantirish; ularning lug‘at zaxirasini yangi so‘zlar bilan boyitish;
- o‘quvchilarda amaliy-stilistik malakalarni takomillashtirish;
- nutq uslublarini farqlashga, ayni bir narsa, voqea-hodisani oddiy, badiiy va ilmiy uslublarda bayon qilishga o‘rgatish;
- nutq sharoitiga mos ravishda so‘z tanlash malakalarini kengaytirish;
- turli izohli lug‘atlar bilan ishlash malakalarini hosil qildirish.

«Leksikologiya» bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish imkoniyatlari. «Ona tili» kursining barcha sathlari qatori «Leksikologiya» bo‘limini o‘qitishda ham o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqi ustida ishlash ustivor yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Mazkur bo‘limda o‘quvchilar duch keladigan dastlabki muammo so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolaridir. Berilgan so‘z birikmalarini (masalan, *oltin haykal–oltin bosh–oltin boshqoq; temir yo‘l–temir odam–temir xotira* va h.k.) o‘z va ko‘chma ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratish, ularni o‘zaro qiyoslash asosida so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolariga ta’rif berish, berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil qilish, so‘zlarni ko‘chma ma’noda

qo‘llab matn yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

«Ma‘nodosh so‘zlar» mavzusini o‘rganishda berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan so‘zlarni ularning ma‘nodoshi bilan almashtirish, gapdagi so‘zlarni birin-ketin ma‘nodoshlari bilan almashtirib, ma‘no farqlarini izohlash, berilgan ma‘nodosh so‘zlarni ijobiy va salbiy bo‘yoqli so‘zlarga ajratish, murojaat so‘z birikmalari hosil qilish (masalan, *mo‘tabar murabbiyim, muhtaram ustozim, mehribon tarbiyachim, hurmatli muallimim* va h.k.), qarindosh-urug‘chilikka oid so‘zlarni (masalan, *akajon, opajon, otajon* va h.k.), qarindosh-urug‘ bo‘lmagan kishilarga nisbatan qo‘llab matn yaratish, oddiy va ko‘tarinki ma‘noli so‘zlardan foydalanib matn tuzish singari ijodiy–amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Topshiriq namunalari:

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarni ma‘no yaqinligiga ko‘ra juftlarga ajrating, ular orasidagi ma‘no nozikligini aniqlang.

Avlod, aybdor, yolg‘onchi, sababchi, beqaror, ahdlashmoq, aldoqchi, va‘dalashmoq, betayin, yolg‘on, bo‘hton, diyor, yolg‘iz, alanga, zim-ziyo, yorqin, kimsasiz, vatan, tuhmat, muhtoj, qorong‘ilik.

2-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarni qavsda berilgan so‘zlar bilan almashtirib, ma‘no farqlarini tushuntiring.

1. Bola vazifani tez tushundi (fahmladi, angladi, uqdi). 2. Pulni behuda sarflamang (sarf qilmang, xarajatlamang, xarj qilmang). 3. Ko‘k (osmon, samo) yuzini bulut qopladi (egalladi, qurshadi, to‘sdi, tutdi, bosdi).

3-topshiriq. Gaplarni o‘qing. So‘zlarni birin–ketin ma‘nodoshi bilan almashtiring.

1. Bahor erta keldi. 2. Oyim peshanamni siladi.

4-topshiriq. Ajratilgan so‘zlarni qavsda berilgan so‘zlar bilan almashtirib, ma‘no farqlarini tushuntiring. So‘zning ijobiy va salbiy bo‘yog‘iga e‘tibor bering.

1. Onaning **iltijosi** (zori, tavallosi, o‘tinchi) yurak (qalb, ko‘ngil)larni larzaga keltirdi. 2. Mastning **yuzi** (basharasi, turqi, angori, afti)ni ko‘rishga toqatim yo‘q. 3. Do‘stimning **ko‘rinishi** (avzosi) yaxshi edi.

«Ma‘nodosh so‘zlar» ustida olib boriladigan ijodiy-amaliy ishlar o‘yin tarzida tashkil etilsa, o‘quvchilarning bu topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish darajasi behad ortadi hamda o‘rganilayotgan til hodisalarini fahmlash imkoniyatlari yanada yuqoriroq bo‘ladi.

Berilgan so‘zlarni yoki gapdagi muayyan bir so‘zni uning ma‘nodoshi bilan almashtirish, gapdagi so‘zlarni birin-ketin ma‘nodoshlari bilan almashtirib, ma‘no farqlarini sharhlash (masalan, *Tongda turish–yaxshi odat. Yertalab barvaqt uyqudan uyg‘onish–ajoyib xislat. Subhidamda uyg‘onish–olijanob fazilat*), berilgan gaplarda ajratilgan so‘zlarni qavsda berilgan so‘zlar bilan almashtirib, so‘zning ijobiy yoki salbiy bo‘yog‘ini aniqlash, berilgan murojaat so‘z birikmalarining qatorini davom ettirish, oddiy bo‘yoqli so‘zlarni badiiy so‘zlar bilan almashtirish kabi o‘yin xarakteridagi ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish ijobiy natija beradi. Shu mavzuga oid o‘yin-topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

«**Nuqtalar o‘rnini so‘zlar bilan tez to‘ldir**» o‘yini. O‘qituvchi o‘quvchilar hukmiga ma‘lum bir umumiste‘mol so‘zni beradi-da, shu so‘zning barcha ma‘nodoshlari o‘rniga nuqtalar qo‘yib chiqadi. O‘quvchilar nuqtalar bilan ajratilgan nechta so‘z o‘rni bo‘lsa, uni ma‘nodosh so‘zlar bilan to‘ldirishadi. Masalan,

tabrikladi, ..., ..., ...;

sezdi, ..., ..., ...;

yorug‘, ..., ..., ...

Namuna: yorug‘–nurli–charog‘on–yorqin–munavvar–porloq–ravshan–nuraifshon. Nuqtalar o‘rnini ma‘nodosh so‘zlar bilan to‘ldira olgan o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi o‘yinda g‘olib sanaladi.

«**Mazmunan qarindosh, shaklan begona**» o‘yini. Bu o‘yinni tashkil etishda ham sinf o‘quvchilari guruhlariga ajratiladi. O‘yinni boshlagan qator (guruh) muayyan mavzuda gaplar tuzishadi, ikkinchi qator mazmunni saqlagan holda so‘zlarni ma‘nodoshlar bilan almashtirish orqali gap shaklini o‘zgartirishadi. Keyin

o'yinda vazifalar almashtiriladi. O'qituvchi har bir shakli o'zgartirilgan gap uchun ball qo'yib boradi va o'yin oxirida eng ko'p ball olgan guruh g'olib sanaladi.

«Sen qanday murojaat qilasan» o'yini. O'quvchilarga berilgan murojaat so'z birikmalari qatorini davom ettirish vazifasi yuklatiladi. Masalan, o'qituvchi tomonidan «Mehribon tarbiyachim» so'z birikmasi berilgan bo'lsa, o'quvchilar bu qatorni «Mo'tabar murabbiyim», «Muhtaram ustozim», «Aziz o'qituvchim», «Hurmatli muallimjonim», «Sevimli ustozim» kabilar bilan to'ldirishadi.

«Erkala va koyi» o'yini. O'qituvchi birinchi qatordagi o'quvchilarga ota-ona tomonidan kichik yoshdagi bolalarni erkalovchi so'zlarni, 2-qatorga dangasa bolalarni koyishni ifodalovchi so'zlarni ro'yxat qilishni topshiradi.

Erkalash va koyishni ifodalovchi so'zlarni ko'p topgan guruh o'yin g'olibi sanaladi. Namunalar:

Erkalashni ifodalovchi so'zlar:

oppog'im, do'mbog'im, toy-chog'im, kochog'im, ko'zmunchog'im, shirinim.

Koyishni ifodalovchi so'zlar:

yingga bug'doy to'lgurlar, bolasi, tushmagur-ey, pandavaqi bo'lma, landovur, lapashang, ovsar, dangasa, ishyoqmas.

«Dominanta» (asos so'z) o'yini. Bu o'yin ham sinonimlar o'rganilgach o'tkazilsa, o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo'ladi. O'qituvchi dominanta atamasi haqida tushuncha bergach, bir necha sinonimik qatorni o'quvchilarga yozdiradi va dominanta so'zlarni alohida ro'yxat qilishni topshiradi. Kim xatosiz aniqlab chiqsa, shu o'quvchi o'yin g'olibi bo'ladi.

Berilgan so'zlar:

- 1) sovg'a, hadya, tortiq, armug'on, tuhfa, in'om;
- 2) ovoq, tovush, un, sado, sas, nido;
- 3) begona, yot, o'zga, birov, kishi, notanish, ag'yor;
- 4) samo, ko'k, osmon, falak, gardun;
- 5) o'tinch, iltijo, iltimos, tavallo, zor;
- 6) xo'rak, emish, ovqat, taom, ne'mat, tamoq;
- 7) temperatura, harorat, taft, hovur;

- 8) jigarband, xesh, qarindosh, urug‘, avlod, tug‘ishgan, jigar, jigargo‘sha;
- 9) to‘zon, g‘ubor, chang, gard;
- 10) aqcha, yakan, pul, mullajiring;
- 11) ziyo, shu‘la, nur, yog‘du;
- 12) jinoyat, ayb, gunoh, yoziq;
- 13) narsa, buyum, mol, mato (matoh).

Dominanta so‘zlar: *sovg‘a, ovoz, begona, osmon, iltimos, harorat, qarindosh, chang, pul, nur, ayb, buyum, yuz.*

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish choralaridan biri uyadosh so‘zlar ustida ishlashdir.

Uyadosh so‘zlar bir mavzu, bir jins yoki turdagi so‘zlar bo‘lib, o‘quvchilarni har bir umumiy ma‘noli so‘zning xususiy ma‘nolari ustida ishlashga undaydi. Masalan, atoqli otlarning kishi nomlari, jug‘rofiy nomlar, tashkilot nomlari, lavozim nomlari, samoviy va fazoviy jism nomlari kabi bir qator uyalari mavjud.

O‘quvchilar nutqini uyadosh so‘zlar bilan boyitishning yo‘llari juda ko‘p. Masalan, gapda yoki matnda ajratilgan umumiy ma‘noli so‘zlarga xususiy ma‘noli so‘zlar topish, ma‘lum bir uyadagi so‘zlarning izohli lug‘ati yoki shu so‘zlarning ro‘yxatini tuzish, berilgan xususiy ma‘noli so‘zlarning umumiy ma‘nosini aniqlash, ayni bir so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari, ma‘nodoshlari, qarama-qarshi ma‘nolari va uyadoshlarni topish kabi mustaqil ish turlari o‘quvchilar nutqini bunday so‘zlar bilan boyitishda alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, berilgan matnda ajratilgan so‘zlarni ularning uyadoshlari bilan almashtirish, tavsiya etilgan uyadosh so‘zlar yordamida (masalan, osmon jismlari: *Quyosh, Oy, Mars, Yupiter* va h.k.) matn yaratish kabi amaliy ishlar o‘quvchilarning nutqiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Tabiat manzarasi (*bog‘, sahro, dala, o‘rmon, tog‘* va h.k.) tasvirini berish ularning uyadosh so‘zlardan nutqiy faoliyatda foydalanish malakalarini kengaytiradi.

Bu mavzuni o‘rganishda sinf o‘quvchilarini bir necha guruhga ajratib, aytiladigan so‘zlarni turar joy, yashash joyi, ta‘lim dargohi, dam olish joyi kabi guruhlariga ajratib yozish topshiriladi. So‘zlar: *shahar, uy, maktab, bog‘, qishloq,*

hovli, universitet, teatr, ko'cha, yotoqxon, vayrona, kinoteatr, mahalla, hovuz, o'lka, texnikum, ko'l... Birinchi guruh shu so'zlar orasidan faqat turar joylarni ifodalovchi so'zlarni ajratib yozishsa, 2-guruh dam olish joylarini, 3-guruh yashash joylarini, 4-guruh esa ta'lim dargohlarini ifodalovchi so'zlarni ajratib yozadi.

Keyingi bosqichda har bir guruhdagi so'zlar ro'yxati o'quvchilar tomonidan mustaqil holda davom ettiriladi va ular muayyan miqdorga etkaziladi.

Mazkur mavzuni o'rganishda har bir guruhga ma'lum bir umumiy ma'noli so'zlar berib, (masalan, *qovun, qush, gul, dorilar* va h.k.) uning xususiy ma'nolarini topish o'quvchilarga topshiriladi.

«**So'zdan marjon tizing**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi o'quvchilarga so'zlarning aralash to'plamini tavsiya etadi va uyadosh so'zlarni alohida, ya'ni marjon tizgandek yozishni aytadi. O'quvchilar yozishadi va navbat bilan o'qib berishadi. Qaysi o'quvchi tez harakat qilib, marjonni xatosiz tizib chiqsa, o'yin g'olibi bo'ladi.

Namuna: Tabiat manzarasiga oid so'zlar: *bog', dala, o'rmon, tog', qir, adir, tepalik* va h.k.

Gullarning nomlari: *karnaygul, gultojixo'roz, safsargul, nastarin, qalampirgul, atirgul, nilufar* va h.k.

Daraxt nomlari: *o'rik, olxo'ri, gilos, behi, tut, olma* va h.k.

Qovunning turlari: *anas, oqurug', ko'kcha, cho'gir, amiri, bo'rikalla, asati, handalak* va h.k.

Sabzavotlarning nomi: *kartoshka, sabzi, sholg'om, karam, piyoz, pomidor, rediska* va h.k.

Qushlarning nomlari: *laylak, turna, chumchuq, qirg'iy, lochin, burgut, kabutar, musicha, olaqarg'a, so'fitor'g'ay, kakku* va h.k.

Suvda suzuvchi jonivorlar: *baliq, kit, del'fin, akula, morj* va h.k.

Dorilarning nomlari: *analgin, pentalgin, sitramon, validol, levomisin, vitamin (darmon dori), no-shpa* va h.k.

O'quvchilarni qarama-qarshi ma'noli so'zlar (antonimlar) bilan tanishtirish maqsadida o'z va ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli

soʻzlar tanlash, shu asosda berilgan matn yoki gaplarni oʻzgartirish, matndan qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni ajratish, matndan qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar birga ishlatilgan holatlarni ajratib, ularning imlosini sharhlash, shunday soʻzlarni birga ishlatib yangi soʻzlar yasash, ular ishtirokida gap yoki matn yaratish, juft soʻzlarning yasalishi, maʼnosi va imlosini tushuntirish, juft soʻzlar hosil qilib matn yaratish, «Oʻzbek xalq maqollari» kitobidan qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar ishlatilgan maqollarni topish (masalan, *Yaxshi doʻsting kuldirar– yomon doʻsting kuydirar. Achchiq til–zahri ilon, chuchuk tilga–jon qurbon. Bir yaxshi gap esdan chiqmas–bir yomon gap* va h.k.), ularning maʼnosini sharhlash, maʼlum bir mavzuga oid shunday maqollar roʻyxatini tuzish kabi amaliy topshiriqlarni ishga solish mumkin.

Bulardan tashqari, nuqtalar oʻrniga zarur soʻzni topib qoʻyish (masalan, *Paxsa uy yozda..., qishda ... boʻladi. ... bilan yursang etarsan murodga, ...bilan yursang, qolarsan uyatga* kabi), gapda yoki matnda oʻz va koʻchma maʼnoda ishlatilgan soʻzlarga qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar tanlash, shu asosda matn va gaplarni oʻzgartirish (masalan, *1. Saylga hamma qatnashdi–Saylga katta-kichik qatnashdi. 2. Toʻyga hamma keladi–Toʻyga doʻst-dushman keladi* kabi), mustaqil ish turlari ham oʻquvchilar nutqini qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar bilan boyitishda muhim omil sanaladi.

Oʻquvchilar soʻz boyligini oshirishda shakldosh soʻzlar ustida ishlash ham muhim ahamiyatga ega. Matnda ajratilgan soʻzlarning (masalan, *ot, olma, yoz, chaqmoq* va h.k.) maʼnolari ustida ishlash, ularning har biriga maʼnodosh va uyadosh soʻzlar tanlash, tanlangan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish, soʻz oʻyinlari gashkil etish, tuyuqlarda ishlatilgan shakldosh soʻzlarning maʼnolarini sharhlash oʻquvchilar nutqini bunday soʻzlar bilan boyitishda muhim oʻrin egallaydi. Masalan, shoir Erkin Vohidovning quyidagi sheʼri oʻquvchilar hukmiga havola etiladi va **olma** soʻzining maʼnolarini sharhlash topshiriladi:

Meva berdi yetilib bu yil,

Men bogʻimga oʻtqazgan nihol.

Mevalarki, choʻgʻday qip-qizil,

Husni yoqut, shirinlikda bol.
Lablaridan tomizib sharbat,
Ol, e deydi, armonda qolma.
Lekin shunga hayronman faqat,
Nega uni deydilar: Olma?
Olma eksa bog‘iga har kim,
Mehmoniga ol, ye demasmi?
«Olma» mening mehmondo‘st xalqim,
Odatiga yot so‘z emasmi?
Meva berdi yetilib bu yil,
Men ardoqlab o‘stirgan nihol.
Olmalarki, shafaqday qizil,
Lekin nomi «olma» emas, ol.

Ma‘lumki, o‘quvchilar nutqida uchraydigan xatolarning talaygina qismini talaffuzi yaqin, ma‘nosi bir-biridan farq qiladigan paronim so‘zlar (masalan, *tanbur–tambur, tire–teri, azim–azm, dakki–daqqi, zirak–ziyrak, juda–judo* va h.k.) tashkil etadi. Shuning uchun «Leksikologiya» bo‘limini o‘rganish jarayonida bunday so‘zlarga alohida e‘tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. Berilgan paronim so‘zlar ma‘nosini sharhlash, ular yordamida gaplar tuzish, bu so‘zlarning ma‘nodoshlari va uyadoshlari ustida ishlash kabi amaliy ishlar o‘quvchilarning ana shunday so‘zlardan nutqda to‘g‘ri foydalanishlariga yordam beradi. Masalan, «dakki bermoq», «dakki yemoq» so‘z birikmalarini «*daqqi ot*», «*daqqi odam*» birikmalari bilan qiyoslang. *Dakki* va *daqqi* so‘zlarining tamomila boshqa-boshqa so‘zlar ekanligini isbotlang yoki *aro–ora–oro* so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing, ularning boshqa-boshqa so‘z ekanligini isbotlang. Bu so‘zlarning har biriga ma‘nodoshlar topishga harakat qiling, kabi.

«Leksikologiya» bo‘limining eng dolzarb muammolaridan yana biri atamalar masalasidir. Mazkur mavzuni o‘rganishda berilgan so‘zlarni qaysi fanga mansubligiga qarab guruhlariga ajratish, so‘z va atama orasidagi munosabatni aniqlash, uyadosh atamalar tanlash va ular yordamida matn yaratish singari

topshiriqlardan foydalaniladi. Ayniqsa, ma'lum bir fan sohasida tor, ko'pchilik odamlar boshqacharoq ma'noda keng qo'llaydigan so'zlar ustida ishlash, ularning tor va keng qo'llanish ma'nolari asosida gaplar tuzish (masalan, *Dehqon xalqi rizqini yerdan topadi–Quyosh sistemasining to'rtinchi sayyorasi Yerdir* va h.k.).

«Tabiatshunoslik», «Matematika», «Musiq», «O'zbekiston tarixi» darsliklaridan olingan ma'lum bir matnda fan sohasida xususiy–tor ma'noda qo'llanilgan so'zlarni ro'yxat qilish atamalar mohiyatini anglashga yordam beradi.

Mazkur mavzuni o'rganishda ma'lum bir qatordagi o'quvchilar ayni bir so'zni umumiste'mol (iste'mol doirasi keng) so'z sifatida qo'llab gaplar tuzishsa, ikkinchi qator shu so'zlarni tor ma'noda qo'llab gaplar tuzishadi. Namuna: 1. *Qo'y–qo'zilarni ko'paytirsak, go'sht–yog' mo'l bo'ladi. Ikkinchi ikkiga ko'paytirsak, to'rt bo'ladi.* 2. *Yer insonni boqadi, uni to'ydiradi. Yer o'z o'qi atrofida aylanadi.*

«Atamalar» mavzusini o'rganishda bolalarga yaqin bo'lgan kasb–kor yoki soha nomlari lug'atini tuzdirish juda foydali va samaralidir. Shuning uchun o'quvchilarga tanish yoki yaqin bo'lgan kasb–korga oid so'zlar (novvoylik, temirchilik, dehqonchilik va h.k.) ro'yxatini tuzish, ularning ma'nosini izohlash va shu so'zlar ishtirokida matnlar yaratishga oid topshiriqlar ancha samarali va foydalidir.

Olinma so'zlar ustida ishlash ham o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Bu mavzuni o'rganishda berilgan gaplar yoki matnlardan rus va o'zbek tillari uchun mushtarak bo'lgan so'zlarni ajratish, rus tili orqali xorijiy tillardan kirib kelgan so'zlarning ma'nosini sharhlash, o'zbek tiliga arab yoki tojik tillaridan kirgan so'zlarning imlosi va ma'nosi ustida ishlash, jurnal, gazetalardan muayyan matnni o'qib, ulardagi olinma so'zlarni aniqlash, rus tilidan, fors–tojik tilidan, arab tilidan kirgan so'zlarni alohida ro'yxat qilish, olinma so'zlardan foydalanib, gap va matnlar tuzish kabi amaliy ishlardan unumli foydalanish mumkin. Ayniqsa, turli sohalar bo'yicha olinma so'zlar ro'yxatini tuzish, imlosi murakkab bo'lgan olinma so'zlarni o'quvchilarning shaxsiy imlo daftarchalariga yozdirib borish, bu so'zlarning ma'nosi ustida ishlash, o'zbekcha–arabcha–tojikcha–ruscha ma'nodosh so'z qatorlari hosil qilish (masalan, *kishilik–odamiylik–*

insoniylik–gumanizm) singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

Olinma so‘zlar ustida ish olib borilar ekan, shuni ham uqtirish lozimki, ko‘pincha o‘quvchilar nutqda u yoki bu fikrni ifodalash uchun o‘zbekcha so‘z mavjud bo‘lsa-da, ammo ruscha so‘zlardan foydalanadilar. Bu holning oldini olish ko‘proq sinonimik qatorlardagi turli tillarga mansub so‘zlarni nutqiy faoliyatda qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchilar lug‘at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil etadi. Ibora, odatda, bir so‘zga teng keladigan so‘zlar qo‘shilmasi bo‘lib, u nutqimizni boyitadigan, go‘zallashtiradigan va ta’sirchanligini oshiradigan muhim vositalardan biri sanaladi. O‘quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadida berilgan iboralarni so‘zlar bilan almashtirish yoki, aksincha, so‘zlar o‘rnida iboralarni qo‘llash, iboralarning ma’nosini sharhlash, berilgan iboralarga yaqin ma’noli iboralar tanlash, berilgan iboralarga qarama-qarshi ma’noli iboralar tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Quyida ana shunday topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

1-topshiriq. Gap juftlarida ajratilgan qismlar orasida qanday ma’no munosabatlari borligini aniqlang.

Xaridor *xursand bo‘ldi*. Xaridorning *chehrasi ochildi*.

Bolalar *xafab bo‘lishdi*. Bolalarning *hafsalasi pir bo‘ldi*.

O‘quvchilar *quvonishdi*. O‘quvchilarning *boshi ko‘kka etdi*.

Sarvinoz bilan Sitora *yaqin do‘st*. Raxima bilan Nafisaning *oralaridssh qil o‘tmaydi*.

2-topshiriq. Berilgan iboralarning ma’nosini tushuntiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Mazasi qochdi, alamini oldi, baloga qoldi, bag‘ri tosh, bel bog‘ladi, vahima bosdi, gapi bir joydan chiqdi, eng shimardi, joni halqumiga keldi, kalavaning uchini topdi, nomi chiqdi, oq-qorani tanidi, tili bir qarich, xo‘rligi keldi, terisiga sig‘madi.

3-topshiriq. Berilgan so‘zlarni iboralar bilan almashtiring, ular yordamida gaplar tuzing.

Gapirmadi, toza, yuvosh, rahmdil, kutdi, qo'rqdi, chaqqon, ko'p gapirdi, quvondi.

Namuna: *gapirmadi–lom-mim demadi; ko'p gapirdi– jag'i ochildi* kabi.

4-topshiriq. Berilgan iboralarni qarama-qarshi ma'noli iboralar bilan almashtiring. *Ko'ngli oq –... Qo'li to'g'ri – ... Ko'zi och – ... Ko'ngli yumshoq – ... Ko'ngli butun–...*

5-topshiriq. Lug'at daftarchangizda «Iboralar» bo'limini oching. Unga badiiy asarlarni o'qiyotganingizda uchratgan iboralarni va ularning izohini yozib boring.

Tasviriy ifodalar ham nutq go'zalligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sanaladi. O'quvchilar *mexanik haydovchi* so'zini *po'lat ot chavandozi, zangori kema kapitani, televizor* so'zini *zangori ekran, oinayi jahon, shifokor* so'zini *salomatlik posboni, ko'mir* so'zini *qora oltin, pilla* so'zini *kumush tola, rassom* so'zini *mo'yqalam sohibi, qushlar* so'zini *qanotli do'stlar* kabi tasviriy ifodalar bilan almashtira olsagina, nutqda undan to'g'ri va o'rinli foydalanishga erishadi. O'quvchilar nutqini bunday vositalar bilan boyitishda predmet nomini tasviriy ifoda yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma'nolarini sharhlash, tasviriy ifodalarni qatnashtirib, gap va matnlar tuzish o'ta foydalidir.

«Leksikologiya» bo'limini o'qitishda o'quvchilarni aqliy faoliyat usullariga o'rgatish. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit maktab ta'limi oldiga mustaqil fikrlay oladigan, har qanday o'quv qiyinchiliklarini mustaqil engaladigan shaxsni tarbiyalashni bosh vazifalardan biri qilib qo'ydi. Ona tili ta'limi oldida turgan bu asosiy vazifa o'quvchilarda aqliy faoliyat ko'rsatishni, kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullaridan unumli foydalana olishni talab etadi. Aqliy faoliyat usullariga o'rgatish, avvalo, o'quvchini ta'lim jarayonining subyekti (faol ishlovchisi)ga aylantirishni taqozo etadi. O'quvchi ta'lim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlarga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil davom ettirish mumkinligini anglab etadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib, hukm va xulosalar chiqara oladi. O'quvchini ta'lim jarayonining subyektiga

aylanishi, o'qituvchini bu jarayondan chetda qoldirmaydi, aksincha, uning ta'sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o'qituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashki-lotchiga, bevosita o'quvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o'zaro chambarchas bog'langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta'lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e'tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko'zlangan natijani bermaydi. Til hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlan-ganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi.

«Leksikologiya»ning tekshirish obyektini tushunishda berilgan so'zlarni (masalan, *ko'k, daftar, ko'p, chiroyli, yozmoq, baland, bino, ko'tarilmoq, o'nta, qush uchmoq* va h.k.) ifodalab kelgan ma'nosiga qarab: narsa-buyum, belgi-xususiyat. miqdor va harakatni anglatgan so'zlar guruhiga ajratish, bu guruhlarni mustaqil davom ettirib, so'zlarning ma'nolarini sharhlash ijobiy natija ko'rsatadi. «So'zning o'z va ko'chma ma'nolari» mavzusini o'rganishda ham o'qituvchi o'quvchilarning aqliy faoliyat usullariga tayanib ish ko'radi. O'quvchilar oltin, temir, kumush singari modda- ma'dan nomlarining asl ma'nosini yaxshi bilishadi. Ulardan bu so'zlarni o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda qo'llab, so'z birikmalari hosil qilish (masalan, *oltin bosh, oltin kuz* va h.k.) talab etiladi. Shundan so'ng qiyoslash usulidan foydalanib, ular o'z va ko'chma ma'noli so'zlar singari guruhlariga ajratiladi va «so'zning o'z ma'nosi» hamda «so'zning ko'chma ma'nosi» singari tushunchalarga o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda ta'rif chiqariladi.

Berilgan so'zlarni o'z va ko'chma ma'noda qo'llab gaplar tuzish, o'qilgan badiiy asarlardan parchalar tanlab, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni aniqlash, hayvon nomlari, o'simlik nomlari yoki qarindosh-urug'chilikni ifodalovchi nomlarni ko'chma ma'noda qo'llab gaplar qurish va matnlar yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar ham o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga tayanib bajariladi. Ona tilidan har bir mashg'ulot til hodisalarining tahlili bilan boshlanib, matn yaratish bilan yakunlanishi kerak. Bu imkoniyat, ayniqsa, leksikologiyani o'rganishda

benihoya katta. O'quvchilar «so'zning o'z va ko'chma ma'nolari» xususida umumlashma hosil qilishgach, ulardan «Bozorda», «Avtobusda» singari mavzularda matnlar tuzish, qarindosh-urug'chilikka oid nomlarni ko'chma ma'noda qo'llash talab etiladi.

«Ma'nodosh so'zlar» mavzusini o'rganish ham o'quvchilarni fikrlashga undash orqali boshlanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun berilgan gaplardagi ajratilgan so'zlarni shu ma'noni ifodalovchi boshqa so'zlar bilan almashtirish(masalan, Toshkentimiz *chiroyli* shahar – Toshkentimiz *go'zal* shahar – Toshkentimiz *ko'rkam* shahar va h.k.), so'zlarni ma'no yaqinligiga ko'ra guruhlash (masalan, *abadiy–mangu–toabad–umrbod*), berilgan gaplardagi har bir so'zni birin-ketin uning ma'nodoshi bilan almashtirib, mazmunan yaqin, shaklan boshqa xil gaplar hosil qilish hamda ma'no farqlarini tushuntirish singari fikrlash faoliyatiga asoslangan mustaqil ish turlaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ayniqsa, so'zning ijobiy va salbiy bo'yog'i gap ma'nosiga qay darajada ta'sir etishini o'quvchiga anglatish uchun avval kuzatish va so'ngra qiyoslash usulidan foydalaniladi. Masalan, «Bola bu gapga kulib qo'ydi» jumlasidagi «*kulib qo'ydi*» birikmasi «*tabassum qilib qo'ydi*», «*tirjayib qo'ydi*» birikmalari bilan almashtirilsa, gap mazmunida ma'lum darajada yoki keskin o'zgarish yuz beradi. Gapning hosil bo'lgan bu shakllari o'zaro qiyoslanib, ma'nodagi farq aniqlanadi.

Berilgan murojaat so'z birikmalari qatorini davom ettirish ham o'quvchilar so'z boyligini oshirishda o'ta muhimdir. Agar ularga «*Mehribon onajonim*» yoki «*Aziz otajonim*» singari murojaat so'z birikmalari berilgan bo'lsa, bu birikmalarning har biri «*mushfiq volidam, mehribon onaizorim, uyqusiz tunlar hamdamim, oq sut bergan azizim, hayot bergan farishtam*» yoki «*tabarruk qiblagohim, ka'bai maqsudim, egilmas pushtipanohim, padari buzrukvorim, toji sarvarim*» singlarilar bilan davom ettiriladi. Bu o'rinda sinf zukkolariga qatorlarni mustaqil ravishda davom ettirish, qolganlariga esa aralash holda berilgan murojaat so'z birikmalarini ma'no yaqinligiga ko'ra guruhlash topshiriladi.

O'quvchilar nutqining sinonim so'zlarga qashshoqligi sababli, ular uchun mo'ljallangan maxsus «Sinonim so'zlarning izohli lug'ati» daftarini tashkil etish

hamda doimiy ravishda bu lugʻatni toʻldirib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

«Maʼnodosh soʻzlar» mavzusi oʻrganilgandan keyin shu mavzu bilan chambarchas bogʻliq holda soʻzlarda maʼnoning darajalanishi, frazeologik birliklar va tasviriy ifodalar mavzularini oʻtish jarayonida ham aqliy faoliyat usullaridan foydalaniladi.

Soʻzlarda maʼno darajalanishi (gradonomiya) har jihatdan maʼnodosh soʻzlarga yaqin turadi. Chunki har bir gradonomik qatorda muayyan soʻz oʻzidan keyingi soʻzlar bilan sinonimik munosabatga kirishishi mumkin. Masalan, *uy, xona, oddiy darajadagi soʻz sanalsa, kapa, katalak, kulba, hujra* singari soʻzlarda maʼno yuqoridan pastga qarab darajalangan. Aksincha, *qasr, saroy, koshona* singari soʻzlarda esa maʼno pastdan yuqoriga qarab darajalanib borgan. Bu soʻzlarning barchasi bir gradonomik qatorni tashkil etadi. Shuni nazarda tutib, soʻzlarning bu xususiyati haqida mazkur mavzuni oʻrganishda maʼlumot beriladi.

«Uyadosh soʻzlar» mavzusini oʻrganish qatorlarga ajratib berilgan soʻzlarni oʻqib, bu qatorlar nima asosida birlashayotgani haqida hukm chiqarish bilan boshlanadi. Oʻquvchilar umumiy maʼnoli soʻzlarning xususiy maʼnolari berilgan qatorlarni (masalan, *daraxt: archa-qayin-qayragʻoch-tol-terak-majnuntol-mirzaterak-chinor-qaragʻay-gujum; yurmoq: yugurmoq-chopmoq-elmoq-emaklamoq-siljimoq-sudralmoq...*) kuzatib, bu soʻzlar bir uyaga yoki bir umumiy maʼno ostida birlashayotganligini aniqlaydilar.

Keyingi bosqichda bu ish oʻquvchilar tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi mumkin. Chunonchi, mevali daraxtlar, koʻkatlar, uy hayvonlari, poliz ekinlari, bosh kiyimlari, yashash joylari, bilmoq, bermoq, olmoq singari umumiy maʼnoli soʻzlarning uyadoshlarini aniqlash shular jumlasidandir. Oʻquvchilarning oʻzi yashab turgan joydagi keng tarqalgan uzum, qovun, olmalarning turlarini atovchi uyadoshlarini topishlari ham yuqoridagi ishlar sirasiga kiradi.

Kuzatish va guruhlashdan umumlashma hosil qilishga oʻtiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilardan shu bajarilgan ishlar va oldin egallangan bilimlarga asoslangan holda uyadosh soʻzlarga taʼrif berishni soʻraydi. Ular bir uyaga mansub boʻlgan yoki bir

turdagi predmet, belgi, harakatni atab kelgan soʻzlarning uyadosh soʻzlar ekanligi xususida umumlashma hosil qiladilar.

Har bir oʻquvchi uyadosh soʻzlarni bilishi, ayniqsa, matn yaratish uchun oʻta muhimligini tushunib yetmogʻi kerak. Chunki gullarning turlarini atovchi soʻzlarni bilmay turib, «Gulzorda» mavzusida yoki qovunning uyadoshlarini bilmay «Polizda» mavzuida matn yaratish mumkin emas.

Uyadosh soʻzlar nutq uchun nodir maʼno va ifodalar xazinasi sanaladi. Har bir oʻquvchi bu boylikni toʻldirishi uchun muttasil oʻqib - oʻrganmogʻi kerak.

«Zid maʼnoli soʻzlar», «Shakldosh soʻzlar», «Atamalar», «Tarixiy soʻzlar» singari mavzularni oʻrganishda ham oʻqituvchi til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashma hosil qilish singari aqliy faoliyat usullaridan unumli foydalanadi.

Xullas, «Leksikologiya» boʻlimiga oid har bir mashgʻulot oʻquvchilarning aqliy faoliyatini ishga solishga undashi lozim. Shunday qilingandagina oʻquvchi taʼlim jarayonining subyekt (faol ishlovchisi) boʻla oladi. Bu yoʻl bilan egallangan bilimlar, shubhasiz, oʻquvchining «shaxsiy mulkiga» aylanadi.

«Leksikologiya» boʻlimini oʻrganishda oʻquvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish. «Leksikologiya» boʻlimi oʻquvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirishni ham koʻzda tutadi. Oʻquvchilar maktab darsliklaridan olingan ilmiy matnlarni badiiy matnlar bilan taqqoslash, ayni bir narsaning badiiy va ilmiy tasviri orqali nutq uslublari bilan tanishish imkoniyatiga ega boʻladilar. Buning uchun oddiy nutqda qoʻllaniladigan soʻzlarni badiiy nutqda qoʻllaniladigan soʻzlar bilan almashtirish, hosil boʻlgan matnlarni oʻzaro qiyoslash, turli uslubdagi matnlarni tahlil qilish, ularning oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin. Shuni taʼkidlash lozimki, yaxshi, ravon, aniq va taʼsirchan ifoda uslubini hech bir shaxs uslubshunoslik fanini oʻrganish natijasida oʻzlashtira olmagan va oʻzlashtira olmaydi. Taʼsirchan, aniq uslub tuygʻusi tilning barcha boʻlimlarini oʻrganish jarayonida, til sathlari birliklarida (tovushlarda, qoʻshimchalarda, soʻzlarda, sintaktik qurilmalarda) maʼnodoshlik, vazifadoshlik, shakldoshlik munosabatlari asosidagi bogʻlanishlarni taqqoslash zaminidagina

shakllanadi. Bu ona tili o'qituvchisining hamisha diqqat markazida turishi lozim. Shuning uchun fikrni nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish ona tili ta'limining talabi sanaladi.

Uslubiyat uslubiy ravonlik, xususan, so'z boyligi va so'zlarni to'g'ri qo'llash bilan aloqador ekanligini hisobga olib, tilning lug'at sathini o'rganishni uslubiyat bilan bog'liq holda olib borish lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Ona tili ta'limida «Leksikologiya» bo'limining tutgan o'rni va vazifalarini ayting.

2. «Leksikologiya» bo'limini o'rgatishning ta'limiy ahamiyatini qanday asoslaysiz?

3. «Leksikologiya» bo'limini o'qitishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishning qanaqa imkoniyatlari bor?

4. «Ma'nodosh so'zlar» mavzusini o'rganishda qanday ijodiy-amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi?

5. Uyadosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlarning o'quvchilar so'z boyligini oshirishdagi roli va ahamiyatini izohlang.

6. O'quvchilarning lug'at boyligini oshiruvchi muhim vositalarni ayting.

7.«Leksikologiya» bo'limini o'qitishda o'quvchilarni aqliy faoliyat usullariga o'rgatish deganda nimani tushunasiz?

8.O'quvchilar nutqini boyitishda nutq uslublari bilan ishlashning qanday ahamiyati bor?

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. Toshkent, «Musiqqa», 2009, 25–34-b.

2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili leksikologiyasi asoslari. Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
3. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. Toshkent, 1996.
4. Ta'lim jarayonida so'z boylitini oshirishning asosiy omillari. «O'zbek tili» doimiy anjumani 3-yig'inining tezislari. Toshkent, 1995.
5. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi», 2006,
6. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
7. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
8. G'ulomov A., Qosimova N. Ijodiy ishlar nazariyasi. Buxoro, 2011.
9. Qosimova N. O'rta maktablarning 5-sinflarida «Leksikologiya» bo'limini o'rganishda sinonim so'zlar ustida ishlash. Toshkent, 1996.
10. Ernazarova M., Matnazarova G. «Leksikologiya» bo'limini o'qitishda o'quvchilarni aqliy faoliyat usullariga o'rgatish. Navoiy, 1998, 3–7-b.

UCHINCHI BO'LIM.

MORFOLOGIYANI O'QITISH METODIKASI

Tayanch tushunchalar:

Morfologiya, so'z tarkibi, so'zning asosi, qo'shimcha, so'z yasovchi qo'shimcha, shakl hosil qiluvchi qo'shimcha, lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimcha, sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimcha, old qo'shimcha, so'z turkumlari, mustaqil so'z turkumlari, to'plam, tasnif, fe'l, o'timli va o'timsiz fe'llar, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh, ot so'z turkumi, atoqli va turdosh otlar, shaxs otlari, narsa otlari, o'rin-joy nomlari, sifat, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning otlashuvi, son, sonning ma'no turlari, ravish so'zlar, ravishlarning ma'no turlari, olmosh, yordamchi so'z turkumlari, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, alohida so'z turkumlari, undov so'zlar, modal so'zlar, taqlid so'zlar.

Maktabda morfologiya o'qitishning ahamiyati va vazifalari.

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zning shakllari, bu shakllarning hosil bo'lish yo'llari va so'zlarning ma'lum belgilar asosida guruhlariga, ya'ni so'z turkumlariga bo'linishini o'rganadi. Shu bois, morfologiyani o'qitishda asosiy e'tibor so'zning tuzilishi, yasalishi, so'z turkumlariga bo'linishiga qaratiladi.

Ma'lumki, o'quvchilar morfologiyaga oid dastlabki ma'lumotlar bilan boshlang'ich sinflarda tanishadilar. So'zlarni otlar, sifatlar, sonlar, fe'llar, olmoshlar, yordamchi so'zlar kabi guruhlariga ajratish boshlang'ich sinfdan ularga ma'lum.

Ona tilining izchil kursidan beriladigan bilim, malaka, ko'nikmalar avvalo boshlang'ich sinflarda egallangan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning mantiqiy davomi sanaladi.

Maktabda morfologiyani o'qitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyati shundaki, keyingi bosqichda o'rganiladigan «Sintaksis» bo'limi bevosita morfologiya bilan bog'langan. Chunki kelishik, egalik va shaxs-

son qo‘shimchalari garchand morfologiya obykti sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida so‘z va so‘z birikmalari orasidagi sintaktik aloqani ta‘minlovchi vosita sanaladi. Qo‘shma gap sintaksisini o‘rganishning bevosita yordamchi so‘zlar bajaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Maktabda morfologiyani o‘qitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur bo‘limni o‘rganishda o‘z amaliy ifodasini topadi. O‘quvchi mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganishda so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nosi, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarga yana murojaat qiladi va so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Orfografiyaning morfologiya bilan aloqadorligi ham maktabda bu bo‘limni o‘rganishni zaruriyatga aylantiradi. Chunki morfologik prinsip orfografiyaning yetakchi prinsipi sanaladi.

Shunday qilib, maktab morfologiya kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni ko‘zda tutadi:

– o‘quvchilarni so‘z yasashga, so‘zning yangi shakllarini hosil qilishda o‘rgatish; so‘z zaxirasini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;

– so‘zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish;

– imloviy savodxonlikni takomillashtirish;

– gap qurish va matn yaratish malakalari ustida ishlash;

DTSda ko‘zda tutilgan talablar har bir mavzuni o‘rganish jarayonida izchillik bilan amalga oshiriladi.

O‘quvchilarni so‘z turkumlarini o‘rganishga tayyorlash. So‘zlarni turkumlarga ajratish «to‘plam» va «tasnif» tushunchalarining mohiyatini anglash bilan chambarchas bog‘langan. O‘quvchilar 6-sinf darsligining 26-betidagi rasmlarda berilgan narsa-buyumlarni shu buyumlar orasidagi o‘xshashliklar asosida guruhlash orqali «to‘plam» va «tasnif» xususida umumlashma hosil qiladilar.

«To‘plam» deyilganda tahlil qilish, o‘rganish uchun olingan har xil narsalar, belgilar, voqea-hodisalar majmuasi tushuniladi.

«Tasnif» esa to‘plamni avval kattaroq guruhlarga, so‘ngra bunday guruhlarning o‘zini ichki turlarga, ajratilgan turlarni ichki xillarga, xillarni navlarga, navlarni ko‘rinishlarga bosqichma–bosqich saralashdir.

O‘quvchilar «to‘plam» va «tasnif» tushunchalarining mohiyatini, o‘xshash va farqli belgilarini topshiriqlarni bajarish davomida anglab oladilar.

Maktabda so‘z turkumlarini o‘rganish. «Fe’l» so‘z turkumini o‘qitish. «Fe’l» so‘z turkumi xususidagi dastlabki ma‘lumotlar boshlang‘ich sinflarda va 5-sinfda «Muqaddima» bo‘limi orqali beriladi. Shuning uchun mazkur so‘z turkumini o‘rganishdan oldin egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalar takrorlanadi. Berilgan bo‘lishli fe‘llardan bo‘lishsiz (va aksincha) fe‘llar hosil qilish, ular ishtirokida gaplar qurish, kesim vazifasida kelgan fe‘llarning zamonini almashtirib qo‘llash, kesimlarga shaxs-son va zamon qo‘shimchalari qo‘shish ishlari o‘rganilganlarni o‘quvchilar xotirasida tiklash imkoniyatini yaratadi.

6-sinfda fe‘llarning lug‘aviy shakllari va ma‘no guruhlari o‘rganiladi. O‘quvchilar «Fe‘llarning umumiy xususiyatlari», «Fe‘l nisbatlari» (aniq nisbat, ortirma nisbat, majhul nisbat, o‘zlik nisbat, birgalik nisbat), «Nisbat qo‘shimchalarining so‘z yasovchilar bilan yaxlitlanishi va takror qo‘llanilishi», «Fe‘lning vazifa shakllari» (harakat nomlari, sifatdoshtar, ravishdoshtar), «Tub va yasama, sodda va qo‘shma fe‘llar», «Harakat tarzi shakllari», «Fe‘lning ma‘noviy guruhlari» (nutqiy faoliyat fe‘llari, aqliy faoliyat fe‘llari, jismoniy faoliyat fe‘llari, holat fe‘llari), «Ko‘makchi fe‘llar», «Fe‘llarning munosabat shakllari», «Fe‘llarning zamon shakllari», «Mayl shakllari», «Shaxs-son shakllari» singari mavzular bilan tanishadilar.

Mazkur mavzularni o‘rganishda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning so‘z zaxirasini fe‘llar bilan boyitish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirishdan iboratdir.

O‘quvchilarning so‘z zaxirasini fe‘llar bilan boyitishning muhim choralaridan biri fe‘l-sinonimlar ustida ishlashdir. Berilgan fe‘llarga ma‘nodoshlar topish

(masalan, *ajablanmoq, taajjublanmoq, hayron bo'lmoq; ayirmoq, ajratmoq, judo qilmoq, mahrum qilmoq*), sinonimik uyadagi ma'nosini tushunarli bo'lmagan so'zlarning ma'nosini izohlash, qatordagi har bir so'z yordamida gaplar tuzish (masalan, *Salimaxon berilgan so'zlar ichidan fe'llarni ajratdi. Bozorga olib ketilishi lozim bo'lgan mevalarni bir yoqqa ayirdi*), matnni tahrir qilib, takrorlangan fe'llar o'rni uchun ularning sinonimlarini qo'llash singari ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirishda o'ta muhimdir.

«Harakat nomi» mavzusini o'rganishda berilgan matn yoki gaplardan harakatni atab kelgan so'zlarni ajratish, ularni qo'shimchadoshlarga bo'lib guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, qo'shimchadosh so'z guruhlari uchun xos bo'lgan qo'shimchalar: **-moq** ni ajratish, bu qo'shimchalar bilan hosil bo'lgan so'zlarning imlosi, gaplarni harakat nomi birikmalariga, birikmalarni gaplarga aylantirish (masalan, *Haqiqat tantana qiladi. Haqiqatning tantana qilishi* kabi), harakat nomlarining *zarur, kerak, lozim, shart, muhim* kabi so'zlar bilan birikib, kesim vazifasida kelishi ustida ish olib boriladi.

Fe'ning ravishdosh va sifatdosh shakllarini o'rganishda ham shunga o'xshash amaliy ishlar davom ettiriladi. O'quvchilar berilgan fe'l juftlarini (masalan, *keldim, ishladim*) bog'lovchilar yoki ohang vositasida bog'lab gap tuzish, bu fe'llarni *-b(-ib), -gach(-kach, -qach)* qo'shimchalari bilan biriktirib, gaplarning shaklini o'zgartirish (masalan, *Men keldim va ishladim – Men keldim, ishladim – Men kelib ishladim – Men kelgach, ishladim* kabi), ravishdosh yasovchi qo'shimchalar ro'yxatini tuzish, ular yordamida so'zlar hosil qilish, bu qo'shimchalarning imlosi ustida ishlash kabi amaliy ishlardan foydalaniladi.

Sifatdoshlarni o'rganishda o'quvchilar berilgan «sifat+ot» shaklli birikmalarda (masalan, *siniq shisha, buzuvchi uy, quruq meva*) sifatni fe'l bilan almashtirish (masalan, *singan shisha, buzilgan uy, qurigan meva*) va sifatli birikmalar hosil qilish, sifatdoshlarni hosil qiluvchi birikmalarni aniqlash, ularning imlosi ustida ishlash, sifatdoshlardan foydalanib, gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish (masalan, *Kim ko'p o'qisa, dono bo'ladi. Ko'p o'qigan kishi dono bo'ladi*) singari topshiriqlarni berish mumkin.

Ma'lumki, tuslangan fe'llarning ham, tuslanmagan fe'llarning ham bo'lishli va bo'lishsiz shakllari mavjud. O'quvchilar bu mavzularni o'rganishda bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz shaklga va, aksincha, bo'lishsiz fe'llarni bo'lishli fe'llarga aylantirish, bo'lishsiz shaklni hosil qiluvchi qo'shimchalarni aniqlash ustida ish olib boradilar.

«Fe'l» so'z turkumini o'rganishda, ayniqsa, uyadosh fe'llar ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. 5-sinfda o'quvchilar «Uyadosh so'zlar» mavzusini o'rganishda bir qator uyadosh fe'llar bilan ham tanishganlar. Berilgan umumiy ma'noli fe'lning xususiy ma'nolarini aniqlash, bir paradigmani tashkil etgan fe'llar ro'yxatini tuzish (masalan, nutq fe'llari: *so'zlamok, gapirmok, pichirlamok, shivirlamok, baqirmok, o'qimok, hikoya qilmoq, qichqirmok* va h.k.) singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilar so'z zaxirasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur so'z turkumini o'rganishda o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishlavchisiga aylantirish uchun kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, amalda qo'llash singari aqliy faoliyat usullarini qo'llash lozim.

«Fe'l» so'z turkumiga oid barcha mavzular til hodisalarini kuzatish va izlanish bilan boshlanib, umumlashmalar hosil qilish va amalda qo'llash bilan yakunlanadi.

«Fe'llarning yasalishi» mavzusini o'rganishdan oldin o'quvchilarning o'zak va qo'shimcha xususida egallagan ma'lumotlari xotirada tiklanadi. Berilgan so'zlarni o'zakdoshlarga ajratish va har bir so'zning qaysi so'z turkumiga mansub ekanligini aniqlash, o'rganilganlarni xotirada tiklash hamda yangi mavzuni o'rganishga zamin hozirlaydi.

Berilgan fe'llarni o'zagiga qarab, ularni otlardan, sifatlardan, taqlidiy so'zlardan hosil bo'lgan fe'llar kabi guruhlariga ajratish, *-la, -lan, -lash, -illa, -irra, -y, -ay, -r, (-ar), -ik (-iq), -i, -t* qo'shimchalari yordamida berilgan tub so'zlardan fe'llar hosil qilish va har bir guruhi mustaqil davom ettirish, ularning imlosi ustida ishlash o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, imlo savodxonligini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Muayyan qolip asosida soʻzlar hosil qilish ham bolalarning soʻz boyligiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Masalan, «ot+la», «sifat+ay», «feʼl+sa edi (-saydi)», «feʼl+sa kerak» (*tishla, toray, uzsa edi, yozsa kerak* v,h.) shunday qoliplar sirasidandir.

«Qoʻshma feʼllar» mavzusini oʻrganishda oʻquvchilarni matndan «ot+feʼl» tuzilishli qoʻshma feʼllarni ajratish, ularning maʼnosi va imlosini sharhlash; ajratilgan qoʻshma feʼllarni yasovchi feʼlga koʻra (*qilmoq, bermoq, koʻrmoq, olmoq* kabi) guruhlash, ularni mustaqil davom ettirish; qoʻshma feʼllarni tub va yasama, sodda feʼllar bilan almashtirish (yordam bermoq–yordamlashmoq, gʻamxoʻrlik koʻrsatmoq–qaygʻurmoq kabi); matndan «ravishdosh–feʼl» shaklli qoʻshma feʼllarni ajratish, birinchi feʼlning qoʻshimchalarini aniqlash, ikkinchi feʼlga koʻra qoʻshma feʼllarni guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, koʻmakchi feʼlni izohlash, *boshlamoq, yotmoq, turmoq, soʻrmoq, bilmoq, bormoq, ketmoq, qolmoq, chiqmoq* kabi koʻmakchi feʼllarning maʼnosini izohlash, *olmoq, bermoq* feʼllarining imlosi (*ayta oldi–aytoldi, ayta berdi–aytaverdi*) ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar oʻta foydalidir.

«Feʼl» soʻz turkumini oʻrganishda oʻquvchilarni shu soʻz turkumining uslubiy imkoniyatlari bilan tanishtirish ham zarurdir.

«Feʼl» soʻz turkumini oʻrganishda gap ustida ishlash markaziy oʻrinni egallaydi. Bir boʻlakli sodda gaplarni feʼl kesimdan soʻroq berish orqali ikki boʻlakli va koʻp boʻlakli sodda gaplarga aylantirish (masalan, *Boraman – Men boraman – Men bugun qishloqqa boraman – Men bugun buvimni koʻrgani qishloqqa boraman* kabi), gaplarda tuslangan feʼlarni tuslanmagan feʼllar bilan almashtirish (masalan, *Yozgi taʼtil boshlandi va biz sayohatga chiqdi – Yozgi taʼtil boshlangach, biz sayohatga chiqdik; Karim xatni oldi va diqqat bilan oʻqid – Karim xatni olib, diqqat bilan oʻqidi* kabi) harakat nomi ishtirokida gaplar tuzish va matn yaratish, gaplarni harakat nomi birikmalariga, bunday birikmalarni gaplarga aylantirish (masalan, *Hamma biladiki, haqiqat tantana qiladi – Haqiqatning tantana qilishini hamma biladi* kabi) berilgan feʼl juftlarini bogʻlovchilar yoki ohang yordamida bogʻlab gap tuzish, bu feʼllarni hosil qilingan gaplar tarkibida bir-biri bilan yana qay usul bilan bogʻlash mumkinligini aniqlash, gaplarni kengaytirish va toraytirish singari amaliy

ishlar o'quvchilarda faqat morfologik malakalarnigina emas, balki sintaktik malakalarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

«Fe'l» so'z turkumini o'qitishda DTSning muhim talablari (o'qish texnikasi; o'zgaralar fikri va matn mazmunini anglash malakasi; fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi)ga amal qilinadi. Mazkur so'z turkumini o'qitishda har bir o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq holda bu talablar amalga oshiriladi. Chunonchi, o'qish texnikasi sodda va qo'shma fe'llarning aytilishi ustida ishlash, nisbat qo'shimchalarini to'g'ri talaffuz etish, kengaytirilgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh birikmali gaplarni o'qish, qo'shma fe'llarning talaffuzi ustida ishlash, shu so'z turkumi bilan bog'liq holda berilgan matnlarni ifodali o'qish orqali amalga oshirilsa, o'zgaralar fikri va matn mazmunini anglash, so'z ma'nolari ustida ishlash, berilgan fe'llarga ma'nodoshlar topish hamda ularning har biri ishtirokida gaplar qurish, matn mazmunini o'z so'zlari bilan so'zlash, reja tuzish singlarlar orqali qo'lga kiritiladi.

Fikrni yozma shaklda bayon qilish malakalari esa, asosan, har bir soatlik dars mashg'uloti davomida yoki dars oxirida matn yaratish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar ustida ishlash orqali amalga oshiriladi.

Fe'l yuzasidan bilimlarni xotirada tiklash maqsadida turli xil o'yin-topshiriqlardan foydalanish ham mumkin. Masalan, shaxs yoki ma'lum bir hayvonning ish-harakatini ifodalovchi bir so'zni berib, uning ma'nodoshini topishga oid o'yinlar ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. Masalan, ma'lum bir qatordagi o'quvchilar «Qo'y nima qiladi?», «It nima qiladi?» singari savollarni berib tursa, ikkinchi qatordagi o'quvchilar tilga olinayotgan hayvon qanday ish-harakatlarni bajara olishini sanaydilar.

Namuna:

1-qator – it nima qiladi?

2-qator – it huradi, uxlaydi, sakraydi, o'ynaydi, tishlaydi, chopadi, yuguradi.

«Fe'l» turkumi yuzasidan o'quvchilarga izchil bilimlar berish jarayonida ham asosiy e'tibor o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga qaratiladi. Fe'llardan foydalanishda o'quvchilar nutqining rang-barangligiga erishish maqsadida ish-

harakatni ifodalovchi ma'lum bir umumiste'mol so'zni shu ma'noni ifodalovchi badiiy bo'yoqdor so'zlar bilan almashtirish, berilgan frazeologik birliklarni ish-harakatni ifodalovchi so'zlar bilan almashtirish yoki ish-harakatni ifodalovchi so'zlarni frazeologik birliklar bilan almashtirish kabi ijodiy-amaliy mustaqil ishlardan foydalanish davom ettiriladi. Quyida o'quvchilar nutqini fe'l sinonimlar bilan boyitishga xizmat qiladigan o'yin-topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

«**Qatorlar bellashuvi**» o'yinida sinf o'quvchilari uch guruhga ajratilib, 1-guruh talabalariga ma'lum bir fe'lni aytish topshiriladi. 2- va 3-guruh talabarlari esa shu aytilgan fe'lning ma'nodoshlarini topadilar va aytadilar. Masalan, 1-qator *gapirdi, bajardi, yoqtirdi, yordamlashdi, jilmaydi* kabi fe'llarni aytasalar, 2-qator *so'zladi, ado etdi, xohladi, qarashdi, kulimsiradi* kabi so'zlarni, 3-qator esa *so'yladi, bitirdi, istadi, ko'maklashdi, iljaydi* kabi uning ma'nodoshlarini topib aytishadi. Bu o'yin qatorlararo yozma tartibda ham bajarilishi mumkin: 1-qator o'quvchilari sinf doskasiga ma'lum bir fe'lni yozsalar, 2- va 3-qatorlar bu so'zlarga ma'nodoshlar topib yozishadi.

O'quvchilar nutqini badiiy bo'yoqdor fe'llar bilan boyitishda «**Ma'nosini kim chaqdi?**» o'yinidan foydalansa bo'ladi. Bellashayotgan 1-qatorga frazeologik birliklar bilan almashtirish mumkin bo'lgan fe'llarni aytish, ikkinchi guruhga esa shu fe'lni frazeologik birlik bilan almashtirish topshiriladi. Masalan, *gapirmadi, og'ziga talqon soldi; quvondi - do'ppisini osmonga otdi; g'azablandi - tepa sochi tikka bo'ldi; o'ldi - joni uzildi; tushundi - mag'zini chaqdi; charchadi - tinka madori quridi; uxlamadi - mijja qoqmadi; qo'rqdi - yuragi dov bermadi; ajablandi - yoqasini ushladi*. Keyingi bosqichda har bir frazeologik birlikning uning ma'nodoshi bilan almashtirish ham topshirilishi mumkin. Masalan, *do'ppisini osmonga otdi - boshi osmonga etdi, og'ziga talqon soldi - «lom-mim» demadi, joni uzildi - olamdan o'tdi, mijja qoqmadi - ko'zini yumadi, yuragi dov bermadi - esi chiqib ketdi, yoqasini ushladi - hayratda qoldi* kabi.

Xuddi shu o'yin teskari holatda bajarilishi mumkin. 1-qator frazeologik birliklarni aytsa, 2- va 3-qatorlar shu iborani so'z bilan almashtirishadi. Masalan, «*lom-mim» demadi, og'iz ochmadi, gapirmadi, indamadi* kabi.

O'qituvchi «Qo'shma fe'llar» mavzusini o'tayotganda ham xuddi shunday xarakterdagi o'yin-topshiriqlardan foydalanishi mumkin. Masalan, bellashayotgan 1-guruh qo'shma fe'llarni aytishsa, 2-guruh shu qo'shma fe'lni uning ma'nodoshi bilan almashtirishadi. Namuna: *imzo chekmoq–qo'l qo'ymoq, shod bo'lmoq–xursand bo'lmoq, taslim bo'lmoq–qo'l ko'tarmoq, yugurib bormoq–chopib bormoq, aytib bermoq–so'zlab bermoq, bekinib olmoq–yashirinib olmoq* kabi.

O'quvchilar nutqini antonim fe'llar bilan boyitishda «**Teskari ma'nosini top**» o'yinidan foydalansa bo'ladi. Bellashayotgan qatorlarga *kelmoq, yurmoq, ichmoq, kulmoq, maqtamoq, uyg'onmoq, bermoq, ketmoq* so'zlari beriladi. Har bir guruh shu berilgan so'zlardan qarama-qarshi ma'nolari (masalan, *kelmoq–ketmoq, yurmoq–o'tirmoq, echmoq–bog'lamoq, kulmoq–yig'lamoq, maqta-moq–qarg'amoq, uyg'onmoq–uxlamoq*) topishadi. Berilgan so'zlar-ning barchasiga qarama-qarshi ma'noli so'z topib, ularning har birini yana ma'nodoshlari bilan almashtira olgan guruh g'olib sanaladi.

«Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar» o'rganilayotganida ham xuddi shunday o'yin-topshiriqlardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga avvalo tasdiq ma'nosini ifodalovchi fe'llarga misollar topish, keyin ularni inkor ma'nosini ifodalovchi so'zlarga aylantirish va shundan so'ng ularning har biriga ma'nodoshlar topish topshiriladi. Namuna: «**Tasdiqmi yoki inkormi**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi o'quvchilarga mustaqil tarzda harakatning tasdig'i yoki inkorini bildiruvchi fe'llar yozishni topshiradi. Sinf ikki guruhga ajratilib, 1-guruhdagilar bo'lishli, 2-guruhdagilar bo'lishsiz shakldagi fe'llarni yozadilar. Belgilangan vaqtda mavzuga mos eng ko'p namuna yozib, ularning ma'nodoshlarini topa olgan guruh o'yin g'olibi bo'ladi.

«Sifatdosh» o'rganilayotganda o'quvchilar *o'qigan bola, o'qiydigan bola, o'qiyotgan bola* singari so'z birikmalari ustida ishlashlari, o'rni kelganda bu birikmalarni shu ma'noni ifodalovchi boshqa birikmalar bilan almashtirishlari mumkin.

O'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitishda berilgan qo'shimchalar yordamida fe'llar hosil qilish, ko'makchi fe'llarni berib, ular ishtirokidagi yetakchi+ko'makchi

fe'l ifodalarini yozish, to'liqsiz fe'llarni shaxslar bo'yicha o'zgartirish yoki ularning boshqa so'zlar bilan birikishiga oid namunalar topish yuzasidan guruhlar bellashishlarini tashkil etish mumkin.

«Ko'makchi fe'l ko'maklashdi, Fe'l og'asi yordamlashdi» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi fe'llar majmuasini doskaga yozadi: *boshla, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, ber, qol, sol, bor, tashla, tut, o't, yot, qara, bog', yoz*. Namuna: *ayta boshladi, kuylab yuribdi, o'qib qara, yoza ber, kelib qoldi, qarab turadi, tuzata boshladi, o'ylab ko'radi, oshib tushgan, mixlab qo'ygandek, egilib qoldi, tushunib yetmagan, yonib bitgan, o'qib chiqqan*.

Belgilangan vaqtda topshiriqni bajarib, «Fe'l og'a»ga yordamlashgan o'quvchilar o'yin g'olibi bo'ladi.

«Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan» o'yini. Bu o'yinda sinf ikki guruhga ajratiladi va 1-guruhga to'liqsiz fe'llarni shaxslar bo'yicha o'zgartirish, 2-guruhga esa ularning boshqa so'zlar bilan birikishiga oid namunalar yozish topshiriladi. Keyin topshiriq turi guruhlararo almashtiriladi. Belgilangan vaqtda topshiriqni to'g'ri bajargan guruh ertak aytish huquqini (yoki o'qituvchidan eshitishni) qo'lga kiritadi. Chunki o'yinning nomi shunga muvofiq qo'yilgan va ertak eshitiladi (imkoniyat darajasida). Shu matndagi to'liqsiz fe'llar topiladi va izohlanadi. Namuna:

1-guruh: xabardor ekanman, xabardor ekansan, xabardor edi, bilgan edim, bilgan eding, bilar emishman, bilar emishsan, bilar emish.

2-guruh: bog' edi, uzoq edi, katta edi, go'zal ekan, shirin ekan, kelgan ekan, olgan emish, achchiq emish, yomon emish.

«Fe'l» so'z turkumini o'rganishda imloviy va punktuatsion malakalar ustida ishlash muhim talablardan hisoblanadi. Shu bois tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlarning aksariyat qismi ana shu muhim malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. O'quvchilar o'zaro ajratib va qo'shib yoziladigan qo'shma fe'llar, muayyan qo'shimchalar qo'shilgandan keyin (gap tarkibida) vergulning ishlatilish- ishlatilmasligi, juft va takroriy fe'llarda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi. Shuni nazarda tutib, bu zaruriy malakalar ustida ishlash

bo'yicha guruhlar bellashuvini tashkil etsa bo'ladi. Masalan, o'qituvchi bir-biriga o'xshash so'z birikmalari va juft so'zlarni aralastirib aytib turadi. Kuch sinashayotgan guruhlarining biri chiziqcha bilan yoziladigan juft fe'llarni yozsa, ikkinchisi chiziqchasiz yoziladigan fe'llarni alohida ro'yxat qiladi.

Namuna: yoza oldi, kiya oladi, aytib qo'ydi, aytdi-yu qo'ydi, kiyib oladi, to'sib qo'ydi, yeta yozgan, yozdi-yu qo'ydi, boradi qo'yadi, aytib qoladi, tugata yozdi, ishondingiz qo'ydingizmi, yo'rg'alay ketdi.

Chiziqcha bilan yoziladi

kiyadi-oladi

to'sdi-qo'ydi

boradi-qo'yadi

ishondingiz-qo'ydingizmi

Chiziqchasiz yoziladi

yoza oladi

aytib qo'ydi

aytdi-yu qo'ydi

kiyib oladi

Hosil bo'lgan uyalarini mustaqil davom ettirish bo'yicha ham guruhlar o'zaro bellashishlari mumkin.

Ma'lumki, harakat nomi hosil qiluvchi **-v, -uv** qo'shimchalari qo'shilganda so'zlarda ayrim fonetik o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'quvchilarga shu bilimlarni puxta yetkazish maqsadida o'yin-topshiriqlar o'tkazish foydalidir. Masalan, «**To'g'risini tanlang**» o'yini. Bu o'yinda o'quvchilarga fe'llar majmuasi beriladi va ulardan **-v, -uv** qo'shimchalari yordamida harakat nomlari hosil qilish topshiriladi. O'quvchilar yozadilar: *yoza-yozuv, o'qi-o'quv, ishla-ishlov, so'ra-so'roq, tanla-tanlov, qara-qarov, o'yla-o'ylov* kabi so'zlar ishtirok etgan matnlar tuzish topshirilishi mumkin.

«**E harfi qayga ketdi? Fe'lga mehmonga ketdi**» o'yini. Bu o'yin birinchi marotaba o'tkazilganda o'qituvchi o'quvchilarga to'liqsiz fe'ldagi birinchi tovush (e) turg'un emasligi, u ma'lum fonetik sharoitlarda tushib qolishi mumkinligi haqida izoh beradi: *ishlar edi-ishlardi, kelar ekan-kelarkan* kabi. So'ngra tavsiya etilgan gaplardagi to'liqsiz fe'llarni alohida yozishni topshiradi. Belgilangan vaqtda topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladilar. Namuna: («Zangori gilam» ertagidan).

Bir qari chol yasharkan
Turmushi ko‘p nochorkan,
Rahim nomli bu faqir
Ko‘rgan ekan ko‘p tahqir
Boqib olarkan har yon
Bahor edi so‘lim tong
Ipak bilan gullari
Solingandir birma-bir
Qishloqda hech bir xona
Ko‘rmagandir bundayni

O‘quvchilarning nutqini fe‘llardan to‘g‘ri, o‘rinli foydalanishini ta‘minlash maqsadida gap va matnlar ustida ishlashga alohida e‘tibor berish o‘rinlidir. Bolalarning gap qurish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida berilgan gapning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirish, nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos tushadigan so‘zni qo‘yib o‘qish yoki yozish singari o‘yin-topshiriqlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Masalan, «Sifatdosh» mavzusi o‘rganilar ekan, berilgan gaplarni sifatdoshli birikmalariga aylantirish (masalan, *Inson ko‘p mehnat qilsa, baxtli bo‘ladi – Ko‘p mehnat qilgan inson baxtli bo‘ladi*) ko‘chirma gapni sifatdosh va harakat nomi birikmalari bilan kelgan o‘zlashtirma gapga aylantirish (masalan, «*Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak*»,–*deb uqtirdi Prezidentimiz–Prezidentimiz elim deb, yurtim deb yonib yashash kerakligini uqtirdi*) kabi topshiriqlar bo‘yicha guruhlar o‘zaro bellashishlari va g‘oliblar aniqlanishi mumkin.

Biz bilamizki, fe‘llarni o‘rganishda «Fe‘l mayllari» mavzusi ham o‘ziga xos murakkablikka ega. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchilarga bu mavzuni qiziqarli yetkazishi uchun darsni ertaklardagidek tashkil etishi mumkin. «**Shart qo‘yibdi fe‘l podsho...**» o‘yinida ertaklardagi shohlar yoki malikalar biror ishlarni amalga oshirish uchun shartlar qo‘yishi haqida o‘quvchilardan so‘raydi. Ma‘lumki, o‘quvchilar ertaklarni o‘qishgan va bu haqda ancha ma‘lumotga ega bo‘lganliklari uchun bunga qiziqishadi. Shundan keyin matndagi fe‘llarni aniqlash,

qo‘shimchalarini ajratish topshiriladi. Fe‘l podshohning shartlarini belgilangan vaqtda bajargan o‘quvchilar o‘yinda g‘olib bo‘lishadi va uning sovg‘alarini olishadi.

«Eshitmadim demanglar, eshitganlar qolmanglar» o‘yinida o‘qituvchi fe‘lning buyruq-istak mayli haqida o‘quvchilar bilan fikrlashadi va ibratli so‘zlarni eshitishdan qolmaslikni uqtiradi. So‘ngra bir qancha hadis namunalari, maqol va hikmatli so‘zlardan buyruq-istak maylidagi fe‘llarni topish, qo‘shimchalarini aniqlashni topshiradi. Musobaqa shartini belgilangan vaqtda bajarganlar g‘olib sanaladi. Namuna:

Odob ila deb assalom,
So‘ng so‘zing etgil davom.
Kichikka izzatda bo‘l,
Kattaga hurmatda bo‘l.
Ko‘ray desang yaxshi kun,
Yertaroq turgil har kun!

Fe‘l so‘z turkumini o‘rganishda matnlar yaratishga alohida e‘tibor qaratish lozim. O‘quvchilarga fe‘llarning ma‘no guruhlarini o‘rgangandan so‘ng «Quyosh va tabiat», «Suv va hayot»; «Gumon fe‘li» mavzusi o‘rganilgandan so‘ng «Agar men sehrgar bo‘lsam», «Orzu qanotida»; «Fe‘l zamonlari» o‘rganilgandan keyin «Otam (onam, akam va h.k.)ning tarjimai holi» kabi mavzularda matnlar yaratish topshiriladi. Shubhasiz, eng yaxshi matnlar saralanadi va ular rag‘batlantiriladi.

Xullas, fe‘l so‘z turkumini o‘rganishda ta‘limiy o‘yinlardan foydalanish, birinchidan, o‘quvchilar nutqini badiiy bo‘yoqdor fe‘llar bilan boyitishga, har bir ma‘nodosh fe‘lni to‘g‘ri va o‘rinli ishlatishga, ikkinchidan, imloviy, talaffuziy va punktuatsion malakalarni takomillashtirishga va, uchinchidan, mazkur so‘z turkumining boy imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Ot» so‘z turkumini o‘qitish. Otning predmet nomini bildirishi, kim?, nima? so‘roqlariga javob bo‘lishi, atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi, otlarga qo‘shiladigan kelishik qo‘shimchalari boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarga ma‘lum. Mazkur so‘z turkumini o‘rganishda avvalo ana shu o‘rganilganlarni

xotirada tiklash maqsadida qayta xotiralash va qisman ijodiylikka asoslangan ta'limiy mashqlar o'tkaziladi. Takrorlash jarayonida «predmet» tushunchasiga kengroq to'xtalish lozim. Predmet deganda nafaqat qo'l bilan ushlash, ko'z bilan ko'rish yoki o'lchash mumkin bo'lgan narsalar, balki umumiylikni ifodalovchi nomlar (masalan, *ovqat, imorat*), tabiat hodisalari va turli voqealarning nomi (masalan, *toshqin, zilzila, momaqaldiraq*), harakat nomlari (*bilim, terim*), belgi-holat nomlari (*baxillik, saxiylik, ozodalik, tashvish*) ham tushuniladi.

Otning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifalariga oid zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar, asosan, amaliy ishlar orqali o'quvchilar ongiga singdiriladi.

Dastur talabiga ko'ra mazkur so'z turkumi yuzasidan o'quvchilarni otning lug'aviy shakllari (son shakli, kichraytirish shakllari), atoqli va turdosh otlar, atoqli otlar, ularning turlari va imlosi, kishi nomlari, o'rin-joy nomlari (toponimlar) va ularning imlosi, mahsulot nomlari va imlosi; turdosh otlar va ularning guruhleri (aniq va mavhum otlar, aniq otlarning ma'noviy guruhleri, shaxs otlari, qavm-qarindoshlik otlari, kasb-koriga ko'ra shaxs otlari, shaxsni boshqa jihatlariga ko'ra atovchi otlar, shaxs otli birikmalar, hayvonot nomlari (zoonimlar), daraxt va o'simlik nomlari, narsa-buyum otlari, modda-ma'dan, xomashyo anglatuvchi otlar, o'rin-joy (makon) otlari, payt (zamon) anglatuvchi otlar, mavhum otlar yuzasidan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish ko'zda tutilgan.

«Ot» so'z turkumini o'rganish bu turkum haqida umumiy ma'lumot berish bilan boshlanadi. O'quvchilar *Totkent, Buxoro, «G'uncha», «O'zbekiston ovozi», Ro'zimurodova, gul, qo'shiq, non, tuz, go'zallik, sog'lik, san'at, nafasat* singari otlarning har biriga so'roq berish va guruhleri mustaqil davom ettirish, har bir guruhdagi otlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni aniqlash va sharhlash orqali boshlang'ich sinflarda egallangan bilimlarni xotirada tiklash va uni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu mustaqil ishlarni bajarish natijasida ular quyidagi xulosaga keladilar:

Kim? nima? so'roqlariga javob bo'lib, yakka shaxs, narsa nomlarini, bir turdagi jonli va jonsiz narsa-buyum, voqea-hodisa, harakat-holatlarni atab keladigan so'zlar ot turkumiga kiradi.

Shundan so'ng «Otlarning lug'aviy shakllari» mavzusi o'rganiladi. O'quvchilar otlarning son shakllari bilan tanishar ekanlar, *daraxt–daraxtlar, uy–uyalar* singari so'zlarning shakli ustida ishlaydilar, ko'plik ma'nosini ifodalovchi boshqa vositalarni aniqlaydilar; bu so'zlar ishtirokida gaplar tuzib, ko'plikni ifodalovchi qo'shimchalar ma'nosini sharhlaydilar.

«Kichraytirish shakllari» mavzusi o'rganilar ekan, so'z juftlarining ma'no farqini tushuntirish (*baliq–baliqcha, chumchuq–chumchuqcha, -cha* qo'shimchali kichraytirish shakllariga misollar topish singari topshiriqlarni bajaradilar, kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *-gina* qo'shimchasining ma'nosi ustida ishlaydilar (masalan, *Qizgina bo'rilarga yem bo'ldiyov* kabi).

Atoqli otlar o'rganilar ekan, avvalo atoqli otlar jumlasiga kiradigan so'zlar ustida ish olib boriladi. Chunonchi, berilgan so'zlarni: 1) kishilarning ismi, familiyasi, taxallusini ifodalovchi otlar, 2) jug'rofiy nomlar, 3) turli tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari (masalan, *O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi, «Yakkabog'» davlat xo'jaligi, Botanika instituti, «Bahor» ansambli va h.k.*), 4) planeta va yulduzlarning nomi (masalan, *Quyosh, Yupiter, Mars, Hulkar va h.k.*), 5) tarixiy hodisalar, ro'znoma, oynoma va ilmiy muassasalarning nomlari (masalan, *Mustaqillik maydoni, «Ikki eshik orasi» romani, «Tong yulduzi» gazetasi, «Gulxan» jurnali va h.k.*), 6) hayvonlarga maxsus qo'yilgan nomlar (masalan, *Boychibor, Yo'lbars, Xumor va h.k.*) singari guruhlariga ajratish, hosil bo'lgan guruhlarni mustaqil davom ettirish, «belgi nomi + turdosh ot» qolipli qo'shma toponimlar masalan, *Yangiyo'l, Qorabog', Qorako'l, Qiziltepa, Tinch okeani, Qizil dengiz, Orol dengizi va h.k.*), «belgi nomi + atoqli ot» qolipli jug'rofiy nomlar (*Shimoliy Kavkaz, O'rta Osiyo, Markaziy Amerika, Shimoliy Qozog'iston va h.k.*) ro'yxatni tuzish singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish va so'z zaxirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Bolalar nutqida qisqartma soʻzlar ham muhim oʻrin egallaydi. Qisqartma otlarni toʻliq nomlar bilan, toʻliq nomlarni qisqartma nomlar bilan almashtirish, tilimizdagi qisqartma soʻzlar lugʻatini tuzish kabi ishlar bu soʻzlarning imlosi, talaffuzi va qoʻllanilishini bilib olish imkoniyatini beradi.

Ot soʻz turkumini oʻqitishda otlarning maʼno guruhlariga alohida eʼtibor qaratish lozim. Otlar ifodalab kelgan maʼnosiga koʻra: *mahsulot nomlari, shaxs otlari, qavm-qarindoshlik otlari, kasb-hunarni ifodalovchi otlar, shaxsni boshqa jihatlariga koʻra atovchi otlar, hayvonot otlari, daraxt va oʻsimlik nomlari, narsa-buyum otlari, modda-maʼdan, xomashyoni anglatuvchi otlar, oʻrin-joy (makon) otlari, payt (zamon)ni anglatuvchi otlar* kabi guruhlar boʻlinadi. Bu guruhlar oʻz navbatida yana bir necha guruhchalarga boʻlinishi mumkin. Masalan, kasb-hunarni ifodalovchi otlarning *dehqonchilik, hunarmandchilik, shifokorlik* kabi tarmoqlari mavjud.

Oʻquvchilarning soʻz zaxirasini shaxs otlari bilan boyitish uchun matndan shaxs otlarini ajratish, tub va yasamaligiga koʻra guruhlash, ajratilgan soʻzlarga maʼnodosh va uyadosh soʻzlar tanlab guruhlarni kengaytirish, -chi, -vchi, -uvchi, -dosh, -kor, -zor, -shunos kabi qoʻshimchalar yordamida shaxs otlari hosil qilish, juft shaxs otlari lugʻatini (masalan, *mexanik-haydovchi, muxandis-pedagog, metodist-oʻqituvchi* va h.k.) tuzish, ularning imlosi ustida ishlash kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

Kasb-hunar otlari, oʻrin-joy otlari, qurol-vosita otlari ustida ishlashda ham matndan shunday soʻzlarni topish, ularni tub va yasamalarga ajratish, ajratilgan soʻzlarga maʼnodosh va uyadoshlar tanlash, shunday otlarni hosil qiluvchi qoʻshimchalar yordamida yangi soʻzlar (qoʻshimchadosh soʻzlar) hosil qilish kabi ish usullaridan foydalaniladi.

«Qavm-qarindoshlik otlari» ustida ish olib borilar ekan, shunday soʻzlarni: 1) qon-qarindoshlik (*ota, ona, singil, aka, uka, amaki* va h.k.) va 2) nikoh qarindoshligiga (*yanga, kelinoyi, pochcha, qaynona, quda* va h.k.) koʻra guruhlariga ajratish, shunday soʻzlar lugʻatini tuzish, qarindoshlikni ifodalovchi nomlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash (masalan, qarindosh boʻlmagan kishilarni *otaxon, onaxon, buvijon* deb chaqirish) singari ijodiy-amaliy ishlar bajariladi.

Otlarning yana bir ma'no guruhi o'rin-joy (makon) otlaridir. O'quvchilar bino, inshoot, muassasa, tashkilot, narsa-buyumlarni atovchi so'zlar predmetlik va o'rin-joy (makon) ma'nolarini ifodalab kela olishi sababli, ular *nima?* va *qayer?* so'roqlariga javob bo'la oladigan so'zlar ham otlar ekanligini bilishlari lozim. Shuni nazarda tutib, bir o'rinda *nima?* ikkinchi o'rinda *qayer?* so'roqlariga javob bo'la oladigan gap juftlari tuzish, (masalan, *Yangi uy qurib bitkazildi–Bolali uy-bozor kabi*), gaplarda ajratilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor berib, ularning bino-inshootlar yig'indisini yoki o'rin-joyni atab kelishini aniqlash, aholi istiqomat qiladigan o'rin-joy nomlari ishtirokida gaplar tuzish, ma'muriy-mintaqaviy bo'linishni **ifodalovchi** otlarning ma'nolarini sharhlash, ularni atoqli otlar bilan birlashtirib, so'z birlashtirish tuzish, sharqona dunyo tomonlarini atovchi otlar ro'yxatini tuzish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

«Payt (zamon) anglatuvchi otlar» mavzusini o'rganishda berilgan so'zlarni (masalan, *yil, soniya, daqiqa, soat, sutka, kun, tun, asr, hafta, oy*) ular bildirgan vaqt chegarasiga qarab o'sib boruvchi qatorga joylashtirish, bu so'zlarga ma'nodoshlar topish, *juma, peshin, yarim tun, bomdod, subh, tong, oqshom, ertalab, kechqurun, kecha* singari so'zlarning ma'nolari ustida ishlash, soat ko'rsatayotgan vaqtni aytish va yozish, fasl nomlarining ma'nodoshlarini topish, raqamlar bilan berilgan kun, oy va yillarni o'qish va yozish, «O'tgan yilni qanday yakunladim?» mavzusida insho yozish, berilgan so'z juftlari (*kecha–kech, kech–kechqurun*) orasidagi ma'no farqlarini aniqlash, payt (zamon) otlariga qo'shiladigan *-lar* va *-cha* ko'plik qo'shimchasi va *-cha* kichraytirish qo'shimchalarining ma'nolarini aniqlash, payt (zamon) otlariga *-lab* qo'shimchasini qo'shib, ravishlar hosil qilish, payt (zamon) otlariga qo'shib kelgan *-i, -si* egalik qo'shimchasining ma'nolarini aniqlash, «Taqvimlar» (bobo dehqon taqvimi, hijriy taqvim, shamsiy taqvim, qamariy taqvim) matni ustida ishlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

O'quvchilar egallangan bilimlarga asoslanib, istagan matndan otlarga so'roq berish orqali ularni aniqlashga erishgach, bu otlar predmetning aniqligi, ya'ni ushlash, ko'rish, o'lchash mumkinligi va mumkin emasligiga qarab aniq va mavhumlarga ajratadilar hamda hosil bo'lgan guruhlarini mustaqil davom ettiradilar.

Aniq otlar ma'no guruhlariga ajratib o'qitiladi. O'quvchilar 6-sinfda aniq otlarni: shaxs otlari, o'rin-joy otlari, kasb-hunarni atovchi otlar, shaxsni boshqa jihatlariga ko'ra atovchi otlar, hayvonot otlari, daraxt va o'simlik nomlari, narsa-buyum otlari, modda-ma'dan, xomashyo otlari kabi guruhlarga ajratib, ular ustida alohida-alohida ish olib boradilar.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda otli birikmalar ustida ishlash muhim o'rin egallaydi. Matndan otli birikmalarni ajratish, berilgan so'zlar ishtirokida shunday birikmalar hosil qilish kabi ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilar lug'atini shunday birikmalar bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, berilgan bosh yoki tobe so'zga muvofiq keladigan tobe yoki bosh so'zlar tanlash ancha samarali ish usullaridan biridir. Masalan, *maktabimiz o'quvchilari* so'z birikmasidagi o'quvchilari o'rniga, *atrofi*, *binosi*, *zali*, *kutubxonasi*, *dovrug'i*, *g'alabasi*, *to'yi*, *yigitlari*, *qizlari* kabi so'zlarni topib qo'shib, *maktabimiz kutubxonasi*, *maktabimiz qizlari* kabi so'z birikmalari hosil qiladilar.

Tobe so'z sifatida ma'nodosh, uyadosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlar ham tanlanishi mumkin. Masalan,

aqlli (beaql)	kunjutli
chaqqon(dangasa)	shirmoy
yuvosh (sho'x)	patir
odobli (odobsiz) bola	gijda non
kelishgan (xunuk)	obi
qat'iy (loqayd)	kulcha

O'quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug'diradigan muammolardan biri qo'shma otlar va ularning imlosidir. Bu mavzuni o'rganishda berilgan so'z birikmalaridan joy nomlari hosil qilish (masalan, *qora ko'l-qorako'l*, *yangi yer-Yangiyer*, *yetti o'g'il-yettio'g'il*, *ko'hna machit-Ko'hnamachit*, *katta qo'rg'on-Kattaqo'r-g'on* va h.k.), qo'shma so'zlarni so'z birikmalariga aylantirish (*paxtagul-paxta guli*, *boshog'riq-bosh og'rig'i*, *badantarbiya-badan tarbiyasi*, *muzqaymoq-muz qaymog'i*, *gulbozor-gul bozori*, *otbozor-ot bozori* va h.k.), berilgan qo'shma

soʻzlar lugʻatini tuzish, ularning imlosini sharhlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish bu mavzuning puxta oʻzlashtirilishini taʼminlaydi.

Juft otlar masalasi ham ancha murakkab masalalardan biri boʻlib, juft soʻzlarni ular orasidagi maʼno munosabatlariga koʻra uyadosh soʻzlar (*aka-uka, ota-ona, koʻz-quloq, ogʻiz-burun, togʻa-jiyan* va h.k.) maʼnodosh soʻzlar (*uy-joy, shirin-sharbat, kuch-quvvat, baxt-saodat, togʻu-tosh, makr-xiyla* va h.k.), qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar (*doʻst-dushman, kecha-kunduz*) singari guruhlariga ajratish, faqat bitta tovushning oʻzgarishi bilan takrorlanadigan *bugʻdoy–mugʻdoy, koʻrpa–moʻrpa, choy–poy, osh–posh, paxta–maxta* singari juft soʻzlarning maʼnosini sharhlash singari topshiriqlardan foydalansa boʻladi.

Maʼlumki, oʻquvchilar oʻz nutqlarida kichraytirish, erkalash otlaridan unumli foydalana olmaydilar. Oʻzbek milliy anʼanalari qayta jonlanayotgan, oʻz mavqeini tiklayotgan bir davrda bu qoʻshimchali soʻzlar alohida ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, yuksak madaniyatli oʻzbek ziyolilari oilalarida azaldan bolalarga, ota-onaga, qavm–qarindoshlarga, umuman, suhbatdoshlarga yuksak hurmat bilan murojaat etish shaxsning oʻz-oʻziga boʻlgan hurmat belgisi boʻlgan. Shuning uchun oʻzini hurmat qilgan shaxs suhbatdoshini hech qachon sensiramadan, murojaat soʻzlarini, atoqli otlarni erkalash, hurmat qoʻshimchalarisiz ishlatmas edi. Soʻzlovchi shaxs maʼnaviy, madaniy jihatdan qancha boy boʻlsa, uning kichiklarga, tobelarga murojaati shuncha samimiy va latofatli boʻlgan. Bu badiiy adabiyotimizda onda–sonda boʻlsa ham uchrab turadi. Yozuvchi Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida Mirzo Boburning ashaddiy dushmani Shayboniyxonning oʻgʻli, tugʻishgan opasining farzandi Xurramshoh bilan suhbat sahnasi, Abdulla Qodiriyning «Oʻtgan kunlar» romanida Yusufbek Hojining oʻgʻli, xotini, kelinlari, xizmatkori bilan suhbat sahnalari buning misoli boʻla oladi. Bunday shirin muomala har bir madaniyatli oʻzbek oilasi uchun xos xususiyatdir. Buni erkalash, kichraytirish qoʻshimchalarining qoʻllanish doirasini kengaytirish orqali amalga oshirsa boʻladi. Shu sababli, «Ot» soʻz turkumini oʻrganishda milliy tarbiyaning bu qirrasini oʻqituvchining diqqat markazida boʻlishi lozim.

Ma'lumki, «O'zbek tilining izohli lug'ati»dagi so'zlarning 50–55 foizini ot so'z turkumiga mansub so'zlar tashkil etadi. Mazkur so'z turkumini o'rganishda ko'zlanadigan asosiy maqsad, avvalo, shu turkumga kiruvchi, ammo o'quvchilar nutqida kam qo'llanilayotgan yoki deyarli qo'llanilmayotgan so'zlarni ularning nutqiy faoliyatiga olib kirish, bolalarning talaffuziy va imloviy ko'nikma hamda malakalarini kengaytirishdan iboratdir.

«**Bu so'z bizniki**» o'yinini o'tkazishda o'qituvchi ko'chma doska yoki kodoskop orqali ot so'z turkumiga oid bir qancha so'zlarni o'quvchilarga tavsiya etadi. Shu so'zlardan mavhum otlarni alohida yozish va ma'nosini sharhlashga ma'lum vaqt ajratiladi. Berilgan so'zlar: *kitob, baxt, taxt, ozodlik, tinchlik, tuyg'u, sumalak, shodlik, chashma, bug'doy, tegirmon, muhabbat, rasm, hurriyat, mardlik, qadriyat, sadoqat*. Qaysi o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi otlarni tez va to'g'ri topsa, o'yinning g'olibi hisoblanadi.

«**Sehrli binokl**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi va o'quvchilar aniq va mavhum otlar haqida suhbatlashganda o'qituvchi ularga mavhum otlarni ko'rib, ushlab yoki o'lchab bo'lmasligi haqida gapiradi. Shunda o'quvchilar shu so'zlarni sehrli binoklda ko'rsak qani edi, deyishadi. O'qituvchi ularga: «Marhamat, qani kim sehrli binokl orqali qancha mavhum otni ko'rar ekan?», –deydi. Mavhum otlardan eng ko'p yozgan, ya'ni uni sehrli binokl orqali bilib olgan o'quvchilar o'yin g'olibi bo'ladi. Shunday qilib, o'quvchilar «Sehrli qalpoqcha», «Sehrli tayoqcha» kabi ertaklarga qiziqqandek «Sehrli binokl»ga ham qiziqish bilan qaraydilar va mavhum otlardan namunalari yozadilar.

«Turdosh va atoqli otlar» mavzusini o'rganishda o'quvchilardan matndan yoki gaplardan bosh va kichik harflar bilan yozilgan otlarda bosh va kichik harflarning yozilish sabablarini izohlash, turdosh otlarni atoqli otlarga aylantirish, berilgan atoqli otlarning kishi ismlari, geografik nomlar, tashkilot nomlari, lavozim nomlari, samoviy jism nomlari kabi guruhlariga ajratish hamda ularning imlosini sharhlash, hosil bo'lgan guruhlarini mustaqil to'ldirish, *Ollobergan, Xosiyatbonu, Roziyasulton, Egamberdi, Xudoyberdi, Xonzodabegim* singari kishi nomlarining imlosini tushuntirish, kishi nomlaridan r, t, d, s, n singari tovushlarning ikkilanib qo'llanishi,

ajratib va qo‘shib yoziladigan qo‘shma toponimlar (joy nomlari) hamda ularning imlosini sharhlash, «Belgi+nom = Belgi atoqli ot» qolipli jug‘rofiy nomlar (*Kichik Osiyo, Janubiy Qozog‘iston, Sharqiy Sibir* va h.k.) imlosini tushuntirish, tarixiy voqea-hodisalar, bayramlar nomlarini guruhlash, tashkilot, muassasa, kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, musiqa, san‘at asarlarining nomlarini to‘g‘ri yozishdan, atoqli otlarga kasb-kor, laqab, lavozim, unvonni ifodalovchi so‘zlar bilan birga qo‘llaniladigan atoqli otlarni yozishga oid o‘yin-topshiriqlardan foydalansa bo‘ladi.

«**Bir so‘zdan ikki ism**» o‘yini. Sinf o‘quvchilari uch guruhga ajratiladi va ularga gulning nomlari, mehnat qurollari hamda hayvonlarning nomlarini yozish va shular atab qo‘yilgan kishi ismlarini yozish topshiriladi. O‘quvchilar yozadilar:

- | | |
|--------------------|----------------------|
| 1. rayhon-Rayhon, | chinnigul-Chinnigul, |
| lola-Lola, | nilufar-Nilufar. |
| 2. bolta-Boltaboy, | o‘roq-O‘roqboy. |
| tesha-Teshaboy, | |
| 3. bo‘ri-Bo‘riboy, | qo‘zi-Qo‘ziboy, |
| olmaxon-Olmaxon. | tulki-Tulkiboy. |

Shu so‘zlarning qaysi biri bosh harf bilan va qaysi biri kichik harf bilan yozilishiga e‘tibor berib, uni to‘g‘ri yozgan o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi g‘olib bo‘ladi.

«O‘zbekistonning geografik joylashishi», «Shaharlar haqida o‘ylarim» kabi matnlardan atoqli va turdosh otlarni alohida ajratib yozishga oid o‘yinlarni ham tashkil etish mumkin.

«**Qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri javob top**» o‘yini. *O‘zbekiston qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh? O‘zbekistondagi qaysi shaharlarning nomlarini bilasiz? O‘zbekistonning qaysi shaharlari tarixiy obidalarga boy? O‘zbekistonda qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi? O‘zbekistonning qaysi mevalari olamga mashhur?* kabi savollarga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar bellashuv g‘olibi bo‘ladi.

«**Qaysi, qanday yoziladi?**» o‘yini. Bu o‘yinda o‘qituvchi ko‘chma doskadagi gapni o‘quvchilarga o‘qib beradi va qaysi gapda qo‘shirnoq qo‘llanishini so‘raydi,

o'quvchilarga shu gaplarni imlo qoidasiga asosan yozish topshiriladi. Tavsiya etiladigan gaplar:

1. Tohir va Zuhra ertagini o'qib chiqdim. Tohir va Zuhra egizaklarga qo'yiladigan ism ekanligini bilib oldim.

2. Dilorom kompyuterda test topshirmoqda. Dilorom magazinidan bayram sovg'asini xarid qilishingiz mumkin.

3. Mehrigiyo she'r o'qiganda hamma hayratda qoldi. Mehrigiyo kichik korxonasi xonadonlarimizga gaz quvurlarini keltirib o'rnatmoqda.

Ushbu gaplardagi atoqli otlarga qo'shtirnoqni to'g'ri qo'yib, imlosini izohlagan o'quvchi o'yin g'olibi sanaladi. Bu mavzuni o'rganishda o'quvchilar o'zlari yashab turgan mintaqadagi joy nomlarini izohlashga doir o'yinlardan ham foydalanishlari mumkin. Masalan, Navbahor tumanidagi Istiqlol jamoa xo'jaligi hududida Beshrabort, Qorajon, Qurama, Qushqochdi, Oq oltin qishloqlari joylashgan. Agar o'qituvchi «**O'z qishlog'ing nomini sharhlay olasanmi?**» o'yin-topshirig'idan foydalansa, atoqli otlar imlosi ustida ishlash ham ularning savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

«**So'zni o'z uyasiga joylashtir**» o'yini. O'qituvchi o'quvchilarga shaxs otlari, kasb-hunar otlari, o'rin-joy nomlari kabilarni ifodalovchi ishlovchi, o'quvchi, o'qituvchi, maktabdosh, temirchilik, o'tloq, qumloq, oshxona, ishxona kabi so'zlarni aytib turadi. O'quvchilar bu so'zlarning shaxs otlari, kasb-hunar otlari, o'rin-joy nomlari kabi uyalarga ajratib yozadilar. So'zlarni o'z uyasiga to'g'ri joylashtirgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi o'yin g'olibi sanaladi.

Berilgan qo'shimchalar yordamida (masalan, *-shunos*, *-chilik*, *-dosh* va h.k.) kim ko'p so'z hosil qiladi. O'quvchilarga bir yoki ikki daqiqa vaqt beriladi-da, berilgan qo'shimcha yordamida so'zlar hosil qilish topshiriladi. Belgilangan vaqtda belgilangan miqdorda so'z hosil qila olgan o'quvchilar o'yin g'olibi hisoblanadi.

«**O'rmonda va hovlida**» o'yini. O'qituvchi o'yin haqida o'quvchilarga izoh beradi: o'rmonda yashaydigan yovvoyi hayvonlar va hovlida yashaydigan uy hayvonlari nomlarini toping, hamda ularni ikki ustunga alohida ajratib yozib chiqing. O'quvchilar yozadilar:

<u>o'rmonda</u>	<u>hovlida</u>
bo'ri	qo'y
tulki	ot
sher	sigir
ayiq	echki

Qaysi o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi belgilangan vaqtda ko'p hayvon nomini yozsa, o'yin g'olibi sanaladi.

«Otlarda son» mavzusini o'rganishda *-lar* qo'shimchasi bilan kelgan otlarni ma'no guruhlariga ajratib, shu **qo'shimcha** yordamida hosil bo'lgan so'zlarning ma'nosini sharhlashga oid o'yin-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb bilamiz. Masalan, o'quvchilarga ko'chma doskaga yozilgan *shaharlar, atamalar, unlar, Buxorolar, Salimalar, uyqularim, ko'ngillarim, orzularim* kabi *-lar* qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan va turli ma'nolarni ifodalovchi so'zlar beriladida, bu so'zlarni: a) ko'plik ma'nosini ifodalovchi so'zlar; b) tur-jins ma'nosini ifodalovchi so'zlar; v) hurmat ma'nosini ifodalovchi so'zlar; g) jamlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar; d) ma'no kuchaytirilgan so'zlar kabi ma'no guruhlarga ajratish topshiriladi. Belgilangan vaqtda har bir uyadosh so'zni o'z o'rniga qo'ygan o'quvchilar o'yin g'olibi bo'ladilar.

Ot so'z turkumini o'rganishda, ayniqsa, ot sinonimlar ustida olib boriladigan ishlar alohida o'rin egallashi lozim. O'quvchilar nutqini ot sinonimlar bilan boyitish maqsadida belgilangan vaqtda berilgan so'zlarning sinonimik qatorlarini hosil qilish, so'zlarni ijobiy, salbiy bo'yog'iga qarab guruhlarga ajratish, so'zda ma'noni darajalab, graduonimik qator hosil qilish (masalan, *uy-kulba-chayla-xona-vayrona; xona-koshona-saroy-qasr-ko'shk*) kabi ijodiy-amaliy ishlarni ham o'yin tarzida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar nutqini antonim so'zlar bilan boyitish maqsadida ma'lum bir qator qarama-qarshi ma'noli so'zlarning birinchi qismini aytsa, ikkinchi guruh shu so'zning qarama-qarshi ma'nosini aytadi. Masalan, 1-qator: *kecha*, 2-qator: *kunduz*, 1-qator: *yer*, 2-qator: *osmon* va h.k.

«Otlarning yasalishi», «Qo‘shma otlar va ularning imlosi», «Juft otlar va ularning imlosi» o‘rganilar ekan, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, imlo savodxonligini takomillashtirish, talaffuziy me‘yorlarni o‘rgatish masalasi o‘qituvchining diqqat markazida turishi kerak. Bu mavzularni o‘rganishda ko‘proq «Imlo lug‘ati» asosida tashkil etiladigan o‘yinlar, so‘zlarni xatosiz yozishga oid o‘yinlar, ma’lum bir imlo qoidasi talabiga ko‘ra yoziladigan so‘zlarni ro‘yxat qilish kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, ot so‘z turkumini o‘rganishda tashkil etiladigan o‘yinlar o‘quvchilarning so‘z xazinasini boyitish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, imloviy savodxonligini oshirish, talaffuz me‘yorlarini takomillashtirishga xizmat qilmog‘i kerak.

«Sifat» so‘z turkumini o‘qitish. Sifat, uning lug‘aviy shakllari, yasalishi 6-sinfda o‘rganiladi. Ammo bu so‘z turkumiga oid dastlabki ma’lumotlar boshlang‘ich sinflarda berilganligini inobatga olib, mazkur so‘z turkumini o‘rganish ana shu egallangan zaruriy bilimlarni o‘quvchilar xotirasida eslash bilan boshlanadi. Berilgan so‘z birikmalarini o‘qish, *qanday? qanaqa? qachongi?* kabi so‘roqlarni qabul qiluvchi so‘zlarni aniqlash, shu so‘zlarni imkoniyat doirasida ularning ma’nodoshi bilan almashtirib so‘z birikmalari hosil qilish (masalan, *bahorgi ish–ko‘klamgi ish*), shaxs va narsa-hodisalarning belgi-xususiyati (rang-tusi, mazata’mi, xususiyati, hajm-shakli) ni ifodalovchi so‘zlarni ro‘yxat qilish, ular ishtirokida gaplar hosil qilish, matnни o‘qib, shunday so‘zlarni aniqlash singari topshiriqlar «Sifat» so‘z turkumi yuzasidan egallangan bilimlarni ular xotirasida tiklashga xizmat qiladi.

Shundan so‘ng o‘quvchilar e’tibori tub va yasama sifatlarga qaratiladi. O‘quvchilar berilgan sifatlarni tub va yasamalarga ajratadilar; yasama sifatlarda sifat yasovchi qo‘shimchalarni aniqlaydilar; berilgan sifat yasovchi qo‘shimchalar yordamida qo‘shimchadosh so‘zlar hosil qiladilar; ularning imlosi ustida ish olib boradilar.

«Sifat» so‘z turkumini o‘rganishda o‘ta muhim masalalardan biri qo‘shma sifatlardan va juft sifatlardan imlosidir. Mazkur mavzuni o‘rganishda «ot+fe’l+ar»,

«sifat+fe'l+ar», «son+fe'l+ar» qoliqli hosilalar ustida ishlash (masalan, *muzyorar, ertapishar, beshotar*), «Imlo lug'ati» dan bu sifatlarni ajratib yozish, bitta tushunchani, belgini ifodalab kelgan «ot+ot», «sifat+ot» qoliqli qo'shma sifatlarni (masalan, *bodomqovoq, sarviqomat, ko'kko'z, qorasoch, oq ko'ngil*) ustida ishlash; tarkibida *nim, yarim, umum, -aro, rang* so'zlari bo'lgan qo'shma sifatlarni ro'yxatini davom ettirish; berilgan juft sifatlarni qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan almashtirish, juft va takroriy sifatlarni ro'yxatini tuzish; ular orasida chiziqchanning qo'yilishi ustida ishlash kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shundan so'ng o'quvchilar asliy va nisbiy sifatlarni hamda asliy sifat darajalari bilan tanishadilar. Asliy va nisbiy sifatlarni so'z o'zagiga *-roq* qo'shimchasini erkin qabul qila olishi va qabul qila olmasligiga qarab farqlanadi. O'quvchilar berilgan sifatlarga *-roq* qo'shimchasini qo'shib, bu qo'shimchani erkin qabul qiladigan sifatlarni asliy va bu qo'shimchani qabul qila olmaydiganlarini nisbiy sifatlarga ajratadilar hamda umumlashma hosil qiladilar.

«Sifat darajalari» mavzusini o'rganishda o'quvchilar sifatlarni belgining ko'lamini ifodalab kelishiga ko'ra: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja kabi to'rt guruhga ajralishini, ularning hosil bo'lishini, ma'nosi, imlosi va talaffuzini bilib oladilar. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida oddiy, qiyosiy, orttirma, ozaytirma darajadagi sifatlarni ro'yxatini tuzish, ularning ma'nosini qiyoslash, shu darajalarni hosil qiluvchi qo'shimchalarning o'zaro sinonimik munosabatga kirishishi kabi ijodiy - amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi. Ayniqsa, berilgan gaplarda yoki matnda *-roq* qo'shimchasini shunga yaqin ma'no anglatuvchi *-ish, -mtir, -imtir* qo'shimchalari, biroz so'zi bilan almashtirish (masalan, *qoraroq-qoramtir-bir oz qora, qizilroq-qizqish-biroz qizil*), orttirma daraja hosil qilgan ma'lum bir vosita (masalan, *eng*) o'rnida shu ma'noni beruvchi boshqa vositani (masalan, *juda g'oyat, nihoyat, behad, cheksiz, g'oyatda, nihoyatda*) qo'llash, sifat yasovchi qo'shimchalarni uning sinonimlari bilan almashtirish (masalan, *-li, -ba - mazali, bamaza; -li, -digan- yoqimli-yoqadigan, ajablanarli-ajablanadigan; -li, -lik - chiroyli-chiroylik; -lik, -dor, -kor - aybli-aybdor,*

gunohli—gunohkor; -gi, -ki, -qi, -dagi – pastki—pastdagi, kuzgi—kuzdagi; -k, -uk, -ik, -ak, -aq, -gan – chirik—chirigan, siniq—singan; -kir, -gir, -g‘ir, -qir, -ag‘on – chopqir—chopag‘on—topqir—topag‘on); sinonim so‘zlarning mavjud antonim-larini topish (masalan, *aqlli—beaql—aqlsiz, mazali—bemaza—mazasiz*) kabi ishlar o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda o‘ta muhimdir.

O‘quvchilar sifatlarning ma’no guruhleri bilan tanishtirilar ekan, asosiy e’tibor rang-tus sifatlari (*qo‘ng‘ir, pushti, jigarrang, ko‘kish, sarg‘ish* va h.k.), maza-ta’m sifatlari (masalan, *achchiq, taxir, nordon, chuchuk, shirin, asaldek, tilyorar* va h.k.), xususiyat bildiruvchi sifatlari (masalan, *sodda, quvnoq, sho‘x, kamtar, ayiqsimon, bo‘ydor, andishali*, va h.k.), holat bildiruvchi sifatlari (masalan, *xursand, ho‘l, issiq, navqiron, uyg‘oq* va h.k.), shakl (ko‘lam) sifatlari (masalan, *baland, do‘mboq, uzun, beso‘naqay, xushbichim* va h.k.), miqdor sifatlari (*ko‘p, mo‘l, oz, serob kamchil* va h.k.), hid bildiruvchi sifatlari (masalan, *muattar, qo‘lansa, xushbo‘y, badbo‘y* va h.k.), makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlari (*tonggi, kuzgi, yozgi* va h.k.) ni ro‘yxat qilish, ularning ma’no nozikligi ustida ishlash, sifatlarning har bir ma’no guruhleri ishtirokida so‘z birikmalari va gaplar hosil qilish, belgining oshib borishiga qarab sifatlarni birin-ketin joylashtirish, sifatlarga ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlar topish singari ijodiy-amaliy ishlarni bajaradilar.

O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda sifat birikmalar ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. Berilgan matndan sifatli so‘z birikmalarini ajratish, ularning ro‘yxatini mustaqil davom ettirish, badiiy asarlardagi ijobiy va salbiy qahramonlarning barcha sifatlarini sanash va ular ishtirokida so‘z birikmalari yoki gaplar hosil qilish, ma’lum bir otga bog‘lanib keladigan barcha sifatlarni topib qo‘yish singari amaliy ishlar o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘quvchilarga «Zumrad va Qimmat» ertagidagi ikki qahramonning sifatlarini aniqlash topshirilgan bo‘lsa, ular Zumradning quyidagi ijobiy fazilatleri va Qimmatning quyidagi salbiy fazilatlarini sanaydilar:

Zumrad	Qimmat
go‘zal	aqlsiz
kelishgan	qo‘pol

aqli	dangasa
mehnatsevar	odobsiz
xushfe'l	o'jar
odobli	yolg'onchi
kamtar	yig'loqi
mehribon	bemehr
chaqqon	uyatsiz
ozoda	so'zamol
rostgo'y	mahmadona
rahmdil	beparvo

Shunday qilib, «Sifat» soʻz turkumini oʻrganishda uning ichki maʼno guruhlari ustida ishlash, sifatlar ishtirok etgan soʻz birikmalari hosil qilish, bu soʻz turkumiga oid materiallarni semantika va stilistika bilan uzviy aloqadorlikda oʻrgatish, sifat sinonimlari va sifat antonimlari ustida maxsus ish olib borish, har xil oʻyin, topshiriqlardan foydalanish kabilar mazkur soʻz turkumini oʻrganishni ancha osonlashtiradi.

Oʻquvchi nutqining goʻzalligi, rang-barangligi, jozibadorligi, taʼsirchanligi koʻp jihatdan sifat soʻz turkumiga oid bilimlarning oʻquvchilar tomonidan puxta egallanganligiga bogʻliq. Mazkur soʻz turkumi yuzasidan tashkil etiladigan mashgʻulotlarning asosiy maqsadi oʻquvchilar nutqini sifatlar bilan boyitish, nutq goʻzalligini taʼminlash, bu soʻzlarni nutqiy sharoitga mos ravishda toʻgʻri va oʻrinli qoʻllash, mazkur turkumga oid soʻzlarni yoza olish malakalarini egallashdan iboratdir. Koʻrinib turibdiki, sifatlarni oʻrganishda oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish eng asosiy talablardan biri sanaladi. Modomiki shunday ekan, mazkur soʻz turkumidan tashkil etiladigan taʼlimiy oʻyinlar ham, avvalo, shu maqsadga xizmat qilishi, yaʼni bolalarning soʻz zaxirasini rivojlantirishga qaratilishi kerak. Ona tili taʼlimi oldiga qoʻyilgan maqsadni amalga oshirishda oʻquvchilar sifatlarning maʼno guruhlari, shakl-hajm sifatleri, maza-taʼm sifatleri kabi maʼnoviy guruhlar ustida ish olib borishar ekan, ular har bir maʼno guruhiga kiruvchi soʻzlarning lugʻatini tuzadilar va qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni topish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlarni

bajaradilar. Bu topshiriqlar o‘yin tarzida tashkil etilsa, mashg‘ulotlar qiziqarli va samarali bo‘ladi.

«**Belgilarini izohlang**» o‘yini. O‘yinni o‘tkazishda o‘quvchilar uch guruhga ajratiladi: 1- guruh qovunning rangini, 2-guruh esa shakl-hajmini, 3-guruh uning maza-ta‘mini bildiruvchi sifatlarni topishadi.

Namuna:

1-guruh: ko‘k, oq, sariq, sarg‘ish.

2-guruh: katta, kichik, uzun, dumaloq.

3-guruh: shirin, mazali, to‘yimli.

O‘qituvchi qovunning rasmini doskaga ilib qo‘yadi-da, 1-guruhdan maza-ta‘mni ifodalovchi, 2-guruhdan rang-tusni, 3-guruhdan shakl-hajmni bildiruvchi sifatlarni aniqlashni topshiradi. Shu uyaga kiruvchi barcha so‘zlarni yozib chiqqan o‘quvchilar o‘yin g‘olibi sanaladi.

«**Nima yaxshi-yu, nima yomon o‘yini**». «Baholash sifatlari» mavzusi o‘rganilayotganida o‘qituvchi o‘quvchilarga shunga oid bir necha sifat aytadi (masalan, *go‘zal-xunuk, aqlli-aqlsiz, odobli-beodob*) kabi. Shunday sifatlarni lug‘atini tuzish topshiriladi va vaqt ajratiladi. Talab etilgan vaqtda eng ko‘p baholash sifatlarni yozgan o‘quvchi o‘yin g‘olibi sanaladi. Shundan so‘ng o‘quvchilarning mavzu yuzasidan fikr-mulohazalari tinglanishi ham mumkin. Chunki shunga muvofiq tarzda ularning qiziqishlari va qarashlari ham o‘rganiladi.

«**Qanday-qanaqa?**» o‘yini. Bu o‘yinda o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini bir predmetning barcha belgilarini aniqlashga qaratadi. Ya‘ni, palto, sumka, kuz, koptok, soch, kitob kabilarning turli belgilarini aniqlashni topshiradi. Namuna: *palto – oq, havo rang, ko‘k, uzun, kalta, yangi, qishki, engil; sumka – yangi, qora, oq, kichik, qizil, dumaloq; ko‘z – moviy, qora, sarg‘ish; soch – uzun, qisqa, yaltiroq, xushbo‘y, qora, oq, malla; kitob – qalin, qiziqarli, katta, kichik, mazmunli, yangi.* Narsalarning hamma belgilarini topa olgan o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi o‘yin g‘olibi bo‘ladi.

«**Olqish olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir**» o‘yini. Bu o‘yin talabiga ko‘ra, o‘quvchilar insondagi yaxshi va yomon xususiyatlarni aniqlashlari, qanday

kishilar olqishga sazovoru, qanday odamlar qarg'ishga uchrashi haqida fikr bildirishlari mumkin.

Kimlar olqish oladi: *vijdonli, sofdil, to'g'ri, halol, mehnatsevar, g'ayratli, ishbilarmon, farosatli, aqlli, zehnli, shirinsuxan, xushmuomala, kamtar, bilimli, bilimdon, oqil, dono ...*

Kimlar qarg'ish oladi: *yolg'onchi, aldoqchi, kazzob, va'daboz, bevafo, ayyor, hiylagar, mug'ombir, makkor, befahm, befarosat, betamiz, dangasa, yalqov, ishyoqmasalan, tanbal, soyaparvar ...*

«**Belgining kuchliligini bilamizmi?**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi sifatlar to'plamini o'quvchilarga tavsiya etadi va shulardan orttirma darajadagi sifatlar yasashni izohlaydi. Topshiriqni o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, musobaqa tarzida bajarishadi va ma'lum belgining ma'lum bir holatdan pastroq yoki kuchliroq ekanligini sharhlaydi.

Namuna: *tim qora, to'q qizil, qip-qizil, liq to'la, jiqqa ho'l, to'q pushti, bag'oyat go'zal, nihoyatda chiroyli, eng baland, juda o'tkir, g'oyatda maftunkor, o'ta badiiy, yam-yashil, ko'm-ko'k, oppoq, behad minnatdor va h.k.*

«**Taqqoslashni bilasizmi?**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi bir qancha sifatlarni doskaga yozadi va qiyoslash orqali ulardagi ma'no tushunchalarning farqlarini izohlashni topshiradi. O'quvchilar berilgan sifatlardan qiyosiy va orttirma darajadagi so'zlar hosil qiladilar. Topshiriqni o'z vaqtida to'g'ri hal eta olgan o'quvchilar o'yin g'olibi bo'ladilar.

Namuna: *sharin – shirinroq – juda shirin; yashil – yam-yashil; katta – kattaroq – eng katta; qizil – qizilroq – qip-qizil; uzoq – uzoqroq – eng uzoq; yaqin – yaqinroq – eng yaqin; muhim – muhimroq – o'ta muhim; ayyor – ayyorroq – nihoyatda ayyor.*

«**Juftini tanlang**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi juft sifatlarning 1-qismini aytib boraveradi, o'quvchilar esa uning har ikkala qismini daftarlariga yozib boradi, berilgan sifatlarning juftini to'g'ri yozgan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladilar.

Namuna: *mayda–chuyda, turli–tuman, yaxshi–yomon, past–baland, uzoq–yaqin, egri–bugri, shirin–achchiq, chaqqon–dangasa, oq–qora, qorong'i–oydin ...*

Sifatlarning ma'no guruhi yuzasidan tashkil etiladigan o'yinlar nutqiy faoliyatda to'g'ri va o'rinli qo'llash bilan yakunlanishi lozim. O'quvchilarga tuzilgan uyadosh so'zlardan foydalanib gaplar tuzish, matn yaratish, gap va matn tarkibidagi ajratilgan so'zlarni ularning boshqa uyadoshlari yoki ma'nodoshlari bilan almashtirib, ularni o'zgartirish kabi topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, tilimizda mavjud bo'lgan sinonimlarning ko'pgina qismini sifat sinonimlar tashkil etadi. O'quvchilar nutqini sifat sinonimlar bilan boyitish maqsadida berilgan tayanch so'zlarga ma'nodoshlar topish (masalan, *katta, gigant, ulkan, buyuk, ulug'*; *chiroyli, go'zal, latofatli, sohibjamol, parivash*), sinonimik qatordagi so'zlarni oddiy bo'yoqli va badiiy bo'yoqli so'zlarga ajratish kabi ijodiy-amaliy xarakterdagi o'yin tariqasida o'tkazilishi yaxshi natija beradi.

Masalan, «**So'zlar guldastasini tuzing**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi sifatlardan namunalar keltiradi va ularning sinonimlarini topish orqali so'zlar guldastasini yasashni topshiradi. Namuna: *sara – sarxil – asil – mumtoz; qadrli – aziz – qadrdon – qimmatli; bepoyon – poyonsiz – cheksiz; loyiq – munosib – muvofiq – mos – monand.*

«**So'zlar bo'yog'ini aniqlang**» o'yini. O'qituvchi sifat sinonimlar majmuasini doskaga yozadi, ularni oddiy va badiiy bo'yoqdor so'zlarga ajratib yozish uchun sinfni ikki guruhga ajratadi. Belgilangan vaqtda topshiriqni to'g'ri bajargan guruh g'olib bo'ladi.

Berilgan so'zlar: *beg'ubor, toza, sof, musaffo; yorug', nurli, charog'on, yorqin, munavvar, porloq, ravshan, nurafshon; inoq, ahil, totuv, ittifoq; sezgir, ziyrak, tuyg'un, hushyor, sergak, tiyrak; saxiy, himmatli, saxovatli, hotam, tanti; botir, jasur, dovyurak, qo'rqamasalan, shijoatli, mard, yovqur.*

Oddiy bo'yoqli so'zlar: *toza, yorug', inoq, sezgir, saxiy, botir.*

Badiiy bo'yoqli so'zlar: *musaffo, munavvar, totuv, tuyg'un, hotam, dovyurak.*

Ma'lumki, sifatlarning yozilishi ustida ishlash ham o'quvchilar savodxonligini oshirishda asosiy o'rin egallaydi. Bu ishni amalga oshirishda ham turli o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Jumladan, «**Chiziqchani yashirib qo'ygin**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi juft sifatlar to'plamini o'quvchilarga havola etadi va ularning -u, -yu orqali bog'lanishi qanday bo'lishini ko'rsatuvchi namunalarni ro'yxatini tuzishni topshiradi.

Namuna: *past–u baland, katta–yu kichik, yakka–yu yagona, yaxshi–yu yomon, novcha–yu pakana, oq–u qora, semiz–u oriq, shirin–u achchiq.*

«**Chiziqcha qani?**» o'yinida o'qituvchi o'quvchilarga kodoskop orqali quyidagi so'zlarni taqdim etadi: *katta katta, ola chipor, och sariq, havo rang, kul rang, qing'ir qiyshiq, xush chaqchaq, katta kichik, mehmon do'st, yam yashil, tim gora, qip qizil, xush ro'y.* So'zlar bir marotaba o'qitiladi va qaysi sifatlarni yozishda chiziqcha qo'yilishini aniqlash o'zaro musobaqa tarzida uyushtiriladi, g'oliblar aniqlanib rag'batlantiriladi.

«Sifat» so'z turkumini o'qitishda «Sifatlarning yasalishi» mavzusini chuqur o'rganish va sifat yasovchi qo'shimchalarni bilish o'quvchiga nutqiy faolligini kengaytirish imkonini beradi, chunki yasovchi qo'shimchalarni ongli o'zlashtirgan o'quvchi berilgan so'zlardan sifatlar hosil qilib, uni zaruriy o'rinlarda qo'llay oladi. Namuna uchun berilgan so'zlar: *qadim, kuz, ertalab, ich, qish, kech, bahor, o't, sez, kes, chop, ol, yoz.* Shu so'zlardan hosil qilingan sifatlar: *qadimgi, ertalabki, ichki, qishki, kechki, bahorgi, o'tkir, sezgir, keskir, chopqir, olg'ir, yozgi.* Qo'shimchalar yordamida bunday sifatlarning yasalishini o'rganish o'quvchida chiroyli so'zlash fazilatlarini rivojlantirib boradi.

«**Tarkibini o'rganamiz**» o'yini. Bu o'yinda sifatlar majmuasi doskaga yoziladi va o'quvchilardan ularni morfemalarga ajratish talab etiladi: *xushovoz, sofdil, havorang, tezpishar, olachipor, xalqaro, sheryurak, tinchliksevar, xushmuomala, zangori, birso'zli, rahmdil, shifobaxsh, erksevar.* Sifatlarning yasalishini sifatlarning tarkibini ongli o'zlashtirgan o'quvchilar buni to'g'ri aniqlashadi va to'g'ri yozish malakalarini mustahkamlay oladi. Bu topshiriq musobaqa tarzida o'tkazilsa, o'yin qiziqarli xarakterga ega bo'ladi.

«**So'z gavharini qadab qo'y**» o'yinida sinf o'quvchilari uch guruhga ajratiladi va birinchi guruh *-ser* qo'shimchasi bilan yasalgan sifat aytadi, ikkinchi guruh uning sinonimini hosil qilsa, uchinchi guruh shu so'zning yana bir ma'nodoshini aytadi.

Namuna:

unum – unumli – unumdor
savlat – savlatli – savlatdor
ser — shovqin – shovqinli
ohang – ohangli
gul – gulli – guldor
baraka – barakali
g'ayrat – g'ayratli – g'ayratchan

«**Kichkintoyim–shirintoy**» o'yinida o'quvchilarga *-gina, -kina* qo'shimchalari yordamida ozaytirma sifatlar hosil qilish tushuntiriladi va berilgan so'zlardan shunga oid sifatlar yozish topshiriladi.

Namuna: *katta–kattagina, muzdek–muzdekkina, pastak–pastakkina, tuzuk–tuzukkina, lo'nda–lo'ndagina.*

«**Qo'shimchani mos qo'ying**» o'yini. Bu o'yinda sinf ikki guruhga ajratiladi. O'qituvchi sifatlarini aytadi. 1-guruh uning ozaytirma darajasini hosil qiluvchi qo'shimchani bittasi qo'llangan so'zni aytsa, ikkinchi guruh shu qo'shimchani sinonimi yordamida hosil bo'lgan so'zni aytadi. Namuna:

Sifat	1-guruh aytgan so'z	2-guruh aytgan so'z
Oq	Oqish	oqimtir
Sariq	sarg'ish	sarg'imtir
ko'k	ko'kish	ko'kimtir

Qaysi guruh musobaqa shartini to'liq bajarsa o'yin g'olibi bo'ladi.

«**Son» so'z turkumini o'qitish.** Maktabda «Son» so'z turkumini o'qitishdan ko'zlanadigan amaliy maqsad o'quvchilarni predmetning son-sanog'ini ifodalovchi so'zlar olamiga olib kirish, ulardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalana olish, imlo savodxonligini oshirish va talaffuz me'yorlarini shakllantirishdir. Avvalo, shuni ta'kiddash joizki, o'quvchilar son yuzasidan boshlang'ich sinfda zaruriy ma'lumotlar bilan qurollantirilganligi tufayli ulardan nutqiy faoliyatda foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Shuning uchun izchil kursda bu so'z turkumidan o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar silsilasi uncha ko'p

emas. Ular, asosan, oldin egallangan bilimlarni takrorlaydilar hamda sonning ichki ma'no guruhlari, qo'shma va juft sonlar, ularning imlosi va talaffuziga oid zaruriy ma'lumotlarni egallaydilar.

Takrorlash va oldingi sinflardan egallangan bilimlarga asoslangan holda o'quvchilarni miqdor va tartibni bildirib, *necha? nechanchi? qancha?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar sonlar ekanligi, sonlar, sanoq, dona, chama, kasr, jamlovchi, taqsim, tartib sonlar kabi ma'noviy guruhlariga bo'linishi hamda hisob so'zlari xususida xulosaga keladilar.

Sonlarning ma'no guruhlarni o'rganish natijasida o'quvchilar berilgan so'zlarni bir turdagi predmetning umumiy ma'nolarini anglatgan sonlar (*to'rt kishi, sakkiz yil, o'n besh kun* kabi), bir xil predmetlarning yakka, donalar sanaladigan umumiy miqdorini anglatgan sonlar (*uchta qalam, yigirmata qoramol, o'ttiz uchta sinf* kabi), taxminiy miqdorni anglatadigan sonlar (*o'tiztacha, yuzlarcha, minglarcha* kabi), miqdorni bir guruhga birlashtirib, taqsimlashni ifodalaydigan sonlar (*ikkov, to'rtov, oltovlon* kabi), predmetlarni taqsimlashni ifodalaydigan sonlarga (*o'ntadan, yuztadan, minggadan* kabi) ajratadilar va ularni qiyoslash natijasida ma'no nozikligini bilib oladilar.

Berilgan sonlarga ma'nodoshlar topish ham o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Masalan, *beshta daftar, o'nta bola, mingta ko'y, uch yuz ellik tup olma daraxti* kabi birikmalar bilan almashtiriladi. O'quvchilar chama son hosil qiluvchi *-tacha* qo'shimchasi o'rniga *-ta* qo'shimchasi yoki *yaqin* so'zini qo'llashlari ham mumkin. Masalan, *yigirmatacha* so'zi o'rnida *yigirmaga yaqin, elliktacha* so'zi o'rnida *ellikka yaqin* kabi.

O'quvchilar lug'atini sonlar bilan boyitishda berilgan qoliplar asosida so'zlar hosil qilish ham o'ta foydalidir. Masalan, «bir+ot+lar» (*bir zamonlar, bir vaqtlar*), «dona son+ta» (*o'nta, yuzta*), «dona son+larcha» (*o'nlarcha, millionlarcha*) kabi.

Sonlarning ma'no guruhlari o'rganilar ekan, ko'proq so'z ma'nosi ustida ishlashga alohida e'tiborni qaratish lozim. Masalan, bir so'zning ma'nolari ustida ish olib borilar ekan, «**Berilgan qolip asosida kim ko'p so'z hosil qiladi?**» o'yin-topshirig'idan foydalansa bo'ladi. O'quvchilarga «Bir + ot + lar» shaklli hosilalarni

yaratish topshiriladi. Belgilangan vaqtda mazkur hosilalarni (masalan, *bir zamonlar*, *bir paytlar*, *bir vaqtlar*, *bir mahallar* va h.k.) to'g'ri hosil qilgan o'quvchilar o'yin g'oliblari hisoblanadi.

O'zbek tilida qadimdan qo'llanilgan va ma'nosi ko'pchilikka tushunarli bo'lmagan *lak*, *tuman*, *botmon*, *chaqirim*, *farsax*, *tanob*, *sadyak*, *misqol*, *qirot*; baynalmilal *fut*, *duym*, *funt*, *mil* kabi so'zlarning lug'aviy ma'nosi ustida ishlash, shuningdek, *millimetr (m)*, *santimetr (sm)*, *desimetr (dm)*, *metr (m)*, *kilometr (km)*, *kilogramm (kg)*, *sentner (s)*, *tonna(t)*, *gektar (ga)*, *million*, *milliard* kabi so'zlarning ma'nosi va qo'llanilishi ustida to'xtalish ham o'ta foydalidir.

Tilimizda *lak*, *tuman*, *botmon*, *chaqirim*, *tanob*, *misqol*, *qirot*, *fut*, *funt*, *duym*, *mil* singari otlar mavjudki, ularning har biri muayyan miqdoriy ko'rsatkichni ifodalab keladi. Masalan, bir botmon 7,8 kgga teng, bir tanob 0,24ga (gektarning to'rtidan biri), bir misqol – 2 gramm, mil – 1,8 km, bir pud – 16 kg, funt – pul birligi, ya'ni Angliya funt-sterlingi va h.k. Bu so'zlar ifodalab kelgan o'lchov birliklarini «Izohli lug'at»dan foydalanib aniqlash o'quvchilarga topshiriladi. Bu ish musobaqa tarzida o'tkaziladigan bo'lsa, u o'yin xarakterida bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchilar millimetr (mm), santimetr (sm), desimetr (dm), kilogramm (kg), kilometr (km), sentner (s), tonna (t), gektar (ga) kabi so'zlar ma'nosini ham to'la tushunmasliklari sababli, zarur paytlarda bu so'zlardan o'rinli foydalana olmaydilar. Shuni nazarda tutib, berilgan so'zlar ifodalaydigan miqdoriy ko'rsatkichlarni topish o'quvchilarga mustaqil ish sifatida topshirilishi mumkin. Mazkur so'zlar aralash holda berilib (masalan, *metr*, *millimetr*, *kilometr* va h.k.) ularni tartib bilan joylashtirish o'quvchilarga tapshirilishi mumkin. Shuningdek, berilgan sonlarni qisqartma shaklda (masalan, *o'n kilometr–10 km* kabi) yozish, ular yordamida gaplar hosil qilish, muayyan miqdoriy ko'rsatkichlarni ifodalovchi so'zlar ishtirokida matnlar tuzish singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

Sonlarning ko'chma ma'nosini sharhlash (masalan, aza marosimlarini ifodalovchi uch, yetti, qirq kabi so'zlar), ular yordamida gaplar tuzish, sonlar ishtirok etgan xalq maqollari (masalan, *Bir qo'y ketidan ming qo'y to'yadi. Bir*

qo'llab sochasan, ikki qo'llab o'rasan. Bir qo'chqorning shoxi singuncha, yuzta qo'yning boshi ketadi. Yetti o'lchab bir kes. Yetti yashar safardan kelsa, yetmish yashar ko'rgani kelar) ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilar nutqini boyitishda muhim ahamiyatga ega.

«Son» so'z turkumini o'rganishda o'yin-topshiriqlar, topishmoqlardan keng foydalaniladi. Bu topishmoq va topshiriqlar sonlarning ichki ma'no guruhlari, ma'lum bir ma'no guruhidan boshqa bir ma'no guruhidagi so'zlar hosil qilish, sonlar sinonimiyasi, ularning imlosi kabi muhim masalalarga bag'ishlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur so'z turkumini o'rganishda, ayniqsa, «Maktabimiz tarixi», «Qishlog'imiz tarixi», «Xo'jaligimiz tarixi», «Maktabimiz ustaxonasi jihozlarini topshirish va qabul qilish» kabi mavzularda matnlar yozdirish o'ta foydalidir.

Sanoq sonlar o'rganilar ekan, shu sonlarni o'z ichiga olgan xalq maqollari va hikmatli so'zlar topish bo'yicha «Topqirlar bellashuvi» o'tkazish yaxshi samara beradi. O'quvchilar nafaqat «Bir bolaga etti mahalla ota-ona», «Sanamay sakkiz dema», «Bir yil tut ekan kishi, yuz yil gavhar teradi», «Bir dehqon omoch bilan, yettovlon cho'mich bilan», «Bir kalla-kalla, ikki kalla-tilla», «Bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka uchadi», «Bir ko'ngil imoratiming Makka ziyorati» singari xalq maqollarini topib, ulardan sanoq sonlarni aniqlaydilar, balki shu maqollarning ma'nolari ustida ham ish olib boradilar. Masalan, «Bir ko'ngil imorati ming Makka ziyorati» maqolida yaxshilik qilib, bir kishining ko'nglini shod va xursand qilish Makkaga yuz marta borib haj qilib kelishdan yaxshiroq va xayrliroq ekanligini tushuntiradilar. Shu o'rinda o'qituvchi buyuk bobokalon shoirimiz Alisher Navoiyning «Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay, oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay», baytini keltirib, bu baytning ma'nosini tushuntirishni talab qilishi mumkin. O'quvchilar mazkur baytda ham yuqoridagi mazmun ifodalanganligini aytishadi. Sanoq sonlarni o'z ichiga olgan so'zlarni belgilangan miqdorga etkazib, ularning ma'nosini tushungan va izohlab bera olgan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

«Qanday sonni qo'yamiz?» o'yini. Bu o'yinda so'z birikmalaridagi nuqtalar o'rmini son bilan to'ldirish topshiriladi va belgilangan vaqtda uni to'g'ri bajargan

o'quvchilar guruhi g'olib sanaladilar. Tavsiya etilgan so'z birikmalari: ... *o'quvchi*, ... *maktab*, ... *daraxt*, ... *xona*, ... *tramvay*, ... *ko'cha*, ... *un*, ... *beda*, ... *tuproq*.

Namuna: 3 ta o'rdak, 1-maktab, 4 ta daraxt, 12-xona, 11-tramvay, 7-ko'cha, bir qop un, bir bog' beda, bir siqim tuproq.

«Jamlovchimi, taqsim sonmi?» Bu qiyinmi, yo osonmi» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi tavsiya etgan sonlarni sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linib, jamlovchi va taqsim songa ajratib yozadilar.

Berilgan so'zlar: *ikkitadan*, *ikkovi*, *beshtadan*, *uchalasi*, *beshovlon*, *to'rtalasi*, *to'rtovlon*, *ikkalasi*, *to'rttadan*, *ettovi*, *oltovi*, *sakkiztadan*. Belgilangan vaqtda topshiriqni to'g'ri bajargan guruh o'yin g'olibi sanaladi.

Sonning ma'no guruhlaridan biri chama sonlar ustida ish olib borilayotganda berilgan chama sonlarni ularning ma'nodoshlari bilan almashtirish nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun o'ta muhimdir. Masalan, o'ntacha, yuztacha, mingtacha singari sonlarni, shu ma'noni ifodalovchi boshqa so'zlar bilan almashtirish topshiriladi. O'quvchilar *o'ntacha* so'zini *o'nlab*, *o'nga yaqin*, *9-10 tacha* kabi ma'nodoshlari bilan almashtirishlari mumkin.

Tilimizda *«Ikki gapning birida»*, *«Besh qo'lday ayon»*, *«Yil o'n ikki oy»*, *«Yetti qovun pishig'i»* singari frazeologik birlik holatida qo'llaniladigan sonlar mavjudki, ularning ma'nosi ustida to'xtalish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar bu birliklar ishtirokida gaplar tuzishlari, qo'llanilgan turg'un bog'lanmalarning ma'nosini sharhlashlari mumkin.

«Son» so'z turkumini o'rganishda eng murakkab masalalardan biri imlodir. Shuning uchun bu so'z turkumini o'rganishda tashkil etiladigan o'yinlarning muayyan qismini shunga qaratish o'rinlidir. Masalan, o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish maqsadida **«To'g'ri yozgan g'olib bo'lar, yaxshi ilmu tolib bo'lar»** o'yin-topshirig'idan foydalansa bo'ladi. Bu o'yinda o'qituvchi masalan, 5–10 sonlarni berib, ulardan *-nchi (-inchi)* *-ala*, *-lab*, *-tadan*, *-larcha* qo'shimchalari ishtirokidagi sonlar hosil qilishni topshiradi. Berilgan vaqtda topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchilar o'yin g'olibi bo'ladilar. Namuna: beshinchi, beshala, beshovi, o'nlab, o'ntacha, o'nlarcha.

O'qituvchi ma'lum bir sonlarni doskaga yozadi va ularni imlo qoidasiga muvofiq yozishni talab etadi. Masalan, *bir-ikki, uch-to'rt, besh-ta-besh-ta, o'ttiz-qirq, besh-olti, o'nta-o'nta* kabi. Yoki berilgan tavsiya asosida raqamlar bilan ifodalangan sonlarni so'zlar orqali to'g'ri yozgan o'quvchilar ham o'yin sharti asosida g'oliblikni qo'lga kiritishlari mumkin.

O'qituvchi qo'shma sonlar imlosi ustida to'xtalayotganida **«Sonlar songa boylandi, Qo'shma songa aylandi»** o'yinidan foydalanishi mumkin. Bu o'yinni o'tkazishda o'quvchi *noldan o'ngacha* bo'lgan sonlarni doskaga yozadi va shu sonlardan qo'shma sonlar hosil qilib yozishni topshiradi. O'quvchilar avval ikki xonali, so'ng uch xonali, to'rt xonali va hokazo qo'shma sonlar hosil qiladilar. Masalan: *o'n olti, bir yuz olti, bir ming to'qson to'rt, bir yuz yigirma* kabi.

Ayniqsa, yil, oy, kunlarning yozilishi, tashkilot, muassasa va hokazolarning tartib raqamini yozish o'quvchilarda ancha qiyinlik tug'diradi. Shuning uchun tashkil etiladigan o'yinlarning muayyan qismi shu imlo qoidasiga taalluqli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, raqamlar bilan berilgan tarixiy sanalarni so'zlar bilan yozish topshirilishi mumkin. Namuna: *1.09.91, 21.10.89, 8.10.92*. O'quvchilar berilgan bu tarixiy sanalarni nafaqat so'zlar bilan yozishlari, balki shu sana ifodalab kelayotgan tarixiy kunning nomini yozishlari ham maqsadga muvofiqdir. Masalan, 1991-yil 1-Sentabr-O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni, 1989-yil 21-oktabr- O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili» to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan kun va h.k.

Berilgan arabcha raqamlarni rim raqamlari va so'zlar bilan yozish ham o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirishda o'ta muhimdir. Masalan, 6-sinf-VI sinf- oltinchi sinf o'quvchilar rim raqamlaridan keyin chiziqcha qo'yilmasligini esda saqlab qolishlari talab etiladi.

Sonlarni o'rganishda o'quvchilarni soatda ko'rsatilgan vaqtni o'qishga o'rgatish ham juda zarurdir. Bu ishni bajarishda sinf o'quvchilarini ikki yoki uch guruhga bo'lib, muayyan vaqt ko'rsatilgan rasmlarni namoyish etiladi. O'quvchilar soatda ko'rsatilgan vaqtni daftarlariga yozib boradilar hamda bu vaqt birliklarining ma'nodoshlarini topadilar. Masalan, rasmda soat mili 8 dan 45 daqiqa o'tganligini

ko'rsatib turibdi. O'quvchilar bu vaqtni *sakkizu qirq besh daqiqa, chorakam to'qqiz, o'n besh daqiqa kam to'qqiz* deb yozadilar. O'quvchilar sutkaning boshlanishi deb yarim kun (kech soat 24 yoki 00 soat) qabul qilinganligini, shuning uchun yarim kundun tushgacha (kunduz soat 12.00 gacha) soat hisobi 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12 deb o'qilishini, tushdan yarim tungacha esa soat 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24 (yoki 00) deb o'qilishini esda tutishlari zarur. Imlo va talaffuz bilan bog'liq bo'lgan bu amaliy ko'nikmalarni singdirishda ham o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

«**Ravish**» so'z turkumini o'qitish. Ma'lumki, mustaqil ma'noli o'zgarmas so'zlar ravishlardir. Ravishlar belgini, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydigan, lug'aviy shakllarga ega bo'lmagan mustaqil ma'noli o'zgarmas so'zlar bo'lib, ular o'z ma'nosi bilan ot, sifat, sonlarga yaqin turadigan so'zlar sanaladi va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni qabul qila olmasligi bilan yuqoridagi so'zlardan farq qiladi. O'quvchilar berilgan so'zlarga ko'plik (-lar), qiyosiy daraja (-roq), egalik (-im, -ing, -i, -si), kelishik (-ning, -ni, -ga, -da, -dan) qo'shimchalarini qo'shib, bu qo'shimchalarni qabul qilmaydigan so'zlarni aniqlash, o'zgarmas so'zlar qatorini davom ettirish, berilgan ravishlarni ma'no guruhlariga ajratish, *-ona, -larcha, -chasiga* qo'shimchalari yordamida qo'shimchadosh so'zlar hosil qilish orqali bu turkumdagi so'zlar xususida umumiy ma'lumotga ega bo'ladilar.

Ravish xususida umumiy ma'lumot berilgach, ular tub va yasamalarga ajratiladi.

Tub va yasama ravishlarni o'rganish jarayonida *-larcha, -chasiga, -ligicha, -ona, -an, -lay, -incha* qo'shimchalari yordamida so'zlar hosil qilish (masalan, *yangicha, boshqacha, qahramonlarcha, o'rtoqlarcha, buxorochasiga, eskichasiga, issiqligicha, tirikligicha, saharlab, nahorlab, mardona, fikrona, umuman, taxminan, butunlay, tiriklayin, ko'pincha, aksincha*), berilgan so'zlardan qo'shma ravishlar hosil qilish, bu so'zlar yordamida gaplar qurish singari amaliy ishlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Berilgan ravishlarga ma'nodoshlar topish (masalan, *doim–hamisha–surunkasiga*; *arang–zo'rg'a*), ravish–antonimlar ro'yxatini tuzish, so'zlarni takrorlash yo'li bilan ravishlar hosil qilish (masalan, *yuzma–yuz, ketma–ket*), nuqtalar o'rniga zarur ravishni topib qo'yib, gaplarni ko'chirish, gaplarda ajratilgan ravishlarni ularning ma'nodoshlari bilan almashtirish kabi mustaqil ishlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhim omil sanaladi.

Ravishlarning ma'no guruhleri ustida ishlash ham o'quvchilar lug'atini boyitishning muhim manbaidir. Xususan, berilgan matn yoki gaplarda *qanday? qay tarzda? qay holda?* so'roqlariga javob bo'ladigan holatni ifodalovchi so'zlarni ajratish (masalan, *qahramonlarcha, botirlarcha, fidokorona, astoydil*), *qachon? qachongacha? qachondan? qachondan beri?* so'roqlarining har biriga javob bo'ladigan paytni ifodalovchi so'zlar topish (masalan, *bugun, hozir, kech, tunda, qadim, burun, bultur, tunov kun, hamisha*), *qaerda? qaerdan? qaerga?* so'roqlariga javob bo'ladigan o'rinni ifodalovchi so'zlar ro'yxatini tuzish (masalan, *unda, bunda, pastda, quyida, uzoqda*), *qancha? qay darajada?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni alohida guruhlash (masalan, *juda, oz–ozdan, g'oyat, ancha, sal, mo'l*), bu so'zlarga ma'nodosh va uyadoshlar tanlash, har bir guruhdagi so'zlarning ma'no nozikligi ustida ishlash, bu so'zlar yordamida gaplar tuzish va matnlar yaratish kabi amaliy ishlardan foydalanish yaxshi samara ko'rsatadi. Ravishlarning ma'no guruhleri ustida ishlashda berilgan qoliplar (masalan, «sifat+ligicha», «son+lab» va h.k.) so'zlar hosil qilish, bu hosilalarning ma'nosini sharhlashdan ham foydalansa bo'ladi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda ravishlar qatnashgan so'z birikmalaridan foydalanish mumkin. Xususan, berilgan gaplar yoki matndan ravishlarni topib, uni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirish, berilgan fe'lga ravishlar topib qo'yib, so'z birikmalari hosil qilish yoki berilgan so'zga ma'nodosh ravishlarni topib qo'yish, so'z birikmalari yaratish kabi ishlar o'ta foydalidir. Masalan, o'quvchilarga *ishladi* fe'li berilgan bo'lsa, unga *mardlarcha, fidokorona, qahramonlarcha, alpomishlarcha, rustamchasiga* kabi ravishlarni topib qo'yib, so'z birikmalari hosil qilishlari mumkin.

Berilgan soʻzga ravish sinonimlar topib qoʻyish juda foydali ish usullaridan sanaladi. Masalan, oʻquvchiga *keldi* feʼli berilgan boʻlsa, ular bu soʻzni *darrov–darhol–tez–tezda–bir pasda–bir zumda–bir lahzada–zumda* kabi sinonimik yua bilan bogʻlab, soʻz birikmalari hosil qilishlari mumkin.

Mazkur soʻz turkumini oʻrganishda ajratib va qoʻshib yoziladigan qoʻshma ravishlar hamda juft ravishlar imlosiga alohida eʼtibor berishga toʻgʻri keladi. Bu soʻzlarni alohida-alohida guruhlariga ajratish, har bir guruhni mustaqil davom ettirish kabi amaliy ishlar oʻquvchilarning imlo savodxonligini oshirish va nutqini rivojlantirishda oʻta muhimdir.

Xullas, «Ravish» soʻz turkumini oʻrganishda oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish imkoniyatlari benihoya koʻp. Oʻqituvchi oʻrganilayotgan til hodisasining oʻziga xos xususiyatlari va mavjud shart-sharoitlarni hisobga olib, ulardan oʻrinli va unumli foydalana olmogʻi lozim.

Oʻqituvchi «Ravish» soʻz turkumini oʻqitishda har xil qiziqarli taʼlimiy oʻyinlardan ham unumli foydalanishi mumkin. Masalan, «Men holat ravishiman», «Men payt ravishiman», «Men oʻrin ravishiman», «Men daraja-miqdor ravishiman» singari oʻyin-topshiriqlar shular jumlasidandir. Oʻyinni tashkil etish uchun oʻquvchilarga soʻzlar tarqatiladi. Oʻqituvchi ravishning qaysi bir maʼno turini aytsa, oʻsha guruhga kiruvchi soʻzni olgan oʻquvchilargina oʻrinlaridan turadilar. Soʻzlarning maʼno guruhini toʻgʻri belgilagan oʻquvchilar oʻyin gʻolibi sanaladilar.

«**Tub ravishmi – yasamami?**» oʻyini. Bu oʻyinda oʻqituvchi ravishlar guruhini kodoskop orqali doskaga tushiradi. Sinf oʻzaro musobaqalashuvchi 2 guruhga ajratiladi va 1-guruh tub ravishlarni, 2-guruh esa yasama ravishlarni koʻchirib yozishlari topshiriladi. Berilgan soʻzlar: *doʻstona, koʻpincha, asta, kecha, qadrdonlarcha, eskichasiga, toʻsatdan, bir oz, ertalab, narida, sekin, xiyol, bultur.*

«Holat ravishlari» mavzusini oʻrganishda sinf oʻquvchilari ikki guruhga ajratiladi va «**Oʻxshashini toping**» oʻyini orqali 1-guruh oʻquvchilariga *-lay, -ligicha*, 2-guruh oʻquvchilariga *-ona, -larcha* qoʻshimchali ravishlarni yozishlari topshiriladi. Bellashuvda ravishlar va ularning sinonimlarini toʻgʻri yozgan guruh gʻolib boʻladi.

Namuna: 1) butunlay, butunligicha, tiriklay, tirikligicha;

2) qahramonona, qahramonlarcha, mardona, mardlarcha.

«**Darajami, miqdormi? Buni bilganlar bormi?**» o‘yini. Bu o‘yinda o‘qituvchi sinfni ikki guruhga ajratadi va ish-harakatning daraja-miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildirib, *qancha? qay darajada?* so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini o‘zaro musobaqalashib tuzib chiqishni topshiradi. Bellashuvda belgilangan vaqtda shu so‘roqlarga javob bo‘lgan ravishlardan ko‘p namuna yoza olgan o‘quvchilar guruhi g‘olib bo‘ladi.

Namuna: *bir oz, picha, qittak, sal, xiyol, soatlab, oylab, yana, tag‘in, metr lab, chamalab, qancha, ozmuncha, mumkin qadar, aslo, sira, qisman.*

«**Juftmi yoki takrormi?**» o‘yini. Bu o‘yinda sinf o‘quvchilari ikki guruhga ajratiladi. Berilgan ravishlardan juftlarini 1-guruhga, takroriy ravishlarni 2-guruhga alohida ro‘yxat qilish va ro‘yxatni davom ettirish topshiriladi. Berilgan so‘zlar: *astasekin, mo‘l-ko‘l, nari-beri, sira-sira, zinhor-zinhor, qayta-qayta, unda-bunda.*

«**Kovushim, kangla qushim. Yo‘rg‘alaydi juft ravishim**» o‘yini. Bu o‘yinda sinf o‘quvchilari partalararo kuch sinashishlari mumkin. O‘qituvchi she‘riy hazillar orqali kovushning juftligi haqida o‘quvchilar bilan fikrlashadi va juft ravishlar ham ikki so‘zdan iboratligini uqtiradi. Shundan so‘ng ravishlar majmuasini tavsiya etadi. Qaysi guruh shular orasidan juft ravishlarni tezda aniqlab yozsa, o‘yinda g‘olib bo‘ladi. **So‘zlar:** *ochiq, oydin, eson, omon, qishin, yonma yon, boshdan oyoq, yozin, sekin, ochiq, asta, to‘kin.*

Namuna: *ochiq-oydin, qishin-yozin, eson-omon.*

«Ravish» so‘z turkumini o‘rganishda mazkur so‘zlardan foydalanib gap tuzish, gapdagi ravishlarni ularning ma‘nodoshi bilan almashtirish, ma‘lum ma‘noviy guruhga mansub ravishlar lug‘atini tuzish, ravishlardan foydalanib matnlar yaratishga oid zukkolar va topqirlar bellashuvlari mazkur so‘z turkumiga doir zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarini puxta egallashga, dars jarayonida o‘quvchilarning ishchanlik faoliyatini oshirishga yordam beradi.

«**Olmosh**» so‘z turkumini o‘rganish. Ma‘lumki, turkiyshunoslikda olmosh nafaqat ot, sifat, son, balki fe‘l, ravish, taqlidiy so‘zlar, undovlar va hatto matnni

ham almashtirishi, ularga ishora qilishi ma'lum. Shuni nazarda tutib, mazkur so'z turkumi barcha mustaqil so'z turkumlaridan keyin o'qitiladi.

O'quvchilar olmosh xususidagi dastlabki ma'lumotlarni boshlang'ich sinflarda egallaganlar. Shuning uchun mazkur so'z turkumini o'rganishda avvalo ana shu ma'lumotlarga tayanmoq lozim. Ular oldin egallangan bilimlarga asoslanib, berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan so'zlar (olmoshlar) qaysi so'z, gap, voqea-hodisaga ishora qilayotganligini aniqlashlari mumkin.

«Olmosh» so'z turkumi xususidagi izchil bilimlar 7-sinfda beriladi. O'quvchilar berilgan gap juftlarida ajratilgan so'zlar oldingi gapdagi qaysi so'zga ishora qilayotganligini aniqlash, ularning gapdagi vazifasini tushuntirish; bir gapni ikki yoki uch gapga ajratish, gaplarni o'zaro mazmunan bog'lashda olmoshlardan foydalanish; berilgan gap juftlarini bir gapga birlashtirish; olmoshlarni qatnashtirib gaplar tuzish singari amaliy topshiriqlar orqali bu so'z turkumi xususida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Shundan so'ng olmoshlarning ma'no guruhleri o'rganiladi. «Ko'rsatish olmoshlari» mavzusi o'rganilar ekan, *bu, shu, o'sha, u* olmoshlari gapdagi biror so'zni aniqlab kelishi ham, matndagi biror tushuncha yoki fikrga ishora qilib, uni almashgirib kelishi ham mumkinligini bilib oladilar. Mazkur mavzuni o'rganishda asosiy e'tibor bu olmoshlarning ma'nosi, imlosi, talaffuzi va qo'llanilishiga qaratiladi.

Kishilik olmoshlari xususidagi dastlabki ma'lumotlar boshlang'ich sinfda, shuningdek, 5-sinfda berilgan. 7-sinfda esa bu bilimlar takomillashtiriladi.

O'quvchilar shaxs, predmet, voqeaga ishora etuvchi olmoshlarni puxta egallashlari uchun gap yoki matndan darslikda berilgan (masalan, *Rahimjon bugun xursand. U chigal jumboqni echdi. Rasmda chiroyli manzara tasvirlangan ekan. Bunday rasmlardan biz ona tili mashg'ulotlarida tez-tez foydalanamiz*) *men, sen, u, biz, siz, ular, bu, shu, o'sha, ana, mana, mana bu, anavi* singari olmoshlarning nimalarga ishora etayotganligini aniqlashlari, matndagi yoki gaplardagi so'z, so'z birikmasi, gap, voqea-hodisa tavsifini ishora so'zlar bilan almashtirishlari, bu

so‘zlarning ma’nosini sharhlashlari, shunday so‘zlardan foydalanib matn yaratish kabi amaliy ishlarni bajarishlari maqsadga muvofiqdir.

O‘zlik olmoshi predmetni aniqlab yoki ta’kidlab ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan olmoshdur. O‘quvchilar berilgan gaplardagi ko‘rsatish, kishilik olmoshlarini o‘z so‘zi bilan kuchaytirib yozish, bu so‘z ishtirokida gap tuzish yoki matn yaratish, o‘z so‘zining ifodalab kelayotgan ma’nosini sharhlash orqali uni o‘zlarining nutqiy faoliyatlariga olib kiradilar.

«So‘roq olmoshlari» mavzusini o‘rganishda berilgan gaplarni o‘qib, so‘roq ma’nosi qaysi so‘z bilan ifodalanayotganligini aniqlash, shu gaplarda so‘roq ifodalovchi so‘zlarni: 1) shaxs, hayvon yoki narsa-buyum, voqea hodisa nomlari so‘roqlari; 2) belgi-xususiyat so‘roqlari; 3) harakat-holat so‘roqlari kabi guruhlarga ajratib, ularni mustaqil davom ettirish, so‘roqlar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chirish, istagan bir matndagi gaplarni o‘qib, har bir so‘zni birin-ketinlikda so‘roqlar bilan almashtirish, bu gaplarning ohangi va imlosi ustida ishlash mazkur mavzuni o‘rganishni ancha osonlashtiradi va samaradorlikni oshiradi.

So‘roq olmoshlarini o‘rganishda *-mi* so‘roq yuklamasining so‘roq olmoshli gaplarda ta’kid, so‘rash ma’nolarida ishlatilishi hamda ularda tinish belgilari xususida ham to‘xtalish maqsadga muvofiqdir.

Olmoshning yana bir ma’no guruhi belgilash olmoshlaridir. O‘quvchilar berilgan matndan *shunday, shunaqa, muncha, shuncha* so‘zlari ifodalagan ma’noni, qanday so‘zlarga ishora qilib kelayotganligini aniqlash, bunday olmoshlar ro‘yxatini tuzish, ular ishtirokida matn yaratish orqali bu haqda puxta bilimga ega bo‘ladilar.

Tilimizda jamlash olmoshlari uncha ko‘p emas, o‘quvchilar *hamma, bari, jami, butun, yalpi* so‘zlarining ma’no va vazifasi ustida ishlash, bu so‘zlar yordamida gaplar tuzish singari amaliy ishlar orqali mazkur mavzuni o‘zlashtiradilar.

O‘quvchilar lug‘at boyligiga belgilash, bo‘lishsizlik va gumon olmoshlarini olib kirish, bu so‘zlarning nutqiy faoliyatda qo‘llanilishini ta’minlash uchun so‘roq olmoshlarini *har, hech* va *alla* so‘zlari bilan biriktirib qo‘shma so‘zlar hosil qilish, *hech kim, hech narsa, har bir, har narsa, alla kim, alla nima, alla qanday, alla mahal, alla qachon, allavaqt, nimanidir, kimningdir, qayerdadir, qachondandir,*

qachondir kabi soʻzlarning maʼnolari va qoʻllanilishi ustida ishlash, «*har+ot*», «*hech+ot*», «*alla+ot*» singari hosilalar lugʻatini tuzish kabi amaliy ishlardan unumli foydalanishga toʻgʻri keladi.

Olmoshlarning maʼno guruhlariga toʻxtalar ekanmiz, bu soʻz turkumining uslubiy imkoniyatlarini ham unutmaslik lozim. Chunonchi, odatda, kishilik olmoshlari: *men, sen, u* yakka shaxslarni koʻrsatish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun bu olmoshlar *-lar* qoʻshimchasi bilan qoʻllanilmaydi. Ammo soʻzlovchi nutqi qaratilgan shaxsga hurmatsizlik bilan muomala qilganda, undan oʻzini yuqori tutganda baʼzan *sen* olmoshiga *-lar* qoʻshimchasi qoʻshiladi. (masalan, *Senlar kimlar? Senlarga maktab tashvishi begonami?* kabi). Oʻquvchilar kishilik olmoshlari bilan tanishtirilgan ekan, uning bu xususiyatlariga ham toʻxtalishga toʻgʻri keladi. Soʻroq olmoshlari oʻrganilayotganda uning turli xil koʻrinishlari (*kim, nima, qanaqa, qanday, qaysi, qancha, qachon, necha, qayer* kabi) oʻzaro sinonim sifatida ishlatilishiga oid amaliy mashqlardan foydalanish oʻrinlidir. Ayniqsa, berilgan gaplarda yoki matnda ajratilgan olmoshlarni uning maʼnodoshi bilan almashtirish (masalan, *Sinfdoshim Moʻtabar sizning kimingiz boʻladi?—Sinfdoshim Moʻtabar sizning nimangiz boʻladi?* kabi) samarali ish usullaridan biridir.

Sinonimlari mavjud olmoshlarni alohida roʻyxat qilish (masalan, *hammasi jami–barcha–bari; allakim–kimdir, allanima–nimadir, allaqanday–qandaydir* kabi), ular ishtirokida gap yoki matnlar yaratish oʻquvchilar nutqini rivojlantirishda oʻta muhimdir.

Mazkur soʻz turkumini oʻrganishda juft va takroriy olmoshlar ustida ishlashga ham toʻgʻri keladi. Berilgan juft yoki takroriy olmoshlarni (masalan, *shu–shu, oʻsha–oʻsha, u–bu, uni–buni, unga–bunga, uncha–muncha, kim–kim, nima–nima, necha–necha* va h.k.) qatnashtirib gaplar hosil qilish, ularning maʼnosini sharhlash bu mavzuni oʻrganishda muhim ahamiyatga ega.

Maʼlumki, taʼlim tarbiya bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi. «Olmosh» soʻz turkumini oʻrganishda ham bu birlikka qatʼiy amal qilinadi. Oʻquvchilar kishilik olmoshlaridan biri *siz* olmoshi bilan tanishtirilgan ekan, bu olmoshning milliy anʼanalarimiz bilan bogʻliq holda qoʻllanilish doirasiga katta eʼtibor beriladi. Chunki

uzoq madaniy o'tmishga ega bo'lgan o'zbek xalqi yakka tinglovchiga ham «siz» deb murojaat qiladi. Hatto katta yoshdagi kishilar ham o'zlaridan kichiklarga «siz» deb murojaat etishgan.

«Sen ham, siz ham bir og'izdan chiqadi» xalq maqolining mazmuni ustida ishlash, dono xalqimizning bu go'zal odatini o'quvchilarda tarkib toptirish shu mavzuni o'rganish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

«Olmosh» so'z turkumini o'rganishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati benihoya katta. Masalan, o'quvchilarning nutqiy va fikriy taraqqiyotini ko'zlab, olmoshning ma'no guruhlari o'rganilgandan keyin uni mustahkamlash maqsadida «Ijodkor» o'yin-topshirig'idan foydalansa bo'ladi. O'yinni tashkil etish uchun sinf o'quvchilari ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruh vakili ot bilan ifodalangan gaplarga misollar keltiradi. Ikkinchi guruh esa shu gaplardagi egani olmosh bilan almashtirib, uni davom ettiradilar.

Namuna:

Birinchi guruh

Paxtalar qiyg'os ochildi.

Ikkinchi guruh

Uni yig'ib-terib olish uchun
puxta hozirlik ko'rilmogda.

Xullas, «Olmosh» so'z turkumini o'rganishda uning ma'no guruhlari ustida ishlash, berilgan matni tahlil qilib, undagi takroriy so'zlarni olmosh bilan almashtirish, berilgan olmoshlarni ularning ma'nodoshlari bilan almashtirish o'quvchilarni nutqiy faoliyatga tayyorlash uchun o'ta muhimdir.

Taqlidiy so'zlar va undovlarni o'rganish. Tilimizda mustaqil so'z turkumlariga ham, yordamchi so'z turkumlariga ham kirmaydigan talaygina taqlidiy so'zlar va undovlar bo'lib, o'quvchilarni bu so'zlar olamiga olib kirish ularning nutqiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

Ma'lumki, taqlidiy so'zlar ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) tovushga taqlid bildiruvchi so'zlar; b) holatga taqlid bildiruvchi so'zlar.

O'quvchilar lug'atini tovushga taqlid bildiradigan so'zlar bilan boyitish maqsadida berilgan so'zlarni (masalan, *inga-inga, gumbur-gumbur, pix-pix, viz-viz, vish-vish, vaq-vaq, miyov-miyov, bildir-bildir, hov-hov* va h.k.), inson tovushiga

taqlid soʻzlar, hayvon, qush, hasharotlar chiqaradigan tovushga taqlid soʻzlar, tabiat hodisalari chiqargan tovushlarga taqlid soʻzlarga ajratish va bu soʻzlar guruhini mustaqil davom ettirish, tovushga taqlid soʻzlarni toʻliq takrorlangan (masalan, *gumbur-gumbur, guldur-guldur*) va tovushlar takrori (masalan, *taq-tuq, shaq-shuq*) kabi guruhlarga ajratish, ular yordamida gaplar qurish, matn yaratish, taqlid soʻzlarda maʼnoning torayishi (masalan, *shaqshaqa, tartarak, sharshara*), ularning qoʻllanilishi va imlosi ustida ishlashga oid amaliy ishlar bajariladi.

Holatga taqlid soʻzlar ustida ishlashda ham xuddi shunga oʻxshash ish usullaridan (masalan, holatga taqlid soʻzlar roʻyxatini tuzish, berilgan soʻzlarning uyadoshlarini topish, bu soʻzlar yordamida gaplar tuzish, matn yaratish va h.k.) foydalansa boʻladi.

Juft va takrorlanib qoʻllangan taqlid soʻzlar orasida chiziqcha qoʻyib yozish malakasi yuqorida tilga olingan har bir amaliy ish orqali oʻquvchilarga singdirib boriladi.

Mazkur mavzuni oʻrganish taqlid soʻzlardan foydalanib, tasviriy insho yozish bilan yakunlansa, hosil qilingan bilim, malaka va koʻnikmalarning amaliy qimmati yanada ortadi.

Undovlarni oʻrganishda ham, ularning maʼno guruhlari ustida ishlashda ham oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish muhim talab sanaladi. Berilgan undovlarni maʼno jihatdan his-hayajon undovlari (masalan, *oh, eh, uh, o.e, voy, ura, ofarin, rahmat, hormang, balli, hay-hay, bay-bay, xoʻsh*) va haydash-chaqirish undovlari (masalan, *kisht, chuh, beh-beh, poʻsht-poʻsht*) ga ajratish, bu har ikkala roʻyxatni mustaqil davom ettirish, ularning yakka holda yoki takrorlab qoʻllanilganligini aniqlash va imlosini sharhlash, har bir undov soʻzning maʼno nozikligi ustida ishlash, ular yordamida gaplar tuzish yoki matn yaratish, *oh-vohlari, dodiga et, voy-voylari* singari maʼnosi toraygan undovlarning nutqda qoʻllanilishi ustida ishlash kabi amaliy ishlar oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy asarlardan undov gaplarga misollar toptirishning ahamiyati benihoya katta.

Undovlarning ma'no guruhlari ustida ishlash ularning imlosi ustida ishlash bilan qo'shib olib boriladi.

Mazkur mavzuni o'rganishda xalqimizning asriy urf-odatlaridan biri–minnatdorchilikni ifodalovchi *hormang, bor bo'ling, rahmat, tashakkur, barakalla, ofarin, balli* kabi undov so'zlarni o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirishga alohida e'tibor berish lozim.

Taqlidiy so'zlar va undovlarni o'rganishda xalq topishmoqlaridan foydalansa bo'ladi. Masalan,

Olisdan jangur-jungur,

Yaqindan oddiy temir.

Ajoyibdur oq laylak,

Nog'ora chalar taq-taq.

To'pim to'p-to'p etasan,

Ursam uchib ketasan.

Xullas, taqlidiy so'z va undovlar ustida ishlash o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Taqlidiy so'zlar va undovlarga oid tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar, birinchi navbatda, o'quvchilar nutqini shu so'zlar bilan boyitishga, ularni to'g'ri yozish, talaffuz qilish va ma'nosini farqlashga, bu so'zlardan nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va o'rinli foydalanishga qaratilishi lozim.

O'quvchilar berilgan matndan taqlid so'zlarni ajratish, ularning imlosini sharhlash, ajratilgan so'zlarni to'liq takrorlangan hamda tovushlar takrori kabi guruhlariga ajratish, taqlid so'zlarning gapdagi vazifasi ustida ishlash, taqlid so'zlaridan yasalgan fe'llar ro'yxatini tuzish; his-hayajon, murojaat, buyruq ma'noli so'zlardan foydalanib gaplar tuzish, undovlarning ma'nosini tushuntirish, berilgan undovlarni his-hayajon undovlari va haydash-chaqirish, undash undovlari kabi guruhlariga ajratish, taqlid so'zlar va undov so'zlardan foydalanib matnlar yaratish yuzasidan o'zaro bellashishlari, kuch sinashishlari mumkin.

«**Taq-taq etdi, o'zi yo'q, Yalt-yalt etdi, izi yo'q.**» o'yini. Bu o'yinda sinf o'quvchilari ikki guruhga ajratiladi va 1-guruhga tovushga taqlid so'zlarning, 2-

guruhga tasvirga taqlid soʻzlarning roʻyxatini tuzish topshiriladi. Bellashuvda oʻyin-topshiriqni toʻgʻri bajargan guruh yengib chiqadi.

Namuna: 1-guruh: *taq-tuq, gumbur-gumbur, viz-viz, shov-shuv, shaqir-shuqur, tiq-tiq;* **2-guruh:** *yalt-yult, jimir-jimir, yarq-yarq, milt-milt.*

Soʻzlarni uyalariga toʻgʻri ajratish bellashuvi. Oʻqituvchi bellashayotgan guruhlariga toʻliq takrorlanish natijasida hosil boʻlgan taqlid soʻzlarni alohida guruhga, tovushlar takrori orqali hosil boʻlgan taqlid soʻzlarni esa alohida guruhga ajratib yozib, bu guruhlarini mustaqil davom ettirish va belgilangan vaqtda muayyan miqdorga yetkazishni topshiradi. Xuddi shu oʻyin taqlidiy soʻzlarning maʼno guruhlarini yuzasidan ham tashkil etilishi mumkin.

Bellashayotgan guruhlar oʻzaro insonning turli holati va kayfiyati tufayli sodir boʻladigan tovushlarga taqlid soʻzlar. (masalan, *hah-hah-hah; xi-xi-xi; inga-inga; pix-pix; qasir-qasir; bildir-bildir; duk-duk* va h.k.) hayvon, qush va hashoratlarga chiqargan tovushga taqlid soʻzlar (masalan, *vov – it hurishiga taqlid, uv – it yoki boʻri uvillashiga taqlid, moʻ-moʻ – sigir maʼrashiga taqlid, baa – qoʻy maʼrashiga taqlid, mee – echki maʼrashiga taqlid, miyov-miyov – mushukning miyovlashiga taqlid, vaq-vaq – qurbaqa vaqillashiga taqlid, pit-pildiq – bedananing sayrashiga taqlid* va h.k.) yuzasidan ham kuch sinashishlari mumkin.

Shuningdek, kuch sinashayotgan oʻquvchilar oʻzaro tabiat hodisalari (*yomgʻir, chaqmoq, shamol* va h.k.); *mashina, daraxt, temir, qoʻngʻiroq, miltiq* va h.k. narsa-buyumlar chiqaradigan tovushlarga taqlid soʻzlar yuzasidan ham oʻyin-topshiriq tarzidagi bellashuvlarni oʻtkazishlari mumkin.

Taqlid soʻzlardan foydalanib gaplar hosil qilishni ham musobaqa tarzida oʻtkazsa boʻladi. Bellashayotgan guruhdagi har bir oʻquvchiga ikkitadan taqlid soʻz berilib, shular ishtirokida gaplar hosil qilish topshiriladi. Topshiriqni oʻz vaqtida va toʻgʻri bajargan guruh gʻolib sanaladi.

Undov soʻzlarni oʻrganishda ham bir qator topshiriqlar oʻyin tarzida tashkil etilsa, mashgʻulot qiziqarli va samarali boʻladi. Oʻquvchilar berilgan undovlarni (masalan, *a, ah, o, obbo, beh-beh, pisht, qurey-qurey, ohho, ey, eh, eh-he, ishsh, hm, tuf, ura, xix* va h.k.) his-hayajon undovlar va haydash-chaqirish undovlari kabi

guruhlarga ajratib, bu guruhlarni belgilangan vaqtda muayyan miqdorga yetkazish bo'yicha ham kuch sinashishlari mumkin.

Undov so'zlarning imlosi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi ancha murakkab masalalardan biridir. Shuni nazarda tutib, o'quvchilarning o'zaro bellashuvida ko'proq undov so'zlar ishtirok etgan gaplarda qo'llaniladigan tinish belgilari ustida ishlash maqsadga muvofiqdir.

Modal so'zlarni o'rganish. Tilimizda so'zlovchining anglashilayotgan fikrga munosabatini ifodalovchi *albatta, darhaqiqat, shubhasiz, tabiiy, aslida, chamasi, balki, ehtimol, koshki, qaniydi, darvoqe, nahotki* singari bir qator so'z-gaplar borki, ularning ma'nosini bilish va nugqda qo'llanilishini ta'minlash mazkur mavzuni o'rganishdan ko'zlanadigan bosh maqsadni tashkil etadi.

O'quvchilarni modal so'zlar olamiga olib kirishning eng qulay usullaridan biri berilgan so'zlarni: a) fikrning rostligi, chinligini ifoda etuvchi so'zlar (masalan, *albatta, haqiqatan, tabiiy, so'zsiz*); b) fikrning noaniqligini ifoda etuvchi so'zlar (masalan, *balki, chamasi, ehtimol*); v) istakni ifoda etuvchi so'zlar (masalan, *zora, shoyadki*); g) kutilmaganlikni ifoda etuvchi so'zlarni (masalan, *nahot, nahotki*) ajratish, bu so'zlar ro'yxatini mustaqil davom ettirish, ularning ma'no nozikligi ustida ishlash, berilgan modal so'zlarga ma'nodosh so'zlar topish, gapda yoki matnda ma'lum bir modal so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtirish, shunday so'zlar ishtirokida gaplar tuzish va matn yaratish kabilar bo'lib sanaladi. Mazkur ish usullaridan foydalanishda modal so'zlarning gapda vergul bilan ajratilishiga ham alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi.

Yordamchi so'zlarni o'qitish metodikasi. Ma'lumki, yordamchi so'zlar haqida ilk ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda beriladi. 7-sinfda o'quvchilar gaplarni gap bo'laklariga ajratish, mustaqil holda gap bo'lagi bo'lib kela olmaydigan so'zlar ro'yxatini tuzish, bu ro'yxatni mustaqil davom ettirish, shunday so'zlar yordamida gaplar tuzib, bu so'zlarning vazifalari ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.

Yordamchi so'zlarning muhim qismini *ko'makchilar* tashkil etadi. Tilimizda *bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar, tomon, sababli, orqa-li, tufayli, qarab, ko'ra,*

chog'li, uzra singari juda ko'p so'zlar borki, nutqiy faoliyat uchun ularning ahamiyati benihoya katta. Mazkur mavzuni o'rganishda berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan so'zlarni (masalan, uchun, orqali) kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish (masalan, *Bu ertaklar to'plamini singlim uchun oldim. – Bu ertaklar to'plamini singlimga oldim. Mehribon telefon orqali men bilan so'zlashdi. — Mehribon telefonda men bilan so'zlashdi* va h.k.), bu so'zlar va kelishiklar orasidagi o'xshashlik, farqlarni sharhlash, «*ot + ga ko'ra (qarshi, tomon, qarab, qaramasdan, qaramay)*», «*ot + dan so'ng (boshqa, keyin, tashqari, bo'lak)*» singari hosilalar ustida ishlash, bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar (masalan, bilan, uchun, sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, bo'ylab, chamasi, haqida), jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar (masalan, tomon, qadar, ko'ra, qarab, qaraganda, qarata), chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar (masalan, so'ng, keyin, boshqa, tashqari)ni alohida-alohida ro'yxat qilish, ma'lum bir ko'makchini uning sinonimi bilan almashtirish, gaplarda *bilan* so'zini va bog'lovchisi bilan almashtirish, bu so'zlarning qaysi holatda bog'lovchi bo'lib kelishini aniqlash kabi amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi.

Yordamchi so'zlarning yana bir muhim qismini *bog'lovchilar* tashkil etadi. Bu so'zlarni o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun sodda gap juftlarini o'zaro biriktirib, bitta gapga aylantirish, ularning o'zaro bog'lanish vositalarini aniqlash, juft va yakka bog'lovchilarni alohida-alohida guruhlariga ajratish, teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar ro'yxatini tuzish, ular yordamida gaplar qurish, matn yaratish kabi amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi. Mazkur mavzuni o'rganishda ohang va bog'lovchilarning o'zaro vazifadoshligi ustida ishlashni ham unutmaslik lozim.

Yuklamalarni o'rganish jarayonida berilgan gaplarni o'zaro qiyoslab, ma'no farqlarini, bu farq nima bilan berilayotganligini aniqlash (masalan, *Gullarga suv berdim—Gullarga suv berdim-ku*), berilgan yuklamalarni (masalan, *-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -u, -yu, -da, -oq, -yoq, xuddi, faqat*) ifodalab kelayotgan ma'nosiga ko'ra: a) so'roq va taajjub yuklamalari; b) kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari; v) ayiruv va

chegaralov yuklamalari; g) inkor yuklamalariga ajratish, ular yordamida gaplar qurish va har bir yuklamaning ma'no nozikligini **sharhlash**, so'zsimon va qo'shimchasimon yuklamalar ro'yxatini tuzish, ularning imlosi va tinish belgilari ustida ishlash kabi topshiriqlardan unumli foydalansa bo'ladi. Ayniqsa, yuklamalardan foydalanib, matnlar yaratish, tasviriy, rivoya va muhokama insholar yozish kabi amaliy ishlar nutqiy taraqqiyot uchun o'ta muhimdir,

«**Telefonda gaplashdimmi, telefon orqali gaplashdimmi?**» o'yini. Bu o'yinning sharti ko'makchilar bilan qo'llaniladigan birikmalarni alohida guruhlariga ajratib, bu guruhlarni mustaqil davom ettirishdan iborat.

«**Tushirilgan ko'makchini o'rniga qo'y**» o'yini. Bu o'yin sharti 1-qatordagi o'quvchilardan ko'makchi tushirib qoldirilgan gaplar aytishni, 2-qatordagilardan esa zarur ko'makchilarni qo'yib gaplarni to'ldirishni talab etadi.

Namuna:

1-qator

O'quvchilar maktab ... ketdilar.

Muhandis bo'lish ... o'qish kerak.

Bolalar poliz ... yo'l oldilar.

2-qator

O'quvchilar maktab **tomon** ketdilar.

Muhandis bo'lish **uchun** o'qish kerak.

Bolalar poliz **sari** yo'l oldilar.

Birinch qator 3-4 ta gap aytgach, ikkinchi qator bilan ularning vazifasi almashtiriladi.

«**Ko'makchini boshqargan so'z**» o'yini. Bu o'yin shartiga muvofiq ma'lum bir guruh ko'makchilar ishtirok etgan gaplarni aytib turishadi, 2-guruh esa shu gaplardagi ko'makchi va unga bog'langan so'zningina ajratib yozishadi.

Namuna:

1-guruh

Shundan beri otam bilan turaman.

Rahima darsni puxta tayyorlagani uchun «5»
baho oldi.

Respublikamizda bug'doy maydonlari yil

2-guruh

otam bilan

tayyorlagani uchun
yil sayin

sayin ko'paytirilmoqda.

Ko'makchilarni ro'yxat qilish, gap tarkibidagi ko'makchilarni u bog'langan so'z bilan ko'chirish kabi ishlar ko'makchilarning ma'nosi, vazifasi va imlosi ustida ishlash bilan chambarchas uyg'unlikda amalga oshiriladi.

Ma'lumki, tilimizda mavjud bo'lgan yordamchi so'zlarning ko'pchiligini o'quvchilar nutqiy zaruriyat tufayli kundalik muomala munosabatda bemalol qo'llaydilar. Ular garchand *va, ammo, lekin, biroq, chunki* kabilarning bog'lovchi, *bilan, uchun* kabilarning ko'makchi, *-ku, -da, faqat, -gina, axir* kabilarning yuklama ekanligi bilmasalar-da, ammo bu so'z va ko'makchilarni deyarli barcha o'quvchilarning nutqida uchratish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yordamchi so'zlar haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ladilar. Bu sinflarda ular yordamchi so'zlar ishtirokida gap tuzishlari, berilgan ikki mustaqil sodda gapni zarur yordamchi so'zni qo'llab qo'shma gapga aylantirishlari, yordamchi so'zlarning gapdagi vazifasini tushuntirishlari mumkin.


Ona tilining izchil kursini o'rganish jarayonida yordamchi so'zlarning har bir turi alohida o'rganiladi. Shuning uchun bu so'zlarni o'rganish vaqtida tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar, avvalo, dasturda ko'zda tutilgan materiallarni o'quvchilar ongiga singdirishga, ularning nutqini yordamchi so'zlarning ma'nodoshlari bilan almashtirish orqali yangi so'zlar bilan boyitish, bir yordamchi so'zni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri hamda o'rinli qo'llashga xizmat qilishi lozim.

O'quvchilar «Ko'makchi so'zlar» mavzusi bilan tanishtirilalar ekan, ko'makchi birikmalarini kelishikli birikmalarga aylantirish (masalan, *sinfdoshim uchun oldim, sinfdoshimga oldim* kabi), berilgan gaplarda ko'makchini shu ma'noni ifodalovchi boshqa ko'makchi bilan almashtirish (masalan, *xirmon sari bormoq, xirmon tomon bormoq* kabi), «ot + ko'makchi», «sifatdosh + ko'makchi» qolipli hosilalar ro'yxatini tuzish (masalan, *qalam bilan, onam uchun, dala sari; siz bilan, ular uchun, siz orqali; borgan sayin, o'qigan bilan, ko'rishgani uchun* va h.k.),

ko'makchining gapdagi vazifasi va ma'nosini sharhlash singari o'yin-topshiriqlardan foydalanish mumkin.

«So'zdan guldasta tuz» o'yini. Bu o'yinda o'quvchilarga ot, olmosh yoki sifatdosh bilan ifodalangan ma'lum bir so'z beriladi-da, shu so'zlar bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan ko'makchilardan guldasta tuzish talab etiladi.

Namuna:



«**Ma'nodoshlar mashvarati**» o'yini. O'qituvchi har bir guruhga muayyan ko'makchilar qo'llanilgan gaplarni berib, birinchi navbatda ajratilgan so'zning (ko'makchining) ma'nodoshlarini, keyingi bosqichda gapdagi barcha so'zlarning ma'nodoshlarini topishni topshiradi. Bellashayotgan guruhlardan qaysi biri topshiriqni tez va to'g'ri bajarsa, shu guruh rag'batlantiriladi.

Bog'lovchilarni o'rganishda ham so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish asosiy talab hisoblanadi. Shuning uchun yordamchi so'zlarning bu guruhlarni o'rganish jarayonida tashkil etiladigan o'yinlar, avvalo, shu maqsadga bo'ysundirilmog'i kerak. O'quvchilar bog'lovchilarning gapdagi vazifasini sharhlash, yakka holda qo'llaniladigan bog'lovchilarni va takrorlangan holda qo'llaniladigan bog'lovchilarni alohida-alohida ro'yxat qilish, ularni teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga ajratish, teng bog'lovchilarni, o'z navbatida, birlashtiruvchi bog'lovchilar, zidlov bog'lovchilari, ayiruv bog'lovchilari kabi guruhlarga ajratish, sinonim bog'lovchilar ro'yxatini tuzish singari topshiriqlar yuzasidan o'zaro bellashishlari mumkin.

Ma'lumki, mustaqil so'zlar va gaplarga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchi so'zlarning yana bir guruhi yuklamalardir. *Yuklamalarni* o'rganishda ularni ma'no guruhlari ajratish, har bir ma'no guruhiga mansub yuklamalarning ma'no nozikligini sharhlash, yuklamalarni ularning ma'nodoshlari bilan almashtirish kabi masalalar yuzasidan o'quvchilar o'zaro musobaqalashishlari mumkin.

«**ginaning ma'nosini chaq!**» o'yini. Bu o'yinda o'quvchilardan gap juftlari tuzish talab etiladi. *1-qator -gina* qo'shimchasi ishtirokida kichraytirish, achinish ma'nosida gap tuzishsa, *2-qator* shu qo'shimchani ayiruv yuklamasi ma'nosida qo'llab gaplar tuzishadi. Masalan, *1-qator: Manzuragina shu yil ko'p kasal bo'ldi*-da. *2-qator: Bugungi yig'ilishimizga Manzuragina yetib kela olmadi*.

Ayniqsa, yuklamalarning imlosi yuzasidan tashkil etiladigan o'yinlar juda qiziqarli va zavqli o'tadi. O'quvchilar ajratib yoziladigan, so'zga qo'shib

yoziладigan va chiziqcha bilan yoziладigan yuklamalar yuzasidan o‘zaro bellashishlari mumkin.

O‘qituvchi barcha yuklamalarni aralashtirib aytib turadi. Har bir guruh o‘ziga tegishli topshiriqni bajaradi. Masalan: 1-guruh aytilayotgan gaplardan faqat so‘z yuklamalarini ajratib, o‘z daftarlariga yozib boradilar. O‘yin-topshiriq natijasini aniqlashda o‘zaro tekshiruv usulidan foydalanish mumkin. Bellashayotgan guruhlar o‘zaro daftarlarini almashtirib, topshiriqning bajarilishini tekshiradilar.

Xullas, yordamchi so‘zlarning har bir guruhini o‘rganishda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish o‘qituvchining diqqat markazida turishi, imlo nutq o‘stirish bilan chambarchas aloqadorlikda amalga oshirilishi lozim. Shuni esdan chiqarmaslik zarurki, o‘yin-topshiriqlar qanchalik amaliy mohiyat kasb etsa, samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

O‘quvchilar nutqini yordamchi so‘zlar bilan boyitish faqat shu mavzularni o‘rganish doirasida qolib ketmasligi, balki tilning keyingi bo‘limi– sintaksisni o‘rganish jarayonida ham davom ettirilishi lozim.

Morfologiyani tilning boshqa bo‘limlari bilan aloqadorlikda o‘rganish.

Morfologiyani o‘rganish, avvalo, sintaksis bilan chambarchas bog‘langan. Buning bosh sababi shundaki, sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarning ularda mujassamlangan va morfologiyada o‘rganiladigan mohiyati, ya‘ni qo‘shimchalarning sintaktik vazifalari nutqda qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun morfologiya va sintaksis bir-birini to‘ldirib turadi. Ikkinchi tomondan, morfologiya leksikologiya bilan, tilning lug‘at sathi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ma‘lumki, morfologiyada so‘z shakllari va ularning ma‘nosi o‘rganiladi. So‘z shakllarining ma‘nolari esa so‘zning u yoki bu ma‘no xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Chunonchi, *-lar* ko‘plik qo‘shimchasi kishi otlariga qo‘shilganda bir ma‘noni anglatasa, joy nomlariga qo‘shilsa, boshqa ma‘no; yaxlit moddalarni ifodalovchi so‘zlarga qo‘shilsa, butunlay boshqa ma‘no kasb etadi. Bu xil ma‘nolar, asosan, so‘zlar ifodalagan lug‘aviy ma‘nolar bilan bog‘liq. Shuning uchun

qo'shimchalarning ma'nolari so'z ma'nolari bilan birgalikda olingandagina sharhlanishi mumkin.

Morfologiyaning uslubiyat bilan aloqadorligi haqida gapirilmasa ham bo'ladi. Chunki uslubiyat, birinchidan, tilning barcha sohalari o'z ichiga qamrab oladi. Ikkinchidan, morfologiyada o'xshash ma'no va vazifaga ega bo'lgan shakllar o'rganiladi. O'xshash shakllarni qo'llashda esa asosiy farq uslubiyat bilan belgilanadi.

Morfologiya so'z yasash bilan bevosita bog'liqdir. Chunki so'z yasash qaysi yo'l bilan bo'lmasin, u yoki bu so'z turkumining sodda yoki qo'shma shaklini yasashdan iboratdir. Har bir yasama so'z ma'lum bir so'z turkumining ma'lum bir ma'no guruhiga mansub bo'ladi. So'z yasashni so'z turkumlari ichida o'rganishning sababi ham shunda.

Morfologiyaning, ayniqsa, leksikologiya bilan aloqasi benihoya kuchli. Har bir so'z turkumini o'rganayotganda bu turkumning ichki ma'no guruhlarini alohida ajratish va ularga to'xtalish bu ikki bo'limni o'zaro aloqadorlikda o'rganish imkoniyatini yaratadi. So'z turkumlarining ma'no guruhlarini ajratish va sanashda o'quvchilar, albatta, uslubiy bo'yoqlar, ko'tarinki ruhdagi so'zlar va oddiy so'zlar bilan ish ko'radilar. Shuning uchun so'z turkumlarini ajratish va amalda qo'llashda o'quvchilar so'zlardagi uslubiy xususiyatlarga diqqat qilishlari, ya'ni morfologiyani lug'at va uslubiyat bilan qo'shib olib borishlari zarur.

Qo'shimchalarning ma'nosi va ishlatilishida ikki omil, yuqorida ko'rsatganimizdek, lug'aviy ma'no omili va sintaktik qo'llanish omili birgalikda olib boriladi. Chunonchi, **-lar** qo'shimchasi otlarning turli ma'no guruhlariga qo'shib kelganda turli xil ma'no va uslubiy xususiyat kasb etadi. Bu qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari hurmat, kuchaytirish, bo'rttirish, mensimaslik, kamsitish ma'nolari uslubiyat bilan, so'zlarning lug'aviy ma'nolari bilan birgalikda sharhlansa, o'quvchilar bu hodisalarni chuqurroq tushunib oladilar.

Xullas, morfologiya fonetika, leksikologiya, sintaksis va, ayniqsa, uslubiyat bilan uzviy aloqadorlikda o'rganilsa, til materiallarining foydalilik darajasi ortadi, ularning o'rganish imkoniyatlari kengayadi.

Savol va topshiriqlar

1. Maktabda morfologiya o'qitishning ahamiyati va vazifalari nimalardan iborat?
2. Maktabda morfologiya o'qitishning ilmiy va amaliy zaruriyatini qanday asoslaysiz?
3. «To'plam» va «tasnif» tushunchalarining mohiyatini aytib bering.
4. «Fe'l» so'z turkumini o'rganishda o'quvchilar nutqini fe'l va uning ma'nodoshlari bilan boyitish imkoniyatlari haqida fikr yuriting.
5. «Fe'l» so'z turkumiga oid mavzularni o'rgatishda aqliy faoliyat usullaridan qanday foydalaniladi?
6. «Ot» so'z turkumining lug'aviy shakllari va ma'no guruhleri ustida ishlash imkoniyatlarini aytib bering.
7. «Sifat» so'z turkumini o'rganishda o'ta muhim masalalardan biri qo'shma sifatlar va juft sifatlar imlosi ustida ishlashdir. Siz bu jarayonda qanday ijodiy-amaliy ishlardan foydalanasiz?
8. «Son» so'z turkumini o'rgatishdan ko'zlanadigan amaliy maqsadlarni ayting.
9. «Ravish» so'z turkumi ustida ishlashda qanday ishlar amalga oshiriladi?
10. «Olmosh» so'z turkumini o'rganishda ta'lim va tarbiyaning uzviyligiga qanday amal qilinadi?
11. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda taqlid so'zlar va undovlar qanday ahamiyatga ega?
12. Yordamchi so'zlarni o'rgatish bo'yicha topshiriqlar tizimini yarating.
13. Morfologiya tilning qaysi bo'limlari bilan aloqadorlikda o'rganiladi?
14. So'z turkumlarini o'rganish bo'yicha o'zingiz o'yin-topshiriqlar tuzing.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 1-maxsus son. Toshkent, «Sharq», 1999, 303.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5–9-sinflar). Toshkent, 2010. 10–41-b.
3. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar (5–9-sinflar). (Tuzuvchilar: M. Abduraimova, G. Ziyodullayeva), Toshkent, «Sharq», 2010.
4. Abduraimova M., Qodirov M. v.b. Ona tili. 6-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, «Sharq», 2012, 239.
5. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. Toshkent, «Musiqqa», 2008, 18–25-betlar.
6. Bozorov O. Olmoshlarning qo'llanilishi. «Til va adabiyot ta'limi», 1992, 2-son, 31–36-b.
7. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. Toshkent, «Ma'naviyat», 2015, 224.
8. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. Toshkent, «Tasvir», 2017, 176.
9. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. Toshkent, «Ma'naviyat», 2017, 128.
10. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. v.b. Ona tili. 7-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, «Tafakkur», 2011, 159.
11. Mirzaqulov T. Grammatikani o'qitishning lingvistik asoslari. Toshkent, «O'qituvchi», 1994.
12. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish. Toshkent, 1997.
13. Ne'matov H., G'ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. Toshkent, «O'qituvchi», 2000-y.

14. Ne'matov H., G'ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. Toshkent, «O'qituvchi», 2000-y.

15. Ne'matov H., G'ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. Toshkent, «O'qituvchi», 2000-y.

16. Omilxonova M., Abdullayev Y., Abdulaxatova R., Inog'amova R. 5- va 6-sinfda ona tili darslari. (Metodik qo'llanma), Toshkent, «O'qituvchi», 1978.

17. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi», 2006, 191.

18. O'rta maktablarda ona tili o'qitishni takomillashtirish yo'llari va formalari. Ilmiy-metodik to'plam, Toshkent, 1986.

19. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 128.

20. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 160.

21. G'ulomov A., Qosimova N. Ijodiy ishlar nazariyasi. Buxoro, 2011, 188.

GRAMMATIK TAHLIL METODIKASI

Tayanch tushunchalar:

Grammatik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, soʻz tarkibi boʻyicha tahlil, soʻz turkumlari boʻyicha tahlil.

Grammatik tahlil maktabda oʻtilganlarni takrorlash darslarida oʻtkaziladi. Bunday mashqlarning oʻtkazilish usullari, mazmuni har xil shaklda boʻladi. Grammatikani oʻrganish orqali oʻquvchi soʻz va gapning grammatik xarakteristikasini bilib oladi. Bunda soʻzning tuzilishi, soʻz yasalishi, soʻz birikmalari, gap qurilishi, sodda gap, qoʻshma gap, gap boʻlaklari kabi grammatik hodisalar oʻrganib chiqiladi.

Grammatikani oʻrganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega: u oʻquvchilarni til qonuniyatlari bilan tanishtiradi, ularning til qurilishini egallashlariga va uning imkoniyatlaridan ongli ravishda foydalanishlariga yordam beradi. Grammatika adabiy tilning yozma va ogʻzaki shakllarini ongli ravishda toʻliq egallashda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi.

Grammatik tahlil oʻrta maktabda grammatika oʻqitishda muhim metodik vositalaridan biridir, u «Ona tili» fanining barcha vazifalari (orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya, ogʻzaki va yozma nutqni oʻstirish, stilistika va boshqalar) bilan bogʻlanadi.

Berilgan gapni tahlil qilishda ona tilidan olingan barcha nazariy va amaliy bilimlar ishga solinadi. Chunki har qanday gapni grammatik tahlil qildirish orqali oʻquvchining morfologiya va sintaksisdan (umuman, «Ona tili»ning barcha boʻlimlaridan) shu kungacha olgan bilimlarining darajasini sinab koʻrish mumkin. Baʼzan oʻquvchining u yoki bu masalada nazariy maʼlumoti boʻlsa-da, uni amalda berilgan gapni grammatik tahlil qilib berishga tatbiq eta olmaydi. Baʼzan oʻquvchi grammatik qoidani xuddi darslik kitobida yozilgan shaklda aynan yod aytib bersa ham, lekin qoidaga misol keltira olmaydi yoki shu qoidaga mos tushuvchi tayyor misolni tahlil qila olmaydi. Bu esa uning oʻsha grammatik hodisaning mazmuniga toʻla tushinib **yetmaganidan** darak beradi. Oʻquvchi grammatik qoidani darslikda

yoziq ko'rsatilgandek qilib aytib bermasdan, balki o'sha qoidaning mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilib bersa va jonli muloqot joriy qila olsa, bu uning mavzuni ongli tushunganligini ko'rsatadi.

Grammatik qoidani yod olish bilar-bilmas takrorlash tarzida **emas**, balki qoidaning mazmunini to'la tushunib olishga asoslangan, shunga qaratilgan bo'lishi shartdir. O'quvchidan grammatik qoida so'ralganda, uning bu qoidaga, uning mazmuniga tushungan yoki tushunmaganligini aniqlash vazifasi asosiy o'rin tutadi. Ba'zan o'quvchi so'ralayotgan grammatik hodisani bilsa ham, lekin bayonlash no'noqligi yoki boshqa sabablar natijasida uning ta'rifini darslikda yoziq ko'rsatilgandek qilib aytib bera olmasligi mumkin. Bunday hollarda qoidani xuddi darslikda yozilgan shaklda aytib berishni talab qilish metodik jihatdan to'g'ri emas.

Grammatik tahlilning butun tizimi onglilik prinsipiga asoslanadi. Bu prinsip o'quvchilarning (talabalarning) mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini kuchaytiradi, bir-biridan ko'chirib olish xavfini yo'qotadi, grammatikaning nazariy tomonlarini amaliyotga tatbiq qilishga yordamlashadi.

Grammatik tahlil vaqtida o'quvchi har bir grammatik shaklning nega shunday ekanligi haqida mustaqil fikr yuritishi, uni isbotlashga harakat qilishi kerak. Tushunmay yodlashga odatlangan o'quvchi grammatik tahlil vaqtida doim qoqiladi, chunki grammatik tahlilning xarakteri mashqlarni mustaqil bajarishni talab etadi.

Grammatik tahlilining tarkibiy qismlari

Grammatik tahlildan ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'quvchi va talabanning morfologiya (so'z tarkibi, so'z yasalihi, so'z o'zgarishi, so'z turkumlari) va sintaksis (so'z birikmasi, gap qurilihi) bo'yicha olgan bilimlarini amalda sinab ko'rishdir. Ammo til sistemadir, uni tashkil qiluvchi qismlar bir-biri bilan o'zaro bog'langan holda bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil qiladi: nutq tovushi va so'z, so'z va gap–tilning butun strukturasi o'zaro aloqadordir. Demak, fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis o'zaro organik bog'liq bo'lib, bir butunlikni tashkil qiladi. Bu butunlikning morfologiya va sintaksis qismlari birlikda grammatika nomi bilan yuritiladi. Grammatikaning bu teng huquqli qismlari grammatik tahlil o'tkazish vaqtida bular o'z aksini topadi. Morfologiya va sintaksis bir grammatik hodisaning

ikki tomonidir. Grammatik tahlilning muhim prinsiplaridan biri–morfologik tahlil bilan sintaktik tahlilning teng huquqli ekanligini, ularning bir-biri bilan zich bog‘lanishini ko‘rsatishdir. Masalan, morfologiyadagi mustaqil so‘z sanaladigan ot, sifat, son kabi turkumlar gapda ma‘lum sintaktik vazifani–gap bo‘lagi vazifasini o‘taydi, morfologiyadagi yordamchi so‘z turkumlari mustaqil ma‘noga ega emasligidan mustaqil holda sintaktik vazifa bajara olmaydi (gap bo‘lagi bo‘lmaydi). O‘quvchi va talaba sintaksisni o‘rgangandan so‘ng morfologik hodisalarning mohiyatini yanada to‘la tushunib yetadi.

Grammatik tahlil jarayonida shunday faktlarga duch kelinadiki, ularni fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksika, uslubiyat va punktuatsiya bo‘yicha olingan bilimlarni ishga solish asosida hal qilinadi (masalan, *bilagi* so‘zida o‘zak *bilag* emas, *bilak*; egalik qo‘shimchasi olganda o‘zak oxiridagi *k* tovushi *g* ga o‘tadi; *shahrim* so‘zining o‘zagi *shahr* emas, *shahar*; egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda oxirgi bo‘g‘indagi *a* tovushi tushadi va boshqalar). Demak, grammatik tahlilda leksik, fonetik, uslubiy tahlil elementlari ham ishtirok etadi.

Grammatik tahlil mazmuniga ko‘ra ikki tarkibiy qismga bo‘linadi:

1. Morfologik tahlil.
2. Sintaktik tahlil.

Berilgan gapni avval morfologik, so‘ng sintaktik tahlil qilish kerak. Chunki morfologik tahlilda gapni tashkil etgan so‘zlarning xususiyatlari, sintaktik tahlilda o‘sha so‘zlar vositasida qurilgan so‘z birikmalari va gapning xususiyatlari aniqlanadi.

MORFOLOGIK TAHLIL

Morfologik tahlil o‘z mazmuniga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. So‘z tarkibi bo‘yicha tahlil.
2. So‘z turkumlari bo‘yicha tahlil.

Bular birin-ketin o‘tkazilishi kerak, ular bir-biriga bog‘liq bo‘lib, biridagi nuqson ikkinchisiga ta‘sir qilishi mumkin. So‘z tarkibi bo‘yicha tahlil orfografiya va so‘z yasalishi hodisalari bilan uzviy bog‘liqdir. So‘z turkumlari bo‘yicha tahlil

esa gapda soʻzlarning ikkinchi bir turkum vazifasida kelishi, soʻzlarning belgili (qoʻshimchali) va belgisiz (qoʻshimchasiz) qoʻllanishi hodisalari bilan bogʻlanadi. Soʻzni oʻzak va qoʻshimchalarga ajratishni bilmagan oʻquvchi soʻz yasalishi yoʻllarini, soʻz oʻzgarishini, shular bilan bogʻlangan toʻgʻri yozish qoidalarini ongli ravishda oʻzlashtira olmagan boʻlib chiqadi.

SOʻZ TARKIBI BOʻYICHA TAHLIL

Soʻz tarkibi boʻyicha tahlil morfologik tahlilning bir koʻrinishi boʻlib, u oʻz ichiga bir qancha mavzularni oladi: soʻzning asosi, qoʻshimcha, qoʻshimchalarning maʼno va vazifasiga koʻra turlari (soʻz yasovchilar, shakl yasovchilar); sodda, qoʻshma, juft soʻzlar va boshqalar.

Soʻz tarkibi boʻyicha oʻtkaziladigan tahlil soʻzdagi ikki qismni—soʻzning asosiy maʼnosini anglatuvchi qismni, shuningdek, soʻzning grammatik maʼnosini anglatuvchi qismni ajratishdan boshlanadi.

Soʻzning asosiy maʼnosini anglatuvchi qismni ajratishda quyidagi holatlar hisobga olinadi: soʻzning tarkibidagi tarixiy holat va soʻzning tarkibidagi hozirgi holat. Masalan, *qishloq*, *yaylov*, *ogʻayni* kabi soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida morfologik qismlarga ajralmaydi, lekin bunday soʻzlar tarixiy jihatdan qismlarga ajralgan. Demak, soʻzni maʼnoli qismlarga ajratishda etimologik jihatdan yondashmaslik kerak.

Berilgan gapdagi soʻzlarni oʻzak va qoʻshimchalarga ajratishda aniq, yaqqol koʻrinib turadigan jadvallardan foydalanish oʻrinlidir. Maʼlumki, oʻrta maktablarda morfologik tahlilning turli usullaridan foydalaniladi. Biz bu oʻrinda OʻzMU professori Sh.U.Rahmatullayev va dotsenti Yo.Gʻ.Gʻulomov usullaridan foydalanish morfologik tahlilning yagona, umumlashgan jadvalini joriy etish tarafdorimiz.

Grammatik tahlil uchun, masalan, quyidagi gap berilgan boʻlsin: Biz *bu kunlarga osonlik bilan yetib kelmadik* (A.Q.).

Berilgan gapdagi soʻzlar avvalo soʻz tarkibi boʻyicha tahlil qilinadi. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) gapdagi har bir soʻzning asl maʼnoli va grammatik maʼnoli qismlari ajratiladi;

b) yasalgan soʻz boʻlsa, asos va yasovchi qoʻshimchaga ajratiladi;

v) shakl yasovchi qoʻshimchalar aniqlanadi;

g) imlo bilan bogʻliq tomonlar izohlanadi.

Soʻzni maʼnoli qismlarga ajratishda vertikal chiziqlardan foydalaniladi:

Biz bu kun/ lar ga oson/ lik bilan yet/ ib kel / ma / di / k (A.Q.).

Bundan soʻng vertikal chiziqni pastga qarab choʻzish va qismlarni izohlashda qulaylik hosil qilish uchun ular orasini ochib yozish va quyidagicha izohlash mumkin:

Biz	bu	kun	lar	ga	oson	Lik	bilan
asos	asos	asos	qoʻsh- cha	qoʻsh-cha	asos	qoʻ- shim- cha	koʻmakchi
			shakl yas.	shakl yasovchi		soʻz yas.	sof koʻm.
			koʻplik	kelishik		ot yas.	
				joʻn.kel.			
yet	ib	kel		ma		Di	k
asos	qoʻ- shim- cha	asos		qoʻshimcha		qoʻ- shimcha	qoʻshimcha
	shakl yas.			shakl yas.		shakl yas.	shakl yasovchi
	ravishd osh shakli			boʻlishsizlik shakli		zamon shakli	shaxs-son
						oʻtgan zamon	I shaxs koʻplik

Soʻz tarkibi boʻyicha tahlilda yordamchi soʻz turkumlariga oid soʻzlarni asosga ham, qoʻshimchaga ham kiritilmaydi. Chunki ular mustaqil maʼno ifodalamagani uchun asos emas, grammatik maʼno ifodalasa-da, qoʻshimcha ham **emas**, shuning uchun ularni qaysi yordamchi soʻz turkumi ekanligi izohlanadi, xolos. Agar boshqa turkum vazifasida boʻlsa, bu holat qavs ichida koʻrsatiladi. Yuqoridagi gapda *bilan* koʻmakchisi oʻz turkumi vazifasidadir.

Ikkinchi bir gapdagi soʻzlarni soʻz tarkibi boʻyicha tahlil qilib koʻraylik:

1-bosqich. Daryo lab /i/ da tur/ ib koʻk/ lam quchogʻ /i/ da tovlan/ ayotgan olma/zor chiroy/ i/ ga suq/ lan/ ar/ di/ m. (H.N.) 2-bosqich

Dar-yo	(ning)	lab	I	da	tur	ib
asos	qoʻsh- cha	asos	qoʻsh-cha	qoʻsh-cha	asos	qoʻshcha
	shakl yasov, sintak. shakl yasov.	shakl yasov, sintak. shakl yasov.		shakl yasov, sintak.shakl yasov.		shakl yas. lugʻaviy shakl yasovchi
	kel		turl.egalik	tur.kel		ravishdosh shakli
	qarat.kel.		III shaxs birlik	oʻrin- payt.kel.		

ko'k	lam	(ning)	quchog'	i	Da	tovlan
asos	qo'sh- cha	qo'sh-cha	Asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha	asos
	so'z yas.	shakl yasov, sintak. shakl yasov.		shakl yasov, sintak. shakl yasov.	shakl yasov, sintak. shakl yasov.	
	ot yas.	kel		egalik	Kel	
asos, yasama asos	sodda	qarat.kel		III shaxs birlik	o'rin- payt.kel.	

ayotgan	olma	zor	Ning	chiroy	I	ga
qo'sh-cha	asos	qo'sh- cha	qo'sh-cha	asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha
shakl yas. lug'av. shakl yasav.		so'z yas.	shakl yasov, sintak. shakl yasov.		shakl yasov, sintak. shakl yasov.	shakl yasov, sintak. shakl yasov.
sifatdosh		ot yas.	Kel		Egalik	kel
shakli		joy oti yasov- chi	qarat.kel.		III shaxs, birlik	jo'nalish kel.
	asos, sodda yasama asos					

suq	lan	Ar	di	m
asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha	qo'sh-cha	qo'sh-cha
	so'z yas.	shakl yasovchi lug'av. shakl yas.	shakl yasovchi lug'av. shakl yas.	shakl yasovchi, sintak.shakl yasov.
	fe'l yasovchi	sifatdosh shakli	zamon shakli	shaxs-son I shaxs, birlik
asos, sodda yasama asos			o'tgan zamon	

Eslatma: *Sifatdosh shaklidagi suqlanar yetakchi fe'li edim shaklidagi to'liqsiz fe'l bilan birikkan, nutqiy iqtisod qonuniga ko'ra e fe'li tushib qolgan.*

Ba'zi jarangsiz undosh tovush bilan tugagan o'zaklarga unli bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qo'shilganda so'z oxiridagi jarangsiz undosh tovush jaranglilashadi. So'z tarkibi bo'yicha tahlilda o'zbek tilidagi bu xususiyat hisobga olinishi kerak. Yuqoridagi gapda *quchog'ida* so'z-shaklining asos qismi aslida *quchog'* emas, *quchoqdir*: egalik qo'shimchasi (-i) qo'shilishi natijasida so'z oxiridagi *q* jarangsiz tovushi *g'* ga aylangan (jaranglilashgan). Bunday so'zlarning tahlilida o'zakning asl shaklini uning tepasiga yozib ko'rsatish ham mumkin.

SO'Z TURKUMLARI BO'YICHA TAHLIL

So'z turumlari bo'yicha o'tkaziladigan tahlil, so'z tarkibi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil kabi, morfologik tahlilning bir ko'rinishi bo'lib, u maktab dasturidagi «So'z turumlari» mavzusining masalalarini qamrab oladi.

O'quvchi matndagi so'zlarni turumlarga to'g'ri ajrata olsa, gap bo'laklarini aniqlashda ham qiynalmaydi. Demak, bu tahlil o'z-o'zidan sintaktik tahlil bilan bog'lanadi. So'z turumlarining mohiyatiga to'la tushunmasdan turib, sintaktik tahlil vaqtida gapning bosh bo'laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan so'zlar («bo'laklar»)ni aniqlash mumkin emas.

Soʻz turkumlari boʻyicha oʻtkaziladigan tahlilning birinchi bosqichini gapdagi soʻzlarni turkumlarga ajratishdan–soʻzlarni morfologik jihatdan tasnif qilishdan boshlash kerak. Bundan soʻng har bir turkumning ichki xususiyatlari koʻrsatiladi.

Yuqorida «Soʻz tarkibi boʻyicha tahlil» boʻlimida berilgan ikki gapdagi soʻzlar morfologik tahlilning 3-bosqichi sifatida davom ettiriladi:

Biz	bu	kun	Lar	ga	oson	Lik	bilan
asos	asos	asos	qoʻsh-cha	qoʻsh-cha	oʻzak	qoʻsh-cha	koʻmak-chi
olmosh	olmosh	ot	shak.yas. lugʻ. shakl yasovchi	shak.yas. sint. shakl yasovchi	sifat	soʻz yas.	sof koʻmak-chi
kishi-lik olmo-shi	koʻr-sat. olmo-shi	tur-dosh ot	koʻplik shakli	kelishik	asliy sifat	ot yasov. mav-hum ot yasov-chi	
I shaxs, koʻplik		aniq ot, yakk a ot		joʻnalish kelishigi	asos, yasama asos, ot, mavhum ot	sodda	

yet	ib	kel	Ma	di	k	Dar-yo	(ning)
asos	qo'sh-cha	asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha	qo'sh-cha	asos	qo'sh-cha
fe'l	shakl yas. lug'. shakl yasov- chi	fe'l	shakl yas. lug'. shakl yasov-chi	shakl yas. lug'. shakl yasov- chi	shakl yas. sintak. shakl yasov- chi	ot	shakl yas. sintak. shakl yasov- chi
II shaxs buy- ruq mayli	ravish- dosh shakli	II shaxs buyruq mayli	bo'lish- sizlik shakli	zamon shakli	tuslov- chi	tur- dosh ot	keli- shik
				o'tgan zamon	shaxs- son, I shaxs, ko'plik shakli	aniq ot, yak- ka ot	qarat. kel.

lab	i	da	tur	ib	ko'klam	(ning)
asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha	asos	qo'sh-cha	Asos	qo'sh-cha
ot	sh.yas. sin. shak. yas.	sh.yas. sin. shak. yas.	fe'l	sh.yas.lu- g'av. shak. yas.	Ot	sh.yas.sin- tak. shakl yasovchi
turdosh ot	turl.egalik	kelishik	II shaxs buyruq	ravishdosh shakli	turdosh ot	kelishik
aniq ot, yakka ot	III shaxs birlik	o'rin- payt.kel.	mayli		aniq ot	qarat.kel.

quchog'	i	Da	tovlan	ayotgan	olma	zor
asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha	asos	qo'sh-cha	o'zak	qo'sh- cha
ot	shakl yas. sintak. shakl yasovchi	shakl yas. sintak.shakl yasovchi	fe'l	shakl yas. lug'.shakl yasovchi	ot	so'z yas.
turdosh ot	egalik	tur.kel	II shaxs buyruq	sifatdosh shakli	tur-dosh ot	ot yas.
	III shaxs birlik	o'rin-payt.kel.	mayli		aniq ot, yakka ot	joy oti yas.
					asos, yasama asos	sodda

(ning)	chiroy	i	Ga	suqlan	ar	Di	m
qo'sh- cha	asos	qo'sh- cha	qo'sh- cha	asos	qo'sh- cha	qo'sh- cha	qo'sh- cha
shakl yas. sint. shakl yasov- chi	ot	shakl yas. sint. shakl yasov- chi	shakl yas. sint. shakl yasov- chi	fe'l	shakl yas. lug'. shakl yasov- chi	shakl yas. lug'. shakl yasov- chi	shakl yas. sintak. shakl yasov- chi
kelishik	turdosh ot	egalik	keli- shik	II shaxs buy-ruq mayli	sifat- dosh shakli	zamon shakli	tuslov- chi
qarat. kel.	mav- hum ot	III shaxs birlik	jo'na- lish kel.			o'tgan zamon	shaxs- son
							I shaxs, birlik

Shunday qilib, har ikkala gap morfologik tahlilning ikki bosqichi bo'yicha (so'z tarkibi bo'yicha va so'z turkumlari bo'yicha) tahlil qilindi: to'liq morfologik tahlil amalga oshirildi. Uning ba'zi xususiyatlariga metodik izohlar beramiz:

1. Ot so'zlar gapda doimo son va kelishik shaklida bo'ladi. Yuqoridagi ikkinchi gapda qatnashgan ot so'zlar—*daryo*, *ko'klam*, *olmazor*, belgisiz (qo'shimchasiz) bo'lsada, barchasi aslida qaratqich kelishigi shaklida bo'lib, gapda belgisiz (qo'shimchasiz) qo'llangan. Lekin tahlilda ularning asl shakli hisobga olinadi (qo'shimchalar qavs ichida ko'rsatildi va tahlil qilindi).

Xuddi shu kabi qo'shimchaga ega bo'lgan, lekin ma'lum grammatik shaklda turgan so'zlarni morfologik tahlilda e'tiborga olib, to'g'ri va to'liq izohlashga alohida diqqat qilish zarur. Chunki so'zning haqiqiy morfologik shaklini to'g'ri

aniqlamaslik sintaktik tahlilda, ayniqsa, gap bo'laklarini izohlashda xatolarga olib keladi.

2. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, so'zlarning morfologik tarkibini aniqlashda ularning hozirgi holati hisobga olinadi. (Etimologik sharh berib o'tish mumkin). Masalan, yuqoridagi misolda *ko'klam*, *suqlanardim*, *tovlanayotgan* so'zlari hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan yaxlit bir so'z tuyuladi, tarixiy tarkibi qorong'ilashgan. Aslida *ko'klam*–*ko'k+la+m* qismlariga bo'linadi, *ko'k* o'zagiga so'z yasovchi (fe'l yasovchi) *-la*, bundan so'ng yana so'z yasovchi (ot yasovchi) *-m* qo'shilgan. Natijada, «ko'karuvchi fasl» ma'nosidagi ot so'z yasalgan. Bu–so'zning etimologik tomoni. Xuddi shuningdek, *suqlanmoq*, *tovlanmoq* fe'llari ham *suq* va *tob* otiga fe'l yasovchi *-lan* qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan. Shunday qilib, so'zning etimologik tomoni morfologik tahlilda hisobga olinmaydi, lekin ba'zan maxsus etimologik kuzatuv sifatida hisobga olinadi.

3. Morfologik tahlilda (so'z tarkibiga ajratishda) qo'shimchalarning tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'lishini ham unutmaslik kerak. Ba'zan ikki mustaqil sodda qo'shimcha birlashgan holda yaxlit bir grammatik ma'no anglatib keladi, ularni qismlarga ajratish mumkin emas. Yuqoridagi misolda *-ayotgan* (*tovlanayotgan* so'zidagi) qo'shimchasi murakkab qo'shimchadir. Bu qo'shimcha *-ayot* va *-gan* qo'shimchalarining bir ma'no anglatishi asosida yasalgan.

Endi morfologik tahlilning murakkab tomonlaridan bo'lgan so'z turkumlarining o'zaro vazifadoshligi (bir turkum so'zining ikkinchi turkum vazifasida kelishi) va yordamchi so'zlarni izohlab berish masalalari haqida to'xtalamiz.

Masalan, morfologik tahlil uchun quyidagi gap berilgan bo'lsin:

1-bosqich. Ulg' /ay/ ib yigit bo'l/di, oq–u qora/ni tani/di.

2-bosqich

Ulugʻ	ay	Ib	yigit	boʻl	di
asos	qoʻsh-cha	qoʻsh-cha	asos	Asos	qoʻsh-cha
sifat	soʻz.yas.	shakl yas.lugʻav. shakl yasovchi	ot	feʻl	shakl yas.lugʻav. shakl yasovchi
asl.sifat	feʻl yas.	Ravishdosh	turdosh ot	Ishaxs	zamon shakl
sodda yasama asos				buyruq mayli	oʻtgan zamon shakli
feʻl, yasama feʻl					
oq	u	qora	Ni	tani	di
asos	yuklama	asos	qoʻsh-cha	asos	qoʻsh-cha
sifat	bogʻl.vaz.	sifat	shakl yasov. sintaktik shakl yasovchi	feʻl	shakl yas.lugʻav. shakl yasovchi
asl.sifat		asliy sifat	kelishik	Ishaxs buyruq	zamon shakl
qoʻshma yasama asos, juft sifat (otlashgan)			tushum kelishigi	mayli	oʻtgan zamon shakli

Koʻrinadiki, yuqoridagi gapda *oq-u qorani* soʻz shakli oʻziga xos murakkab semantik va grammatik xususiyatlarga ega. Biz sifat soʻzlarning gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelishini bilamiz. Lekin gapdagi *oq-u qora* juft sifati aniqlovchi vazifasida emas; unga tushum kelishigi qoʻshimchasi *-ni* qoʻshilgan va gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasida qoʻllangan. Buning sababi: *oq-u qorani* ot oʻrnida qoʻllangandir. Mazkur soʻzning ot soʻz oʻrnida qoʻllanganini unga tushum

kelishigi qo‘shimchasi (-ni) qo‘shilganidan, so‘rog‘ining almashganidan (*oq-u qora–qanday? oq-u qorani–nimani?*) va belgi ma‘nosini **emas**, predmet ma‘nosini bildirayotganidan bilishimiz mumkin.

Morfologik tahlilda bunday xususiyatni–bir turkum so‘zining ikkinchi bir turkum so‘zi o‘rni qo‘llanishini alohida diqqat bilan aniqlash va izohlash kerak. Avvalo asl turkumi ko‘rsatilib, so‘ng qavs ichiga shu so‘zning qaysi turkum so‘zi vazifasida kelayotganini yozib qo‘yish kerak. Chunki morfologik hodisalar bilan sintaktik hodisalarning uzviy bog‘liqligi bor. Gapdagi so‘zlarning grammatik shaklini, ma‘no o‘zgarishlari va sintaktik vazifasini to‘g‘ri anglamaslik, grammatik tahlilni to‘g‘ri amalga oshirishga monelik qiladi.

Yana bir gapni tahlil qilib ko‘raylik: **1-bosqich**

Yomon /ni tan /qid qil /a/ di, yaxshi/ ga taqlid qil/ a/ di. (Maqol).

2-bosqich

Yomon	ni	Tanqid	qil	a	di
asos	qo‘sh-cha	Asos	asos	qo‘sh-cha	qo‘sh-cha
sifat	shakl yas.sintaktik shakl yas.	ot	fe‘l	shakl yasov. lug‘av.shakl yasov.	shakl yasov. lug‘av.shakl yasov.
asl.sifat	kelishik	turdosh ot	II shaxs buyruq	ravishdosh sh.	zamon shakl
otlashgan	tushum kelishigi		mayli		o‘tgan zam.shakl

yaxshi	ga	taqlid	qil	a	di
asos	qo'sh-cha	asos	asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha
sifat	shakl yas.sintaktik shakl yas.	ot	fe'l	shakl yasov. lug'av.shakl yasov.	shakl yasov. lug'av.shakl yasov.
asl.sifat	kelishik	turdosh ot	II shaxs buyruq	ravishdosh shakli	zamon shakl
otlashgan	jo'nalish kelishigi		mayli		o'tgan zam.shakli

Tahlildan ma'lum bo'ladiki, gapdagi ikki so'z o'z turkumi vazifasida emas, boshqa turkum o'rnida qo'llangan: *yomonni* va *yaxishga*.

Yomon va *yaxshi* so'zlarining mazkur gapda ot so'z vazifasida ekanini shu so'zlar qanday bo'laklar bilan bog'langani bilan, qanday so'roqqa javob bo'layotgani bilan, qanday ma'no anglatayotgani va qaysi turkum qo'shimchalarini qabul qilgani bilan izohlash mumkin. *Yomonni* va *yaxshiga* so'z shakllarining gapda to'g'ridan-to'g'ri bog'langan so'zlari tushgan, aslida:

Yomon odamni tanqid qiladi, yaxshi odamga taqlid qiladi.

Aniqlovchi–aniqlanmish holatidagi *yomon odamni* va *yaxshi odamga* birikmalarining aniqlanmish so'zlari (bo'laklari) *odamni* va *odamga* gapda qo'llanmagan: nutqiy iqtisod qilingan. Natijada, aniqlanmish bo'lak (odam)ning ma'nosi, grammatik shakllari va vazifasi to'liq ravishda aniqlovchilarga – *yomon* va *yaxshi* so'zlariga o'tgan.

Sifat so'zlar – *yomon* va *yaxshi* kelishik qo'shimchalari bilan birgalikda to'ldiruvchi vazifasidadir. Biz bilamizki, sifat so'zlar, o'z turkumi o'rnida qo'llansa, hech qachon to'ldiruvchi vazifasida kelmaydi. Sifatlar yuqoridagi gapda ot vazifasini qabul qilgani uchungina, to'ldiruvchi vazifasida kela olgan.

Shunday qilib, morfologik tahlil bilan sintaktik tahlil zich bog'langan: biri ikkinchisini to'ldiradi. Agar morfologik tahlilda so'zlarning vazifa almashinuviga–

boshqa turkum vazifasida qo'llanishiga ahamiyat berilmasa, sintaktik tahlilda, ayniqsa, gap bo'laklarini aniqlashda chalkashliklarga yo'l qo'yish mumkin.

Ko'chish barcha turkum so'zlari orasida bor. Keltirilgan misollarda sifat ot turkumi vazifasida qo'llangan bo'lsa, ot so'zlar sifat vazifasiga ko'chgan bo'lishi ham mumkin. Masalan: *Mirzakarimboy – tulki odam* (Oybek) gapida *tulki* turdosh oti barcha belgilariga ko'ra sifat o'rnida qo'llangan: so'rog'i – qanday? Jonli predmet tushunchasini bildiruvchi *tulki* so'zi gapda predmet belgisini bildiruvchi sifat o'rnida qo'llangandir. Yana misollar:

Mo'tabar *atlas* ko'ylak kiyib olgan edi.

Mashinani *taxta* ko'pirikdan o'tkazdilar.

Sobirjon *tilla* soat sotib oldi.

Mis choynakda suv tez qaynaydi.

O'zbek tilida sifatdosh so'zlar ham ot va boshqa turkumlar o'rnida qo'llanishi mumkin. *Ko'rganni eshitgan yengibdi.* (Maqol).

Ko'r /gan/ni eshit/ gan yeng / ib/ di.

Ko'r	gan	ni	Eshit	gan	yeng	Ib	di
asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha	Asos	qo'sh-cha	asos	qo'sh-cha	qo'sh-cha
fe'l	shakl yas. lug'av. shakl yasov.	shakl yas. sint. shakl yasov.	fe'l	shakl yas. lug'av. shakl yasov.	fe'l	shakl yas. lug'av. shakl yasov.	shakl yas. lug'av. shakl yasov.
II shaxs, buyruq mayli	sifatdosh	kelishik	II shaxs, buyruq mayli	sifat- dosh	II shaxs buy-	ravishdosh	zam. shakl

					ruq may-li		
asos, sodda yasama asos,sifatdosh (ot.vaz.)	tu-shum kelishi- gi.	asos, sodda yasama asos,sifatdosh (ot.vaz.)					o'tgan zam. shak.

Gapdagi har ikki sifatdosh (*ko'rganni* va *eshitgan*) ot o'rnida kelgan. Belgilari:

1. Har ikki sifatdosh kelishik shaklida (biri bosh, ikkinchisi tushum).
2. So'rog'i sifatdoshniki emas, ot so'zniki: *kimni? kim?*
3. Ma'nosi–belgi emas, predmet (jonli predmet): Ko'rganni eshitgan yengibdi.

4. Sintaktik vazifasi–aniqlovchi emas, to'ldiruvchi va ega.

Quyidagi jumlada ham, sifatdosh so'zlar ot turkumi vazifasida qo'llangan:
Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim (Navoiy).

Bil	ma	gan	ni	so'- ra	b	o'r- gan	Gan	olim	(dir)
asos	qo'- shim- cha	qo'sh- cha	qo'- shim- cha	asos	qo'- shim- cha	asos	qo'- shim- cha	asos	
fe'l	shakl yas. lug'av shakl yasov.	shakl yas. lug'av shakl yasov.	shakl yas. sin- tak. shakl yasov	fe'l	shakl yas. lug'av shakl yasov.	fe'l	shakl yas. lug'a- viy shakl yasov	ot	ke- sim- lik ko'rs.
II sh buy. may.	bo'- lishsiz shak.	sifat- dosh	keli- shik	II sh buy. may.	ravish- dosh	II sh buy. may.	sifat- dosh	tur. ot	belgi- siz
sifatdosh, otlashgan so'z			tushum ke- lish.			sifatdosh, otlashgan so'z			

Birozdan so'ng tur-tur boshlandi. (A.Q)

Gapdagi *birozdan* (o'zagi asli ravish) va tur-tur (fe'l) so'zlari ham o'z turkumi vazifasida emas, ot vazifasida qo'llangan. Asosiy belgilari, avvalgi gap tahlilida qayd etilganidek, ot qo'shimchalarini olgani, so'rog'i o'zgartirani va ot bajaradigan sintaktik vazifada ekanligidir.

Tilimizda *son so'zlar* ham boshqa turkum vazifasiga ko'chishi mumkin:

Biri kitob o'qiydi, biri shaxmat o'ynaydi.

Gapdagi *biri* so'zlari ot so'z o'rnida (vazifasida) qo'llangan, gapda ega vazifasidadir. (Bundan tashqari, gapdagi *kitob* va *shaxmat* so'zlari tushum kelishigi shaklida, lekin belgisiz qo'llangan). Yana misollar:

1. *O'n besh uchga* karsiz bo'linadi.

2. Olimlarning *ikkisi* ham tuproqshunos edilar (Oybek).

3. Kampirning *yettisi* o'tgandan keyin Olim buva dadamga uchrabdi (A.Q.).

O'zbek tilida hatto *taqlid so'zlar va bog'lovchilar* ham ot o'rnida qo'llanishi mumkin. Masalan:

1. Bolalarning *shov-shuvi* tindi (Gaz.).

2. Qo'shni qishloqdan otlarning *dupur-dupuri* eshilib turardi (A.Q.).

3. To'pga uch kun qolganda «*lekini*» chiqib qoldi (A.Q.).

Ravish turkumiga mansub so'zlar gapda ba'zan sifat va ot turkumidagi so'zlar o'rnida qo'llanishi mumkin. Tahlil jarayonida bunday xususiyatlarni imkoni qadar to'liq izohlab o'tish kerak. Masalan:

Ko'pga chopgan ozdan quruq qoladi (Maqol).

Bu gapdagi *ko'pga* va *ozdan* bo'laklari to'ldiruvchi vazifasidadir, materiali esa ravish–*ko'p, oz*. Bu ravishlar ot o'rniga o'tgani sababli, o'ning grammatik belgilarini qabul qilgan:

1. Kelishik qo'shimchalarini olgan.

2. Ikkalasi ham gapda hol emas (ravishning asosiy sintaktik vazifasi hol bo'lish), to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

3. Harakat belgisi ma'nosini emas, balki predmet tushunchasini ifodalagan. (Mazkur gapda sifatdosh so'z–*chopgan* ham o'z vazifasida emas, otlashgandir).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tili gap qurilishida so'z turkumlariaro vazifa almashinuv anchagina keng tarqalgan. Morfologik tahlilda tilimizdagi mana shu xususiyatga alohida diqqat bilan qarash va gapdagi so'zlarning asl turkumi va qaysi turkum vazifasida qo'llanganini to'liq izohlab berish talab qilinadi. Bu narsa, o'z o'rnida, sintaktik tahlilni to'g'ri amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Grammatik tahlilning tarkibiy qismlari qaysilar?
2. Soʻz tarkibi boʻyicha tahlilda nimalarga eʼtibor berish kerak?
3. Grammatik tahlil qaysi prinsipga asoslanadi?
4. Morfologik tahlil qanday amalga oshiriladi? Misollar yordamida izohlab bering.
5. Soʻz turkumlari boʻyicha tahlilning baʼzi xususiyatlariga izoh bering.
6. Quyidagi gapni sintaktik tahlil qiling. *Inson ilm va mehnati bilan baxtli boʻladi.*
7. Tahlilda gap boʻlamlari bilan munosabatga kirishmaydigan boʻlamlarni qanday izohlaysiz?

Mavzu boʻyicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Gʻulomov Yo. va b. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. T.: «Oʻqituvchi», 1975.
2. Gʻulomov A., Qodirov M. Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221.
3. Qodirov M., Dolimov U., Aʼlomova M. Oʻzbek tili va adabiyoti, T.: «Oʻqituvchi», 1993.
4. Qodirov M. Kirish imtihonlarida grammatik razbor. T., ToshDU nashri, 1985, 1989.
5. Quدراتov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. T.: «Oʻqituvchi», 1981.
6. Текучев А. В. Грамматический разбор в школе. М., 1963.

SO‘ZLARNING ALOQA-MUNOSABAT SHAKLLARINI O‘QITISH METODIKASI

Tayanch tushunchalar:

O‘zbek tilidagi qo‘shimchalar: so‘zning lug‘aviy ma‘nosini tamoman o‘zgartiradigan qo‘shimchalar (so‘z yasovchi qo‘shimchalar); so‘zning lug‘aviy ma‘nosini qisman o‘zgartiradigan qo‘shimchalar va so‘zning lug‘aviy ma‘nosiga ta‘sir yetmaydigan qo‘shimchalar (shakl yasovchi qo‘shimchalar), so‘zlarning aloqa-munosabat shakllari: egalik qo‘shimchalari; kelishik qo‘shimchalari; kesimlik qo‘shimchalari, aloqa-munosabat shakllari.

«So‘zlarning aloqa-munosabat shakllari» bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari. Ma‘lumki, o‘zbek tilidagi qo‘shimchalar uch turli bo‘lib, birinchisi so‘zning lug‘aviy ma‘nosini tamoman o‘zgartiradigan qo‘shimchalar (so‘z yasovchi qo‘shimchalar), ikkinchisi, so‘zning lug‘aviy ma‘nosini qisman o‘zgartiradigan qo‘shimchalar (lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar) va uchinchisi, so‘zning lug‘aviy ma‘nosiga ta‘sir yetmaydigan qo‘shimchalar (sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar)dir. Birinchi va ikkinchi turdagi qo‘shimchalar 6-sinfda «So‘zning lug‘aviy shakllari va ma‘no guruhlari» bo‘limida o‘rganiladi. Uchinchi guruh qo‘shimchalar esa 7-sinfda «So‘zning aloqa-munosabat shakllari» bo‘limiga taalluqli bo‘lib, ularga egalik, kelishik, shaxs-son va zamon qo‘shimchalari kiradi.

«Ona tili» o‘quv fanidan yangi dasturning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda egalik, kelishik qo‘shimchalari faqat otlar va otlarni almashtirishga xizmat qiladigan olmoshlar bilan birikadi, degan g‘ayriilmiy talqin chiqarib tashlandi.

Mazkur bo‘lim o‘z ichiga aloqa-munosabat shakllari haqida umumiy ma‘lumot berishni, aloqa-munosabat shakllarining vazifalari bilan tanishtirishni, egalik shakllari, kesimlik shakllari, kelishik shakllari ustida ishlashni, bog‘lama, kesimning tuslanishi, fe‘l mayllari (buyruq-istak mayli, shart mayli, xabar mayli), zamon shakllari qo‘shimchalarining imlosi va talaffuzi, zamon shakllarining ma‘nolari, ot-kesimning zamon shakllari, kesimlik so‘zlari xususida zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar berishni ko‘zda tutadi. Bu materiallarni o‘rganishga dastur talabiga ko‘ra 30 soat vaqt ajratilgan.

Mazkur bo‘limni o‘rganish 5–6-sinflarda o‘rganilganlarni takrorlash va yangi bo‘limni o‘rganishga zamin hozirlash bilan boshlanadi. O‘quvchilar berilgan matnни o‘qib, mustaqil so‘zlarni ma’noviy turlarga (fe’llar, otlar, sifatlar, sonlar, ravishlar, olmoshlar, taqlidlar) ajratadilar; ot, sifat, sonlarga xos lug‘aviy shakl qo‘shimchalarini aniqlaydilar, tavsiya etilgan qoliqlar asosida gaplar tuzib, gap bo‘laklarining qaysi so‘z turkumi va uning qanday lug‘aviy shakl bilan ifodalanganligini tushuntiradilar. Shundan so‘ng takrorlash yangi bilim berish bilan ulanadi. Aloqa-munosabat shakllari qo‘shimchalar bilan birikish xususiyatiga ko‘ra so‘zlar uch katta guruhga: 1) ot; 2) sof fe’l; 3) o‘zgarmas so‘zlarga ajratiladi; ularning har biri haqida qisqacha ma’lumot beriladi va amaliy topshiriqlar bajariladi.

«Aloqa-munosabat shakllarining vazifalari» mavzusi o‘rganilar ekan, berilgan gaplarda *-ga, -da, -dan*, qo‘shimchalarini *uchun, bilan, sari, sababli, tomon, uzra, orqali* ko‘makchilaridan mosi bilan almashtirish (mas., *Olamda bor bo‘lsin tinchlik–Olam uzra bor bo‘lsin tinchlik*), *-ga, -dan, -da* qo‘shimchalarining vazifasi haqida xulosa chiqarish, *-im, -si, -ning, -ni, -ga, -da, -dan* qo‘shimchali so‘zlar ustida ishlash orqali ularning vazifasi va ma’nosini aniqlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi. Bu ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish ularga aloqa-munosabat shakllari *-ning* qo‘shimchalari haqida umumiy xulosa chiqarish imkonini beradi.

Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar so‘z birikmalarida so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga, shuningdek, gap bo‘laklarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Aloqa-munosabat shakllari (qo‘shimchalari) guruhiga:

- 1) egalik qo‘shimchalari;
- 2) kelishik qo‘shimchalari;
- 3) kesimlik qo‘shimchalari kiradi.

O‘quvchilarni egalik qo‘shimchalari bilan tanishtirish maqsadida ularga *-im, -miz, -ing, -si, -ngiz, -ingiz, -lari* kabi qo‘shimchalari bilan kelgan so‘zlar berib, bu qo‘shimchalarning ma’nosini sharhlash, ularni tobe so‘z bilan kengaytirish va so‘z birikmalari hosil qilish, unli va undosh bilan tugagan ismlarni (ot, sifat, son, olmosh, sifat-dosh, taqlidlar) tushlash singari topshiriqlardan foydalaniladi.

«Kelishik shakllari» mavzusini o'rganishda berilgan gaplardan *-ning, -ni, -ga, -da, -dan* qo'shimchalari bilan kelgan so'zlarni ajratish, nuqtalar o'rniga tushirilgan kelishik qo'shimchasini qo'yish, berilgan so'zlarni kelishiklar bilan turlash, bu so'zlar ishtirokida gaplar qurish singari topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda, eng muhimi, otlar, sonlar, olmoshlar, harakat nomlari, sifatdoshlr, taqlidlarning kelishik qo'shimchalarini qabul qilishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'quvchilarni kesimlik shakllari bilan tanishtirishda o'qituvchi ma'lum bir matnni o'qitib, undan fe'l-kesimli va ot-kesimli gaplarni ikki guruhga ajratib ro'yxat qilish, bu kesimlarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini topish, zamonini aniqlash singari topshiriqlardan foydalanish mumkin.

«Bog'lama» mavzusini o'rganish fe'l-kesimli va ot-kesimli gaplarda bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalovchi qo'shimchalar ustida ishlash bilan boshlanadi. Shundan so'ng ot-kesimli gaplar ustida ish olib boriladi. O'quvchilar ot-kesimli gaplar tarkibidagi *edi, bo'ladi, bo'lsin, bo'lmaydi, emas* kabi so'zlarning vazifasini tushuntiradilar hamda gap juftlarini o'qib, bog'lamali va bog'lamasiz gaplar orasidagi ma'no farqini aniqlaydilar.

Mazkur mavzuni o'rganishda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini nafaqat fe'l-kesimli gaplarda, balki ot-kesimli gaplarda ham zamon kategoriyasi mavjudligiga qaratishi lozim. Bu muhim vazifa gaplarda ot-kesimni *yemoq* fe'li yordamida o'tgan zamonga, *bo'lmoq* fe'li yordamida kelasi zamonga aylantirish; *yemoq* va *bo'lmoq* bog'lamasi bilan kelgan ot-kesimli gaplar orasidagi ma'no farqini tushuntirish, bog'lamali gaplar tuzib, kesimning zamonini aniqlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Tilga olingan ijodiy-amaliy ishlar kesimi *edi* va *bo'ldi* bog'lamalari bilan ifodalangan gaplarga *bo'lmoq* bog'lamasi bir holatdan ikkinchi holatga o'tish harakatini ifodalashini bilib olish imkoniyatini yaratadi.

Dars o'tgan zamonda berilgan ot-kesimli matnlarni kelasi zamonda ifodalash, savollar asosida ot-kesimli matnlar yaratish singari ijodiy-amaliy ishlarni bajarish bilan yakunlanadi.

«Kesimning tuslanishi» mavzusini o'rganishda berilgan gaplarda ajratib ko'rsatilgan kesim tarkibidagi gap egasining shaxsi va soniga ishora etuvchi qo'shimchalarni aniqlash, gap egasini tiklab o'qish yoki ko'chirishdan so'ng «shaxs-son qo'shimchalari» tushunchasiga ta'rif berish mumkin. Chunki kesimdagi shaxs-son qo'shimchasi eganing qanday shaklda kelishiga ishora qilib turadi.

O'quvchilar mustaqil ravishda «Kesim tarkibida gap egasining shaxs va soniga ishora qiluvchi qo'shimchalar shaxs-son qo'shimchalaridir», degan xulosaga keladilar. Shundan so'ng ular bir qator ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarishga o'tadilar. Chunonchi, berilgan matnni o'qib, shaxs-son qo'shimchalarini qo'yish, gapdagi birinchi shaxs birlikda kelgan olmoshlarni ikkinchi, uchinchi shaxs birlik va birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs ko'plikda ifodalash singari ishlar shular jumlasidandir. Darsning oxirida o'quvchilar kesim gapning egasi bilan shaxs va sonda moslashishini, shuning uchun eganing shaxs va soni o'zgarsa, kesim tarkibidagi shaxs-son qo'shimchalari ham o'zgarishini; kesimning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi kesimning tuslanishi ekanligini bilib oladilar hamda «otlarning turlanishi» va «kesimning tuslanishi» hodisalari orasida qanday o'xshashlik va farq borligi xususida xulosa chiqaradilar.

Fe'l-kesimli gaplarning mayl shakllari ham aloqa-munosabat shakli sanaladi. O'quvchilar xabar mayli, buyruq-istak mayli, shart maylida berilgan gap to'plamlarini o'zaro qiyoslab, ular orasidagi farqlarni va bu farqlar nima bilan bog'liq ekanligini aniqlash; berilgan gaplarni:

- 1) ma'lum xabarni ifodalovchi gaplar;
- 2) so'rovchining buyruq va istagini ifodalovchi gaplar;

3) shart ma'nosini ifodalovchi gaplar kabi guruhlariga ajratish, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, mustaqil ravishda «mayl» tushunchasiga ta'rif berish, o'zbek tilida uch xil mayl borligi (xabar, buyruq-istak, shart mayllari), bo'lishli va bo'lishsizlik, zamon, shaxs-son shakllari va ma'nolari kesimlik uchun zaruriy tarkibiy qismlar ekanligi, shuning uchun istagan gapdagi kesim tarkibida, albatta, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolari borligini bilib oladilar.

Shundan so'ng buyruq-istak mayli, shart mayli va xabar mayli alohida-alohida mavzu sifatida o'rganiladi.

«Buyruq-istak mayli» mavzusini o'rganishda uch yo'nalishda ish olib boriladi:

1. Buyruq-istak mayli qo'shimchalari ustida ishlash. Bu yo'nalishda nuqtalar o'rniga *-ay, -gan, -sin, -aylik, -ing*, qo'shimchalarini qo'yish, berilgan buyruq-istak maylidagi fe'llarni tushlash singari topshiriqlardan foydalaniladi.

2. Buyruq-istak maylidagi fe'llarning gap mazmuniga ta'siri ustida ishlash. Bu xabar maylidagi kesimlarning shaxs-son, zamon qo'shimchalarini buyruq-istak maylidagi qo'shimchalar (masalan, *-ay, -gin, -sin, -aylik, -ingiz, -lar*) bilan almashtirish, qo'shimcha o'zgarishi bilan gap mazmunida bo'ladigan o'zgarishni sharhlash, gaplarni o'zaro qiyoslab ma'no farqini tushuntirish singari ijodiy - amaliy topshiriqlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

3. Buyruq-istak maylidagi fe'llar haqida umumlashma hosil qilish. Bajirilgan ijodiy-amaliy topshiriqlar o'quvchilarni «So'zlovchining bayon etayotgan fikrini buyruq, tilak, istak sifatida ifodalashi buyruq-istak mayli sanaladi» degan xulosaga olib keladi hamda bu kesimlarning imlosi, talaffuzi, ma'nosini bilib olish imkoniyatini yaratadi.

«Buyruq-istak mayli» mavzusi o'rganilgandan so'ng buyruq matni ustida ishlash foydalidir.

«Shart mayli» mavzusini o'rganishda avvalo o'quvchilar e'tibori bu mayli qo'shimchalariga qaratiladi. Ular nuqtalar o'rniga *-sa, -san, -sang, -sangiz, -salar, -san* qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chirish, shu qo'shimchalar bilan tugagan gaplar ro'yxatini davom ettirish singari ijodiy-amaliy topshiriqlar orqali shart maylidagi kesimlarni hosil qiluvchi qo'shimchalarni bilib oladilar.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilar e'tibori bu qo'shimchalarning gap ma'nosiga ta'siriga qaratiladi. Shart maylini hosil qiluvchi har bir qo'shimchanning gap ma'nosiga qanday ta'sir etayotgani bu gaplarni o'zaro qiyoslash orqali aniqlanadi.

Shart maylidagi fe'llarni birlik va ko'plik, shaxs, son bilan tuslayotganda o'qituvchi ko'proq o'quvchilar e'tiborini qanday holatda qaysi qo'shimchanning qo'shilishiga, qo'shimchanning gap ma'nosiga ta'siriga, ularning imlosiga qaratadi.

Mazkur mavzuni o'rganishda berilgan gaplarda shart maylidagi fe'l-kesimning boshqa gapda ifodalangan ish-harakat va holatning shartini yoki paytini ifodalab kelishiga ko'ra ikki guruhga ajratish, kesimi shart maylli fe'l bilan ifodalangan gaplarga *agar* bog'lovchisini qo'shib ko'rish, qanday ma'no ifodalanganda shart maylli fe'l *agar* bog'lovchisi bilan bemalol bog'lana olishi xususida xulosa chiqarish, ko'shma gaplar tarkibida qo'llanilgan shart maylli gaplarni va sodda gaplarni alohida-alohida ko'chirish singari ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

«Xabar mayli» mavzusini o'rganishda kesimi ot-kesim va fe'l-kesim bilan ifodalangan gaplarda ish-harakat yoki holat qaysi zamonda kelganligini aniqlash, kesim tarkibida zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimchalarni yoki shakllarni topish, kesimi o'tgan zamon bilan ifodalangan hikoyalarni hozirgi va kelasi zamonga aylantirib yozish (va aksincha) singari topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Fe'llardagi xabar mayli zamon shakllarining qo'shimchalari va tuslanishini jadval orqali berish ma'qul. O'quvchilarni har bir zamon shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar bilan tanishtirish ularning nutqiy faoliyatini rivojlantirish uchun o'ta muhimdir.

Zamon shakllari qo'shimchalarining imlosi va talaffuzi ustida ish olib borilar ekan, *-di* qo'shimchali o'tgan zamon fe'l shaklini hosil qilish, uni shaxs va sonda tushlash, berilgan fe'llardan hozirgi va kelasi zamonning bo'lishsiz shaklini hosil qilish singari ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

O'quvchilar nutqini rivojlantirishda zamon shakllarining qo'shimchalari ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar *-di*, *-b*, *-ib*, *-gan*, *-ardi*, *-gandi* (*-gan edi*) qo'shimchali kesimlarning ma'nosi ustida ishlaydilar (masalan, *Men ovqat pishirdim*, *pishiribman*, *pishirganman*, *pishirarman*, *pishirgan edim*), ularning ma'no nozikligini sharhlaydilar.

O'quvchilar so'zlarning aloqa-munosabat shakllari ustida ish olib borar ekanlar, ot-kesimlarning zamon shakllari bilan ham tanishadilar. Ma'lumki, ot-kesimlarda ham zamon shakli mavjud bo'lib, ularning o'tgan va kelasi zamonlari bog'lama vositasida hosil bo'ladi. Masalan, «*Opam-shifokor*» gapidagi kesim

hozirgi zamoni ifodalasa, «*Onam shifokor edi*», «*Opam shifokor bo'ladi*» gaplaridagi «*shifokor edi*» o'tgan zamon va «*shifokor bo'ladi*» kesimlari esa kelasi zamoni ifodalaydi.

Keyingi bosqichda «*Akam-tikuvchi*», «*Rasm-chiroyli*» tipidagi gaplarni boshqa bo'laklar bilan kengaytirib, kesimning zamonini aniqlash, berilgan qoliqlar asosida gaplar tuzib, ot-kesimning zamoni qanday hosil bo'lganligini sharhlash, «*Otam-muhandis*» va «*Otam muhandis edi*» singari gap juftlarini o'zaro qiyoslab ma'noviy farqini topish kabi ijodiy-amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar. Bu singari ishlar 8–9-sinfda «Sintaksis. Ohang va tinish belgilari» bo'limini o'rganish uchun mustahkam poydevordir.

«Kesimlik so'zlari» mavzusini o'rganishda o'qituvchi *shart, kerak, zarur, joiz* so'zlarining vazifasi ustida ishlash, *-niki* qo'shimchasining ma'nosi va imlosi ustida ishlash orqali o'quvchilarni zaruriy bilimlar bilan qurollantiradi.

Kullas, so'zlarning aloqa-munosabat shakllari (egalik qo'shimchalari, kelishik qo'shimchalari, kesimlik shakllari, bog'lama, kesimning tuslanishi, mayl shakllari) morfologiyadan ko'ra ko'proq sintaksis bo'limiga aloqadordir. Shuning uchun mazkur bo'lim 7-sinfda «Sintaksis»ni boshlashdan oldin o'rganiladi va bu bo'limni o'rganish uchun moddiy zamin hozirlaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Aloqa-munosabat shakllarining vazifalari nimalardan iborat?
2. O'zbek tilida qo'shimchalar qanday tasnif qilinadi?
3. Aloqa-munosabat qo'shimchalariga qaysi qo'shimchalar kiradi?
4. Maktabda egalik shakllari ustida qilinadigan ishlar haqida fikr yuriting.
5. Kelishik shakllarini o'rganishda qanday topshiriq turlaridan foydalanish ahamiyatli?
6. «Bog'lama» mavzusini o'rganishda o'qituvchi qanday ijodiy-amaliy topshiriqlar turidan foydalansa bo'ladi?
7. «Kesimning tuslanishi» mavzusini o'tishda nimalarga e'tibor berish kerak?

8. Mayl shakllari ustida ishlashda xabar mayli, buyruq-istak mayli, shart maylida berilgan gap to'plamlarini o'zaro qiyoslash natijasida nimalarga erishish mumkin?

9. Zamon shakllari qo'shimchalarining imlosi va talaffuzi ustida ishlash bo'yicha qanday ijodiy topshiriqlar tizimidan foydalanish mumkin?

10. Aloqa-munosabat qo'shimchalari yuzasidan «Guruhlar bellashuvi» o'tkazing.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 1-maxsus son. Toshkent, «Sharq», 1999, 119-123-b.

2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5–9-sinflar). Toshkent, 2010, 10–41-b.

3. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar (5–9-sinflar). (Tuzuvchilar: M. Abduraimova, G. Ziyodullayeva), Toshkent, «Sharq», 2010.

4. Abduraimova M. Morfologiyani sintaksis bilan bog'lab o'rganish. «O'zbek maktablarida ona tili o'qitish haqida» to'plamida (metodik tavsiyalar). Toshkent, 1991, 8–16-b.

5. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. Toshkent, «Ma'naviyat», 2017, 128.

6. Ne'matov H, G'ulomov A, Qodirov M., Abdurahimova M. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. Toshkent, «O'qituvchi», 2000, 55–96-b.

7. Zikrillayev G. O'zbek tili morfologiyasi. Buxoro, 1994.

8. G'ulomov A. Nutq o'stirish mashg'ulotlari (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). Toshkent, «O'qituvchi», 1995.

«SINTAKSIS» BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI

Tayanch tushunchalar:

Sintaksis, so‘zlarning sintaktik munosabatga kirishish yo‘llari (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), so‘z birikmalarida hokim so‘z va tobe so‘z, so‘z birikmasi va so‘z, ibora va gap, sodda gap, kesim va uning ifodalanishi, egali va egasiz gaplar, ifodalangan egali va yashiringan egali gaplar, egasiz gaplarning turlari; yoyiq gaplar (hol, uning ma‘no turlari va ifodalanishi; to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi; aniqlovchi); yoyiq atov va so‘z - gaplar; uyushiq bo‘laklar, ularning ohangi va tinish belgilari; gapda ajratilgan izoh bo‘laklar; gapda kiritmalar; gapda undalma; to‘liqsiz gap, nutqda teng bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, yuklamalar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, nisbiy so‘zlar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, faqat ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar.

«Sintaksis» bo‘limining boshqa bo‘limlar bilan aloqadorligi. Sintaksisning o‘rganish obyekti so‘z birikmasi va gapdir. Bu bo‘lim oldin o‘rganilgan bo‘limlar: fonetika, leksikologiya, so‘zlarning lug‘aviy shakllari va ma‘noviy guruhlari, so‘zlarning aloqa-munosabat shakllari bilan uzviy bog‘langan. Chunonchi, gap bo‘laklari o‘rganilar ekan, so‘z turkumlaridan egallangan bilimlarga tayanishga to‘g‘ri keladi.

«Sintaksis» bo‘limini o‘qitishda so‘zning moddiy va ma‘noviy qirrasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi.

Mazkur bo‘lim fonetika va morfologiya bo‘limlari bilan ham uzviy bog‘langan. Chunki «Sintaksis. Ohang va tinish belgilari» bo‘limini o‘qitishda tovushlarning so‘z ma‘nosiga ta‘siri, so‘zlarni imlo qoidalariga muvofiq to‘g‘ri yozish; so‘zning lug‘aviy ma‘nolari, ma‘nodosh, uyadosh, shakldosh so‘zlar, atamalar va shevaga oid so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralar; so‘z turkumlari ustida ishlash davom ettiriladi.

Sintaksisning ohang va tinish belgilari bilan aloqadorligi xususida gap bo‘lishi mumkin emas. Zero, ifodali o‘qish malakalari ham shu bo‘limni o‘qitishda maromiga etadi.

Mazkur bo‘lim o‘quvchining gap ohangi xususidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini kengaytiradi. «Men keldim.», «Men keldim!», «Men keldim?» tipidagi gaplarning uch xil ohang bilan o‘qilishi va uch xil ma‘noga egaligi shu bo‘lim orqali o‘quvchi ongiga singdiriladi.

Sintaksisni o‘rganish jarayonida o‘quvchining punktuatsion malakalari to‘la shakllanadi. U qaysi tinish belgidan qanday sharoitda foydalanish kerakligini shu bo‘lim orqali mukammal egallaydi.

Maktabda «Sintaksis» bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari. Maktabda «Sintaksis» bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari ona tili ta‘limining maqsad va vazifalari bilan uyg‘undir. Modomiki, «Ona tili o‘qitish konsepsiyasi»da ona tili ta‘limining asosiy maqsadi «Ta‘lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish» deb belgilangan ekan, demak, mazkur bo‘limni o‘qitish ham ana shu maqsadga xizmat qiladi. O‘quvchilar «Sintaksis» bo‘limini o‘rganish orqali eng so‘nggi natija—sodda va qo‘shma gaplardan nutqiy faoliyatda (og‘zaki va yozma) to‘g‘ri foydalanish malaka va ko‘nikmalarini egallaydilar. Demak, mazkur bo‘limni o‘qitishda o‘qituvchining diqqat markazida sodda va qo‘shma gaplardan iborat matnni maqsadga muvofiq ravishda to‘g‘ri o‘qish, mazmunini tushunish, o‘quvchilarning matn yaratish mahoratini kengaytirib turish lozim.

Belgilangan maqsadga erishish uchun «Sintaksis» bo‘limi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

1. So‘zlarning sintaktik munosabatga kirishish yo‘llari (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), so‘z birikmalarida hokim so‘z va tobe so‘z, so‘z birikmasi va so‘z, ibora va gap orasidagi farq xususida o‘quvchilarga puxta nazariy bilim berish hamda amaliy malaka va ko‘nikmalar hosil qilish.

2. Sodda gap, kesim va uning ifodalanishi, egali va egasiz gaplar, ifodalangan egali va yashiringan egali gaplar, egasiz gaplarning turlari; yoyiq gaplar (hol, uning ma‘no turlari va ifodalanishi; to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi; aniqlovchi); yoyiq

atov va soʻz-gaplar; uyushiq boʻlaklar, ularning ohangi va tinish belgilari; gapda ajratilgan izoh boʻlaklar; gapda kiritmalar; gapda undalma; toʻliqsiz gap haqida maʼlumot berish hamda ulardan nutqiy faoliyatda foydalanish malaka va koʻnikmalarini takomillashtirish.

3. Ikki va undan ortiq sodda gaplarni turli vositalar bilan biriktira olish .

4. Nutqda teng bogʻlovchilar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar, ergashtiruvchi bogʻlovchilar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar, yuklamalar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar, nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar, faqat ohang vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplardan foydalanish malaka va koʻnikmalarini mukammal egallash.

5. Sodda va qoʻshma gaplarda tinish belgilarni toʻgʻri hamda oʻrinli qoʻllay olish malaka va koʻnikmalarini hosil qildirish.

6. Sodda va qoʻshma gaplarni toʻgʻri oʻqish malaka va koʻnikmalarini rivojlantirish.

7. Sodda va qoʻshma gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini oʻzgartirish malaka va koʻnikmalarini singdirish.

8. Kesimdan savol berish orqali gaplarni hollar, toʻldiruvchilar va aniqlovchilar bilan kengaytirish malakalarini takomillashtirish.

9. Sodda va qoʻshma gap tarkibidagi soʻzlarni ularning vazifadoshlari (qiymatdoshlari) bilan almashtirish malaka va koʻnikmalarini rivojlantirish.

10. Sodda va qoʻshma gaplardagi maʼno nozikliklarini farqlashga oʻrgatish.

11. Sodda va qoʻshma gaplardan foydalangan holda ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik, badiiy va rasmiy-idoraviy uslublarda matn yaratish malaka va koʻnikmalarini kengaytirish.

«Sintaksis» boʻlimini oʻqitganda boshqa til sathlarini oʻqitishda boʻlgani kabi imloviy, talaffuziy va uslubiy xatolar ustida ishlash davom ettiriladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, 8–9-sinflarda ham rasmiy-idoraviy ish qogʻozlari ustida ishlash davom ettiriladi. «Sintaksis» boʻlimini oʻqitishda oʻquvchilar ish qogʻozlarining: majlis bayonnomasi, shartnoma matnlari tuzish, murakkab

ma'lumotnomalar yozish, rasmiy xatlar yozish kabi murakkab ko'rinishlari bilan tanishtiriladi.

Xullas, mazkur bo'lim nafaqat o'quvchilarni sintaksis yuzasidan nazariy ma'lumotlar bilan qurollantiradi, balki sintaksisning boy, rang-barang imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanish malaka va ko'nikmalarini hosil qildiradi.

Dastur talabiga ko'ra, 8-sinfda sodda gap sintaksisi, 9-sinfda qo'shma gap sintaksisi o'rganiladi.

8-sinfda dastlab «Sintaksis» bo'limi haqida umumiy ma'lumot beriladi. O'quvchilar tilning ijtimoiy vazifasi, fikrni shakllantirishda tilning qaysi birliklari xizmat qilishi, leksikologiya, morfologiya va sintaksisining nimani o'rganishi va o'rgatishi xususida bahs-munozara yuritadilar.

So'z birikmasini o'qitish metodikasi. O'quvchilar 5-sinfda so'z birikmasi xususida dastlabki ma'lumotlarni egallaganlar. Ular ixcham gaplardan sodda yoyiq gaplar hosil qilish, berilgan so'z birikmalarida hokim va tobe so'zni aniqlash, hokim so'zlarga so'roq berish orqali tobe so'z topib qo'yish singari topshiriqlarni bajara oladilar.

8-sinfda so'z birikmasini o'rganishga qadar ular kengayuvchi va kengaytiruvchi so'zlar birgalikda so'z birikmalarini tashkil etishini, so'z birikmalaridagi kengaytiruvchi so'z–tobe so'z, kengayuvchi so'z–hokim so'z ekanligini o'rganganlar.

8-sinfda «So'z birikmasi» mavzusini o'rganish berilgan so'z birikmalarida (masalan, *katta kuch, tunda kelmoq, ikki yil, tez gapirmoq, Tursunboyning basharasi, kitobdan ko'chirmoq* va h.k.) ajratilgan hokim so'zdan tobe so'zga so'roq berib, so'z birikmalarini:

- 1) aniqlovchili birikmalar;
- 2) to'ldiruvchili birikmalar;

3) holli birikmalar kabi uch guruhga ajratish, ularni fe'lli birikmalar va otli (sonli, sifatli, olmoshli, ravishli) birikmalar kabi guruhlarga ajratish, berilgan matnlarda tobe so'z qaysi hokim so'zni kengaytirib, u bilan birga so'z birikmasi

hosil qilishini aniqlash, tobe soʻzning oʻrnini aniqlash singari ijodiy-amaliy ishlar bilan shugʻullanadilar.

Oʻquvchilar kuzatish va egallangan bilimlarga asoslangan holda soʻz birikmalarida tobe soʻz hamisha hokim soʻzdan oldin kelishi xususida umumlashma hosil qiladilar.

«Soʻz birikmasi» mavzusi oʻrganilar ekan, oʻquvchilar soʻz birikmasida soʻzlarning oʻzaro birikish usullari bilan ham tanishtiriladi. Berilgan soʻz birikmalari tarkibida ajratilgan vositalardan qaysi birlari soʻzlarni bir-biriga bogʻlashga, qaysilari esa lugʻaviy maʼnoga qoʻshimcha maʼnolar kiritishga xizmat qilishini bilib oladilar.

Shundan soʻng soʻz birikmasida tobe va hokim soʻzning oʻzaro bir-biri bilan bitishuv, boshqaruv va moslashuv yoʻli bilan birikishi; tobe va hokim soʻzning hech qanday qoʻshimchasiz, faqat maʼnosi va tobe soʻzning hokim soʻzdan oldin kelish usuli bilan bogʻlanishi bitishuv ekanligi; tobe soʻzning hokim soʻzga tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishigi qoʻshimchalari yoki koʻmakchilar yordamida bogʻlanishi boshqaruv ekanligi; tobe soʻzning hokim soʻzga qaratqich kelishigi qoʻshimchasi orqali bogʻlanishi, hokim soʻzning esa egalik qoʻshimchalari yordamida tobe soʻzga birikishi moslashuv ekanligini bilib oladilar va shu yoʻnalishda bir qator ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

Maʼlumki, oʻquvchilar soʻz birikmasini soʻzlar qoʻshilmasidan, soʻzdan, iboradan, tasviriy ifodadan farqlashda qiynaladilar. Shu bois, bularning har biriga (soʻz birikmasi va soʻzlar qoʻshilmasi, soʻz birikmasi va soʻz va h.k.) alohida-alohida toʻxtalishga toʻgʻri keladi.

Soʻz birikmasining soʻzlar qoʻshilmasidan farqini tushuntirish uchun ularni oʻzaro qiyoslash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «*Karimjonning akasi*» soʻz birikmasini «*Karimjon va akasi*» soʻzlar qoʻshilmasi bilan qiyoslash kabi.

Soʻz birikmasi va soʻzlar qoʻshilmasini oʻzaro qiyoslash natijasida oʻquvchilar soʻzlarning oʻzaro birikishi ikki yoʻl bilan: 1) tobelanish, bir soʻzning (tobe

soʻzning) boshqa bir soʻzga–hokim soʻzga boʻysunishi orqali hamda 2) ikki soʻzning teng huquqli, biri ikkinchisiga buysunmay bogʻlanishini bilib oladilar.

Mazkur mavzu oʻrganilayotganda oʻquvchilar eʼtibori soʻzlarning tobe aloqa asosida bogʻlanishi, soʻz birikmalari hosil qilishi, soʻz birikmasi ikki va undan ortiq soʻzdan iborat boʻlishiga qaramay, bitta narsani nomlab kelishi (*opamning kitobi* – bitta kitobni atab kelyapti); soʻzlarning teng huquqli bogʻlanishi soʻz qoʻshilmalarini hosil qilishi, soʻz qoʻshilmalarida har bir soʻz maʼno mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qolishi (*opam va kitob*)ga qaratiladi.

Maʼlumki, soʻz qoʻshilmalarida soʻzlar turli vositalar yordamida bogʻlanishi mumkin. Chunonchi, ohang (*yozuvda vergul*), *-u*, *-yu*, *yoki*, *baʼzan-baʼzan*, *na-na*, *balki*, *nafaqat*, *ham-ham*, *hamda* bogʻlovchilari shular jumlasidandir. Oʻquvchilarga ana shu vositalar bilan bogʻlangan soʻz qoʻshilmalarini berib, ulardan soʻzlar oʻzaro qanday birlashayotganligini aytib berishni talab qilish, bogʻlanish vositalariga qarab guruhlarga ajratish, hosil boʻlgan guruhlarni mustaqil davom ettirish, ular ishtirokida gaplar hosil qilishni talab qilish foydalidir.

Soʻz birikmasining soʻzdan farqini aniqlashda kuzatish, qiyoslash, mushohada qilish singari usullardan foydalaniladi. Masalan, *onamning akalari–amakim*, *urgʻochi ot–baytal*, *kimyoviy tajribaxona–laboratoriya*, *hisoblash mashinasi–kompyuter* singari soʻz birikmasi va soʻzlar oʻzaro qiyoslangach, oʻqituvchi ularning oʻzlariga bu haqda mustaqil xulosa chiqarishni topshiradi. Shundan soʻng berilgan soʻz birikmalarini soʻzlar bilan almashtirish, ularni oʻzaro qiyoslab, maʼno farqini aniqlash, berilgan soʻzlarga ularning maʼnoviy qiymatdoshlarini topib qoʻyish singari ijodiy-amaliy ishlar bajariladi.

«Soʻz birikmasi va ibora», «Soʻz birikmasi va tasviriy ifoda» mavzularini oʻrganishda ham bu har ikki til hodisasining maʼnoviy farqini aniqlashda qiyoslash usuli qoʻl keladi. Mazkur mavzularni oʻrganishda oʻquvchilarga gap juftlarini berib, ajratilgan soʻz birikmalarining maʼnolarini qiyoslash (*Yigit oqimga qarshi suzib*, *ariqning boshiga yetdi – Qoʻrsligi*, *bemaʼni katta gaplari axir uning boshiga yetdi*), ibora va soʻz birikmasi orasidagi oʻxshashlik va farqlarni aniqlash, berilgan birikmalarning har birini erkin birikma va ibora sifatida qoʻllab, gaplar tuzish singari

ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalaniladi. Bu amaliy ishlar turg'un birikmalarda ma'noning yaxlit, ajralmas ekanligi, ularda tobe hamda hokim so'zlarni bemalol almashtirish mumkin emasligini anglash imkonini beradi.

Tasviriy ifodalarning so'z birikmalarga shaklan o'xshashligi ko'p hollarda ularni farqlashga mone'lik qiladi. Shuning uchun bu mavzuni o'rganishda so'zlarni tasviriy ifodalar bilan almashtirish (masalan, *televizor – oynai jahon, paxta – oq oltin, rassom – mo'yqalam sohibi, neft – qora oltin, samolyot – po'lat qush* va h.k.), berilgan matnda ajratilgan har bir so'zni uning qiymatdoshi bilan almashtirish singari ijodiy - amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin.

So'z birikmasining qo'shma so'zlardan farqi ham o'quvchilar uchun ancha murakkablik tug'dirayotgan masalalardan biridir. Bu mavzuni o'rganishda berilgan gap juftlari yoki qo'shma so'z va so'z birikmalari qatorini o'zaro qiyoslab, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, ular ishtirokida gaplar tuzish, berilgan qo'shma so'z va so'z birikmalari qatorini mustaqil davom ettirish, qo'shma so'z qanday hosil bo'lganligini aniqlash singari amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Darsning oxirida o'quvchilar so'z birikmasi qo'shma so'zga aylanganda so'z birikmasi tarkibidagi aloqa-munosabat shakli qo'shimchalari yo tamoman tushib qolishi (masalan, *boshog'riq – bosh og'rig'i, suvo't – suv o'ti, bo'rikalla – bo'ri kallasi* va h.k.) yoki o'z ma'no va vazifasini tamoman yo'qotishi (*kungaboqar, iskabtopar, chamandagul, betgachopar* va h.k.) bilib oladilar.

So'z birikmalarini o'rganish so'z birikmalari zanjirini o'rganish bilan yakunlanadi. O'quvchilar berilgan so'z birikmalari juftlarini birlashtirish (mas., o'zbek xalqi va qoraqalpoq xalqi, o'zbek tili va o'zbek adabiyoti va h.k.) va shunga o'xshash bir qator ijodiy-amaliy topshiriqlar bajarilgach, «So'z birikmalari zanjiri qanday hosil bo'ladi?» degan savol o'rtaga tashlanadi. Bu ularni bir so'z birikmasidagi hokim so'zning boshqa bir so'zga tobelanishiga hamda bir hokim so'z bir necha tobe so'z yoki bitta tobe so'z bir necha hokim so'zga aloqador bo'lgan hollarda ularni birlashtirish usullari bilan so'z birikmalari zanjiri hosil bo'ladi, degan xulosaga olib keladi.

Soʻz birikmasi va gapning oʻzaro farqi ham qiyoslash asosida tushuntiriladi. Masalan, *qiziqarli mashgʻulot – Mashgʻulot qiziqarlidir, oydin kecha – Kecha oydir* va h.k. tipidagi soʻz birikmasi va gap qiyoslangach, ularning farqi soʻraladi hamda kesimning qay biriga xosligi aniqlanadi. Shundan soʻng berilgan soʻz juftlaridan soʻz birikmalari tuzib, ular ishtirokida gaplar tuzish, soʻz birikmalaridan gaplar, gaplardan soʻz birikmalari hosil qilish singari ijodiy-amaliy ishlar bajariladi. Dars oxirida oʻquvchilar soʻz birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatga muayyanlashtirgan holda atab kelishi, gap esa kesim markazida tashkil topib, fikrni, hukmni, tasdiq yoki inkorni ifodalab kelishini, uning markazi kesim ekanligini, gaplarning kesimlik qoʻshimchalari bilan shakllanganligini bilib oladilar.

Shunday qilib, maktabda soʻz birikmasini oʻrganish sodda gap sintaksisini oʻrganish uchun moddiy zamin hozirlaydi.

«Sintaksis»ni oʻrganishda soʻz birikmalari ustida ishlash katta oʻrin egallaydi. Oʻquvchilarni soʻz birikmalari bilan tanishtirish 8-sinfda nazarda tutilgan boʻlsa-da, ammo bu masala bilan ular ancha oldin – boshlangʻich sinfdan va keyinchalik ona tilining izchil kursida fonetika, leksikologiya hamda morfologiyani oʻrganishda **tanishganlar**. Bu oʻrganilgan materiallar soʻz birikmalarini oʻrganishda taʼlimiy oʻyinlardan unumli foydalanish imkonini beradi. Mazkur mavzuni oʻrganishda tashkil etiladigan oʻyinlar soʻz birikmasining soʻzlar qoʻshilmasidan farqini aniqlash, berilgan soʻzlardan soʻz birikmalari hosil qilish (masalan, *inson, qoʻl, mashina, boshqar – insonning qoʻli, mashinani boshqarmoq*), soʻzlarga soʻroq berib, javob asosida ularni kengaytirish (masalan, *qayerga bormoq? – adirga bormoq, nima qilmoq? – lola termoq, kimlar bilan bormoq – sinfdoshlar bilan bormoq* va h.k.) soʻz birikmasidagi hokim va tobe soʻzni bir-biridan ajratish, tobe soʻzning hokim soʻzga bogʻlanish vositalarini aniqlash, soʻz birikmalarini kelishikli birikmalar, koʻmakchili birikmalar, qoʻshimchasiz birikmalarga ajratish, turli tipdagi soʻz birikmalarining maʼnolari ustida ishlash kabilarga qaratilgan boʻlishi lozim.

«So‘zni so‘zga qo‘shamiz, so‘zni so‘zga biriktiramiz» o‘yini. Bu o‘yinda sinf o‘quvchilari ikki guruhga ajratiladi va birinchi guruhga turli bog‘lovchilar yordamida so‘zlarni bog‘lash, ikkinchi guruhga so‘zni so‘zga biriktirish topshiriladi.

1-guruh: qalam va daftar, dala hamda qir, oy yoki yulduz, toy yoxud tulpor va h.k.

2-guruh: qalamda yozdim, dalani kezdim, oyga chiqdim, to‘lin oy, toychaning ovozi va h.k.

«Ma‘nodosh birikmalar guldastasi» o‘yini. Bu o‘yinda bellashayotgan guruhlarining birinchisi bir so‘z birikmasini aytadi, ikkinchisi esa shunga ma‘nodosh so‘z birikmasi topadi. Ma‘nodoshlarni to‘g‘ri topgan guruh rag‘batlantiriladi.

Namuna: *ishlagani keldi, ishlash uchun kelgan, o‘qish uchun ketgan, o‘qish maqsadida ketgan, qo‘lda bajarmoq, qo‘l bilan bajarmoq, hovlida yugurmoq, hovli bo‘ylab yugurmoq, ko‘prikdan o‘tmoq, ko‘prik bo‘ylab o‘tmoq, osmon bo‘ylab yoyildi, osmon uzra yoyildi.* Keyingi bosqichda guruhlar o‘rin almashtirishadi.

So‘z birikmalari o‘tib bo‘lingandan keyin, shu mavzu yuzasidan egallangan bilimlarni ham takrorlash, ham mustahkamlash maqsadida «**Topqirlar bellashuvi**»ni o‘tkazish eng samarali ijodiy - amaliy ishlardan biri sanaladi. Bu o‘yinni o‘tkazish uchun o‘qituvchi shu mavzu yuzasidan muayyan savol-topshiriqlar tuzib keladi. Savol-topshiriqlarni tuzish uy topshirig‘i sifatida o‘quvchilarga ham topshirilishi mumkin.

Musobaqalashayotgan guruhlar biri-birlarining bilimlarini sinash va topqirliklarini aniqlash maqsadida 5–6 tadan savol va topshiriq tuzib keladi. Hakamlikni o‘qituvchining o‘zi olib boradi va o‘yin natijalarini yakunlaydi.

Sodda gap sintaksisini o‘qitish. O‘quvchilar 5-sinfdan kesim gap markazi ekanligini biladilar. Shuning uchun sodda gap haqida umumiy ma‘lumot berilgach, gap juftlarining markazini aniqlash, ularni sodda va qo‘shma gaplarga ajratib ko‘chirish, sodda va qo‘shma gaplarni tahlil qilib, ular orasidagi asosiy farqni aniqlash, ayni bir fikr (axborot)ni bir necha sodda gaplar va bitta qo‘shma gap shaklida ifodalash (*Men sinfga kirdim. Deraza oldida turgan Baxtiyorni ko‘rdim. U bilan salomlashdim – Men sinfga kirib, deraza oldida turgan Baxtiyorni, Mehrinozni*

ko'rgach, u bilan salomlashdim) singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish bilan yakunlanadi.

O'quvchilar sodda gap tarkibidagi kesimlik shakliga ega bo'lgan bitta kesimning bitta gap markazi ekanligini, qo'shma gap tarkibida esa bunday markaz ikki va undan ortiq bo'lishini bilib oladilar.

Kesim gap markazi bo'lganligi sababli, egadan oldin «Kesim va uning ifodalanishi» mavzusi o'rganiladi. Bu mavzuni o'rganishda avvalo o'quvchilar e'tibori kesimning mavqeiga qaratiladi.

Ma'lumki, gapning boshqa bo'laklari ishtirok etsa-yu, kesim ishtirok etmasa, gap tugal fikrni ifodalamaydi. Masalan, «Dam olish kuni biz sayohatga» gapida kesim ifodalanmaganligi uchun tugal fikr yo'q. Shuning uchun o'quvchilarga shunday gaplarni berib, ularni gap markazi – kesim bilan to'ldirish va kesimning gapdagi mavqei, fikrni ifodalashdagi ahamiyati xususida hukm chiqarish topshiriladi.

Kesimning ifodalanishi oldingi sinflardan o'quvchilarga tanish. Shuning uchun ularga gaplar yoki matn berib, gapning markazi – kesimi qaysi so'z turkumi orqali ifodalalayotganligini aniqlash topshiriladi. Shu jarayonda fe'l-kesim va ot-kesim haqidagi ma'lumotlar o'quvchilar xotirasida tiklanadi hamda sodda kesim va murakkab kesim haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar bir qator ijodiy amaliy topshiriqlarni bajarishgach, bir so'zdan iborat kesimlar sodda kesimlar, ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan kesimlar esa murakkab kesimlar ekanligini bilib olishadi.

«Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari» mavzusini o'rganishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini tashkil etish uchun uch maylning turli zamon shakllarini qo'llab, gap tuzish, hosil bo'lgan gaplardan qaysi birlarida tugallanayotgan fikr ifodalalayotganligini aniqlash, mayl shaklining qaysi birida kesim mustaqil qo'llanila olmasligini topish, shart mayli shakllaridan biri bilan ifodalangan gaplarni alohida-alohida ishlatiladigan ikki sodda gapga aylantirish singari amaliy topshiriqlardan foydalaniladi. Darsning oxirida o'quvchilar shart mayli shakllari nomustaqil kesim shaklini yasashga xizmat qilishini bilib oladilar.

«Ega» mavzusini o'rganishda gap kesimining shaxs-son qo'shimchalariga qarab uning egasini tiklash, eganing qaysi so'z turkumi bilan ifodalanayotganligini aniqlash singari amaliy ishlar bajariladi hamda qaysi hollarda ega va kesim orasida tire qo'yilishi tushuntiriladi.

O'quvchilar uchun ancha murakkablik tug'diradigan masalalardan biri egali gaplarni egasiz gaplardan ajratishdir. Gapning bu ikki turi orasidagi farqni aniqlash maqsadida berilgan gaplarni aniqlash (Biz g'alabaga erishdik – G'alabaga erishildi) qiyoslash, egani aniqlash, nuqtalar o'rniga yashiringan egani topib qo'yish, berilgan gaplarni:

- 1) ifodalangan egali gaplar;
- 2) yashiringan egali gaplar;
- 3) egasiz gaplar singari guruhlarga ajratish topshiriladi.

Shundan so'ng ifodalangan egali gaplar, yashiringan egali gaplar va egasiz gaplar alohida-alohida mavzu sifatida o'rganiladi. Bu mavzularni o'rganishda ham kuzatish, qiyoslash; farqlarni topish, guruhlash, hukm chiqarish va amaliy faoliyatda qo'llash singari aqliy faoliyat usullaridan foydalaniladi.

Tilimizda «Borish lozim», «Bajarish kerak», «Ko'rish shart» singari bir qator imkoniyat-zaruriyat gaplari borki, ular fe'l kesimli bo'ladi va biror ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi ular tarkibida egalik qo'shimchasining bo'lmasligidir. O'quvchilarning bunday gaplar ustida olib boradigan amaliy ishlari ularni bo'lishli-bo'lishsiz shakllarda qo'llash, ifodalangan egali gaplarni yashiringan egali va egasiz gaplarga aylantirish singarilardan iborat.

«So'z-gaplar» mavzusini o'rganishda *albatta, shak-shubhasiz, ha, yo'q, balki, ma'qul, mayli, marhamat* singari so'zlarni suhbat matnlarida qo'llash, ularning ma'nosi ustida ishlash kabi amaliy ishlardan foydalanish ma'qul.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari 5-sinfda ham o'rganilgan. 7-sinfda hol, to'ldiruvchi va aniqlovchi ustida alohida-alohida ish olib boriladi.

Hol yuzasidan ijodiy-amaliy ishlar ularni sodda va murakkablarga ajratish; hollarning so'z, so'z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi; holning

ma'noviy turlari jadvali ustida ishlash; vositali to'ldiruvchi va holning shaklan farqlanmaslik holatlariga bag'ishlanadi.

«To'ldiruvchi» mavzusini o'rganishda asosiy e'tibor vositasiz to'ldiruvchi, uning so'z, so'z birikmasi va kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi; o'zga gapni (ko'chirma gapni) kengaygan birikmalar bilan ifodalash; vositali to'ldiruvchi, ularda kelishik shakllari va ko'makchilar ma'nodoshligi, ot bilan ifodalangan bo'lakning to'ldiruvchilar bilan birikishi masalalariga qaratiladi.

Aniqlovchi so'z kengaytiruvchisi bo'lganligi uchun ham hol va to'ldiruvchidan keyin o'rganiladi. Mazkur mavzuni o'rganishda ijodiy-amaliy topshiriqlar orqali qaratqichli aniqlovchi va sifatlovchi aniqlovchilar haqida tushuncha hosil qilinadi; ularning so'z, so'z birikmalari bilan ifodalanishi yuzasidan ma'lumotlar beriladi.

Aniqlovchi bilan bir qatorda izohlovchi haqida ham ma'lumot beriladi. Berilgan izohlovchilarni sodda va murakkab izohlovchilarga ajratish, ularni shaxs nomlari va shaxs otlari, shuningdek, vaqt (yil, oy, kun) otlari bilan birga qo'llash yuzasidan ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

8-sinfda, dastur talabiga ko'ra, o'quvchilarni «Yoyiq atov so'z va gaplar», «Gapda uyushiq bo'laklar, ularda ohang va tinish belgilari», «Gapda ajratilgan izoh bo'laklar», «Gapda undalma» va «To'liqsiz gaplar» singari mavzular bilan tanishtirish ko'zda tutilgan.

Mazkur mavzularni o'tishda yoyiq atov gaplar va yoyiq so'z-gaplar ustida ishlash, ixcham atov gaplarni yoyiq atov gaplarga aylantirish; uyushiq bo'lak haqida umumiy tushuncha hosil qilish, uyushiq bo'laklar va so'z qo'shilmalari, uyushiq bo'lakli gaplarda ohang va ularning teng bog'lovchilar bilan bog'lanishi, uyushgan egali, holli, to'ldiruvchili va aniqlovchili gaplar tuzish, kesimning uyushishidagi xususiyatlar, uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi qism, kiritmalarning gap mazmuniga va gap bo'laklariga aloqasi, kiritmalarning so'z, so'z birikmasi, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanishi, kiritmali gaplarda tinish belgilari va ohang; undalma, uning sodda va murakkab turlari, undalmalarning so'z, so'z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi, undalma va egani farqlash, to'liqsiz gaplardan nutqiy faoliyatda foydalanish singari bir qator amaliy topshiriqlar

orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, izlanishi, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda ifodalanishi namoyon bo'ladi.

Sodda gap sintaksisi mavzularini o'tish jarayonida o'quvchi-larning nutqiy faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi o'yin-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

«**Gapning onasi – kesim, Ayting bu qanday tilsim!**» o'yini. Bu o'yinda sinf o'quvchilari 3 guruhga ajratilib, 1-guruhdan faqat kesimdan iborat bo'lgan gaplar (ixcham gaplar tuzish, 2-guruhdan shu ixcham gaplarni sodda yig'iq gaplarga aylantirish (egasini tiklash) va 3-guruhdan ikkinchi darajali bo'laklardan foydalanib, shu gaplarni kengaytirish talab etiladi. Masalan:

1-guruh: Uchdilar.

2-guruh: Qushlar uchdilar.

3-guruh: Qushlar osmonni to'ldirib uchdilar.

«**Savolimga javob top**» o'yini. Bu o'yin shartiga muvofiq sinfdagi ma'lum bir guruh faqat so'roqlardan iborat gaplar tuzadi, 2-guruh esa shu so'roqlar o'rniga so'zlar topib qo'yadi. Masalan, 1-guruh: *Qachon kim qanday oilada tug'ilgan?*, 2-guruh: *Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida saroy amaldori oilasida tug'ilgan.*

O'yinda o'rni bilan savol berish va javob qaytarish navbati almashtiriladi.

«**Topag'on**» o'yini. Bu o'yinni partada o'tirgan ikki o'quvchi yoki guruhlar o'rtasida tashkil etish mumkin. Ma'lum bir o'quvchi yoki guruh muayyan so'zni aytadi, ikkinchi o'quvchi yoki guruh shu so'z yordamida undalmali gaplar hosil qiladi.

Namuna:

1-o'quvchi (guruh): Quyosh.

2-o'quvchi (guruh): Quyosh, nuring to'kaver mo'l-mo'l (O.)

1-o'quvchi (guruh): Bahor.

2-o'quvchi (guruh): Bahor, ketma bizning bog'lardan (O.)

Bir necha gaplar aytilgach, o'rinlar almashtiriladi.

«**Undalmali so'zni ma'nodoshi bilan almashtirish**» o'yini. Bu topshiriq shartiga ko'ra o'qituvchi sinf o'quvchilariga berilgan gapdagi undalmani uning

ma'nodoshi bilan almashtirishni topshiradi. O'zaro bellashayotgan guruhlardan qaysi biri undalmaning ko'p ma'nodoshini ro'yxat qila olsa, shu guruh g'olib bo'ladi.

Namuna: Oллоhim, Ona yurtimga mustaqillik baxtini in'om etganing uchun qarshingda ta'zimdaman. Xudoyim, Ona yurtimga mustaqillik baxtini in'om etganing uchun qarshingda ta'zimdaman. Tangrim, Ona yurtimga mustaqillik baxtini in'om etganing uchun qarshingda ta'zimdaman. Yaratgan egam, Ona yurtimga mustaqillik baxtini in'om etganing uchun qarshingda ta'zimdaman. Parvardigorim, Ona yurtimga mustaqillik baxtini in'om etganing uchun qarshingda ta'zimdaman.

«**So'zlar qator uyushdi, So'roqlari qovushdi**» o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi berilgan gap tarkibidagi ajratilgan so'zga uyusha oladigan so'zlar guruhini yozishni topshiradi va partadoshlar o'rtasida musobaqa tashkil etadi. O'quvchilar o'zaro bellashib uyushiq bo'lakli gaplar yozadilar.

Namuna: 1. Bog'dan ra'nogul terdik _____

Bog'dan ra'nogul, atirgul, chinnigul, safsargul terdik.

2. O'zbekistonda dorivor o'simliklardan isiriq o'sadi _____

O'zbekistonda dorivor o'simliklardan isiriq, zira, sachratqi, bangidevona, qora zirk o'sadi.

«Bir bosh bo'lakli gaplar» o'rganilar ekan, egasi tushib qolgan, lekin gapning mazmunidan uni tiklash mumkin bo'lgan sodda yoyiq gaplar ustida ish olib borish ancha samarali ish usullardan biri bo'lib sanaladi. Agar o'quvchilarga «*Natriy bilan xlarning birikishidan osh tuzi hosil bo'lishini qanday aniqladingiz?*», «*Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofa 149 500 000 kilometr ga tengligini bilasizmi?*», «*Mirzo Ulug'bek 1018 yulduz harakatini o'rganganligini kitobdan o'qidim*» kabi gaplar berilgan bo'lsa, ular gapning bajaruvchisini aniqlashadi ega va kesimning shaxs-sonda moslashishi borasidagi bilimlarni mustahkamlaydilar.

«**Maqol bilgan dar qolmas**» o'yini. Bu o'yinda sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linib musobaqalashishadi va belgilangan vaqtda va mavzuga mos maqollardan to'g'ri tanlab yozilgan o'quvchi yoki guruh o'yin g'olibi bo'ladi.

Namuna:

1-guruh:

Gapga shoshilma, ishga shoshil!

Sanamay sakkiz dema!

So‘zlamasdan o‘ylab ol!

2-guruh:

Oz so‘zla, ko‘p tingla!

Jasur bo‘lsang, yov qaytar!

Qish g‘amini yozda ye!

«Atov gaplar»ni o‘rganishda ham «**Zukkolar bellashuvi**» tashkil etish mumkin. O‘quvchilarga ma’lum so‘zlar guruhi tavsiya etiladi va 1-guruhdagi zukkolar shu so‘zlarni atov gap tarzida, 2-guruhdagi zukkolar esa shu so‘zni gapning bir bo‘lagi sifatida qo‘llab, gaplar tuzishadi.

Namuna:

1-guruh:

Bahor.

Tong.

Hayot.

Vatan!

2-guruh:

O‘lkamizda bahor kezmoqda.

Bug‘doy o‘rimi tong pallasida qizg‘in boshlandi.

Hali murg‘ak yoshimdan hayot tashvishlarini his qildim.

Har bir inson vatan tuyg‘usi bilangina baxtli yashaydi.

«So‘z-gaplar» mavzusini o‘rganishda o‘quvchilar dialoglar tuzish, so‘z-gaplarni qatnashtirib gaplar tuzishga oid amaliy o‘yin-topshiriqlarni bajarishlari maqsadga muvofiqdir. Bunday bellashuvlarda o‘qituvchi qaysi mavzuda dialogik matn tuzish lozimligini aytadi. O‘quvchilar tomonidan tuziladigan matnlar «savol-javob», «savol-savol», «xabar-xabar» qolipida bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi tuziladigan matnning dialogik tarzda bo‘lishi lozimligini ham qayd qiladi. Masalan, «Kutubxonada» mavzusida savol-javob qolipidagi quyidagicha matn tuzilishi mumkin.

Namuna:

– Assalomu alaykum, Nazira opa.

– Vaalaykum assalom, Tohirjon, keling.

– Menga «Imlo lug‘ati» kerak edi. Qanday topsam bo‘ladi?

– Bu kitob bizning fondimizda bor. Hozir topib beraman. Mana, marhamat «Imlo lug‘ati» kitobini oling.

- Rahmat, sog‘ bo‘ling.
- Xayr, yana kelib turing.

Birinchi bellashayotgan guruh, asosan kutubxona mudirasi (mudiri) vazifasini bajarsa, 2-guruh kitobxon o‘quvchi sifatida ishtirok etadi.

Qo‘shma gap sintaksisini o‘qitish metodikasi. 9-sinfda ona tilini o‘rganishga 68 soat vaqt ajratilgan bo‘lib, shundan 5 soati kirish va takrorlash, 4 soati qo‘shma gaplar tasnifi, 9 soati bog‘langan qo‘shma gaplar, 22 soati ergashgan qo‘shma gaplar, 6 soati bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar, 9 soati ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar, 11 soati nutq uslublari va ijodiy ishlarga, 2 soati esa takrorlash mashg‘ulotlarini o‘tkazishga ajratilgan. O‘qituvchi sharoitga qarab katta mavzularga ajratilgan soatlarni kamaytirishi yoki ko‘paytirishi mumkin.

Kirish va takrorlash soatlari dunyo tillari orasida o‘zbek tilining o‘rni, tillar oilalari, turkiy tillarning asosiy guruhlari, o‘zbek tilining bu oiladagi o‘rni, sodda gap yuzasidan 8-sinfda egallangan bilimlarni takrorlash hamda qo‘shma gap sintaksisini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Qo‘shma gap sintaksisini o‘rganish «Qo‘shma gaplar» mavzusini o‘rganish bilan boshlanadi. O‘quvchilar berilgan gap juftlarini sodda gaplar va qo‘shma gaplar kabi guruhlarga ajratish, qo‘shma gapning asosiy belgisini aniqlash orqali (gap tarkibida ikki va undan ortiq shakllangan kesimning mavjudligi) 5-sinfda o‘rganilgan bilimlarni xotirada tiklaydilar.

Shundan so‘ng qo‘shma gapning bog‘lovchi vositalar asosida tasnifi beriladi. Ular berilgan matnni tahlil qilish, undagi gaplarni sodda gaplar va qo‘shma gaplarga ajratish orqali qo‘shma gaplarni ikki sodda gapli qo‘shma gaplar va ikkitadan ortiq sodda gapdan tuzilgan qo‘shma gaplarga ajratadilar. Matnni tahlil qilish natijasida «Agar qo‘shma gap ikki sodda gapdan iborat bo‘lsa, oddiy qo‘shma gap, uch va undan ortiq sodda gaplardan iborat bo‘lsa, murakkab qo‘shma gap sanaladi», degan xulosaga keladilar.

Darsning keyingi bosqichlarida o‘sha berilgan matn yana qayta o‘qilib, undagi gaplarni teng bog‘lovchili qo‘shma gaplar va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarga ajratish topshiriladi. Bu bilan o‘quvchilar 7-sinfda teng bog‘lovchilar va

ergashtiruvchi bog'lovchilar xususida olgan bilimlarini xotiralarida tiklaydilar va bog'lovchilardan qaysilari qanday ma'no ifodalab kelayotganligini aniqlaydilar.

«Qo'shma gaplar» mavzusini o'rganishda o'quvchilarga qo'shma gap tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatning ifodalanishiga ko'ra: birin-ketinlik, sabab, o'rin yoki payt, vaziyat, izohlash yoki qiyoslash; qo'shma gap qismlari orasidagi funksional munosabatlariga ko'ra: tenglik(biriktiruv, zidlov, ayiruv), tobelik(ega-kesim, aniqlovchi-aniqlanmish, to'ldiruvchi-to'ldirilmish, hol-hollanmish); qo'shma gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra: darak, so'roq, buyruq gaplar, qo'shma gap turlarining ma'nodoshligi kabi mavzular ham tavsifiya etiladi.

Mazkur mavzu qo'shma gaplarni ularning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalariga ko'ra necha turga ajratish mumkinligi haqida umumlashma hosil qildirish bilan yakunlanadi. O'quvchilar mustaqil ijodiy mushohada yuritish natijasida qo'shma gaplarni ularning bog'lanish vositalariga ko'ra quyidagi besh turga ajratadilar:

1. Teng bog'lovchi bilan bog'langan qo'shma gaplar.
2. Tobe bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplar.
3. Yuklamalar bilan bog'langan qo'shma gaplar.
4. Nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gaplar.

5. Ohang bilan bog'langan qo'shma gaplar. Berilgan yangicha tasnif «*Men borganda...*», «*U kelgandan keyin...*», tipidagi gaplarni qo'shma gaplar tarkibidan chiqarish va ularni kengaytirilgan birikmalar sifatida talqin etish imkoniyatini yaratadi.

Qo'shma gaplarning umumiy tasnifi berilgandan keyin ularning har birini alohida-alohida o'rganishga kirishiladi.

O'qituvchi «Teng bog'lovchili qo'shma gaplar» mavzusini o'tishda o'quvchilar e'tiborini yana matn tahliliga qaratadi. Matn o'qilgach, uning mazmuni asosida savol-javob o'tkaziladi; matndagi gaplar: a) biriktiruv bog'lovchili qo'shma gaplar; b) ayiruv bog'lovchili qo'shma gaplar; v) zidlov bog'lovchili qo'shma gaplarga ajratiladi; nuqtalar o'rniga teng bog'lovchilardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish topshiriladi; gaplarni galma-gal; goh, goh; dam, dam; hali, hali; ba'zan,

ba'zan; bir zamon, bir zamon kabi bog'lovchilar bilan biriktirib, ma'noda qanday o'zgarish sezilganligini aniqlash; berilgan gaplarda nuqtalar o'rniga zidlov bog'lovchilarini qo'yib, gaplarni ko'chirish, murakkab qo'shma gaplardan 2–3 ta sodda gaplar, sodda gap juftlari yoki uchliklarini biriktirib, teng bog'lovchili qo'shma gaplar hosil qilish singari ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

« Tobe bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplar» mavzusi o'rganilar ekan, o'quvchilar e'tibori berilgan so'z birikmalarida hokim so'z va tobe so'zni aniqlash; so'z birikmalarini holli birikmalar, to'ldiruvchili birikmalar va aniqlovchili birikmalarga ajratish; berilgan qo'shma gaplarni kengaytirilgan birikmali sodda gapga aylantirish, matn tahlili asosida qo'llanilgan bog'lovchilarni:

1) sabab bog'lovchilari; 2) maqsad bog'lovchilari;

3) shart bog'lovchilari; 4) natija bog'lovchilari;

5) o'xshatish-chog'ishtirish bog'lovchilari kabi turlarga ajratish; gaplardagi *shuning uchun* bog'lovchisini *chunki* bog'lovchisi bilan (va aksincha) almashtirish, ikkita sodda gap juftini *shuning uchun*, *natijada*, *oqibatda*, *shu sababli*, *shu bois*, *-ki*, *chunki*, *zeroki*, *esa*, *deb*, *go'yo* bog'lovchilari bilan bog'lab qo'shma gaplar hosil qilish, ularning ma'noviy farqini, qaysi qismga kiritilayotganligini aniqlash singarilarga qaratiladi. Shundan so'ng *-ki* bog'lovchili qo'shma gaplar, *agar* bog'lovchili qo'shma gaplar, *chunki* bog'lovchili qo'shma gaplar, *shuning uchun* bog'lovchili qo'shma gaplar ustida alohida-alohida ish olib boriladi. Bu mavzularni o'rganishda shu vositalar bilan bog'langan qo'shma gaplarning o'qilish ohangi va imlosi ustida ish olib borish ham o'qituvchining diqqat markazida turmog'i lozim.

Teng va tobe bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda vergulning ishlatilishi o'zlashtirilishi murakkab masalalardan biri bo'lganligi uchun ham bunday gaplar ustida muttasil ish olib borishga to'g'ri keladi. Mazkur mavzuni o'rganishda verguli tushirib qoldirilgan gaplarning vergulini qo'yish, berilgan gap qoliplari asosida gaplar hosil qilish, tobe bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda vergulning ishlatilish sabablarini aniqlashni topshirish singari topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro bog'lanish vositasiga ko'ra yana bir turi yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplardir. Bu turdagi qo'shma gaplarni o'rganishdan oldin yuklamalar xususida 7-sinfda o'rganilgan bilimlar o'quvchilar xotirasida jonlantiriladi. Bu yuklamalarni qo'shimchasimon va so'zsimon yuklamalarga ajratadilar; ular vositasida berilgan sodda gap juftlarini birlashtirib, qo'shma gaplar hosil qiladilar; yuklamalar qanday vazifa bajarayotgani xususida xulosa chiqaradilar.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni turli yuklamalar vositasida o'zaro bog'lash, bu yuklamalarning ma'no nozikligini aniqlash, nuqtalar o'rniga zarur yuklamani topib qo'yish, boshlanish qismi berilgan gaplarni yuklamalar vositasida bog'lab, mazmunan ularni davom ettirish, berilgan yuklamali qoliplar asosida qo'shma gaplar hosil qilish singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning fikrlashiga, berilayotgan bilimlarni puxta egallashiga ko'maklashadi.

Yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan egallangan malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida berilgan qoliplar asosida qo'shma gaplar hosil qilish, tushirib qoldirilgan tinish belgini o'rniga qo'yib, gaplarni ko'chirish singari amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Shubhasiz, yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi bunday gaplarning o'qilish ohangi ustida ishlashdan ajratilmasligi lozim.

Qo'shma gaplarning yana bir turi nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gaplardir. Bunday gaplarning qo'shma gaplar qatoriga kiritilishi nisbiy so'zlarda shaxs, son, zamon ko'rsatkichlarining mavjudligi sanaladi.

«Nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gaplar» mavzusini o'rganishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

- nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalarni aniqlash;
- bunday qo'shma gaplarda tinish belgilarini to'g'ri qo'llashga o'rgatish;

- nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplarning boshqa vositalar yordamida bogʻlangan qoʻshma gaplardan farqini aniqlash;
- nisbiy soʻzli qoʻshma gaplarni oʻqishda ohangga rioya qilish;
- berilgan sodda gap juftlaridan nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma soʻzlar hosil qilish;
- nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplarning maʼnoviy munosabatini aniqlay olish;
- nisbiy soʻzli qoʻshma gaplarni ularning maʼnodoshi bilan almashtira olish.

Bu zaruriy bilim, malaka va koʻnikmalarni shakllantirish oʻquvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil aqliy faoliyat koʻrsatishini taʼminlaydi.

Berilgan qoliqlar asosida nisbiy soʻzli qoʻshma gaplar hosil qilish ham eng samarali ish usullaridan biridir. Bu qoliqlar sirasiga: 1. «*Kim (-ki), oʻsha*»; 2. «*Qancha, shuncha (oʻshancha)*»; 3. «*Har kim, u (oʻsha)*»; 4. «*Qanday, shunday*», 5.» *Qay biri, oʻshasi*»; 6. «*Qayer, shu (oʻsha) yer*»; 7. «*Nima, shu*» kabilarni kiritish mumkin.

Ohang (yozuvda tinish belgi) vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar haqida maʼlumot berilar ekan, gapda uyushiq boʻlaklarning ohang vositasida bogʻlanishi sodda gap juftlarining ohang vositasida bogʻlanishi bilan qiyoslanadi. Oʻquvchilar uyushiq boʻlaklar va sodda gap juftlari orasida vergulning qoʻyilish sabablarini izohlaydilar.

Maʼlumki, yozma nutqda qoʻshma gaplar tarkibidagi sodda gaplar nafaqat vergul, balki ikki nuqta, nuqtali vergul, tire orqali ham bogʻlanishi mumkin. Shuning uchun bir qator ijodiy-amaliy ishlar ana shu malaka va koʻnikmalarni mustahkamlashga qaratilishi lozim.

«Ohang vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar» mavzusini oʻrganishda boshlanish qismi berilgan gaplarni davom ettirish, qoliqlar asosida gaplar hosil qilish singari topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qoʻshma gaplar yuzasidan oʻquvchilarning egallagan bilim, malaka va koʻnikmalarini aniqlash maqsadida test topshiriqlaridan foydalaniladi.

Test topshiriqlaridan namunalari:

1. Berilgan qo'shma gaplarda nuqtali vergul noto'g'ri qo'yilgan gaplarni aniqlang.

A. Quyosh chiqqan; yo'lovchilar gavjum.

B. Men, To'liqin va Gulchehra daraxtlarni oqladik; Bahodir yerni ag'dardi.

V. Havo bulutli; ammo yomg'ir yog'mayapti.

G. Kun issiq; Yo'lchi odimlaydi (O.)

D. Bog'imizda anor, olma, nok kabi turli mevali daraxtlar ko'p; biz ularni parvarish qilamiz.

2. Berilgan qo'shma gaplarning qaysi birida ikki nuqta noto'g'ri qo'llanilgan?

A. Bugun havo ochiq: derazalarni lang ochib qo'ysa ham bo'ladi.

B. Vaqtning ketdi: baxting ketdi (Maqol).

V. Yomg'ir yog'di: hamma tarqaldi.

G. Dengiz sokin: atrof yaqqol ko'rinar edi (H.G').

D. Tong otdi: biz yo'lga otlandik.

O'qituvchi qo'shma gap turlarini o'rgatish jarayonida ham, undan keyin ham gap sinonimiyasi ustida ishlashni unutmazligi lozim. Shu bois, qo'shma gaplarning barcha turlari o'rganilgandan so'ng «Qo'shma gaplarda ma'nodoshlik» mavzusini o'rganish ma'qul. O'quvchilar bu dars mashg'ulotida dastlab mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan, ammo bog'lanish vositalari jihatidan bir-biridan farq qiladigan qo'shma gaplarni o'zaro qiyoslab, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari ustida ishlaydilar, hamda «Bahor keldi, borliq yashnab ketdi»,– «Bahor keldi va borliq yashnab ketdi»,– «Bahor keldi, shuning uchun borliq yashnab ketdi» tipidagi gaplarning o'zaro ma'nodosh ekanligini isbotlaydilar.

Darsning keyingi bosqichlarida o'quvchilar berilgan sodda gap juftlarini o'zaro bog'lovchilar va ohang vositasida bog'lab, ma'nodosh qo'shma gaplar hosil qiladilar; bog'lovchilar va yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarga (va aksincha) aylantirish singari ijodiy- amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

«Qo'shma gap» bo'limini o'rganishda matnni tahrir qilish, boshlanish qismi berilgan matnni mazmunan davom ettirish, matn yaratish kabilarga alohida e'tibor qaratiladi.

9-sinfning oxirida o'quvchilarga murakkab sintaktik butunliklar xususida ham ma'lumot beriladi. O'quvchilar gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (darak, so'roq, buyruq gaplar) ritorik so'roq gaplar, ularda tinish belgilari va ohang, ko'chirma gapli qurilmalar bilan tanishtiriladi.

Shunday qilib, «Sintaksis» bo'limini yuqorida belgilangan tartib asosida o'rgatish «O'zbek maktablarida ona tili o'qitish konsepsiyasi»da belgilangan maqsad-ta'lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga va rivojlantirishga muvofiq keladi.

Savol va topshiriqlar

1. «Sintaksis» bo'limining boshqa bo'limlar bilan aloqadorligini qanday sharhlaysiz?
2. Maktabda «Sintaksis» bo'limini o'qitishning maqsadini asoslab bering.
3. «Sintaksis» bo'limi oldiga qanday vazifalar qo'yiladi?
4. Maktabda so'z birikmasini o'rgatish jarayonida qanday ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalaniladi?
5. So'z birikmasini o'rgatish imkoniyatlari qaysilar?
6. Sodda gap sintaksisini o'qitish metodikasi haqida fikringizni bildiring.
7. Qo'shma gap sintaksisini o'qitish jarayonida o'quvchilarga qo'shma gapning qaysi jihatlari o'rgatilsa, ular ushbu mavzuni tez o'zlashtirib oladi?

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 1-maxsus son. Toshkent, «Sharq», 1999, 127–136-b.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5–9-sinflar). Toshkent, 2010, 10–41-b.

3. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar(5–9-sinflar).(Tuzuvchilar: M. Abduraimova, G. Ziyodullayeva), Toshkent, «Sharq», 2010.
4. Mahmudov N, Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). Toshkent, «O'qituvchi», 1996.
5. Nurmonov A., Mahmudov N. v.b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, «Fan», 1992.
6. Rasulov R. O'zbek tilida yordamchi so'zlarning semantik-grammatik xususiyatlari. Toshkent, «Fan», 1983.
7. Sayfullayev A. Maktabda sodda gap sintaksisini o'rganish. Toshkent, 1980, 97.
8. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini. Toshkent, «Fan», 1994.
9. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning substansional(zotiy)talqini. Toshkent, «Fan», 2007, 256.
10. Sayfullayeva R., Mengliyev B. v.b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, «Fan va texnologiya», 2010, 403.
11. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. Toshkent, «Cho'lpon», 2019, 144.
12. G'ulomov A, Ne'matov X. Ona tilidan ta'lim mazmuni. Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 128.
13. G'ulomov A, Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 160.

SINTAKTIK TAHLIL

Tayanch tushunchalar:

Grammatik tahlil, sintaktik tahlil, morfologik tahlil, sodda gap bo'yicha sintaktik tahlil, qo'shma gap bo'yicha sintaktik tahlil, tahlilda sodda gap va qo'shma gaplarni farqlash va izohlash, tahlilda qo'shma gapning turlarini aniqlash va izohlash.

Sintaktik tahlil grammatik tahlilning tarkibiy qismidir. Grammatik tahlilning bir qismi–morfologik tahlil o'tkazish usuli yuqorida ko'rsatildi. Har ikkala tahlil usuli bir-biri bilan bog'lanadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, aniqlaydi. Chunki grammatika morfologiya va sintaksisni o'z ichiga oladi. Morfologiya so'zning strukturasi, so'zning nutqda o'zgarish qoidalarini, so'zlarning turkumlanishini o'rgansa, sintaksis so'z birikmasida va gapda so'zlarning birikish yo'llarini, gap tuzilishini, tiplarini, gapning bo'laklarga ajratilishini o'rganadi. Ko'rinadiki, grammatikaning teng huquqli, mustaqil qismlari bo'lgan morfologiya va sintaksis biri ikkinchisi bilan uzviy bog'liqdir.

Sintaktik tahlil so'z birikmasi, gap va gap bo'laklari bo'yicha o'tkaziladi. Tinish belgilarini qo'llash gap qurilishi bilan aloqador bo'lgani uchun sintaktik tahlilda tinish belgilarining vazifalari ham ko'rsatib o'tiladi.

Tahlil uchun ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra turlicha bo'lgan gaplar berilishi mumkin. Gaplarning avvalo tuzilishiga ko'ra sodda yoki qo'shma gaplar ekanligini, ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq gap ekanligini aniqlab olish gaplarni to'liq sintaktik tahlil qilishning to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi. Masalan, berilgan gap qo'shma gap bo'lsa, unda ikki va undan ortiq kesim bo'ladi (uyushgan kesim bunga kirmaydi), ko'pincha ikki ega mavjud bo'ladi, bog'lovchilar va ohang sodda gaplar (sodda gap qismlari)ni bog'lashga xizmat qilgan bo'ladi; agar berilgan gap sodda gap bo'lsa, birgina fikr markazi mavjud bo'ladi, kesim ham birgina bo'ladi (uyushiq kesim bundan mustasno) va hokazo.

Tahlil uchun berilgan gap ifoda maqsadiga ko'ra buyruq yoki so'roq gaplar bo'lsa, shuningdek, she'riy parcha bo'lsa, ularda gap bo'laklarining tartibi o'zgartgan

bo'lishi mumkin, ikkinchi darajali bo'laklar (ayniqsa, to'ldiruvchi va aniqlovchi) belgisiz qo'llangan bo'lishi ham mumkin, tinish belgilarini qo'llashda ham o'ziga xos xususiyatlar bo'ladi.

Shunday qilib, berilgan gapni ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra turini avvalo, aniqlab olish uni so'z birikmasi bo'yicha, gap bo'laklari bo'yicha tahlil qilishni aniqlab beradi, osonlashtiradi. Shuningdek, gaplarning his-hayajonining ishtirokiga ko'ra turini ham aniqlab olish kerak.

Demak, berilgan gap avvalo uch nuqtayi nazardan aniqlab olinadi:

1. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi.
2. Gapning tuzilishiga ko'ra turi.
3. His-hayajonning ishtirokiga ko'ra turi.

Sintaktik tahlil mazmuniga ko'ra 3 xil bo'ladi:

- a) gapda so'zlarning bog'lanishi (so'z birikmalari);
- b) sodda gap qurilishi;
- v) qo'shma gap qurilishi.

1. Gapda so'zlarning bog'lanishiga oid tahlilda:

- a) teng va tobe bog'lanish;
- b) ergash bog'lanishning turlari (moslashuv, boshqaruv, bitishuv);
- v) ergash bog'lanishni hosil qiluvchi vositalar (so'z shakllari,

ko'makchilar, so'z tartibi, ohang) aniqlanadi.

2. Sodda gap qurilishi bo'yicha:

- a) gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi;
- b) gapning tuzilishiga ko'ra turi; yoyiq yoki yig'iq gapligi;
- v) bir bosh bo'lakli yoki ikki bosh bo'lakli gapligi; to'liq va to'liqsiz gap

ekanligi;

g) gap bo'laklari va ularning ifodalanishi aniqlanadi.

Bundan keyin ayrim gap bo'lagi olinib, ma'nosi, ifodalanishi, tuzilishi, xarakteri, qaysi gap bo'lagiga bog'lanayotgani va qanday so'roqqa javob bo'lishi tahlil qilinadi. (Qo'shma gaplarni tahlil qilish usuli haqida keyinroq to'xtalamiz).

Sodda gap bo'yicha sintaktik tahlil

Masalan: *Inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.*

1. Gapda so'zlarning bog'lanishi:

- a) inson baxtli bo'ladi – tobe bog'lanish, moslashuv, ega va kesim mosligi;
- b) ilm va mehnat – teng bog'lanish, bog'lovchi orqali;
- v) ilm bilan baxtli bo'ladi – ergash bog'lanish, boshqaruv, ko'makchi orqali;
- g) mehnat bilan baxtli bo'ladi – ergash bog'lanish, boshqaruv, ko'makchi orqali.

2. Sodda gap qurilishi bo'yicha:

- a) ifoda maqsadiga ko'ra – darak gap;
- b) tuzilishiga ko'ra – sodda gap, sodda yoyiq gap;
- v) bosh bo'laklarning ishtirokiga ko'ra – egali gap;
- g) to'liq yoki to'liqsizligiga ko'ra – to'liq gap;
- d) gap bo'laklari aniqlanadi (dastlab kesim, so'ng ega va ikkinchi darajali bo'laklar aniqlanadi).

Avvalo kesim aniqlanadi, chunki kesimsiz gap bo'lishi mumkin emas, ega qatnashmagan gaplar bo'lishi mumkin. O'zbek tilida kesim ko'pincha (odatda) gapning oxirida joylashgan bo'ladi va *nima qildi? nima qilyapti?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Yuqoridagi gapda kesim *nima bo'ladi?* so'rog'iga javob bo'ladi: *baxtli bo'ladi*. So'ngra kesimga eganing so'roqlari berilib, ega aniqlanadi. Eganing so'roqlari *kim? nima?* Yuqoridagi gapning egasi – inson.

Ikkinchi darajali bo'laklar va ega gapning kesimiga bog'lanadi, ularni to'ldiradi, aniqlaydi, izohlaydi. Shuning uchun ham ular «ikkinchi darajali bo'laklar» deyiladi. Ikkinchi darajali bo'laklarning ba'zilar, odatda, egaga, ba'zilar esa kesimga bog'langan bo'ladi, ba'zan ikkinchi darajali bo'lak boshqa bir ikkinchi darajali bo'lakka bog'lanib keladi.

Yuqoridagi gapda egaga bog'langan ikkinchi darajali bo'laklar yo'q, gapda barcha bo'laklar kesimga bog'langan. Ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash uchun ega va kesimga so'roqlar beriladi. Yuqoridagi gapda egaga bog'langan bo'laklar bo'lmagani uchun faqat kesimga so'roqlar beramiz: *nima bilan baxtli bo'ladi?*

javob: *ilm bilan va mehnat bilan*. Demak, bilan ko‘makchisi ham *ilm*, ham *mehnat* so‘ziga bog‘lanib, shu so‘zlarni keyingi so‘z (*baxtli bo‘ladi*) bilan grammatik munosabatga kiritgan. *Ilm bilan va mehnat bilan* bo‘laklari «harakat o‘tgan obyekt» ma’nosini ifodalagani uchun to‘ldiruvchi vazifasidadir.

Gap bo‘laklari bo‘yicha tahlilda gap bo‘laklarini turli chiziqchalar vositasida ko‘rsatish ham mumkin (gap bo‘laklari grafik jihatdan turli chiziqchalar vositasi bilan ko‘rsatiladi): eganing tagiga bir to‘g‘ri chiziq (_____), kesimning tagiga ikki to‘g‘ri chiziq (_____), to‘ldiruvchining tagiga punktir chiziq (- - - - -), holning tagiga nuqtali punktir chiziq (- -), aniqlovchining tagiga to‘lqinli chiziq (~ ~ ~ ~ ~) chizib ko‘rsatiladi. Bu usul boshqacha usullar (sxemaga solib ko‘rsatish, chizmada chizib ko‘rsatish, tepasiga yozish va boshqalar)ga nisbatan eng qulay usul sanaladi. Lekin chiziqlar gap bo‘laklarining ichki xususiyatlarini ko‘rsata olmaydi. (Masalan, to‘ldiruvchining turlari, aniqlovchining turlari, holning ma’no turlari kabi.) Shuning uchun bu usuldan foydalanganda har bir gap bo‘lagining ichki tasnifini uning tepasiga yozib ko‘rsatish bilan izohni to‘ldirish mumkin. Masalan:

v – li to‘ld. v – li to‘ld.

1. **Inson ilm va mehnat bilan baxtli bo‘ladi.**

v-siz

sif. an. qar.aniq o‘r.holi to‘ld.

2. **G‘ayratli o‘quvchilar maktab bog‘ida meva terdilar.**

Gap bo‘laklari bo‘yicha tahlilni har bir gap bo‘lagini vertikal chiziq bilan ajratib, so‘z vositasida izohlash ham mumkin: Bunda ham gap bo‘laklarining xususiyatlari to‘la aks etadi:

Yertalabki	Kuchli	shamol	maktab	bog'idagi
aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi (sifat bilan ifodalangan)	aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi (sifat bilan ifodalangan)	ega, (ot bilan ifodalangan)	aniqlovchi, qar. aniq (ot bilan ifodalangan)	hol, o'rin holi (ot bilan ifodalangan)

Daraxtlarning	Mevalarini	to'kib yubordi
aniqlovchi, qaratqich aniql. (ot bilan ifodalangan)	to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi (ot bilan ifodal.)	kesim, fe'l kesim, murakkab kesim (fe'l bilan ifodalangan)

Endi quyidagi gapni to'liq sintaktik tahlil qilamiz: *Sobirjon akaning katta o'g'li hunar maktabida o'qiydi.*

1. Gapda so'zlarning bog'lanishi:

- o'g'li o'qiydi–tobe bog'lanish, moslashuv, ega–kesim mosligi;
- Sobirjon akaning o'g'li–tobe bog'lanish, moslashuv, qaratqichli moslashuv;
- katta o'g'li –tobe bog'lanish, bitishuv, ohang orqali;
- hunar maktabida–tobe bog'lanish, moslashuv, qaratqichli moslashuv;
- maktabida o'qiydi–tobe bog'lanish, boshqaruv -da qo'shimchasi orqali.

2. Sodda gap qurilishi bo'yicha:

- darak gap; b) sodda yoyiq gap; v) egali gap; g) to'liq gap; d) gap bo'laklarini aniqlash.

Sobirjon akaning katta o'g'li hunar maktabida o'qiydi.

~~~~~

Sintaktik tahlil o'tkazishda ibora va ajralmas bog'lanmalar (erkin ma'noli turg'un bog'lanishlar) orqali ifodalangan gap bo'laklari haqida jiddiy o'ylab ish tutish lozim. Ibora ham, ajralmas bog'lanmalar ham so'zga teng, bir tushuncha (ma'no) anglatadi, gapda bir gap bo'lagi vazifasida qo'llanadi. Masalan:

1. Nodira o'sha voqeani ko'nglidan o'tkazdi (*Gaz.*).
2. Mulla Norqo'zi oldidan kelsa tishlar, ketidan kelsa tepar edi (*A.Q.*).
3. *Toshkent Davlat texnika universitetining* bir guruh talabalari

~~~~~

Qoraqalpog'iston Respublikasiga jo'nab ketdilar (*Gaz.*).

Agar yuqoridagi tip gaplardagi iboralar va turg'un bog'lanmalarni hisobga olmay, ularning tarkibidagi so'zlarni alohida-alohida gap bo'lagiga ajratib yuborsak, tamoman noto'g'ri qilgan bo'lamiz: bu so'zlarning ko'chma ma'noda va mustaqil qo'llanganini e'tiborga olmagan bo'lamiz. Aslida to'g'ri va ko'chma ma'noli bunday ibora va bog'lanmalar, odatda, birgina so'roqqa javob bo'lib (chunki birgina tushuncha bildiradi), o'zi bog'langan so'zga nisbatan yaxlit holda munosabatga kirishadi.

GAP BO'LAKLARINI ANIQLASH METODI

Ma'lumki, gap bo'laklari bo'yicha tahlil kesimni aniqlashdan boshlanadi. Kesim aniqlangandan so'ng ularga bog'langan bo'laklar—ega va ikkinchi darajali bo'laklar belgilanadi. Masalan: *Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo'lining azobidan ham ortiqroq bo'ldi* gapida kesim—*ortiqroq bo'ldi*, kesimga **kim? nima?** so'roqlarini berib, shu so'roqqa javob bo'luvchi bo'lak aniqlanadi: bu—**chiqish** so'zidir. Demak, *chiqish* bo'lagi ega vazifasidadir, chunki, **kim? nima?** so'roqlari faqat egaga taalluqlidir. Shundan so'ng kesimga savollar berib, kesim tarkibi, egaga savollar berib, ega tarkibi aniqlanadi: *nimadan ham ortiqroq bo'ldi? azobidan ham,* demak, to'ldiruvchi vazifasida, *nimaning azobidan ham ortiqroq bo'ldi? —orqada qolgan yo'lining,* demak, bu bo'lak—aniqlovchi. Bu gapda kesimga bog'lanuvchi bo'lak boshqa yo'q, qolgan ikkinchi darajali bo'laklar egaga bog'langan bo'lib chiqadi.

Bu tepalikka *chiqish* orqada qolgan yo'lining azobidan ham *ortiqroq bo'ldi*.

Nimaga chiqish?—tepalikka, demak, bu bo'lak—to'ldiruvchi, egaga bog'langan; *qaysi tepalikka chiqish?—bu,* demak, u aniqlovchi: **qaysi? qanday? qanaqa? qancha?** kabi so'roqlari aniqlovchiga, aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchiga beriladi.

Shunday qilib, gap bo‘laklarining turi odatda bir-biriga nisbat berib aniqlanadi. Chunonchi, ega kesimga, kesim egaga nisbatan, to‘ldiruvchi to‘ldirmishga, hol hollanmishga, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan tayinlanadi. Nisbat beriluvchi unsur bo‘lmas ekan, u yoki bu bo‘lak haqida gapirish mumkin emas.

Masalan, aniqlanmish bo‘lmas ekan, aniqlovchi haqida, kesim bo‘lmas ekan, ega haqida gapirib bo‘lmaydi. Shu tariqa gap bo‘laklarining turini belgilashda sintaktik aloqaga kirishuvchi qismlarning turi, shakli, bir-biriga nisbati, leksik-semantik xususiyati va ularning sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar asosga olinadi.

To‘g‘ri, gapning bo‘laklariga so‘roqlar berish usuli bilan ularni aniqlash ba‘zi jihatlaridan o‘zini oqlay olmaydi. Masalan, *Biz ketdik bo‘lmasa, xola* (A.Q.) gapida *biz* ham, *xola* ham bir xil so‘roqqa (kim?) javob bo‘ladi, lekin ularning birinchisi (*biz*) gapning bo‘lagi–ega, ikkinchisi esa (*xola*) gapning bo‘lagi hisoblanmaydigan qism–undalmidir. So‘roqlar sintaktik aloqa asosida bog‘langan so‘zlarning biridan ikkinchisiga tomon qo‘yilganda, ular yordamida gapning bo‘laklarini belgilash mumkin bo‘ladi. Bunda undalma va kirish so‘zlar bilan gap bo‘laklarining chegarasi aniqlanadi, lekin gap bo‘laklarining turini belgilashda bu usuldan hamma vaqt ham foydalanib bo‘lmaydi. Masalan, *Sog‘ligimiz–boyligimiz*. (maqol) misolida gapning bo‘laklari mavjudligini so‘roqlar yordamida aniqlash mumkin, biroq ulardan qaysi biri gapning qanday bo‘lagi ekanini so‘roqlar vositasida aniqlab bo‘lmaydi. Chunki bu gapdagi bo‘laklarning har ikkovi bir xil so‘roqqa–*nima?* so‘rog‘iga javob bo‘lsa ham, ularning biri–ega, ikkinchisi–kesimdir.

Gapning bo‘laklari maxsus grammatik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganda, so‘roqlar ularning turini aniqlash uchun yordam berishi mumkin. Masalan, gapdagi biror so‘z (bo‘lak) *kimni? nimani?* so‘roqlaridan biriga javob bo‘lsa, to‘ldiruvchi, vositasiz to‘ldiruvchi, *nima qildi? nima qilasan?* kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘lsa, kesim deb ko‘rsatiladi. Lekin bu gap bo‘laklarining turini aniqlashdagi sof amaliy usuldir. Nazariy jihatdan qaraganda, gapdagi u yoki bu so‘z (bo‘lak) shunday so‘roqlarga javob bo‘lgani uchun to‘ldiruvchi yoki kesim vazifasida kelayotgani yo‘q, balki uning o‘zi to‘ldiruvchi yoki kesim bo‘lganidan shunday so‘roqlarni talab qilayotir.

Shunday qilib, sintaktik aloqa, uning turi gapni bo'laklarga ajratishda asosiy omildir.

Gapning bo'laklari orasidagi aloqa turli vositalar bilan ifodalanadi: so'z shakllari orqali (*sendan so'radi*), yordamchi so'zlar orqali (*mashina bilan terdik*), tartib va ohang orqali (*yam-yashil dalala – Dalalar yam-yashil*).

Gap bo'laklarining turini aniqlashda ko'pincha uning grammatik shakliga e'tibor beramiz. To'g'ri, qaratqich kelishigi shaklidagi so'z aniqlovchi, tushum kelishigi shaklidagi so'z esa to'ldiruvchi bo'ladi. Biroq o'rin-payt, chiqish va jo'nalish kelishiklari shaklidagi so'zlar to'ldiruvchi ham, hol ham bo'lishi mumkin. Bunday vaqtda gap bo'laklarining grammatik shakli ularning turini belgilash uchun asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turini belgilashda sintaktik aloqaga kirishuvchi elementlarning semantik xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim:

Mirzacho'lda buyuk ishlar endi boshlandi. (Hol).

Zulfiyada barcha insoniy xislatlar bor edi. (To'ldir.) Misollardagi bir xil shakldagi (ko'makchi, kelishik formasidagi) gap bo'laklarining vazifasi bir xil emas: biri—to'ldiruvchi, biri–hol. Bundan tashqari, farq o'sha so'zlar (bo'laklar)ning semantik-sintaktik xususiyatlaridan kelib chiqadi va turlicha savollarga javob bo'ladi. Qiyoslab ko'raylik: yuqoridagi birinchi guruh misolning birinchisida *zavq bilan bo'lagi qanday? qay tarzda?* so'roqlariga javob bo'ladi, demak, hol vazifasida, ikkinchi gapdagi *mashina bilan bo'lagi esa nima bilan?* so'rog'iga javob bo'ladi—to'ldiruvchi.

Tahlilda gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmaydigan bo'laklarni izohlash. *Sintaktik aloqa gap bo'laklarining asosiy belgisidir.*

Bu narsa gapning bo'laklari bilan undalma, kirish so'z va kirish gaplar o'rtasidagi farqni aniqlash uchun imkon beradi.

Undalma, kirish so'z va kirish gapdagi boshqa so'zlar–bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Shunga ko'ra, ular, odatda, gapning bo'laklari hisoblanmaydi. Amaliyotda ko'pgina o'qituvchi va o'quvchilar undalma va kirish gaplarni gap bo'lagi sifatida hisoblab, noto'g'ri qiladilar.

Agar undalma, kirish soʻz va kirish gaplar ishtirok etgan gaplar berilgan boʻlsa, sintaktik tahlilda ularga qanday yondashish kerak? Quyida mana shu savolga javob beramiz.

Undalma–soʻzlovchining nutqi qaratilgan, boshqa bir shaxs yoki predmetni ifodalagan soʻz yoki soʻz birikmasidir. Undalma bosh kelishikdagi ot yoki ot maʼnosidagi soʻzlar orqali ifodalanib, gapning umumiy mazmunini toʻldiradi, gapning kimga qarashli ekanini koʻrsatib turadi. Undalmaning mana shu belgilari uni xuddi ega vazifasidagi boʻlak (soʻz)ka oʻxshatib turadi.

Misollar:

1. *Qizim*, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi! (O.Yo.)
2. Hoy, *qizim*, qayoqda qolding? (A.Q.)
3. Men shoshilayotganim yoʻq, bolam (M.I.)
4. *Sobir Umarovich*, sizning joningiz xalq uchun, jamiyat uchun kerak (Yashin).

Gaplardagi undalmalar oʻzi qatnashgan gapning boshqa boʻlaklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan, soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalovchi boʻlaklar, xolos.

Sintaktik tahlilda bunday gaplardagi undalmalarga quyidagicha yondashiladi:

Qizim, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi. *sovchi*–ega; *keladi*–kesim; *bir marta*–hol, miqdor–daraja holi; *bunaqa*–aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, *yigitdan*–toʻldiruvchi, vositali toʻldiruvchi; *qizim*–undalma.

Shundan soʻng undalma gap boshida kelsa, undan soʻng, gap oxirida kelsa, undan oldin va gap oʻrtasida kelsa, har ikki tomonidan vergul bilan ajratilishi koʻrsatiladi.

Soʻzlovchining oʻzi bayon qilgan fikriga munosabatini bildirgan soʻz kirish soʻz deyiladi. Kirish soʻz gapning boshida, ichida yoki oxirida kelishi mumkin. Ular vergul bilan ajratiladi.

Soʻzlovchining oʻzi bayon qilgan fikriga qoʻshimcha mulohazasini bildirgan gap kirish gap deyiladi. Kirish gap asosiy fikrni toʻldirish, izohlash uchun qoʻllaniladi. Kirish gaplar vergul, tire yoki qavs bilan ajratiladi:

1. *Ehtimol*, Roziya Sattorni sira ham uchratmas (P.Q.).

2. Men bu yigitchani (*u Sulaymon akaning o'g'li bo'ladi*) yaxshi taniyman.

Bunday gaplar tahlilida kirish so'z yoki kiritma gap bo'lagi sifatida emas, alohida izohlanadi.

Tahlil uchun uyushiq bo'lakli gaplar ham berilishi mumkin. Bunday gaplarni sintaktik tahlil qilishda bir xil vazifada bo'lgan bo'laklar uyushgan ham, uyushmagan ham bo'lishi mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak. Masalan, bir gapning o'zida ikki va undan ortiq kesim va ikkinchi darajali bo'laklar qatnashgan bo'lishi mumkin:

1. Qo'shning tinch – sen tinch. (Maqol).

2. Qo'shning ham, sen ham tinch.

Bu gaplarning har birida ikkitadan ega qatnashgan. Lekin ular bir xil xarakterda emas: birinchi gapdagi *qo'shning*, *sen* so'zlari qo'shma gapning egasi vazifasida, ikkinchi gapdagi *qo'shning* va *sen* bo'laklari esa sodda gap tarkibidagi uyushiq bo'laklardir.

Birinchi gap–qo'shma gap, u ikki mustaqil (uyushmagan) kesimga ega: *tinch*. Ikkinchi gap–sodda gap, unda kesim bitta, fikr markazi ham yagona.

Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib

~~~~~

***borar edi.*** (P.Q.)

Bu gapda aniqlovchi (sifatlovchi aniqlovchi) uyushgan. Mana shu uyushiq aniqlovchilarning har biri aniqlanishga bog'lanib, sanash ohangi bilan aytiladi: *serchang*, *sershovqin* so'zlari *ko'chalarda* to'ldiruvchisiga bog'langan, sanash ohangi bilan o'qiladi.

Lekin o'zbek tilida sifatlovchi aniqlovchilar uyushmagan holda ham ketma-ket kelishi mumkin. Shuning uchun sifatlovchi aniqlovchi ketma-ket kelgan bo'lsa, ularni uyushgan deb baholashga shoshmaslik kerak.

Masalan:

1. *Maktabimiz to‘rt qavatli yangi* binoga joylashgan.

~~~~~

2. Bugun biz *yangi badiiy* film ko‘rdik.

~~~~~

Bunday aniqlovchilar uyushiq aniqlovchilar kabi teng huquqli emas, biri - ikkinchisiga bog‘liq bo‘ladi va aniqlanmishga bog‘lanadi, sanash ohangi ham bo‘lmaydi. (Eslatma: Yozuvda uyushiq bo‘laklar vergul bilan ajratiladi).

Mazmun ahamiyatini ta’kidlash uchun ajratib aytiladigan gap bo‘lagi ajratilgan ikkinchi darajali bo‘lakdir. Sintaktik tahlilda bunday bo‘laklarning ajratilganligi izohlab berilishi kerak:

1. Hujayraning ichki tuzilishini o‘rganish uchun ancha murakkab asbobdan, mikroskopdan, *foydalaniladi*.

2. A‘lochi o‘quvchilarning, Ahmad va Mahmudning, nomi faxr bilan *tilga olindi*.

3. Yozda, ayniqsa iyul oyida, *havo juda isib ketadi*.

Ajratilgan bo‘laklar yozuvda vergul bilan chegaralanadi. Ajratilgan bo‘laklar o‘zi ta’kidlanayotgan bo‘lakning shakli va vazifasida bo‘ladi, yuqoridagi gapda *yozda* bo‘lagi–*hol*, payt holi ekan, ajratilgan bo‘lak ham (*iyul oyida*) xuddi shunday shakl va vazifadadir.

O‘zbek tilida shunday gaplar borki, ular birgina so‘zdan iborat bo‘lib, turli his-tuyg‘ular, ifodalanayotgan fikrga modal munosabatlar bildiradi. Bunday gaplar tobe yoki hokim bo‘laklarni talab ham etmaydi, ularda biror bo‘lakning «yashiringani» ham sezilmaydi. Ular oldin aytib o‘tilgan fikrga ekspressiv-modal munosabatlarni ifodalaydi. Bular so‘z-gaplardir.

So‘z-gaplarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning alohida ohangga ega bo‘lishi va ma’lum sharoitni talab etishidir.

1. Tasdiq so‘z-gap: Siz kelasizmi? –*Ha!*

2. Inkor so‘z-gap: Siz ham shunday o‘ylaysizmi? –*Yo‘q!*

So‘zlar gap tarkibida bir-birlari bilan sintaktik aloqaga kirishgandagina (nutqda) gapning u yoki bu bo‘lagi vazifasida kela oladi.

## QO‘SHMA GAP BO‘YICHA SINTAKTIK TAHLIL

Tahlil uchun berilgan gap tuzilishiga ko‘ra qo‘shma gap bo‘lsa, uning qo‘shma gapning qaysi turiga kirishi, shu qo‘shma gapning qismlari (sodda gaplar), undan so‘ng qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o‘zaro bog‘lanish yo‘li aniqlanadi.

I. Bog‘langan qo‘shma gap quyidagicha tartibda tahlil qilinadi:

1. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar va ularning mazmun jihatdan bog‘lanishi.

2. Sodda gaplarning bog‘lanish yo‘li, bog‘lovchilarning turi.

3. Sodda gaplar orasida qo‘llangan tinish belgilari.

4. Gap bo‘laklari.

**N a m u n a :** *Urushdan boylar manfaat topdi, ammo kambag‘allar xonavayron bo‘ldi.*

1) ikki sodda gap (qism) bor: *urushdan boylar manfaat topdi, kambag‘allar xonavayron bo‘ldi*; qiyoslang: zidlash mazmun munosabati bor; 2) sodda gap (qism)lar o‘zaro vergul bilan ajratilgan; 3) gap bo‘laklarini aniqlash:

Urushdan boylar manfaat topdi, ammo kambag‘allar xonavayron bo‘ldi.

II. Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplar quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Qo‘shma gap tarkibidagi qismlar va ularning mazmun jihatidan bog‘lanishi.

2. Qismlarning bog‘lanish yo‘li.

3. Qismlar orasida qo‘llangan tinish belgilari.

4. Gap bo‘laklari.

*Qalandarov smetani o‘qimasdan ovozga qo‘ymoqchi bo‘lgan edi. Saida unga majlis raisi borligini eslatdi (A.Q.)*

1) gapdagi qismlar (sodda gaplar): 1. *Qalandarov smetani o‘qimasdan ovozga qo‘ymoqchi bo‘lgan edi*; 2. *Saida unga majlisda raisi borligini eslatdi*; qiyoslash mazmuni; 2) ohang orqali bog‘langan; 3) ohang yozuvda vergul bilan ifodalangan; 4) gap bo‘laklarini aniqlash: Qalandarov smetani o‘qimasdan ovozga qo‘ymoqchi bo‘lgan edi, Saida unga majlis raisi borligini eslatdi;---

III. Ergash gapli qo'shma gaplar quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Bosh gap va ergash gap. 2. Ergash gapning turi. 3. Ergash gapning o'rni va tinish belgilari. 4. Ergash gapning bosh gapga bog'lanish yo'li. 5. Gap bo'laklari.

Agar ergash gapli qo'shma gapning tarkibidagi sodda gaplar ikkidan ortiq bo'lsa, ularning har biri shu tartibda tahlil qilinadi:

*Shuni bilib qo'yingki, xodimlar bir joyda qotib qolgan rahbarni yoqtirmaydilar.*

1) bosh gap—*xodimlar bir joyda qotib qolgan rahbarni yoqtirmaydilar*; ergash gap—*shuni bilib qo'yingki*; 2) to'ldiruvchi ergash gap; 3) ergash gap gapning boshida kelgan, bosh gapdan vergul bilan ajratilgan; 4) ergash gap bosh gapga *-ki* bog'lovchisi vositasida bog'langan; 5) gap bo'laklarini aniqlash:

Shuni *bilib qo'yingki, xodimlar bir joyda qotib qolgan rahbarni yoqtirmaydilar.*

~~~~~

TAHLILDA SODDA GAP VA QO'SHMA GAPLARNI FARQLASH VA IZOHLASH

Sodda gap bilan qo'shma gap o'rtasidagi asosiy farq, birinchidan, ularning tuzilishiga ko'ra bo'lsa, ikkinchidan, ularni tashkil etgan qurilish materialining turliligidir.

Sodda gap birgina fikriy birlikdan tashkil topadi, qo'shma gapda esa bir-biri bilan uzviy bog'langan bir necha fikriy markaz bo'ladi. Sodda gapning qurilish materiali so'zlar yoki so'z birikmalari bo'lsa, qo'shma gapning materiali sodda gaplardir.

Birdan ortiq sodda gaplar mazmun va ohang jihatdan birikib, qo'shma gapni tashkil etganda, shu sodda gaplarning mazmuni va grammatik mustaqilligi o'zgaradi—ko'pincha birinchi sodda gap (qism) mustaqilligini yo'qotadi. Qo'shma gap qismlari (sodda gaplar) bir-biri bilan bog'langandagina to'la mustaqil gap tusiga kiradi. Demak, qo'shma gap alohida sodda gaplardan emas, balki mazmun va

grammatik jihatdan biri ikkinchisiga bog'liq qismlar (sodda gaplar)dan tashkil topadi.

Sodda gapda bilan qo'shma gap o'rtasidagi eng asosiy va muhim fikrlardan yana biri shuki, sodda gap birgina predikativ (fikriy) markazdan tashkil topadi, qo'shma gapda esa bunday markaz kamida ikkita bo'ladi.

Sodda gap bir yoki birdan ortiq uyushiq kesim bir egaga yoki, aksincha, bir necha ega bir kesimga bog'lanib, shu gapni tashkil etuvchi asosiy markaz sanaladi.

Masalan: 1. *Qishloq ustida kishiga huzur beruvchi tong shabadasi g'ir-g'ir esmoqda* (H.Nu'mon). 2. *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi*.

Birinchi gap–sodda gap, ikkinchi gap esa qo'shma gap, aniqrog'i, bog'langan qo'shma gapdir. Birinchi gapda bir fikr markazi bor, ikkinchi gapda ikki fikr markazi mavjud; birinchi gapda ega va kesim bittadan, ikkinchi gapda ikkitadan.

Qo'shma gap tarkibidagi qismlar bir-biriga turli vositalar yordamida bog'lanadi. Umuman, qo'shma gap qismlari o'zaro yordamchi so'zlar, nisbiy so'zlar, so'z shakllari, ohang va tartib kabi vositalar yordamida birikadi. Ohang bog'lanishning hamma turida ishtirok etadi.

Qo'shma gap qismlarining mazmun jihatdan munosabati, ularning tuzilishi va birikishi yo'llari xilma-xildir.

Endi yuqoridagi har ikki gapni sintaktik tahlil qilamiz.

1. *Qishloq ustida kishiga huzur beruvchi tong shabadasi g'ir-g'ir esmoqda* (H.No'mon).

1. Darak gap. 2. Sodda gap, egasi mavjud gap. 3. His-hayajonsiz gap. 4. Kirish so'z va undalma yo'q. 5. Gap bo'laklarini aniqlash:

Qishloq ustida kishiga huzur beruvchi tong shabadasi g'ir-g'ir esmoqda.

~~~~~

Tashqi ko'rinish jihatdan bosh kelishik shaklida bo'lgan *qishloq* va *tong* bo'laklarining belgisiz qaratqich kelishigi shaklida ekanligiga alohida e'tibor talab qilinadi. Ularning shakli o'xshasa-da, bosh kelishikdagi so'zlar emasligini

bajarayotgan sintaktik vazifasi va soʻroqlari koʻrsatib beradi: *namaning ustida?* – qishloqning *ustida*, *nimaning shabadasi?* –*tongning shabadasi*.

2. Qoʻngʻiroq chalindi va dars boshlandi.

1. Darak gap. 2. Qoʻshma gap, bogʻlangan qoʻshma gap. 3. His-hayajonsiz gap. 4. Kirish soʻz va undalmalar yoʻq. 5. Gap boʻlaklarini aniqlash:

*Qoʻngʻiroq chalindi va dars boshlandi.*

Har ikki gapni tuzilishiga koʻra bir-biriga solishtirib koʻraylik; ikkinchi gapda kesim ham, ega ham ikkitadan. Toʻgʻri, sodda gaplarda ham ega, kesim va ikkinchi darajali boʻlaklar ikki va undan ortiq holda qatnashishi mumkin. Lekin tuzilishiga koʻra sodda gap boʻlsa ham, bir fikriy markazdan iborat boʻlsa, demak, bunday boʻlaklar uyushgan boʻlaklar boʻlib chiqadi. Ikkinchi gapda ega va kesim ikkitadan boʻlsa-da, ular uyushgan **emas**, balki sodda gaplarning egasi va kesimidir, ular alohida fikr beruvchi qismlar (sodda gaplar)ni hosil qilgan.

## TAHLILDA QOʻSHMA GAPNING TURLARINI ANIQLASH VA IZOHLASH

Bogʻlangan qoʻshma gaplarning ham, ergash gapli qoʻshma gaplarning ham qismlari oʻzaro bogʻlovchi yordamida va bogʻlovchilarsiz birikadi.

Qoʻshma gap tarkibidagi qismlar yordamchisiz bogʻlanganda, ularning bogʻlovchisiz qoʻshma gap yoki ergash gapli qoʻshma gap ekanligini qatʼiy ajratish ancha qiyinlashadi, chunki bogʻlovchilarsiz birikkan ergashgan qoʻshma gaplar tuzilish jihatidan bogʻlangan qoʻshma gaplarga oʻxshab ketadi. Lekin uning shaklini mazmuni bilan uzviy holda olib qarajak, ergash gapli qoʻshma gap ekanligi aniq seziladi.

Bogʻlangan qoʻshma gap tarkibidagi qismlar oʻzaro teng bogʻlovchilar yoki bogʻlovchi vazifasidagi *-da*, *-u* (*-yu*) yuklamalari vositasida bogʻlanadi. Uning qismlari bir-biridan ohang bilan ajralib turadi, lekin bu ohang bogʻlovchisiz qoʻshma gaplardagi va ergash gapli qoʻshma gaplardagi ohangdan farqlanadi. Masalan: 1.

Darvoza taraqlab ochildi -yu, qushdek uchib **rais** kirdi (O'.U). 2. Shu choq baland ovozlar eshitildi va qishloqqa kirib kelayotgan askarlar ko'rindi (A.Q.).

Ergash gapli qo'shma gaplarda har bir sodda gap mazmunan nisbiy mustaqildir. Bu sodda gaplar bosh gap yoki ergash gap bo'lishidan qat'i nazar, bir-biriga mazmunan bog'lanadi, bir-birini izohlaydi, aniqlaydi. Ergash gap bosh gapga ergashadi, bosh gap esa mustaqilday ko'rinsa-da, ergash gap tomonidan izohlanadi. Masalan: 1. *Xalq seni himoya qilmasa, buning uchun sen xalqdan o'pkalama* (Navoiy). 2. *Onaxon gap boshlaganda, shovqin yana tindi* (A.M.).

Oldingi va keyingi misollarni tahlil qilishda shu qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro mazmun munosabati, bog'lanish yo'llari va vositalariga alohida diqqat qilish zarur: qo'shma gapning turlari mana shu asosda belgilanadi.

Bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o'zaro teng munosabatda bo'ladi, fikr ifodalash nuqtayi nazaridan ham mustaqillikka ega bo'ladi.

Ergash gapli qo'shma gaplar ichidagi sodda gaplardan biri ya'ni bosh gap mana shunday mustaqillikni saqlagan bo'lak hisoblanadi, ikkinchisi–ergash gapda esa bunday belgi kuchsizlangan bo'lib, unda bosh gapni to'ldirish, aniqlash, izohlash belgilari kuchli bo'ladi. Ergash gaplar bosh gapni turli jihatdan xarakterlaydi, turli mazmun munosabatlari qo'shadi:

*Darvoza taraqlab ochildi -yu, qushdek uchib raisa kirdi.*

Bu qo'shma gap qismlari teng huquqli, lekin har ikki qism birikib, ko'zlangan fikrni reallashtirgan, qismlar bog'lovchi (-yu yuklamasi) vositasida bog'langan.

Qiyoslaylik:

**Xalq seni himoya qilmasa, buning uchun sen xalqdan o'pkalama.** (Navoiy).

1. Darak gap. 2. Qo'shma gap, ergash gapli qo'shma gap. 3. Shart mayli ( -sa) orqali bog'langan. 4. Undalma, kirish so'zlar yo'q. 5. Gap bo'laklarini aniqlash:

*Xalq seni himoya qilmasa, buning uchun sen xalqdan o'pkalama.*

Shunday qilib, ergash gapli qo'shma gap qismlari tobelanish (ergashish) yo'li bilan tutashadi: bir qismi (bosh gap) tuzilishi, shakllanishi jihatidan mustaqil sodda gapga o'xshash bo'ladi va sintaktik jihatdan boshqa qismni (ergash gapni) yoki bir

necha qismni o'ziga tobe qiladi. Ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi qismlar o'zaro tobelovchilar–ergashtiruvchi bog'lovchilar, so'z shakllari va nisbiy so'zlar vositasida birikadi.

Sodda gaplar o'zaro bog'lovchilarsiz, faqat ohang bilangina birikib, bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil qiladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari bog'lovchili qo'shma gap qismlariga nisbatan ancha zich bog'lanadi. Ular mustaqil sodda gaplar emas.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplardagi qismlar (sodda gaplar) bir-biridan sanash ohangiga o'xshash tugallanmagan ohang bilan ajralib turadi. Bu ohang sabab, chog'ishtirish, shart ottenkasini, voqealarning ketma-ket yoki bir vaqtda yuzaga kelishini ko'rsatadi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning sintaktik jihatdan tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

Masalan: **Tog'ning ko'rki tosh bilan, odamning ko'rki bosh bilan** (Maqol).

1. Darak gap. 2. Qo'shma gap. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap. 3. Qismlari tugallanmagan ohang bilan ajratiladi: ohang vositasida bog'langan. 4. Undalma, kirish so'z va kiritma gaplari yo'q. 5. Gap bo'laklarini aniqlash:

*Tog'ning ko'rki tosh bilan, odamning ko'rki bosh bilan.*

~~~~~

~~~~~

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qismlari, shu qismlarning mazmuni va ohangiga ko'ra, vergul, ikki nuqta va tirelar bilan ajratilib ko'rsatiladi. Tahlil jarayonida tinish belgilarining vazifasi ham ko'rsatilishi kerak. Qo'shma gapning qismlari orasida sabab mazmun munosabati bo'lsa, ikki nuqta qo'yiladi: *Tong yaqinlashib qoldi: onda-sonda xo'rozlarning qichqirig'i eshitila boshladi* (S.Z.).

Voqealarning ketma-ket yoki bir vaqtda yuzaga kelishi ifodalansa, qismlar orasiga tire qo'yiladi: Suv keldi–nur keldi (Maqol).

Chog'ishtirish, qiyoslash ottenkalari ifodalansa, vergul qo'yiladi: *Tog'ning ko'rki tosh bilan, odamning ko'rki bosh bilan* (Maqol).

Demak, bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro mazmuniy munosabati og'zaki nutqda ohang, yozuvda tinish belgilari orqali ifodalanadi.

## Savol va topshiriqlar

1. Sintaktik tahlil qanday o'tkaziladi?
2. Sodda gap bo'yicha sintaktik tahlilda nimalarga e'tibor beriladi?
3. **Tashabbuskor yoshlarni ko'rib odam quvonadi** gapini sodda gap bo'yicha sintaktik tahlil qiling.
4. Gap bo'laklarini aniqlash metodi haqida fikrlaringizni bayon qiling.
5. *Biz bolalarni yoshligidan doimo kattani hurmat qilishga o'rgatishimiz zarur* gapini gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.
6. Tahlilda gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmaydigan «bo'laklar» qanday izohlanadi?
7. Qo'shma gap bo'yicha tahlilda asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?
8. Tahlilda sodda gap va qo'shma gaplar o'rtasidagi farqlar qanday aniqlanadi?
9. Qo'shma gapning turlari qanday tahlil qilinadi?
10. *Avaz o'qir, yozar va ijod qilardi – Avaz o'qir, Furqat yozar, Alisher esa ijod qilardi – Avaz o'qirdi, Furqat yozardi, Alisher esa ijod qilardi* gaplarini tahlil qilib, farqlarini tushuntirib bering.

## Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. Toshkent, «Musiqqa», 2008, 91.
2. G'ulomov Yo. va b.lar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.: «O'qituvchi», 1975.
3. G'ulomov A., Qodirov M. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221.
4. Qodirov M., Dolimov U., A'lamova M. O'zbek tili va adabiyoti. T.: «O'qituvchi», 1993.
5. Qodirov M. Kirish imtihonlarida grammatik razbor. T.: ToshDU nashri, 1985, 1989.
6. Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. T.: «O'qituvchi», 1981.
7. Текучев А.В. Грамматический разбор в школе. М, 1963.

## TO‘RTINCHI BO‘LIM O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI, YOZMA VA BOG‘LANISHLI NUTQINI O‘STIRISH MAZMUNI

### Tayanch tushunchalar:

*Nutq, og‘zaki va yozma nutq, nutqiy talablar: nutqning nutq sharoitiga mosligi, nutqning mazmundorligi, fikrning mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishi, nutqning boy va rang – barangligi, nutqning aniq bo‘lishi, nutqning ohangdorligi, nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi, **nutqning** soddaligi va sofligi, matn ustida ishlash, insho, ta‘limiy insho, nazorat qilishga qaratilgan insho, ko‘rik – tanlov insholari, ilmiy insho, adabiy insho, erkin insho, tasviriy insholar.*

Nutq o‘qitirish maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi sanaladi. Maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi. Ma’lumki, til jamiyat a’zolari o‘rtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og‘zaki va yozma ravishda berish, o‘z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tili o‘qitishdan maqsad tilning jamiyat a’zolari o‘rtasida bajaradigan ana shu vazifasi o‘quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o‘z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar. Ular doimo o‘zlarini o‘rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar to‘g‘risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini bir-birlariga ma’lum qiladilar.

Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish bo‘lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to‘xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida, ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun ham har bir kishi undan foqdanishni bilishi va avvalo, uning o‘zini to‘la-to‘kis o‘rganib olishga harakat qilishi zarur. Tilni o‘rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta’rif va qoidalarni o‘zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. Ona tili fani bolaga tilni o‘rgatish bilan birga, tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me’yorlarini ham o‘rgatadi.

Modomiki, ona tilining o'qitilishi bolalarda nutqiy me'yorlarni tarbiyalash va ro'yobga chiqarish yo'llarini o'rgatish ekan, demak, «til», «me'yor», «nutq» tushunchalari ayni bir narsa emas.

Til fikrni shakllantirish va uni yuzaga chiqarish, bировga yetkazish uchun imkoniyat sifatida o'quvchining ongida mavjud. U ma'lum bir so'zlar, qo'shimchalar, ulaning o'zaro birika olish imkoniyatlari va birikish natijalari haqidagi qonun-qoidalar majmuasidir. Tilning asosiy qonun-qoidalari, zarur birliklarini (nutq tovushlari, qo'shimchalar, so'zlar), ularning birikish qonun-qoidalari o'quvchi jamiyatdan tayyor holda qabul qiladi. Ularni o'rganish uchun maktabda o'qish zarur emas. Umrida maktab ko'rmagan odamlar ham tilni hayot, turmush, jamiyat talablari asosida o'zlashtiradilar.

Lekin til ichki imkoniyat sifatida aniq bir fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqarish imkoniyatini beradi. Tilning bunday imkoniyatlari behad xilma xildir. Me'yor mana shu imkoniyatlarni g'alvirdan o'tkazuvchi omildir.

Me'yor jamiyatda ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda til imkoniyatlaridan foq dalanish uchun ko'rsatkichlar majmuasidir. Me'yorning oliy ko'rinishi milliy-adabiy til uslublari, mezonlarida o'z aksini topadi. Milliy adabiy til esa faqat ma'lum bir uslubiy ko'rinishdagina yuzaga chiqadi.

Nutq til imkoniyatlarining me'yor g'alviridan o'tkazilgan holda yuzaga chiqishi, voqe bo'lishidir. Nutq – tafakkur mahsuli. Shuning uchun ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan yana bir muhim talab o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdir. Fikrni bayon qilish tafakkur va til orqali amalga oshadi. Ularning o'zaro munosabati juda murakkab jarayondir. Tafakkur tashqi olamning kishi miyasida aks etishining oliy shakli bo'lsa, til tafakkurni ma'lum shaklga solib, so'zlar, so'z birikmalari va gaplar bilan ifodalash vositasidir. Tafakkur qancha rivojlantirilsa, o'quvchining fikr bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori bo'ladi.

Ona tili mashg'ulotlari faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalaydi. Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo'lib, u bolaning kundalik oddiy salom-aligidan tortib, kimga, nimani, qachon, qayerda va qanday so'zlashgacha bo'lgan barcha nutqiy jarayonlarni o'z ichiga

oladi. Bu madaniyat sirlari ham avvalo ona tili mashg'ulotlarida – til hodisalarini o'rgatish jarayonida singdiriladi.

**Xullas**, ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda **og'zaki**, **yozma** shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

**Nutq turlari.** Odam nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi.

Inson nutqi rang-barang. Do'stlarning suhbat ham, so'zlayotgan kishining chaqirig'i ham, san'atkorning sahnadagi monologi ham, o'quvchining ma'lum bir so'roqqa qaytarayotgan javobi ham nutqdir.

Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo'ladi. U ba'zan istak-tilak, ba'zan chaqiriq-murojaat, ba'zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi.

Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab yetmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ona tili ta'limi jarayonida ichki nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Fikrni bir joyga to'plash, nimalar xususida fikr yuritish kerakligini belgilash, bayon qilinadigan asosiy fikrning mohiyatini anglash, ichki nutqni rivojlantirishda muhim omildir. Ona tili mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlarning hammasi ichki nutq holatida boshlanib, keyin tashqi nutq shaklida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, insho, bayon yozishdan oldingi jarayon ichki nutq namunasi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma shakllarga ega.

**Og'zaki nutq** odatdagi tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan deyarli foydalanilmaydi. O'quvchi og'zaki nutqda ko'proq sodda gaplarni qo'llaydi: u o'z suhbatdoshiga nimanidir ko'rsatishi, mantiqiy urg'udan foydalanib, ma'lum

bir soʻzni alohida taʼkidlashi, nimanidir mimika, qoʻl, koʻz, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Ogʻzaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida toʻliqsiz gaplardan foydalaniladi. Nutqning bu turi bir yoki bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi va monolog, dialog va polilogik shaklda namoyon boʻladi.

**Yozma nutq** esa harf va soʻzlarning maʼlum qonuniyat asosida oʻzaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzaslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilish orqali voqelanadi. Yozma nutq ham ogʻzaki nutq singari monologik, dialogik va polilogik shakllarga ega.

Monologik nutq bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi boʻlib, u himoya qilish, xabar berish, oʻqilganni qayta soʻzlab berish, oʻzi savol berib, oʻzi javob berish shaklida namoyon boʻladi.

Dialogik nutq ikki kishi oʻrtasida amalga oshiriladi. Polilogik nutq esa koʻp kishining nutqidir. Nutqning bu koʻrinishlari oʻziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, bu nutq turlari keng jummalarni talab yetmaydi. Shuning uchun dialogik va polilogik nutq tarkibida toʻliqsiz gaplar juda koʻp boʻladi. Bunday nutq tarkibida soʻroq va undov gaplar ham uchraydi. Gaplar koʻpincha oʻzining qisqaligi bilan ajralib turadi. Ogʻzaki dialogik va polilogik nutqda soʻz bilan ifodalash qiyin boʻlgan bir qator vositalar: mimika, imo-ishoralar, ohang ham ishga solinadi. Fikrni berishda oʻquvchilarda bu vositalarni tarbiyalash ham ona tili oʻqitishning muhim vazifalaridan biridir.

Taʼlim jarayonida koʻpincha dialogning keng tarqalgan koʻrinishi–suhbatdan foydalaniladi. Bu odatda oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi muloqotdir. Nutqning bu koʻrinishi tugallangan jummalardan foydalanish bilan ajralib turadi.

Nutqning ikkinchi turi **yozma nutqdir**. Yozma nutq ustida ishlash ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayondir. Chunki u oʻquvchidan grammatik va mazmun jihatidan toʻgʻri jumla qurishni, har bir soʻzni oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutq turining murakkab tabiati ham shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bogʻliq. Soʻzni toʻgʻri

yoziq, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi.

Yozma nutq tekshiriladi, tuzatiladi, takomillashtiriladi, bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. Yozma nutqdagi imlo va tinish belgilari ustida ishlash matn mazmuni ustida ishlash bilan qo'shib, bir yaxlitlik hosil qiladi.

**O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar.** Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali kechadi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa-aralashuvga ehtiyoj sezadi; o'zgalarning fikrini tinglash va o'z fikrini bayon qilishga tobora ko'proq zaruriyat seza boshlaydi.

Avvalo, shuni qayd qilish lozimki, maktabda o'qitiladigan barcha o'quv fanlari o'quvchi nutqi ustida ishlashga yo'l ochadi. «Ona tili» o'quv fani sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, o'quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go'zal olamiga olib kiradi, nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo'yoq berish, nafosat bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi nutqiga bir qator muhim talablar qo'yiladi:

Ana shu muhim talablardan biri *nutqning nutq sharoitiga mosligidir*. **Nutq sharoiti** deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Bu sharoit behad ko'p tarkibli, serqirra bo'lib, so'zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa-buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so'zlovchining maqsadi va imkoniyatlarigacha bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi.

Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoq turgan so'zlovchi va tinglovchi faqat yozma nutq (xat, maktub, axborot, voqeanavislik va h.k.) vositasida fikr almashtira oladi. Tabiiyki, bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bir-biriga yaqin turgan so'zlovchi va tinglovchi orasida fikr almashishning eng qulay yo'li og'zaki nutqdir. Og'zaki va yozma nutqning o'z nutq

sharoitlariga yarasha xilma-xil xususiyatlari bor. Chunonchi, soʻzlovchi bitta, tinglovchi koʻp boʻlsa, soʻzlovchining baland ovozda toʻxtamlar (pauzalar)ga rioya qilib, imo-ishoralardan kamroq foydalanib, fikrni izchil va bir-biriga bogʻliq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning oʻziga xos koʻrinishi oʻquvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, maʼlum bir mavzuni sinfda, biror yigʻinda ochib berishdagi nutqida oʻz aksini topadi. Shuning uchun bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning oʻzaro toʻgʻri bogʻlanishi, bogʻlovchilar, olmoshlar, soha atamaları, ovoz tembi, ohang kabilarni toʻgʻri qoʻllashga alohida eʼtibor berish lozim.

Oʻquvchining bunday nutqi uzundan uzoq jummalardan, ortiqcha soʻzlardan, odat tusiga kirib qolgan takrorlardan xoli boʻlishiga, nutq yaratilayotgan paytda oʻquvchining soʻzlovchilarga nisbatan qanday turishiga, qoʻl, koʻz, bosh, boʻyin, oyoq harakatlariga alohida eʼtibor berish kerak.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri soʻzlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir. Xalqimiz qadimdan bunga juda katta eʼtibor bergan. Shuning uchun «Soʻzni aytgin uqqanga» maqolida nutqni tinglovchilarga tushunarli qilib bayon etish zaruriyati taʼkidlangan.

Dindorlar orasida bir rivoyat keng tarqalgan. Tasavvuf ilmining buyuk namoyandalaridan biri Mansur Xalloy (858 – 920-yillar) dunyoqarashiga binoan har bir odam haqning bir zarrasidir. Shuning uchun u «Analhaq» (Men ham haqman) deb aytgan. Uni xudolikka daʼvo qilyapti deb, bu soʻzi uchun dorga osib oʻldirganlar. Shunda birovlar Mansur Xalloyni haq, toʻgʻri, boshqalar esa nohaq, notoʻgʻri deb baholagan. Muridlari Mansur Xalloyning haq yoki nohaqligini aniqlash maqsadida buyuk olim Abdullo Ansoriyga murojaat qiladilar. Ansoriy bu haqda loʻndagina javob beradi: «Soʻzni tushunganga aytish kerak». Agar Mansur Xalloy olimlar yoki fozillar orasida, yaʼni «Anal haq» maʼnosini tushunadiganlar davrasida shu gapni aytganida uni oʻldirmasliklari mumkin edi. Bu gapni tushunmaydigan avom oldida aytish, «Men haqman» deyish xudolikka daʼvo qilish bilan teng va bunday shaxs shariat hukmiga koʻra oʻldirilishi lozim ekan.

Rivoyatdan ko‘rinib turibdiki, tinglovchilarning saviyasini hisobga olish faqat nutq taqdirini **emas**, balki notiq taqdirini ham hal qiladi. Shuning uchun o‘quvchilarda o‘z fikrini tinglovchining saviyasi, yoshi, mavqeini hisobga olgan holda bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor berish kerak. Buning uchun o‘quvchilar bilan ayni bir fikrni (axborotni, tilak-istakni va h.k.) o‘zidan kichiklarga, tengqurlarga, o‘zidan kattalarga, yaqinlarga, yaqindan tanish bo‘lmagan shaxslarga ifodalash ustida muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi. Bolalarni maktublar yozishga o‘rgatish ayni bir fikrni turli kishilarga turli xilda bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab *mazmundorlikdir*. Shuni unutmaslik lozimki, nutq nutq sharoitiga mos tushsa, u mazmunli bo‘ladi. O‘quvchi faqat bilgan narsalarini, o‘zi xabardor bo‘lgan voqea-hodisalarni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar o‘quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg‘ulari asosida yuritilgan fikrigina o‘zgaralar diqqatini o‘ziga tortadi. Mazmunsiz fikr na shaxsning o‘ziga, na o‘zgaralarga yoqadi. O‘quvchiga o‘zi o‘qigan, kuzatgan, bilgan narsalar yoki voqea-hodisalar xususida yozish ancha oson kechadi.

Suhbat, hikoya, insho uchun o‘qilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari va kinofilmlar, shaxsiy kuzatish va taassurotlar, kundalik hayot voqealari boy material bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablardan yana biri fikrning *mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil* bo‘lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta‘sirchanligi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to‘g‘ri baho bera olish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O‘quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to‘g‘ri bog‘lay olishi, mavzuga aloqador bo‘lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytariq fikrlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

**Nutq mantiqiy fikrlash mahsuli.** U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog‘langan.

Taqqoslash shunday bir mantiqiy usuldirki, u bilan moddiy olamdagi narsalar va voqealarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlab olinadi; shu asosda muhim xulosalar chiqariladi. O'quvchi bu faoliyat usulidan foydalanmay turib, mantiqan to'g'ri fikr yurita olmaydi.

Nutqning mantiqan to'g'riligi esa avvalo fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog'langanligi, mavzudan chetga chiqmaslik, mazmunda mantiqiy ziddiyatlar va poyma-poy, mujmal jumlar bo'lmasligi, hukm va xulosalar asosli, ishonarli bo'lishi demakdir.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab uning **boy va rang-barangligidir**. Nutqning boy va rang-barangligi avvalo fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, «so'z-olmosh», «so'z-ibora», «so'z-tasviriy ifoda», «so'z-ramziy belgi» sinonimiyalaridan unumli foydalanishda, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoir va yozuvchilarning aforizmga aylanib qolgan iboralari va jumlaridan, badiiy asarlardan olingan parchalardan, o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va ko'chma ma'noli so'zlaridan, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag'a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so'roqli gaplardan foydalanishida namoyon bo'ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go'zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri uning **aniq bo'lishidir**. Nutqning aniqligi bu faqat narsa, voqea-hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea-hodisa uchun xos bo'lgan belgilarni aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so'z, so'z birikmalari va gaplar tanlashdan ham iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog'langan. Ma'lum bir mazmuni turli shakllarda bera bilish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlash nutqqa aniqlik kiritadi.

**Ohangdorlik** ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. Shuning uchun she'riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o'qiy olish malakasi ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib

hisoblanadi. U ohang yordamida nutqni sintagmalarga bo‘ladi, mantiqiy urg‘uni o‘rinli qo‘llaydi. Shu sababli, ifodali o‘qish malakalari faqat adabiyot darslaridagina emas, balki ona tili mashg‘ulotlarining ham tarkibiy qismiga aylanmog‘i lozim.

**Nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi** ham unga qo‘yiladigan muhim talablardan biridir. O‘quvchi so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog‘lash, kelishik va egalik qo‘shimchalarini o‘rinli qo‘llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Nutqqa qo‘yiladigan yana bir muhim talab uning **soddaligi va sofligidir**. Sodda nutq avvalo tushunarli bo‘ladi. Nutqning tushunarli bo‘lishi, bir tomondan, fikrni lo‘nda, aniq bayon qilish, «tushunarli bo‘lmagan g‘aliz jummalardan saqlanishda namoyon» bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajalariga ham bog‘liqdir. Demak, o‘quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilishi, ham o‘zgalar fikri mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Nutqning sofligi avvalo uning tozaligi demakdir. Ma‘lumki, o‘quvchilar nutqida har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlar, o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lmagan so‘zlar ko‘p uchraydi. Nutqni bunday so‘zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Yuqorida tilga olingan talablar bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, o‘quvchi yaxshi nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi. Shuning uchun ona tili darslarida nutqqa qo‘yilgan talabni hisobga olib, ikkinchisini unutish yoki bir talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfda qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy va qat‘iy amal qilinsagina nutq o‘stirish samarali kechadi.

**O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish.** Maktabda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish murakkab jarayon bo‘lib, u asosan quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

**1. O‘quvchilarni ularga notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish.** O‘quvchi nutqida faqat tilimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli paydo bo‘layotgan so‘zlar emas, balki ular birinchi marta duch kelayotgan mavjud so‘zlar

ham yangidir. Chunonchi, badiiy matnlarda ular **bo'lma** (xona), **ishkom** (tok so'risi), **omi** (savodsiz, o'qimagan), **sinchalak** (chittak), **so'ri** (katta taxta karavot), **hamiyatli** (oriyatli) kabi bir qator so'z va iboralarga duch keladilarki, ular tilimizda yangi so'z emas, ammo o'quvchi uchun yangidir. O'quvchilarni bunday yangi so'zlar bilan tanishtirib borish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi. Bundan tashqari, bola har kuni fan asoslarini o'rganish jarayonida, sinfdan va maktabdan keyingi faoliyatida qanchadan qancha yangi so'zlarga duch keladi va ularning ma'nolarini bilib oladi. O'quvchilar nutqini yangi so'zlar bilan boyitishda, ayniqsa, ona tili fanining imkoniyatlari kattadir. Til hodisalarini o'rganish jarayonida ularga notanish bo'lgan yangi so'zlar va atamalarning ma'nolari izohlab boriladi.

**2. O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish.** Ma'lumki, bola ko'p ma'noli so'zlarnig barcha ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib olmaydi. Bu murakkab jarayon bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bola quyi sinflarda so'zning ma'lum bir ma'nosiga duch kelsa, keyingi sinflarda shu so'zning boshqa ma'nolari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Buning uchun ona tili o'qituvchisi bolalar nutqini doimiy tahlil qilib borishi iste'molda bo'lmagan ko'p ma'noli yoki ma'nodosh so'zlarni aniqlashi, ularni qaysi yo'llar bilan o'quvchi nutqiga olib kirish choralarini ko'rishi lozim. Tilning barcha sathlarini o'rganishda omonimlar, ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar, uyadosh so'zlar, tasviriy ifoda va iboralar ustida ish olib borish bu murakkab vazifani amalga oshirishing eng qulay yo'llaridan biridir.

**3. O'quvchi nutqidagi kam iste'mol so'zlarni iste'molli so'zlarga aylantirish.** Ko'p hollarda o'quvchi so'zning ma'nosini bilsa-da, ammo nutqda undan deyarli foydalanmaydi. Bu holni bartaraf etish uchun matndagi ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshari, uyadoshlari, qarama-qarshi ma'nolari bilan almashtirish, nuqtalar o'rniga mazmunga muvofiq keladigan zarur so'zni topib qo'yish kabi amaliy ishlardan unumli foydalansa bo'ladi.

**4. O'quvchi nutqidagi adabiy tilga zid so'zlarni bartaraf etish.** Ma'lumki, o'quvchilar nutqida adabiy tilda boshqacha aytiladigan yoki umuman adabiy tilda

bo'lmagan bir qator so'zlar (shevaga oid so'zlar, arxaik so'zlar) borki, ular nutqning sofligi, tushunarligi, badiiyligiga putur yetkazadi. Bu salbiy holning oldini olish uchun ko'proq talaffuzi va yozilishi adabiy tildan farq qiluvchi so'zlarni adabiy tilda yozish, matndagi shevaga oid so'zlar yoki arxaik so'zlarni adabiy tildagi so'zlar bilan almashtirishdan foydalanish mumkin.

O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, qaysi so'zlar o'quvchining lug'atiga kirishi, qaysi so'zlarning ma'nolari izohlab berilishini aniqlab olishi zarur. Masalan, «Undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi» mavzusi o'rganilayotganda o'quvchilar atigi bitta tovush bilan farqlanuvchi *bir, bil, biy* singari so'zlarga duch keladilar. Shubhasiz, yuqoridagi so'zlardan *biy* (*bek* ma'nosida otlarga qo'shib keladigan va onda-sonda urug' boshlig'i ma'nosida mustaqil kela oladigan so'z). Masalan: **Biyalar bir yoqadan bosh chiqarishga so'z berdilar. Abdurahmonbiy qo'rboshi bo'lsa ham ularning orasida obro'yi baland edi** kabilarning ma'nosi izohlanishi va o'quvchilar iste'molidagi so'zga aylantirilishi lozim. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda quyidagi usullardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

**1. So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash.** Bu usul ko'proq ma'nosi va shakli bir-biriga yaqin yoki keskin farq qiladigan so'zlarni izohlashda qo'l keladi. Tilimizda bunday so'zlar anchagina qismni tashkil etadi. Masalan, -i va -u tovush (harf)larning talaffuzi va imlosi o'rganilar ekan, *urush–urish, tushum–tushim* singari so'zlarni taqqoslash orqali ularning ma'nosi, talaffuzi, imlosini sharhlash mumkin. Qo'shma otlar va ularning imlosi haqida gap ketganda *paxtagul, boshog'riq, gulbozor* singari qo'shma otlarni *paxta gulli, bosh og'rig'i, gul bozori* singari so'z birikmalari bilan taqqoslash orqali ularning ma'no va imlo farqlarini bilib olish mumkin.

Til hodisalarining mohiyatini anglash, ilmiy va badiiy uslubda qo'llaniladigan so'zlarni farqlash, bu so'zlarning ma'no nozikligini sharhlash maqsadida matnlar taqqoslanishi mumkin. Masalan, maktab darsligida ilmiy matnlarni badiiy matnlar bilan taqqoslash, matnlardagi oddiy va ko'tarinki (bo'yoqdor) so'zlarni taqqoslash hamda ularning farqini aniqlash kabi ishlar bolalarning so'z boyligini oshirish va so'zdan to'g'ri foydalanish malakalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**2. Soʻzlarni kuzatish.** Kuzatish ham taqqoslash kabi keng qoʻllaniladigan aqliy faoliyat usuli boʻlib, unga asoslangan topshiriqlar oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga samarali taʼsir koʻrsatadi. Bunday topshiriqlardan darsning istagan bosqichida unumli foydalanish mumkin. Ular, ayniqsa, ona tilidan yangi bilimlar berishda ancha qoʻl keladi. Oʻquvchilar berilgan soʻz va birikmalarni kuzatib, ulardan oʻzlariga zarur narsalarni ajratib oladilar va shu asosda muayyan xulosaga keladilar. Masalan, «Sodda, qoʻshma va juft soʻzlar» mavzusini oʻrganishda matndan ikki va undan ortiq asos qoʻshilib yozilgan soʻzlarni (masalan: *belbogʻ*, *koʻzoynak* kabi) ajratish, ularning tarkibiy qismlari va birikishini aniqlash, bu soʻzlarga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish (*belbogʻli*, *ota-onali* kabi), ularning maʼnolarini izohlash kabi amaliy ishlardan foydalansa boʻladi.

Berilgan soʻz, soʻz birikmalari, gap va matnlarni kuzatish jarayoni ayni vaqtda bolalarning soʻz boyligini oshirish jarayoni boʻlib, bu usuldan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**3. Soʻzlarni maʼlum belgilariga qarab guruhlariga ajratish.** Guruhlash aqliy faoliyat usuli boʻlib, u ona tili mashgʻulotlarida bolalarning soʻz boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul soʻzlarni anglatayotgan maʼnosi, soʻz turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash bilan chambarchas bogʻlangan. Soʻzlarni guruhlash uchun avvalo kuzatish yoki taqqoslashdan foydalanishga toʻgʻri keladi. Masalan, berilgan soʻzlar yoki matndan kasb-hunar otlarini ajratish va ularni maʼlum sohalar boʻyicha guruhlash uchun avval soʻzlarni yoki matnni kuzatishga toʻgʻri keladi.

Ona tili mashgʻulotlarida aqliy faoliyatning bu usulidan, ayniqsa, soʻz turkumlarining maʼno guruhlarini oʻrganishda koʻp foydalaniladi. Masalan, «Otlarning maʼno guruhlarini»ni oʻrganishda berilgan soʻzlarni shaxs otlari, kasb-hunar otlari, joy nomlari va hokazolarga ajratish, bu guruhlarini mustaqil davom ettirish, «Qavm - qarindoshlik otlari»ni oʻrganishda berilgan soʻzlarni qon-qarindoshlik yoki nikoh qarindoshligi munosabatlarini ifodalashiga koʻra ikki guruhga ajratish, hosil boʻlgan guruhlarini mustaqil davom ettirish yoki «Kasb-hunar otari»ni oʻrganishda berilgan soʻzlarni kulolchilik, zardoʻzlik, ganch va yogʻoch

o'ymakorligi, novvoylik kabi guruhlarga ajratish kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

#### **4. Ma'lum bir guruhdagi so'zlar ro'yxatini mustaqil ravishda tuzish.**

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida ularga ma'lum bir guruhdagi so'zlar lug'atini tuzishni ham topshirish mumkin. Shubhasiz, bunday lug'atlarni dars jarayonida tuzish ancha murakkabdir. Shuning uchun mustaqil ishning bu turini ma'lum bir mavzu o'rganilgandan keyin uy vazifasi sifatida topshirish maqsadga muvofiqdir. Lug'at tuzish uchun o'quvchilar ma'lum bir kasb egalari, ota-onalari, keksalar bilan suhbatda bo'ladilar, mavjud izohli lug'atlarga murojaat qiladilar. Otlarning ma'no guruhleri masalan, to'y-tomoshalarni ifodalovchi otlarni o'tib bo'lgach, bolalar yashab turgan mahallada to'y-tomoshalarni ifodalovchi so'zlar lug'atini tuzishni topshirish mumkin. 6-sinf o'quvchilari bu topshiriqni katta qiziqish bilan bajaradilar. Ular *non sindirdi, ro'mol berdi, hinobandon, domodbari, kelin ko'rdi, kelin challadi, beshik to'yi* singari bir qancha so'zlarni to'plab, ularning ma'nolarini izohlaydilar.

Ona tilini o'qitish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish, birinchi navbatda, ularning so'z boyligini oshirishni taqozo etadi. O'quvchilarni doimiy ravishda ular birinchi marta duch kelayotgan yangi so'zlar hamda fan-texnika taraqqiyoti natijasida tilimizga kirib kelayotgan yangi so'zlar bilan tanishtirib borish, so'zlarning yangi ma'no qirralarini ochib berish, nutqdagi kamiste'mol so'zlarni seriste'mol so'zlarga aylantirish, adabiy til uchun zid bo'lgan so'zlarni o'quvchilar nutqidan chiqarib tashlash faqat ona tili fanining emas, balki maktabda o'qitiladigan barcha fanlarning, shuningdek, oila va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

A. R. Sayfullayev o'zining «Ona tili darslarida nutq o'stirish» (5-sinf materiallari asosida. Toshkent, 1997), «Ona tili darslarida nutq o'stirish» (6-sinf materiallari asosida. Toshkent, 1998), «Ona tili darslarida nutq o'stirish» (7-sinf materiallari asosida. Toshkent, 2000), «Ona tili darslarida nutq o'stirish» (8-sinf materiallari asosida. Toshkent, 2002) nomli metodik qo'llanmalarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirishga

alohida ahamiyat berib, mavzularni o'rgatish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirishning metod va usullarini keng bayon qilgan.

**Ona tili mashg'ulotlarida matn bilan ishlash.** Matn nutqiy hodisa bo'lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmunan birikishidir. «Qish. Qor yog'yapti» shaklidagi uchtagina so'zning mazmunan birikishidan tortib, butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matn sanaladi. Har bir matn ma'lum bir narsa, voqea-hodisani tasvirlaydi; u haqida xabar beradi; so'zlovchining munosabatini ifodalaydi.

Matn o'z tuzilishiga ko'ra gap, murakkab sintaktik butunlik, xat boshi, bo'lim, qism, bob va paragraflardan tashkil topishi mumkin. O'quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlar esa asosan gap, xat boshi va muayyan kichik qismlardan iborat bo'ladi. Bu birliklar, albatta, matn hosil qilishga ishtirok etadi va uni shakllantirishda muhim ahamiyatga molik bo'ladi.

«Matnlar, –deb qayd qilinadi o'quv dasturida, –xilma-xildir. Ularning aniq tur va ko'rinishlari qisman darsliklarda berilsa-da, asosan o'qituvchi tomonidan belgilanadi». Shuning uchun dastur o'qituvchiga darslikdagi matnlarni o'z didi, talabi, sharoitga qulayligi bilan bemalol almashtirish, o'qitish jarayonini tom ma'nodagi ijodiylik va izlanuvchanlik asosida qurishga to'liq imkoniyat beradi.

«Ona tili» darsliklarida berilgan matnlarni: a) ta'limiy-ma'rifiy matnlar hamda b) ta'limiy-tarbiyaviy matnlar singari ikki guruhga ajratish mumkin.

Ta'limiy-ma'rifiy matnlar ona tilining grammatik qurilishi, lisoniy tushuncha va ta'riflar sharhiga oid matnlar bo'lib, nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qildirishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'limiy-tarbiyaviy matnlar esa ham bilim berishni, ham tarbiyalashni ko'zda tutadi. Har bir mashg'ulotda o'quvchilar tomonidan yaratiladigan matn to'la-to'kis ijodiydir. Ona tili darslarida ular hosil qilingan nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llab matn yaratishlari, berilgan mavzu asosida kichik insho yozishlari mumkin.

Matnlar uslub jihatidan rang-barangdir. Ona tili mashg'ulotlarida badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy matnlardan foydalaniladi. Har bir uslub o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir til me'yorini talab etadi.

**Badiiy uslubda** yozilgan matnlarning o'ziga xos xususiyati ularda tasviriylik va ta'sirchanlikning kuchliligidir. O'quvchi badiiy matn yaratishda tabiat va ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo'ladi; uning mohiyatini ochish uchun turli-tuman leksik birliklar (ko'chma ma'noli so'zlar, ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar, tasviriy ifoda va frazeologik birliklar, adabiy tilning tasvir vositalari: o'xshatish, mubolag'a, kuchaytirish, jonlantirish kabilardan) o'z imkoniyatiga qarab bemalol foydalana oladi. Badiiy matn o'quvchilarda badiiy didni shakllantiradi. O'quvchi bunday matnlar orqali go'zallik va nafosat olamiga kiradi; o'z quvonchi va tashvishlari bilan o'rtoqlashadi; sevimli qahramonlariga ergashadi.

**Publitsistik matn** ko'proq matbuotga xos bo'lib, u xabar, maqola, taqriz, reportaj kabilarda namoyon bo'ladi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni publitsistik matnlar yaratishga o'rgatish uchun avvalo ularni bu usulning til xususiyatlari ustida ishlashlarini tashkil etishga to'g'ri keladi. Publitsistik matnning tili aniq, ravon, ixcham, jonli bo'lib, u nutqning ta'sirchanligi va ommabopligini ta'minlaydi.

Ona tili mashg'ulotlarida *ilmiy matnlardan* ham keng foydalaniladi. O'quvchilar yaratadigan ilmiy matnlarni ikki guruhga ajratish mumkin: a) sof ilmiy matnlar; b) ilmiy-ommabop matnlar. Sof ilmiy matnlar faqat ma'lum bir sohaga doir tushunchalar asosida yaratiladi. Ilmiy-ommabop matnlar esa ko'pchilikka tushunarli bo'lib, ayrim murakkab tushunchalarga izoh beriladi.

Matnning eng oliy ko'rinishi *inshodir*. U mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijodiy asar bo'lib, o'quvchi faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi.

Inshoda bolaning o'zligi namoyon bo'ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga munosabati, tarbiyalanganlik darajasi, mustaqil turmushga tayyorligi yozgan inshosidan ma'lum bo'ladi. Boshqacha aytganda, insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgidir. Bu ko'zgu orqali u nafaqat o'zini ko'radi, balki boshqalarga o'zligini tanitadi.

Insho o'quvchining ona tilidan egallagan bilimlarini o'zida mujassamlashtiradi. Til hodisalari insho orqali o'quvchining ijodiy-amaliy faoliyatiga ko'chadi. Shuning uchun ona tili o'qituvchilari darsda mustaqil ishning bu muhim turiga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Insho sarlavhani to'g'ri belgilashdan boshlanadi. To'g'ri tanlangan sarlavha inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun tashlangan ilk qadamdir. Mavzu tanlashga o'rgatish boshlang'ich sinflardayoq boshlanadi. Berilgan matnni bir necha mustaqil qismga ajratish, ularning har biriga sarlavha topish, bir matnga bir necha sarlavha tanlash kabi ishlar faqat boshlang'ich sinflarda emas, balki keyingi bosqichlarda ham davom ettiriladi.

Sarlavha inshoda yoritilgan fikrlarga muvofiq kelishi va uning mazmunini to'la qamrab olishi lozim. Kuzning shirin-sharbat mevalari xususida fikr yuritib, uning sarlavhasini «Polizda» yoki «Qovun pishdi» deb atab bo'lmaydi. U albatta, «Kuz sahovati», «Mevalar g'arq pishdi», «Kuz ne'matlari» kabi nomlar bilan atalishi lozim.

Inshoni to'g'ri nomlash uchun undagi asosiy fikrni ajrata olmoq ham kerak. O'quvchi nimalar haqida yozishini aniq tasavvur yetmay turib, uni to'g'ri nomlay olmaydi.

O'quvchi mavzu talabini to'g'ri anglashi ham lozim. Masalan, insho mavzusi «Ta'til kunlarining birida» deb nomlangan bo'lsa, o'quvchi butun bahorgi, qishki yoki yozgi ta'til haqida fikr yurita olmaydi. Mavzu «Mening sevimli qahramonim» deb nomlangan bo'lsa, o'qilgan asarlardagi barcha qahramonlar haqida fikr yuritib bo'lmazligi aniq.

Inshoga material to'plash ham uni to'g'ri yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shuni unutmaslik lozimki, har bir o'quvchi borliqni, undagi narsa, voqea-hodisalarni, tevarak-atrofni, odamlarni, badiiy asar qahramonlarini o'z ko'zi bilan ko'radi. Demak, har bir o'quvchi inshoga o'zicha material to'playdi. Insho uchun asosiy material bu avvalo hayotning o'zi, uning kitoblardagi, san'atdagi ifodasidir. Shuning uchun har bir o'quvchida kuzatuvchanlik xususiyati to'la shakllangan

bo'lishi lozim. Kuzatish bevosita o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

O'quvchi insho yozish uchun borliqni kuzatar ekan, demak, u nimalar haqida fikr yuritish lozimligini o'ylaydi va shunga muvofiq keladigan materiallarni yig'adi.

Insho uchun material to'plashda manba muhim ahamiyatga ega. Masalan, rasm asosida material to'plash, borliqni kuzatish yoki badiiy asar asosida material to'plashdan farq qiladi. Rasm asosida material to'playotganda ko'proq rassomning maqsadi, unda tasvirlangan narsa, voqea-hodisalar, ranglarning tanlanishi, tasvirning diqqatga sazovor tomonlari va kamchiliklari singarilarga ko'proq e'tibor qaratisa, badiiy asar asosida material to'playotganda yozuvchining maqsadi, asarda ishtirok etgan shaxslar, yozuvchi yoki shoirning obraz yaratish mahorati, asardan chiqariladigan xulosa kabilar markaziy o'rinni egallaydi.

To'plangan materialni tartibga solish va uni muayyan izchillikda bera olish ham o'quvchi uchun o'ta zarur malakalardan biri sanaladi. Tartibga solish bu avvalo to'plangan materialni saralab, uning ichidan yoritilayotgan mavzu uchun zarurini ajratish, ularni mantiqiy izchillikda joylashtirish demakdir. Bu ishda o'quvchiga puxta o'ylab tuzilgan reja yaxshi yordam beradi.

Yozilgan inshoni takomillashtirish, unda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish ham o'quvchilar uchun o'ta zarur malakalardan biridir. Matni takomillashtirish bu imloviy, punktuatsion xatolar ustida ishlashdangina iborat emas, balki mazmunni takomillashtirishni ham o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchi yozgan inshosini tahlil qilishga qiziqishi, bu ishga ehtiyoj sezishi, xatoni tuzatish usullarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, o'quvchi o'z ishidagi xatolarni aniqlashdan ko'ra, o'z galar ishidagi xatolarni tezroq topadi. Shuning uchun ularga ba'zida bir-birlarining ishlarini tekshirishni topshirish ham mumkin.

Yozilgan inshoni takomillashtirish uchun o'quvchi uni diqqat bilan o'qishi, mazmun ustida ishlashni imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolar ustida ishlash bilan birga amalga oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

O'quvchilar inshosi tur jihatdan ham juda xilma - xildir. Pedagogik maqsadiga ko'ra o'quvchilar inshosini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

- 1) ta'limiy insholar;**
- 2) nazorat qilishga qaratilgan insholar;**
- 3) ko'rik-tanlov insholari.**

Ular o'zaro chambarchas bog'langan. Ta'limiy insholar ayni vaqtda nazorat uchun ham xizmat qiladi. Har qanday nazorat qilishga qaratilgan insho ta'limiy maqsadni ko'zlaydi. Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar ham ta'limiy maqsad, ham tarbiyaviy maqsadga qaratilgan.

Mavzu tanlash, asosiy g'oyani belgilash, material yig'ish, reja tuzish, shu asosda to'plangan materialni saralash, fikrni muayyan izchillikda bayon qilish, yozilganlarni takomillashtirish kabi ishlar barcha turdagi insholar uchun xosdir.

Insholarning asosiy qismini ta'limiy insholar tashkil etadi. Bunday insholar, asosan, o'qitishga qaratilgan, o'rgatishni ko'zlaydigan insholardir. Til hodisalarini amalda qo'llashga o'rgatish, o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish kabi zarur malakalar deyarli ta'limiy insholar orqali shakllantiriladi. Bu insholarning qoralama va oqlama nusxalari bo'lmaydi. Ular, odatda, o'quvchilarning mashq daftarlarida bajariladi. Shuning uchun matndagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni takomillashtirish maqsadida qabul qilingan shartli belgilardan o'quvchi o'z inshosida bimalol foydalanishi mumkin.

Nazoratga qaratilgan insholar, odatda, katta bo'limlar o'rganilgandan keyin, yoki chorak oxiri va o'quv yilining oxirida o'tkazilishi mumkin. Ular, asosan, o'quvchilarning egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Shuning uchun insho mavzusi oldindan e'lon qilinmaydi, ular avval qoralama nusxada bajarilib, keyin takomillashtirilgach, oqqa ko'chiriladi. Odatda, nazorat maqsadini ko'zlagan insholarga ikki soat vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar sinf yoki maktab g'oliblarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ona tilidan insho mavzulari oldindan e'lon qilinadi;

o'quvchilar ko'rik - tanlov shartlari bilan tanishtiriladi. Shubhasiz, g'olib o'quvchilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan bunday ko'riklar ijodiy ishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Ona tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan insholarni **mavzu jihatidan ilmiy, badiiy va erkin mavzularga** ajratish mumkin.

**Ilmiy insholar.** Ma'lumki, maktab o'quvchilarini ilmiy bilim asoslari bilan qurollantiradi. O'quv rejasiga kiritilgan barcha o'quv fanlari bolalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tabiat va jamiyat hodisalarining haqiqiy mohiyatini anglashga yordam beradi.

Ilmiy insholarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda ilm - fanga oid tushunchalardan keng foydalanishdir. Masalan, tilga oid ilmiy insholarda *so'z, so'z birikmasi, tasviriy ifoda, turg'un birikma, ega, kesim, hol, uyushiq bo'lak* kabi tushunchalardan keng foydalanilsa, matematikaga oid insholarda ko'proq *qoldiq, ko'paytma, tenglama, kasr, mahraj, ildiz chiqarish, bo'lish* kabi tushunchalar qo'llaniladi.

Barcha sinflarda o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasini hisobga olgan holda ilmiy insholardan foydalansa bo'ladi. 5-sinfda o'quvchilar ona tili, matematika, tabiatshunoslik, qadimga dunyo tarixi, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlarni o'rganishar ekan, demak, ilmiy insholar ana shu o'rganilgan mavzularga oid bo'ladi. Bu sinfda: «Quyosh va tabiat», «Biz matematikadan nimalarni o'rganamiz?», «Qo'shiq aytish uchun nimalarga amal qilish kerak?», «Grippning oldini olish» kabi mavzular ilmiy insho mavzusi sifatida tanlanishi mumkin.

Ilmiy insholar uchun eng asosiy manbaa maktab darsliklari, turli ensiklopedik lug'atlar, gazeta va jurnallarda berilgan ilmiy maqolalar, ilmiy mavzulardagi teleko'rsatuvlar bo'lishi mumkin.

**Adabiy insholar.** Adabiy insholardan faqat adabiyot darslarida emas, balki ona tili mashg'ulotlarida ham keng foydalaniladi. U yozuvchi mahoratini tushunish, asar qahramonlari olamiga kirish, ularni bir-biri bilan taqqoslab, yaxshilik va yomonlikning tub mohiyatini anglash imkoniyatini beradi. Bunday insholar o'quvchidan badiiy nutqni talab etadi. U ana shu insholar orqali o'xshatish, sifatlash,

jonlantirish, mubolagʻa singari badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, maʼnoni kuchaytiradigan boʻyoqdor soʻzlarni qoʻllash, tovushlarni choʻzish orqali turli xil maʼnolarni ifodalash kabi badiiy nutqqa xos bayon usullarini oʻrganadi.

Adabiy insholar badiiy adabiyot namunalari asosida yaratiladi. Oʻquvchilar oʻrganilayotgan til hodisalari bilan bogʻliq holda badiiy asarlar, ulardagi qahramonlar, bayon qilingan qiziqarli voqea-hodisalarni tahlil qiladilar, ularga oʻz munosabatlarini bildiradilar.

**Erkin mavzudagi insholar.** Bunday insholar adabiy insholarga yaqin turadi. Badiiy adabiyotdan yaxshi xabardor oʻquvchigina erkin mavzuda qiynalmay insho yozishi mumkin.

Erkin va badiiy insholar bir-biridan avvalo asoslaniladigan manba bilan farq qiladi. Adabiy insholarning manbai adabiy asarlar boʻlsa, erkin insholarning manbai serqirra hayotimiz, oʻquvchilarning kuzatish va taassurotlari boʻlishi mumkin. Demak, erkin mavzuda ijod qilish hayotni yaxshi tushunish va bilishni, narsa, voqea-hodisalar haqida etarli darajada maʼlumotga ega boʻlishni, ularni bir-biri bilan taqqoslab, umumiy xulosalar chiqarishni, oʻqilgan badiiy asarlar, koʻrilgan kinofilm yoki telekoʻrsatuvlarni umumlashtirib, hukm va xulosalar chiqarishni talab etadi. Shuning uchun erkin mavzudagi insholar adabiy insholarga qaraganda bir muncha murakkabdir.

Erkin mavzudagi insho oʻziga xos kichik nasriy asar boʻlib, unda oʻquvchining oʻzligi koʻproq namoyon boʻladi.

Yuqorida tilga olingan insho turlari oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, ular ustida ishlash usullari ham bir-biridan farq qiladi. Shubhasiz, tabiat tasvirini yaratish insonning tashqi qiyofasini tasvirlashdan tamomila farq qiladi. Quyida har bir insho turiga alohida toʻxtalib, ular ustida ishlashning oʻziga xos xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz:

**Tasviriy insholar.** Turmushdagi narsalar, hayotdagi voqea-hodisalar, odamlar, jamiki jonli va jonsiz mavjudotning muhim belgilari, xususiyatlarini yoritishga moʻljallangan insholar tasviriy insholardir. Inshoning bu turi uch koʻrinishda ega. 1) oddiy tasvir; 2) ilmiy tasvir; 3) badiiy tasvir.

**Oddiy tasvir** hammaga tushunarli bo‘lgan tasvir shaklidir. O‘quvchi narsa, buyum, voqea-hodisalarni oddiy so‘zlar bilan, hammaga tushunarli bo‘lgan shaklda bayon qiladi. Bunday inshoda tasvirlanayotgan narsaning hamma belgilari, birin-ketin ko‘rsatiladi, unda muallifning munosabati ifodalanmaydi hamda badiiy tasvir vositalari ishga solinmaydi.

**Ilmiy tasvirda** turmushdagi narsa-buyumlarning eng muhim belgilari aniq dalillar asosida qat’iy mantiqiy izchillikda beriladi. Masalan, suv, paxta, quyosh va boshqalarning ilmiy tasviri kabi.

Ilmiy tasvirda tasvirlanayotgan narsaning nomi, nima uchun qo‘llanilishi, uning nimadan tayyorlanganligi, qanday qismlardan iboratligi, shakli, hajmi ko‘rsatiladi.

**Badiiy tasvirda** narsalarning hamma belgilari emas, balki muallif uchun muhim va aniq bo‘lganlarigina ko‘rsatiladi. Bunday tasvirda o‘quvchi o‘xshatish, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan, badiiy so‘z va iboralardan bimalol foydalana oladi. Tasviriy insho o‘quvchi tomonidan yaratilgan mustaqil kichik badiiy, ijodiy asardir.

Ona tili mashg‘ulotlarida hayotdagi narsalar, hayvonlar, voqea-hodisalar: insonning tashqi qiyofasi, tabiat manzarasi, ma’lum bir joyning (mas., sinfxona, darsxona va h.k.) tasviri yaratilishi mumkin.

**Hayotdagi alohida narsalarni tasvirlash.** Turmushdagi alohida narsalarni og‘zaki tasvirlash maktabgacha davrda shakllana boshlaydi. Bu muhim ish boshlang‘ich sinflarda ham amalga oshiriladi va ona tilining izchil kursini o‘rganish jarayonida davom ettiriladi.

O‘quvchilar ona tili mashg‘ulotlarida hayotdagi istagan bir narsani (masalan, kitob, kundalik, yozuv stoli, deraza, chizg‘ich, chinor, dastro‘mol) oddiy, ilmiy va badiiy tasvirini yaratishlari mumkin.

Narsalarning tasvirini yaratishda natyurmortlar, ularning asl shaklidan unumli foydalansa bo‘ladi.

**Hayvonlarning tasvirini yaratish.** Ma'lumki, o'quvchilar hayvonlarni juda yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun ular hayvonlar haqida fikr yuritishni, ular haqida og'zaki va yozma insholar yaratishga juda qiziqadilar.

Inshoning bu turi avvalo tasvirlanayotgan hayvon haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishni, uning qayerda yashashi, tuzilishi, rangi, harakatlari, nimalar bilan ovqatlanishi kabilarni bilishni talab etadi. Ayniqsa, o'quvchi o'zi ko'rgan, kuzatgan hayvonlarni tasvirlashni xush ko'radi.

**Bino tasviri.** Bino tasviri kuzatish asosida yaratiladi va uning oddiy, ilmiy va badiiy shakllari mavjud. Binoning oddiy tasviri axborot tarzida bo'lib, asosan, uning hajmi, yorug'lik darajasi, balandligi, uy jihozlari va ularning joylashtirilishi kabilarni ko'rsatiladi. Ilmiy tasvirda bu belgilar ilmiy nuqtayi nazardan o'z ifodasini topadi.

**Tabiat tasviri.** Ma'lumki, o'quvchilar 1-sinfidan boshlab «Atrofimizdagi tabiat» o'quv fanini o'rganadilar va tabiat tasvirini berishda qiynalmaydilar.

Ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarni tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytiribgina qolmay, balki shu haqda tasviriy matn yaratish mahoratlarini ham shakllantiradi.

Tabiat tasvirini yaratishda matn namunalaridan foydalanish mumkin. Chunonchi, mashhur so'z ustalari, yozuvchi va shoirlarning asarlaridan tabiat tasviriga oid o'rinlarni o'qib berish, matn namunalari ustida ishlash, ularning til xususiyatlarini tahlil qilish kabi ishlar o'quvchilarning shunday matnlar yaratishlariga keng yo'l ochib beradi.

Kuzatish tabiat tasvirini yaratishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'quvchi rahbarligida olib boriladigan kuzatishlar tasviriy insho uchun boy materialdir. Bundan tashqari, suhbat o'tkazish, tabiat tasviriga oid rasmlar, diafilmlar, kinofilmlar va diapozitivlardan foydalanish ham inshoning bu turi uchun boy material beradi.

Ona tili mashg'ulotlarida, ayniqsa, tabiatning badiiy tasvirini yaratishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bunday insholar badiiy nutq imkoniyatlaridan unumli foydalanishni talab etadi.

Tasvirning eng murakkab ko‘rinishlaridan biri insonning tashqi qiyofasini aks ettirishdir. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi ota-onasi, aka-ukalari, sinfdoshlari, tanish-bilishlari, o‘qigan badiiy asar, ko‘rgan kinofilmi qahramonlarining tashqi qiyofasini tasvirlashi mumkin.

Tashqi qiyofa tasviri ham tasviriy inshoning boshqa turlari kabi ilmiy va badiiy ko‘rinishlarga ega. Ilmiy tasvirda odamning yoshi, yuz tuzilishi, ko‘zi, qulog‘i, burni, sochining rangi, bo‘yi, gavdasi kabilar aniq faktlarga asoslangan holda ko‘rsatiladi. Badiiy tasvirda esa shubhasiz, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a kabi usullardan foydalaniladi.

Ona tili mashg‘ulotlarida portret tasviridan ham keng foydalansa bo‘ladi.

Harakat tasvirini yaratish ham inshoning muhim turlaridan biridir. Bunday insholar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan ish-harakatni bayon qilishni talab etadi. Shu jihati bilan bunday insholar hikoya janriga yaqin turadi. Ammo bu insholarda tasviriylik hikoyaga qaraganda ustundir.

Harakat tasviri ham inshoning boshqa turlari singari ilmiy va badiiy bo‘lishi mumkin. Ilmiy inshoda ko‘proq axborotdan foydalaniladi. Bunday insholarda maslahat, tavsiya, ta‘kid kabilar asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, «Mehnat darsida», «Suzishni qanday o‘rganish kerak», «Dars tayyorlashni o‘rgan», «Sog‘ bo‘lay desang» kabi mavzularda yoziladigan insholar ko‘proq axborot tarzida bo‘lib, muallif ta‘kid, maslahat, tavsiyadan unumli foydalanadi.

Badiiy insholarda ana shu harakatlarga badiiy bo‘yoq beriladi. O‘quvchi ba‘zan hikoya usulidan foydalanib, o‘zining ichki kechinmalarini ham, bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ham ifodalaydi.

Harakat tasvirining murakkabligini hisobga olib, avvalo ishni o‘quvchilarga tanish jarayonlarni tasvirlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Shubhasiz, 5–6-sinflarda o‘quvchilar dars tayyorlash, o‘yin, maktab atrofini ko‘kalamzorlashtirish, suzish kabi jarayonlarni tasvirlasalar, 7-, 8-, 9-sinflarda murakkab ishlab chiqarish jarayonini tasvirleydilar.

Harakat tasviriga oid insholarning muhim qismini reportajlar tashkil etadi. Biror kundalik voqea-hodisa, ishlarning borish tafsilotini dalillar, jonli tasvirlar

asosida yorituvchi kichik badiiy asar *reportaj* sanaladi. Unda voqea sodir bo'lgan joy, manzara, ishtirokchilar ko'rsatiladi.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni kichik reportajlar tayyorlashga o'rgatib borish lozim. Ular sport musobaqalari, xalq sayllari, bayramlardan olib boriladigan kichik reportajlar tayyorlashlari mumkin. Reportaj mavzusi bolalar tomonidan tanlansa, u yanada qiziqarli bo'ladi.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar shahar, qishloq, dala, sahro, cho'l kabi joy nomlarini yaratishlariga ham to'g'ri keladi. Har bir joy o'ziga xos tasvirni talab etadi. Masalan, shahar yoki qishloq tasviri haqida fikr yuritilar ekan, uning umumiy ko'rinishi, diqqatga sazovor joylari, xalqi, ularning urf-odatlari, sevimli mashg'ulotlari haqida fikr yuritiladi. Sahro haqida fikr yuritilganda ko'proq unda yashaydigan hayvonot va o'simliklar olami haqida to'xtalishga to'g'ri keladi.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning orzu-umidlari aks etgan insholardan ham foydalaniladi. «Agar men sehrGAR bo'lsam», «SinfDOShim Oybek 20 yildan so'ng», «Men maktabimizni kelajakda qanday tasavvur qilaman», «Men me'mor (o'qituvchi, shifokor) bo'lganimda...», «O'zbekiston XXI asr o'rtalarida», kabi mavzularda yoziladigan insholar o'quvchilarni ertangi kun haqida hayol surishga, o'ylashga majbur etadi.

Shunday qilib, tasviriy insholar ona tili mashg'ulotlarida keng tarqalgan insho turlaridan biri bo'lib, u o'quvchilar nutqini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilarning badiiy adabiyot ustida ishlashi, hayotni, turmushni, tevarakatrofni, odamlarni, hayvonot olamini doimiy ravishda sinchkovlik bilan kuzatishi, o'z taassurotlarini boyitib borishi ularning tasviriy insho yozishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

**Ona tili mashg'ulotlarida keng qo'llaniladigan insho turlaridan biri rivoya-insholardir.** Inshoning bu turi tasviriy inshodan shu bilan farq qiladiki, unda mazmunan bir-biriga bog'liq voqea-hodisalar haqida fikr yuritiladi. Shuning uchun bu insho kichik hikoya deb ham yuritiladi.

O'quvchilarning bu kichik nasriy janrga bo'lgan qiziqishini oshirish, uni tahlil qila olish mahoratini shakllantirish xuddi shunday hikoyalar yaratishga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni rivoya-insholar yozishga o'rgatish avvalo ularni shu nasriy janrning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishdan boshlanadi.

Hikoya kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etilgan nasriy asar sanaladi. U uch tarkibiy qismdan iborat: a) tugun; b) voqea-hodisaning rivojlangan nuqtasi; v) yechim.

**Tugun** bu harakat boshlanadigan hodisalarning rivojlanishiga turtki bo'ladigan voqeadir. **Voqea**-hodisaning rivojlangan nuqtasi ish-harakat va kurashning keskinlashgan, avj olgan o'rni sanaladi. **Yechimda** bayon qilinayotgan voqea-hodisa o'z xotimasiga yetadi.

O'quvchilarga hikoya yaratishni o'rgatishning muhim shartlaridan biri voqea-hodisani tanlashga o'rgatishdir. Ular ko'pincha hayotda juda ko'p voqea-hodisalarga duch kelsalar-da, ammo nimalar haqida yozish kerakligini bilmaydilar. Shuning uchun ko'proq o'quvchilar hayotidan olingan va rivoya-inshoga material bo'la oladigan voqea-hodisalar ustida ishlash maqsadga muvofiqdir. Shubhasiz, boshdan kechirilgan sarguzashtlar, eshitilgan, ko'rilgan, kuzatilgan voqea-hodisalar rivoya-insho uchun boy material bo'lib xizmat qiladi. Maktabda o'quvchilar yaratadigan hikoyalar tur jihatidan xilma-xildir. Ana shulardan biri **sarguzasht-hikoya** sanaladi. Boshdan kechirilgan voqealar asosida hikoya yaratish, ayniqsa, 5–6-sinflarda ko'p qo'llaniladi. Bu hikoyalarda har bir o'quvchi o'z boshidan kechirgan voqea-hodisalar haqida fikr yuritadi. Masalan, «Yozning issiq kunlarining birida», «Men ko'rgan voqea», «Ma'murjonga qanday qilib yordam berdim», «Yong'in bartaraf etildi» kabi mavzularda yoziladigan insholarda o'quvchilar ko'proq o'z sarguzashtlarini hikoya qilishlariga to'g'ri keladi.

Hikoya yozishning eng samarali usullaridan biri berilgan g'oya asosida hikoya yozishdir. O'qituvchi va o'quvchilar tomonidan o'rta tashlangan g'oya insho uchun asosiy material bo'ladi. Muallif (o'quvchi) berilgan g'oyani kengaytiradi, voqea ishtirokchilarini tanlaydi, unga badiiy sayqal beradi .

Xalq maqollari va hikmatli soʻzlari hikoya uchun yaxshi mavzu boʻla oladi. Ammo ularni hikoya mavzuiga singdirish uchun maʼlum bir voqea bilan bogʻlashni unutmaslik lozim.

Ona tili mashgʻulotlarida keng qoʻllaniladigan insho turlaridan yana biri **ertak-insholardir**. Maʼlumki, oʻquvchilar juda koʻp ertaklarni biladilar, ammo oʻzlari ertak yaratishga qiynaladilar. Bu ijodiy-amaliy ish turi bolalarning tasavvur olamini kengaytiradi: ularni gʻaroyib voqea-hodisalar ogʻushiga olib kiradi; ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantiradi. Shuning uchun oʻqituvchi ona tili mashgʻulotlarida ijodiy ishning bu turidan unumli foydalanish choralarini koʻrishi lozim.

Oʻquvchilarni ertak yaratishga oʻrgatish avvalo ularni bu janrning oʻziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bolalar ertakda voqeaning tuguni, rivojlangan nuqtasi va yechimi qanday boʻlishini bilishlari, uning til xususiyatlaridan xabardor boʻlishlari, mubolagʻa, oʻxshatish, jonlantirish, kichraytirish kabi tasviriy vositalarni oʻz oʻrnida qoʻllash malakalariga ega boʻlishlari kerak.

Boshlanish qismi berilgan ertaklarni davom ettirish, berilgan rasmlar asosida ertak yaratish, qahramonlar nutqi tushirib qoldirilgan oʻrinlarni toʻldirish kabi ishlar oʻquvchilarning ertak yaratish mahoratini kengaytiradi.

Inshoning yana bir muhim turi muhokama insholardir. Inshoning bu turi bolalardan qiyoslash, maʼlum bir voqea-hodisaga baho berish, oʻz nuqtayi nazarini himoya qilish, oʻzining haqligini isbotlash kabilarni talab etadi.

**Muhokama insho** ham maktab oʻquvchilarining nutqiy taraqqiyotida muhim oʻrin egallaydi. Bu insho ham ijodiy ishning oʻziga xos turi boʻlib, u bolalardan qiyoslashni, maʼlum bir voqea-hodisaga baho berishni, oʻz nuqtayi nazarini himoya qilishni, oʻzining haqligini isbotlashni talab etadi. Ijodiy ishning bu turi, ayniqsa, bugungi kunda oʻquvchini taʼlim jarayonining ijodiy fikrlovchi faol ishtirokchisiga aylantirish, bahs va munozaralar jarayonida oʻzining haqliligini qattiq turib himoya qilishga oʻrgatish masalasi koʻndalang boʻlib turgan bir sharoitda yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Muhokama insho uch tarkibiy qismdan iborat: a) oʻrtaga

tashlanayotgan asosiy fikrlar (kirish); b) fikrlardan to'g'risini dallilar bilan asoslash; v) xulosa chiqarish (xotima).

Muhokama insho induktiv yoki deduktiv usulda qurilgan bo'lishi mumkin. Induktiv usulda qurilgan insholarda avval ilgari surilayotgan fikrni asoslashga xizmat qiladigan dalillar, isbotlar keltirilib, so'ngra umumiy xulosa chiqariladi. Deduktiv usulda esa umumiy xulosadan xususiya, umumiyning bo'laklarini isbotlashga, dalil va asoslar keltirishga o'tiladi.

**Tavsifiy insholar** ham muhokama inshoning bir ko'rinishidir. Tavsifiy insholar o'quvchidan o'qigan badiiy asar, ko'rilgan kinofilm qahramonlari haqida shaxsiy fikr-mulohazasini bayon etishni talab etadi.

Muhokama inshoning yana bir turi munozara insholardir. Bunday insholarning mavzusi ham munozara shaklida bo'ladi. Masalan, «*Dilkash (Dilmurod, Nigina va h.k.) haqmi?*», «*Oybek (Sohib, Olim va h.k.) haqiqiy do'stmi?*» kabi mavzularda yoziladigan insholar shunday insholar bo'lib, o'quvchi qo'yilgan munozarali savolga shaxsiy munosabatini bildiradi va o'z nuqtayi nazarini asoslashga intiladi.

O'qituvchi insho mavzusini sinf o'quvchilarining hayotidan, ro'znoma va oynomalarda e'lon qilingan munozarali maqola va xabarlardan tanlashi mumkin.

Badiiy asar yoki kinofilimga *taqriz yozish* ham muhokama inshoning bir ko'rinishidir.

*Taqriz* turli maqsad va vazifalarni ko'zlaydi. O'quvchi taqriz orqali o'z shaxsiy fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashadi, tengqurlarining diqqatini shu badiiy asarga qaratadi. Boshqalarda shu badiiy asarni o'qishga qiziqish uyg'otadi, munozarali masalalarni o'rtaga qo'yadi, badiiy asarning qimmatiga baho beradi.

Muhokama inshoning muhim ko'rinishlaridan yana biri gazeta va jurnallar uchun adabiy-badiiy maqolalar tayyorlashdir. Bu maqolalarda o'quvchi dilidagi muammolarni o'rtaga tashlaydi, boshqalarni shu masalada munosabat bildirishga da'vat etadi.

Muhokama inshoning yuqorida sanab o'tilgan ko'rinishlari bolaning aqliy faoliyatini charxlashga, turmushda yaxshi bilan yomonning mohiyatini chuqur

anglashga, o'z fikri, qarashlari, munosabatlarini qattiq turib himoya qilishga o'rgatadi.

Shunday qilib, insho o'quvchining ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarashi, adabiy til me'yorlarini nutqiy sharoitlarda qo'llash imkoniyatlarini belgilovchi asosiy tarozi toshidir.

**Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarni ish qog'ozlaridan foydalanishga o'rgatish.** O'quvchilarni ish qog'ozlaridan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish hayotiy zaruriyatdir. Zero, «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonunining 7-moddasida: «O'zbekistonda muassasa, korxonalar, tashkilot birlashmalarda ish Respublika davlat tilida yuritiladi», deb qayd qilinadi.

Ish qog'ozlaridan foydalanishga o'rgatish til sathlarini o'qitish bilan chambarchas aloqadorlikda amalga oshiriladi. Ona tilining deyarli barcha bo'limlarini o'qitishda o'quvchilar hujjatlarning u yoki bu turi bilan tanishadilar, uni yozishni o'rganadilar. Chunonchi, «Fonetika» bo'limini o'rganishda *manzilgohni yozish, telegramma matni ustida ishlash, ariza yozish* kabilar ko'zda tutilgan bo'lsa, «Leksikologiya»da *e'lon, taklifnoma, dalolatnoma, tavsifnoma yozish*, «Morfologiya»da *tarjimayi hol, majlis bayoni, bildirishnoma, tilxat, ishonchnoma, ma'lumotnoma* kabilar ustida ishlash ko'zda tutiladi. «Sintaksis»ni o'rganishda esa o'quvchilar *buyruq, farmoyish, yo'riqnoma, shartnoma, hisobot* kabilar bilan tanishadilar.

Ona tili mashg'ulotlarida ish qog'ozlaridan foydalanishni samarali tashkil etish uchun avvalo shu hujjatning murakkablik darajasi hisobga olinadi. 5–6- sinflarda asosan, sodda hujjatlar (bir muammoni o'z ichiga olgan hujjatlar) ustida ish olib borilsa, keyinchalik murakkab hujjatlar (ikki va undan ortiq masalani o'z ichiga olgan hujjatlar) ustida ish olib boriladi.

Ayrim ish qog'ozlari hatto ikki bosqichda o'rganiladi. Birinchi bosqichda (5–6-sinflarda) ayni bir hujjatning sodda shakllari o'rganilsa, keyingi bosqichda (7–9-sinflarda) uning murakkab shakllari o'rganiladi. Masalan, ariza, ma'lumotnoma kabi ish qog'ozlarining ham sodda, ham murakkab ko'rinishlari mavjud. O'quvchilar

uning sodda ko‘rinishi bilan quyi sinflarda tanishsalar, murakkab ko‘rinishlari yuqori sinflarda o‘rganiladi.

Hujjatda fikrni bayon qilish shakli o‘ziga xosdir. Ularning ko‘pi (mas., ma’lumotnoma, dalolatnoma kabi) muayyan bir qolipga ega bo‘lib, erkin fikr yuritishni talab etmaydi. Lekin shunday hujjatlar ham borki, (mas., tarjimayi hol, qaror, shartnoma kabi) ularda ma’lum darajada erkin fikr yuritiladi.

Ish qog‘ozlari matniga bir qator talablar qo‘yiladi. Avvalo, hujjatlar matni boshqa ijodiy yozma ish matnlari singari imloviy, ishoraviy va uslubiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Hujjatlar matniga qo‘yiladigan muhim talablardan biri *xolislikdir*. Unda bayon qilinayotgan mazmunga o‘quvchi (muallif) hech qanday munosabat bildirmaydi, balki axborotni xolis aks ettiradi. Shuning uchun hujjatlar tilida so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Rasmiy ish uslubida kichraytirish, erkalash qo‘shimchalarini olgan so‘zlar, ko‘tarinki–tantanavor so‘zlar, iste‘mol doirasi chegaralangan so‘zlar, o‘xshatish, jonlantirish, mublag‘a singari badiiy tasvir vositalaridan foydalanilmaydi.

Shubhasiz, hujjat matni mazmunan aniq, ixcham, lo‘nda va to‘liq bo‘lishi shart.

O‘quvchilar hujjatlar matnida asosan, turg‘unlashgan, rasmiy qabul qilingan so‘z va so‘z birikmalari (masalan, *berildi, bajarilsin, tayinlansin, eshitildi, qaror qilindi, ko‘rib chiqildi, ko‘rsatib o‘tildi* kabilar) dan foydalanish lozimligini bilishlari kerak.

Ish qog‘ozlari asosan, uch qismdan iborat bo‘ladi: a) kirish; b) asosiy qism; v) yakun (xulosa).

O‘quvchilarni ish qog‘ozini yozishga o‘rgatish shu ish qog‘ozining mufassal rejasi bilan tanishtirishdan boshlanadi. Masalan: «**Tarjimayi hol**»ning mufassal rejasi quyidagicha:

Kirish: a) tarjimayi hol muallifining ismi, familiyasi, tug‘ilgan yili, oy va kuni, joyi va millati, oilasi; b) otasi va onasi haqida; v) aka-ukalari, opa-singillari haqida.

Asosiy qism: a) muallifning maktab yoshigacha bo‘lgan hayoti haqida; b) maktab hayoti haqida; v) hozirgi kundagi faoliyati haqida.

Yakun: a) ushbu tarjimayi holning nima sababdan yozilganligi; b) imzo, kun, oy, yil.

«Ariza» matnining mufassal rejasi esa quyidagilardan iborat:

Kirish: a) **kimga**—ariza yo‘naltirilgan shaxsning egallab turgan mansabi (lavozimi), daraja va unvonlari, ismi-sharifi, familiyasi; b) **kimdan**—ariza beruvchining mansabi (lavozimi), daraja va unvonlari, ismi-sharifi, familiyasi, istiqomat joyi.

Asosiy qism: a) arizani yozishga sabab bo‘lgan holatning qisqacha bayoni; b) ariza yozishdan maqsad; v) arizaga ilova qilinadigan hujjatlar.

Yakun: a) ariza beruvchining shaxsiy imzosi, ismi va familiyasi; b) ariza yozilgan (berilgan) kun, oy, yil.

Ariza matni, asosan, qo‘lda yoziladi va bu yozuv boshqalarga tushunarli bo‘lishi lozim. Ayni vaqtda arizaning kirish qismi asosiy qismi bilan aralashib ketmasligi, xat boshidan yozishga qat‘iy amal qilinishi imzo, ism-familiya hamda yil, kun, oy alohida-alohida ajratib ko‘rsatilishi kerak.

**O‘quvchilarni e‘lon yozishga o‘rgatish.** E‘lon o‘quvchilar faoliyatida ko‘p qo‘llaniladigan ish qog‘ozlaridan biridir. Ma‘lum bir xabar, buyruq, yangilik, farmonni ko‘pchilik yoki ayrim shaxslarga yetkazish maqsadida e‘londan foydalaniladi. Unda, albatta, e‘lon qilinayotgan tadbirning vaqti, o‘tkazilish joyi, nomi, uni tashkil etayotgan shaxs (muassasa, tashkilot va h.k.) qayd etiladi.

**O‘quvchilarni telegramma matni ustida ishlashga o‘rgatish.** Telegraf orqali yuboriladigan va olinadigan xabar yoki shunday xabar yozilgan qog‘oz telegramma sanaladi. O‘quvchilar faoliyatida ish qog‘ozining bu turiga ham juda katta ehtiyoj seziladi. Ayniqsa, maktab hayotida tabrik telegrammalaridan foydalanib turiladi. O‘quvchilar boshlang‘ich sinfdan boshlab ota-onasini, yaqinlarini, tanish-bilishlarini bayramlarda, tug‘ilgan kunlarda, ma‘lum g‘alabani qo‘lga kiritganda tabriklashga o‘rganmoqlari lozim. Telegramma matni ustida ishlash boshqa ish qog‘ozlari matni ustida ishlashdan farq qiladi. Avvalo, bu matn o‘zining ancha ixchamligi, qisqaligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Matnning bu shakli so‘zdan, ayniqsa, tejab- tergab, to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishni talab etadi.

Agar o'quvchi telegrammani boshqa shaharga jo'natayotgan bo'lsa, manzilgohda olti raqamli pochta indeksi qo'yilmasligi, faqat shahar aloqa bo'limining tartib raqami yozilishini bilishi kerak. O'quvchilarning telegramma matni ustida ishlashini otlarning ma'no guruhlarini o'rganilgandan keyin (6-sinf) tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**O'quvchilarni ma'lumotnoma yozishga o'rgatish.** Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish, u haqda axborot berish maqsadida ma'lumotnomalardan foydalaniladi. Ular xususiyati va mazmuniga ko'ra shaxsiy ma'lumotnomalar va xizmat ma'lumotnomalariga bo'linadi.

Maktab hayotida ko'proq shaxsiy ma'lumotnomalardan foydalaniladi. Bu ma'lumotnomalar ma'muriyatning o'quvchi shaxsi, uning qaysi sinfda o'qishi, o'qish faoliyatidagi ayrim voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir. Masalan, maktab ma'muriyatning o'quvchi shaxsi va uning qaysi sinfda o'qishini tasdiqlab, shahar bolalar kutubxonasi (yosh texniklar maskani, sport maktabi, musiqa maktabi va h.k.)ga beradigan ma'lumotnomasi kabi. Ayrim tarbiyasi og'ir bolalarning qilmishlarini tasdiqlab beriladigan ma'lumotnomalar ham shular jumlasidandir.

Ma'lumotnomalar bosma ish qog'ozlarida yoki (u bo'lmagan hollarda) oddiy qog'ozda qo'lda yozilishi ham mumkin. Agar u qo'lda yoziladigan bo'lsa, chap tomonida maktabning (tashkilotning) to'rtburchak shtampi, uning qarshisida esa o'ng tomonda «ma'lumotnoma» so'zi yozilishi shart.

O'quvchi yuqorida berilgan ma'lumotlardan tashqari ma'lumotnomada u olinayotgan joy (masalan, o'quv maskani)ning nomi, ma'lumotnomaning tartib raqami va berilgan sanasi, ma'lumotnoma berilayotgan shaxsning ismi, otasining ismi va familiyasi, axborotning mazmuni (tasdiqlanayotgan voqea yoki holat bayoni), uning maqsadi, mansabdor shaxs (masalan, maktab direktori)ning imzosi va familiyasi ko'rsatilishi lozim.

**O'quvchilarni tavsifnoma yozishga o'rgatish.** Tavsifnoma ma'lum bir shaxsning mehnati, ijtimoiy faoliyati, o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat sanaladi.

Ish qog'ozining bu muhim turi bilan o'quvchilarni «Sifat» so'z turkumini o'rganish jarayonida tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday matnlarda sifatlar ko'p qo'llaniladi. O'quvchi sinfdoshi (do'sti), tanish-bilishinig o'qish yoki mehnat faoliyatini, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettirar ekan, sifatlardan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini ham egallab boradi.

Sinfdoshiga yoki o'z tengqurlariga tavsifnoma yozish uchun o'quvchi tavsiflanayotgan shaxs haqidagi ma'lumot (ismi, otasining ismi va familiyasi, tug'ilgan yili, millati, sinfi, sinfda yoki maktabda bajaradigan jamoat topshirig'i), uning o'qish va ijtimoiy mehnat faoliyati, ishchanligi, axloqiy sifatlari, tashkilotchiligi kabilarni bilishi shart.

Tavsifnoma matnini o'zaro mantiqan bog'langan uch tarkibiy qismga ajratish mumkin:

1. Tavsiflanayotgan shaxs (o'quvchi)ning o'qish faoliyati (uning maktabda o'rganiladigan fanlarga munosabati, o'z bilimlarini oshirishi, o'zlashtirish darajasi, o'qishga mas'uliyati) haqida ma'lumot beriladi.

2. Tavsiflanayotgan shaxsning ijtimoiy faoliyati (xulq-atvori, jamoat ishlarida ishtiroki, sinfdoshlariga munosabati, oiladagi hayoti, darsdan keyingi bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi va h.k.) ko'rsatiladi.

3. Muallif (o'quvchi)ning bayon qilinganlardan xulosasi. Tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko'rsatiladi. Tavsifnomani zarur ma'lumotlar yig'ilgandan keyingina yozishga kirishsa bo'ladi.

O'quvchilarni tavsifnoma yozishga o'rgatish bir soatlik dars mashg'uloti bilangina amalga oshmaydi. Keyingi sinflarda bu malakalar takomillashtirilishi va to'ldirilishi lozim. 8-sinf o'quvchilari tavsifnomaning ancha murakkab shakli-shaxsning mehnat faoliyati to'g'risidagi tavsifnomalar bilan tanishtiriladi. Bunda o'quvchi tavsiflanayotgan ishchi (dehqon, fermer, bog'bon va h.k.)ning mutaxassisligi, aynan shu korxonada yoki xo'jalikda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, o'z mutaxassisligiga muvofiqlik darajasi, qo'lga kiritgan mehnat yutuqlari, shaxsiy xislat va fazilatlarini haqida fikr yuritiladi.

**O'quvchilarni tavsiyanoma yozishga o'rgatish.** Tavsiyanoma ham tavsifnoma singari o'quvchilar nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tavsiyanomalar ayrim jihatlari bilan tavsifnomalarga o'xshaydi. Ularning har ikkalasida ham shaxsning xususiyatlari: qiziqishi, layoqati, fikrlay olish darajasi, ishchanligi, o'z ustida mustaqil ishlay olishi kabilar o'z ifodasini topadi. Ammo tavsiyanomada shaxsning xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish bilan bir qatorda, uning ma'lum bir vazifani uddalashiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.

**O'quvchilarni taklifnoma yozishga o'rgatish.** Taklifnoma o'quvchilar faoliyatida keng qo'llaniladigan ish qog'ozlaridan biri bo'lib, undan muayyan shaxsni biror tantanali tadbirga taklif etish maqsadida foydalaniladi. Ish qog'ozining bu turi bilan o'quvchilarni 5-sinfda «Grammatika va leksikologiyadan dastlabki ma'lumotlar» bo'limini o'rganish jarayonida tanishtirish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi taklifnoma yozish uchun taklif qilinayotgan shaxsning, muassasaning nomi, qanday tadbirga taklif qilinayotganligi, tadbirni o'tkazish sanasi va vaqti, o'tkazilish joyi, tadbirni tashkil etuvchi muassasa nomi kabilarni bilishi shart.

**O'quvchilarni ishonchnoma yozishga o'rgatish.** Ishonchnoma ma'lum bir tashkilot yoki ayrim shaxslar nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga berilgan yozma ruxsatnomadir. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni ham shaxsiy, ham rasmiy ishonchnomalar yozishga o'rgatishga to'g'ri keladi. Bolalar shaxsiy ishonchnomalarda ishonch bildiruvchining ismi, otasining ismi va familiyasi, ishonchli shaxsning to'liq nomi, topshirilgan vazifalarni faol bajarishini aniq ko'rsatishni unutmasligi, ishonchnoma, albatta, ishonch bildiruvchi tomonidan imzolanishi, berilgan vaqti ko'rsatilishini o'qib olishlari lozim. Bu hujjatning yana bir muhim xususiyati unda ishonch bildiruvchi shaxsning imzosini tasdiqlagan shaxsning lavozimi qayd etilishi va imzolanishi, bu imzo esa yumaloq muhr bilan tasdiqlanib, uning sanasi ko'rsatilishini ham bolalar bilishlari kerak.

O'quvchilarni rasmiy ishonchnoma namunalari bilan ham tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday ishonchnomalardan ular kelajakda maktabni tugatgach, ishlab chiqarish jarayonida ko'p foydalanadilar. Bu hujjat, asosan, moddiy-buyum boyliklarini olishda qo'llaniladi. O'quvchilar unda, albatta, tashkilot

rahbari va bosh hisobchisining imzosi bo'lishi hamda bunday ishonchnomalardan shu muassasa yoki korxonada ishlaydigan kishilargina foydalana olishini bilishlari kerak. O'quvchilarni ishonchnoma matni bilan «Gapda bog'lanmagan (ajratilgan) bo'laklar» mavzusini o'rganish jarayonida tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday matnlarda ajratilgan bo'laklar ko'p qo'llaniladi.

**O'quvchilarni tilxat yozishga o'rgatish.** Tilxat ham eng ko'p qo'llaniladigan ish qog'ozlaridan biri bo'lib, u qarz yoki boshqa biror narsa olganlik yoki o'z zimmasiga olingan majburiyat va'da va hokazolar haqida javobgar shaxs tomonidan imzo chekib, tasdiqlab berilgan rasmiy hujjatdir. Unda, albatta, tilxat muallifining lavozimi va to'liq nomi, pul, hujjat va hokazo, narsani beruvchi shaxsning lavozimi va to'liq nomi hamda pul, hujjat, buyum va boshqa narsaning nomi, miqdori (bahosi) raqamlar bilan ko'rsatiladi. Biz «Son» so'z turkumini o'rganish jarayonida tilxat matni ustida ishlashni maqsadga muvofiq deb bilamiz. O'quvchilar berilgan raqamlar ishtirokida ham shunday matnlar yaratishlari mumkin.

**O'quvchilarni majlis bayonini yozishga o'rgatish.** O'quvchi turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishi, majlis qatnashchilarining chiqishlari, ular qabul qilgan qarorlarni maqsadga muvofiq ravishda aniq va to'g'ri ifodalash ko'nikma va malakalariga ega bo'lsagina amaliy faoliyatida undan bemalol foydalana oladi.

Boshqa ish qog'ozlari singari majlis bayoni ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. U kirish va asosiy qismdan iborat. Kirishda yig'ilish sanasi, shartli raqami, joyi, rais va kotibning familiyasi, qatnashgan va taklif qilingan kishilar (agar ular 15 kishidan oshmasa, familiyasi majlis bayonida yoziladi, oshgan taqdirda soni ko'rsatilib, familiyalari alohida varaqda ilova qilinadi), kun tartibi ko'rsatiladi. Asosiy qismda esa har bir masala yuzasidan berilgan qisqacha axborot, so'zga chiqqan kishilar (familiyasi, lavozimi ko'rsatiladi), muhokama qilinayotgan masala yuzasidan ularning bayon qilgan fikrlari, qabul qilingan qarorlar qayd etiladi.

O'quvchi kun tartibidagi har bir masalani xat boshidan yozish kerakligini, ularni bosh kelishikda ifodalash lozimligini, matnning «eshitildi», «so'zga

chiqdilar», «qaror qilindi» qismlaridan iborat ekanligini, har bir masala yuzasidan bu qismlarning takrorlanishini bilishi shart.

**O‘quvchilarni hisobot yozishga o‘rgatish.** Hisobot shaxsning muayyan vaqt ichida berilgan ishlar, vazifalar, topshiriqlarni bajariganligi to‘g‘risidagi o‘g‘zaki yoki yozma rasmiy axboroti hisoblanadi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni ish qog‘ozlarining bu muhim turiga o‘rgatish ular nutqining rivojlanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

Hisobot matni topshirilgan ish, vazifa, topshiriqning mazmuni, uni bajarishda nimalarga e‘tibor berilganligi, qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi, qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida belgilangan tadbirlar, taklif va mulohazalar kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi. Topshiriq bajarilmagan taqdirda uning sabablari ko‘rsatilishi kerak.

O‘quvchilar orasida maktab hayotiga oid hisobotlardan keng foydalanishga to‘g‘ri keladi. Ular sinf rahbari tomonidan berilgan vaqtincha topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan hisobot, ma‘lum bir tekshirish natijalari yuzasidan hisobot kabilar bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, ona tili darslarida ijodiy yozma matn ustida ishlash ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: 1. Til sathlarini o‘qitish orqali.

2. «Ijodiy yozma matn ustida ish», «Insho va uning turlari» bo‘limlarini o‘rgatish orqali.

Birinchi yo‘nalish o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan har bir mavzuni o‘rganish orqali amalga oshirilsa, ikkinchisi «Ijodiy yozma ish» tushunchasini sharhlash; rasm asosida hikoya, manzara tasvirini yaratish; o‘quvchi va borliq; yozma ishda o‘quvchi (muallif) o‘zligining namoyon bo‘lishi xususida ma‘lumot berish, mavzu tanlash, mavzuni yoritish uchun zarur material to‘plash, yozma ishga reja tuzish (tor reja, keng reja), yozma ishga epigraf tanlash, «xat boshi» tushunchasi, yozma ish matnini qayta ishlash, matn uslubi ustida ishlash, ishni oqqa ko‘chirish, tekshirilgan yozma ishning xatolari ustida ishlash va «Insho haqida ma‘lumot» berish, insho turlari (ilmiy insholar, badiiy insholar, erkin insholar) yuzasidan bir qator ijodiy-amaliy ishlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

## Savol va topshiriqlar

1. Nutq deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning ko‘rinishlari qaysilar?
3. Og‘zaki va yozma nutqning o‘xshash va farqli tomonlari ayting.
4. O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan talablarni aytib bering.
5. Nutq – mantiqiy fikrlash mahsuli ekanligini asoslang.
6. Ona tili mashg‘ulotlarida matn ustida ishlash jarayonida qanday ishlar olib boriladi?
  7. Matnlarning uslub jihatidan turlarini ayting.
  8. Matnning oliy ko‘rinishi sanalgan insho haqida gapiring.
  9. Pedagogik maqsadga ko‘ra insholar qanday turlarga bo‘linadi?
  10. Insholarning mavzu jihatidan turlari qaysilar?
  11. Tasviriy insholar haqida fikringizni ayting.
  12. O‘quvchilarni rivoya-insholar yozishga o‘rgatishda nimalarga e‘tibor beriladi?
  13. Muhokama insholarning o‘quvchilar uchun ahamiyati qanday?
  14. Ona tili darslarida o‘quvchilarni ish qog‘ozlaridan foydalanishga o‘rgatishda nimalarga e‘tibor beriladi?

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (5–9-sinflar). Toshkent, 2010. 10–41-b.
2. Uzviylashtirilgan o‘quv dasturini joriy etish bo‘yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar (5–9-sinflar). (Tuzuvchilar: M. Abduraimova, G. Ziyodullayeva), Toshkent, «Sharq», 2010.
3. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent, «Fan», 1988.
4. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz. Toshkent, «Fan», 1972.
5. Madayev O. Insho qanday yoziladi. Toshkent, «O‘qituvchi», 1991, 86 b.

6. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Aminov M. O‘zbek tilida ish yuritish (munshaot). Toshkent, 1990.
7. Muhiddinov A.G‘. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent, «O‘qituvchi», 1995.
8. Ne‘matov H., G‘ulomov A., Abduraimova M, Ijodiy matn ustida ishlash. Toshkent, RTMD, 1997.
9. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim o‘quv dasturi UO‘T DTS va o‘quv dasturi. «Ta‘lim taraqqiyoti» axborotnomasining 1-maxsus soni. «Sharq» nashriyot matbaa konserni, 1999, 55–140-b.
10. Sayfullayev A., Sayfullayeva R. Ona tili darslarida nutq o‘stirish(8-sinf materiallari asosida). Toshkent, 2002, 51 b.
11. Turdiyev B. Yozma nutqni o‘stirishdan praktikum. Toshkent, «O‘qituvchi»,1980.
12. To‘xtamirzayev M. Nutq o‘stirishda muloqotning roli. «Til va adabiyot ta‘limi», 1991, 9-son.
13. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari, Toshkent, «O‘qituvchi», 1993.
14. G‘ulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). Toshkent, «O‘qituvchi»,1995, 160 b.
15. G‘ulomov A., Qodirov M. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221 b.
16. G‘ulomov A., Qosimova N. Ijodiy ishlar nazariyasi. Buxoro, 2011, 188 b.

## **BESHINCHI BO'LIM**

### **DARSDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI**

#### **Tayanch tushunchalar:**

*Darsdan tashqari ishlar, doimiy va mavsumiy tadbirlar, to'garak mashg'ulotlari, savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, so'zlar olamiga sayohat, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, olimpiadalar, konferensiyalar, albom va devoriy gazeta chiqarish.*

Darsdan tashqari olib boriladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Uning ta'limiy ahamiyati shundaki, o'quvchi bu jarayonda qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tarbiyaviy ahamiyat esa nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish, nutq odobini tarbiyalash singarilarda o'z ifodasini topadi.

**Darsdan tashqari ishlarning turlari va mazmuni.** Darsdan tashqari ishlarni doimiy va mavsumiy tadbirlarga ajratish mumkin.

Doimiy tadbirlarga to'garak mashg'ulotlari kiritilsa, qolganlari vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbirlardir.

To'garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bo'lib, u o'quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko'radi. To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriy, ammo uning mashg'ulotlarida ishtirok etish majburiydir.

Ona tili to'garagining a'zolari 12–15 o'quvchidan oshmasligi lozim. Ular parallel sinflardan iborat bo'lsa, mashg'ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Agar maktabda parallel sinflar bo'lmasa, to'garak a'zolari bitta sinfdan iborat bo'lishi ham mumkin.

To'garak har xil nomlar bilan nomlanadi. Masalan, «Ona tilim – jonu dilim», «Til – dil kaliti», «O'zbek tili – davlat tili» va h.k.

O'quvchilar to'garakning maqsadi, vazifalari, yillik ish rejasi bilan tanishtiriladi.

Mashg'ulotlar 15 kunda bir marta o'tkazilgani ma'qul. To'garak ishini rejalashtirishda o'quvchilarning qiziqishlari inobatga olinadi.

Quyida to‘garak mashg‘ulotlaridan ikkitasini namuna sifatida keltiramiz:

### **5-sinflar uchun**

**Birinchi mashg‘ulot.** To‘garakka nom qo‘yish. O‘quvchilarni to‘garakning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish. «To‘garak bizga nima beradi?» mavzuida suhbat.

O‘quvchilardan til odobi, so‘zlash madaniyati xususida bilgan maqollarni so‘rash va mazmunini sharhlash.

**Topshiriqlar:** Til odobi va so‘zlash madaniyati xususidagi xalq maqollarini yig‘ish va ularning ma‘nolarini aniqlash.

To‘y-tomoshalarni ifodalovchi so‘zlar lug‘atini tuzish va ularning ma‘nolarini sharhlash.

**Ikkinchi mashg‘ulot.** O‘quvchilar bilan o‘rgangan xalq maqollari yuzasidan suhbat o‘tkazish.

To‘y-tomoshalarni ifodalovchi so‘zlarning ma‘nolari ustida ishlash. Bu so‘zlarning izohli lug‘atini tuzish.

**Topshiriqlar:** 1.To‘y-tomoshalarni ifodalovchi so‘zlarning izohli lug‘atini tuzishni davom ettirish.

2. Viloyat (tuman) aholisi nutqida uchraydigan kasb-hunarga oid so‘zlarni yozish.

To‘garak mashg‘uloti dars mashg‘ulotini takrorlamaydi, balki uni to‘ldiradi va takomillashtiradi. Dars tuzilishi va qurilishi jihatidan muayyan qoliplar asosida tashkil etilsa, to‘garak mashg‘ulotida bunday qat‘iylik bo‘lmaydi. O‘quvchi to‘garak mashg‘ulotida darsda olgan bilimlariga tayangan holda hayotiy tajribalarini ishga soladi. Krossvordlar tuzish va yechish, insho tanlovi o‘tkazish, ma‘lum bir she‘riy asar yoki hikoyaning til xususiyatlari ustida ishlash singari ishlar to‘garak mashg‘ulotlarining qiziqarli o‘qishini ta‘minlaydi.

Darsdan tashqari ishlar o‘quvchilarning ona tili faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning bo‘sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etish vositasidir.

Darsdan tashqari ishlarga savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, so'zlar olamiga sayohat, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, olimpiadalar, konferensiyalar, albom va devoriy gazeta chiqarish kabilarni kiritish mumkin.

Savol-javob kechasida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik 1–1,5 oy oldin boshlanadi. O'quvchilar maktabda tashkil etilgan qutiga o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Bu savollar mavzu jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Masalan, «O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi yozuvlari qanaqa bo'lgan?», «Yozuv qanday kelib chiqqan?», «Lotin alifbosiga o'tish bizga nima beradi?», «Ko'zi ojizlar qanday yozadi va o'qiydi?», «Az-Zamaxshariy kim bo'lgan?» kabi. Muayyan vaqt o'tgach, to'garak a'zolari savollarni yig'ib, ularga javob tayyorlaydilar va kechani tashkil etadilar.

Uchrashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unga ona tili darsliklarining mualliflari, mashhur tilshunos olimlar, hukumat mukofotiga sazovor bo'lgan ona tili o'qituvchilari taklif etilishi mumkin. Ayniqsa, shular orasida maktabning sobiq talabalari bo'lsa, ularni taklif etish juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'tkir zehnlilar mushoirasining mavzusi ham 1–1,5 oy oldin e'lon qilinadi. Bellashadigan guruhlar o'zlariga sardor belgilaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir guruh mustaqil tayyorgarlik ko'radi.

Mushoira odatda guruhlarining o'zaro tabrigi bilan boshlanadi. Asosiy qism savol-javobdan iborat. Savollar o'qituvchi yoki bellashayotgan guruhlar tomonidan tuzilishi mumkin.

Hakamlar tabrik so'zi va har bir savol-javobga tegishli ball qo'yishadi hamda ular e'lon qilib boriladi.

Mushoira ona tilining muayyan bir bo'limi yoki bir necha kichik mavzularni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, «Orfografiya», «To'g'ri talaffuz me'yorlari», «So'zning shakl va ma'no munosabatlari», «So'zlarning o'zaro birikishi», «Sodda gap turlari», «Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro birikish usullari» kabi.

**Soʻzlar olamiga sayohat.** Bu tadbir oʻquvchilarning soʻz zaxirasini oshirishga qaratilgan tadbirdir. Oʻquvchilar darsdan keyingi boʻsh vaqtlarida soʻzlarning etimologiyasi, ularning leksik maʼnosi olamiga sayohat qilishadi.

Tilimizdagi soʻzlar juda katta xazina boʻlganligi sababli, oʻqituvchi qaysi uyadagi soʻzlar (har bir tadbirda taxminan 50–60 soʻz) yuzasidan oʻquvchilarning tayyorgarlik koʻrishlari lozimligini 10–15 kun oldin maʼlum qiladi va qanday manbalardan foydalanish lozimligini uqtiradi.

**Koʻrik-tanlovlar** ham sinfdan tashqari ishlarning muhim turlaridan biridir. Bu tadbir vaqt-vaqti bilan oʻtkaziladigan tadbir boʻlib, uni tashkil etishda oʻquvchilarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Chunonchi, agar boshlangʻich sinflarda «Kimning xati chiroyli?», «Matn mazmunini kim tez va toʻgʻri tushunadi?» kabi mavzular tanlansa, 5–6-sinflarda «Namunali mashq daftari», «Badiiy (yoki ilmiy) mavzuda yozilgan eng yaxshi insho», «Eng yaxshi yozilgan maqola» singarilar tanlanishi mumkin. 8–9-sinflarda esa erkin mavzuda yozilgan insholar, ramziy insholar boʻyicha shunday tanlovlar oʻtkazilsa boʻladi.

**Olimpiadalar** ham sinfdan tashqari ishlarning bir turi boʻlib, unga ishtirok etish ixtiyoriydir. Bu tadbirga kuch sinashishni ixtiyor etgan barcha oʻquvchilar ishtirok etishlari mumkin. Olimpiada gʻoliblari maktab maʼmuriyatining buyrugʻi bilan ragʻbatlantiriladi.

Ona tili olimpiadalari yilda bir marta oʻtkaziladigan tadbirdir. Bu tadbirning birinchi bosqichi maktabda, ikkinchi bosqichi tuman (shahar)da, uchinchi bosqichi viloyatda va toʻrtinchi bosqichi Respublikada oʻtkaziladi.

**Konferensiyalar** ancha murakkab tadbirlardan biri boʻlib, u asosan, 8–9- va undan keyingi sinflarda oʻtkaziladi. Bunda ham asosiy bosh mavzu oldindan oʻquvchilarga maʼlum qilinadi; bu bosh mavzu kichik mavzularga ajratilib, uning har biri boʻyicha kimlar tayyorgarlik koʻrishi lozimligi belgilanadi. Bitta mavzu boʻyicha 3–4 nafar oʻquvchi tayyorgarlik koʻrgan boʻlsa, ulardan biri asosiy maʼruzachi, qolganlari qoʻshimcha maʼruzachilar sifatida ishtirok etadilar.

Darsdan tashqari ishlarning yuqorida tilga olingan barcha shakllarini tashkil etishda toʻgarak aʼzolari faol ishtirok etadilar.

Xullas, darsdan va maktabdan tashqari tadbirlar alohida-alohida tadbirlar sanalsa-da, ammo ular o‘zaro bog‘langan, biri ikkinchisini to‘ldiradigan tadbirlardir. To‘garak mashg‘ulotlari va darsdan tashqari ishlarning barcha turlaridan unumli foydalanilgan taqdirdagina ona tili ta‘limining samaradorligiga umid bog‘lash mumkin.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Darsdan tashqari ishlar deganda nimani tushunasiz?
2. Darsdan tashqari olib boriladigan ishlar qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?
3. Darsdan tashqari ishlarning turlari haqida gapiring.
4. Fan to‘garaklari qanday tashkil qilinadi va unga qatnashish majburiymi?
5. To‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha o‘zingiz to‘garak mashg‘uloti namunasini tayyorlang.
6. Uchrashuvlar qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unga qanday tayyorgarlik ko‘riladi?

### **Mavzu bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Abdurahmonov X., Ikromova R. Qiziqarli grammatika. Toshkent, «O‘qituvchi», 1974.
2. Ne‘matov H., G‘ulomov A., Abdurahimova M. Qobilova B. 5-sinfda «Ona tili» sinov darsligi bilan ishlaydigan o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar. Toshkent, 1997.
3. Qo‘chqorov A. «So‘z tarkibi» grammatik kompozitsiyasi. «Til va adabiyot ta‘limi», 1992, 1-son, 28–31-b.
4. Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi. «Til va adabiyot ta‘limi» jurnali, 1992, 1-son, 28–31-b.
5. Jalilova M, Ne‘matova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini «Topqirlar bellashuvi» tarzida o‘tkazish. «Til va adabiyot ta‘limi» jurnali, 1994, 2–3- qo‘shma son, 36–37-b.

6. G'ulomov A., Qodirov M. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221 b.

FOR AUTHOR USE ONLY

## MUNDARIJA

### BIRINCHI BO'LIM

|                                                                                             |          |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>O'ZBEK TILINI O'QITISHNING UMUMIY ASOSLARI.....</b>                                      | <b>3</b> |
| ONA TILI TA'LIMI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ME'YORIY ASOSLARI.....                | 3        |
| O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI MUSTAQIL .....                                              | 10       |
| FAN SIFATIDA .....                                                                          | 10       |
| MAKTAB TIZIMIDA ONA TILI FANINING TUTGAN O'RNI, UNI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI ..... | 41       |
| O'ZBEK TILINI O'QITISH TAMOYILLARI (PRINSIPLARI) .....                                      | 59       |
| O'ZBEK TILINI O'QITISH METODLARI TASNIFI, TURLARI VA MAZMUNI..                              | 79       |
| O'ZBEK TILINI O'QITISH METODLARI .....                                                      | 79       |
| O'ZBEK TILI DARSLARINING TIPLARI.....                                                       | 97       |
| ONA TILI DARSLARINING NOAN'ANAVIY SHAKLLARI.....                                            | 117      |
| TIL TA'LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR .....                                    | 129      |
| PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA BIR SOATLIK DARS ISHLANMASINING TUZILISHI .....               | 143      |
| ONA TILI TA'LIMI VOSITALARI.....                                                            | 152      |
| UZLUKSIZ TA'LIMNING ONA TILI FANIDAN DARSLIKLARNING TUZILISHI VA MAZMUNI.....               | 152      |

### IKKINCHI BO'LIM

|                                                       |            |
|-------------------------------------------------------|------------|
| <b>ONA TILI BO'LIMLARINI O'QITISH METODIKASI.....</b> | <b>171</b> |
| «MUQADDIMA» BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI.....        | 171        |
| «FONETIKA» BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI.....         | 175        |
| «LEKSIKOLOGIYA» BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI.....    | 186        |

### UCHINCHI BO'LIM.

|                                               |            |
|-----------------------------------------------|------------|
| <b>MORFOLOGIYANI O'QITISH METODIKASI.....</b> | <b>204</b> |
| GRAMMATIK TAHLIL METODIKASI .....             | 263        |
| MORFOLOGIK TAHLIL.....                        | 265        |
| SO'Z TARKIBI BO'YICHA TAHLIL.....             | 266        |
| SO'Z TURKUMLARI BO'YICHA TAHLIL .....         | 270        |

|                                                                                  |            |
|----------------------------------------------------------------------------------|------------|
| SO‘ZLARNING ALOQA-MUNOSABAT SHAKLLARINI O‘QITISH<br>METODIKASI.....              | 284        |
| «SINTAKSIS» BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI .....                                  | 292        |
| SINTAKTIK TAHLIL .....                                                           | 315        |
| GAP BO‘LAKLARINI ANIQLASH METODI .....                                           | 320        |
| QO‘SHMA GAP BO‘YICHA SINTAKTIK TAHLIL .....                                      | 326        |
| TAHLILDA SODDA GAP VA QO‘SHMA GAPLARNI FARQLASH VA IZOHLASH<br>.....             | 327        |
| TAHLILDA QO‘SHMA GAPNING TURLARINI ANIQLASH VA IZOHLASH<br>.....                 | 329        |
| <b>TO‘RTINCHI BO‘LIM.....</b>                                                    | <b>333</b> |
| O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI, YOZMA VA BOG‘LANISHLI NUTQINI<br>O‘STIRISH MAZMUNI..... | 333        |
| <b>BESHINCHI BO‘LIM.....</b>                                                     | <b>370</b> |
| DARSDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI .....                        | 370        |

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**More  
Books!**



yes  
**I want morebooks!**

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**



[info@omniscryptum.com](mailto:info@omniscryptum.com)  
[www.omniscryptum.com](http://www.omniscryptum.com)

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY